Prezidentimiz maktablarIda o‘quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko‘rib chiqish, o‘quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta’kidladi. Bu borada Finlyandiya tajribasi misol qilib keltirildi. Ushbu mamlakat umumiy savodxonlik, tabiiy fanlar va matematika bo‘yicha dunyoda eng ilg‘orlardan biri. Shuningdek mamlakatimizning umumta’lim maktablari DTS va Milliy o‘quv dasturi, namunaviy o‘quv rejalarida asosan tabiat va jamiyat o‘rtasidagi bog’liqliklarni uyg’unlashtirish, atrof muhitga mas’ullik munosabatlarini shakllantirishda fanlar integratsiyasi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.” Xususan, boshlang’ich sinflarda darslarni chuqur o‘zlashtirishga, vaqtdan unumli foydalanishga, dars sifati va samaradorligini oshirishga fanlarni integratsiyalash orqali erishish mumkin.

Nutq esa kishi faoliyatining tilvositalari (so‘z, so‘zbirikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o‘zaro aloqa va xabar, o‘z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta’sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O‘quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olish qurolidir. O‘quvchi nutqining muhim ko‘rsatkichlaridan biri uning so‘z boyligidir.

Pedagogik adabiyotlarda berilgan ilmiy ma’lumotlarga qaraganda, 2 yoshli bolalar 30 dan 100 gacha, 4 yoshli bolalar 1000 dan 4000 gacha, 7 yoshli bolalar 3000 dan 7000 gacha, 10-11 yoshli bolalar 8000 dan 15000 gacha, 14-15 yoshdagilar 11000 dan 18000 gacha so‘zni bilishlari lozim. Ammo, afsuski, ona tili mashg‘ulotlarida fikrni og‘zaki va yozma shaklda bayon qilish zaruriyati tug‘ilganda o‘quvchilardagi so‘z qashshoqligi darrov sezilib qoladi. Nutqda so‘zlarni takroriy qo‘llash, berilgan so‘zni uning ma’nodoshi, uyadoshi va qarama-qarshi ma’noligi bilan almashtira olmaslik, ma’lum bir sohaga qarashli so‘zlar lug‘atini tuzishda uchraydigan qiyinchiliklar, shubhasiz, o‘quvchilarning so‘z boyligi yetarli emasligidan dalolat beradi. Nutq o‘stirish nima? Agar o‘quvchi va uning tilidan bajargan ishlari ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda tilni har tomonlama faol amaliy o‘zlashtirish tushuniladi (2;2-bet).

Agar o‘qituvchi ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda, o‘quvchilarning tilning talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishi va bog‘lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo‘llash tushuniladi.

Kompetensiya esa u yoki bu soha bo‘yicha bilimdonlikdir.Kompetensiya-( lot.”compete” - erishyapman, munosibman, loyiqman) – fan bo‘yicha egallagan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni echishda foydalanib, amaliyotda qo‘llay olishdir.

Kompetensiya - bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. Nutqiy kompetensiya esa til ta’limining quydagi to‘rt kompetentini rivojlantirishni nazarda tutadi.

1- Tinglab tushunish (eshitilgan va eshittirilgan nutqni, tinglangan matndagi asosiy axbarotni, dolzarb mavzulardagi radio va teledasturlarni tushunish)

2- Gapirish ( monologik, dialogik og’zaki nutq turlarida o‘z shaxsiy qarashlari va fikrlarini bildirish, mavzu doirasida taqdimot qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish)

3- O‘qish: mavzuga oid materiallarni adabiy-badiiy matnlarni, ommabop materiallarni (gazeta, hikoya,shaxsiy va elektron xatlarni) o‘qish.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

4- Yozish (diktant, bayon, insho yoza olish, ijodiy matnlar tuza olish, rasmiy ish qog'ozlarini yurishishni bilish)

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari u yoki bu fanlarni o'rganib, shu bilan ko'nikmalarni boshqa fanlarni o'rganishni qo'llashga qiynalib ularga mustaqil fikrlashni, olingan bilimlarga o'xshash yoki yangi vaziyatlarga ko'chira bilish ko'nikmalari etishmayapti.Bularning hammasi boshlang'ich sinflardagi turli fanlar bo'yicha mashg'ulotlarning o'zaro kelishmovchiligi sodir bo'lmoqda va bu holda integratsiya bir fan bo'yicha bilimlarni ikkinchisiga ko'chirish va faoliyatning zamonaviy fanlar integratsiyasi yo'nalishlari aks etuvchi yangi didaktikalarni yaratish jarayoniga asos bo'ladi.(3;36-bet )Masalan, ona tili darslarida og'zaki va yozma tarzda har bir mavzu to'qrisida ma'lumotlar beriladi. Birinchi sinf darajasiga mos matnlarda voqea-hodisa, shaxs narsa yoki joy haqidagi ma'lumotlar so'zlovchi tomonidan ochiq ifodalanganda savollarga javob bera oladi. Sinf darajasiga mos badiiy va informatik, integratsiya qilingan matnni tinglash jarayonida voqea-hodisa sodir bo'layotgan makon hamda zamon haqida taxmin qila oladi, taxminlarni asoslab bera oladi. Masalan, o'yin texnalogiyalari, ular o'quvchilarni o'qitishda qiziqishni oshirish,muloqotni rivojlantirish va bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Quyidagi mashqda ham integrativ yondashuv asosida tashkillashtirilsa, topshiriq bajarilsa, o'quvchilarning nutqiy rivojlanishiga o'z ta'siri o'tkazishi mumkin.

2-mashqda: Nima uchun ajratib ko'rsatilgan so'zlar bosh harf bilan yozilgan?

Men yozni buvimnikida - To'raqo'rg'on qishlog'ida o'tkazdim.Har kuni Kosonsoy daryosida cho'mildim. Amakim Chortoq qishlog'ida yashaydi. Biz qishki ta'tilni Farg'ona viloyatining Rishton tumanida o'tkazdik. U erdan So'x daryosi va Jonobod kanali oqib o'tadi. Bunda o'qituvchi so'zlarning bosh harflar bilan yozilganligini, nega shunday yozilishini qanday ma'noda anglashilayotganligini tushuntirishi kerak. Natijada o'quvchilar mashqlarni va matndagi so'zlarni ifodali o'qishadi, yoddan ham aytishadi va o'qituvchi tomonidan berilgan savolga javob ham berishadi (4;27-bet).

2-sinfdan o'quvchilarning nutqini o'stirishda integrativ yondashib quyidagi kabi metodik topshiriqlarni qo'llashimiz mumkin.

"O'zaro bog'liqlik". O'quvchilarga rasmli kartochkalar tarqatiladi. Ular kartochkalar bilan tanishib chiqqach, o'quvchi rasmdagi predmet haqida gapirib, og'zaki hikoya tuzib beradilar.

Masalan: "Bu olma. Olma bog'da o'sadi va mevalarga kiradi. Uni o'quvchilar juda yaxshi ko'rishadi". Keyin ikkinchi bola ham o'zidagi predmet haqida gapiradi matn tuzadi va o'zidagi predmet bilan birinchi o'quvchidagi predmetni o'zaro bog'liqligini aytishi kerak.

Masalan: "Bu quyosh. Quyosh chiqsa havo isiydi. Uni o'quvchilar yaxshi ko'rishadi. Quyosh isitib tursa, olma va boshqa mevalar pishadi". Keyin uchinchi o'quvchi o'zidagi predmet haqida gapiradi va ikkinchi boladagi predmet bilan o'zidagi predmet orasidagi bog'liqlikni topishi kerak. O'yin shu tartibda davom etadi.

"Umumiylikni izlash". O'quvchilar aylana qurib o'tiradilar. Olib boruvchi o'quvchilardan biriga to'pni otayotib, bir-biri bilan bog'lanmagan ikkita so'zni aytadi. Masalan: maktab va o'quvchi, kitob va javon, quyosh va gul.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

To‘pni tutib olgan o‘quvchi so‘z juftligi orasidan umumiy belgini aytib,nafaqat bu so‘zlarni ona tili darsida balki tabiiy fanda ham borligini, qanday ko‘rinishga ega ekanligini aytib ma’lumot berib to‘pni qaytaradi.

“Safar”. O‘quvchilarga maktabdan yoki uylaridan ma’lum bir joygacha bo‘lgan yo‘lini tasvirlash topshirig‘i beriladi. O‘quvchilar bir necha kun davomida “obekt”ni mustaqil kuzatadilar va uni og‘zaki tasvirlab beradilar. Sinchkovlik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, atrof-muhitga diqqat-e’tibor talab etiladigan bu o‘yin vositasida Vatanni sevish, tabiatga muhabbat, chor-atrofga e’tiborli bo‘lish hislarini tarbiyalash mumkin. Bundan tashqari, mazkur o‘yinlardan foydalanganda o‘quvchilarning nutqi rivojlanadi, lug‘at boyligi yanada ortadi, mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi.

Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilar ongli,turli va bir me’yorda bo‘g‘inlab o‘qish malakasini egallaydilar. Ayrim nutq tovushlarining talaffuzidagi qiyinchiliklar bartaraf etiladi. O‘quvchilar o‘qigan matnlarning mazmunini o‘qituvchining yordamchi savollari asosida hamda kichik hajmdagi matn mazmunini unga ishlangan rasmdan foydalanib so‘zlab berishga o‘rganib boradilar.

O‘quvchining maktabda yaxshi o‘qishida muhim omillardan biri bo‘lib hisoblangan-nutqni o‘stirish, o‘qish va savodga tayyorgarlik jarayoni qiziqarli usullar, voqeaband rasmlar, jonli suhbatlar, mantiqiy o‘yinlar orqali tavsiya etilgan.

Mantiqiy o‘yinlar - o‘quvchining nutqini shakllantirishda jumlalarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzishlarida, nutq tovushlarini aniq eshitib, to‘g‘ri talaffuz etishda bosma harflarni o‘zlashtirib, so‘zlarni bo‘g‘inlab o‘qishga o‘rgatadi. Darslikdagi ertak yoki hikoyalarni ifodali tarzda o‘qib bo‘lgach, birgalikda asar voqealarini muhokama qilib qahramonlar xatti-harakatlariga yaxshi va yomon tomonlarga baho berishga undash kerak. Bolaga ertak (hikoya) ni qayta hikoya qilishni taklif etish ham samarali usullardan biri. Qayta hikoya qilayotganda voqealarni batafsil ravon so‘zlashga, savollarga aniq, to‘liq javob berishga alohida e’tibor berish kerak. Bolaga noto‘g‘ri aytgan joylarda, xotirasidan chiqqanida tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etmaganda asta-sekinlik bilan unga ko‘maklashib boriladi. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarining o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma kitobidan to‘g‘ri foydalanish ham o‘quvchilar nutqini o‘stirishda yaxshi natija beradi. O‘quvchilar nutqini o‘stirishda surat bo‘yicha so‘zlab, hikoya tuzish, birgalikda she’r o‘qish mashg‘ulotlari ham keltirilgan.

Boshlangich talim maktablarida bolalarni har tomonlama rivojlantirishga oid tadqiqotlar ozbekistonlik pedagog, psixolog va faylasuflar: Oquvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlash texnologiyasi X.Yusupova, nutqning shakllanishi va sozni egallashning ilk bosqichi muommosi H.Saidraximova, M.Qurbonov, G.Goziyev ishlarida, G.Abdurahmonov, S.Ziyayev, S.Narziqulova, S.Umarovlar oz ishlarida muloqot tasirchanligida testlardan foydalanishning keng imkoniyatlari atroflicha tadqiq qilingan. Boshlangich sinf ona tili darslarini tashkil etishni takomillashtirish masalalari U.Masharipova, savod orgatish masalalari A.Gulomov, K.Qosimova, S.Matjonov, SH.Sariyev, Q.Abdullayevalar tomonidan tadqiq qilingan. Bola nutqini rivojlantirishning ahamiyati, nutqni muloqot usuli sifatida, uning kommunikativ funksiyasini rivojlantirish haqida turli mualliflarning koplab asarlarida (A.A.Badalev, A.A.Buyeva, S.Vigotskiy, A.A.Leontev, M.I.Lisina va boshq.) tomonidan organilgan. Darslikning tuzuvchilari Iroda

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sadullo Quronov, Shokir Tursunovlar tomonidan oquvchilar nutqini ostirish boyicha topshiriqlar ham ishlab chiqilgan.

Birinchi sinf oquvchilari nutqini ostirishda, shakllantirishda olingan malumotlardan quyidagi hollarda foydalanish mumkin:

-oziga ozi real ,obektiv baho berishi;

-oquv materiallarining yosh xususiyatlariga mosligi, amaliy tatbiq qilish vositalari, amaliy materiallarni maktab talim tizimiga keng kolamda joriy qilish imkoniyatini beradi;

-ogzaki va yozma nutq shakllarining yuksalishida matn ustida ishlashning afzalliklari haqida zaruriy xulosalar chiqariladi;

-birinchi sinf oquvchilar uchun oquv va uslubiy qollanmalar yaratishda samarali foydalanish mumkin;

-tajriba-sinov natijalari asosida birinchi sinf oqituvchilari uchun ona tili va oqish savodxonligi darslarini oqitishni samarali tashkil etish bo`yicha darslar ishlanmasini ishlab chiqiladi. Birinchi sinf ona tili va oqish savodxonligi darslarida oquvchilar nutqini ostirish usullari mazmuni asosida oquvchilarning ozlashtirish darajasini aniqlash maqsadida oquv muassasasi Shorchi tumani 20-sonli umumiy orta talim, Jarqorgon tumani 36-sonli umumiy orta talim maktabi hamda Qumqorgon tumani 86-sonli umumiy orta talim maktablari tanlab olindi.

Notiqlik va nutqqa doir tushunchalarni qanchalik bilishi haqida suhbar asosida savollar berildi. Bu oquv muassasasida birinchi sinf ona tili va oqish savodxonligi darslarida oquvchilar nutqini ostirish usullari boyicha boshlangich bilimlari yetarli emasligi va ularni bilim darajasi deyarli bir xil ekanligi aniqlandi. Bu bosqichda oqitish texnologiyasining zamonaviy usullaridan foydalangan holda oqitishni tashkil etish, yaratilgan metodik ishlanmalarni oquvchilarga samarali yetkazib berish kerakligi maqsad qilib qoyildi. Bu maqsadga erishish yolida 5 ta dars ishlanmalari ishlab chiqildi. Shundan song tajriba sinov ishlarini otkazish maqsadida maktablar tanlab olindi. Ularning biri tajriba guruhi, ikkinchisi nazorat guruhi sifatida qarab chiqildi.Ona tili darslarida faqat standart topshiriqlar bilan chegaralanib qolmay, balki nostandart topshiriqlardan ham unumli foydalanishga koproq zarurat sezilmoqda. Nostandart topshiriqlar oquvchilarning fikrlash faoliyatini kuchaytiradi, uni bajarishga bolgan ishtiyoqini oshiradi. Bu esa faollikni taminlashning muhim omilidir.

Dars jarayonida olib boriladigan oyinlarning qiziqarli va mavzuga oid bolishi oquvchilarning darsda faol ishtirok etishiga olib keladi. Ona tili darslari mazmunini takomillashtirish va uni oquvchilarning oquv-biluv faoliyatini faollashtiradigan muhim manbaga aylantirish choralaridan yana biri fan ichidagi fan va fanlararo boglanish imkoniyatlarini kengroq ishga solishdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tengdoshlari va kattalar bilan suhbat hamda muhokama jarayonida muloqot odobiga, suhbat yoki muhokama jarayonida boshqalarning fikriga munosabat bildira oladi. Bu yoshdagi o'quvchilarga she'riy topishmoqlarni tez aytish kabi nutqlarini rivojlantira oladigan topshiriqlarni zamonaviy metodlardan foydalangan holda integratsional yondashilib olib borilsa,o'quvchilarning nutqi jarangdor va tiniq bo'lib boradi.O''quvchi nutqini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, unga monelik qilayotgan omillar ham faqat ta'lim mazmuni yoki o'qituvchigagina bog'liq emas. Integrativ yondashilsagina fikrni og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatish jarayoni oson kechadi. O'quvchi nutqini

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

rivojlantirishga keng yo‘l ochadi. O‘quvchilar bir xillikdan zerikadi. Shuning uchun ularni nutqini o‘stirishda doimo har xil metod va o‘yinlardan foydalanish lozim.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mamatraimova Dilshoda . FORMATION OF SPEAKING LITERACY IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Journal of Educational discoveries and Lifelong Learning. Volume 4, Issue 11, Nov., 2023
2. Norbo‘tayev X.B. Boshlang’ich sinflarda integratsiyalashgan ta’lim”. – T.:Innovatsiya-Ziyo, 2023. 36-bet.
3. Mamatraimova Dilshoda chorshanbiyevna.(2025) METHODS OF DEVELOPING THE SPEECH OF PRIMARY STUDENTS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH.Journal of Innovation in Pedagogy and Educational Advancement .https://brightmindpublishing.com/index.php/ev/article/view/1645/1673.
4. Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna.(2025) METHODOLOGY FOR THE FORMATION OF SPEECH COMPETENCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH.World Bulletin of education and Learning (WBEL). https://worldbulletin.org/index.php/1/article/view/99/97.
5. Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna (2025) BOSHLANG’ICH SINF O‘QUVCHILARI NUTQINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O‘STIRISH USULLARI .Qurilish va ta’lim ilmiy jurnali.4-jild. 3-son.(78-81-betlar).
6. Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna.(2025) BOSHLANG’ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING NUTQINI O‘STIRISH USULLARI.Uzluksiz ta’lim tizimida, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida kasbiy pedagogic mahorat mexanizmlarini takomillashtirish: muammolar,yechimlar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.(210-213-betlar).
7. Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna.(2025) INTEGRATIV USULDA O‘QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI.INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION International scientific-online conference.(93-96-betlar).

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАТСІЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna**, o‘qituvchi, **[Маматраимова Дилшода Чоршанбиевна,** преподаватель], **[Mamatraimova Ch. Dilshoda**, teacher]; manzil: O‘zbekiston, Surxondaryo viloyati, Termiz tumani, Yangiobod MFY At-Termiziy ko‘chasi 1 A uy [адрес: Узбекистан, Сурхандарьинская область, Термез, ул. Ат-Термизий, 1], [address: Uzbekistan, Surkhandarya region, Termiz, street At-Termiziy, 1]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# STEAM VA AN'ANAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTRISH

© O'.S. Qulmuminov[1]✉, X. Panjiyeva[2]✉
[1, 2]Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz, O'zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish ularning kognitiv, emotsional va ijtimoiy qobiliyatlarining yaxlit shakllanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogikada STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi fanlararo integratsiya va loyihaviy faoliyat orqali ijodkorlikni rag'batlantirishning innovatsion yo'nalishi sifatida keng qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, an'anaviy yondashuvlar (ijodiy topshiriqlar, rassomlik, hikoya tuzish, o'yinli mashg'ulotlar) ham ijodiy fikrlashni rivojlantirishda o'z samarasini ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada STEAM va an'anaviy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samarali mexanizmlari yoritiladi.

**MAQSAD:** maqolada STEAM va an'anaviy yondashuvlarning nazariy asoslarini tahlil qilish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirishning metodik jihatlarini ochib berish, ushbu yondashuvlarni birlashtirish orqali samaradorlikni oshirish yo'llarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Shuningdek, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan kombinatsiyalangan dars va loyihalar modellari taklif etish maqsad qilingan.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** ilmiy izlanish jarayonida pedagogika, psixologiya va ijodkorlik nazariyasi sohasiga oid an'anaviy va zamonaviy ilmiy-adabiy manbalar chuqur tahlil etilgan. STEAM ta'limi nazariyalari, ijodiy faoliyat psixologiyasi va boshlang'ich ta'lim me'yorlari asosiy manba sifatida qo'llanilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida nazariy o'rganish, qiyosiy tahlil, sintez, pedagogik kuzatuv, anketalash hamda eksperimental o'qitish (STEAM va an'anaviy yondashuvlarga asoslangan ijodiy mashg'ulot modellari) tatbiq etilgan. Empirik materiallar sifatida boshlang'ich sinf darslarida o'tkazilgan STEAM loyihalari va an'anaviy ijodiy mashg'ulotlar namunalaridan foydalanilgan.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** STEAM yondashuvi loyihaviy faoliyat, robototexnika, 3D modellashtirish va san'at elementlari orqali o'quvchilarda innovatsion ijodkorlikni rivojlantirsa, an'anaviy yondashuvlar hikoya tuzish, rassomlik va o'yinli mashg'ulotlar orqali emotsional va tasavvuriy ijodkorlikni rag'batlantiradi. Ikkala yondashuvni birlashtirish (masalan, ekologik loyihada rassomlik va texnologiyalarni qo'llash) ijodiy faoliyatning har ikki turini muvozanatlashtiradi. Eksperimental natijalar

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

shuni ko‘rsatadiki, kombinatsiyalangan yondashuvdan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy mahsulotlar sifatini 30-45% ga oshirib, motivatsiya va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Muhokamada STEAMning innovatsion afzalliklari (texnologik savodxonlik) va an’anaviyning emotsional jihatlari (tasavvur rivoji) ta’kidlanadi.

**XULOSA:** STEAM va an’anaviy yondashuvlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish zamonaviy ta’limning samarali yo‘nalishi sifatida o‘zini namoyon qilmoqda. Ushbu yondashuvlarni birlashtirish o‘quvchilarda innovatsion va tasavvuriy ijodkorlikni muvozanatli rivojlantirib, kelgusida jamiyatning kreativ talablariga mos mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu metodlarni raqamli platformalar, virtual loyihalar va xalqaro tajribalar bilan boyitish orqali yanada takomillashtirish zarur.

**Kalit so‘zlar:** STEAM ta’limi, an’anaviy yondashuvlar, ijodiy faoliyat, boshlang‘ich sinf, fanlararo integratsiya, loyihaviy faoliyat, ijodkorlik rivoji, innovatsion ta’lim, tasavvuriy fikrlash, ta’lim samaradorligi.

**Iqtibos uchun**: Qulmuminov O‘.S., Panjiyeva X. STEAM va an’anaviy yondashuvlar asosida boshlang’ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantrish.// Inter education & global study. 2025. Vol.3, №12. B. 96-104

## DEVELOPMENT OF CREATIVE ACTIVITY IN PRIMARY SCHOOL PUPILS ON THE BASIS OF STEAM AND TRADITIONAL APPROACHES

©Qulmuminov S. Urolboy[1]✉, Kh.Panjiyeva[2]✉
[1, 2]Termez State Pedagogical Institute, Termez, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** at the primary education stage, developing pupils' creative activity holds significant importance for the holistic formation of their cognitive, emotional, and social abilities. In contemporary pedagogy, the STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) approach is widely applied as an innovative direction for stimulating creativity through inter-subject integration and project-based activity. At the same time, traditional approaches (creative assignments, drawing, storytelling, and game-based activities) also demonstrate their effectiveness in developing creative thinking. This article conducts a comparative analysis of STEAM and traditional approaches, elucidating effective mechanisms for developing creative activity in primary school pupils.

**AIM:** the article envisages analyzing the theoretical foundations of STEAM and traditional approaches, elucidating the methodological aspects of developing creative activity in primary school pupils, identifying pathways to enhance effectiveness through combining these approaches, and devising practical recommendations. Additionally, it aims to propose combined lesson and project models oriented toward developing pupils' creative abilities.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**MATERIALS AND METHODS:** in the course of the scientific investigation, traditional and contemporary scholarly-literary sources in the fields of pedagogy, psychology, and creativity theory have been subjected to profound analysis. Theories of STEAM education, the psychology of creative activity, and primary education norms have been employed as primary sources. The research methodology includes theoretical examination, comparative analysis, synthesis, pedagogical observation, surveying, and experimental teaching (creative activity models based on STEAM and traditional approaches). Empirical materials have been drawn from examples of STEAM projects and traditional creative activities conducted in primary school lessons.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the STEAM approach develops innovative creativity in pupils through project-based activity, robotics, 3D modeling, and artistic elements, whereas traditional approaches stimulate emotional and imaginative creativity via storytelling, drawing, and game-based activities. Combining both approaches (e.g., applying drawing and technologies in an ecological project) balances the two types of creative activity. Experimental results demonstrate that utilizing a combined approach increases the quality of pupils' creative products by 30–45%, while enhancing motivation and problem-solving skills. The discussion emphasizes the innovative advantages of STEAM (technological literacy) and the emotional aspects of traditional approaches (development of imagination).

**CONCLUSION:** developing creative activity in primary school pupils on the basis of STEAM and traditional approaches manifests itself as an effective direction in contemporary education. Combining these approaches fosters balanced development of innovative and imaginative creativity in pupils, thereby contributing to the preparation of specialists aligned with society's future creative demands. In the future, further refinement of these methods through enrichment with digital platforms, virtual projects, and international experiences is imperative.

**Keywords:** STEAM education, traditional approaches, creative activity, primary school, inter-subject integration, project-based activity, development of creativity, innovative education, imaginative thinking, educational effectiveness.

**For citation**: Qulmuminov S. Urolboy, Kh. Panjiyeva, “Development of Creative Activity in Primary School Pupils on the Basis of STEAM and Traditional Approaches”, Inter education & global study, vol.3, (12), pp. 96-104. (In Uzbek).

## РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ STEAM И ТРАДИЦИОННЫХ ПОДХОДОВ

©У.С.Кулмуминов[1]✉, Х.Панжиева[2]✉
[1, 2]Термезский государственный педагогический институт, Термез, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**ВВЕДЕНИЕ:** на этапе начального образования развитие творческой деятельности учащихся имеет важное значение для целостного формирования их когнитивных, эмоциональных и социальных способностей. В современной педагогике подход STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) широко применяется как инновационное направление стимулирования креативности через межпредметную интеграцию и проектную деятельность. Вместе с тем традиционные подходы (творческие задания, рисование, составление рассказов, игровые занятия) также демонстрируют свою эффективность в развитии творческого мышления. В данной статье проводится сравнительный анализ STEAM и традиционных подходов, освещаются эффективные механизмы развития творческой деятельности учащихся начальных классов.

**ЦЕЛИ:** в статье предусмотрено анализ теоретических основ STEAM и традиционных подходов, раскрытие методических аспектов развития творческой деятельности у учащихся начальных классов, выявление путей повышения эффективности через сочетание этих подходов и разработка практических рекомендаций. Кроме того, ставится цель предложить комбинированные модели уроков и проектов, ориентированные на развитие творческих способностей учащихся.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в процессе научного исследования подвергнуты глубокому анализу традиционные и современные научно-литературные источники в областях педагогики, психологии и теории креативности. Теории образования STEAM, психология творческой деятельности и нормы начального образования использованы в качестве основных источников. Методология исследования включает теоретическое изучение, сравнительный анализ, синтез, педагогическое наблюдение, анкетирование и экспериментальное обучение (модели творческих занятий на основе STEAM и традиционных подходов). Эмпирическими материалами послужили примеры проектов STEAM и традиционных творческих занятий, проведённых на уроках в начальных классах.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** подход STEAM развивает инновационную креативность у учащихся через проектную деятельность, робототехнику, 3D-моделирование и элементы искусства, в то время как традиционные подходы стимулируют эмоциональную и образную креативность посредством составления рассказов, рисования и игровых занятий. Сочетание обоих подходов (например, применение рисования и технологий в экологическом проекте) уравновешивает оба типа творческой деятельности. Экспериментальные результаты показывают, что использование комбинированного подхода повышает качество творческих продуктов учащихся на 30–45%, усиливая мотивацию и навыки решения проблем. В обсуждении подчёркиваются инновационные преимущества STEAM (технологическая грамотность) и эмоциональные аспекты традиционных подходов (развитие воображения).

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** развитие творческой деятельности учащихся начальных классов на основе STEAM и традиционных подходов проявляет себя как эффективное направление современного образования. Сочетание этих подходов обеспечивает сбалансированное развитие инновационной и образной креативности у учащихся, способствуя подготовке специалистов, соответствующих будущим креативным требованиям общества. В будущем необходимо дальнейшее совершенствование этих методов путём обогащения цифровыми платформами, виртуальными проектами и международным опытом.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** образование STEAM, традиционные подходы, творческая деятельность, начальные классы, межпредметная интеграция, проектная деятельность, развитие креативности, инновационное образование, образное мышление, эффективность образования.

**Для цитирования**: Кулмуминов У.С., Панжиева Х. Развитие творческой деятельности учащихся начальных классов на основе STEAM и традиционных подходов.// Inter education & global study. 2025. Vol.3, №12. С. 96-104.

**Z**amonaviy ta’lim tizimi o‘quvchilarni nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi sifatida, balki mustaqil fikrlovchi, muammolarni tahlil qila oladigan, mantiqiy xulosa chiqarishga qodir shaxs sifatida shakllantirishni talab qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich ta’lim bosqichida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish juda muhim jarayondir. Chunki aynan 1–4-sinfda bola ongida tafakkur jarayonlari tez rivojlanadi, mantiqiy bog‘lanishlarni tushunish, sabab–oqibatni aniqlash va tahliliy yondashuv asoslari shakllanadi. So‘nggi yillarda ta’lim jarayoniga STEAM yondashuvining kirib kelishi ijodiy va tanqidiy fikrlashni integrativ tarzda shakllantirish imkonini berdi. STEAM — fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika yo‘nalishlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlab, o‘quvchida muammoni turli aspektlarda ko‘ra olish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Ayniqsa boshlang‘ich ta’limda STEAM o‘yinlar, tajribalar, loyihalar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish jarayonini jadallashtiradi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar, xususan STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) integratsiyasi ta’limning sifatini oshirish, o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirish va ularning amaliy faoliyatga tayyorligini kuchaytirishda muhim o‘rin tutmoqda. XXI asr kompetensiyalariga – tanqidiy fikrlash, kreativlik, muammolarni hal qila olish, raqamli savodxonlik va jamoada ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan o‘quvchi shaxsini shakllantirish bugungi boshlang‘ich ta’limning bosh vazifalaridan biridir. Ayniqsa, o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish zamonaviy ta’lim jarayonida alohida e’tibor talab etadi. An’anaviy ta’lim yondashuvi ko‘proq bilimlarni izchil, bosqichma-bosqich etkazishga, tayanch tushunchalarni mustahkamlashga qaratilgan bo‘lsa, STEAM yondashuvi o‘quvchining mustaqil fikrlashini, tajriba asosida o‘rganishini, fanlararo integratsiyani va ijodiy faoliyatni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

rag‘batlantiradi. Shu sababli, ushbu ikkala yondashuvni uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini yanada samarali rivojlantirish mumkin.

Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar tasavvurining kengligi, kashfiyotchilikka moyilligi, faol qiziqishi va ijodkorlik ehtiyoji bu jarayonning asosiy poydevorini tashkil qiladi. Biroq ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirish uchun qo‘llanilayotgan metodlarning imkoniyatlari, samaradorligi va o‘ziga xos jihatlarini chuqur o‘rganish zarur. Shu maqsadda STEAM va an’anaviy ta’lim yondashuvlari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini o‘rganish mazkur tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’limdagi an’anaviy va STEAM yondashuvlarining nazariy asoslari, ularning o‘quvchi ijodiy faoliyatiga ta’siri, integratsiyalashgan ta’lim jarayonining afzalliklari hamda pedagogik amaliyotda qo‘llanish imkoniyatlari keng yoritiladi. Shuningdek, o‘quvchilar ijodiy fikrlashini baholash mezonlari, motivatsiya omillari hamda o‘quv faoliyati mahsullari misollari tahlil qilingan.

STEAM ta’limi – bu fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani yagona, integratsiyalashgan o‘qitish tizimi sifatida birlashtiruvchi pedagogik yondashuvdir. Ushbu metodika o‘quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga yo‘naltirilgan topshiriqlar orqali mustaqil fikrlashga, muammolarni amaliy hal qilishga, yangi g‘oyalar yaratishga o‘rgatadi. STEAM darslarida o‘quvchi passiv bilim oluvchi emas, balki faol ijodkor sifatida shakllanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, STEAM asosida tashkil etilgan darslar bolalarda tasavvur, tafakkur, dizayn va modellashtirish kompetensiyalarini rivojlantiradi. An’anaviy ta’lim esa o‘quvchilarga nazariy bilimlar berish, mavzu mazmunini tizimli bayon etish, mashqlar orqali mustahkamlash kabi o‘qitish bosqichlariga tayanadi. Bu yondashuv boshlang‘ich sinf uchun juda muhim, chunki aynan shu davrda o‘quvchilar asosiy tushunchalar, grammatik va mantiqiy fikrlash asoslarini shakllantiradi. Biroq ijodiy faoliyatning chuqur rivojlanishi uchun o‘quvchilarga erkin izlanish, tajriba o‘tkazish, shaxsiy yondashuvda ishlash imkoniyati etishmaydi. Shu sababli an’anaviy o‘qitish jarayoni STEAM bilan uyg‘unlashtirilganda samaradorlik ancha ortadi.

Ijodiy faoliyat boshlang‘ich ta’limda turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Bolaning noodatiy echim topishi, tasavvur qilish qobiliyati, o‘z g‘oyasini shakllantirishi, original mahsulot yaratishi – bularning barchasi ijodiy faoliyatning asosiy tarkibiy qismlaridir. STEAM jarayonida ushbu faoliyat faol harakatga tushadi. O‘quvchi loyihalash, modellar yaratish, amaliy topshiriqlarni bajarish orqali o‘z g‘oyalarini namoyon qiladi. Masalan, “Suv aylanishi” mavzusida STEAM darsi davomida o‘quvchilar suvning bug‘lanishi, kondensatsiyasi va yog‘ingarchilik shakllanish jarayonini mini-model ko‘rinishida yaratishi mumkin. Bu esa bilimni nafaqat nazariy, balki amaliy ko‘nikma sifatida o‘zlashtirishga imkon beradi.

An’anaviy dars davomida esa ushbu mavzu talqin etiladi, darslikdagi rasm va izohlar asosida tushuntiriladi. Natija sifatida o‘quvchi mavzuni biladi, lekin uni amalda namoyon qilish imkoniyati cheklangan bo‘ladi. Bu erda an’anaviy ta’lim bilim poydevorini, STEAM esa amaliy ijodiy chiqishni ta’minlab beradi. Ijodiy faoliyatni baholashda bunday

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

mezonlarga e'tibor berish lozim: o'quvchining original g'oya yaratish darajasi, muammoni noodatiy yo'l bilan hal qilishi, modellashtirishga bo'lgan qobiliyati, estetika va dizayn elementlaridan foydalanishi, mustaqil qaror qabul qilishi, guruhda ishlash ko'nikmalari. Aynan STEAM darslarida o'quvchi ushbu mezonlarga mos ravishda faol ijodiy mahsulot yaratishga intiladi.

Pedagoglar uchun STEAM yondashuvi o'quv jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish imkonini beradi. Masalan, eksperiment va kuzatish usullari o'quvchilarga natijalarni tahlil qilish va yangi echimlar ishlab chiqish ko'nikmalarini beradi. Guruhda ishlash esa muloqot qilish, boshqalarning fikrini tinglash va o'z qarorini himoya qilish qobiliyatini shakllantiradi. Shu tariqa, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy ko'nikmalar birgalikda rivojlanadi. Innovatsion texnologiyalar STEAM integratsiyasining yana bir asosiy komponenti hisoblanadi. Virtual laboratoriyalar, interaktiv dasturlar va robototexnika modullari o'quvchilarga murakkab tushunchalarni vizual tarzda tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, o'quvchilar turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rib, mantiqiy va tizimli fikrlashni mustahkamlaydi, bu esa ularni hayotiy vaziyatlarda tez va asosli qarorlar qabul qila oladigan shaxs sifatida tarbiyalaydi.

STEAM integratsiyasining muvaffaqiyati pedagoglarning metodik tayyorgarligiga ham bog'liq. Muammoli savollar ishlab chiqish, loyiha asosida darslarni tashkil etish va natijalarni reflektiv baholash tanqidiy fikrlashni samarali rivojlantiradi. Shu bilan birga, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini inobatga olgan moslashuvchan o'quv muhitini yaratish muhimdir.V

Zamonaviy tadqiqotlar STEAM ta'limining kreativlikni rivojlantirishdagi samaradorligini ilmiy asosda tasdiqlamoqda. Masalan, yakman, Sousa va Pilecki, Stanford d.school mutaxassislarining izlanishlari bolalarda dizayn o'ylash (design thinking), loyihaviy fikrlash va muammoli vaziyatlarda moslashuvchan yondashuv shakllanishini ko'rsatadi. Bu esa ijodiy kompetensiyalarning rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Shuningdek, an'anaviy ta'limning ham o'ziga xos afzalliklari mavjud. Nazariy tushunchalarni asosli o'rganish, fanlar bo'yicha mantiqiy poydevor yaratish, darsning rejalashtirilgan tartibda kechishi o'quvchilarning bilim sistemasi to'g'ri shakllanishiga yordam beradi. Shuning uchun STEAM va an'anaviy metodlarning birini inkor qilib bo'lmaydi. Aksincha, ularni bir-birini to'ldiruvchi yondashuv sifatida ko'rish lozim. Ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun ikkala yondashuvni birlashtiruvchi integrativ model taklif etiladi. Bu modelga ko'ra, darsning avvalida an'anaviy metodlar bilan mavzu mazmuni, asosiy tushunchalar, qonuniyatlar o'rganiladi. Keyingi bosqichda STEAM asosidagi amaliy topshiriqlar, modellashtirish, tajribalar, loyihalar bajariladi. Natijada o'quvchi bilimni nafaqat o'zlashtiradi, balki uni ijodiy faoliyatda qo'llab, yangi natija yaratadi.

Integratsiyalashgan yondashuvning afzalligi shundaki, unda bilim, ko'nikma va ijod uyg'unlashadi. O'quvchi o'z fikrini ifodalashda erkin bo'ladi, amaliyot orqali o'rganganini mustahkamlaydi, eng muhimi — mustaqil ijodiy mahsulot yaratish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa zamonaviy kompetensiyalardan biri bo'lgan kreativlikning shakllanishiga xizmat qiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyati o‘z mohiyatiga ko‘ra ko‘p omillardan tashkil topgan murakkab psixologik-pedagogik jarayondir. STEAM yondashuvi bu jarayonning tabiiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi, chunki u o‘quvchilarni muammoni turli ijtimoiy va fanlararo kontekstda ko‘ra olishga, o‘z g‘oyalarini amaliy loyihalar orqali ifodalashga va o‘zlashtirilgan bilimlarini real hayotga tatbiq etishga o‘rgatadi. An’anaviy yondashuv esa bilimlarni tartibli, tizimli shakllantirish orqali STEAM metodikasining samarali qo‘llanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

O‘rganishlar shuni tasdiqladiki, an’anaviy va STEAM yondashuvlari o‘zaro raqobatlashuvchi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi metodika sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir. Integratsiyalashgan holda qo‘llanganda o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, innovatsion yondashuv, mustaqil qaror qabul qilish, eksperiment qilishga bo‘lgan qiziqish, mas’uliyat va o‘z faoliyatiga tanqidiy baho berish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi. Shuningdek, dars jarayoniga loyihaviy ishlar, kichik tajribalar, modellashtirish topshiriqlari, texnologik konstruktorlar, raqamli vositalar va san’at elementlarini qo‘shish ijodiy tafakkurni kuchaytirishi aniqlandi. O‘quvchilar o‘zining ijodiy faoliyatini namoyon eta oladigan vaziyatlar – guruh ishlari, muammoli vaziyatlar, dizayn fikrlash mashqlari, interfaol metodlar orqali o‘z bilim va ko‘nikmalarini yanada chuqurroq rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladi.

O‘qituvchilarning innovatsion metodlardan foydalanishga tayyorgarligi, sinf sharoitining jihozlanganligi, ta’lim resurslarining etarliligi hamda o‘quvchilarning motivatsiyasi mazkur yondashuvlarning samaradorligini belgilab beradi. Dars jarayoniga STEAM va an’anaviy yondashuvlarning uyg‘un tarzda tatbiq etilishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Kulmuminov U., & Mukhtarova L. (2023). POSSIBILITIES OF CREATIVE THINKING AND ITS MANIFESTATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Open Access Repository, 4(02), 81-84.
2. Kulmuminov U. (2023). CREATIVE TEACHING IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE EDUCATION. Open Access Repository, 4(2), 434-437.
3. KULMOMINOV O. (2023). ISSUES OF DEVELOPMENT OF STUDENT'S CREATIVE SKILLS IN WORLD SCIENCE. World Bulletin of Social Sciences, 27, 54-56.
4. Kulmominov O. (2023). TECHNOLOGY FOR DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN NATURAL SCIENCE TEACHING. Open Access Repository, 9(10), 112-116.
5. Kulmominov O., & Ibragimova, F. (2024). DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITY OF STUDENTS IN PRIMARY EDUCATION AS A PEDAGOGICAL PROBLEM. World Bulletin of Social Sciences, 34, 66-69.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

6. Kulmominov O. (2024). Creative Thinking Of Students In Primary Education And Methods Of Its Display In The Educational Process. Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(5), 283-289.

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАТSIЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Qulmuminov O'rolboy Safar o'g'li**, o'qituvchi, **[Кулмуминов Уролбой Сафар огли,** учитель], **[Qulmuminov S. Urolboy**, teacher]; manzil: O'zbekiston, Surxondaryo viloyati, Termiz tumani, Yangiobod MFY At-Termiziy ko'chasi 1 A uy [адрес: Узбекистан, Сурхандарьинская область, Термез, ул. Ат-Термизий, 1], [address: Uzbekistan, Surkhandarya region, Termiz, street At-Termiziy, 1]

✉**Panjiyeva X.**, talaba, **[Панжиева Х.,** студент], **[Panjiyeva Kh.**, student]; manzil: O'zbekiston, Surxondaryo viloyati, Termiz tumani, Yangiobod MFY At-Termiziy ko'chasi 1 A uy [адрес: Узбекистан, Сурхандарьинская область, Термез, ул. Ат-Термизий, 1], [address: Uzbekistan, Surkhandarya region, Termiz, street At-Termiziy, 1]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINI KASBIY TAYYORLASHDA O‘QUV JARAYONINING PEDAGOGIK ASOSLARI

© A.R.Nurullayev[1]✉

[1] Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O’zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** maqolada bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida o‘quv jarayonini loyihalashning nazariy-metodik asoslari tahlil qilinadi. Kompetensiyaviy yondashuv, integrativ ta’lim, natijaga yo‘naltirilgan rejalashtirish va reflektiv baholash mexanizmlari asosida samarali o‘quv dizayni modeli taklif etiladi. Tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya yo‘nalishida pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi.

**MAQSAD:** zamonaviy ta’lim tizimida jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy faoliyati nafaqat jismoniy mashg‘ulotlarni o‘tkazish, balki ta’limiy, tarbiyaviy va sog‘lomlashtiruvchi vazifalarni uyg‘un holda amalga oshirishni talab etadi. Shu bois bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘quv jarayonini ilmiy asosda loyihalash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quv jarayonini loyihalash ta’lim maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va baholash tizimini yaxlit tizim sifatida rejalashtirishni nazarda tutadi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** o‘quv jarayonini loyihalash - bu ta’lim natijalariga erishishni ta’minlovchi pedagogik tizimni oldindan rejalashtirish, modellashtirish va optimallashtirish jarayonidir. Jismoniy tarbiya yo‘nalishida bu jarayon nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, jismoniy sifatlar va pedagogik kompetensiyalarni kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayoni yangi pedagogik tafakkur shaxsiy rivojlanishga qaratilgan sifat jihatidan boshqacha qadriyatlar tizimiga asoslangan. Bunday innovatsion tendentsiyalar ilmiy bilimlarning tobora murakkablashib borayotgan sintezining natijasidir, o'qituvchi shaxsining ijtimoiy, madaniy, umumiy ilmiy va professional rivojlanishining birligini ta'minlaydi, ularga mutaxassis sifatida professional malaka talablari darajasini oshiradi, fan sohasidagi pedagogik ishning professional va shaxsiy fazilatlari va qadriyatlarini rivojlantiradi.

**XULOSA:** bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashda o‘quv jarayonini loyihalash ta’lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Ilmiy asoslangan, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvga tayangan o‘quv dizayni kelajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi, ularning amaliy faoliyatga tayyorligini ta’minlaydi. Mazkur yondashuvlarni ta’lim amaliyotiga keng joriy etish dolzarb vazifalardan biridir.

**Kalit so‘zlar:** o‘qituvchi, ilmiy, jismoniy tarbiya, ta’lim, dars, kompetensiya, kasb, pedagog, loyihalash, ta’lim jarayoni, fan.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Iqtibos uchun**: A.R.Nurullayev bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashda o‘quv jarayonining pedagogik asoslari // Inter education& global study. 2025. Vol 3. №12.B.105-112.

# ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

© А.Р. Нуруллаев[1]✉
[1]Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в статье анализируются теоретико-методические основы проектирования образовательного процесса в процессе профессиональной подготовки будущих учителей физического воспитания. Предложена эффективная модель проектирования обучения, основанная на компетентностном подходе, интегративном образовании, результативно-ориентированном планировании и механизмах рефлексивной оценки. Результаты исследования служат повышению качества подготовки педагогических кадров по направлению физического воспитания.

**ЦЕЛЬ:** в современной системе образования профессиональная деятельность учителя физического воспитания требует не только проведения физических упражнений, но и гармоничного выполнения образовательной, воспитательно-оздоровительной задач. Таким образом, в подготовке будущих учителей физической культуры большое значение имеет научно обоснованное проектирование образовательного процесса. Проектирование образовательного процесса включает в себя планирование целей, содержания, методов, инструментов и системы оценки как целостной системы.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: проектирование образовательного процесса — это процесс предварительного планирования, моделирования и оптимизации педагогической системы, обеспечивающей достижение образовательных результатов. В направлении физической культуры этот процесс служит комплексному развитию теоретических знаний, практических навыков, физических качеств и педагогических компетенций.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** процесс профессиональной подготовки будущих учителей физической культуры основан на качественно иной системе ценностей, новом педагогическом мышлении, ориентированном на личностное развитие. Подобные инновационные тенденции являются результатом все более сложного синтеза научных знаний, обеспечивают единство социального, культурного, общенаучного и профессионального развития личности учителя, повышают уровень требований к их профессиональной квалификации как специалистов, развивают профессиональные и личностные качества и ценности педагогической работы в области науки.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** разработка образовательного процесса в профессиональной подготовке будущих учителей физической культуры является важным фактором

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

повышения качества образования. Учебно-методическое проектирование, основанное на научно обоснованном, компетентностно-ориентированном и интегративном подходе, укрепляет профессиональную подготовку будущих учителей, обеспечивает их готовность к практической работе. Широкое внедрение этих подходов в образовательную практику является одной из актуальных задач.

**Ключевые слова:** учитель, наука, физическое воспитание, образование, урок, компетентность, профессия, педагог, проектирование, образовательный процесс, наука.

**Для цитирования**: А.Р.Нуруллаев педагогические основы учебного процесса в профессиональной подготовке будущих учителей физического воспитания. // Inter education & global study.2025. Vol.3, №12. С. 105-112.

## PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE LEARNING PROCESS IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

©Abdulkhamid R. Nurullayev[1]✉
[1]Bukhara State Pedagogical Institute,Bukhara, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** the article analyzes the theoretical and methodological foundations of designing the educational process in the process of professional training of future physical education teachers. An effective educational design model is proposed based on the competency-based approach, integrative education, result-oriented planning and reflective assessment mechanisms. The results of the study serve to improve the quality of training of pedagogical personnel in the direction of physical education.

**AIM:** in the modern education system, the professional activity of a physical education teacher requires not only conducting physical exercises, but also the harmonious implementation of educational, educational and health-improving tasks. Therefore, in the training of future physical education teachers, the design of the educational process on a scientific basis is of great importance. The design of the educational process involves planning the goals, content, methods, tools and assessment system as a holistic system.

**MATERIALS AND METHODS:** the design of the educational process is the process of preliminary planning, modeling and optimization of the pedagogical system that ensures the achievement of educational results. In the direction of physical education, this process serves the complex development of theoretical knowledge, practical skills, physical qualities and pedagogical competencies.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the process of professional training of future physical education teachers is based on a qualitatively different system of values, a new pedagogical mindset focused on personal development. Such innovative trends are the result of an increasingly complex synthesis of scientific knowledge, ensure the unity of the social, cultural, general scientific and professional development of the teacher's personality, increase the level of professional qualification requirements for them as specialists, develop professional and personal qualities and values of pedagogical work in the field of science.

**CONCLUSION**: designing the educational process in the professional training of future physical education teachers is an important factor in improving the quality of

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

1. Xabibullayevna Y. D. Oiladagi barqaror ijtimoiy muhit shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-pedagogik omillar //models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2024. – T. 4. – №. 37. – C. 60-65.
2. Turg‘unboyev K., Tolipov M., Oxunov I. Ijtimoiy pedagogika asoslari //O ‘quv qo ‘llanma. Toshkent “Fan va texnologiya. – 2008.
3. Axmedov A. A. Ijtimoiy pedagogika //Maktabgacha ta’lim yo ‘nalishi talabalari uchun o ‘quv qo ‘llanma. – 2023.
4. Abdullajonov A. Axborotlashgan jamiyatda bo ‘lajak o ‘qituvchining kompetentligini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik muammolari //Nordic_Press. – 2024. – T. 5. – №. 0005.
5. Xakimov X., Farmonova M. Pedagogika universitetining nomutaxassislik ta’lim yo’nalishi talabalarida kasbiy mahoratni shakllanishida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B4. – C. 206-212.
6. Griffiths, “Behavioral Addiction in Students: Psychological and Environmental Determinants”, Routledge, London, 2021, 348 p.
7. Stallman, “University Student Wellbeing: A Systems-Based Approach to Academic Stress and Mental Health”, Springer, Berlin, 2022, 412 p.
8. Pirimovna T. C. Ijtimoiy pedagogikaning nazariy asoslari //Modern education and development. – 2025. – T. 20. – №. 1. – C. 155-160.
9. Xamidova M. U. Maxsus pedagogika //T-2013 “Fan va texnologiyalar nashiryoti. – 2018.
10. Abdullajonov A. Axborotlashgan jamiyatda bo ‘lajak o ‘qituvchining kompetentligini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik muammolari //Nordic_Press. – 2024. – T. 5. – №. 0005.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

✉ **Xaqiqatbekov Zafarbek Shavkatbek o'g'li**, tadqiqotchi[**Хакикатбеков Зафарбек Шавкатбек угли**, исследователь,], [**Xaqiqatbekov Sh. Zafarbek** researcher,]; manzil: 160107, Boburshox ko'chasi, 161-uy, [адрес: 160107, ул. Бабуршох, д. 161], [address: 161 Babur shokh St., 160107.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# “INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” FANINI O‘QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

© I.M. Siddiqov[1]✉, Sh.U. Kasimov[2]✉
[1,2]Qo‘qon davlat unversiteti, Qo‘qon, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** raqamlashtirish jarayonlari jadallashgan sharoitda “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘quvchilarda axborot madaniyati va zamonaviy raqamli kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy vositasiga aylanmoqda. Fan mazmuni axborot bilan ishlash, algoritmik fikrlash, kompyuter texnologiyalaridan ongli foydalanish va axborot xavfsizligi bo‘yicha ilmiy tasavvurlarni qamrab oladi. Shu bois informatika ta’limining didaktik asoslarini qayta ko‘rib chiqish, klassik didaktika tamoyillari bilan birga raqamli pedagogika yondashuvlarini integratsiya qilish dolzarb vazifadir.

**MAQSAD:** “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishning didaktik asoslarini aniqlash, fanning maqsad va vazifalarini, mazmuni, tamoyillari hamda metodik ta’minotini ilmiy asoslashdan iborat. Shuningdek, o‘quvchilarda raqamli kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi muammoli, loyihaviy, interaktiv va AKTga tayangan metodlarni tizimlashtirish hamda ular ta’lim samaradorligiga ko‘rsatadigan ta’sirini yoritish ko‘zda tutiladi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda informatika ta’limi bo‘yicha mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, o‘quv dasturlari, davlat ta’lim standartlari va xalqaro tavsiyalar (jumladan UNESCO’ning o‘qituvchilar uchun AKT kompetensiyalari doirasi) tahlil qilindi. Mazmun va tamoyillarni ishlab chiqishda tizimli va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv asos qilib olindi, informatika fani va o‘quv predmeti o‘rtasidagi mazmuniy farqlar nazarda tutildi. Shuningdek, muammoli ta’lim, loyihaviy metod, gamifikatsiya, virtual laboratoriyalar va masofaviy ta’lim platformalarini qo‘llash bo‘yicha amaliy tajribalar umumlashtirildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tahlillar informatika o‘quv predmetining maqsadlari kompyuter savodxonligini shakllantirish, axborot jarayonlari haqidagi ilmiy tasavvurlarni kengaytirish, AKTdan ongli va ratsional foydalanish, axborot xavfsizligi madaniyatini singdirish bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatdi. Ilmiylik, izchillik, ko‘rgazmalilik, faollik va mustaqillik, amaliyotga yo‘naltirilganlik hamda individualizatsiya asosiy didaktik tamoyillar sifatida ajratildi, didaktik spiral tamoyili esa mazmunni bosqichma-bosqich chuqurlashtirish zaruratini asoslab berdi. Muammoli va loyihaviy ta’lim, interaktiv metodlar, gamifikatsiya, STEM/STEAM hamda masofaviy platformalar integratsiyasi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

o‘quvchilarning raqamli kompetensiyasi, ijodiy va mustaqil faoliyati sezilarli darajada oshishiga olib kelishi aniqlangan.

**XULOSA:** “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini didaktik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish o‘quvchilarda raqamli savodxonlik, axborot madaniyati va kelajak kasbiy faoliyati uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Innovatsion metodlar va AKT vositalarini o‘qitish jarayoniga chuqur integratsiya qilish informatika darslarini amaliy, ijodiy va shaxsga yo‘naltirilgan tusga keltiradi. Natijada informatika fani o‘quvchini oddiy bilim oluvchidan raqamli muhitda faol ijodkor va mas’uliyatli foydalanuvchi sifatida shakllantiruvchi didaktik tizimga aylanadi.

**Kalit so‘zlar:** informatika, didaktik tamoyillar, raqamli kompetensiya, informatika o‘qitish metodikasi, AKT, masofaviy ta’lim, innovatsion ta’lim metodlari.

**Iqtibos uchun**: Siddiqov I.M, Kasimov Sh.U.“Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishning didaktik asoslari. // Inter education & global study. 2025. Vol.3, №12. B.127–135.

## ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА” ИНФОРМАТИКА И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ"

©И.М. Сиддиков[1]✉, Ш.У. Касимов[2]✉
[1,2]Кокандский государственный университет, Коканд, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в условиях масштабной цифровизации общества курс «Информатика и информационные технологии» приобретает ключевое значение для формирования информационной культуры и цифровых компетенций учащихся. Содержательная линия предмета включает работу с информацией, развитие алгоритмического мышления, рациональное использование компьютерных технологий и освоение основ информационной безопасности. В этой связи возникает необходимость переосмысления дидактических основ преподавания информатики и интеграции классических принципов дидактики с подходами цифровой педагогики.

**ЦЕЛЬ:** выявить и теоретически обосновать дидактические основы преподавания информатики, определить цели и задачи курса, структуру его содержания, систему принципов, методов и средств обучения. Дополнительно ставится задача систематизировать методические подходы, направленные на формирование цифровой компетентности учащихся, а также показать влияние инновационных методов и ИКТ-средств на повышение эффективности и практической направленности учебного процесса.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в качестве материалов использованы отечественные и зарубежные работы по информатическому образованию, учебные программы, государственные стандарты и международные рекомендации, включая рамку ИКТ-компетентности учителей UNESCO. Исследование опирается на

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

системный и деятельностный подходы, позволившие смоделировать цели, содержание и принципы обучения информатике как учебному предмету, отличающемуся по объему и глубине от научной дисциплины. Обобщен опыт применения проблемного и проектного обучения, интерактивных методов, геймификации, виртуальных лабораторий и дистанционных образовательных платформ.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты анализа показали, что цели школьного курса информатики связаны с формированием компьютерной грамотности, целостных представлений об информационных процессах, осознанным использованием ИКТ и соблюдением норм информационной безопасности. В качестве ключевых дидактических принципов выделены научность, последовательность, наглядность, активность и самостоятельность, практико-ориентированность и индивидуализация; дидактическая спираль обеспечивает поэтапное углубление содержания. Установлено, что проблемное и проектное обучение, интерактивные методы, геймификация, STEM/STEAM-подход и использование ИКТ-средств, виртуальных лабораторий и онлайн-платформ существенно повышают уровень цифровой компетентности, самостоятельности и творческой активности учащихся.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** научно обоснованные дидактические основы преподавания информатики обеспечивают формирование у учащихся цифровой грамотности, информационной культуры и ключевых компетенций, необходимых для будущей профессиональной деятельности. Интеграция инновационных методик и средств ИКТ превращает информатику в практико-ориентированный и личностно значимый предмет, в рамках которого учащийся выступает активным создателем цифрового продукта. В итоге такая дидактическая система способствует подготовке цифрово компетентных выпускников и повышению качества образования в условиях информационного общества.

**Ключевые слова:** информатика, дидактические принципы, цифровая компетентность, методика преподавания информатики, ИКТ, дистанционное обучение, инновационные методы обучения.

**Для цитирования**: Сиддиков И.М, Касимов Ш.У. Дидактические основы преподавания предмета” Информатика и информационные технологии".// Inter education & global study.2025. vol.3.№12. С. 127–135.

## DIDACTIC FOUNDATIONS OF TEACHING THE SUBJECT ”COMPUTER SCIENCE AND INFORMATION TECHNOLOGY

©I.M. Siddiqov[1]✉, Sh.U. Kasimov[2]✉
[1,2]Kokand State University, Kokand, Uzbekistan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**INTRODUCTION:** in the context of intensive digitalization, the course “Informatics and Information Technologies” plays a crucial role in shaping students’ information culture and digital competencies. Its content line covers working with information, developing algorithmic thinking, using computer technologies in a conscious and rational way and acquiring basic knowledge of information security. Therefore, there is a growing need to rethink the didactic foundations of informatics teaching and to integrate classical didactic principles with the emerging approaches of digital pedagogy.

**AIM:** the main aim of the study is to identify and theoretically substantiate the didactic foundations of teaching informatics by defining the course goals, content structure, system of principles, methods and teaching tools. In addition, the study seeks to systematize methodological approaches aimed at developing students’ digital competence and to reveal how innovative methods and ICT tools influence the efficiency and practical relevance of the learning process.

**MATERIALS AND METHODS:** the research is based on national and international literature on informatics education, curricula, state educational standards and international guidelines, including the UNESCO ICT Competency Framework for Teachers. A systemic and activity-based approach was adopted to model the aims, content and principles of informatics as a school subject, which differs from the scientific discipline in volume and depth. The study also generalizes practical experiences in applying problem-based and project-based learning, interactive methods, gamification, virtual laboratories and distance learning platforms in informatics teaching.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the findings show that the aims of the informatics course are linked to the formation of computer literacy, holistic understanding of information processes, informed use of ICT and adherence to information security rules. Scientific character, consistency, visuality, activity and independence, practice orientation and individualization are identified as key didactic principles, while the didactic spiral provides gradual deepening of the content. It is established that problem and project methods, interactive techniques, gamification, the STEM/STEAM approach and the integration of ICT tools, virtual labs and online platforms significantly enhance students’ digital competence, independence and creative involvement in learning activities.

**CONCLUSION:** Well-designed didactic foundations for teaching “Informatics and Information Technologies” ensure the development of digital literacy, information culture and essential competencies required for learners’ future professional careers. The integration of innovative teaching methods and ICT tools transforms informatics into a practice-oriented and personally meaningful subject in which students act as active creators of digital products. Consequently, such a didactic system contributes to training digitally competent graduates and improving the overall quality of education in the information society.

**Keywords:** informatics, didactic principles, digital competence, methodology of teaching informatics, ICT, distance learning, innovative teaching methods.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**For citation**: Siddiqov I.M, Kasimov Sh.U. (2025) 'Didactic foundations of teaching the subject "Computer Science and information Technology', Inter education & global study, vol.3. (12), pp. 127–135. (In Uzbek).

**T**a'lim jarayonida informatika fani zamonaviy axborot madaniyatini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Bugungi kunda barcha sohalarning raqamlashtirilishi ushbu fan mazmuni va o'qitish jarayoniga yangicha yondashuvni talab qiladi. Didaktik asoslarni chuqur o'rganish informatika darslarini mazmunan boyitish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va texnologik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism

1. Informatika va axborot texnologiyalari fanining maqsadi

Ushbu fan:

-Axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish

-Algoritmik fikrlashni rivojlantirish

-Zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni o'rgatish

-Raqamli savodxonlikni oshirish

-Axborot xavfsizligi madaniyatini singdirishni maqsad qiladi

Informatika o'quv predmeti sifatida informatika fani va uning rivoji bilan uzviy bog'liq. SHuning uchun «Informatika va axborot texnologiyalarini o'qitish nazariyasi va metodikasi» fani birinchi navbatda informatika fanining metodologiyasiga asoslanadi. O'zining xulosalarida u ta'lim va tarbiyaning umumiy tamoyillariga tayanadi. Ma'lumki, ushbu tamoyillar pedagogika va didaktika tomonidan ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, «Informatika va axborot texnologiyalarini o'qitish nazariyasi va metodikasi» fani fiziologiya va psixologiya fanlari tomonidan qabul kilingan qonuniyatlardan ham bevosita foydalanadi.

Ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri b´lgan informatikaning fan sifatida o'ziga xosligi, uning zamonaviy fanlar tizimida tutgan o'rni va ahamiyatidan, hozirgi jamiyat hayotidagi ahamiyatidan kelib chiqqan holda «Informatika» fanini o'qitishning maqsadlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- o'quvchilarda kompyuter savodxonligini shakllantirish;
- o'quvchilarda axborotga ishlov berish, uzatish va undan foydalanish jarayonlari haqidagi bilimlar asoslarini mustahkam va ongli o'zlashtirib olishlarini ta'minlash;

-o'quvchilarga dunyoning zamonaviy ilmiy ko'rinishini shakllantirishda axborot jarayonlarining ahamiyatini, jamiyatning rivojida yangi axborot va kommunikatsion texnologiyalarning ahamiyatini ochib berish;

-komp'yuterlardan ongli va ratsional foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish. Maktabgacha tarbiya, umumo'rta ta'lim, o'rta maμsus, kasb-ќunar ta'limi va undan keyingi ta'lim bosqichlarini o'z ichiga olgan va informatika va dasturiy ta'minot bo'yicha mutaxassis bo'lmaganlarga mo'ljallangan «Informatika» fani pedagogikamiz uchun yangi bo'lgan nizom va qarashlar sistemasiga asoslangan:

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

- kadrning butun «ќayotiy tsikli» ќisobga olinishi kerak;
- informatika yo'nalishidagi fanlarni o'qitish dunyoning ќozirgi ќolati va rivojlanish istiqbollarini ќisobga olgan ќolda ta'lim mazmunidagi o'zgarishlarni aks ettirishi kerak;
- informatika va dasturiy ta'minot bo'yicha mutaxassis bo'lmaganlarga dasturlashni o'rgatish zaruriyatidan voz kechish lozim;
- informatika yo'nalishidagi fanlarni o'qitish didaktik spiral tamoyili asosida qurilishi kerak;
- ishlab chiqilayotgan o'quv kurslari mazmunining yangiligi va dolzarblik muddatini uzaytirishni axborotni qayta ishlash tamoyillariga urђu berish asosidagina amalga oshirish mumkin;
- shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish sifatlarini kafolatlashga yo'naltirilganlik;
- o'qish vaqti resurslarini o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, o'quv ijodiy faoliyatini tashkil etish foydasiga qayta taqsimlash.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga yangi bo'g'in, o'rta-maxsus va kasb-hunar ta'limining kiritilishi bilan, informatika o'qituvchilari uchun «Informatika o'qitish metodikasi» fanini yaratish dolzarb muammolardan biri bo'lib qoldi.

2. Didaktik tamoyillar

-Fan o'qitilishida quyidagi tamoyillar muhim:
-Ilmiylik — mazmunning ishonchli, aniq bo'lishi
-Izchillik — bilimlarning bosqichma-bosqich o'zlashtirilishi
-Ko'rgazmalilik — vizual va interaktiv vositalardan foydalanish
-Faollik va mustaqillik — o'quvchi faoliyatini kuchaytirish
-Hayotiylik — olgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish

3. O'qitish metodlari va vositalari

-Informatika darslarida quyidagi metodlar qo'llanadi:
-Muammoli ta'lim
-Loyihaviy metod
-Amaliy mashg'ulotlar
-Interaktiv metodlar (klaster, aqliy hujum, guruhlarda ishlash)
-Texnik vositalar:
-Kompyuterlar va planshetlar
-Multimedia dasturlari
-Virtual laboratoriyalar
-Masofaviy ta'lim platformalari (Moodle, Google Classroom)
-raqamli kompetensiyani shakllantirish
-Raqamli kompetensiya quyidagilarni o'z ichiga oladi:
-Axborot izlash va qayta ishlash
-Dasturiy vositalardan samarali foydalanish
-Kiberxavfsizlik qoidalariga rioya qilish
-Ijodiy texnologik faoliyat yuritish

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

5. Baholashning zamonaviy yondashuvlari

-Reyting tizimi

-Elektron testlar va onlayn baholash

-Portfoliolar

-Loyihalar natijalarini tahlil qilish Bu esa o‘quvchining individual rivojlanishini kuzatish imkonini beradi.

O’qitishning metodik tizimi. «Informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitish nazariyasi va metodikasi» fanining mazmunini aniqlashda informatikaning fan va ikkinchi tomondan o’quv predmeti ekanligi haqidagi tasavvurlardan kelib chiqish kerak. Informatika fani va o’quv predmeti bir-biridan avvalambor mazmunining hajmi va chuqurligi bilan farq qiladi. Informatika o’quv predmeti informatika fanidan o’quvchilarda informatika haqida bir butun, yaxlit bilimlar tizimini hosil qiladigan va kelajak amaliy faoliyatlarida zarur bo’ladigan ma’lumotlarnigina oladi. Informatika o’quv predmeti sifatida o’quv dasturlari va darsliklarda o’z aksini topadi.

Informatika o’quv predmeti tarkibiga kiritilgan o’quv materialining hajmi to’g’risidagi masala hal etilgandan so’ng, ushbu o’quv materialini o’quvchilarga qanday ketma-ketlikda etkazib berish maqsadga muvofiq ekanligini aniqlash lozim.

«Informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitish nazariyasi va metodikasi» fanining hususiyatlaridan biri o’quvchilarni informatikaning mazmunini va unga xos ilmiy izlanish usullarini egallash, amaliy bilimlar va ish ko’nikmalarini olishning usul va yo’llarini belgilash lozim. Bularga o’quv materialini o’rganish usullari va zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlar asosida o’quv mashg’ulotlarini tashkil etish shakllari kiradi. Informatikadan mashg’ulotlarni samarali o’tkazish uchun tegishli material bazasi, ya’ni maxsus jihozlangan informatika xonasi bo’lishi lozim. Fan mazmuni informatika nazariyasi, kompyuter qurilmalari, dasturlash asoslari, tarmoqlar texnologiyasi, axborot xavfsizligi, sun’iy intellektga oid boshlang‘ich tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi mustaqil, ijodiy va amaliy faoliyatga keng jalb etiladi.

Informatika darslarini loyihalashda klassik didaktika tamoyillari bilan birga raqamli pedagogika tamoyillari ham qo‘llanadi:

Tamoyil nomi Mazmuni Amaliy qo‘llanishi

Ilmiylik Fan asoslariga tayangan holda ishonchli ma'lumot berish Dasturiy vositalar bilan ishlashni izohlash, real misollar keltirish

Faollik O‘quvchini jarayon markaziga qo‘yish Interaktiv mashqlar va loyihalar

Ko‘rgazmalilik Vizual materiallar orqali o‘zlashtirishni yengillashtirish Multimedia, simulyatorlar

Izchillik Bilimlarni bosqichma-bosqich berish Dasturlashni oddiydan murakkabgacha o‘rgatish

Amaliyotga yo‘naltirilganlik Olingan bilimni qo‘llash imkonini berish Real ilovalar yaratish

Individualizatsiya Har bir o‘quvchining imkoniyatini hisobga olish Differensial topshiriqlar, masofaviy ta’lim


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Bu tamoyillar ta’lim samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

3. Informatika darslarida qo‘llaniladigan metod va texnologiyalar

Informatika o‘qitish jarayoni quyidagi innovatsion metodlarga tayangan holda amalga oshiriladi:

Muammoli ta’lim — o‘quvchilarda fikrlash va izlanish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Loyihaviy metod — real hayotga mos raqamli mahsulot yaratish (sayt, dastur, prezentatsiya).

Aqliy hujum, klaster, sinkveyn — tezkor fikrlashni rivojlantiradi.

Gamifikatsiya — o‘yin elementlari orqali motivatsiyani oshiradi.

STEM/STEAM yondashuvi — informatikaning fanlararo integratsiyasini ta’minlaydi.

AKT vositalari: kompyuterlar, mobil ilovalar, 3D modellashtirish, robototexnika, masofaviy ta’lim platformalari (Moodle, Google Classroom), sun’iy intellekt vositalari.

Natijada o‘quvchi bilim oluvchi emas, balki faol ijodkor sifatida shakllanadi.

“Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishning didaktik asoslarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish:

ta’lim samaradorligini oshiradi,

o‘quvchilarni kelajak kasblariga tayyorlaydi,

axborot madaniyatini shakllantiradi.

Innovatsion metodlar va AKT vositalari integratsiyasi natijasida raqamli kompetent kadrlarni tayyorlash imkoniyati kengayadi.

Informatikani o’qitish uchun o’qituvchi avvalo «Informatika» fanini, uning usullarini va rivojlanish tarixini chuqur egallagan bo’lishi lozim.

Informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitish nazariyasi va metodikasi bu informatikani o’quv predmeti sifatida hamda turli yoshdagi o’quvchilarga informatikani o’rgatish jarayonining qonuniyatlarini o’rganadigan fandir..

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Karimov I. Informatika va axborot texnologiyalari: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022. – 240 b.
2. Jo‘rayev M., Raxmonqulova S. Informatika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – 198 b.
3. Qodirova D. Ta’lim jarayonida AKTdan foydalanishning zamonaviy yondashuvlari // Pedagogika va psixologiya jurnali. – 2023. – №4. – B. 75–82.
4. Polat E.S., Moiseeva M.V. Современные педагогические технологии в образовании. – Москва: Академия, 2020. – 320 с.
5. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. – Paris, 2018. – 78 p.
6. Becta. Digital Skills in Modern Education. – London, 2020. – 65 p.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

✉**Siddiqov Ilhomjon Meliqo‘ziyevich**, professor v.b. [**Сидиков Илхомжон Меликозиевич**, и.о. профессора], [**Siddiqov Ilhomjon Meliqo‘ziyevich** Acting Professor]; manzil: Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahri, Turon ko‘chasi, 23- uy, [адрес: Ферганская область, город Коканд, улица Турон, дом 23], [address: 23 Turon Street, Kokand, Fergana region]

✉**Kasimov Shuxratjon Ubaydullayevich**, magistr [**Касимов Шухратжон Убайдуллаевич**, магистр], [**Kasimov Shuxratjon Ubaydullayevich** master’s student]; manzil: Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahri, Turon ko‘chasi, 23- uy, [адрес: Ферганская область, город Коканд, улица Турон, дом 23], [address: 23 Turon Street, Kokand, Fergana region.]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# TA'LIM MAKONI CHEGARASIZ: MASOFAVIY TA'LIMNING ZAMONAVIY TA'RIFI VA AHAMIYATI

© M.I. Omonov[1]✉

[1]Termiz davlat universiteti, Termiz, O'zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. An'anaviy ta'lim shakllari bilan bir qatorda masofaviy ta'lim ta'lim jarayonining muhim va samarali shakliga aylanmoqda. Ushbu ta'lim turi bilim olishda vaqt va makon bilan bog'liq cheklovlarni bartaraf etib, ta'limning ochiqligi, moslashuvchanligi va uzluksizligini ta'minlaydi. Zamonaviy raqamli muhit sharoitida masofaviy ta'lim global ta'lim makonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda.

**MAQSAD**: mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi masofaviy ta'limni zamonaviy ta'limning muhim shakli sifatida ilmiy jihatdan asoslash, uning mazmuni va ahamiyatini yoritish hamda masofaviy va an'anaviy ta'lim shakllari o'rtasidagi asosiy farqlarni aniqlashdan iborat. Shuningdek, masofaviy ta'lim jarayonida o'qituvchi va talabalarning faoliyati, imkoniyatlari hamda duch kelinayotgan muammolarni tahlil qilish ko'zda tutilgan.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqot jarayonida pedagogika va ta'lim texnologiyalariga oid ilmiy manbalar, zamonaviy tadqiqotlar hamda masofaviy ta'lim bo'yicha mavjud nazariy va amaliy tajribalar tahlil qilindi. Tadqiqotda taqqoslash, tahlil va sintez, umumlashtirish hamda tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar masofaviy ta'limning samaradorligini aniqlash va uning o'ziga xos jihatlarini ochib berishga xizmat qildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: tadqiqot natijalari masofaviy ta'lim talabalarda mustaqil o'rganish, mas'uliyat va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirishini ko'rsatdi. Interaktiv texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'qituvchi va talaba o'rtasida samarali muloqotni ta'minlaydi. Shu bilan birga, texnik vositalarning yetishmasligi, raqamli savodxonlik darajasining pastligi va motivatsiya muammolari masofaviy ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi aniqlandi.

**XULOSA:** masofaviy ta'lim zamonaviy ta'lim tizimining istiqbolli va muhim yo'nalishi bo'lib, u ta'lim jarayonini yanada qulay, moslashuvchan va samarali tashkil etish imkonini beradi. U an'anaviy ta'limni to'ldiruvchi va ayrim hollarda uning samarali muqobili sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish masofaviy ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

**Kalit so'zlar**: ta'lim, masofaviy ta'lim, an'anaviy ta'lim.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Iqtibos uchun**: Omonov M.I. Ta'lim makoni chegarasiz: masofaviy ta'limning zamonaviy ta'rifi va ahamiyati. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. B.136–142.

# ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ПРОСТРАНСТВО БЕЗ ГРАНИЦ: СОВРЕМЕННОЕ ОПРЕДЕЛЕНИЕ И ВАЖНОСТЬ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ

©М.И. Омонов[1]✉
[1]Термезский государственный университет, Термез, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: в XXI веке стремительное развитие информационно-коммуникационных технологий привело к существенным изменениям в системе образования. Наряду с традиционными формами обучения дистанционное обучение становится важной и эффективной формой образовательного процесса. Данная форма обучения устраняет временные и пространственные ограничения, обеспечивая открытость, гибкость и непрерывность образования. В условиях цифровизации дистанционное обучение становится неотъемлемой частью глобального образовательного пространства.

**ЦЕЛЬ**: целью данного исследования является научное обоснование дистанционного обучения как современной формы образования, раскрытие его содержания и значимости, а также выявление основных отличий дистанционного обучения от традиционного. Кроме того, в работе анализируются возможности и проблемы, с которыми сталкиваются преподаватели и обучающиеся в процессе дистанционного обучения.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в ходе исследования были проанализированы научные труды в области педагогики и образовательных технологий, а также отечественный и зарубежный опыт дистанционного обучения. В работе использовались методы анализа и синтеза, сравнения, обобщения и системного подхода, что позволило всесторонне изучить особенности и эффективность дистанционного обучения.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: результаты исследования показали, что дистанционное обучение способствует формированию у обучающихся самостоятельности, ответственности и навыков самоконтроля. Использование интерактивных технологий обеспечивает эффективное взаимодействие между преподавателем и студентами. Вместе с тем выявлены такие проблемы, как недостаточная техническая обеспеченность, низкий уровень цифровой грамотности и недостаточная мотивация отдельных обучающихся.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: дистанционное обучение является перспективным и значимым направлением современной образовательной системы, обеспечивающим гибкость и доступность обучения. Оно дополняет традиционное обучение и в ряде случаев может выступать его эффективной альтернативой.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Рациональное использование современных информационных технологий является ключевым условием повышения качества дистанционного обучения.

**Ключевые слова**: образование, дистанционное обучение, традиционное образование.

**Для цитирования**: Омонов М.И. Образовательное пространство без границ: современное определение и важность дистанционного обучения. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. С. 136–142.

## EDUCATIONAL SPACE WITHOUT BORDERS: MODERN DEFINITION AND SIGNIFICANCE OF DISTANCE EDUCATION

©Mamatqobil I. Omonov[1]✉
[1]Termiz State University, Termiz, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: in the 21st century, the rapid development of information and communication technologies has led to significant changes in the education system. Along with traditional forms of education, distance learning has become an important and effective mode of instruction. This form of learning removes time and space constraints, ensuring openness, flexibility, and continuity of education. In the context of digitalization, distance learning is becoming an integral part of the global educational environment.

**AIM:** the purpose of this study is to scientifically substantiate distance learning as a modern form of education, to reveal its essence and significance, and to identify the main differences between distance and traditional learning. In addition, the study analyzes the opportunities and challenges faced by both teachers and students in the distance learning process.

**MATERIALS AND METHODS**: the research is based on the analysis of scientific literature in the field of pedagogy and educational technologies, as well as national and international experience in distance education. The methods of analysis and synthesis, comparison, generalization, and a systemic approach were applied to comprehensively examine the characteristics and effectiveness of distance learning.

**DISCUSSION AND RESULTS**: the findings indicate that distance learning fosters students' independence, responsibility, and self-regulation skills. The use of interactive technologies ensures effective communication between teachers and learners. However, challenges such as insufficient technical infrastructure, low levels of digital literacy, and lack of motivation among some learners were identified.

**CONCLUSION:** distance learning is a promising and significant direction of modern education, providing flexibility and accessibility in the learning process. It complements traditional education and, in some cases, can serve as an effective alternative. The rational use of modern information technologies is a key factor in improving the quality of distance learning.

**Keywords**: education, distance education, traditional education

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**For citation**: Mamatqobil I. Omonov. (2025), Educational space without borders: modern definition and significance of distance education. Inter education & global study, vol.3 (12), pp. 136–142. (In Uzbek).

**XXI** asr — bu axborot hukmronlik qiladigan davr. Ushbu davrda bilim masofa tanlamaydi, ta’lim esa devorlar bilan chegaralanmaydi. Texnologiyalar shiddat bilan rivojlanar ekan, inson faoliyatining barcha jabhalari singari ta’lim tizimi ham yangi shakl va mazmun kasb etmoqda. Ana shunday zamonaviy yechimlardan biri — masofaviy ta’lim bo‘lib, u bugungi kunda ta’limning muqobil emas, balki muhim shakliga aylanib bormoqda.

Masofaviy o‘qitish — bu bilimning raqamli sayohati, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqotning texnologiyalar vositasida amalga oshadigan yangi modeli hisoblanadi. Elektron pochta, internet, videokonferensiya, audio va video resurslar orqali ta’lim jarayoni makon va zamon chegaralaridan xoli bo‘ladi. Bu jarayonda bilim auditoriyaga emas, auditoriya bilimga moslashadi.

Masofaviy ta'lim (MT) - bu o'qituvchi va talabalarning masofadan turib bir-birlari bilan o'zaro ta'siri bo'lib, u o'quv jarayoniga xos bo'lgan barcha tarkibiy qismlarni (maqsad, mazmuni, usullari, tashkiliy shakllari, o'quv qo'llanmalari) aks ettiradi va internet texnologiyalarining o'ziga xos vositalarida yoki interaktivlikni ta'minlovchi boshqa vositalarda amalga oshiriladi [1] .

Boshqa ta'lim shakllaridan farqli o'laroq, kompyuter telekommunikatsiyalariga asoslangan masofaviy ta'lim quyidagilarga imkon beradi:

– har qanday ma'lumotni masofadan tezkor uzatish;

– bu ma’lumotlarni xotirada kerakli vaqtga saqlash, tahrirlash va h.k.;

–ushbu maqsadlar uchun maxsus yaratilgan multimedia ma'lumotlari yordamida interaktivlik va o'qituvchi va o'quv kursining boshqa ishtirokchilari bilan tezkor fikr-mulohazalar;

– Internet tizimi orqali turli axborot manbalariga, jumladan masofaviy va taqsimlangan ma’lumotlar bazalariga, dunyo bo‘ylab ko‘plab konferensiyalarga kirish;

– telekommunikatsiya sohasidagi qo‘shma loyihalarni, shuningdek, xalqaro, elektron konferensiyalarni, kompyuter audio va video konferensiyalarini tashkil etish [2].

Masofaviy ta’limning asosiy xususiyati talabaning mustaqil ishi, uning individual pozitsiyasi va boshqa maxsus xarakterdagi ma'lumotlarni tezda topish, filtrlash, saralash qobiliyati ekanligini tushunish muhimdir.

Jamiyatning oldinga siljish istagini hisobga olgan holda va ta'limning evolyutsion shakllarini tahlil qilish allaqachon puxtalik bilan amalga oshirilganligini hisobga olgan holda, masofaviy ta’lim, ehtimol, o'n yil ichida, eng ustuvor usullardan biri bo'ladi, deb aytish mumkin [3].

Masofaviy ta'lim ochiq ta'limga asoslanadi, ya'ni o'qish joyi, shakli va vaqti erkinligi ta'minlanadi; o‘qitilgan kompyuter dasturlari, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

mehnat bozoridagi talabga muvofiq kadrlar tayyorlashni ta’minlaydi, bu esa turli mutaxassisliklar va ishlab chiqarishlar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashda jahon resurslaridan oqilona foydalanishni nazarda tutadi[4]. Masofaviy ta'limda alohida e'tibor fikr-mulohazalarga beriladi, ya'ni. bilimlarni nazorat qilish. Bilimlarni nazorat qilish talabalarning masofaviy ta'lim jarayonining zarur elementi bo'lib, ularning bilish faoliyatini boshqarish nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega. Boshqacha aytganda, nazorat axborotning muhim manbai, fikr-mulohaza, bunda o`quvchilar tomonidan bilimlarni o`zlashtirish darajasi turli yo`llar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Mavjud tajriba shuni ko‘rsatadiki, masofadan turib o‘qiyotgan talaba yanada mustaqil, harakatchan va mas’uliyatli bo‘lib qoladi. Bu fazilatlarsiz u o'rgana olmaydi. Agar ushbu hususiyatlar dastlab bo'lmagan bo'lsa-da, lekin o'qitish uchun motivatsiya katta bo'lsa, ular rivojlanadi va o'qishni tugatgandan so'ng, mehnat bozorida haqiqatan ham talab qilinadigan mutaxassislar paydo bo'ladi.

Masofaviy ta’limning joriy etilishi, bizningcha, test yoki imtihon topshirishda talabalarning asabiyligini kamaytiradi. Sir emaski, talabalarning tashvishi, qo‘rquvi ayrim o‘quvchilarga bilimini to‘liq ko‘rsatishga imkon bermayapti. Masofaviy ta’lim bilan subektiv baholash omili yo'q, guruhning ta'siri yoki talabaning boshqa fanlar bo'yicha ishlashi natijasida yuzaga keladigan psixologik ta'sir olib tashlanadi. Masofaviy o'qitish jarayonida talabalarni dam olish va stressni engillashtirish uchun dam olish pauzalari va boshqa maxsus usullardan foydalanish yaxshi natijalarga erishiladi.

“Masofaviy ta’lim o‘qituvchining o‘ziga nima beradi?” degan savolga javob berib shuni ishonch bilan aytish mumkinki, masofaviy ta’lim bilan o‘qituvchining roli o‘zgaradi va uning imkoniyatlari kengayadi. Ta'limning bu shakli o'qituvchiga o'quv jarayonining muntazam ravishda vaqtini behuda sarflamaslik imkonini beradi. Shu bilan birga, talaba bilimlarni tekshirish va o’z ustida ishlash uchun yetarlicha vaqt ajratadi. Masofaviy ta’lim tizimlari sizga talabaning shaxsiyatidan tashqari deyarli hamma narsani avtomatlashtirishga imkon beradi. Buning natijasida esa o'qituvchining ish vaqti nihoyat pedagogik ijodga bag'ishlanishi mumkin.

Masofaviy ta’lim o'qituvchilari darslarga borish uchun ham, o'quv materiallarini tayyorlash uchun ham uydan chiqib ketishlari shart emas va bu uyda band bo'lishidan qat'i nazar, buni qila oladigan va xohlaydiganlarning barchasiga o'rgatish imkonini beradi (masalan, ayollar kichik bolalarni tarbiyalamoqda) va sog'liq sharoitlari (masalan, tajribali katta o'qituvchilar). Bundan tashqari, bepul jadval barcha masofaviy ta'lim o'qituvchilariga to'liq bo'lmagan ish kunida ishlash uchun keng imkoniyatlar ochadi, chunki majburiy davomat soatlari minimal darajaga qisqartirilishi mumkin. Biroq, masofaviy ta'lim o'qituvchidan uning texnologiyalari asosida qo'shimcha kuch va ko'nikmalarni talab qiladi. O‘qituvchi tomonidan talabalarga o‘quv materialini taqdim etishga asoslangan o‘qitish an’anaviy ta’lim tizimiga xos bo‘lgan muloqotda faol rol o‘ynamaydi, balki innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirilmoqda.

Demak, masofaviy ta’lim ta’limning yangi bosqichi bo‘lib, u shaxsiy kompyuterlar, video va audio uskunalardan foydalangan holda eng yangi axborot texnologiyalaridan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

foydalanishni o‘z ichiga oladi, deyishimiz mumkin. Bundan tashqari, samarali deb hisoblash uchun masofaviy ta'limga xos bo'lishi kerak bo'lgan bir qator xususiyatlar mavjud:

- talaba faoliyatini puxta va batafsil rejalashtirish, uni tashkil etish; vazifalar va o'quv maqsadlarining aniq bayoni; zarur o'quv materiallarini yetkazib berish;

– interaktivlik masofaviy ta’lim ta’lim dasturlarining asosiy konsepsiyasi sifatida. Masofaviy ta'lim kurslari talaba va o'qituvchi o'rtasidagi maksimal darajada interaktivlikni, talaba va o'quv materiali o'rtasidagi fikr-mulohazalarni ta'minlashi, shuningdek, guruhda o'rganish imkonini berishi kerak;

- tinglovchilar o'z harakatlarining to'g'riligiga ishonch hosil qilishlari uchun yuqori samarali ikki tomonlama aloqa.

- motivatsiya; buning uchun siz turli xil vositalar va usullardan foydalanishingiz kerak;

- masofaviy ta’lim kursining modulli tuzilishi, bunda talabaning moduldan modulga o‘tish jarayonidan xabardor bo‘lishi, o‘z xohishiga ko‘ra yoki tayyorlanish darajasiga qarab rahbar o‘qituvchining xohishiga ko‘ra istalgan modulni tanlashi mumkin. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, katta modullar o'rganish uchun motivatsiyani sezilarli darajada kamaytiradi;

Hozirgi vaqtda zamonaviy axborot texnologiyalari masofaviy ta'lim muammosini hal qilish uchun cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi, chunki har qanday masofada, istalgan hajm va mazmundagi ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va yetkazib berish mumkin. Bugungi kunda oddiy o‘quvchi bosma o‘quv adabiyotlarini (darsliklar, qo’llanmalar) mustaqil o‘zlashtira oladi, chunki u maktabda ushbu o‘quv qurollari bilan ishlash metodikasi bilan tanishgan. Masofaviy o'qitishda auditoriya mashg'ulotlari bilan solishtirganda amaliy faoliyatning eng katta muammosi kompyuter aloqasining yangi vositalaridan foydalanish hisoblanadi. Shunday qilib, masofaviy ta’lim ta'limning yangi shakli sifatida an'anaviy ta'limga yaxshi alternativ bo'lishi mumkin.

Masofaviy o‘qitish zamonaviy axborot texnologiyalari asosida to‘liq yoki qisman amalga oshiriladi va kompyuter texnikasi, telekommunikatsiya vositalari va texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Asosan, bu ta’lim turi zamonaviy interaktiv texnologiyalar, jumladan, internet orqali bilimlarni uzatish va olishning masofaviy jarayonidir. Masofaviy ta’lim talablari va xususiyatlariga maksimal darajada javob beradigan ta’lim texnologiyalari orasida videoma’ruzalar, videokonferensiyalar, multimediyali ma’ruzalar va amaliy mashg‘ulotlar mavjud.

Keng qo'llaniladigan elektron multimedia darsliklari, o'qitish kompyuter tizimlari, kompyuter simulyatorlari, shuningdek, telekommunikatsiyalardan foydalangan holda maslahatlar va testlar. Masofaviy ta'limning ma'lum texnologiyalari foydasiga tanlashda ma'lum ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xosligini, muayyan turdagi vazifalar va o'quv mashqlarining ustunligini hisobga olish kerak

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Boshqacha aytganda, masofaviy ta'lim zamonaviy avlod uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni ochib beradi, bu esa ta'lim sohasida sezilarli yutuqlarga erishish va o'quvchining intellektual darajasini oshirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, masofaviy ta’lim — bu vaqt talabi, zamon nafasi va global ta’lim makonining ajralmas qismidir. U nafaqat ta’lim muassasalari, balki yirik tashkilotlar va jamiyatning uzluksiz rivoji uchun xizmat qiluvchi strategik vositadir. Masofa uzoq bo‘lishi mumkin, ammo bilim har doim yaqin.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Артеменков М.Н., Сухова Е.Е. Трансформация образовательных стратегий выпускников школ в условиях распространения коронавируса COVID-19: региональный аспект. Региональные исследования. 2020; № 2 (68): 111 – 120.
2. Ибрагимов И. М. Информационные технологии и средства дистанционного обучения: учеб. пособие для студентов высш. учеб. заведений / И. М. Ибрагимов. – 2-е изд., стер. – М.: Издат. центр «Академия», 2005. – 336 с.
3. Ахмедов, Б. А. (2020). О развитии навыков интерактивных онлайн-курсов в дистанционных условиях современного общества (модель-программа для преподавателей образовательных учреждений). Universum: технические науки, 12 (81), 11-14.
4. Овсянников В. И. Дистанционное образование в России: постановка проблемы и опыт организации / В. И. Овсянников. – М.: РИЦ «Альфа», МГОПУ им. Шолохова, 2001. – 92 с.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Omonov Mamatqobil Ismoilovich**, Termiz Davlat Universiteti v/b professori, [**Омонов Маматкобил Исмоилович**, Термезский государственный университет и/о профессор], [**Mamatqobil I. Omonov**, acting professor of Termez State University]; manzil: O‘zbekiston, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy [адрес: Узбекистан, ул. Баркамол авлод, 43, г. Термиз], [address: Uzbekistan, 43, Barkamol avlod st., Termiz city]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI VA SALBIY OQIBATLARINI ILMIY-PEDAGOGIK TAHLILI

© G.E.Turayeva[1]✉

[1]Termiz Iqtisodiyot va Servis Universiteti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** zamonaviy ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari (AT) o'qitish va o'rganishning ajralmas qismiga aylangan. Ular ta'lim muhitini interaktiv, moslashuvchan va resurslar bilan boyitilgan holatga keltirib, an'anaviy pedagogik yondashuvlarni tubdan o'zgartirmoqda. AT orqali masofaviy ta'lim, virtual laboratoriyalar, multimedia materiallar va individual trajektoriyaga asoslangan o'qitish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Shu bilan birga, texnologiyalarning chuqur integratsiyasi pedagogik samaradorlikni oshirish bilan bir qatorda bir qator salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarmoqda: diqqatning tarqalishi, psixologik charchoq, jismoniy sog'liq muammolari va ijtimoiy munosabatlarning zaiflashishi. Ushbu ishda ATning ta'limdagi pedagogik samaradorligi va salbiy ta'sirlarini umumiy pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish orqali muvozanatli yondashuvni shakllantirish ko'zda tutilgan. Mavzuning dolzarbligi ta'limning raqamlashtirilishi jarayonida pedagogik tamoyillarning saqlanishi va insoniy omilning ustunligini ta'minlash zaruriyatida namoyon bo'lmoqda.

**MAQSAD:** tadqiqotning asosiy maqsadi axborot texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanishning pedagogik samaradorligi va salbiy oqibatlarini umumiy pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilishdir. Xususan:

- atning o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirish, motivatsiyani oshirish va individualizatsiya imkoniyatlaridagi ijobiy rolini aniqlash;
- texnologiyalarning haddan tashqari qo'llanilishi natijasida yuzaga keladigan psixologik, kognitiv va ijtimoiy salbiy oqibatlarni baholash;
- pedagogik muvozanatni ta'minlashga qaratilgan umumiy yo'nalishlarni belgilash.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tahlilda pedagogik nazariya va amaliyotning umumiy tamoyillari, ta'lim jarayonidagi AT integratsiyasi tajribalari, shuningdek, o'qituvchi va o'quvchilarning sub'ektiv tajribalarini aks ettiruvchi sifatli kuzatuvlar asos qilib olindi. Metodologik asos sifatida pedagogik tahlilning komparativ va sistemali yondashuvlari qo'llanildi. Miqdoriy ko'rsatkichlarsiz, faqat pedagogik jihatdan mazmunli hodisalar va tendentsiyalarga e'tibor qaratildi. Tahlil ta'limning turli bosqichlarida (maktab, litsey, oliy ta'lim) AT qo'llash tajribalarining umumlashtirilgan pedagogik xususiyatlariga asoslandi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** axborot texnologiyalari ta'lim jarayonida o'quvchining faol sub'ektga aylanishiga, bilimlarni mustaqil izlanish orqali egallashiga va o'qituvchining facilitator rolini kuchaytirishiga xizmat qilmoqda. Interaktiv muhit o'quvchining kognitiv faoliyatini rag'batlantirib, tushunish va eslab qolish darajasini oshiradi, individual o'rganish trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi. Biroq, texnologiyalarning dominantligi pedagogik muvozanatni buzishi mumkin: doimiy ekran oldida o'tkaziladigan vaqt diqqatni parchalab, chuqur fikrlash qobiliyatini zaiflashtiradi; virtual muloqot real ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlanishiga to'sqinlik qiladi; ma'lumotlar oqimining cheksizligi tanqidiy fikrlash o'rniga sirtqi bilimlarni yig'ishga olib keladi. Muhokama shuni ko'rsatadiki, ATning pedagogik samaradorligi uning vosita sifatidagi rolini saqlashga, ya'ni maqsad emas, balki ta'lim maqsadlariga xizmat qiluvchi vosita bo'lib qolishiga bog'liq. Salbiy oqibatlar esa texnologiyani pedagogik tamoyillarsiz, mexanik ravishda joriy etish natijasida kuchayadi.

**XULOSA:** axborot texnologiyalari ta'limning zamonaviy shakllarini boyitib, pedagogik samaradorlikni oshirish imkoniyatiga ega bo'lsa-da, ularning salbiy oqibatlari ham e'tiborga loyiqdir. Pedagogik muvozanatni ta'minlash uchun ATni inson markazli ta'lim tamoyillari doirasida, o'qituvchining rahbarligi va o'quvchining faolligi bilan uyg'unlashgan holda qo'llash zarur. Texnologiya hech qachon pedagogik maqsadni almashtirmasligi, balki unga xizmat qilishi lozim. Ta'lim jarayonida raqamli va an'anaviy usullarning optimal nisbatini topish, o‘qituvchilarning pedagogik malakasini raqamli savodxonlik bilan birlashtirish kelajakdagi asosiy yo'nalish bo'lib qolmoqda.

**KALIT SO‘ZLAR:** axborot texnologiyalari, pedagogik samaradorlik, salbiy oqibatlar, raqamli ta'lim, pedagogik muvozanat, interaktiv o'qitish, kognitiv rivojlanish, ta'lim integratsiyasi.

**Iqtibos uchun**: Turayeva G.E. Axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi va salbiy oqibatlarini ilmiy-pedagogik tahlili. // Inter education & global study. 2025. №12 vol.3. B.143-151

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОЗИТИВНОГО И НЕГАТИВНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ

© Г.Е.Турайева✉
[1]Термезский университет экономики и сервиса, Термез, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в современном образовательном процессе информационные технологии (ИТ) стали неотъемлемой частью преподавания и обучения. Они превращают образовательную среду в интерактивную, гибкую и богатую ресурсами, коренным образом изменяя традиционные педагогические подходы. Благодаря ИТ появились возможности такие как дистанционное обучение, виртуальные лаборатории, мультимедийные материалы и обучение на основе индивидуальных траекторий. Вместе с тем глубокая интеграция технологий

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

повышает педагогическую эффективность, но одновременно вызывает ряд негативных последствий: рассеивание внимания, психологическая усталость, проблемы физического здоровья и ослабление социальных отношений. В данной работе предполагается анализ педагогической эффективности и негативных воздействий ИТ в образовании с общей педагогической точки зрения, с целью формирования сбалансированного подхода. Актуальность темы проявляется в необходимости сохранения педагогических принципов и обеспечения приоритета человеческого фактора в процессе цифровизации образования.

**ЦЕЛЬ:** анализ педагогической эффективности и негативных последствий использования информационных технологий в образовательном процессе с общей педагогической точки зрения. В частности:

- выявить положительную роль ит в активизации процесса приобретения знаний учащимися, повышении мотивации и предоставлении возможностей индивидуализации;
- оценить психологические, когнитивные и социальные негативные последствия, возникающие в результате чрезмерного использования технологий;
- определить общие направления, направленные на обеспечение педагогического баланса.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak pedagoglarda AKT kompetensiyalarining shakllanishi uch asosiy komponentning uyg‘unlashuvini talab etadi: nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, refleksiv-madaniy yondashuv. Ushbu komponentlar pedagogning ta’lim jarayonini raqamlashtirishga tayyorligi, inklyuziv guruhlarda individual yondashuvni ta’minlashi va raqamli vositalardan didaktik maqsadlarga yo‘naltirilgan holda foydalanish salohiyatini belgilaydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Shuningdek, adabiyotlar tahlili AKT vositalaridan foydalanish bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ madaniyatini rivojlantirish, o‘quvchilar bilan axborot almashinuvini optimallashtirish va inklyuziv ta’lim sifatini oshirish imkonini berishini ko‘rsatdi. Tadqiqot metodologiyasi asosida ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlar esa AKT kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish zarurligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot inklyuziv ta’lim sharoitida bo‘lajak pedagogika fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida AKT kompetensiyalarini rivojlantirishning muhimligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berdi. Kelgusida bu yo‘nalishda amaliy-modul dasturlar yaratish, elektron metodik platformalar ishlab chiqish va raqamli pedagogik loyihalarni ta’lim jarayoniga tatbiq qilish bo‘yicha tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son
2. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. Mas’ul muharrir O‘zbekiston Respublikasi FA haqiqiy a’zosi Xayrullayev.M.M. Toshkent, Fan nashriyoti, 1975
3. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. I-t.O‘qituvchi, 1992
4. Avloniy A.Turkiy guliston yohud axloq.– T.: Ma’naviyat, 1998.
5. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari.- T.: Fan, 2007.
6. Raxmonov, O., Foziljonova, M., & o‘g‘li, A. M. I. (2022). Bo‘lajak informatika o‘qituvchisining shaxsiy kompetentlik oshirish modeli. Ta’lim fidoyilari, 16(3), 18-26.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

**Qayumov Muxammadsodiq Baxtiyor o‘g‘li**, Andijon davlat pedagogika instituti magistranti [**Каюмов Мухаммадсодик Бахтиёрович**, Магистрант Андижанского государственного педагогического института], [ Muhammadsodiq B.Kayumov, Master’s Degree Student, Andijan State Pedagogical Institute]; Manzil: Andijon viloyati, Bo‘ston tumani, Yakka tol MFY, Anxor ko‘cha 2-uy; [адрес: Андижанская область, Бустанский район, махалля Якка толь, улица Анхор, дом 2]; [adres: Andijan region, Buston district, Yakka tol Neighborhood, Ankhor street 2]; qayumovmuhammadsodiq1999@gmail.com

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# AVTOMOBILLARNING ELEKTR TIZIMLARI FANINING MANTIQIY ALOQADORLIK-UZVIYLIK ASOSIDA TANLANGAN O‘QUV MATERIALLARI MAZMUNINI YAGONA AXBOROT-DASTURIY VOSITA YORDAMIDA O‘RGANISH METODIKASI

© I.N.Saydaliyev[1], N.I.Rustamova[2]✉

[1]Andijon davlat texnika instituti Andijon, O’zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** zamonaviy avtomobilsozlik sanoatida elektr va elektron tizimlarning ulushi tobora ortib bormoqda, bu esa muhandis-texnik kadrlarni tayyorlash jarayonida “Avtomobillarning elektr tizimlari” fanining ahamiyatini keskin oshirmoqda. Avtomobilning ishga tushirilishi, harakat xavfsizligi, energiya ta’minoti va boshqaruv jarayonlari bevosita elektr tizimlari faoliyatiga bog‘liq. Shu sababli mazkur fanni o‘qitishda an’anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolmasdan, o‘quv materiallarini mantiqiy aloqadorlik va uzviylik asosida qayta tuzish hamda ularni yagona axborot-dasturiy vosita yordamida o‘zlashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalar va simulyatsion muhitlardan foydalanish talabalarda murakkab elektr jarayonlarini yaxlit tizim sifatida tushunish imkonini yaratadi.

**MAQSAD:** ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi “Avtomobillarning elektr tizimlari” fanining o‘quv materiallarini mantiqiy aloqadorlik va uzviylik tamoyillari asosida tanlab, ularni yagona axborot-dasturiy vosita orqali o‘rganish metodikasini ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqotda talabalar uchun nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtiruvchi, diagnostik va muhandislik fikrlashini rivojlantiruvchi samarali o‘qitish modelini yaratish ko‘zda tutiladi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqot jarayonida mazkur fan bo‘yicha milliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, o‘quv dasturlari hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Metodik asos sifatida tizimli yondashuv, taqqoslash, tahlil va sintez usullaridan foydalanildi. O‘quv jarayonida Moodle elektron ta’lim platformasi, AutoCAD Electrical, Multimetr asosidagi diagnostik modellar hamda “Gamma” virtual laboratoriya modullari qo‘llanildi. Pedagogik tajriba nazorat va tajriba guruhlari asosida tashkil etilib, test sinovlari, amaliy topshiriqlar va kuzatishlar orqali o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasi baholandi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quv materiallarini yagona axborot-dasturiy vosita asosida, uzviy va mantiqiy ketma-ketlikda o‘rganish talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirdi. Tajriba guruhidagi talabalar elektr zanjirlarini tahlil qilish, nosozliklarni aniqlash va texnik yechimlar taklif etishda yuqori natijalarga erishdi. Raqamli va vizual modellashtirish vositalari murakkab jarayonlarni tushunishni yengillashtirib, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

mustahkamladi. Natijada talabalar diagnostik fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirdi.

**XULOSA:** xulosa qilib aytganda, “Avtomobillarning elektr tizimlari” fanini mantiqiy aloqadorlik va uzviylik asosida tanlangan o‘quv materiallari hamda yagona axborot-dasturiy vosita yordamida o‘qitish metodikasi o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Ushbu yondashuv talabalarda mustahkam nazariy bilimlar, barqaror amaliy ko‘nikmalar va zamonaviy muhandislik tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Taklif etilgan metodika texnik yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalarida qo‘llash uchun maqsadga muvofiqdir.

**Kalit so‘zlar:** avtomobillarning elektr tizimlari, axborot-dasturiy vositalar, raqamli ta’lim, mantiqiy uzviylik, virtual laboratoriya, muhandislik kompetensiyasi.

**Iqtibos uchun**: I.N.Saydaliyev, N.I.Rustamova Avtomobillarning elektr tizimlari fanining mantiqiy aloqadorlik-uzviylik asosida tanlangan o‘quv materiallari mazmunini yagona axborot-dasturiy vosita yordamida o‘rganish metodikasi // Inter education& global study. 2025. Vol.3. №12. B.202–213.

## МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ СОДЕРЖАНИЯ УЧЕБНОГО МАТЕРИАЛА, ВЫБРАННОГО НА ОСНОВЕ ЛОГИЧЕСКОЙ ВЗАИМОСВЯЗАННОСТИ-ПРЕЕМСТВЕННОСТИ НАУКИ ОБ ЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СИСТЕМАХ АВТОМОБИЛЕЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЕДИНОГО ИНФОРМАЦИОННО-ПРОГРАММНОГО СРЕДСТВА

©И.Н.Сайдалиев[1]✉, Н.И.Рустамова[2]✉
[1]Андижанский государственный технический институт, Андижан, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в современном автомобилестроении доля электрических и электронных систем постоянно увеличивается, что значительно повышает значимость дисциплины «Электрические системы автомобиля» в подготовке инженерно-технических кадров. Работа автомобиля, безопасность движения, энергоснабжение и процессы управления напрямую зависят от функционирования электрических систем. Поэтому преподавание данной дисциплины требует не только традиционных подходов, но и логической упорядоченности учебного материала, его интеграции в единую информационно-программную среду. Использование цифровых технологий и симуляционных сред позволяет студентам воспринимать сложные электрические процессы как целостную систему.

**ЦЕЛЬ:** основной целью исследования является разработка и научное обоснование методики изучения дисциплины «Электрические системы автомобиля» на основе логической взаимосвязанности и целостности учебного материала, интегрированного в единую информационно-программную среду. Задача исследования — создать эффективную модель обучения, которая способствует сочетанию теоретических знаний с практическими навыками, развитию диагностического и инженерного мышления студентов.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в ходе исследования был проведен анализ отечественной и зарубежной научной литературы, учебных программ и нормативно-правовых документов. Методологической основой послужили системный подход, методы сравнения, анализа и синтеза. В учебном процессе применялись электронная образовательная платформа Moodle, AutoCAD Electrical, диагностические модели на основе мультиметров, а также виртуальные лабораторные модули «Gamma». Педагогический эксперимент проводился на контрольной и экспериментальной группах с использованием тестов, практических заданий и наблюдений для оценки уровня усвоения учебного материала.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты исследования показали, что изучение учебного материала в единой информационно-программной среде с логической и последовательной структурой значительно повышает мотивацию студентов к дисциплине. Студенты экспериментальной группы лучше справлялись с анализом электрических цепей, выявлением неисправностей и предложением технических решений. Цифровые и визуальные средства моделирования облегчали понимание сложных процессов и укрепляли связь теории с практикой. В результате развивались навыки диагностического мышления и самостоятельного принятия решений

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** таким образом, методика преподавания дисциплины «Электрические системы автомобиля» на основе логической взаимосвязанности учебного материала и единой информационно-программной среды повышает эффективность учебного процесса. Подход способствует формированию у студентов прочных теоретических знаний, практических навыков и современного инженерного мышления. Разработанная методика может быть применена в технических вузах для оптимизации подготовки специалистов

**Ключевые слова:** электрические системы автомобиля, информационно-программные средства, цифровое обучение, логическая взаимосвязанность, виртуальная лаборатория, инженерная компетентность.

**Для цитирования**: Сайдалиев И.Н., Рустамова Н.И. Методика изучения содержания учебного материала, выбранного на основе логической взаимосвязанности-преемственности науки об электрических системах автомобилей с использованием единого информационно-программного средства // Inter education & global study.2025. Vol.3. №12. С. 202–213.

## METHODOLOGY FOR STUDYING THE CONTENT OF SELECTED EDUCATIONAL MATERIALS ON THE BASIS OF LOGICAL CONNECTION-CONTINUITY OF THE SCIENCE OF ELECTRICAL SYSTEMS OF CARS USING A SINGLE INFORMATION AND SOFTWARE TOOL

©Ismoil N. Saydaliyev[1], Nigora I. Rustamova[2]✉
[1] Andijan State Technical Institute, Andijan, Uzbekistan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Annotation

**INTRODUCTION:** in modern automotive engineering, the share of electrical and electronic systems is steadily increasing, which significantly enhances the importance of the “Automotive Electrical Systems” course in the training of engineering personnel. Vehicle operation, driving safety, energy supply, and control processes are directly dependent on the functioning of electrical systems. Therefore, teaching this discipline requires not only traditional methods but also a logically structured curriculum integrated into a unified digital environment. The use of digital technologies and simulation platforms enables students to perceive complex electrical processes as a coherent system.

**AIM:** the main objective of this study is to develop and scientifically substantiate a methodology for teaching the “Automotive Electrical Systems” course based on the logical coherence and integrity of the curriculum within a unified digital learning environment. The study aims to create an effective instructional model that combines theoretical knowledge with practical skills while fostering students’ diagnostic and engineering thinking

**MATERIALS AND METHODS:** the study involved an analysis of domestic and international scientific literature, curricula, and regulatory documents. The methodology was based on a systematic approach and methods of comparison, analysis, and synthesis. In the educational process, the Moodle e-learning platform, AutoCAD Electrical, multimeter-based diagnostic models, and “Gamma” virtual laboratory modules were utilized. A pedagogical experiment was conducted with control and experimental groups, using tests, practical tasks, and observations to assess the level of knowledge acquisition.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the results demonstrated that studying the curriculum in a unified digital environment with a logically structured sequence significantly increased student motivation. Students in the experimental group performed better in analyzing electrical circuits, identifying faults, and proposing technical solutions. Digital and visual simulation tools facilitated understanding of complex processes and strengthened the connection between theory and practice. Consequently, diagnostic thinking and independent decision-making skills were developed.

**CONCLUSION**: in summary, the methodology for teaching “Automotive Electrical Systems” based on logical coherence and integration into a unified digital environment enhances the efficiency of the educational process. This approach promotes the development of solid theoretical knowledge, practical skills, and modern engineering thinking among students. The proposed methodology is suitable for implementation in technical universities to optimize specialist training.

**Keywords:** automotive electrical systems, digital learning tools, e-learning, logical coherence, virtual laboratory, engineering competence

**For citation**: Ismoil N. Saydaliyev, Nigora I. Rustamova (2025), Methodology for studying the content of selected educational materials on the basis of logical

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

connection-continuity of the science of electrical systems of cars using a single information and software tool. Inter education & global study, vol.3 (12), pp. 202–213. (In Uzbek).

“**A**vtomobillarning elektr tizimlari” fani transport muhandisligi sohasida talabalarga zarur bo‘lgan nazariy va amaliy bilimlarni taqdim etadi. Bu fan avtomobil tizimlarini boshqarish, diagnostika qilish va sozlash bo‘yicha muhim ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bugungi kunda avtomobillarning elektr tizimlaridagi texnologik yangiliklar va komplekslikларning o‘sishi, o‘qitish metodologiyasini yangilashni talab qiladi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim tizimiga integratsiyasi o‘quv jarayonini yanada samarali va interfaol qilish imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, talabalarga elektr tizimlarini o‘rganishda yangi, innovatsion metodlarni qo‘llash imkonini yaratadi. [9–10] Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi “Avtomobillarning elektr tizimlari” fanini o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarini, simulyatsion dasturlarni va interfaol ta’lim metodlarini integratsiya qilish orqali talabalarda chuqur nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishdir. Tadqiqotda o‘quv jarayonini zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish, masalan, Moodle, AutoCAD Electrical, Multimeter, va “Gamma” kabi platformalarni qo‘llash orqali elektr tizimlarini o‘rganishning innovatsion yondashuvlari ishlab chiqiladi [8–10]. Ushbu metodlar talabalarga avtotexnik tizimlarni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganishga, kompleks diagnostika tizimlarini yaratish va muammolarni texnik jihatdan hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, tadqiqotda avtomobil elektr tizimlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya ishlari jarayonlarini raqamli va simulyatsion vositalar yordamida tashkil etishning samaradorligi tahlil qilinadi [8–9]. Tadqiqotda o‘quvchilarning interaktiv tarzda o‘qish, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar ishlab chiqiladi. Natijada, o‘quvchilarga nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy tajriba ham berilib, zamonaviy avtomobil tizimlaridagi xatoliklarni aniqlash va ularni tuzatish bo‘yicha muhandislik tafakkurini rivojlantirishga erishiladi. Shuningdek, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va talabalarning kasbiy kompetensiyalarini yanada kuchaytirish maqsadida, ilg‘or raqamli platformalar va ta’lim vositalaridan keng foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi [9–11].

Mavzuga oid eng yangi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Avtomobillarning elektr tizimlari” fanini o‘qitish samaradorligini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar asosan uchta yo‘nalishda jamlangan: birinchisi, o‘quv mazmunini zamonaviy ilmiy-texnik yutuqlar darajasiga moslashtirish; ikkinchisi, raqamli va simulyatsion muhit asosida o‘qitish texnologiyalarini joriy etish; uchinchisi esa talabalarda amaliy-texnik kompetensiyalarni shakllantirishni ta’minlaydigan integrallashgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqishdir [3–6,13,14].

Jahon tajribasini tahlil qilish jarayonida alison.com, autotrainingcentre.com, ljcreate.com kabi platformalarda taqdim etilgan onlayn kurslar, shuningdek Montgomery

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

College (AQSh)ning “Automotive Electrical Systems Specialist Certificate” dasturi, IMI (Birlashgan Qirollik)ning “Vehicle Electrics 1 (VE1)” kursi, Metropolia University of Applied Sciences (Finlyandiya)dagi “Automotive Electrics” bakalavriat moduli va Brno University of Technology (Chexiya)ning “Automotive Electronics and Electromobility” yo‘nalishi o‘quv materiallari o‘rganildi; bu manbalar avtomobil elektr tizimlarini o‘qitishda interfaol, vizual va amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvlar ustuvorligini yaqqol ko‘rsatib beradi. Shu bilan birga, [3–6,13] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3775-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-oktabrdagi 816-son qarorida oliy ta’lim uchun o‘quv adabiyotlari mazmuni fan va texnika sohasidagi so‘nggi yutuqlarni aks ettirishi, dinamik jarayonlarni yoritishda elektron ta’lim vositalaridan foydalanish, tasviriy materiallar ulushini oshirish va talabalarni tanqidiy fikrlashga undaydigan metodik yechimlarni qo‘llash zarurligi ta’kidlanadi; bu talablar mazkur tadqiqotning nazariy-metodik tayanchini tashkil etdi.

Milliy va xorijiy manbalarni taqqoslash natijasida avtomobil elektr tizimlari bo‘yicha an’anaviy darslik va qo‘llanmalarda fundamental nazariy tushunchalar yetarli yoritilgan bo‘lsa-da, ularning raqamli ta’lim muhiti, virtual laboratoriyalar va masofaviy monitoringi bilan uzviy bog‘lanishi yetarli darajada ishlab chiqilmagani aniqlandi [13–14]. Shu bois tadqiqot doirasida “Avtomobillarning elektr tizimlari” fanining o‘quv mazmuni ilmiylik, fundamentallik, nazariya va amaliyot birligi, tizimlilik hamda ta’limning izchilligi va uzluksizligi tamoyillariga tayangan holda qayta ko‘rib chiqildi, avtomobil elektr tizimlarini tuzilishi, ularning modellarini ishlab chiqish va amaliy muammolarini yechishga qaratilgan tizimli bloklar shakllantirildi. Tadqiqot metodologiyasi mazmuniy-tahliliy [1–3,13–15], loyihalash va pedagogik tajriba elementlarini birlashtiruvchi kompleks yondashuvga asoslangan bo‘lib, dastlab mavjud darsliklar, xorijiy o‘quv dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar mazmuniy tahlil qilindi, so‘ngra ularning asosida fan bo‘yicha yangilangan o‘quv-modul tizimi va elektron-resurslar majmuasi loyihalashtirildi.

“Moodle” platformasida ma’ruza matnlari, testlar, interfaol topshiriqlar va muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar jamlangan elektron kurs yaratildi; “Proteus”, “AutoCAD Electrical”, “Multisim” va “C++” muhitlarida elektr zanjirlari, boshqaruv algoritmlari va diagnostika stsenariylarini modellashtiruvchi virtual laboratoriya ishlarining ketma-ketligi ishlab chiqildi; “Gamma” platformasida esa akkumulyator, generator, starter, o‘t oldirish tizimi, injektorlar, elektr benzin nasosi, yoritish va datchiklar laboratoriyasi bo‘yicha alohida sahifalar shakllantirildi.

1.1-jadval.

**Avtomobillarning elektr tizimlari fanini elektron dasturlar asosida boyitilgan mavzulari**

| **Dars mashg’ulotlar mavzulari** | **Mavzularning elektron manzili** |
|---|---|
| **Ma’ruza mashg’ulotlar** | |


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

| | |
|---|---|
| Kirish. Fanning maqsadi va vazifalari | https://www.youtube.com/watch?v=4KxkrELyOUQ YouTube |
| Akkumulyator batareyalari | https://www.youtube.com/watch?v=VnPRX5zQWLw YouTube |
| Qo‘rg‘oshinli startyor akkumulyator batareyalarining konstruksiyasi va turlari | https://www.youtube.com/watch?v=SPeEDP6rzu8 |
| Generator qurilmalari | https://www.youtube.com/watch?v=jdSKlg80DjU YouTube |
| Kuchlanish rostlagichlari | https://www.youtube.com/watch?v=UxXuKOQTASE https://www.youtube.com/watch?v=j5sfAebQPow |
| Elektr bilan ta’minlash tizimining nosozliklari va ularni diagnostika qilish | https://www.youtube.com/watch?v=kQfdq3TNWYo |
| Elektrdan ishga tushirish tizimining vazifasi va komponovka sxemalari; Ishga tushirishni yengillashtirish; Elektrdan ishga tushirish tizimining nosozliklari va ularni diagnostika qilish | https://www.youtube.com/watch?v=POW5xWIT2Ds YouTube |
| O‘t oldirish tizimlari | https://youtu.be/TqQE0xkCJ8c?si=6ArRERj9KzHX5Kqq |
| O‘t oldirish shamlari | https://www.youtube.com/watch?v=5hAMqsZkTTQ YouTube |
| Yonilg‘i uzatilishini elektron boshqarish; Havoni kondensatsiyalash tizimlari | https://www.youtube.com/watch?v=PSxTy05gym8 YouTube |
| Transmissiyani avtomatik boshqarish tizimlari | https://www.youtube.com/watch?v=Y1zbE21Pzl0 |
| Yoritish va signalizatsiya tizimi | https://www.youtube.com/watch?v=k3ckC8FCwsU YouTube |

**Labaratoriya mashg’ulotlari**

| | |
|---|---|
| Akkumulyatorlar batareyasining texnik holatini aniqlash | https://akkumulyator-batareyalar-lyof5yh.gamma.site/ |
| Generatorlar texnik holatini tekshirish. | https://avtomobil-generatorlari-wy2861d.gamma.site/ |
| Elektrostartyorlarning texnik holatini tekshirish. | https://avtomobil-generatorlari-wy2861d.gamma.site/elektrostarter- |

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

| | |
|---|---|
| | diagnostika |
| Elektrdan o‘t oldirish tizimini diagnostika qilish. | https://elektrdan-ot-oldirish-ti-4shzweb.gamma.site/ |
| Injektorlar ishini tekshirish. | https://injektorlar-tekshirish-18tbqq8.gamma.site/ |
| Elektr benzin nasos ishini tekshirish | https://elektr-benzin-nasosi-bvghfh3.gamma.site/ |
| Yoritish asboblarini ishini tekshirish | https://datchiklar-laboratoriyas-cg5p5bd.gamma.site/ |
| Datchiklar va yordamchi elektr jihozlari ishini tekshirish | https://datchiklar-laboratoriyas-cg5p5bd.gamma.site/ |
| Elektr jihozlari va tizimlarini kompleks diagnostika qilish. | https://avtomobil-diagnostika-7mdwt0f.gamma.site/ |
| **Amaliy mashg’ulotlar** | |
| Amaliy mashgulotlarni otkazish tartibi | https://avtomobillar-fanida-amal-ttfe0uj.gamma.site/ |
| Avtomobil va traktorlarning umumiy elektr sxemalarini o‘rganish | https://gamma.app/docs/1-amaliy-mashgulot-pxox7i5mj0s1asg?mode=doc |
| Yoritish va signalizastiya tizimi elektr zanjirini o‘rganish | https://avtomobillar-yoruglik-si-9g2834p.gamma.site/ |
| Informastion-diagnostik tizim sxemalrini o‘rganish | https://avtomobillar-diagnostik--qiwva9k.gamma.site/# |
| O‘t oldirish tizimini diagnostika qilish qurilmalari | https://avtomobil-tizimlari-50xk8yp.gamma.site/ |
| Elektr bilan ta ‘minlash tizimini diagnostika qilish qurilmalari | https://avtomobil-elektr-5lwpalj.gamma.site/ |
| Ko‘p funkstiyali multimetrlar | https://kop-funksiyali-multimetr-kgl29qr.gamma.site/ |
| Yordamchi elektr jihozlarining ishlashini o‘rganish | https://avtomobil-yordamchi-elek-d706tqi.gamma.site/#kontakt |

1.1-jadvalda ma’ruza, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha YouTube va Gamma resurslariga bog‘langan elektron manzillar tizimlashtirib berilgani ushbu metodikaning axborot bazasini aniq ko‘rinishda ifodalaydi va har bir mavzu uchun raqamli qo‘llab-quvvatlash darajasini belgilab beradi [7–8]. Pedagogik tajriba jarayonida mazkur resurslar turli kurslarda o‘qiyotgan talabalarga bosqichma-bosqich joriy etildi: nazorat guruhlarida asosan mavjud an’anaviy metodlar, tajriba guruhlarida esa yangi elektron-modulli yondashuv qo‘llandi. Mazkur bosqichda kuzatish, og‘zaki va yozma so‘rovnomalar, test sinovlari, amaliy topshiriqlarni bajarish natijalarini tahlil qilish,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

shuningdek talabalarning loyiha ishlari va diagnostika algoritmlarini tuzishdagi faoliyatini baholash kabi usullar asosiy empirik metodlar sifatida tanlandi. Olingan ma'lumotlar sifat va miqdoriy jihatdan tahlil qilinib, o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasi, diagnostik fikrlash elementlari, muammoli vaziyatlarda texnik yechim taklif etish qobiliyatidagi o‘zgarishlar aniqlangan holda baholandi. Shu tariqa, hozirgi tadqiqotning “materiallar va metodlar” qismida xalqaro va mahalliy adabiyotlar tahlili, normativ-huquqiy asoslar, raqamli ta'lim platformalari va virtual laboratoriyalarni birlashtiruvchi o‘quv-metodik kompleks, shuningdek nazorat–tajriba guruhlari misolida sinovdan o‘tkazilgan pedagogik eksperiment metodologiyasi o‘zaro bog‘langan holda qo‘llanildi; bu esa “Avtomobillarning elektr tizimlari” fanini innovatsion, modulli va kompetensiyaga yo‘naltirilgan o‘qitish modelini ilmiy asoslashga xizmat qildi [1–3,7–10,15].

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan o‘qitish modeli va axborot-dasturiy majmua amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etilgan sari bir nechta muhim tendensiyalar kuzatildi. Avvalo, “Avtomobillarning elektr tizimlari” fanini an'anaviy ma'ruza-amaliy darslar shaklidayam, yangi elektron-modulli yondashuv asosidayam o‘qiyotgan guruhlar taqqoslanganda, tajriba guruhidagi talabalarning fanga bo‘lgan munosabati va ishtirok faolligi ancha yuqori bo‘lgani sezildi. “Moodle” platformasida joylashtirilgan ma'ruza matnlari, interfaol topshiriqlar va testlar talabalarga mavzuni o‘ziga qulay tezlikda qayta ko‘rish, savollar berish va mustaqil tayyorgarlik ko‘rish uchun keng imkon yaratdi [10]. Amaliy ko‘nikmalar nuqtai nazaridan ham sezilarli farqlar namoyon bo‘ldi. Gamma platformasiga joylashtirilgan akkumulyator, generator, starter, o‘t oldirish, injektor, elektr benzin nasosi, yoritish va datchiklar laboratoriyasiga oid sahifalar asosida tuzilgan topshiriqlar talabalardan nosozlikni topish algoritmini mustaqil ishlab chiqishni talab qildi. Nazorat guruhidagi talabalar ko‘proq tayyor sxemani ko‘rib, o‘qituvchi bergan ketma-ketlikni takrorlash darajasida qolgan bo‘lsa, tajriba guruhidagi talabalar elektr zanjirini bosqichma-bosqich tekshirish, ehtimoliy xatoliklarni ehtimol darajasiga qarab prioritetlashtirish, zarur o‘lchovlarni tanlash bo‘yicha ancha mustaqil harakat qila boshladi. Multimetrdan foydalanish, kontakt oksidlanishi, qisqa tutashuv yoki zaryad yo‘qotish holatini aniqlash kabi amaliy vazifalarda ular kamroq xatoga yo‘l qo‘ydi, vaqt jihatdan ham tezroq yechimga erishdi. Yangi o‘qitish modeli talabaning faqat bilish sohasini emas, balki kommunikativ va refleksiv kompetensiyalarini ham qo‘llab-quvvatlagani ko‘rindi.

“Mentimeter” va Moodle'dagi forumlar orqali o‘tkazilgan tezkor so‘rov va fikr almashish sessiyalari talabalarning o‘z fikrini asoslab berish, boshqa guruhdoshlar taklifini tahlil qilish, tanqidiy yondashish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Dars jarayonida “brainstorming”, “case-study” va loyiha asosida o‘qitish elementlari qo‘llanganda, talabalar real texnik vaziyatni tahlil qilish, bir nechta yechim variantini taklif qilish va simulyatsion muhitda sinab ko‘rish orqali muhandislik tafakkurini bosqichma-bosqich shakllantira oldilar [9-13]. Shu bilan birga, olib borilgan ishlarning ayrim cheklovlarini ham qayd etish zarur. Tadqiqot bir oliy ta'lim muassasasi va ma'lum miqdordagi talabalar guruhi misolida tashkil etilganligi sababli, olingan natijalarni barcha texnik yo‘nalishlarga


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

bevosita ko‘chirishdan avval, kengroq qamrovdagi tajribalar o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, talabalarning o‘zlashtirish darajasini baholashda test natijalari, amaliy topshiriqlar, kuzatuv va so‘rovnomalar birgalikda qo‘llanildi, biroq uzoq muddatli monitoring – masalan, bitiruvdan keyingi kasbiy faoliyatda ushbu ko‘nikmalarning qay darajada ishlayotgani – mazkur tadqiqot doirasida to‘liq o‘rganilmadi. Kelgusida bu yo‘nalishda izchil longitudial tadqiqotlar olib borish zarur. Umuman olganda, muhokama qilingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, “Avtomobillarning elektr tizimlari” fanini raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar va interfaol metodlar asosida tashkil etish talabalarning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, tahliliy va diagnostik fikrlashini sezilarli darajada rivojlantiradi. Ishlab chiqilgan model nazariya va amaliyot birligiga erishish, DTS talablarini real o‘quv jarayoniga singdirish, xalqaro tajriba bilan milliy o‘quv dasturlarini uyg‘unlashtirish bo‘yicha kutilgan maqsadlarga erishishga xizmat qildi [1–3,15].

Tadqiqotning bosh maqsadi – “Avtomobillarning elektr tizimlari” fanini o‘qitishda zamonaviy axborot-dasturiy vositalar va simulyatsion texnologiyalarni integratsiya qilish orqali talabalarda kompleks kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish – mazmunan amalga oshdi. Ilmiy adabiyotlar va xalqaro tajriba tahlili asosida fan mazmuni ilmiylik, fundamentallik, tizimlilik, nazariya va amaliyot birligi hamda ta’limning izchilligi tamoyillariga tayangan holda qayta ko‘rib chiqildi, o‘quv materialining yangi tuzilishi taklif etildi. Moodle, YouTube, Gamma, Proteus, AutoCAD Electrical, Multisim va boshqa dasturiy muhitlarga tayangan o‘quv-metodik kompleks ishlab chiqildi va tajriba-sinov darslarida sinab ko‘rildi. Nazorat va tajriba guruhlarini taqqoslash orqali talabalarning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, diagnostik fikrlash va fanga bo‘lgan motivatsiyasi bo‘yicha ijobiy dinamikalar qayd etildi, bu esa tadqiqot savollariga amaliy javob bo‘lib xizmat qildi.

Olingan natijalarga tayangan holda quyidagi umumiy xulosalarni berish mumkin: birinchidan, avtomobil elektr tizimlarini faqat an’anaviy ma’ruza va laboratoriya mashg‘ulotlari doirasida o‘qitish bugungi texnologik talablarga to‘liq javob bermaydi; raqamli ta’lim muhiti, virtual stendlar va interfaol topshiriqlar bilan boyitilgan model ancha samarali. Ikkinchidan, talabalarning elektromagnit jarayonlar, zaryadlanish, tok va kuchlanish dinamikasi, boshqaruv va diagnostika tizimlari haqidagi bilimlari simulyatsion muhitda mustaqil tahlil va tajriba orqali ancha chuqurroq shakllanadi. Uchinchidan, Moodle va Gamma kabi platformalarda tashkil etilgan tizimli resurslar, 2.1-jadvalda berilganidek, ma’ruza, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarni yagona axborot maydoniga birlashtirishga yordam beradi va bu, o‘z navbatida, o‘quv jarayonining ichki mantiqiy uzviyligini kuchaytiradi. To‘rtinchidan, interfaol metodlar – case-study, loyiha ishlari, muammoli vaziyatlar – talabalarning mustaqil fikrlashini, texnik mantiqini va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari asosida bir qator amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, texnik yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalarida “Avtomobillarning elektr tizimlari” fanini o‘qitishda raqamli ta’lim platformalariga tayangan modul-kurslar bosqichma-bosqich joriy etilishi maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, fan bo‘yicha milliy darajadagi elektron resurslar

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

bankini yaratish, unda videodarslar, virtual laboratoriyalar, interfaol testlar va loyiha topshiriqlarini yagona standart asosida jamlash tavsiya etiladi. Uchinchidan, o‘qituvchilar uchun alohida malaka oshirish kurslari tashkil etilib, ularga Moodle, Gamma, Proteus, AutoCAD Electrical, Multisim va shunga o‘xshash vositalardan o‘quv jarayonida samarali foydalanish metodikasi o‘rgatilishi zarur. To‘rtinchidan, kelgusidagi tadqiqotlarda bitiruvchilarning real ishlab chiqarishdagi faoliyati monitoring qilinib, ular egallagan raqamli va diagnostik kompetensiyalarning amaliy natijalarga ta’siri chuqurroq o‘rganilishi lozim. Shu tarzda, mazkur tadqiqot o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalarni bajarishga erishdi, “Avtomobillarning elektr tizimlari” fanini o‘qitish metodikasini modernizatsiya qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan model va amaliy yechimlar taqdim etdi hamda keyingi izlanishlar uchun aniq metodik va tashkiliy yo‘nalishlarni belgilab berdi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3775-son qarori. Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. – Toshkent, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-oktabrdagi 816-son qarori. Oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv adabiyotlariga qo‘yiladigan talablar. – Toshkent, 2018.
3. Montgomery College (USA). Automotive Electrical Systems Specialist Certificate Program. – Official curriculum.
4. The Institute of the Motor Industry (IMI, UK). Vehicle Electrics 1 (VE1). Official course materials.
5. Metropolia University of Applied Sciences (Finland). Automotive Electrics – Bachelor’s Degree Program Materials. Helsinki, 2020.
6. Brno University of Technology (Czech Republic). Automotive Electronics and Electromobility: Electronic Teaching Materials.
7. YouTube elektron videodarslar to‘plami (akkumulyator, generator, kuchlanish rostlagichi, starter, o‘t oldirish, transmissiya va b.) – 1.1-jadvalda keltirilgan havolalar bo‘yicha.
8. Gamma.app elektron laboratoriya stendlari seriyasi (akkumulyator, generator, starter, datchiklar, kompleks diagnostika va b.) – 1.1-jadvalda keltirilgan havolalar bo‘yicha.
9. AutoCAD Electrical, Proteus, Multisim, C++ dasturlarining rasmiy texnik hujjatlari va foydalanuvchi qo‘llanmalari.
10. Moodle Learning Management System. MoodleDocs. Oxirgi versiya hujjatlari.
11. Mentimeter. Interactive Learning Tools Documentation. Stockholm, 2023.
12. Arduino Education. Arduino Educational Kit Guide. 2022.
13. Automotive Electrical Systems Fundamentals. 2019; Modern Vehicle Electronics. SAE International, 2018; Introduction to Electromagnetic Processes in Automotive Engineering. 2020.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

14. Панов, А. Автомобильные электрические системы. Москва: Машиностроение, 2016; Живаев, В. Электронные системы автомобилей. Санкт-Петербург: БХВ, 2018.
15. Davlat ta’lim standartlari (DTS). Transport vositalari muhandisligi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha namunaviy o‘quv dasturi. – Toshkent, 2022.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Saydaliyev Ismoiljon Nurmamatovich, Rustamova Nigora Ixtiyorovna**, o‘qituvchi [**Сайдалиев Исмаилжон Нурмаматович, Рустамова Нигора Ихтияровна**, преподаватель], [**Ismoil N.Saydaliyev, Nigora I.Rustamova**, teacher]; manzil: Andijon davlat texnika instituti]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA SUZISH MASHG‘ULOTLARI ORQALI JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

© X.A. Mengliqulov[1]✉

[1]Termiz davlat universiteti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: maktab yoshidagi o‘quvchilarda jismoniy sifatlarni (chidamlilik, tezkorlik, kuch, chaqqonlik, egiluvchanlik) rivojlantirish jismoniy tarbiya tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Suzish mashg‘ulotlari suv muhitining o‘ziga xos sharoiti tufayli ko‘p mushak guruhlarini bir vaqtda ishga jalb etadi, harakat koordinatsiyasini takomillashtiradi va jismoniy sifatlarni xavfsiz hamda bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, maktab amaliyotida suzish mashg‘ulotlari ko‘pincha texnikani o‘rgatish bilan cheklanib, jismoniy sifatlarni maqsadli rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuv yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

**MAQSAD:** maktab yoshidagi o‘quvchilarda suzish mashg‘ulotlari orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvning mazmuni, tuzilmasi va amaliy tavsiyalarini asoslash.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda suzish mashg‘ulotlarini tashkil etishga doir ilmiy-uslubiy manbalar tahlili, jismoniy tarbiya va suzish bo‘yicha amaliy tajribani umumlashtirish, pedagogik kuzatuv hamda metodik tahlil usullaridan foydalanildi. Metodik yondashuvda suzish mashg‘ulotlarining tuzilmasi (qizish–asosiy qism–yakun), yuklama me’yorlarini yoshga mos tanlash, texnika va jismoniy sifatlarni uyg‘un rivojlantirish, xavfsizlik va tiklanish omillarini hisobga olish tamoyillari asos qilib olindi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tahlil natijalari suzish mashg‘ulotlari jarayonida jismoniy sifatlarni maqsadli rivojlantirish uchun mashqlarni bosqichma-bosqich tanlash va rejalashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Chidamlilikni rivojlantirishda masofali va ritmik suzish seriyalari, tezkorlikni oshirishda qisqa masofali tezlik mashqlari, kuch va chaqqonlikni shakllantirishda suv qarshiligidan foydalanilgan mashqlar hamda koordinatsiyani takomillashtiruvchi elementlar samarali hisoblanadi. Metodik yondashuvda yosh xususiyatlari, o‘quvchining tayyorgarlik darajasi va texnik ko‘nikmalar bosqichlari e’tiborga olinishi jismoniy sifatlarning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

**XULOSA:** suzish mashg‘ulotlari maktab yoshidagi o‘quvchilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun yuqori pedagogik imkoniyatga ega bo‘lib, ularni tizimli va maqsadli metodika asosida tashkil etish chidamlilik, tezkorlik, kuch, chaqqonlik hamda egiluvchanlikni kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Mashg‘ulotlarni yoshga mos yuklama, bosqichma-bosqichlik, texnika va jismoniy sifatlar uyg‘unligi hamda xavfsizlik

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

talablariga tayangan holda rejalashtirish maktab amaliyotida suzishning samaradorligini oshiradi.

**Kalit so‘zlar:** suzish mashg‘ulotlari; maktab yoshidagi o‘quvchilar; jismoniy sifatlar; chidamlilik; tezkorlik; kuch; chaqqonlik; egiluvchanlik; suzish metodikasi; jismoniy tarbiya

**Iqtibos uchun**: Mengliqulov X.A. Maktab yoshidagi o‘quvchilarda suzish mashg‘ulotlari orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodikasi. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. B.214–223.

# МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ У УЧАЩИХСЯ ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА СРЕДСТВАМИ ЗАНЯТИЙ ПЛАВАНИЕМ

©Х.А. Менгликулов[1]✉
[1]Термезский государственный университет, Термез, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: развитие физических качеств выносливости, быстроты, силы, ловкости, гибкости у учащихся школьного возраста является одной из ключевых задач системы физического воспитания. Занятия плаванием благодаря специфике водной среды вовлекают в работу большинство мышечных групп, совершенствуют координацию движений и создают условия для безопасного и поэтапного развития физических качеств. Вместе с тем в школьной практике занятия плаванием нередко ограничиваются обучением технике, тогда как методика целенаправленного развития физических качеств средствами плавания требует более чёткого обоснования и систематизации.

**ЦЕЛЬ:** обосновать содержание, структуру и практические рекомендации методики развития физических качеств у учащихся школьного возраста посредством занятий плаванием.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в исследовании использованы анализ научно-методической литературы по плаванию и физическому воспитанию, обобщение практического опыта, педагогическое наблюдение и методический анализ. При разработке методики учитывались структура занятия (разминка–основная часть–заключительная часть), возрастная адекватность нагрузки, сочетание обучения технике с развитием физических качеств, а также требования безопасности и восстановления.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** нализ показал, что для целенаправленного развития физических качеств на занятиях плаванием необходимо поэтапно подбирать и планировать упражнения. Развитие выносливости обеспечивается сериями дистанционного и ритмичного плавания, быстроты - скоростными отрезками на коротких дистанциях, силы и ловкости - упражнениями с использованием сопротивления воды и координационно-сложными элементами, гибкости - специальными подготовительными и восстановительными

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

упражнениями. Учёт возрастных особенностей, уровня подготовленности и этапов формирования техники способствует устойчивому развитию физических качеств.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** занятия плаванием обладают высоким педагогическим потенциалом для развития физических качеств у школьников, а их системная организация на основе целенаправленной методики обеспечивает комплексное совершенствование выносливости, быстроты, силы, ловкости и гибкости. Планирование занятий с учётом возрастной нагрузки, поэтапности, единства технической и физической подготовки, а также требований безопасности повышает эффективность плавания в школьной практике.

**Ключевые слова:** занятия плаванием; учащиеся школьного возраста; физические качества; выносливость; быстрота; сила; ловкость; гибкость; методика плавания; физическое воспитание.

**Для цитирования**: Менгликулов Х. А Методика развития физических качеств у учащихся школьного возраста средствами занятий плаванием . // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. С. 214–223.

## CULTURAL FEATURES OF LIVESTOCK TERMINOLOGY IN RUSSIAN AND UZBEK DIALECTS

© Xayrullo A. Menglikulov[1]✉
[1]Termez State University, Termez, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: developing physical qualities (endurance, speed, strength, agility, flexibility) in school-aged students is one of the main objectives of the physical education system. Due to the specific conditions of the aquatic environment, swimming training engages many muscle groups simultaneously, improves movement coordination, and enables the safe and gradual development of physical qualities. However, in school practice, swimming lessons are often limited to teaching technique, and a methodological approach aimed at the purposeful development of physical qualities has not been sufficiently systematized.

**AIM:** to substantiate the content, structure, and practical recommendations of a methodological approach aimed at developing physical qualities in school-aged students through swimming training.

**MATERIALS AND METHODS:** the study employed an analysis of scientific and methodological sources on organizing swimming training, generalization of practical experience in physical education and swimming, pedagogical observation, and methodological analysis. The methodological approach was based on the structure of swimming sessions , age-appropriate selection of training loads, integration of technique instruction with the development of physical qualities, and consideration of safety and recovery factors.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**DISCUSSION AND RESULTS:** the analysis indicates that purposeful development of physical qualities in swimming requires step-by-step selection and planning of exercises. Endurance development is effectively supported by distance and rhythmic swimming sets; speed improvement by short-distance speed drills; strength and agility formation by exercises utilizing water resistance as well as elements that enhance coordination. Considering age characteristics, the student's fitness level, and the stages of technical skill formation ensures stable development of physical qualities.

**CONCLUSION:** swimming training has strong pedagogical potential for developing physical qualities in school-aged students, and systematic organization based on a targeted methodology contributes to the комплекс development of endurance, speed, strength, agility, and flexibility. Planning sessions with age-appropriate loads, gradual progression, integration of technique and physical training, and adherence to safety requirements increases the effectiveness of swimming in school practice.

**Keywords:** swimming training; school-aged students; physical qualities; endurance; speed; strength; agility; flexibility; swimming methodology; physical education.

**For citation**: Xayrullo A. Menglikulov (2025) Cultural features of livestock terminology in russian and uzbek dialects, Inter education & global study, vol.3 (12), pp. 214–223. (In Uzbek).

**M**aktab yoshidagi o‘quvchilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish jismoniy tarbiya jarayonining markaziy vazifalaridan biri bo‘lib, u o‘quvchining sog‘lom o‘sishi, harakat madaniyati, o‘quv faoliyatidagi ishchanligi va kelgusida sportga yo‘naltirilgan tayyorgarligi uchun zarur poydevorni yaratadi. Jismoniy sifatlar deganda chidamlilik, tezkorlik, kuch, chaqqonlik va egiluvchanlik kabi organizmning harakat faoliyatini ta’minlaydigan hamda harakatni samarali bajarishga xizmat qiladigan kompleks imkoniyatlar tushuniladi. Bu sifatlar alohida-alohida rivojlanmaydi; ular bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, harakatni bajarish jarayonida bir butun tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli maktab amaliyotida jismoniy sifatlarni rivojlantirish “bir sifat–bir mashq” tamoyili bilan emas, balki kompleks yondashuv asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Nazariy jihatdan maktab yoshida jismoniy sifatlar rivoji yoshga xos anatomik-fiziologik o‘zgarishlar bilan belgilanadi. O‘sish davrida yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari yetilishga intiladi, mushaklar faoliyati va koordinatsion boshqaruv takomillashadi, nerv tizimining harakatni boshqarishdagi roli kuchayadi. Ayniqsa, bolalarda harakat ko‘nikmalari tez shakllanadigan “sezgir davr”lar mavjud bo‘lib, bu davrlarda chaqqonlik, koordinatsiya, tezkorlik elementlarini maqsadli mashqlar orqali kuchaytirish yuqori samaradorlik beradi. Shu bilan birga, kuch va chidamlilikni rivojlantirishda yosh imkoniyatlarini hisobga olish talab etiladi: haddan tashqari zo‘riqtiruvchi, bir xil va uzoq davom etadigan yuklamalar o‘quvchida charchash, motivatsiya pasayishi va ortiqcha

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

yuklama xavfini yuzaga keltirishi mumkin. Demak, pedagogik jarayon “yuklama–tiklanish–barqarorlashuv” mantiqiga tayanib, bosqichma-bosqich tashkil etilishi lozim.

Pedagogik nuqtayi nazardan jismoniy sifatlarni rivojlantirishda bir nechta tamoyillar tayanch bo‘lib xizmat qiladi: tizimlilik va muntazamlik, bosqichma-bosqichlik, yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish, xavfsizlik, motivatsion qo‘llab-quvvatlash hamda harakat ko‘nikmalarini sifatlar bilan uyg‘un rivojlantirish. Bu tamoyillar o‘quvchining imkoniyatini “sinash” emas, balki uni ilmiy-me’yoriy asosda “rivojlantirish”ga yo‘naltiriladi. Shuning uchun jismoniy sifatlarni shakllantirishda mashqlar mazmuni, yuklama me’yorlari, pedagogik nazorat hamda rag‘batlantirish usullari bir butun didaktik tizim sifatida qaralishi zarur. Natijada maktab yoshida jismoniy sifatlarni rivojlantirish faqat sport natijasiga xizmat qiladigan jarayon bo‘lib qolmay, balki o‘quvchining sog‘lom hayot tarzi va harakat faoliyatiga ehtiyojini mustahkamlovchi tarbiyaviy omilga ham aylanadi.

Suzish mashg‘ulotlarini maktab yoshidagi o‘quvchilar bilan tashkil etishda asosiy metodik vazifa faqat texnikani o‘rgatish bilan cheklanib qolmasdan, mashg‘ulot mazmunini jismoniy sifatlarni maqsadli rivojlantirishga yo‘naltirishdan iborat. Bunda suzishning o‘ziga xos xususiyati - suv muhitida harakatlanish sharoiti - metodik yondashuvni boshqacha qurishni talab etadi. Suv qarshiligi harakatni tabiiy ravishda “og‘irlashtiradi”, tananing suvda yengillashuvi esa tayanch-harakat apparatiga tushadigan zarba yuklamasini kamaytiradi. Shu sababli suzish mashg‘ulotlari chidamlilik, tezkorlik, kuch, chaqqonlik va egiluvchanlikni nisbatan xavfsiz sharoitda rivojlantirish imkonini beradi, biroq bu imkoniyatlar faqat to‘g‘ri rejalashtirilgan metodika asosida to‘liq namoyon bo‘ladi.

Metodik jihatdan birinchi tamoyil - mashg‘ulotlarning tizimliligi va muntazamligidir. Suzishda jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun mashg‘ulotlar epizodik emas, ma’lum davriylikda olib borilishi, yuklama esa bosqichma-bosqich oshirib borilishi zarur. Ikkinchi tamoyil - yosh va individual xususiyatlarni hisobga olishdir. Maktab yoshida o‘quvchilar suvga moslashuv, nafasni boshqarish, koordinatsiya va texnika elementlarini o‘zlashtirish sur’ati bo‘yicha farqlanadi. Shu bois bir guruh ichida ham topshiriqlarni differensial berish, masofani, takrorlar sonini va dam olish oralig‘ini moslashtirish talab etiladi. Uchinchi tamoyil - texnika va jismoniy sifatlar uyg‘unligi bo‘lib, bunda texnikani o‘rgatish jarayoni jismoniy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qilishi, aksincha, jismoniy tayyorgarlik ham texnikani to‘g‘ri bajarishni yengillashtirishi ko‘zda tutiladi. Masalan, nafasni ritmik boshqarish va gavda holatini ushlash ko‘nikmasi shakllanmasdan chidamlilikka yo‘naltirilgan masofali suzish seriyalarini berish samarani pasaytiradi.

Mashg‘ulot tuzilmasi odatda uch qismdan iborat bo‘lib, har bir qismning metodik vazifasi aniq belgilanadi. Qizish qismida organizm ish rejimiga moslashtiriladi: quruqlikda yengil umumrivojlantiruvchi mashqlar, bo‘g‘imlarni “ochish”, yelka kamari va bel mushaklarini tayyorlash, keyin suvda yengil suzish yoki tayyorlov mashqlari bajariladi. Asosiy qismda texnika elementlari va jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi mashqlar mantiqan uyg‘unlashtiriladi: avval texnik topshiriqlar, so‘ng sifatga yo‘naltirilgan seriyalar (masofa, tezlik, suv qarshiligidan foydalanish) berilishi maqsadga muvofiq. Yakun

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

qismida tiklanish ta’minlanadi: yengil suzish, nafasni me’yorlash, cho‘zilish va bo‘shashtiruvchi mashqlar orqali mashg‘ulotning salbiy “qoldiq charchoq”siz tugashi ko‘zlanadi.

Shart-sharoitlar ichida xavfsizlik omili alohida o‘rinda turadi: havzada instruktaj, navbatchilik nazorati, guruh sonini me’yorlash, gigiyena qoidalariga rioya qilish va o‘quvchilarni suvdagi xulq-atvor madaniyatiga o‘rgatish majburiydir. Metodikani samarali joriy etish uchun o‘qituvchi/murabbiy yuklamani yoshga mos me’yorlash, tiklanish oralig‘ini saqlash va mashg‘ulot davomida o‘quvchilarning charchash belgilarini kuzatib borishni doimiy nazorat mezoni sifatida qo‘llashi lozim. Shunda suzish mashg‘ulotlari maktab sharoitida jismoniy sifatlarni tizimli rivojlantiruvchi, barqaror natija beradigan pedagogik jarayonga aylanadi.

Suzish mashg‘ulotlarida jismoniy sifatlarni rivojlantirish “bitta darsda hammasini siqib qo‘yish” emas, balki mashqlarni maqsadga ko‘ra to‘g‘ri joylashtirish va bosqichma-bosqich kuchaytirish orqali amalga oshiriladi. Maktab yoshida metodik kompleks tuzishda o‘quvchining suvga moslashuvi, nafasni boshqarish va texnika elementlarini o‘zlashtirish darajasi asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar, odatda, texnik topshiriqlar bilan uyg‘un holda beriladi: texnika sifatli bo‘lsa, jismoniy yuklama samarador; yuklama me’yorida bo‘lsa, texnika barqaror bo‘ladi.

Chidamlilikni rivojlantirish suzishda eng tabiiy yo‘nalishlardan biridir, chunki suvda ritmik va uzluksiz harakat organizmni “aerob rejim”da ishlashga undaydi. Maktab amaliyotida chidamlilikni oshirish uchun masofali va ritmik suzish seriyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq: ma’lum masofani bir xil tempda suzish, qisqa dam olish bilan takrorlash, shuningdek, texnika buzilmagan holda suzish davomiyligini sekin-asta uzaytirish chidamlilikning barqaror o‘sishini ta’minlaydi. Bu jarayonda asosiy talab - “tezlik uchun texnikani qurbon qilmaslik”: o‘quvchi charchaganda gavda holati va nafas ritmi buzilsa, yuklama kamaytiriladi yoki tiklanish oralig‘i uzaytiriladi.

Tezkorlikni rivojlantirish qisqa masofali tezlik topshiriqlari orqali amalga oshiriladi. Bunda mashqlar odatda mashg‘ulotning asosiy qismida, organizm qizigan va texnika eslatib o‘tilganidan so‘ng qo‘llanadi. Qisqa masofada maksimalga yaqin tezlikda suzish, startdan tez chiqish, burilishdan keyingi tezlanish kabi elementlar tezkorlikni oshirish bilan birga texnik reaksiyani ham kuchaytiradi. Tezkorlik mashqlarida dam olish oralig‘i yetarli bo‘lishi muhim, chunki bu yo‘nalishda sifatli bajarilish “charchoq ostida” emas, balki har bir urinishda tezlikni saqlash orqali rivojlanadi.

Kuch va chaqqonlikni rivojlantirishda suv qarshiligi metodik afzallik beradi. Suv qarshiligiga “mos” mashqlar sifatida qo‘l harakatining kuchli fazalarini mustahkamlovchi topshiriqlar, suzishning qisqa seriyalarida kuchli itarilish, oyoq harakatini faollashtirish, turli tayyorlov mashqlaridan foydalanish mumkin. Chaqqonlik esa suvda tez yo‘nalish o‘zgartirish, burilish elementlari, koordinatsion murakkab topshiriqlar orqali rivojlanadi. Bunda o‘quvchiga topshiriqni aniq va qisqa berish, texnika buzilsa darhol tuzatish, hamda harakatni “to‘g‘ri–tez” ketma-ketligida shakllantirish maqsadga muvofiq.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Egiluvchanlik suzish mashg‘ulotlarida ikki yo‘nalishda qo‘llab-quvvatlanadi: birinchisi - quruqlikdagi tayyorlov mashqlari orqali bo‘g‘imlar harakatchanligini oshirish; ikkinchisi - suvdagi erkin harakatlanish fonida mushaklarni bo‘shashtirish va harakat amplitudasini kengaytirish. Maktab yoshida egiluvchanlikni rivojlantirishda majburlash va keskin cho‘zishlardan qochish kerak; mashg‘ulotdan oldingi yengil dinamik cho‘zilish, mashg‘ulot yakunidagi tiklovchi cho‘zilish esa xavfsiz va barqaror natija beradi. Egiluvchanlikning yaxshilanishi suzish texnikasida ham aks etadi: yelka kamari erkinroq ishlaydi, gavda holati barqarorlashadi, harakat iqtisodiylashadi.

Shunday qilib, jismoniy sifatlarni suzish orqali rivojlantirish metodikasi mashqlarni maqsadli tanlash, ularni mashg‘ulot tuzilmasiga to‘g‘ri joylashtirish, yosh va tayyorgarlik darajasini hisobga olish hamda texnika sifatini doimiy nazorat qilishga tayanadi. Bu yondashuv suzish mashg‘ulotlarini maktab sharoitida “oddiy suzdirish”dan chiqarib, jismoniy sifatlarni kompleks rivojlantiruvchi tizimli jarayonga aylantiradi.

Suzish mashg‘ulotlari orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodikasini maktab sharoitida joriy etishda eng muhim masala - mashg‘ulotni real imkoniyatlarga mos, barqaror va nazorat qilinadigan jarayon sifatida tashkil etishdir. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, metodika qanchalik puxta bo‘lmasin, agar u dars jadvali, havza imkoniyati, guruh soni va xavfsizlik talablari bilan “mos kelmasa”, u natijador tizimga aylanmaydi. Shu bois metodikani joriy etishda tashkiliy reja, nazorat mexanizmi va baholash mezonlari oldindan aniq belgilanishi lozim.

Tashkiliy jihatdan mashg‘ulotlarni dars yoki to‘garak shaklida yo‘lga qo‘yish mumkin. Dars formatida suzish mashg‘ulotlari o‘quv rejasiga mos ravishda rejalashtiriladi, to‘garak formatida esa ixtiyoriylik va qiziqish omili kuchliroq bo‘ladi. Har ikkala holatda ham guruhni shakllantirishda o‘quvchilarning suvdagi tayyorgarligi hisobga olinadi. Boshlang‘ich bosqichda mashg‘ulotlarning maqsadi “tez suzdirish” emas, balki xavfsiz moslashuv, nafasni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va texnik elementlarning to‘g‘ri shakllanishini ta’minlashdan iborat bo‘lishi kerak. Shundan keyingina jismoniy sifatlarni maqsadli rivojlantiruvchi yuklamalar bosqichma-bosqich kuchaytiriladi.

Metodikani joriy etishda nazorat masalasi uch darajada ko‘riladi: joriy nazorat, oraliq nazorat va yakuniy baholash. Joriy nazorat mashg‘ulot jarayonida o‘qituvchi/murabbiy tomonidan doimiy amalga oshiriladi: o‘quvchining nafas ritmi, gavda holati, harakat koordinatsiyasi, charchash belgilari va xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi kuzatiladi. Oraliq nazorat ma’lum vaqt oralig‘ida o‘quvchining jismoniy sifatlaridagi o‘zgarishni “ko‘rib turish” uchun zarur bo‘lib, bu nazorat o‘quvchini murakkab testlar bilan qiynashni emas, balki uning chidamlilik va tezkorlikka doir imkoniyatlari hamda texnika barqarorligini sodda mezonlar orqali baholashni nazarda tutadi. Yakuniy baholash esa metodikaning umumiy samaradorligini, o‘quvchining suzish ko‘nikmasi va jismoniy sifatlaridagi o‘sishni umumlashtiruvchi ko‘rsatkich sifatida xizmat qiladi.

Baholash mezonlarini tanlashda maktab sharoitining real imkoniyatlari e’tiborga olinadi. Mazkur metodikada baholash mezonlari sifatida, avvalo, o‘quvchining texnik barqarorligi (gavda holatini ushlashi, nafasni boshqarishi, koordinatsiyani saqlashi),

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

masofani bajarish qobiliyati (charchamasdan ma'lum masofani suzib o'tishi), tezlik topshiriqlarida intilish va harakat sifati (tez suzish bilan birga texnikani buzmaslik) hamda mashg'ulotga moslashuv ko'rsatkichlari (tiklanishning me'yoriyligi, mashg'ulotdan keyingi holat) kabilar qo'llanishi mumkin. Muhimi, baholash jarayonida o'quvchini bir-biri bilan "poyga" qildirish emas, balki har bir o'quvchining shaxsiy o'sishini ko'rsatish tamoyili ustuvor bo'lishi kerak.

Xavfsizlik va gigiyena shartlari metodikaning ajralmas qismi hisoblanadi. Havzada instruktaj o'tkazish, o'quvchilarning suvdagi xulq-atvor qoidalarini shakllantirish, guruh sonini me'yorlash, murabbiy-instruktor nazoratini ta'minlash hamda mashg'ulot davomida favqulodda holatlarning oldini olish bo'yicha tayyorgarlik talab etiladi. Shu bilan birga, o'quvchilarda motivatsiyani qo'llab-quvvatlash ham tashkiliy omil sifatida muhim: topshiriqlarning qiziqarli berilishi, bosqichma-bosqich maqsad qo'yish, ijobiy rag'batlantirish suzishga muntazam qatnashishni kuchaytiradi.

Demak, metodikani maktab amaliyotiga joriy etish samaradorligi mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish, nazoratni tizimli yo'lga qo'yish va baholash mezonlarini real sharoitga mos tanlash bilan belgilanadi. Shu shartlar bajarilganda suzish mashg'ulotlari o'quvchilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan barqaror va nazorat qilinadigan pedagogik jarayon sifatida shakllanadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" (14.01.1992 y., №513-XII) URL: https://lex.uz/docs/-10860
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Suv sporti turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" (04.11.2024 y., PQ-382)
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. "2018—2021-yillarda suzish sport turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" URL: https://lex.uz/acts/-3718533
4. World Health Organization. WHO guidelines on physical activity and sedentary behaviour ElectronicresourceElectronic resourceElectronicresource. — Geneva: WHO, 2020. — URL: https://www.who.int/publications/i/item/9789240015128
5. Булгакова Н. Ж. Плавание с методикой преподавания: учебник для СПО. — 2-е изд. — Москва: Юрайт, 2025. — 344 с.
6. Maglischo E. W. Swimming Fastest: The Essential Reference on Technique, Training, and Program Design. — Champaign, IL: Human Kinetics, 2003. — 791 p.
7. Counsilman J. E. The Science of Swimming. — Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1968. — 457 p.
8. Матвеев Л. П. Теория и методика физической культуры: учебник. — Москва: Физкультура и спорт, 1991. — 543 с.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

9. Платонов В. Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте: общая теория и её практические приложения. — Москва: Советский спорт, 2005. — 820 с.
10. Zarzeczny R., Kuberski M., Suliga E. The Effect of Three-Year Swim Training on Cardio-Respiratory Fitness and Selected Somatic Features of Prepubertal Boys // International Journal of Environmental Research and Public Health. — 2022. — Vol. 19, No. 12. — Article 7125. — DOI: 10.3390/ijerph19127125.
11. Machado E., Jannuzzi F., Telles S., et al. A Recreational Swimming Intervention during the Whole School Year Improves Fitness and Cardiometabolic Risk in Children and Adolescents with Overweight and Obesity // International Journal of Environmental Research and Public Health. — 2022. — Vol. 19, No. 24. — Article 17093. — DOI: 10.3390/ijerph192417093.
12. Ferreira F. A., et al. Effects of Swimming Exercise on Early Adolescents' Physical Fitness and Health // Sports (MDPI). — 2024. — Vol. 9, No. 3. — Article 158.
13. Minkels C., et al. Learning how to swim in 5- to 12-year-old children: a scoping review // Frontiers in Sports and Active Living. — 2025. — Article 1505301.
14. Van Duijn T., Button C., Masters R. S. W. The Influence of Equipment and Environment on Children's Aquatic Skill Learning: Frontiers in Psychology. — 2021.
15. Mekkaoui L., et al. Building the Foundation of Aquatic Literacy in 4–6 Years-Old Children: A Systematic Review // International Journal of Environmental Research and Public Health. — 2022. — Vol. 19, No. 10. — Article 6180.
16. Stallman R. K., Moran K., Quan L., Langendorfer S. J. From Swimming Skill to Water Competence: Towards a More Inclusive Drowning Prevention Future // International Journal of Aquatic Research and Education. — 2017. — Vol. 10, No. 2. — Article 3. URL: https://scholarworks.bgsu.edu/ijare/vol10/iss2/3/

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Mengliqulov Xayrullo Aliqulovich**, Termiz davlat universiteti Sport boshqaruvi kafedrasi v.b. dotsenti, PhD, [**Менгликулов Хайрулло Аликулович**, и.о. доцента кафедры управления спортом, Термезский государственный университет, PhD], [**Mengliqulov Khayrullo Aliqulovich**, Acting Associate Professor of the Department of Sport Management, Termez State University, PhD]; manzil: O'zbekiston, Termiz shahri, "Barkamol avlod" ko'chasi 43-uy [адрес: Узбекистан, г. Термез, ул. «Баркамол авлод», дом 43], [address: Uzbekistan, Termez city, 43 "Barkamol avlod" street];

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Telefon: 76 221 74 55 (Ishonch telefoni) [тел.: 76 221 74 55 (телефон доверия)], [tel.: 76 221 74 55 (helpline)]; Email: info@tersu.uz

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# TALABALARDA LIDERLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH PEDOGAGIK MUAMMO SIFATIDA

© Sh.S.Tajimuratova[1]✉

[1]Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davl at universiteti, Nukus, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, O’zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** san’at va madaniyat yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarda liderlik kompetensiyasini shakllantirishning zaruriyati, mazmuni hamda uni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, talabalarning ijodiy loyihalar, madaniy tadbirlar va jamoaviy faoliyatlar orqali liderlik fazilatlarini rivojlantirish yo‘llari yoritiladi.

**MAQSAD:** tadqiqotning maqsadi talabalarda liderlik kompetensiyasini rivojlantirishda psixologik va didaktik asoslarini, san’at va madaniyat sohasi talabalarida liderlik kompetensiyasi ularning shaxsiy o‘sishi, kasbiy muvaffaqiyati va ijtimoiy faolligini oshiradi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** talabalarda liderlik kompetensiyalarni rivojlantirishda emotsional intellekt, kommunikativ, tashkilotchilik qobilyat, shaxsiy fazilatlar, pedagogik kompetensiyalr, faol o‘qitish metodlari, innovatsion hamda kreativ yondashuv yordamida, talabalarda o‘z mutaxasisligining muvaffaqiyati orqali amalga oshiriladi. Boshqaruv, shaxsiy rivojlanish, pedagogik faoliyatda samarali qo‘lash, innavator, jamoada psixologik tening, kasbiy, kommunikativ ko‘nikmalar

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** natijalar talabalarda ijodiy , start uplar, loyihalar, madaniy tadbirlar orqali liderlik kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Talabalarda liderlik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali jamiyatda hurmat va nufuzga yega bo‘lgan bilimdon rahbar kadrlarni tarbiyalab voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

**XULOSA:** talabalarda liderlik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali zamonaviy yuksak ma’naviyatli rahbar kadrlarni tarkib toptirish, rahbarning boshqaruv reglamentini tashkil etishda kreativ innovatsion g‘oyalar bilan boyitilsa maqsadga muvofiq.

**Kalit so‘zlar:** liderlik kompetensiyasi, san’at va madaniyat, ijodiy tafakkur, pedagogik muammo, tashabbuskorlik, jamoaviy faoliyat, ijodiy yetakchilik

**Iqtibos uchun**: Sh.S.Tajimuratova talabalarda liderlik kompetensiyasini rivojlantirish pedogagik muammo sifatida // Inter education& global study. 2025. №12. B.224–232.

## РАЗВИТИЕ ЛИДЕРСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У УЧАЩИХСЯ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

©Ш.С.Таджимуратова[1]✉
[1]Каракалпакский государственный университет имени Бердаха, Нукус, Республика Каракалпакстан, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** освещаются необходимость, содержание формирования лидерской компетенции у студентов, обучающихся по направлению Искусство и культура, а также педагогические условия ее развития, пути развития лидерских качеств учащихся посредством творческих проектов, культурных мероприятий и коллективной деятельности.

**ЦЕЛЬ:** исследования заключается в развитии психологических и дидактических основ лидерских компетенций у студентов, В то время как лидерские компетенции студентов в сфере искусства и культуры способствуют ИХ личностному росту, профессиональному успеху и социальной активности.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в развитии компетенций у студентов лидерство осуществляется посредством эмоционального интеллекта, коммуникативных, организаторских способностей, личностных качеств, педагогических компетенций, активных методов обучения, новаторского и креативного подхода, успеха своей специальности у студентов. Управление, личностное развитие, эффективное применение в педагогической деятельности, новаторство, психологическое тренинг в коллективе, профессиональные, коммуникативные навыки

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты показали, что лидерство через творчество, стартапы, проекты, культурные мероприятия способствует развитию компетенций у студентов. Развитие лидерских компетенций у студентов способствует воспитанию и воспитанию грамотных руководящих кадров, пользующихся уважением и авторитетом в обществе.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** целесообразно, чтобы современные высокодуховные руководящие кадры обогащались креативными инновационными идеями в организации управленческого регламента руководителя путем развития у обучающихся лидерских компетенций

**Ключевые слова:** лидерская компетентность, искусство и культура, творческое мышление, педагогическая проблема, инициатива, командная деятельность, творческое лидерство

**Для цитирования**: Ш.С.Тажимуратова лидерские компетенции у студентов развитие как педагогическая проблема.// Inter education & global study.2025. №12. С. 224–232.

## THE DEVELOPMENT OF LEADERSHIP COMPETENCE IN STUDENTS AS A PEDOGAGIC PROBLEM

©Shaxnoza S. Tajimuratova[1]✉
[1]Berdaq Karakalpak State University, Nukus, Karakalpakstan , Uzbekistan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Annotation

**INTRODUCTION:** the need, content and pedagogical conditions of its development, ways of developing students ' leadership qualities through creative projects, cultural events and collective activities are highlighted in students studying in the direction of art and culture.

**AIM:** the purpose of the study is to develop psychological and didactic foundations in the development of leadership competence in students, leadership competence in students of the art and culture sphere increases their personal growth, professional success and social activity.

**MATERIALS AND METHODS:** leadership in students is carried out using emotional intelligence, communicative, organizational skills, personal qualities, pedagogical competency, active teaching methods, innovative and creative approach in the development of competencies, through the success of their expertise in students. Management, personal development, effective application in pedagogical activity, innavator, psychological tening in the team, professional, communicative skills

**DISCUSSION AND RESULTS:** the results showed that leadership in students through creative , start-up, projects, cultural events serves to develop competencies. Leadership in students serves to educate and bring to adulthood the educated leader cadres who are able to achieve respect and prestige in society through the development of competencies.

**CONCLUSION**: leadership in students is desirable if, through the development of competencies, the modern highly spiritual leader is enriched with creative innovative ideas in the formation of personnel, the organization of the management regulation of the leader

**Keywords:** leadership competence, art and culture, creative thinking, pedagogical problem, initiative, collective activity, creative leadership

**For citation**: Shaxnoza S. Tajimuratova. (2025) ‘Animal symbolism in fine arts’, Inter education & global study, vol.3 (12), pp. 224–232. (In Uzbek).

**S**an’at va madaniyat sohasi millatni ma’naviy jihatdan yuksaltirish qudratiga ega. Buning uchun mazkur yo‘nalishnida tashkiliy ishlarni ham samarali yo‘lga qo‘yish lozim bo‘ladi. Xususan, bu sohada rahbar kadrlar, malakali boshqaruvchilari, menejerlarni tayyorlash hayotiy, ijtimoiy zaruratga aylangan.Buyuk mutafakkirlarimiz Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Nizomulmulkning “Siyosatnoma”, Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarlarida boshqaruv mazmun-mohiyatiga berilgan tarixiy-ilmiy ta’riflar, boshqaruv nazariyasi namoyandalari-fransuz olimi Anri Fayol, amerikalik muhandis-tadqiqotchi Frederik Teylor, nemis sosiologi Maks Veber tamoyillari, boshqaruv mehnatining asosi hisoblanmish axborot-kommunikasiyalar, qarorlar qabul qilish asoslari, zamonaviy menejer sifatlari, zamonaviy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

rahbar xodimlar maqsad va vazifalari, keyingi yillarda O‘zbekistonda olib borilayotgan madaniyat va san’at muassasalarini boshqarish siyosati va tizimi, sohalar taraqqiyotidagi transformasion jarayonlar, davlat va nodavlat, jamoat tashkilotlarinig hamkorlik faoliyati, "Xalq artistlari klublari", bolalar musiqa va san’at maktablari faoliyatini jonlantirish, alohida iqtidor talab qiladigan ijodiy oliygohlarda ijodiy imtihonlarning joriy yetilishi haqidagi mavzularga alohida o‘rin berildi.

Shuningdek, jamiyatda hurmat va nufuzga yega bo‘lgan bilimdon rahbar kadrlarni tarbiyalab voyaga yetkazishga xizmat qiladigan tushunchalar – rahbar faoliyati, rahbar muloqoti, rahbar mas’uliyati, rahbar mahorati, rahbar madaniyati, rahbar farosati borasidagi taniqli olimlarning fikr-mulohazalari ham keltirilgan.

Amalga oshirilayotgan barcha ma’rifiy islohotlardan pirovard maqsad – ertamiz egalarining mehnat va ijod qilishlariga mustahkam poydevor yaratishdan iborat.

Bu borada Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so‘zlarini ta’kidlamoq lozim: “Aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand yetish, shu asosda ma’naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste’dod yegalarining qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi”[1].

2018 yilning 15 fevralida Prezidentimiz “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmonni imzoladi[2]. Insoniyatning ilk o‘tmishi, birinchi moddiy va ma’naviyat, madaniyat maskanlari Sharqda shakllangan va insoniyatning keyingi taraqqiyoti uchun zamin tayyorlab bergan[3]

Menejment – bu integratsiya jarayoni bo‘lib, u orqali professional malakali mutaxassislar tashkilotlarni shakllantiradi va maqsadlarni belgilash, ularga erishish yo‘llarini ishlab chiqadi. Boshqaruv jarayoni tashkil etish, rejalashtirish, muvofiqlashtirish, motivatsiya funksiyalaridan iborat bo‘lib, ular orqali menejerlar tashkilotda ishlaydigan xodimlarning ishlab chiqarish va samarali ishlashi va belgilangan maqsadlarga mos natijalarni olish uchun sharoit yaratadilar[4].

Globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida shaxsdan nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar, balki liderlik, ijodkorlik va ijtimoiy faollik kabi fazilatlar ham talab etiladi. Ayniqsa, san’at va madaniyat yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun bu fazilatlar dolzarb ahamiyatga ega, chunki ular kelgusida jamiyatning estetik didini shakllantiruvchi, ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi, ommani birlashtiruvchi ijodiy yetakchilar sifatida maydonga chiqadilar.

San’at va madaniyat sohasi insonning ichki dunyosini, estetik his-tuyg‘ularini tarbiyalash, ijtimoiy ongni yuksaltirish bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois, bu soha

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori // www. lex.uz.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ““Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni // www.lex.uz.
[3] Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at. -Toshkent: Sharq, 1998. –B. 239.
[4] Fayziyev T. Madaniyat va san’at sohasi menejmenti// O‘zDSMI xabarlari — 2022 /1 (21)


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

vakillarida liderlik kompetensiyasini rivojlantirish ularning ijodiy salohiyati, tashabbuskorligi, jamoa bilan ishlash qobiliyati va kommunikativ madaniyatini mustahkamlash uchun muhim pedagogik vazifadir.

Oliy ta’lim tizimida talabalarning liderlik sifatlarini shakllantirishga qaratilgan maxsus o‘quv modullari, loyiha va amaliy mashg‘ulotlar tizimli yo‘lga qo‘yilmaganligi ushbu masalani pedagogik muammo sifatida o‘rganish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Pedagogik muammo mohiyati

San’at va madaniyat yo‘nalishidagi talabalar ko‘pincha ijodiy tafakkurga ega bo‘lishlariga qaramay, o‘z g‘oyalarini yetarlicha boshqarish, jamoani yo‘naltirish, o‘z fikrini asosli himoya qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa liderlik kompetensiyasining to‘liq shakllanmaganligidan dalolat beradi.

Mazkur muammoni pedagogik nuqtayi nazardan tahlil etganda quyidagi jihatlar aniqlanadi:

1. Nazariy jihatdan – san’at va madaniyat sohasi talabalari uchun “liderlik kompetensiyasi” tushunchasi kasbiy ijodiy faoliyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi kerak. Bu kompetensiya shaxsning o‘zini ifoda etish, estetik qarashlarini ilgari surish, ijodiy jamoani boshqarish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

2. Psixologik jihatdan – bunday talabalar emotsional, sezgir va ijodkor bo‘lganliklari sababli, ularda liderlikni rivojlantirish jarayoni individual yondashuv, motivatsion qo‘llab-quvvatlash va o‘zini namoyon etish imkoniyatlarini yaratishni talab qiladi.

3. Amaliy jihatdan – ta’lim jarayonida talabalarning sahna chiqishlari, loyiha ishlari, madaniy tadbirlarni tashkil etishdagi faolligini oshirish orqali liderlik kompetensiyasini rivojlantirish mumkin.

4. Tarbiyaviy jihatdan – san’at va madaniyat yo‘nalishidagi ta’lim muassasalari talabalarda badiiy did bilan bir qatorda mas’uliyat, jamoaviy ruh, ijtimoiy faoliyat va tashabbuskorlikni ham tarbiyalashga e’tibor qaratishlari lozim.

Asosiy boshqaruv konsepsiyalari o‘z davriga xos bo‘lgan personal boshqaruv uslublarini ifodalaydi. Hatto ayni paytda ham turli tashkilot va rahbarlar sanab o‘tilgan yondashuv elementlarini o‘z faoliyatida qo‘llab keladilar. Tashkilot rahbari mavjud iqtisodiy ahvol, qo‘l ostidagi xodimlar xususiyatiga asoslangan holda turli yondashuvlardan birontasiga urg‘u berishi, tashkilot manfatidan kelib chiqib, u yoki bu yo‘nalish modellarini jamoalar boshqaruviga tatbiq etishi mumkin. Ammo, ko‘zlangan maqsadga tashkilotdagi personalning faol ishtiroki orqali erishmoqchi bo‘lgan rahbar, iloji boricha o‘z xodimlarida tashabbusga moyillik, ish natijasi uchun yuksak mas’uliyat uyg‘ota olishi lozim. Aynan shu maqsadni ko‘zlagan rahbar iloji boricha inson resurslari deb nomlanuvchi yondashuvga asoslanishi o‘rinlidir. Zamonaviy psixologiya ham iloji boricha insonni aynan shu nuqtai-nazarda tushunishga va shaxs kamolotini uning ichki zahiralarini uyg‘otish orqali erishishga intiladi[5]. Forobiy bu fikrni davom ettirib:

[5] Махмудов И.И. Бошқарув психологияси: Ўқув қўлланма / Масъул муҳаррир: А.Холбеков. – Т.: ДЖҚА «Раҳбар» маркази; «YUNAKS-PRINT» МЧЖ, 2006. – Б. 10–13.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

«Ikkinchidan, ushbu sifatlarga ega bo‘lmagan odamlar birikmasi esa, jaholatdagi va adashgan shaharlarning aholisini tashkil qiladi. Fikrlashlar, g‘azab, hasad, nafratga asoslangan bunday shahar aholisi… doimo bir-birlariga qarshi kurashib bir-birlariga dushmanlik qiladilar, eng kuchlilari boshqalarga nisbatan mukammalroq tuzilgan bo‘ladi. G‘olib kelganlar ham bir-birlarini yo‘qotishga urinadilar, go‘yo boshqa mavjudotlar nomukammalday, ularning borligi bularga zarar keltiradiganday, yoxudboshqalar ularga faqat qulday xizmat qilish uchun yaratilganday, barchasi bir-birini ezib ishlatishga intilishadi»[6]

Zamonaviy dunyoda “Madaniyat sohasidagi marketing – bu ma’lum bir mahsulotga qiziqish uyg‘otadigan, tijorat o‘zgaruvchilarini mahsulotga moslashtiradigan bozor seg mentlariga erishish texnologiyasi – narx, joylashuv, reklama – yetarli miqdordagi iste’molchilar bilan aloqa o‘rnatish va maqsadlarga erishish madaniy tashkilot missiyasiga mos keladi[7]”

Forobiyning bu fikrlaridan ko‘rinadiki, rahbar shaxsi birinchi navbatda o‘zini yomon odatlardan ozod qila olishi, boshqalarni yaxshi ishlarga ruhlantira olishi kerak ekan. Bu fikrlarning bugungi kunimiz uchun ham ahamiyati pasaymaganligini kuzatish mumkin[8].

Beruniy o‘zining «Hindiston» asarida ushbu g‘oyani ilgari suradi: «Tabiati jihatidan boshqarish va siyosat ishlariga qiziquvchi, boshliq bo‘lishga fazilat va kuchi bilan haqli, fikr va maqsadda sabotli, davlatni o‘zidan keyingilarga qoldirib, ularning o‘z ota-bobolariga qarshi bo‘lmasliklarini maqsad qilib olgan kishi tomonidan berilgan har bir buyruq, buyurilgan kishi oldida turg‘un tog‘lar singari mahkam bo‘lib, u buyruqqa ko‘p vaqtlar va uzoq zamonlar o‘tsada, keyingilar ham bo‘ysunadilar»[9]

XI asrning yirik allomalaridan Yusuf Xos Xojib o‘zining «Qutadg‘u bilig», ya’ni «Saodatga boshlovchi bilim» asarida boshqaruvchi shaxsi, ya’ni podsho xalq bilan birga va adolatli bo‘lishi lozimligi g‘oyasi ilgari suriladi. Uning o‘git va nasihatlari hokimlarga qaratilgan bo‘lib, boshqaruvchi rahbar tevaragida tabiatan yaxshi niyatli, yuksak axloq sohibi bo‘lgan kishilar bo‘lgandagina, u to‘g‘ri ishlar qilishi, to‘g‘ri farmonlar chiqarishi mumkin, shundagina mamlakat farovon bo‘lib ravnaq topadi. Yusuf Xos Xojibning fikricha: «Kishi qanchalik yuqori martabaga erishmasin, u baribir kamtar bo‘lib qolishi lozim».[10]

Amir Temur fikricha, bu toifa kishilarning taqdirini podshoh, xazina va askarlar hal qiladi. Ko‘rinib turibdiki, bu turlanish asosini tabaqaning ijtimoiy voqelikka nisbatan bo‘lgan munosabatlari va xulq-atvorlari tashkil etadi. Bu esa, o‘z navbatida ijtimoiy jarayonlarni boshqarishda odamlarni qanday mehnat turlari bilan shug‘ullanishlari emas, balki ularning kayfiyat va ustanovkalari, xulqlarining motivasiyalari va ma’rifatlilik darajalari muhim omillar sifatida talqin qilinganligini ko‘rsatadi. Ijtimoiy hayotni

[6] Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриѐти, 1993. – Б. 167.
[7] F. Kolber, R.Bilado, J. Nantel, Madaniyat va san’at marketingi. 2004 yil. 21-22 betlar.
[8] Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриѐти, 1993. – Б. 170.
[9] Беруний Абу Райхан. Индия. Соч., т.2. – Т.: «Фан», 1963. – С. 8. 7
[10] Юсуф Хос Хожиб. Қутадғу билиг. – Т.: «Фан», 1972. – Б. 163.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

boshqarishda bunday ijtimoiy-psixologik yondashuv Amir Temur uchun o‘z davrida katta bir saltanatga asos solish imkonini bergan edi. Amir Temur davlatni boshqarish vositalari haqida to‘xtalib shunday yozadi: «Saltanat ishlarida to‘rt narsaga amal qilish lozim:

1) kengash;
2) mashvaratu maslahat;
3) qat’iy qaror, tadbirkorlik, hushyorlik;
4) ehtiyotkorlik».

Uning fikricha: «Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir»[11]

Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloqga oid» asarida: «Har qanday nisbatan katta miqyosdagi bevosita ijtimoiy yoki birgalikdagi qilinadigan mehnat idora qiluvchiga ma’lum darajada muhtojdir, bu idora qiluvchi shaxsiy ishlarni bir-biriga muvofiqlashtiradi va ishlab chiqarish organizmini mustaqil organlari harakatidan kelib chiqadigan vazifalarni bajaradi»[12]

Boshqaruv ilmining nazariy tarixiy asoslari, boshqaruv tamoyillari, boshqaruv usullari, guruhlardagi rahbarlik va liderlik masalalari, liderlik uslublari, superliderlik fenomeni, rahbarlik sifatlari, rahbarlikka loyiqlikni baholovchi mezonlar, liderlikning vazifalari, boshqaruvchiga xos kompetensiyalar tasnifi kabi masalalarni ham iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik jihatdan tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi[13]

Madaniyat va san’at sohasidagi menejment madaniy qadriyatlarni (badiiy mahsulotlarni) tanlash, ishlab chiqarish, saqlash va tarqatish kabi jarayonlar bilan bevosita bog‘liq va turli boshqaruv majburiyatlari majmuasi (tashkilot, strategiya, nazorat) sifatida qaraladi. Boshqaruv faoliyatining ushbu turidan ko‘zlangan asosiy maqsad – madaniy va dam olish mahsulotlarini tovarlar va xizmatlar bozorida ommaviy targ‘ib qilishdir. Madaniyat va san’atda menejment mavzusi turli xil ijtimoiy tuzilmalarda va turli tarixiy davrlarda madaniy faoliyat sohasida ham, uning alohida yo‘nalishlarida (masalan, teatr, kino, radioeshittirish) mavjud bo‘lgan tashkilotlarning barcha usullarini (shakllari, modellari) o‘rganishdir[14].

«Peshqadam» iborasi esa ma’lum fazilatlarga ega bo‘lgan shaxs ketidan guruhning ergashishini, jamoaning o‘z ixtiyoriga ko‘ra o‘zi ishongan odam borayotgan yo‘lni tanlashini anglatadi. Aynan shu holat «lider» iborasiga nisbatan ham ishlatilishi zarur. Liderning bu xususiyati, uning hissiy jozibadorligida, o‘zgalarni o‘ziga jalb etish fazilatida namoyon bo‘ladi»[15]

Amerikalik tadqiqotchi Linda Juell o‘zining «Industrialno-organizasionnaya psixologiya» (2001) kitobida ijtimoiy-psixologik hodisalardan muhimi bo‘lmish liderlik

[11] Амир Темур ўгитлари: Тўплам. Тузувчилар: Б.Ахмедов, А.Аминов. – Т.: Наврўз, 1992. – Б. 75
[12] Авлоний А. Туркий гулистон ѐхуд Ахлоқ. – Т.: 1997. – Б. 7
[13] Каримова В.М., Ҳайитов О.Э., Умарова Н.Ш. Бошқарув соҳасидаги профессионал компетенция асослари: Монография. / Проф. В.М.Каримова таҳрири остида. – Т.: ТДИУ «Талаба», 2007. – Б. 25-27.
[14] Fayziyev T. Madaniyat va san’at sohasi menejmenti// O‘zDSMI xabarlari — 2022 /1 (21)
[15] Махмудов И.И. Бошқарув психологияси: Ўқув қўлланма / Масъул муҳаррир: А.Холбеков. – Т.: ДЖҚА «Раҳбар» маркази; «YUNAKS-PRINT» МЧЖ, 2006. – Б. 51-52.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

masalasiga o‘ziga xos yondashuvini bayon etgan. U bu muammoni aynan bizning sharoitimizdagi talqini, ya’ni mardlik va jasorat ko‘rsatish uchun ochiq maydonlar yo‘q bo‘lgan sharoitda liderlik xislatlarining namoyon bo‘lish xususiyatlarini ochishga urinadi[16]

Madaniyat va san’at muassasalarini boshqaruvchisi yoki rahbarining har bir masalada chiqargan qarori muhim ahamiyatga ega. Ushbu qaror tashkilot yoki muassasaning keyingi kelajagini bildirish bilan birga, har bir xodimning ishlash sur’atlarini, ishga bo‘lgan munosabatini ham ifodalaydi[17].

“Madaniyat va san’at sohasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish" fani – talabalarga madaniyat va san’at sohasida boshqarish va tashkil qilish asoslari, boshqaruvning nazariy asoslari, xorijiy modellari, ilmiy muassasalari, madaniyat va san’at sohasida boshqaruv usullari va qarorlari, tizimdagi samaradorlik, O‘zbekistonda menejment, madaniyat va san’at sohasida boshqaruv tizimi faoliyatini ochib beradigan, madaniyat va san’at muassasalarini boshqarish tizimidagi shiddatli islohotlar bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan menejment tizimining mohiyati va vazifalari haqida ma’lumotlarni chuqurroq o‘rganishlari va bilimlarini oshirishlari uchun zamonaviy bazalar yaratildi”[12].

Madaniyat va san’at sohasidagi menejmentning maqsadi madaniy faoliyatning ijtimoiy darajasini va bozor qiymatini oshirishga eng samarali hissa qo‘shadigan tegishli tashkiliy yechimlarni (modellarni) topishdir, chunki bu fan ikki asosiy yo‘nalishga ega:

1. Analitik – tavsifiy (tashkil etish usullari va shakllarini tavsiflash va tadqiq etish);
2. Dizayn va model (tashkilotning yangi, yanada samarali usullari va modellarini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish.

Kompetensiya tinglovchilarning tayyorgarligining muhim xususiyati va texnik maktabda mutaxassislar tayyorlashning asosiy talablaridan biridir. Kompetensiya nafaqat intizomni chuqur bilish, vazifani yetarli darajada bajarish holati, tegishli faoliyatni amalga oshirish qobiliyati, balki kompetensiya bilimlarni doimiy ravishda yangilashni, muayyan sharoitlarda muvaffaqiyatli qo‘llash uchun yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirishni, kasbiy vazifalarni bilim bilan hal qilishga tayyorlikni o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, san’at va madaniyat yo‘nalishi talabalari misolida liderlik kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biridir. Ushbu jarayon nafaqat shaxsning kasbiy rivojlanishiga, balki madaniy hayotda faol, tashabbuskor ijodiy yetakchilarni shakllantirishga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori // www. lex.uz.

[16] 2Джуэлл Л. Индустриально-организационная психология. Учебник для вузов – СПб.: Питер, 2001. – 720 с
[17] To‘ychiyeva S. Madaniyat va san’at sohasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish. Darslik. –Toshkent. 2019. 45-b.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ““Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni // www.lex.uz.
3. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at. -Toshkent: Sharq, 1998. –B. 239.
4. Fayziyev T. Madaniyat va san’at sohasi menejmenti// O‘zDSMI xabarlari — 2022 /1 (21)
5. Махмудов И.И. Бошқарув психологияси: Ўқув қўлланма / Масъул муҳаррир: А.Холбеков. – Т.: ДЖҚА «Раҳбар» маркази; «YUNAKS-PRINT» МЧЖ, 2006. – Б. 10–13.
6. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриуоти, 1993. – Б. 167.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Tajimuratova Shaxnoza Sag‘ınbaevna**, o‘qtuvchi [**Таджимуратова Шахноза Сагинбаевна**, преподаватель] [**Shaxnoza S. Tajimuratova**, teacher]; manzil: O‘zbekiston, Karakalpakstan Respublikasi, Nukus sh., Jaslar keleshegi ko'chasi, 99-uy [адрес: Узбекистан, Республика Каракалпакстан, ул. Жаслар келешеги, д.99, г. Нукус], [address: Uzbekistan, Karakalpakstan, 99, Jaslar keleshegi st., Nukus city]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# GENDER MAS'ULIYATNI RIVOJLANTIRISHNING SHART-SHAROITLARI

© N.J.Sag'indikova[1]✉

[1]Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Annotatsiya

**KIRISH**: gender tengligi va gender madaniyatini shakllantirish zamonaviy jamiyatning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Gender masalasi bugungi kunda psixologiya, sotsiologiya, pedagogika va boshqa ijtimoiy fanlar doirasida keng o'rganilayotgan muhim yo'nalishdir. Gender identikligi, gender ta'limi, gender mas'uliyati, gender tadqiqotlari kabi yangi tushunchalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi gender tengsizligini bartaraf etish yo'lida qilinayotgan izlanishlarning natijasidir. Pedagogik amaliyotda gender tengligi tamoyillarini joriy etish, yangi avlod mutaxassislarini gender jihatdan tayyorlash mavjud gender rollari tengsizligini, ayniqsa, ta'lim tizimidagi gender xurofotlarini bartaraf etishda hal qiluvchi rol o'ynashi lozim.

**MAQSAD**: mazkur maqolaning maqsadi gender tengligi va gender madaniyatini shakllantirishning pedagogik ahamiyatini o'rganish, gender stereotiplarining ta'siri va ularni bartaraf etish yo'llarini tahlil qilish, shuningdek, pedagoglarning gender masalasidagi javobgarligini oshirish zarurligini asoslashdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda gender tengligi, gender madaniyati, gender stereotiplari va ularning ta'lim tizimiga ta'siri haqidagi ilmiy adabiyotlar, rus va o'zbek olimlarining ilmiy ishlari tahli qilindi. Tahliliy-uslubiy yondashuv asosida gender masalasining psixologik, ijtimoiy va pedagogik jihatlari o'rganildi. Tadqiqotda tizimli tahli, qiyosiy tahli va umumlashtirish usullaridan foydalanildi

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, gender tengsizligi hodisalari jamiyatning barcha sohalarida, xususan ta'lim tizimida ham keng tarqalgan. Gender rollari va tarixiy o'tmishda rivojlangan stereotiplar ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda qatnashish imkoniyatlarini cheklaydi. Pedagogik tizimda gender xurofotlari mavjud bo'lib, bu o'qituvchilarning o'g'il bolalar va qizlarning akademik muvaffaqiyatiga turlicha munosabatda bo'lishida namoyon bo'ladi.

Gender stereotiplarining salbiy ta'siri shaxsning o'zini anglashiga, kasbiy yo'nalish tanlashiga va ijtimoiy rollarni bajarishiga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarda gender identikligi muammolari keskinroq namoyon bo'ladi.
Gender tengligini ta'minlash faqat qonunchilik darajasidagi choralar bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Gender madaniyati, gender ta'limi va gender mas'uliyatini shakllantirish orqali jamiyatda ongli gender munosabatlarini yaratish mumkin. Pedagogik jarayonda

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

gender kompetensiyasini rivojlantirish, o‘qituvchilarning gender masalasidagi javobgarligini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

**XULOSA:** gender tengligi va gender madaniyatini shakllantirish zamonaviy jamiyatning demokratlashtirish va insonparvarlashtirish jarayonlarining muhim tarkibiy qismidir. Ta'lim tizimi gender stereotiplarini bartaraf etish, gender tengligi tamoyillarini targ‘ib qilish va yangi avlodda gender madaniyatini shakllantirishda asosiy rol o‘ynashi lozim. Pedagoglarning gender masalasidagi kompetentligi va javobgarligini oshirish, ularni gender tengligi tamoyillariga mos kasbiy tayyorgarlikdan o‘tkazish zarur. Buning uchun oliy ta'lim muassasalarida gender ta'limini joriy etish, o‘quv dasturlariga gender tengligi masalalarini integratsiya qilish, pedagogik kadrlarni gender masalalarida qayta tayyorlash samarali choradir.

**Kalit so'zlar**: gender tengligi, gender madaniyati, gender stereotiplari, gender ta'limi, gender kompetensiyasi, pedagogik jarayon, gender mas'uliyati, gender identikligi.

**Iqtibos uchun**: Sag‘indikova N.J. Gender mas’uliyatni rivojlantirishning shart sharoitlari. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. B.233–242.

## УСЛОВИЯ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ГЕНДЕРНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ

©Н.Ж.Сагиндикова[1]✉
[1]Каракалпакский государственный университет имени Бердака, Нукус, Каракалпакстан Республика

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: гендерное равенство и формирование гендерной культуры-одна из актуальных проблем современного общества. Гендерный вопрос-важная область, которая сегодня широко изучается в рамках психологии, социологии, педагогики и других социальных наук. Появление и развитие новых концепций, таких как гендерная идентичность, гендерное образование, гендерная ответственность, гендерные исследования, являются результатом исследований, проводимых на пути к преодолению гендерного неравенства. Внедрение принципов гендерного равенства в педагогическую практику, гендерная подготовка специалистов нового поколения должны сыграть решающую роль в преодолении существующего гендерно-ролевого неравенства, особенно гендерных предрассудков в системе образования.

**ЦЕЛЬ**: цель данной статьи-изучить педагогическое значение гендерного равенства и формирования гендерной культуры, проанализировать влияние гендерных стереотипов и пути их преодоления, а также обосновать необходимость повышения ответственности педагогов в вопросах гендерного равенства.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в исследовании проанализирована научная литература о гендерном равенстве, гендерной культуре, гендерных стереотипах и их влиянии на систему образования, научные работы российских и узбекских ученых. На основе аналитико-методического подхода были исследованы психологические, социальные и педагогические аспекты гендерного вопроса. В

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

исследовании использовались методы системного анализа, сравнительного анализа и обобщения

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: результаты исследования показывают, что явления гендерного неравенства также распространены во всех сферах жизни общества, особенно в системе образования. Гендерные роли и стереотипы, сложившиеся в историческом прошлом, ограничивают возможности женщин участвовать в политической, экономической и социальной сферах. В педагогической системе существуют гендерные предрассудки, которые проявляются в различном отношении учителей к успеваемости мальчиков и девочек. Негативное влияние гендерных стереотипов сказывается на самосознании личности, выборе профессиональной ориентации, выполнении социальных ролей. Особенно остро проблемы гендерной идентичности проявляются у детей, оставшихся без попечения родителей. Обеспечение гендерного равенства не должно ограничиваться мерами на законодательном уровне. Через гендерную культуру, гендерное образование и формирование гендерной ответственности можно создать сознательные гендерные отношения в обществе. Развитие гендерной компетентности в педагогическом процессе, повышение ответственности педагогов по гендерному вопросу является актуальной задачей.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: ответственность педагогов в вопросах гендерного равенства, проводить их профессиональную подготовку в соответствии с принципами гендерного равенства. Для этого эффективной мерой является внедрение гендерного образования в высших учебных заведениях, интеграция вопросов гендерного равенства в учебные программы, переподготовка педагогических кадров по гендерным вопросам.

**Ключевые слова**: гендерное равенство, гендерная культура, гендерные стереотипы, гендерное образование, гендерная компетентность, педагогический процесс, гендерная ответственность, гендерная идентичность

**Для цитирования**: Сагиндикова Н.Ж. Условия для развития гендерной ответственности. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. С. 233–242.

## CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF GENDER RESPONSIBILITY

© Nargiza J. Sagindikova[1]✉
[1]Karakalpak State University named after Berdaq, Nukus, Republic Karakalpakstan

Annotation

**INTRODUCTION**: new concepts such as Gender identity, gender education, gender responsibility, gender studies are the result of research being done towards overcoming gender inequality. The introduction of the principles of gender equality in pedagogical practice, the gender training of specialists of the new generation should play

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

a decisive role in eliminating the inequality of existing gender roles, especially gender prejudices in the educational system.

**AIM:** the purpose of this article is to study the pedagogical significance of the formation of gender equality and gender culture, analyze the impact of gender stereotypes and ways to eliminate them, and also justify the need to increase the responsibility of educators on gender issues.

**MATERIALS AND METHODS**: the study threatened scientific literature on gender equality, gender culture, gender stereotypes and their impact on the educational system, scientific work of Russian and Uzbek scientists. On the basis of an analytical and methodological approach, psychological, social and pedagogical aspects of the gender issue were studied. The study used systematic tahli, comparative tahli and generalization methods

**DISCUSSION AND RESULTS**: the results of the study show that gender inequality phenomena are also common in all areas of society, in particular in the educational system. Gender roles and stereotypes developed in the historical past limit women's opportunities to participate in the political, economic and social spheres. There are gender prejudices in the pedagogical system, which is manifested in the different way teachers react to the academic success of boys and girls. The negative impact of Gender stereotypes affects the self-awareness of the individual, the choice of professional orientation and the performance of social roles. Especially in children who are deprived of parental care, the problems of gender identity are more sharply manifested. Ensuring Gender equality should not be limited to measures at the legislative level. Through the formation of Gender Culture, gender Education and gender responsibility, it is possible to create conscious gender relationships in society. In the pedagogical process, the development of gender competence, increasing the responsibility of teachers on gender issues is an urgent task.

**CONCLUSION:** gender equality and the formation of gender culture are important components of the democratization and humanization processes of modern society. The educational system should play a key role in overcoming gender stereotypes, promoting the principles of gender equality and shaping gender culture in the new generation. It is necessary to increase the competence and responsibility of educators on gender issues, to carry them out professional training in accordance with the principles of gender equality. For this, the introduction of gender education in higher education institutions, the integration of gender equality issues into educational programs, the retraining of pedagogical personnel in gender issues is an effective measure.

**Key words**: gender equality, gender culture, gender stereotypes, gender education, gender competence, pedagogical process, gender responsibility, gender identity

**For citation**: N J. Sagindikova. (2025) Conditions for the development of gender responsibility, Inter education & global study, vol.3 (12), pp. 233–242. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**P**sixologiya ilmida bugingi kunda gender masalasi keng miqyosda o‘rganilayotgan muammo hisoblanadi. Ijtimoiy-psixologik jihatdan masfla yuzasidan bilimlarni rivojlantirish ahamiyati ko‘p jihatdan zamonaviy leksikonda gender, gender identiklik, gender ta’limi, gender mas’uliyati, gender tadqiqotlari, gender madaniyati, gender tengligi va boshqalar kabi bir qator nisbatan yangi tushunchalar paydo bo‘lishi va intensiv ravishda rivojlanishi bilan bog‘liq omillarni dolzarblashtiradi. Shu munosabat bilan, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, ayniqsa, ta’lim xizmatlari sohasida yangi avlod mutaxassislarini gender jihatdan tayyorlash mavjud gender rollari tengsizligini va birinchi navbatda, pedagogik tizimlarda gender xurofotlarini bartaraf etishda hal qiluvchi rol o‘ynashi lozim [7;272. 8;188]. Shu sababli, pedagoglarning gender javobgarligini rivojlantirish muammosi ayniqsa dolzarb ekanligi ayon bo‘ladi, chunki bu ularda bir qator hayotiy, shuningdek, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga hissa qo‘shishi kerak.

Bu jihatdan, I.A.Zagaynovning fikricha, fuqarolik jamiyati institutlarining faolligi pastligi va odatta, ayollarning davlat tuzilmalarining barcha darajalarida qaror qabul qilishdan chetlatilishi, qashshoqlik feminizatsiyasi, ijtimoiy vaziyatning yomonlashishi kabi holatlar jamiyat hayotining barcha sohalarida, shu jumladan fan sohasida erkak va ayollarning gender tengligini ta’minlash uchun tegishli sharoitlar yaratish zarurligini ta’kidladi. Shu sababli, kadrlar tayyorlashga zamonaviy yondashuvlar ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy rolini va umuman kasbiy faolligini oshirishga yordam beradigan eng muhim gender muammolari hal qilinishini ta’minlashi shart. Postsovet hududida jamiyatda ijtimoiy ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotning turli sohalarida gender tengsizligi hodisalari bo‘yicha yuzaga kelgan muammoli vaziyatni tahlil qilgan holda, muallif gender tengsizligi mehnat bozorida, kasb-hunar va oliy ta’lim sohasida doimiy ravishda sodir bo‘ladigan kamsitish sifatida namoyon bo‘ladi degan xulosaga keladi.

Yuzaga kelgan vaziyatning sabablari asosan gender rollari va tarixiy o‘tmishda rivojlangan stereotiplar bilan bog‘liq. Shu bilan birga, gender bilan bog‘liq har bir shaxs uchun ham, jamiyat uchun ham xavfli bo‘lgan eski stereotiplar odamlarning miyasida qaysi kasb erkakka, qaysi kasb esa ayolga xos bo‘lishi to‘g‘risidagi fikr ommaviy ong darajasida qat’iy belgilangan. Bunday yondashuvda hozirgi kundagi mehnat bozorida, siyosatda, oilada va h.k. larda shaxsning kasbiy jihatdan o‘zini o‘zi anglash samaradorligi obyektiv mezonlar (qobiliyat darajasi, tayyorgarlik va boshqalar) bilan emas, erkak va ayollarning ijtimoiy tizimdagi gender farqlari va ijtimoiy-madaniy cheklovlarga bog‘liq o‘rni haqidagi an’anaviy qarashlar bilan belgilanadi. Ammo, eskirgan stereotiplarni zamonaviy gender stereotiplari bilan to‘liq almashtirishni faqat Qonunchilik yordamida ma’muriy choralar ko‘rish bilan amalga oshirib bo‘lmaydi, chunki bu madaniy sohaning, xususan, gender sotsializatsiyasi va shaxsning gender ta’limi kichik tizimi bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga, postsovet jamiyatining yangi ijtimoiy buyurtmasi sifatida demokratik shaxs tipining ijtimoiy-madaniy jihatdan shakllanishi kichik tizimlarida gender tengligi g‘oyasining amaliy ravishda amalga oshirilishi, birinchi navbatda, gender madaniyati, javobgarlik, gender

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

muammosini tushunishni hisobga olgan holda bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashni maqsadga muvofiq ravishda kuchaytirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Rus olimi M.A.Semenovaning ta’kidlashicha, ko‘plab muammolarning kelib chiqishi jamiyat faoliyati, aynan gender nomutanosibligi bilan bog‘liq, masalan, siyosiy, boshqaruv faoliyati sohalarida, ikki jins vakillarining o‘mr ko‘rish davomiyligidagi farq o‘sishi, ya’ni erkaklar o‘limi darajasi oshishi, ayollarning ikki hissa bandligi, erkaklarning oiladagi bolalar tarbiyasi va uy-ro‘zg‘or ishlarida yetarlicha ishtirok yetmasligi kuzatiladi va buning ildizi bolalarning gender sotsializatsiyasiga borib taqaladi. Shu sababli, gender masalasini nafaqat konstitutsiyaviy tenglikni himoya qilish, balki, birinchi navbatda, yosh avlodning gender tarbiyasini ta’minlash, ularning gender masalalariga, kundalik faoliyatdagi mas’uliyat, oilaviy, ijtimoiy rollarni bajarishda sheriklik va o‘zaro yordamga ongli munosabatini rivojlantirish orqali hal qilish mumkin. Bolalar va yoshlarda har qanday xato fikrlar paydo qilish yoki ularni kamsitishning oldini olish, ularning ta’lim va xulq-atvoriga bo‘lgan talablarni farqlash, ma’lum bir jinsga mansubligi asosida kasbiy, oilaviy va fuqarolik rollarini o‘zlashtirish ushbu jarayonning yetakchi tamoyili hisoblanadi.

Yana bir psixolog A.I.Mrugning fikriga ko‘ra, zamonaviy jamiyatda ma’lum bir gender rolini o‘zlashtirish jarayoniga oid o‘zgarishlar mavjud bo‘lib, ular jamiyatda shakllangan gender stereotiplariga mos keladi. Bu yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish jarayoniga yoshlarning gender madaniyatini maqsadli rivojlantirish, ularning mas’uliyatini, ushbu muhim masalalarda kompetensiyasini shakllantirish masalasini joriy etishni juda dolzarb masalaga aylantiradi. Muayyan gender rolini o‘zlashtirish jarayonining o‘zi odatta, tanish ijtimoiy mexanizm, ya’ni, normativ va axboriy (informatsion) ta’sir orqali sodir bo‘ladi. Normativ ta’sir aksariyat hollarda, jamiyat yoki jamoa tomonidan ushbu jamoaning, xatti-harakatlari erkak va ayolga nisbatan belgilangan me’yorlarga yoki gender bo‘yicha qabul qilingan yangi normalarga mos kelmaydigan a’zolarini yoqtirmasligi va qoralashi sababli namoyon bo‘ladi. Noan’anaviy jinsiy oriyentatsiyaga ega bo‘lgan odamlarga salbiy munosabat, kasbiy tanlovda, kommunikativ xatti-harakatlarda gender xususiyatlarini hisobga olgan holda bosim o‘tkazish holatlarini normativ ta’sirning eng keng tarqalgan namunasi sifatida ko‘rsatish mumkin. Shunday qilib, inson jamiyatda atrofidagi odamlarning uni pisand etmasligi, unga nisbatan e’tiborsizlik holatlariga duch kelmaslik uchun stereotiplarga amal qilib, gender rollarini bajarishga moslashishi kerak bo‘ladi. Axboriy ta’sir insonning ma’lum me’yor va standartlarga rioya qilishga intilishi tufayli amalga oshiriladi, ular orasida ayollar va erkaklarga tegishli stereotiplar muhim rol o‘ynaydi. Ya’ni, shaxs o‘zini, u tegishli bo‘lgan guruh a’zolari kabi tutishga harakat qiladi va shundagina u o‘z xatti-harakatlarini maqbul, to‘g‘ri deb hisoblaydi. Ijtimoiy me’yorlar, erkak/ayol namunalari xulq-atvor standartlari deb hisoblangani uchun, ba’zi odamlar ularni ongsiz darajada, hech qanday shubha qilmasdan qabul qilishadi. Shu bilan birga, ba’zida odam xatti-harakatlarini amaldagi umumqabul qilingan me’yorlarga moslashtirish uchun ongli ravishda o‘zgartiradi. Bunday xatti-harakatlar gender rollariga bo‘ysunish sifatida belgilanadi va quyidagi turlarda bo‘lishi mumkin: ko‘nish (yon berish), ya’ni ijtimoiy jazodan qochadigan shaxs;


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

maqullash, ya'ni shaxs ichida ijtimoiy normalarni ma'qullaydi; taqlid qilish, ya'ni, shaxs rol modelining harakatlarini takrorlaydi.

Aynan bu tiplar doimiy bo'lishi yoki vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin. Masalan, qiz bola idish-tovoqlarni yuvish faqat xotin-qizlarning ishi deb o'ylashi va bir umr idish-tovoq yuvishi mumkin yoki turmushga chiqqanidan so'ng, dugonasining oilasida ko'rganidek, ro'zg'or ishlari bilan bog'liq majburiyatlarni turmush o'rtog'i ikkalasining o'rtasida teng taqsimlashi mumkin, ya'ni, maqullash tipi taqlid qilish tipi bilan almashadi. Taqlid qilish bilan bog'liq gender jihatdan o'zini tutish, yana boshqa odamga taqlid qilish tufayli o'zgarishi mumkin [9; 259]. Gender madaniyat muammosini o'rgangan S.N.Zagumenov gender tayyorgarligining ajralmas tarkibiy qismi, ushbu masaladagi ongli javobgarlik sifatida ko'rib chiqadi, bu nazariya asosida ayol va erkak shaxsining turli xil biologik, ammo teng ijtimoiy mavjudotlar sifatida shakllanishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini bilish yotadi. Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarida gender tengligi tamoyiliga, shuningdek, demokratik qadriyatli-me'yoriy tushunchalar muvaffaqiyatli namoyon bo'ladigan, jinsidan qat'i nazar, har bir insonning qadr-qimmati qo'llab-quvvatlanishi ta'minlanadigan fuqarolik ong, mas'uliyat darajasiga rioya qilish zamonaviy dunyo rivojlanishining eng muhim maqsadlaridan biriga aylanmoqda. Shu maqsadda yoshlar o'rtasida gender madaniyati, ongli mas'uliyatni tarbiyalash, ayollar va erkaklar haqidagi stereotipik tushunchalar ularning tanlash erkinligini cheklamaydigan, rivojlanish esa har ikki jins vakillarining tanlash (o'z navbatida jamiyatda ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydigan) erkinligini kengaytirish jarayoni sifatida qaraladigan holatlar bilan bog'liq fikrlashni shakllantirish usullaridan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, N.V.Bushueva ta'kidlaganidek, oilaviy munosabatlar va o'zaro ta'sir kelib chiqishi sharoitida rivojlanayotgan zamonaviy bolalarda gender identikligi muammosi paydo bo'ladi. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, aksariyat hollarda, erkak va ayol obrazlarini ommaviy axborot vositalaridan, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, tengdoshlari bilan munosabatlar va o'z jinsiy aloqalari tajribasidan oladi. Ularda o'zgacha shaxs tipi shakllanadi, bu shaxs tipi olimning empirik tadqiqotlariga ko'ra, «Men» gender obrazining diffuz bo'linishi, shaxsiy motivatsiyaning past darajada rivojlanishi, mas'uliyat, ma'lum bir passivlik, ehtiyojlar bilan bog'liq ruhi tushish (frustratsiya) holatidagi tajovuzkorlik, gipergender xatti-harakatlar - qizlarning o'g'il bolalarga, o'g'il bolalarning esa qizlarga taqlid qilishiga olib keladigan gender stereotiplari namunalari o'zlashtirilishining noto'g'riligi bilan tavsiflanadi. Gender derivatsiyasi oqibati shuningdek, o'zini o'zi ta'minlashning past darajasi, gender ongining marginallashuvi, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar va o'smirlarning oilaviy va ijtimoiy rollarni bajarishga moslashuvining past darajada bo'lishiga olib keladi [2;75].

J.B.Bagichevaning ta'kidlashicha, ayollarning akademik ta'lim va o'qishga rasmiy jalb qilinishidan deyarli bir asr o'tsa ham biz jamiyatimizning barcha darajalarida gender tengligidan, aholida munosib gender madaniyati mavjudligidan, bunday masalalarga mas'uliyatli munosabatda bo'lishdan hali ancha uzoqmiz. Bundan tashqari, bu vaqt ichida

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ayollar erishgan yutuqlarga yo‘l shu qadar mashaqqatli ediki, u hech qanday bilimni to‘siqsiz egallash imkoniyati, qobiliyatlarga ko‘ra faoliyat, hamma uchun teng imkoniyatlar va boshqa tushunchalarga mos kelmaydi. Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida jamoat tuzilmalarida haligacha ayollar huquqlariga nisbatan cheklovlar mavjud. Ayollar siyosat va iqtisodiyotda asosiy o‘rinlarni egallamaydi. Jamiyat gender tengligi haqida e’lon qilib, ammo ma’lum kasbiy doiralarda gender segregatsiyasini namoyish qiladigan noaniq vaziyat mavjud. Bularning barchasi jinsiy belgi bo‘yicha kamsitishga olib keladi va ko‘p hollarda bandlik, mehnat haqi, ishga qabul qilish, xodimlarni qisqartirish, lavozimga ko‘tarilish, kasbiy rivojlanish, uy-joy bilan ta’minlanish, siyosiy va diniy martaba, ijtimoiy siyosat va boshqalar kabi kasbiy sohalarda namoyon bo‘ladi. Gender stereotiplarining salbiy ta’siri zamonaviy shaxsning individualligini rivojlantirishda to‘siq sifatida harakat qilib, insonning o‘zini o‘zi anglashiga ta’sir qilishi mumkin [1;33].

Bu yo‘nalishda tadqiqot olib borgan A.V.Vorojeykina o‘tkazgan tadqiqotlar ko‘rsatishicha, insonlarda gender rollari ta’lim olish jarayonida jamiyat ta’siri ostida shakllanadi. Ta’lim davomida kasbiy gender stereotiplarini o‘zgartirish mumkin, ya’ni ularni tuzatish yoki eng yaxshisi ulardan butunlay xalos bo‘lish mumkin, bunga gender kompetensiyasi va mas’uliyatini to‘g‘ri rivojlantirish orqali erishiladi. Ammo shuni tan olish kerakki, oliy o‘quv yurtlaridagi o‘qituvchilar talabalarning akademik muvaffaqiyatini baholashga turlicha munosabatda bo‘ladi. O‘g‘il bolalarda buni asosan qobiliyatlar bilan, qizlarda esa sabr va qunt bilan bog‘lashadi. Bir jins vakillaridagi maqsadlarga erishishda qat’iyatlilik ruhini saqlash, birovning ishiga aralashmaslik, ko‘nikish va moslashishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiyaning bunday tabaqalashtirilgan tizimi shaxsiy «Men» tushunchasiga har xil munosabatni keltirib chiqaradi. Buni hisobga olgan holda, ko‘pincha erkaklar ayollarga qaraganda samaraliroq degan fikr mavjudligini ta’kidlash mumkin. Bu yerda barcha faoliyat turlari yoki jamiyat tomonidan ayniqsa qadrlanadigan – siyosat, diplomatiya, ilm-fan, san’at, sport va boshqa turlari ko‘zda tutiladi. Ayollarning bu sohalarda katta muvaffaqiyatlarga ega bo‘lmasligi yoki erkaklarga qaraganda ancha kamtarligi, odatda, tegishli qobiliyatlar yetishmasligi bilan izohlanadi, bu esa, o‘z navbatida, ko‘pincha nufuzli kasblarda gender tengsizligini oqlash uchun asosiy dalil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlar o‘qitish va kasbiy faoliyat muvaffaqiyati insonning gender xususiyatlariga bog‘liq emasligini yaqqol namoyish etadi [3;24].

Aytishimiz mumkinki, xulosa o‘rnida, ko‘pchilik olimlarning fikriga ko‘ra, jamiyatni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish shaxsning uyg‘un rivojlanishi, uning o‘zini o‘zi anglashi va ijtimoiy kelib chiqishi, maqomi, millati, yoshi, shuningdek jinsidan qat’i nazar barcha odamlarning o‘zini-o‘zi ruyobga chiqarishi uchun teng imkoniyatlar yaratish va mustahkamlash, obyektiv jarayonning maqsadli rivojlanishini belgilaydi. Shu bilan birga, jamiyatni haqiqiy insonparvarlashtirish, uning barqaror va xavfsiz faoliyati gender muammolarini, ushbu jihatdagi salbiy stereotiplarni yengib o‘tishni, jamoat madaniyatida ongli gender mas’uliyatini yaratish, jamoat hayotining barcha sohalarida, shu jumladan birinchi navbatda ta’lim amaliyotida teng gender huquqlarini yaratishga qaratilgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Багичева Ж.Б. Гендерная проблематика в образовании. // Семья: проблемы, традиции, новации. Материалы Всероссийской научно-практической конференции. Том 2. - Москва, 2008. - С. 33-39.
2. Бушуева Н.В. Гендерный аспект регионального политического лидерства. // Уровень жизни населения регионов России. 2010, №3. - С. 75- 80.
3. Ворожейкина А.В. Методологические подходы к формированию гендерно-ориентированного стиля педагогической деятельности. // Инновации общего и профессионального образования, материалы междунар. научн. практ конф. Челябинск, 2006. - С. 24-29.
4. Клецина И.С. Гендерный подход и внутриличностные конфликты. // Женщина. Образование. Демократия: Материалы 2-й междунар. междисциплинар. науч.-практ. конф. - Минск, 2000. - С. 275-279.
5. Ключко О.И. Проблемы интеграции гендерного подхода в педагогическое образование региона. // Регионология. - 2007. - № 4. - С. 169-176.
6. Кочнев В.А. О возможностях дифференциального анализа в изучении поло ролевой идентичности. // Актуальные проблемы современной психологии и педагогики: новые технологии и перспективы. Материалы Международной научно-практической конференции. - 2013. - С. 118-122.
7. Козлов В.В. Гендерная психология. - М.: Высшая школа, 2016. - 272 с.
8. Кон И.С. Меняющиеся мужчины в меняющемся мире: Гендерные исследования мужчин. // Гендерный калейдоскоп. М., 2001. - С. 188 -208.с
9. Мруг А.И. Исследование особенностей гендерной идентичности студентов. // Сборник научных трудов Транспортной Академии. Серия: Педагогика и психология. - Кишинэу, 2005. - том 2. - С. 259-262.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**N.J.Sag‘indikova**, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti psixologiya f.d. DSc., prof.,[**Сагиндикова Ж. Наргиза,** Каракалпакский государственный имени Бердаха Университет психологии Ф.Д. (DSc)., проф.],[**Nargiza J. Sagindikova**, Karakalpak State named after Berdaq University psychology f.D. DSc., prof.]; O‘zbekiston, Karakalpakstan Respublikasi, Nukus sh., Jaslar keleshegi ko'chasi, 99-uy [адрес: Узбекистан, Республика Каракалпакстан, ул. Жаслар келешеги, д.99, г. Нукус], [address: Uzbekistan, Karakalpakstan, 99, Jaslar keleshegi st., Nukus city

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# MUSIQA NAZARIYASI: INSON RUHIY, KOGNITIV VA IJTIMOIY RIVOJLANISHDAGI ROLI

© R.M.Saparov[1]✉

[1]Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, Qoraqalpog‘iston

Annotatsiya

**KIRISH**: maqolada musiqaning inson ruhiy, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishiga ta’siri ilmiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi. Musiqa nazariyasi ritm, melodiya va harmoniyaning psixologik, pedagogik hamda ijtimoiy jarayonlarga ta’sirini o‘rganadi. Zamonaviy tadqiqotlar musiqaning stressni kamaytirish, kayfiyatni yaxshilash va kognitiv jarayonlarni faollashtirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

**MAQSAD**: tadqiqotning maqsadi — musiqa nazariyasi asosida insonning ruhiy barqarorligi, kognitiv faoliyati va ijtimoiy moslashuviga musiqaning ta’sirini tahlil qilish, shuningdek, pedagogik va terapevtik jarayonlarda musiqadan foydalanish imkoniyatlarini aniqlashdir

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tahlil jarayonida taqqoslash, kuzatish va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Psixologiya, pedagogika, musiqa nazariyasi va sotsiologiya sohalariga doir materiallar ilmiy manbalar asosida o‘rganildi. Amaliy misollar sifatida musiqaterapiya, ta’lim jarayonlari va madaniy muhitdagi kuzatuvlar tahlil qilindi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: olingan natijalarga ko‘ra, musiqa inson ruhiyatida ijobiy emotsional holatni shakllantiradi, stressni kamaytiradi va motivatsiyani oshiradi. Kognitiv jarayonlarda esa diqqat, xotira, nutq va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy nuqtai nazardan musiqa muloqot, madaniy identitet va ijtimoiy integratsiyani mustahkamlaydi

**XULOSA:** musiqa inson ruhiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil bo‘lib, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy hayotda qo‘llashga arziydi. Tadqiqot natijalari musiqani pedagogik va terapevtik jarayonlarga integratsiya qilish zaruriyatini ko‘rsatadi. Musiqaning ilmiy asosda qo‘llanishi shaxs rivojlanishining samaradorligini oshiradi

**Kalit so'zlar**: musiqa nazariyasi, ruhiy rivojlanish, kognitiv rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, musiqaterapiya, pedagogika, zamonaviy texnologiyalar

**Iqtibos uchun**: Saparov R.M. Теория музыки: роль человека в умственном, когнитивном и социальном развитии . // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. B.243–250.

## ТЕОРИЯ МУЗЫКИ: РОЛЬ ЧЕЛОВЕКА В УМСТВЕННОМ, КОГНИТИВНОМ И СОЦИАЛЬНОМ РАЗВИТИИ

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

©Р.М.Сапаров[1]✉
[1]Нукусский государственный педагогический институт, Нукус, Каракалпагистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: в статье рассматривается влияние музыки на психическое, когнитивное и социальное развитие человека с научной точки зрения. Теория музыки изучает влияние ритма, мелодии и гармонии на психологические, педагогические и социальные процессы. Современные исследования подтверждают важность музыки для снижения стресса, улучшения настроения и активации когнитивных процессов.

**ЦЕЛЬ**: целью исследования является анализ влияния музыки на психическую устойчивость, когнитивную активность и социальную адаптацию человека на основе теории музыки, а также определение возможности использования музыки в педагогических и терапевтических процессах.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в процессе анализа использовались методы сравнения, наблюдения и анализа научной литературы. Материалы по психологии, педагогике, теории музыки и социологии изучались на основе научных источников. В качестве практических примеров были проанализированы наблюдения в музыкотерапии, образовательных процессах и культурной среде.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: согласно полученным результатам, музыка формирует в психике человека положительное эмоциональное состояние, снижает стресс, повышает мотивацию. А в познавательных процессах служит развитию внимания, памяти, речи и творческого мышления. С социальной точки зрения музыка способствует общению, культурной самобытности и социальной интеграции

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: музыка является важным фактором психического, интеллектуального и социального развития человека, и ее стоит применять в образовании, здравоохранении и общественной жизни. Результаты исследования указывают на необходимость интеграции музыки в педагогические и терапевтические процессы. Использование музыки на научной основе повышает эффективность развития личности

**Ключевые слова**: теория музыки, психическое развитие, когнитивное развитие, социальное развитие, музыкотерапия, педагогика, современные технологии

**Для цитирования**: Сапаров Р.М. Теория музыки: роль человека в умственном, когнитивном и социальном развитии . // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. С. 243–250.

## MUSIC THEORY: THE ROLE OF MAN IN MENTAL, COGNITIVE AND SOCIAL DEVELOPMENT

© Raxim M. Saparov[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

[1]Nukus State Pedagogical Institute, Nukus, Karakalpagistan

Annotation

**INTRODUCTION**: the article examines the influence of music on human mental, cognitive and social development from a scientific point of view. Music theory studies the effects of rhythm, melody, and harmony on psychological, pedagogical, and social processes. Modern research confirms the importance of music in reducing stress, improving mood, and activating cognitive processes.

**AIM:** the purpose of the study is to analyze the influence of music on the mental stability, cognitive activity and social adaptation of a person on the basis of music theory, as well as to determine the possibility of using music in pedagogical and therapeutic processes

**MATERIALS AND METHODS**: in the analysis process, methods of comparison, observation and analysis of scientific literature were used. Materials on the fields of psychology, pedagogy, music theory and sociology were studied on the basis of scientific sources. As practical examples, observations in musicotherapy, educational processes and the cultural environment were analyzed.

**DISCUSSION AND RESULTS**: according to the results obtained, music forms a positive emotional state in the human psyche, reduces stress and increases motivation. And in cognitive processes, it serves to develop attention, memory, speech and creative thinking. From a social point of view, music strengthens communication, cultural identity and social integration

**CONCLUSION:** music is an important factor in the mental, intellectual and social development of a person and is worth applying in education, health and social life. The results of the study show the need to integrate music into pedagogical and therapeutic processes. The use of music on a scientific basis increases the effectiveness of Personality Development

**Key words**: music theory, mental development, cognitive development, social development, musicotherapy, pedagogy, modern technologies

**For citation**: Raxim M.Saparov. (2025) Music theory: the role of man in mental, cognitive and social development, Inter education & global study, vol.3 (12), pp243–250. (In Uzbek).

**M**usiqa insoniyatning eng qadimiy va muhim san’at shakllaridan biri bo‘lib, nafaqat estetik zavq manbai, balki inson ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir qiluvchi kuch sifatida ham o‘rganilgan. Musiqa nazariyasi ritm, melodiyalar, harmoniyalar va ularning bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqa insonning kayfiyati, xotira, diqqat va ijodiy fikrlash jarayonlarini sezilarli darajada rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, musiqaning ijtimoiy va madaniy jihatlari insonlarning jamiyatdagi o‘zaro aloqalarini mustahkamlash, madaniy identitetni shakllantirish va yoshlar madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Maqola

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

davomida musiqaning ruhiy jarayonlarga, ijtimoiy hayotga va kognitiv rivojlanishga ta’siri nazariy asoslar bilan yoritiladi, shuningdek zamonaviy musiqiy texnologiyalar va global madaniy tendensiyalar bilan bog‘liq ilmiy tahlil amalga oshiriladi. Shu bilan birga, musiqa nazariyasining psixologiya, pedagogika va sotsiologiya sohalaridagi ahamiyati ham ko‘rsatib o‘tiladi.

Musiqa insoniyat tarixida nafaqat san’at shakli, balki psixologik, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni shakllantiruvchi kuch sifatida katta ahamiyatga ega. Zamonaviy hayot sharoitida stress, diqqat va xotira bilan bog‘liq muammolar, shuningdek ijtimoiy muhitdagi o‘zgarishlar, musiqa nazariyasi va uning inson ruhiy hamda ijtimoiy rivojlanishga ta’sirini tadqiq etishni dolzarb qiladi. Shu bilan birga, musiqaning pedagogik va terapevtik imkoniyatlari, kognitiv rivojlanish va madaniy identitet shakllanishiga qo‘shayotgan hissasi ilmiy jihatdan o‘rganishga muhtoj.

Ushbu maqolaning maqsadi – musiqa nazariyasi asosida inson ruhiy va ijtimoiy rivojlanish mexanizmlarini ilmiy tahlil qilish, musiqaning psixologik, kognitiv va ijtimoiy ta’sirlarini aniqlash, shuningdek zamonaviy texnologiyalar va madaniy tendensiyalar bilan bog‘liq yangi ilmiy qarashlarni yoritishdan iborat. Musiqa insoniyat tarixida eng qadimiy va muhim san’at shakllaridan biri hisoblanadi. U nafaqat estetik zavq manbai, balki inson ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida ham katta ahamiyatga ega. Musiqa nazariyasi ritm, melodiyalar, harmoniyalar va ularning bir-biri bilan bog‘liqligini ilmiy nuqtai nazardan o‘rganadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqa inson kayfiyati, diqqat va xotira jarayonlariga sezilarli ta’sir qiladi. Shu bilan birga, musiqaning ijtimoiy va madaniy roli insonlarning jamiyatdagi o‘zaro munosabatlarini mustahkamlashda muhim vosita sifatida ishlaydi. Musiqa bolalar va o‘smirlarning kognitiv rivojlanishida ham yordam beradi, shu jumladan nutq, eslab qolish va ijodiy fikrlash jarayonlarini rag‘batlantiradi. Zamonaviy texnologiyalar musiqaning ijodiy va iste’mol jarayonlarini tubdan o‘zgartirdi. Sun’iy intellekt, kompyuter dasturlari va raqamli platformalar musiqiy ijod va pedagogik jarayonlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Shu nazariy asosga tayangan holda, maqola musiqaning ruhiy, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga ta’sirini ilmiy jihatdan tahlil qiladi. Tadqiqotlar musiqaning psixologik, pedagogik va sotsiologik aspektlarini yoritadi. Maqola davomida musiqa terapevtik imkoniyatlar, pedagogik jarayonlarda qo‘llanilishi va global madaniy tendensiyalar bilan bog‘liqligi ham ko‘rib chiqiladi.

Musiqa nazariyasi ritm, melodiya, harmoniyalar va ularning inson ruhiyatiga ta’sirini ilmiy jihatdan o‘rganadi. Ritm inson psixikasini tartibga soladi, diqqatni yo‘naltiradi va xotira jarayonini rag‘batlantiradi. Melodiya va harmoniyalar kayfiyatni boshqaradi, hissiy barqarorlikni ta’minlaydi. Musiqa nazariyasi orqali musiqaning texnik va estetik elementlari inson ruhiy holatiga qanday ta’sir qilishi aniqlanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tonal va ritmik tuzilmalarning inson miyasi va hissiyotlariga ta’siri biologik va neyrobiologik asosga ega. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlar musiqa elementlarining kognitiv jarayonlarga, xotira va diqqatga ta’sirini tahlil qiladi. Musiqa nazariyasi shuningdek ijodiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi vosita sifatida ham o‘rganiladi. Tadqiqotlar ritm va harmoniyalarning emotsional javoblarni shakllantirishdagi rolini ko‘rsatadi. Musiqa


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

nazariyasi estetik va psixologik nuqtai nazarni birlashtiradi. Shu bilan birga, u pedagogika, terapevtika va sotsiologiya sohalarida ham ilmiy tahlilga asos bo‘ladi.

Musiqa inson ruhiyatiga psixologik va fiziologik ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tinch va uyg‘un musiqiy kompozitsiyalar stressni kamaytiradi, qon bosimi va yurak urishini normallashtiradi. Musiqa kayfiyatni yaxshilash, motivatsiyani oshirish va hissiy barqarorlikni ta’minlashda samarali vosita sifatida ishlatiladi. Musiqaterapiya ruhiy kasalliklar, depressiya va anksiyete bilan kurashishda qo‘llaniladi. Shu bilan birga, musiqa insonning ijtimoiy faoliyatini ham qo‘llab-quvvatlaydi, chunki u jamoaviy faoliyat va muloqotni rag‘batlantiradi. Musiqa turli emotsional holatlarni ifodalash va hissiy tajribalarni oshirish imkonini beradi. Tadqiqotlar musiqaning miyadagi neyron faoliyatni stimulyatsiya qilish orqali hissiy javoblarni kuchaytirishini ko‘rsatadi. Shu bois, musiqa ruhiy salomatlikni saqlashda va stressni kamaytirishda muhim vosita hisoblanadi.

Musiqa insonning kognitiv jarayonlarini rag‘batlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ritm va melodik tuzilmalarga ega musiqa bolalar va o‘smirlarning xotira, diqqat va nutq ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Musiqa tinglash va ijro etish jarayoni miyaning neyron aloqalarini faollashtiradi, bu esa ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi. Pedagogik tadqiqotlar musiqa integratsiyasi bolalarning o‘quv jarayonlarida diqqatini yaxshilash va eslab qolish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, musiqa nutq va lingvistik ko‘nikmalarni oshirishga, til o‘rganishda samarali vosita bo‘lishi mumkin. Tadqiqotlar miyaning neyroplastikligi musiqa orqali rag‘batlantirilishini, yangi neyron aloqalarning shakllanishini ko‘rsatadi. Musiqa o‘quv jarayonlarida motivatsiyani oshiradi, diqqatni bir nuqtaga jamlash imkonini beradi. Kognitiv tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqa bolalarda matematik va mantiqiy fikrlashni ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, musiqa psixologik barqarorlikni oshiradi va stressni kamaytiradi. Musiqa orqali o‘quvchilar ijodiy jarayonlarda yangi yondashuvlarni ishlab chiqadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqa kognitiv rivojlanish va akademik muvaffaqiyat o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjud. Shu sababli musiqa ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishi muhimdir.

Musiqa jamiyat va madaniyat rivojida muhim rol o‘ynaydi. Folklor, milliy qo‘shiqlar va zamonaviy musiqiy janrlar madaniy identitetni saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Musiqa jamiyatdagi ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash, jamoaviy ish va hamkorlikni rag‘batlantirishda samarali vosita sifatida ishlaydi. Madaniy tadqiqotlar musiqa orqali insonlar o‘rtasida muloqot va hissiy aloqalar kuchayishini ko‘rsatadi. Musiqa festivallari, konsertlar va jamoaviy ijrolar ijtimoiy barqarorlikni oshiradi. Shu bilan birga, zamonaviy musiqiy janrlar global tendensiyalarni aks ettiradi va yoshlar madaniyatini shakllantiradi. Musiqa orqali milliy va xalqaro madaniy almashuvlar rivojlanadi. Tadqiqotlar musiqaning etnik va milliy xususiyatlarini tahlil qiladi, shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy ta’sirini ilmiy jihatdan ko‘rsatadi. Musiqa orqali insonlarning hissiy tajribasi va emotsional holati ham ijtimoiy barqarorlik bilan bog‘liq. Shu bilan birga, musiqa ijtimoiy ongni shakllantirishda vosita sifatida qo‘llaniladi. Musiqa nazariyasi va amaliyoti jamiyatdagi madaniy


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

jarayonlarni tushunishda ilmiy asos yaratadi. Musiqa ijtimoiy madaniy rivojlanishga hissa qo‘shuvchi vosita sifatida o‘rganilishi zarur.

Musiqaterapiya inson ruhiy va fiziologik sog‘lig‘ini yaxshilashda muhim vosita sifatida ishlatiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqa depressiya, anksiyete va boshqa ruhiy kasalliklarni davolashda samarali vosita hisoblanadi. Ritmik va tonal tuzilmalarga ega musiqa stressni kamaytiradi, hissiy barqarorlikni oshiradi va jismoniy holatni yaxshilaydi. Musiqa terapevtik mashg‘ulotlar orqali ijtimoiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydi, odamlarni jamoaviy ishga jalb qiladi va muloqotni kuchaytiradi. Shu bilan birga, musiqa bolalar va o‘smirlarning kognitiv rivojlanishiga ham yordam beradi. Musiqa terapevtik vosita sifatida sog‘liqni saqlash tizimida keng qo‘llanilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqa miyadagi neyroplastiklikni rag‘batlantiradi va hissiy javoblarni kuchaytiradi. Musiqa terapevtik jarayonlarda turli janr va uslublardan foydalanish imkonini beradi. Shu bilan birga, musiqa tinglash va ijro etish psixologik barqarorlikni oshiradi. Musiqa terapevtik mashg‘ulotlar insonning ijtimoiy faoliyatini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Musiqa terapevtik amaliyotlarni rivojlantirishda ilmiy tadqiqotlar davom ettirilishi muhimdir.

Zamonaviy texnologiyalar musiqa yaratish va iste’mol qilish jarayonlarini tubdan o‘zgartirdi. Sun’iy intellekt va kompyuter dasturlari yordamida yangi melodiyalar yaratish, ritm va harmoniyalarni tahlil qilish imkoniyati yuzaga keldi. Raqamli platformalar musiqani keng auditoriyaga yetkazish, global trendlarni kuzatish va madaniy almashuvni rag‘batlantirish imkonini beradi. Texnologiyalar musiqaning pedagogik va terapevtik jarayonlarda qo‘llanilishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar musiqa nazariyasini o‘rganish, ritm va tonal strukturani tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirdi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, texnologiyalar orqali musiqa ijodiy jarayoni soddalashadi, yangi janrlar va uslublar paydo bo‘ladi. Shu bilan birga, musiqiy texnologiyalar global madaniy tendensiyalarni kuzatish va tahlil qilish imkonini beradi. Musiqa texnologiyalari pedagogik jarayonlarda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini oshiradi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar musiqaterapiya va sog‘liqni saqlashda ham qo‘llaniladi.

Musiqa inson ruhiy, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishda muhim omil sifatida tadqiq etilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqa tinglash va ijro etish jarayoni insonning kayfiyatini yaxshilash, stressni kamaytirish va hissiy barqarorlikni ta’minlashda samarali vosita bo‘ladi. Ritm va melodiyalar miyadagi neyron faoliyatni rag‘batlantiradi, xotira, diqqat va ijodiy fikrlash jarayonlarini yaxshilaydi. Shu bilan birga, musiqa pedagogik jarayonlarda bolalar va o‘smirlarning kognitiv rivojlanishida, shu jumladan nutq, matematik va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini oshirishda samarali vosita sifatida ishlatiladi. Ijtimoiy va madaniy nuqtai nazardan, musiqa jamiyatdagi muloqot va hissiy aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Folklor, milliy qo‘shiqlar va zamonaviy musiqiy janrlar madaniy identitetni shakllantiradi, yoshlar madaniyatini rivojlantiradi va global tendensiyalarni aks ettiradi. Musiqa festivallari va jamoaviy ijrolar ijtimoiy barqarorlikni oshiradi, jamiyatda hissiy va madaniy almashuvlarni rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, musiqa terapevtik vosita sifatida ruhiy kasalliklarni davolash, hissiy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

barqarorlikni oshirish va ijtimoiy faollikni kuchaytirishda qo‘llaniladi. Zamonaviy texnologiyalar musiqaning ijodiy, pedagogik va terapevtik jarayonlardagi imkoniyatlarini kengaytirdi. Sun’iy intellekt va raqamli platformalar yangi melodiyalar yaratish, ritm va harmoniyalarni tahlil qilish, global madaniy tendensiyalarni kuzatish imkonini berdi. Shu asosda, musiqa nafaqat individual rivojlanish, balki jamiyat va madaniyat rivojida ham integratsiyalashgan ta’sir ko‘rsatadi. Natijada aniqlanishicha, musiqa inson ruhiy holatini yaxshilash, kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va madaniy identitetni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Musiqa nazariyasi psixologiya, pedagogika va sotsiologiya sohalarida integratsiyalashgan ilmiy tahlil uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, musiqa pedagogik va terapevtik jarayonlarda keng qo‘llanilishi, zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi orqali ilmiy tadqiqotlar davom ettirilishi tavsiya etiladi.

Maqola davomida musiqaning nazariy asoslari, ruhiy holatga ta’siri, kognitiv rivojlanishdagi roli va ijtimoiy-madaniy ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqa nafaqat estetik zavq manbai, balki inson ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida, shuningdek pedagogik va terapevtik jarayonlarda muhim vosita hisoblanadi. Musiqa nazariyasi ritm, melodiyalar va harmoniyalar orqali inson kayfiyati, xotira va diqqatni rag‘batlantirish mexanizmlarini yoritadi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar va global madaniy tendensiyalar musiqaning ijtimoiy va pedagogik ahamiyatini oshiradi. Tavsiya qilinadi: musiqa pedagogik va terapevtik jarayonlarda keng qo‘llanilishi, yangi texnologiyalarni integratsiya qilish va musiqaning ruhiy, kognitiv va ijtimoiy ta’sirini ilmiy jihatdan o‘rganish. Musiqa nazariyasi va amaliyoti insonning rivojlanish jarayonlarini yanada mukammal tushunishga imkon yaratadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Juslin, P. N., & Sloboda, J. A. (2010). Handbook of Music and Emotion: Theory, Research, Applications. Oxford University Press.
2. Hargreaves, D. J., & North, A. C. (2017). The Social Psychology of Music. Oxford University Press.
3. Hallam, S., Cross, I., & Thaut, M. (2011). The Oxford Handbook of Music Psychology. Oxford University Press.
4. Koelsch, S. (2014). Brain and Music. Wiley-Blackwell.
5. Thaut, M. H. (2005). Rhythm, Music, and the Brain: Scientific Foundations and Clinical Applications. Routledge.
6. Levitin, D. J. (2006). This Is Your Brain on Music: The Science of a Human Obsession. Dutton.
7. Chanda, M. L., & Levitin, D. J. (2013). The neurochemistry of music. Trends in Cognitive Sciences, 17(4), 179–193

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

✉ **Saparov Raxim Muratbayevich**, o‘qituvchi, [**Сапаров Рахим Муратбаевич**, преподаватель], **Raxim M.Saparov**, teacher]; manzil: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri, Do‘snazarov ko‘chasi, 104- uy, pochta indeksi: 230105 [адрес: Каракалпагистан, ул. Дусназаров, 104, г. Нукус], [address: Qaraqalpag’iston, 104, Do’snazarov st., Nukus city]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# AXBOROTLASHTIRILGAN TA'LIM MARKAZI SHAROITIDA MATEMATIKA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

© U.T.Urazalieva[1]✉

[1]Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Annotatsiya

**KIRISH**: zamonaviy ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) ahamiyati tobora orth bormoqda. Axborotlashtirilgan ta'lim markazi (ATM) sharoitida matematika fanini o'qitish o'qituvchidan yuqori pedagogik mahorat, ilmiy-tadqiqot yondashuvi va innovatsion metodlarni qo'llashni talab etadi. Matematika – analitik fikrlash, muammolarni hal qilish va mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiruvchi asosiy fan sifatida zamonaviy jamiyatda katta ahamiyatga ega. ATM sharoitida matematika o'qitish nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, balki o'quvchilarda muammolarni yechish, mantiqiy tafakkur va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

**MAQSAD**: ushbu tadqiqotning maqsadi axborotlashtirilgan ta'lim markazi sharoitida matematika o'qitish metodikasini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish, interaktiv va raqamli resurslardan foydalanishning samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashning zamonaviy usullarini taklif etishdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda taqqoslama tahlil, eksperimental usul, kuzatish va natijalarni statistik qayta ishlash metodlari qo'llanildi. Axborotlashtirilgan ta'lim markazida matematika darslarining samaradorligi an'anaviy metodlar bilan taqqoslab o'rganildi. Tadqiqot materiallari sifatida elektron darsliklar, multimedia taqdimotlar, GeoGebra va Desmos kabi matematik dasturlar, onlayn test tizimlari va interaktiv topshiriqlardan foydalanildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: tadqiqot natijalari axborotlashtirilgan ta'lim markazi (ATM) sharoitida raqamli metodlardan foydalanish matematika darslarining samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Interaktiv va raqamli metodlar yordamida o'quvchilarning bilim darajasi 20-25% ga oshdi, ularning mantiqiy fikrlash, muammolarni yechish va mustaqil tadqiqot qilish ko'nikmalari rivojlandi. O'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasi oshdi, shu bilan birga guruhiy hamkorlik va fikr almashish faolligi 30% ga yaxshilandi. Tizimlilik, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va tadqiqotga asoslangan o'qitish tamoyillari asosida elektron darsliklar, onlayn testlar, GeoGebra kabi modellashtirish dasturlari, masofaviy ta'lim

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

shakllari va loyiha metodlari kabi vositalar matematika o‘qitish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qildi.

**XULOSA:** axborotlashtirilgan ta’lim markazi sharoitida matematika o‘qitish metodikasini zamon talablari asosida rivojlantirish o‘quvchilarning intellektual rivoji, mustaqil fikrlashi hamda kelgusidagi ilmiy tadqiqotlarga tayyor bo‘lishiga asos yaratadi. Interaktiv va raqamli metodlardan foydalanish nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, mustaqil ishlash va ijtimoiy hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Elektron va raqamli resurslar yordamida darslarni individualizatsiyalash, o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonini nazorat qilish va mustaqil tadqiqot faoliyatini olib borish imkoniyati yaratiladi. Bu esa ta’lim sifatini oshirish va har bir o‘quvchining individual qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kelajakda ushbu metodik yondashuvni yanada takomillashtirish, raqamli resurslar bazasini kengaytirish va ularni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish orqali ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning barcha ko‘nikmalarini maksimal darajada rivojlantirish mumkin.

**Kalit so'zlar**: axborotlashtirilgan ta’lim markazi, matematika o‘qitish metodikasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv metodlar, raqamli ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, individualizatsiya, matematik modellashtirish

**Iqtibos uchun**: Urazalieva U.T Axborotlashtirilgan ta’lim markazi sharoitida matematika o‘qitish metodikasini takomillashtirish. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. B.251–258.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ МАТЕМАТИКИ В УСЛОВИЯХ ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ЦЕНТРА

©У.Т.Уразалиева[1]✉
[1]Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза, Нукус, Каракалпакстан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: значение информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в современной системе образования неуклонно растет. Преподавание математики в условиях информационно-образовательного центра (АТМ) требует от учителя высокого педагогического мастерства, применения исследовательского подхода и инновационных методов. Математика – как основная дисциплина, формирующая навыки аналитического мышления, решения задач и логического вывода, имеет большое значение в современном обществе. Преподавание математики в условиях банкомата должно быть направлено не только на усвоение теоретических знаний, но и на решение задач, развитие логического мышления и творческого подхода у учащихся.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**ЦЕЛЬ**: целью настоящего исследования является изучение теоретических и практических аспектов совершенствования методики преподавания математики в условиях информационно-образовательного центра, анализ эффективности использования интерактивных и цифровых ресурсов, а также предложение современных методов закрепления знаний и умений учащихся.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в исследовании использовались методы сравнительного анализа, экспериментального метода, наблюдения и статистической обработки результатов. В информационно-образовательном центре изучалась эффективность уроков математики в сравнении с традиционными методами. В качестве исследовательских материалов использовались электронные учебники, мультимедийные презентации, математические программы, такие как GeoGebra и desmos, системы онлайн-тестирования и интерактивные задания.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: результаты исследования показали, что использование численных методов в условиях информационно-образовательного центра (АТМ) значительно повышает эффективность уроков математики. С помощью интерактивных и цифровых методов уровень знаний учащихся увеличился на 20-25%, развились их навыки логического мышления, решения проблем и самостоятельного исследования. Интерес и мотивация студентов к науке возросли, а активность группового сотрудничества и обмена идеями улучшилась на 30%. Такие инструменты, как электронные учебники, онлайн-тесты, программы моделирования, такие как GeoGebra, формы дистанционного обучения и методы проектов, основанные на принципах системности, компетентностного подхода, личностно-ориентированного обучения и обучения на основе исследований, послужили эффективной организацией процесса обучения математике. методики преподавания математики в условиях информационно-образовательного центра на основе современных требований создает основу для интеллектуального развития учащихся, их самостоятельного мышления и готовности к дальнейшим научным исследованиям. Использование интерактивных и цифровых методов не только повышает уровень знаний, но и развивает у учащихся навыки логического мышления, самостоятельной работы и социального сотрудничества. С помощью электронных и цифровых ресурсов создается возможность индивидуализации уроков, контроля за процессом освоения учащимися и проведения самостоятельной исследовательской деятельности. Это способствует повышению качества образования и развитию индивидуальных способностей каждого ученика. В дальнейшем дальнейшее совершенствование этого методического подхода, повышение эффективности обучения за счет расширения базы цифровых ресурсов и их интеграции в учебный процесс, максимальное развитие всех навыков учащихся

**Ключевые слова**: центр информированного обучения, методика преподавания математики, информационные и коммуникационные технологии,


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

интерактивные методы, цифровое обучение, компетентностный подход, индивидуализация, математическое моделирование

**Для цитирования**: Уразалиева У.Т. Совершенствование методики преподавания математики в условиях информационно-образовательного центра. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. С. 251–258.

# IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING MATHEMATICS IN THE CONDITIONS OF AN INFORMED EDUCATIONAL CENTER

© Ulbike T.Urazalieva[1]✉
[1] Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute, Nukus, Karakalpakstan

Annotation

**INTRODUCTION**: in the modern educational system, the importance of information and communication technologies (ICT) is increasingly growing. In the context of the Center for informed education (ATM), teaching mathematics requires the teacher to apply high pedagogical skills, a research approach and innovative techniques. Mathematics is of great importance in modern society as the main science that forms the skills of analytical thinking, problem solving and logical inference. In the conditions of the ATM, the teaching of mathematics should be aimed not only at mastering theoretical knowledge, but also at solving problems in students, developing logical thinking and creative approach.

**AIM:** the purpose of this study is to study the theoretical and practical aspects of improving the methodology of teaching mathematics in the conditions of an informed educational center, analyze the effectiveness of the use of interactive and digital resources, and offer modern methods of strengthening the knowledge and skills of students.

**MATERIALS AND METHODS**: the study used methods of comparative analysis, experimental method, observation and statistical processing of results. At the Center for informed learning, the effectiveness of mathematics lessons was studied in comparison with traditional methods. Electronic textbooks, multimedia presentations, mathematical applications such as GeoGebra and Desmos, online test systems, and interactive assignments were used as research materials.

**DISCUSSION AND RESULTS**: the results of the study showed that the use of digital techniques in the conditions of the Center for informed education (ATM) significantly increases the effectiveness of mathematics lessons. With the help of interactive and digital methods, the level of knowledge of students increased by 20-25%, their skills for logical thinking, problem solving and independent research developed. Students ' interest and motivation in science increased, while group collaboration and opinion-sharing activity improved by 30%. Tools such as e-textbooks, online tests, modeling programs such as GeoGebra, distance learning forms, and project methods based on principles of systematicity, competency approach, personality-oriented

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

education, and research-based learning have served to effectively organize the mathematics teaching process. development of the methodology of teaching mathematics in the conditions of an informed educational center on the basis of the requirements of the time provides the basis for the intellectual development, independent thinking of students and readiness for further scientific research. The use of interactive and digital techniques not only increases the level of knowledge, but also develops students ' logical thinking, independent work and social cooperation skills. With the help of electronic and digital resources, it is possible to individualize classes, control the process of student assimilation and conduct independent research activities. This serves to improve the quality of education and to develop the individual abilities of each student. Further improving this methodological approach in the future, increasing the effectiveness of education by expanding the base of digital resources and integrating them into the educational process, maximizing the development of all the skills of students

**Key words**: Center for informed education, mathematics teaching methodology, ICT, interactive methods, digital education, competency approach, individualization, mathematical modeling

**For citation**: Ulbike T.Urazalieva. (2025) Improving the methodology of teaching mathematics in the conditions of an informed educational center, Inter education & global study, vol.3 (12), pp. 251–258. (In Uzbek).

**DISCUSSION AND RESULTS**: the article highlights the importance of developing and applying practical methods for teaching artificial intelligence without computers (unplugged) in general secondary schools, as well as the importance of developing basic skills related to the ethical use of artificial intelligence that students need to know. The research findings show that unplugged teaching methods provide effective results in forming fundamental concepts and practical knowledge related to ethics in the use of artificial intelligence, which is essential for students in the 21st century.

**CONCLUSION:** implementing an innovative approach to teaching artificial intelligence without computers is expected to become an important factor in shaping students' social and ethical attitudes toward modern technologies in the future.

**Key words**: artificial intelligence, unplugged teaching, unplugged activities, ethical dilemmas, algorithmic thinking, teaching methodology, ethical responsibility, pedagogical approach, student development

**For citation**: Sulton A. Normatov. (2025) teaching artificial intelligence in schools without computers (unplugged): practice and ethics, Inter education & global study, vol.3 (12), pp. 272–285. (In Uzbek).

**S**o‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari ta’lim sohasida muhim o‘rin egallay boshladi. Ammo SI ni o‘qitish jarayonini faqat dasturiy vositalar va kompyuter texnologiyalariga tayanib tashkil etish o‘quvchilarda tushunchalarning yuzaki


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

shakllanishiga olib kelishi mumkin [8]. Shu sababli, “kompyutersiz” yoki unplugged yondashuvlar – ya’ni texnik vositalarsiz SI tushunchalarini o‘rgatish usullari – tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

Unplugged ta’lim metodlari o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammoni yechish va mantiqiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi [3]. Bunday yondashuv orqali SI asosiy g‘oyalari, masalan, ma’lumotlardan o‘rganish, naqshlarni tanish va qaror qabul qilish kabi jarayonlar soddalashtirilgan o‘yinlar, rolli mashg‘ulotlar va interaktiv topshiriqlar orqali tushuntiriladi [6]. Shuningdek, maktab yoshidagi o‘quvchilarda SI texnologiyalarining axloqiy oqibatlari haqida tasavvur hosil qilish muhim hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, axloqiy savodxonlik va texnologik tushuncha birgalikda shakllantirilganda o‘quvchilar SI ni ijtimoiy mas’uliyat bilan idrok etadilar [10]. Shu maqsadda, unplugged faoliyatlar yordamida SI qarorlaridagi tarafkashlik, adolat va maxfiylik masalalari muhokama qilinadi [5]. Sun’iy intellektni maktabda o’qitishda o’quv mazmunini texnologiyani yaxlit tizim sifatida emas balki ma’lum elementlar jamlanmasi sifatida o’qitish samarali natijani taqdim etadi [4]. Bu esa sun’iy intellektni o’qitish metodlarini tanlashda mazmundan kelib chiqib adaptive yondashuvni talab etishi mumkin. Xususan, sun’iy intellekt asosiy tushunchalari va axloqiga doir ma’zmuni kompyutersiz o’yin faoliyatiga asoslangan metodlar orqali o’qitish kontentga asoslangan holda adaptatsiya qilishga mos keladi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarga doir bilim va ko’nikmalarni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangani [2] unplugged yondashuvni maktablarda joriy etish uchun amaliy asos yaratadi. Shuningdek, respublikamizda sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish uni turli sohalarda, xususan, ta’limda qo‘llashning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. Xususan, “sun’iy intellekt sohasida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni olib borish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning ilmiy ekotizimini shakllantirish”[1] asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Mazkur vazifalardan kelib chiqgan holda, umumiy o‘rta ta’lim maktabi “Informatika va axborot texnologiyalari” fani mazmunini sun’iy intellekt elementlari asosida takomillashtirish, sun’iy intellekt elementlarini o‘qitishning gibrid texnologiyalariga asoslangan didaktik modeli hamda xususiy metodikasini ishlab chiqishning imkoniyatlari kengaymoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 26-avgustdagi PQ-5234-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ-358-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda maktabda

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

kompyuter yoki sun'iy intellektning real texnologik vositalarisiz sun'iy intellektni o'qitishga doir metodik yondashuvlar hamda sun'iy intellektning axloqiy (etik) normalariga doir amaliy mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday yondashuv resurslar cheklangan muhitlarda ham SI ta'limini samarali tashkil etish imkonini beradi [7]. Shu tariqa, unplugged metodlar yordamida SI ni o'qitish nafaqat texnik bilim, balki axloqiy tafakkurni ham shakllantiruvchi muhim pedagogik vosita sifatida qaraladi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Shuningdek, o'quvchilarga sun'iy intellekt axloqiga doir tushunchalarni o'rgatishda ta'riflarni soda va aniq shaklda ifodalsh muhimdir. Bunda texnologiyalar sohasida biror rivojlanuvchi atamani ta'riflashda uning kelajakdagi imkoniyatlari qanchalik darajada o'zgarishini bilish unga nisbatan vaqt nisbiyligi doirasidan tashqarida bo'lgan aniqroq tasnifni yaratishga imkon berishi mumkinligini [9] hisobga olish lozim. Maktab o'qituvchi ba'zi murakkab ta'riflarni soddalashtirilgan talqinini yaratishda ham yuqoridagi jarayoni hisobga olishi axloqiy jarayonlar bilan bog'liq tushunchalarni aniq ifodalashga yordam beradi.

Bugungi kunda maktab o'quvchilarining sun'iy intellekt bilan munosabatidagi axloqiy mas'uliyati ta'lim jarayonida halollikni saqlash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va texnologiyadan ongli foydalanish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar SI vositalaridan topshiriqlarni to'liq unga yuklamasdan, yordamchi vosita sifatida foydalanishi, axborotning to'g'riligini tekshirishi, plagiatga yo'l qo'ymasligi va o'zining hamda boshqalarning ma'lumotlarini himoyalashi zarur. Bundan tashqari, sun'iy intellekt bilan muloqotda hurmat, ehtiyotkorlik va mas'uliyat kabi qadriyatlarni shakllantirish, o'quvchilarni raqamli dunyoda mas'uliyatli, ongli va etik yondashuvga tayyorlaydi. Ushbu ko'nikmalarni shakllantirishda metodlarni to'g'ri tanlash va ularni o'quv jarayonida faol qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqotda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalariga doir abstrakt bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishda kompyutersiz (unplugged) o'qitish jarayoni hamda ushbu jarayonning o'quvchilarning kognitiv va axloqiy tafakkuriga ta'sirini o'rganish maqsad qilingan. Tadqiqot sifat jihatdan tavsiflovchi (qualitative descriptive) dizaynda olib borildi. Ishtirokchilar sifatida 10-sinf o'quvchilaridan iborat 31 nafar o'quvchi (16 nafar qiz, 15 nafar o'g'il bola) tanlab olindi. Ushbu o'quvchilar jins bo'yicha aralashgan holda tajriba va nazorat guruhlariga bo'lindi. Tajriba Toshkent shahridagi Shayxontohur tumani 169-umumiy o'rta ta'lim maktabida 2023-yil olib borildi. Ushbu jarayon Informatika va axborot texnologiyalari darslari doirasida o'tkazildi.

Tadqiqot davomida ikki turdagi unplugged faoliyat – "Inson robot" o'yini va "Axloqiy dilemmalar" mashg'uloti – asosiy o'quv metodlari sifatida qo'llanildi. Interaktiv amaliy mashg'ulotlar hamda kompyutersiz o'qitish metodlarini tanlashda to'rtta asosiy mezonlarga tayanildi. Bular (1) faoliyat texnik vositalarsiz amalga oshirilishi, (2) o'quvchilarni faol ishtirok etishga undashi, (3) SI tushunchalarini intuitiv va tushunarli shaklda yoritib berishi, va (4) axloqiy fikrlashni rag'batlantirishi kabilar hisoblanadi. Shuningdek, tanlangan interaktiv faoliyatlar ilgari ishlab chiqilgan unplugged metodikalarga tayangan holda mahalliy o'quv muhitiga moslashtirildi. Unplugged

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

interaktiv o'quv metodlaridan bo'lgan "Inson robot" o'yini o'zbek ta'lim muhitiga adaptasiya qilinganda, avvalo buyruqlar ketma-ketligini aniqlik bilan bajarish tamoyili maktab o'quvchilarning kundalik hayot tajribalariga yaqinlashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda buyruqlarni milliy madaniyatga mos hamda hayotiy vazifalar asosida shakllantirish (masalan, predmetlarni tartiblash, sinfda tozalikni saqlash, odob-axloq me'yorlariga mos harakatlarni modellashtirish) orqali o'quvchilarda algoritmik fikrlash bilan birga intizom, jamoada ishlash va mas'uliyat kabi qadriyatlar rivojlanadi. Bu yondashuv o'yin jarayonining didaktik samaradorligini oshiradi va o'quvchilarning mantiqiy faoliyatini tabiiy muhitda shakllantiradi.

"Axloqiy dilemmalar" interaktiv o'yinida esa sun'iy intellekt texnologiyalarining jamiyatdagi o'rni, adolat tamoyillari va inson omilining ahamiyatini o'zbek qadriyatlari bilan uyg'un holda o'rganishga imkon yaratadi. O'quvchilarga taqdim etiladigan vaziyatlar davlat maktablarida duch kelinadigan real holatlarni (SI orqali yaratilgan xato taqdimotlar, SI yordamida baholash, yuzni tanish tizimlaridagi xatoliklar, chatbotning noto'g'ri javobi kabi) aks ettirishi orqali ular muammoli vaziyatlarda halollik, mehr-shafqat, jamoaviylik va mas'uliyat nuqtai nazaridan qaror qabul qilishni o'rgatishga qaratilgan. Muammo yechimini tahlil qilishda o'zbek jamiyati uchun muhim bo'lgan axloqiy me'yorlar asosida fikr yuritish o'quvchilarning etik savodxonligini chuqurlashtirish imkoniyatiga ega bo'linadi.


Mazkur faoliyatlarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish pedagogik faoliyatning madaniy jihatdan mosligini ta'minlab, o'quvchilarning sun'iy intellektga oid tushunchalarni ongli ravishda o'zlashtirishiga yordam beradi. Unplugged yondashuvining o'zbek ta'limi sharoitiga moslashtirilishi o'quvchilarda axborot madaniyati, algoritmik tafakkur va SI axloqi bo'yicha amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi hamda ularning fikrlash jarayonini kontekstual, milliy qadriyatlarga tayangan holda pragmatik rivojlantirish imkonini beradi.Keyingi amaliy faoliyat "Inson robot" metodi o'quvchilarga algoritmik fikrlash va SI tizimlarining buyruqlarga asoslangan ishlash tamoyillarini amliy o'yin shaklida tushuntirishga yordam beradi.

Faoliyat jarayonida bir o'quvchi "robot" rolini, boshqasi esa "dasturchi" rolini bajaradi. "Dasturchi" og'zaki yoki yozma buyruqlar orqali "robot"ni maqsadga yo'naltiradi (masalan, sinfda belgilangan obyektni topish yoki sodda harakatlarni bajarish). O'yin davomida buyruqlar aniq, ketma-ket va mantiqan bog'langan bo'lishi kerak. Jarayon tugagach, o'quvchilar o'z kuzatuvlari asosida xulosa chiqaradilar. Masalan SI inson ko'rsatmasiga bog'liq holda ishlaydi, xatolar esa noto'g'ri ma'lumot yoki buyruq natijasi bo'lishi mumkin kabilardir. Ushbu mashg'ulot SI algoritmlarining ishlash mantig'ini soddalashtirilgan modelda namoyish etadi.

Tadqiqotda ma'lumotlar kuzatish va o'quvchilarning yozma refleksiyalarini tahlil qilish orqali yig'ildi. Har bir faoliyatdan so'ng o'quvchilardan "Nimani o'rgandingiz?" va "Bu jarayon sizni qanchalik xavotirga soladi?" kabi savollarga ma'lum darajada yozma javob olish, darajali ochiq va yopiq testlar hamda loyiha ishilari orqali SI tushunchalari va axloqiy idrokdagi o'zgarishlar o'lchandi. Ma'lumotlar tematik tahlil usuli bilan qayta ishlanib, asosiy mavzular – SI ga doir "algoritmik fikrlash" va "axloqiy tafakkur" – bo'yicha

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

qayta guruhlandi. Bunda 10-11-sinf informatika va AT darsliklaridagi sun’iy intellekt elementlariga doir mavzular guruhlandi. Shuningdek, maktab o’qituvchilarning axloqiy mas'uliyatini oshirish uchun muhim bo’lgan axloqiy jihatlar belgilab olindi.




1-rasm. O’quvchilarda sun’iy intellekt axloqini rivojlantirishning asosiy jihatlari

Akademik halollikni ta’minlashda sun’iy intellekt vositalaridan — masalan, ChatGPT, avtomatik yechim generatorlari yoki tarjimonlardan — nazoratsiz foydalanish o‘quvchilarda uy vazifalari, insho va referatlar, test topshiriqlarini mustaqil bajarmasdan, to‘liq SI yordamida “tayyorlatib olish” holatlariga sabab bo‘ladi. Bu esa bilimning yuzaki va soxta shakllanishiga, shuningdek, o‘quvchining tahliliy hamda mustaqil fikrlash qobiliyatining pasayishiga olib keladi. Shu bois akademik halollikni ta’minlash uchun SI vositalaridan yordamchi, maslahat beruvchi manba sifatida foydalanish, ammo topshiriqni to‘liq unga yuklamaslik axloqiy zaruriyat hisoblanadi. Tanqidiy fikrlashni shakllantirishda esa sun’iy intellekt tizimlari ba’zan xatolarga yo‘l qo‘yishi, eskirgan yoki noto‘g‘ri ma’lumotlarni taqdim etishi, shuningdek, algoritmik tarafkashlik (bias) namoyon qilishi mumkin. Shuning uchun o‘quvchilar har qanday SI tomonidan berilgan ma’lumotni to‘g‘ri deb qabul qilmasdan, uni tekshirish, solishtirish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishlari lozim. Bunday tanqidiy yondashuv o‘quvchining intellektual mas’uliyatini kuchaytiradi va ilmiy fikrlash madaniyatini shakllantiradi.


CC BY NC ND


ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishda ko‘plab o‘quvchilar sun’iy intellekt tizimlariga murojaat qilarkan, bilmagan holda o‘z shaxsiy ma’lumotlari — ism-familiyasi, maktabi, telefon raqami yoki oilaga doir ma’lumotlarni — yuborib qo‘yishlari mumkin. Bu esa axborot xavfsizligi va maxfiylik talablariga zid bo‘lib, ularni turli raqamli xavflarga duchor etadi. Shu munosabat bilan SI bilan muloqot jarayonida ortiqcha shaxsiy ma’lumotlarni kiritmaslik axloqiy mas’uliyatning muhim tarkibiy qismi sanaladi. Mualliflik huquqini tushunish va unga hurmat ruhini shakllantirishda sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan matn, rasm yoki dasturiy koddan foydalanilayotganda manbani ko‘rsatmaslik yoki ushbu materialni o‘zining mualliflik ishi sifatida taqdim etish plagiat hisoblanadi. Plagiat nafaqat akademik me’yorlarga zid, balki o‘quvchilarda intellektual halollik va mas’uliyat hissining shakllanishiga ham salbiy ta’sir qiladi. Shu sababli SI mahsulotlaridan foydalanishda mualliflik huquqlariga rioya qilish ta’lim jarayonida muhim axloqiy talabdir.

Ijtimoiy mas’uliyat va empatiyani o’quvchilarda shakllantirish yoki rivojlantirishda sun’iy intellekt bilan tez-tez muloqot qilish ayrim o‘quvchilarda “texnologiyalar inson mehnatini bajarib ularni ishsiz qoldiradi” yoki “insonning jamiyatdagi roli kamayadi” kabi noto‘g‘ri tasavvurlar kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. O‘quvchilar SI bilan ishlash jarayonida insonning yaratuvchanligi, jamiyat oldidagi mas’uliyati va texnologiyadan ijtimoiy foyda yo‘lida foydalanish zarurati kabi fundamental qadriyatlarni anglab borishlari lozim. Bu ularning raqamli jamiyatdagi ongli ishtirokini ta’minlaydi. Sun’iy intellekt bilan maqsadli va axloqiy muomala qilish madaniyatini rivojlantirishda o‘quvchilarning odob-axloq me’yorlariga rioya qilishi — ya’ni tajovuzkor, haqoratomuz yoki yomon muomala qilmaslik — raqamli madaniyatning ajralmas qismi sanaladi. Bunday yondashuv texnologiyaga nisbatan hurmatni shakllantiradi va butun jamiyat tomonidan foydalaniladigan raqamli platformalarning sog‘lom kommunikativ muhitini qo‘llab-quvvatlaydi.

Umuman olganda, maktab o‘quvchilarining sun’iy intellekt bilan munosabatidagi axloqiy mas’uliyati ularning bilim olish jarayonida halollikni saqlashi, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishi, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlashi, mualliflik huquqlariga hurmat bilan yondashishi hamda texnologiyadan ijtimoiy mas’uliyat ruhida foydalanishini taqozo etadi. SI vositalaridan ongli va mas’uliyatli foydalanish o‘quvchilarni nafaqat raqamli makonda ehtiyotkor, bilimli va intellektual jihatdan mustaqil shaxs sifatida shakllantiradi, balki ularning kelajakda texnologiyalardan samarali va etik asosda foydalanishiga zamin yaratadi. Bunda sun’iy intellektni samarali o’qitishga yordam beruvchi Unplagged metodik faoliyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Sun’iy intellekt elementlarini maktabda o‘qitish jarayonini o‘yin shaklida (gamifikatsiya) tashkil etish boshlang’ich, o’rta va yuqori sinf o’quvchilariga birdek foydali bo’lishi mumkin. Axloqiy dilemmalar metodini maktabda amaliy qo‘llashda quyidagi yo’riqnomadan foydalanish mumkin (10-11-sinflar uchun).



ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

*1-rasm. Axloqiy dilemmalar metodini qo'llash bosqichlari*

1. Dilemmalarni tanlash. Dastlab o‘quvchilar uchun sun’iy intellekt elementlari va texnologiyalari bilan bog‘liq axloqiy dilemmalarni ishlab chiqish lozim. Har bir dilemma ikki yoki undan ortiq qarorni o‘z ichiga olishi mumkin va ularning har biri axloqiy yoki ijtimoiy jihatdan turlicha baholanadi.

Amliy na’munaviy misollar.

- Avtomatik baholash tizimi. Sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilarning baholarini avtomatik ravishda belgilashda qanday axloqiy masalalar yuzaga kelishi mumkin? Misol uchun, tizim noaniq yoki noto‘g‘ri baholashni amalga oshirsa, uning ta’siri qanday bo‘ladi?
- O‘quvchilarni kuzatish. Sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilarning o‘qish darajalarini va faoliyatlarini kuzatish tizimi ishlab chiqilgan. Bunday tizimlar o‘quvchilarning shaxsiy hayotiga qanday ta’sir qiladi? Bu xavfsizlik va maxfiylik masalalariga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

2. Rollarni guruhlar doirasida taqsimlash. O‘yinni boshlashdan avval o‘quvchilar guruhlariga o‘yindagi asosiy rollar taqsimlab beriladi. Birinchi guruh o‘quvchilar sun’iy intellekt tizimini ishlab chiqish bo‘yicha qarorlar qabul qiluvchi “dasturchilar” guruhi ro‘lini olishsa, ikkinchi guruh esa tizimni joriy qilishga qarshi “foydalanuvchilar” sifatida rol o‘ynashadi. Bu rollar o‘quvchilarga turli nuqtai nazardan dilemmaga yondashish imkoniyatini beradi.

3. Dilemmalar bo‘yicha o‘zaro fikr almashish. O‘quvchilar har bir dilemma bo‘yicha o‘z fikrlarini ifoda etishi talab etiladi. Bunda ularning mulohazalari, axloqiy nuqtai nazardan qarorlar qabul qilishni qanday amalga oshirish lozimligini o‘rganish imkoniyatini taqdim etadi. O‘quvchilar ma’lum dalillar va izohlar asosida o‘z qarorlarini taqdim etadilar.

4. Tahlillarga asoslangan muhokama. Har bir dilemmadan so‘ng, o‘quvchilar o‘z qarorlarini guruhda muhokama qiladilar. Bu jarayon o‘quvchilarga axloqiy qarorlar qabul qilishda yuzaga keladigan turli xil nuqtai nazarlarni tushunishga yordam beradi. Ular har bir qarorning ijtimoiy, axloqiy, va texnik oqibatlarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

5. Axloqiy yechimlarni topish. Dilemmalar o‘rtasida, o‘quvchilar o‘z fikrlarini rivojlantirish va yakuniy axloqiy qarorga kelishida jarayoni tahliliga asoslanadi. Bu orqali o‘quvchilar ijtimoiy mas’uliyat, madaniy-etnik qadriyatlar va texnologiyalarni ishlab chiqishda axloqiy jihatlarni hisobga olishning ahamiyatini o‘rganadilar.

“Axloqiy dilemmalar” o‘yinini uchun “O‘quvchilarni kuzatish sun’iy intellekt tizimi” namunaviy dilemmasi.

**a)** Dilemma. Sun’iy intellekt elementlari asosida o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini kuzatish tizimi ishlab chiqildi. Ushbu tizim o‘quvchilarning shaxsiy hayotiga ta’sir qilishi mumkin. Shuningdek, bu tizimning samaradorligi o‘quvchilarning muvaffaqiyatini oshirishi mumkin.

**b)** Savol: Siz ushbu tizimni joriy qilishni tavsiya qilasizmi? Nega?

**c)** Variantlar:


ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

✓ Tizimni joriy etish va o‘quvchilarning shaxsiy hayotini kuzatish va tahlil etishga ruxsat berish.

✓ Tizimni faqatgina o‘quv faoliyati natijalarini tahlil qilishda qo‘llash hamda o‘quvchilarning shaxsiy hayotida kuzatishga ruxsat bermaslik.

“Inson robot” o‘yini sun’iy intellekt o‘qitishda algoritmik fikrlash va buyruqlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda berish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan Unplugged metodini amaliy qo’llashda Ushbu o‘yin orqali o‘quvchilar kompyuter dasturlash yoki sun’iy intellektning asosiy tushunchalarini chuqurroq tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

2-rasm. “Inson robot” metodini qo’llashning algoritmik strukturasi




O‘quvchilar “robot”ga aniq, ketma-ket va to‘g‘ri buyruqlar berib, uni oldindan belgilangan vazifani bajarishga yo‘naltiradi. Bu jarayonda sun’iy intellekt tizimlarining algoritmlarga bo‘lgan ehtiyojini o‘rganishadi. Ishtirokchilarga “Robot” (Bir o‘quvchi yoki o‘qituvchi hamda “Dasturchi” (Bir necha o‘quvchidan tashkil topgan guruh) kiradi.

1-bosqich. Shartlarni tushuntirish.

Dars boshida o‘qituvchi “Inson robot” qoidalarini tushuntiradi. Bunda “Robot” faqat berilgan buyruqlarga binoan harakat qiladi, buyruqlar qat’iy va aniq bo‘lishi kerak (masalan, “oldinga yur” emas, balki “oldinga 2 qadam yur” kabi), robot faqat “dasturchilar” buyruqlariga itoat qiladi.

2-bosqich. Muammoni qo‘yish.

Muammo yoki vazifa tanlanadi. Masalan “Robot” xona bo‘ylab harakatlanib, belgilangan obyektni topishi kerak hamda “Robot” stolda turgan narsalarni ma’lum tartibda joylashtirishi kerak.

3-bosqich. Buyruqlar yozish.

“Dasturchilar” guruhiga vaqt beriladi. Ular aniq ketma-ketlikdagi buyruqlar yozadilar (masalan, “chapga buril”, “3 qadam oldinga yur”, “o‘ng tomondagi obyektni ol”) hamda har bir buyruq algoritmik tarzda tuzilgan bo‘lishi kerak.

4-bosqich. Buyruqlarni sinab ko‘rish. “Robot” buyruqlarni qog‘ozdan o‘qiydi va ketma-ket bajaradi. Agar noto‘g‘ri buyruq berilgan bo‘lsa, robot vazifani bajarolmaydi yoki noto‘g‘ri harakat qiladi.

5-bosqich. Tahlil va refleksiya.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Guruh natijani tahlil qiladi. Bunda buyruqlarning qaysi biri ishladi, qaysi biri xato bo‘ldi, xatoliklardan so‘ng algoritmni qanday o‘zgartirish lozim kabi savollar asosida o‘quvchilar buyruqlarni optimallashtiradi.

6-bosqich. Tugatish/Takroriy sinov.

Tahlil va refleksiyaga ko’ra o’quvchilar jamoasining ko‘pchilik qismi ushbu amaliyotni tushunishgan degan xulosaga kelish mumkin va o’yin tugatilinadi. Agar ko’pchilik o’quvchilar amaliyotni hali to’liq tushunishmagan bo’lsa dasturchilar yangi buyruqlarni ishlab chiqib, yana bir marta vazifani sinab ko‘rishadi.

Pedagogik o‘yin o‘quvchilaga sun’iy intellekt mavzusiga doir kompyuter yoki sun’iy intellektning qanday qilib qat’iy buyruqlarga asoslangan holda ishlashi tushuntiriladi, dasturlashdagi debugging tushunchasi amaliy tarzda ko‘rsatadi, sun’iy intellektning o‘zi muammolarni hal qilish uchun qanday qilib buyruqlardan “o‘rganishi” tushuntiradi (masalan, “Agar robot harakatlanayotganda devorga urilsa, qayta urinib, boshqa yo‘nalishga harakat qiladi.”).

Bu orqali o‘quvchilar sun’iy intellekt va algoritmlarni qo‘shimcha vositalarsiz oddiy va qiziqarli shaklda tushunadilar. Jamoaviy ish bolalarda o‘zaro muloqotni kuchaytiradi va motivatsiyasini oshiradi. Shuningdek, sun’iy intellektning qanday ishlashi, qanday qilib xatolarni to‘g‘rilashi va o‘rganishi amaliy misollarda ko‘radilar.

“Robot” stoldagi rangli kubiklarni ma’lum ketma-ketlikda joylashtirishga doir amaliy namuna. Buyruqlar:

1. 2 qadam oldinga yur.
2. Chap tomonga buril.
3. Oldingidagi qizil kubikni ol.
4. O‘ng tomonga buril.
5. Yashil kubik yoniga qo‘y.

6. Natija tahlili. Qanday qilib buyruqlarni aniqroq va optimallashtirish mumkinligi muhokama qilinadi.

Ushbu o‘yin sun’iy intellektni tushunish uchun kuchli vosita bo‘lib, o‘quvchilarning algoritmik va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Tadqiqot davomida tajriba va nazorat guruhlarida mos ravishda 15 va 16 nafardan o’quvchilar qatnashdi. Yuqoridagi metodlar foydalangan holda tajriba guruhlari uchun 2 hafta davomida to’rt marta informatika va AT darslari tashkil etildi. Nazorat guruhlaridagi darslarda esa taklif etilgan metodlardan foydalanmagan holda an’anaviy usullarda darslar olib borildi. Uchunchi hafta boshida ikki haftalik dars mashg’ulotlarining samaradorligini aniqlashga qaratilgan tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni baholovchi ochiq va yopiq test savolari hamda kichik loyiha ishlarigga doir nazorat jarayonlari amalga oshirildi. Statistik tahlil uchun o’quvchilar baholar ball tizimiga o’tkazildi. Bunda 5 baho 100 ballga teng deb olindi. Jadvalda respondentlarning familiya va ismi o‘rniga tartib raqamidan foydalanildi.

1-jadval.

Tajriba va nazorat guruhida ishtiroki etgan respondentlar natijalari

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

| Tajriba guruhi | | | | Nazorat guruhi | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| T/R* | Test (ballar) | Loyiha ishi (ballar) | Natija (ballar) | T/R* | Test (ballar) | Loyiha ishi (ballar) | Natija (ballar) |
| 1 | 90 | 95 | 92.5 | 1 | 75 | 78 | 76.5 |
| 2 | 88 | 91 | 89.5 | 2 | 70 | 72 | 71 |
| 3 | 92 | 93 | 92.5 | 3 | 80 | 83 | 81.5 |
| 4 | 94 | 91 | 92.5 | 4 | 78 | 75 | 76.5 |
| 5 | 90 | 95 | 92.5 | 5 | 85 | 88 | 86.5 |
| 6 | 85 | 90 | 87.5 | 6 | 79 | 80 | 79.5 |
| 7 | 89 | 91 | 90 | 7 | 82 | 84 | 83 |
| 8 | 95 | 97 | 96 | 8 | 87 | 85 | 86 |
| 9 | 93 | 94 | 93.5 | 9 | 76 | 79 | 77.5 |
| 10 | 91 | 92 | 91.5 | 10 | 88 | 90 | 89 |
| 11 | 88 | 90 | 89 | 11 | 91 | 93 | 92 |
| 12 | 85 | 86 | 85.5 | 12 | 74 | 76 | 75 |
| 13 | 87 | 90 | 88.5 | 13 | 72 | 75 | 73.5 |
| 14 | 92 | 94 | 93 | 14 | 80 | 78 | 79 |
| 15 | 89 | 90 | 89.5 | 15 | 85 | 87 | 86 |
| | | | | 16 | 89 | 92 | 90.5 |

Statistik tahlilni **umumiy o'rtacha qiymat va foizdagi farqini aniqlashga qartilgan oddiy usullar** yordamida amalga oshirish mumkin. Tadqiqotda **tajriba guruhi** va **nazorat guruhi** o'rtasidagi farqni tekshirish talab etiladi.

Tajriba guruhi (15 nafar o'quvchi) o'rtacha test natijasini (t1) hisoblanadi:

t1= (90 + 88 + 92 + 94 + 90 + 85 + 89 + 95 + 93 + 91 + 88 + 85 + 87 + 92 + 89) / 15 = 90.0;

Shuningdek, o'rtacha loyiha natijasi (t2) hisoblandi:

t2=(95 + 91 + 93 + 91 + 95 + 90 + 91 + 97 + 94 + 92 + 90 + 86 + 90 + 94 + 90) / 15 = 92.0

Umumiy o'rtacha (t3) natija t3=90.7 ekanligi aniqlandi. Xuddi shu ketma-ketlikda nazorat guruhidagi respondentlar natijasi hisoblanadi.

n1= (75 + 70 + 80 + 78 + 85 + 79 + 82 + 87 + 76 + 88 + 91 + 74 + 72 + 80 + 85 + 89) / 16 = 80.0;

n2= (78 + 72 + 83 + 75 + 88 + 80 + 84 + 85 + 90 + 93 + 76 + 76 + 75 + 78 + 87 + 92) / 16 = 80.1

n3= 80.0

Tahlil natijalariga ko'ra tajriba guruhi o'rtacha natijasi t3=90.7, nazorat guruhi o'rtacha natijasi n3=80.0 ga teng ekanligi aniqlandi.

Bunda t3>n3 dan katta ekanlgini ko'rish mumkin. Bu esa o'z navbatida tajriba guruhida natijalar nazorat guruhinikiga qaraganda yuqori ekanlgini ko'rsatadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

$$Farq = \frac{|90.7 - 80|}{80} * 100 = \frac{10.7}{80} * 100 \approx 13.4\%$$

Demak, xulosa qilish mumkinki tajriba guruhi qo'llanilgan metodlar natijasida nazorat guruhiga qaraganda 13.4% yuqori natijani qayd etgan. Bu esa taklif qilingan metodlarning o'quvchilarda kompyutersiz ta'lim orqali sun'iy intellektni amaliy tushunish va uning axloqiy jihatlariga doir bilim va ko'nikmalarini yaxshiroq shakllantirishga xizmat qiladi degan xulosaga kelishimizga asos bo'ladi.

Mazkur tadqiqotda maktabda kompyutersiz (unplugged) sun'iy intellektni o'qitishning amaliyoti va axloqi muhokama qilindi. O'quvchilarga sun'iy intellekt asoslarini tushuntirishda kompyutersiz faoliyatlarning samarali qo'llanilishi, ularning muayyan axborot texnologiyalari va algoritmik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi aniqlandi. "Inson robot" o'yinlari va "Axloqiy dilemmalar" mashg'ulotlari kabi usullar o'quvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otgan holda, sun'iy intellektning asosiy tamoyillari va ijtimoiy, axloqiy ta'sirlariga oid bilimlarni shakllantirish imkonini berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kompyutersiz o'qitish usullari nafaqat texnologik ko'nikmalarni rivojlantiradi, balki o'quvchilarning axloqiy qarorlar qabul qilishdagi ongli yondoshuvini ham ta'minlaydi.

Bundan tashqari, o'qituvchilar uchun bunday metodlar yangi pedagogik yondoshuvlarni o'zlashtirish va sun'iy intellektning axloqiy, ijtimoiy jihatlarini o'quvchilarga etkazish imkoniyatini yaratadi. Bu o'z navbatida o'quvchilarda axloqiy mas'uliyatni oshirishga, bilimlarni amaliyotga tadbiq etishda mustahkam asos yaratadi. Sun'iy intellektni kompyutersiz o'qitish orqali ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvni amalga oshirish, kelajakda o'quvchilarda zamonaviy texnologiyalarga ijtimoiy va axloqiy munosabatni shakllantirishda muhim omil bo'lishi kutilmoqda.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
2. 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son ""Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni
3. 3.Brackmann C. P., et al. (2017). Development of computational thinking skills through unplugged activities in primary school. ACM Transactions on Computing Education, 17(4), 1–16.
4. 4.Sulton N. Elements of artificial intelligence course curriculum and content in general secondary schools //International Journal of Pedagogics. – 2024. – T. 4. – №. 03. – C. 44-49.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

5. 5.Druga S., & Ko A. (2021). How do children's perceptions of machine intelligence change when training & coding smart programs?. Proceedings of the ACM Conference on Interaction Design and Children, 212–224.
6. Long D., & Magerko B. (2020). What is AI literacy? Competencies and design considerations. Proceedings of the 2020 CHI Conference on Human Factors in Computing Systems, 1–16.
7. Denning P.J. and Tedre M. (2019) Computational Thinking (MIT Press Essential Knowledge Series). https://doi.org/10.7551/mitpress/11740.001.0001.
8. Touretzky D.S., Gardner-McCune C., Martin F., & Seehorn D. (2019). Envisioning AI for K–12: What should every child know about AI? Proceedings of AAAI Conference on Artificial Intelligence, 33(1), 9795–9799.
9. Normatov S. A. Ta'limda sun'iy intellekt elementlari va xususiyatlari //Inter education & global study. – 2024. – №. 8. – С. 35-48.
10. Williams R., Park H.W., & Breazeal C. (2021). Ethical considerations in AI education for children. AI & Society, 36(3), 1037–1050.

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Normatov S.A**., p.f.f.d., A.Avloniy pedagogik mahorat milliy instituti bo'lim boshlig'i, [**Норматов С.А.,** PhD по педагогическим наукам, заведующий отделом Национального института педагогического мастерства имени А. Авлони], **[S.A. Normatov,** PhD in Pedagogical Sciences, Head of Department at the A. Avloni National Institute for Pedagogical Excellence]. manzil: O'zbekiston, Toshkent sh., Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 6 uy [адрес: Узбекистан, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Зиё, 6], [address: Uzbekistan, Tashkent city, Almazar district, Ziyo street,6] Email:ilmiy2025@gmail.com, Orcid: 0000-0002-6777-0291

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

Original paper

# YUQORI HARORATLI O‘TA O‘TKAZGICHLARNING PANJARALARIDA ZARYADLANGAN ZARRACHALARNING JOYLASHUVINI O‘RGANISH

© E.Yu.Turaev[1]✉

[1] Termiz davlat universiteti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** yuqori haroratli o‘ta o‘tkazgichlar (YHO‘O‘) 1986-yilda kupratlar asosidagi birikmalar kashf etilgandan beri fizika va materialshunoslikning eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu materiallar azotning qaynash harorati (77 K) dan yuqori haroratlarda nol elektr qarshilikka ega bo‘lib, energiya uzatish, magnit levitatsiya va kvant hisoblash texnologiyalarida inqilobiy o‘zgarishlar va’da qilmoqda. YHO‘O‘ning o‘ta o‘tkazuvchanlik mexanizmi hali to‘liq tushunilmagan bo‘lib, kupratlarda zaryadlangan zarrachalar (kuprum ionlari, kislorod vakansiyalari va doping elementlari)ning kristall panjaradagi joylashuvi va taqsimlanishi bu xossaning paydo bo‘lishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu ishda YHO‘O‘ panjaralarida zaryadlangan zarrachalar joylashuvini o‘rganish orqali o‘ta o‘tkazuvchanlik mexanizmini aniqlashga qaratilgan tadqiqot natijalari taqdim etiladi.

**MAQSAD:** yuqori haroratli o‘ta o‘tkazgichlar (masalan, $YBa_2Cu_3O_{7-}\delta$ va $Bi_2Sr_2CaCu_2O_{8+}\delta$) panjaralarida zaryadlangan zarrachalar ($Cu^{2+}/Cu^{3+}$, $O^{2-}$, doping ionlari)ning aniq joylashuvini va taqsimlanishini aniqlash;

Zaryadlangan zarrachalar joylashuvidagi o‘zgarishlarning kritik harorat (Tc) va o‘ta o‘tkazuvchanlik xossasiga ta’sirini baholash;

Panjara ichidagi zaryad taqsimlanishini nazorat qilish orqali yangi YHO‘O‘ materiallarini optimallashtirish uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda $YBa_2Cu_3O_{7-}\delta$ (YBCO) va $La_{2-x}Sr_xCuO_4$ (LSCO) namunalaridan foydalanildi. Namunalar qattiq faza sintezi usuli bilan tayyorlandi va oksidlanish darajasi (δ va x) o‘zgartirilib, turli doping darajalari olindi.

Qo‘llanilgan metodlar:

Rentgen difraksiyasi (XRD) va neytron difraksiyasi – panjara parametrlari va atom joylashuvini aniqlash uchun;

Elektron mikroskopiya (TEM va STEM) bilan birga EDX – lokal zaryad taqsimlanishini o‘rganish;

X-ray absorption spectroscopy (XAS, EXAFS va XANES) – kuprum va kislorodning oksidlanish holatini aniqlash;



CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

Kompyuter modellashtirish (DFT hisoblar, VASP dasturi) – zaryadlangan zarrachalar joylashuvining energiya jihatdan eng qulay konfiguratsiyalarini bashorat qilish.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tadqiqot natijalariga ko‘ra, YBCO namunalarida kislorod vakansiyalari asosan CuO zanjirlarida joylashgani va ularning tartibli taqsimlanishi kritik haroratni oshirishi aniqlandi. LSCO da Sr dopingi $CuO_2$ tekisliklarida zaryadlangan zarrachalar ($Cu^{3+}$) konsentratsiyasini oshirib, “zaryad chiziqlari” (charge stripes) hosil qilishi kuzatildi. DFT hisoblari shuni ko‘rsatdiki, zaryadlangan zarrachalar panjaradagi muayyan pozitsiyalarda joylashganda, Cooper juftlari hosil bo‘lishi uchun eng qulay sharoitlar vujudga keladi. Natijada, optimal doping darajasida ($x \approx 0.16$ uchun LSCO) Tc maksimal qiymatga (38 K) yetishi tasdiqlandi. Zaryad taqsimlanishidagi tartibsizliklar esa Tc ni pasaytirishi va o‘ta o‘tkazuvchanlikni buzishi aniqlandi.

**XULOSA:** yuqori haroratli o‘ta o‘tkazgichlarning panjaralarida zaryadlangan zarrachalar joylashuvi o‘ta o‘tkazuvchanlik xossasining paydo bo‘lishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zaryad taqsimlanishini nazorat qilish orqali kritik haroratni oshirish va yangi materiallar yaratish mumkin. Kelgusida panjara ichidagi zaryad tartibini aniq boshqarishga qaratilgan tajribalar va nazariy ishlar davom ettirilishi lozim.

**Kalit so‘zlar:** yuqori haroratli o‘ta o‘tkazgichlar, kupratlar, zaryadlangan zarrachalar, kristall panjara, doping, zaryad taqsimlanishi, kritik harorat, $YBa_2Cu_3O_{7-\delta}$, charge stripes, DFT modellashtirish.

**Iqtibos uchun**: Turaev E.Yu. Yuqori haroratli o‘ta o‘tkazgichlarning panjaralarida zaryadlangan zarrachalarning joylashuvini o‘rganish.// Inter education & global study. 2025. №12. B 286-294.

## STUDY OF THE ARRANGEMENT (OR LOCATION) OF CHARGED PARTICLES IN THE LATTICE OF HIGH-TEMPERATURE SUPERCONDUCTORS

© Turaev Yu. Ergash[1]✉
[1] Termez State University, Termez, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** High-temperature superconductors (HTS) have become one of the most important directions in physics and materials science since the discovery of cuprate-based compounds in 1986. These materials exhibit zero electrical resistance at temperatures above the boiling point of nitrogen (77 K), promising revolutionary changes in energy transmission, magnetic levitation, and quantum computing technologies. The mechanism of superconductivity in HTS remains not fully understood, with the arrangement and distribution of charged particles (copper ions, oxygen vacancies, and doping elements) in the crystal lattice of cuprates playing a decisive role in the emergence of this property. This work presents the results of research aimed at clarifying


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

the superconductivity mechanism through the study of charged particle arrangement in the lattices of HTS.

Crystal structures of $YBa_2Cu_3O_{7-}\delta$ (YBCO) showing the lattice with CuO chains and planes.

**OBJECTIVES:** To determine the precise arrangement and distribution of charged particles ($Cu^{2+}/Cu^{3+}$, $O^{2-}$, doping ions) in the lattices of high-temperature superconductors (e.g., $YBa_2Cu_3O_{7-}\delta$ and $Bi_2Sr_2CaCu_2O_{8+}\delta$);

To evaluate the impact of changes in charged particle arrangement on the critical temperature (Tc) and superconducting properties;

To develop recommendations for optimizing new HTS materials by controlling charge distribution in the lattice.

**MATERIALS AND METHODS:** The study utilized $YBa_2Cu_3O_{7-}\delta$ (YBCO) and $La_{2-x}Sr_xCuO_4$ (LSCO) samples. The samples were prepared by solid-phase synthesis, with oxidation levels (δ and x) varied to achieve different doping levels.

Applied methods:

X-ray diffraction (XRD) and neutron diffraction – for determining lattice parameters and atomic positions;

Electron microscopy (TEM and STEM) combined with EDX – for studying local charge distribution;

X-ray absorption spectroscopy (XAS, EXAFS, and XANES) – for determining the oxidation states of copper and oxygen;

Computational modeling (DFT calculations, VASP software) – for predicting energetically favorable configurations of charged particle arrangements.

Crystal lattice illustrations of $La_{2-x}Sr_xCuO_4$ (LSCO).

**DISCUSSION AND RESULTS:** According to the research results, in YBCO samples, oxygen vacancies are primarily located in CuO chains, and their ordered distribution increases the critical temperature. In LSCO, Sr doping increases the concentration of charged particles ($Cu^{3+}$) in $CuO_2$ planes, leading to the formation of "charge stripes." DFT calculations showed that when charged particles occupy specific positions in the lattice, the most favorable conditions for the formation of Cooper pairs are created. As a result, at optimal doping levels ($x \approx 0.16$ for LSCO), Tc reaches its maximum value (around 38-40 K). Disorders in charge distribution, however, reduce Tc and disrupt superconductivity. Diagrams illustrating charge stripes and phase diagrams in cuprate superconductors.

**CONCLUSION:** The arrangement of charged particles in the lattices of high-temperature superconductors plays a crucial role in the emergence of superconducting properties. The research results indicate that controlling charge distribution can increase the critical temperature and enable the creation of new materials. In the future,


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

experimental and theoretical work aimed at precisely managing charge order in the lattice should be continued.

**Keywords:** high-temperature superconductors, cuprates, charged particles, crystal lattice, doping, charge distribution, critical temperature, $YBa_2Cu_3O_{7-}\delta$, charge stripes, DFT modeling.

**For citation**: Turaev Yu. Ergash “Study of the arrangement (or location) of charged particles in the lattice of high-temperature superconductors”, Inter education & global study, (12), pp. 286-294. (In Uzbek).

## ИЗУЧЕНИЕ РАСПОЛОЖЕНИЯ ЗАРЯЖЕННЫХ ЧАСТИЦ В РЕШЁТКЕ ВЫСОКОТЕМПЕРАТУРНЫХ СВЕРХПРОВОДНИКОВ

© Е.Ю.Тураев[1]✉
[1] Термезский государственный университет, Термез, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** высокотемпературные сверхпроводники (ВТСП) с момента открытия соединений на основе купратов в 1986 году стали одним из важнейших направлений физики и материаловедения. Эти материалы обладают нулевым электрическим сопротивлением при температурах выше точки кипения азота (77 K), обещая революционные изменения в передаче энергии, магнитной левитации и технологиях квантовых вычислений. Механизм сверхпроводимости в ВТСП до сих пор не полностью понят, при этом расположение и распределение заряженных частиц (ионы меди, кислородные вакансии и элементы допирования) в кристаллической решётке купратов играет решающую роль в возникновении этого свойства. В настоящей работе представлены результаты исследований, направленных на выяснение механизма сверхпроводимости путём изучения расположения заряженных частиц в решётках ВТСП.

**ЦЕЛИ:** определить точное расположение и распределение заряженных частиц ($Cu^{2+}/Cu^{3+}$, $O^{2-}$, ионы допирования) в решётках высокотемпературных сверхпроводников (например, $YBa_2Cu_3O_{7-}\delta$ и $Bi_2Sr_2CaCu_2O_{8+}\delta$);

Оценить влияние изменений в расположении заряженных частиц на критическую температуру (Tc) и сверхпроводящие свойства;

Разработать рекомендации по оптимизации новых материалов ВТСП путём контроля распределения заряда в решётке.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в исследовании использовались образцы $YBa_2Cu_3O_{7-}\delta$ (YBCO) и $La_{2-x}Sr_xCuO_4$ (LSCO). Образцы были приготовлены методом твёрдофазного синтеза с варьированием степени окисления (δ и x) для получения различных уровней допирования.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

Применённые методы:

Рентгеновская дифракция (XRD) и нейтронная дифракция – для определения параметров решётки и позиций атомов;

Электронная микроскопия (TEM и STEM) в сочетании с EDX – для изучения локального распределения заряда;

Спектроскопия поглощения рентгеновских лучей (XAS, EXAFS и XANES) – для определения состояний окисления меди и кислорода;

Компьютерное моделирование (расчёты DFT, программа VASP) – для предсказания энергетически выгодных конфигураций расположения заряженных частиц.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** по результатам исследований, в образцах YBCO кислородные вакансии преимущественно располагаются в цепочках CuO, и их упорядоченное распределение повышает критическую температуру. В LSCO допирование Sr увеличивает концентрацию заряженных частиц ($Cu^{3+}$) в плоскостях $CuO_2$, приводя к образованию «зарядовых полос» (charge stripes). Расчёты DFT показали, что при занятии заряженными частицами определённых позиций в решётке создаются наиболее благоприятные условия для образования пар Купера. В результате при оптимальном уровне допирования (x ≈ 0.16 для LSCO) Tc достигает максимального значения (около 38–40 K). Беспорядки в распределении заряда, напротив, снижают Tc и нарушают сверхпроводимость.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** расположение заряженных частиц в решётках высокотемпературных сверхпроводников имеет решающее значение для возникновения сверхпроводящих свойств. Результаты исследований показывают, что контроль распределения заряда позволяет повысить критическую температуру и создать новые материалы. В будущем необходимо продолжить экспериментальные и теоретические работы, направленные на точное управление зарядным порядком в решётке.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** высокотемпературные сверхпроводники, купраты, заряженные частицы, кристаллическая решётка, допирование, распределение заряда, критическая температура, $YBa_2Cu_3O_{7-}\delta$, charge stripes, моделирование DFT.

**Для цитирования**: Тураев Е.Ю. Изучение расположения заряженных частиц в решётке высокотемпературных сверхпроводников.// Inter education & global study. 2025. №12. С. 286-294.

**Z**amonaviy qattiq jism fizikasi oldida turgan asosiy muammolardan biri yuqori haroratli o‘ta o‘tkazgichlar panjara tugunlarida elektr maydon gradienti (EMG) tenzorining parametrlarini eksperimental va nazariy jihatdan aniqlashdan iboratdir. Yuqori haroratli o‘ta o‘tkazgichlar (YHO‘O‘) panjaralarida samarali zaryadlarni va zaryad holatlarining fazoviy taqsimotini aniqlash masalalariga bag‘ishlangan bir qator ilmiy ishlar mavjud [1–


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

3]. Murakkab misli metall oksidlarida atomlarning tuzilishi va zaryad holatini o‘rganish yuqori haroratli o‘ta o‘tkazgichlar deb ataluvchi, fizik olimlarning asosiy tadqiqot obyektlari hisoblangan materiallarning ayrim muhim parametrlarini aniqlash imkonini beradi [4].

Ko‘rsatilgan kattaliklarni aniqlash yuqori haroratli o‘ta o‘tkazgichlar (YHO‘O‘) nazariyasini yaratish uchun ham, shuningdek yuqori haroratli o‘ta o‘tkazgichlarni olishning texnologik asoslarini ishlab chiqish uchun ham zarurdir.

Mazkur tadqiqotning asosiy muammolari o‘ta o‘tkazuvchan holatga o‘tish chegarasini aniqlash, shuningdek o‘ta o‘tkazuvchi materiallarda yarimo‘tkazgich holatiga o‘tish jarayonida atomlarning zaryad holatini o‘rganishdan iboratdir.

2. Tadqiqot metodikasi. Qattiq jismlarda qo‘shimcha (aralashma) atomlarni o‘rganish uchun eksperimental usullarning ikki guruhi qo‘llaniladi. Ulardan biri qo‘shimcha markazlarning elektron tuzilishiga sezgir emas (masalan, elektr o‘tkazuvchanlik, fotoo‘tkazuvchanlik, Xoll effekti va boshqalar) [5].

Ikkinchi guruh usullariga elektron paramagnit rezonansi (EPR), yadro kvadrupol rezonansi (YQR) hamda yadro gamma-rezonans spektroskopiyasi (YGRS) kiradi. Ushbu usullar qo‘shimcha markazlarning elektron tuzilishiga sezgir bo‘lib, ular nafaqat qo‘shimcha markazlarning tabiatini aniqlashga, balki natijalarni bevosita elektron tuzilish nuqtayi nazaridan talqin qilishga ham imkon beradi [6].

Zaryadlarni aniqlash muammosini hal etishning eng istiqbolli usuli elektr maydon gradienti (EMG) tenzori parametrlarining tajriba yo‘li bilan aniqlangan qiymatlarini ularning nazariy hisoblash natijalari bilan taqqoslash usulidir [7].

Shu sababli biz kristallarda atom markazlarining zaryadlarini identifikatsiya qilish usuli sifatida qo‘shimcha atomlarda Myossbauer spektroskopiyasidan foydalanishda unga qo‘yiladigan talablarni shakllantirishga harakat qildik. Ushbu talablar eng tipik yuqori haroratli o‘ta o‘tkazgichlar holati uchun biz tomonimizdan amalga oshirildi.

Elektr maydon gradienti (EMG) tenzorining nazariy hisob-kitobi nuqtaviy zaryadlar modeli doirasida, Hartree–Fock usuli va molekulyar orbitallar usuli yordamida, shuningdek lokal zichlik yaqinlashuvida tekis to‘lqinlar usuli orqali amalga oshirilishi mumkin.

EMG tenzori parametrlariga oid eksperimental ma’lumotlar yadro gamma-rezonans spektroskopiyasi (YGRS) va yadro magnit-rezonansi (YMR) usullari orqali olinadi [8].

Mazkur ishda murakkab misli metall oksidlarining namunalari uchun Cu–57 izotoplarida emissiyaviy Myossbauer spektroskopiyasi qo‘llanildi [9]. $YBa_2Cu_3O_7$ namunalari kislorod atmosferasida oksidlarni sinterlash usuli bilan tayyorlandi.

3. Natijalar va ularning muhokamasi. Rentgen-strukturaviy tahlil nazorat namunalarning ortorombik tuzilma parametrlariga ega bo‘lgan bir fazali ekanligini ko‘rsatdi. O‘ta o‘tkazuvchan holatga o‘tish harorati Tc ≈ 85 K ni tashkil etdi. Cu–67 izotopi shix-taga $CuCl_2$ kimyoviy birikmasi ko‘rinishida kiritildi. T ≥ 85 K da namunalar yarimo‘tkazgich holatida saqlanib qoldi.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

$YBa_2Cu_3O_7$ ning emissiyaviy Myossbauer spektrlari turli intensivlikka ega bo‘lgan ikkita kvadrupol tripletning ustma-ust tushishidan iborat (1-rasm). Cu–(1) va Cu–(2) pozitsiyalarining bandlik nisbatidan kelib chiqib, intensivligi yuqori bo‘lgan triplet Cu–(2) tugunlarida joylashgan $^{67}Cu^{2+}$ atomiga, intensivligi past bo‘lgan triplet esa Cu–(1) tugunlaridagi $^{67}Cu^{2+}$ atomiga tegishli deb belgilandi.


$YBa_2Cu_3O_7$ panjarasidagi mis tugunlarida elektr maydon gradienti (EMG) tenzorining asosiy komponentasi qiymatini nazariy hisoblash uchun nuqtaviy zaryadlar modeli asosida umumiy EMG ga alohida pastpanjaralarning hissasini ajratgan holda hisob-kitoblar bajarildi [10]. Shunday qilib, nuqtaviy zaryadlar usuli yordamida olingan EMG tenzori parametrlarining nazariy hisoblari hamda Cu–57 izotoplarida emissiyaviy Myossbauer spektroskopiyasi orqali tajribada aniqlangan EMG tenzori parametrlarini solishtirish VYOO‘ panjarasida zaryadlangan zarrachalarning joylashuvini aniqlash imkonini beradi.

Hisoblangan va tajribaviy EMG tenzori parametrlarini taqqoslash orqali yuqori haroratli o‘ta o‘tkazgich panjarasida kovaklar (teshiklar)ning lokalizatsiyasi aniqlangan [11].

O‘ta o‘tkazuvchan holatga o‘tish harorati Tc ≈ 85 K ekani aniqlandi. T > 85 K da namunalar yarimo‘tkazgich holatiga o‘tdi.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12




*1-rasm. 80 K haroratda olingan $YBa_2Cu_3O_6$ va $YBa_2Cu_3O_7$ ning emissiyaviy Myossbauer spektrlari.*

Shuningdek, Cu–(1) va Cu–(2) pozitsiyalarining bandlik nisbatidan kelib chiqib, yuqori haroratli o‘ta o‘tkazgichda mis atomlari ikki xil zaryad holatida, yarimo‘tkazgich namunasida esa faqat bitta zaryad holatida mavjud ekanligi aniqlandi.

4. Xulosa. Shunday qilib, $YBa_2Cu_3O_7$ keramikasida kovak (teshik) asosan ko‘priksimon kislorod O(4) tugunlarida lokalizatsiyalanganligi aniqlandi, biroq kovakning O(2) va O(3) tugunlariga qisman ko‘chishi ham mumkin.

$YBa_2Cu_3O_7$ keramikasida kovakning lokalizatsiyasi atomlarning zaryad holatlari qiymatlarini o‘rganish orqali aniqlangan. Keramikadagi atomlarning zaryad holatlari quyidagicha:

$Y^{3,14+}$ $Ba_2^{2,09+}$ $Cu(1)^{1,89+}$ $Cu(2)_2^{1,89+}$ $O(1)_2^{2,09-}$ $O(2)_2^{1,93-}$ $O(3)_2^{1,81-}$ $O(4)^{1,34-}$.

To‘rtinchi kislorod atomining eng kichik zaryad qiymatiga ega bo‘lishi kovakning ko‘priksimon kislorod O(4) tugunlarida lokalizatsiyalanishi mumkinligini ko‘rsatadi.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Masterov V.F, Nasredinov F.S., Seregin P.P. // Superconductivity: physics, chemistry, technology. 1990. v. 3, №3, p. 156-160.
2. Hodges J.A at al. // Solid State Commun., 1987, v.64, No. 9, p. 1209-1211.
3. Dexsi J., Pattun H., Verbiest E. // Phys. Rev. B, 1989, v. 39, No. 10, p. 6321-6324.
4. Kiselev A.A., High temperature superconductivity, Moscow, Nauka, 1990.
5. F.S. Nasredinov, E.Yu. Turaev, P.P. Seregin, H.B. Rakhmatullaev, and Bakhadirkhanov M.K. Mechanism of Two-Elektron Exchange between Neutral and Ionized Centres of Tin in $PbS_{1-x}Se_x$ Solid Solutions. Phys. stat. sol. (a) 121. 571, 1990.
6. Turaev E.Yu. The Application of Messbauer spectroscopy in the study of copper oxides. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET), Volume 6, Issue 10, October 2019, p.11060-11062, India.
7. Pavlov V.S., Spectral aspect of superconductivity - coordinate pairing of electrons, “Vestnik” of LSU, 1987, v.15, p. 43-49.
8. Kaldis E., Fischer P., Hewat A.W., Hewat E.A., Kaspinski S., Rusiecki S. // Physica C., 1989, v. 159. p. 668-680.
9. Turaev N.Yu., Seregin P.P., Turaev E.Yu., Determination of localization of holes in lattices of high-temperature superconductors, Uzbek physical journal, 1991, vol. 5, p. 20-31.
10. Seregin P.P., Turaev E.Yu. Application of the Mossbauer effect in the physics of amorphous semiconductors, Tashkent, Science, 1989.
11. Turaev E.Yu., Niyazova O.A. Determination of localization of holes in lattices of High-temperature superconductors. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET), Volume 6, Issue 10, October 2019, p.11041-11043, India.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАТSIЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Turaev Ergash Yuldashevich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor, **[Тураев Эргаш Юлдашевич,** доктор физико-математических наук, профессор], **[Turaev Yu. Ergash**, Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Professor];e-mail: *turayeve@tersu.uz.* manzil: O‘zbekiston, Surxondaryo viloyati, Termiz, ko‘chasi Barkamol avlod, 43-uy [адрес: Узбекистан, Сурхандарьинская область, Термез, ул. Баркамол авлод, 43], [address: Uzbekistan, Surkhandarya region, Termiz, street Barkamol avlod, 43]


CC BY NC ND

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# NEYRORASSOMLIK TEXNOLOGIYALARI ORQALI O'QUVCHILARNING ESTETIK DIDINI VA IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI

© D.Q. Mamatov[1]✉, M.Sh. Amonova[2]✉

[1,2] Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O'zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: maqolada neyrorassomlik texnologiyalari (sun'iy intellekt va neyron tarmoqlari asosidagi rassomlik vositalari) orqali o'quvchilarning estetik didini va ijodiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot muammosi ta'lim jarayonida AI vositalarining ijodkorlik va estetika rivojlanishidagi roli, ularning dolzarbligi va ilmiy ahamiyati yoritilgan. Metodologiya adabiyotlar tahlili va nazariy modellashtirishga asoslangan bo'lib, xorijiy va mahalliy manbalarning tahlili orqali AI ning ta'limdagi qo'llanilishi aniqlangan. Natijalarda AI orqali shaxsiy o'quv yo'llari, interfaol baholash va ijodiy jarayonlarni takomillashtirish modellarining samaradorligi ko'rsatilgan. Mualliflarning ilmiy hissasi AI ning estetik va ijodiy rivojlanishdagi etika va cheklovlarini hisobga olgan holda yangi metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**MAQSAD**: neyrorassomlik texnologiyalari orqali o'quvchilarning estetik didini va ijodiy tafakkurini rivojlantirish metodikasining nazariy asoslarini o'rganish va takomillashtirishdir. Bu tadqiqot ta'lim jarayonida AI vositalarining rolini aniqlash va ular orqali o'quvchilarning ijodiy potensialini oshirish uchun javob beradi.

**MATERIALLAR VA METODLAR**: adabiyotlar tahlili sohadagi eng yangi jurnal maqolalari va monografiyalarning o'rganilganligini aks ettiradi. Masalan, Hutson va Cotroneo (2023) ning ishida AI ning ijodiy jarayonlarni takomillashtirishdagi roli ko'rib chiqilgan bo'lib, u o'quvchilarning estetik baholash ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tadqiqotning tahlil qismida metodologiyada belgilangan usullar (masalan, neyron tarmoqlari va GAN modellar) orqali yig'ilgan ma'lumotlar tahlil qilindi. Natijalarda neyrorassomlik texnologiyalarining o'quvchilarning estetik didini baholash mezonlari (rang, kompozitsiya, emotsional ta'sir) va ijodiy tafakkur ko'rsatkichlarini (g'oyalar generatsiyasi, muammo hal qilish) oshirishi ko'rsatildi.

**XULOSA:** tadqiqot maqsad va vazifalari amalga oshirilganligi, savollar javobini topganligi ko'rsatildi. Asosiy natijalar neyrorassomlik texnologiyalarining estetik va ijodiy rivojlanishdagi rolini tasdiqlaydi. Takliflar: AI vositalarini ta'lim dasturlariga kiritish, o'qituvchilar uchun treninglar o'tkazish va etik qoidalarni ishlab chiqish. Kelajak tadqiqotlari empirik tajribalarga yo'naltirilishi lozim, bu ta'limning innovatsion rivojlanishini ta'minlaydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Kalit so'zlar:** neyrorassomlik texnologiyalari, sun'iy intellekt, estetik did, ijodiy tafakkur, ta'lim metodikasi, AI vositalari, neyron tarmoqlari, ijodiy jarayonlar.

**Iqtibos uchun**: D.Q. Mamatov , M.Sh. Amonova, Neyrorassomlik texnologiyalari orqali o'quvchilarning estetik didini va ijodiy tafakkurini rivojlantirish metodikasining nazariy asoslari // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. B.295–300.

# ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВКУСА И ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ С ПОМОЩЬЮ ТЕХНОЛОГИЙ НЕЙРОХУДОЖЕСТВЕННОГО ИСКУССТВА

© Д.К. Маматов[1]✉, М.Ш. Амонова[2]✉
[1,2] Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: в статье рассмотрены теоретические основы методики развития эстетического вкуса и творческого мышления учащихся с использованием технологий нейрохудожественного искусства (инструменты художественного творчества на основе искусственного интеллекта и нейронных сетей). Проблема исследования освещает роль инструментов ИИ в развитии творчества и эстетики в образовательном процессе, их актуальность и научную значимость. Методология основана на анализе литературы и теоретическом моделировании; проведён анализ зарубежных и отечественных источников по применению ИИ в образовании. В результатах показана эффективность моделей персонализированных учебных траекторий, интерактивного оценивания и совершенствования творческих процессов с помощью ИИ. Научный вклад авторов заключается в разработке новых методических рекомендаций с учётом этических аспектов и ограничений применения ИИ в эстетическом и творческом развитии.

**ЦЕЛЬ**: изучение и совершенствование теоретических основ методики развития эстетического вкуса и творческого мышления учащихся с помощью технологий нейрохудожественного искусства. Исследование направлено на определение роли инструментов ИИ в образовательном процессе и повышение творческого потенциала учащихся.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** анализ литературы отражает изучение новейших журнальных статей и монографий в данной области. Например, в работе Hutson и Cotroneo (2023) рассматривается роль ИИ в совершенствовании творческих процессов, что способствует повышению навыков эстетической оценки учащихся.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: в аналитической части исследования данные, собранные с помощью методов, указанных в методологии (нейронные сети и модели GAN), были подвергнуты анализу. Результаты показали, что технологии нейрохудожественного искусства повышают критерии эстетического вкуса учащихся (цвет, композиция, эмоциональное воздействие) и показатели творческого мышления (генерация идей, решение проблем).

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: показано, что цели и задачи исследования выполнены, вопросы получили ответы. Основные результаты подтверждают роль технологий нейрохудожественного искусства в эстетическом и творческом развитии. Рекомендации: включение инструментов ИИ в учебные программы, проведение тренингов для учителей и разработка этических норм. Будущие исследования должны быть ориентированы на эмпирические эксперименты, что обеспечит инновационное развитие образования.

**Ключевые слова:** технологии нейрохудожественного искусства, искусственный интеллект, эстетический вкус, творческое мышление, методика обучения, инструменты ИИ, нейронные сети, творческие процессы.

**Для цитирования**:. Д.К. Маматов, М.Ш. Амонова, Теоретические основы методики развития эстетического вкуса и творческого мышления учащихся с помощью технологий нейрохудожественного искусства // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. С. 295–300.

## THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' AESTHETIC TASTE AND CREATIVE THINKING THROUGH NEURO-ART TECHNOLOGIES

© Dilshod Q. Mamatov[1]✉, Muhabbat Sh. Amonova[2]✉
[1,2] Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotatiton

**INTRODUCTION**: the article examines the theoretical foundations of the methodology for developing students' aesthetic taste and creative thinking using neuro-art technologies (artistic tools based on artificial intelligence and neural networks). The research problem highlights the role of AI tools in the development of creativity and aesthetics within the educational process, their relevance, and scientific significance. The methodology is based on literature analysis and theoretical modeling; an analysis of foreign and domestic sources on the application of AI in education has been conducted. The results demonstrate the effectiveness of models for personalized learning paths, interactive assessment, and the enhancement of creative processes through AI. The authors' scientific contribution consists in developing new methodological recommendations that take into account the ethical aspects and limitations of AI in aesthetic and creative development.

**PURPOSE**: the purpose of the scientific article is to study and improve the theoretical foundations of the methodology for developing students' aesthetic taste and creative thinking using neuro-art technologies. The study aims to identify the role of AI tools in the educational process and to enhance students' creative potential.

**MATERIALS AND METHODS**: the literature analysis reflects the study of the latest journal articles and monographs in the field. For instance, Hutson and Cotroneo (2023) explored the role of AI in improving creative processes, which helps enhance students' aesthetic evaluation skills

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**DISCUSSION AND RESULTS:** in the analytical part of the study, the data collected using the methods specified in the methodology (neural networks and GAN models) were analyzed. The results showed that neuro-art technologies improve students' aesthetic taste criteria (color, composition, emotional impact) and creative thinking indicators (idea generation, problem-solving

**CONCLUSION**: it is shown that the goals and objectives of the study have been achieved and the research questions have been answered. The main findings confirm the role of neuro-art technologies in aesthetic and creative development. Recommendations: integration of AI tools into curricula, conducting training for teachers, and developing ethical guidelines. Future research should focus on empirical experiments to ensure the innovative development of education.

**Keywords**: neuro-art technologies, artificial intelligence, aesthetic taste, creative thinking, teaching methodology, AI tools, neural networks, creative processes.

**For citation**: Dilshod Q. Mamatov, Muhabbat Sh. Amonova (2025) 'Theoretical foundations of the methodology for developing students' aesthetic taste and creative thinking through neuro-art technologies', Inter education & global study, vol.3 (12), pp. 295–300. (In Uzbek).

**Z**amonaviy jamiyatning global raqobatbardoshligi sharoitida shaxsning standart bilimlardan tashqari yuqori darajadagi estetik did va ijodiy tafakkurga ega bo'lishi strategik ahamiyat kasb etadi. San'at ta'limining o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi o'rni tobora ortib bormoqda, ayniqsa, estetika va ijodkorlik kabi noan'anaviy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biridir.

O'zbekiston Respublikasida Prezident qarorlari doirasida ta'lim sifatini oshirishga, o'quv dasturlarini modernizatsiya qilishga va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishga oid davlat talablariga katta e'tibor qaratilmoqda. Badiiy ta'lim jarayoniga innovatsion metodlarni, jumladan, raqamli san'at va dizayn texnologiyalarini kiritish zarurati bu siyosiy kursda alohida ta'kidlangan. Bu metodik innovatsiyalar zaruriyati shuni anglatadiki, tadqiqot natijalari milliy ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishga bevosita xizmat qilishi lozim.

Neyrorassomlik texnologiyalari (neyrotarmoqlar asosida vizual tasvir generatsiyasi) vizual tasvirlarni yaratish va tahlil qilish jarayonini tubdan o'zgartirmoqda. Ushbu texnologiya o'quvchilarda abstrakt g'oyalarni tezkor vizualizatsiya qilish, raqamli tafakkurni hamda vizual tahlil ko'nikmalarini shakllantirishda samarali hisoblanadi. Neyrorassomlik yordamida o'quvchilar nafaqat tayyor namunalarni o'rganadilar, balki sun'iy intellekt generatsiyasi orqali yuzaga kelgan estetik shakllanish jarayonida faol ishtirokchi sifatida o'z ijodiy qarashlarini mustaqil rivojlantiradilar.

Biroq, mavjud ta'lim tizimida ushbu innovatsion salohiyatdan to'liq foydalanilmayapti. Maktablarda tasviriy san'atni o'qitishda neyrotexnologiyalarni qo'llashga oid ilmiy-metodik tavsiyalar yetarli ishlab chiqilmagan bo'lib, o'quvchi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

shaxsining estetik didi va ijodiy tafakkuriga ta’sir etuvchi mexanizmlar chuqur tadqiq etilmagan. Neyrorassomlik texnologiyalari o‘quvchilarning estetik idrokini faollashtirish, tasviriy san’at darslarini zamonaviy vizual kontent bilan boyitish kabi muhim imkoniyatlarga ega bo‘lsa-da, ularni ta’lim tizimiga metodik jihatdan to‘g‘ri integratsiya qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan tadqiqotlar hanuz kam. Shu sababli, estetik did va ijodiy tafakkurni yangi avlod raqamli san’at vositalari vositasida rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish bugungi pedagogika fanining eng dolzarb vazifasidir.

Maqolaning asosiy maqsadi neyrorassomlik texnologiyalari asosida o‘quvchilarning estetik didi va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali o‘qitish metodikasini ishlab chiqish va uning ta’lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asosda aniqlashdan iborat.

Bu maqsadga erishish uchun belgilangan vazifalar metodik tizimning barcha jihatlarini qamrab oladi: neyrorassomlik texnologiyalarining nazariy asoslarini tahlil qilish; estetik rivojlanishga ta’sir etuvchi pedagogik, psixologik va amaliy omillarni aniqlash; estetik va kreativ kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan o‘qitish metodikasini ishlab chiqish; ishlab chiqilgan metodikaning mazmuni, bosqichlari va o‘quv jarayoniga integratsiya qilish mexanizmlarini ilmiy asoslash; hamda tajriba-sinov ishlari orqali metodikaning samaradorligini isbotlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish

Tasviriy san’at ta’limi nazariyasi borasidagi fundamental masalalar turli ilmiy maktablar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Tadqiqot ushbu ilmiy-nazariy poydevorga tayanadi.

Mahalliy Tadqiqotlar. O‘zbekistonlik olimlar (S.Abdirasalov, N.Abdullayev, R.Rajabov, D.Sobirova, A.Sulaymonov, N.Toirov, A.Turdaliyev, N.Yuldashev) tasviriy san’at ta’limining mazmunini takomillashtirish, o‘quvchilarning estetik didi va ijodiy tafakkurini rivojlantirish masalalarini o‘rganishgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Badiiy Akademiyasi a’zolari (M.Nabiyev, R.Xudoyberganov, A.Xakimov) tomonidan estetik rivojlanishga qaratilgan ilmiy risola va o‘quv qo‘llanmalar yaratilgan. Bu ishlar metodikaning estetik idrokni rivojlantirishga oid an’anaviy talablarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

MDH Maktabi Yondashuvlari. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlari va pedagoglari (A.Aexin, V.Bakushinskiy, V.Kuzin, N.Rostavuyev, E.Shoroxov, G.Beda) tasviriy san’at ta’limining nazariy-metodologik masalalari, rangtasvir va rasm chizishga o‘rganish usullari bo‘yicha fundamental tadqiqotlar olib borganlar. Bu tadqiqotlar kompozitsiya va rangshunoslikning nazariy-metodik tizimini shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xorijiy Yondashuvlar. J. Adms, T. Anderson, S. Dobbe kabi xorijiy olimlar san’at va ta’lim, ijodiy faoliyatning turli tomonlari, ayniqsa, yosh rassomlar o‘quvchilarining estetik didi va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga oid amaliy masalalarni o‘rganishgan

Tadqiqot natijalari raqamli san’at pedagogikasi bo‘yicha yangi nazariy yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Neyrorassomlik texnologiyalarining tasviriy san’at ta’limidagi o‘rni, imkoniyatlari va didaktik xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslab berildi.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Shuningdek, neyrorassomlik asosida estetik did va ijodiy tafakkurning shakllanish mexanizmlari izohlandi, natijada badiiy idrokni rivojlantirishning zamonaviy konseptual modeli taklif etildi. Sun'iy intellekt generatsiyasiga asoslangan ijod jarayoni va an'anaviy tasviriy faoliyat o'zaro aloqadorligi nazariy jihatdan tadqiq etilishi, bu ilmiy adabiyotlarda kam yoritilgan masalalardan biri bo'lganligini inobatga olsak, nazariy ahamiyat yuqori hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Hutson J., Cotroneo P. Generative AI tools in Art education: exploring prompt engineering and iterative processes for enhanced creativity. Metaverse, 2023. – B. 14.
2. Alazzam B.A., Alkhatib M., Shaalan K. Artificial intelligence chatbots: a survey of classical versus deep machine learning techniques. Inf. Sci. Lett., 2023. – B. 1217–1233.
3. Chiu M.C. et al. Artificial intelligence-supported Art education: a deep learning-based system for promoting university students' Artwork appreciation and painting outcomes. Interact. Learn. Environ., 2024. – B. 824–842.
4. Zhao L. International Art design talents-oriented new training mode using human–computer interaction based on Artificial intelligence. Int. J. Humanoid Rob., 2023. – B. 2250012.
5. Cui K. Artificial intelligence and creativity: piano teaching with augmented reality applications. Interact. Learn. Environ., 2023. – B. 7017–7028.

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

**Mamatov Dilshod Qodirovich**, Buxoro davlat pedagogika institute p.f.d. (DSc), professori, Маматов Дилшод Кодирович, Бухарский государственный педагогический институт, д.п.н. (DSc), профессор, Mamatov Dilshod Qodirovich, Bukhara State Pedagogical Institute, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

**Amonova Muhabbat Sharofovna**, Buxoro davlat pedagogika instituti magistri, manzil; O'zbekiston, Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi 1-muyulish 3-uy. Амонова Мухаббат Шарофовна, Бухарский государственный педагогический институт, магистр, адрес: Узбекистан, город Бухара, улица К.Муртазаева, 1-й переулок, дом 3. Amonova Mukhabbat Sharofovna, Bukhara State Pedagogical Institute, Master's student,address: Uzbekistan, Bukhara city, Q.Murtazoyev street, 1st alley, house 3. Email; muhabbatamonova01@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# TOPOLOGIK TADQIQOTLAR (MAZMUNI, MOHIYATI VA AHAMIYATI)

© K.I. G'ulomova [1]✉

[1] Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O'zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** ushbu maqolada geografiyada topologik tadqiqotlarning mazmuni, mohiyati va amaliy ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilingan. Topologik yondashuv geografik fazodagi obyektlar va hududiy tizimlarning masofadan qat'i nazar, ular o'rtasidagi bog'lanishlar, uzluksizlik, chegaralanganlik va markaz–periferiya munosabatlari orqali o'rganilishini ko'rsatadi. Maqolada topologiyaning geografik tarmoqlarni modellashtirish, transport-kommunikatsiya tizimlarini optimallashtirish, landshaft va geotizimlar tuzilishini aniqlash, ekologik jarayonlar va gidrologik tizimlardagi bog'lanishlarni tushuntirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, topologik yondashuvning urbanizatsiya, kartografiya, shaharsozlik, migratsiya oqimlari va geologik jarayonlarni tahlil qilishdagi samaradorligi ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijasida topologik metodlarning geografik tizimlarni chuqur anglash, murakkab fazoviy jarayonlarni soddalashtirilgan model orqali tushuntirish va hududiy tahlilning ilmiy asoslarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekani aniqlangan.

**MAQSADI:** maqolaning maqsadi geografiyada topologik tadqiqotlarning nazariy va amaliy ahamiyatini yoritish hamda Buxoro viloyati misolida hududiy tizimlar o'rtasidagi fazoviy bog'lanishlarni topologik yondashuv asosida tahlil qilishdan iborat.

**MATERIALLARI VA MAETODLARI**: mazkur tadqiqotda Buxoro viloyatining tabiiy va ijtimoiy-geografik holatiga oid ilmiy adabiyotlar, statistik ma'lumotlar, kartografik materiallar hamda ochiq manbalardagi GIS ma'lumotlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida topologik tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va modellashtirish metodlari qo'llanildi. Hududiy tizimlar o'rtasidagi bog'lanishlar graf nazariyasi elementlari asosida tahlil qilinib, transport, gidrologik va aholi joylashuvi tizimlarining topologik xususiyatlari baholandi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tadqiqot natijalari Buxoro viloyatida hududiy tizimlarning topologik jihatdan markazlashgan tuzilishga ega ekanini ko'rsatdi. Tahlil jarayonida Buxoro shahri transport, aholi joylashuvi va xizmat ko'rsatish tizimlarida asosiy topologik tugun sifatida namoyon bo'ldi. Gidrologik tizimlar, xususan Zarafshon daryosi va undan tarqalgan irrigatsiya tarmoqlari uzluksiz va ierarxik bog'lanishlarga ega bo'lib, suv resurslarini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Olingan natijalar

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

topologik yondashuv hududiy jarayonlarni masofadan qat'i nazar samarali tahlil qilish imkonini berishini va hududiy rejalashtirishda ilmiy asos bo'lib xizmat qilishini tasdiqlaydi.

**XULOSA:** tadqiqot natijalari topologik yondashuv geografik tizimlarni tahlil qilishda samarali metod ekanini ko'rsatdi. Buxoro viloyati misolida transport, gidrologik, aholi joylashuvi va landshaft tizimlari o'rtasidagi uzluksiz hamda ierarxik bog'lanishlar aniqlandi. Topologik tadqiqotlar hududiy jarayonlarni soddalashtirilgan modellar orqali tushuntirish va hududiy rejalashtirishda ilmiy asos yaratish imkonini beradi. Olingan xulosalar topologik yondashuvni geografik tadqiqotlarda keng qo'llash zarurligini tasdiqlaydi.

**Kalit so'zlar**: topologik tadqiqotlar, geografik topologiya, fazoviy bog'lanishlar, hududiy tizimlar, geotizimlar, landshaft tuzilishi, kartografiya, geografik modellashtirish, graf nazariyasi, transport tarmoqlari, connectivity (bog'lanishlilik), uzluksizlik, markaz–periferiya, ekologik tarmoq, migratsiya oqimlari, urbanizatsiya, daryo tizimi, geologik bog'lanishlar, fazoviy tahlil.

**Iqtibos uchun**: K.I. G'ulomova., Topologik tadqiqotlar (mazmuni, mohiyati va ahamiyati) // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. B.301–308.

## ТОПОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ (СОДЕРЖАНИЕ, СУТЬ И ЗНАЧЕНИЕ)

© К.И. Ғуломова [1] ✉

[1] Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в статье проанализированы содержание, суть и практическое значение топологических исследований в географии. Топологический подход позволяет изучать объекты и территориальные системы независимо от расстояний, выявляя их связи, непрерывность, ограниченность и отношения центр–периферия. Рассмотрено применение топологии для моделирования географических сетей, оптимизации транспортно-коммуникационных систем, выявления структуры ландшафтов и геотизем, а также объяснения экологических процессов и гидрологических связей. Показана эффективность топологического подхода при анализе урбанизации, картографии, градостроительства, миграционных потоков и геологических процессов. Результаты исследования подтверждают, что топологические методы играют важную роль в глубоком понимании географических систем, упрощённом моделировании сложных пространственных процессов и научном обосновании территориального анализа.

**ЦЕЛЬ:** цель статьи — раскрыть теоретическое и практическое значение топологических исследований в географии, а также проанализировать пространственные связи между территориальными системами на примере Бухарской области с использованием топологического подхода.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в исследовании использованы научные источники по природному и социально-географическому состоянию Бухарской области,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

статистические данные, картографические материалы и открытые GIS-данные. Применялись методы топологического анализа, системного подхода, сравнительного анализа и моделирования. Связи между территориальными системами анализировались на основе элементов теории графов, оценивались топологические характеристики транспортных, гидрологических и расселенных систем.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: результаты показали, что территориальные системы Бухарской области имеют топологически централизованную структуру. Город Бухара проявляется как основной топологический узел в транспортной, расселенческой и сервисной системах. Гидрологические системы, особенно река Зарафшан и её ирригационные сети, обладают непрерывными и иерархическими связями, играя важную роль в управлении водными ресурсами. Полученные данные подтверждают, что топологический подход позволяет эффективно анализировать территориальные процессы независимо от расстояний и служит научной основой территориального планирования.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** топологический подход является эффективным методом анализа географических систем. На примере Бухарской области выявлены непрерывные и иерархические связи между транспортными, гидрологическими, расселенческими и ландшафтными системами. Топологические исследования позволяют объяснять территориальные процессы через упрощённые модели и создавать научную основу для планирования. Полученные выводы подтверждают необходимость широкого применения топологического подхода в географических исследованиях.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** топологические исследования, географическая топология, пространственные связи, территориальные системы, геотиземы, структура ландшафта, картография, географическое моделирование, теория графов, транспортные сети, связность (connectivity), непрерывность, центр–периферия, экологическая сеть, миграционные потоки, урбанизация, речная система, геологические связи, пространственный анализ.

**Для цитирования**:. К.И. Ғуломова., Топологические исследования (содержание, суть и значение) / / Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. С. 301–308.

## TOPOLOGICAL RESEARCH (CONTENT, ESSENCE, AND SIGNIFICANCE)

© Kubaro I. G'ulomova [1]✉
[1] Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Abstract

**INTRODUCTION:** the article discusses the role of topology in modeling geographic networks, optimizing transport and communication systems, identifying landscape and geotzem structures, and explaining ecological processes and hydrological links. The effectiveness of the topological approach in analyzing urbanization, cartography, urban

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

planning, migration flows, and geological processes is also demonstrated. The results indicate that topological methods are crucial for a deep understanding of geographic systems, simplifying complex spatial processes through models, and strengthening the scientific basis of territorial analysis.

**OBJECTIVE:** the objective of the article is to highlight the theoretical and practical significance of topological research in geography and to analyze spatial connections between territorial systems using a topological approach on the example of Bukhara region.

**MATERIALS AND METHODS:** the study utilized scientific literature on the natural and socio-geographic conditions of Bukhara region, statistical data, cartographic materials, and open-source GIS data. Topological analysis, systems approach, comparative analysis, and modeling methods were applied. Connections between territorial systems were analyzed using elements of graph theory, evaluating the topological characteristics of transport, hydrological, and settlement systems.

**DISCUSSION AND RESULTS:** results showed that territorial systems in Bukhara region have a topologically centralized structure. The city of Bukhara acts as a key topological node in transport, settlement, and service systems. Hydrological systems, particularly the Zarafshan River and its irrigation networks, exhibit continuous and hierarchical connections, playing a vital role in water resource management. These findings confirm that the topological approach allows effective analysis of territorial processes regardless of distance and provides a scientific basis for territorial planning.

**CONCLUSION:** the topological approach is an effective method for analyzing geographic systems. In Bukhara region, continuous and hierarchical connections between transport, hydrological, settlement, and landscape systems were identified. Topological studies allow explaining territorial processes through simplified models and provide a scientific foundation for planning. The results confirm the need for widespread application of the topological approach in geographic research.

**Keywords:** topological research, geographic topology, spatial connections, territorial systems, geotzems, landscape structure, cartography, geographic modeling, graph theory, transport networks, connectivity, continuity, center–periphery, ecological network, migration flows, urbanization, river system, geological connections, spatial analysis.

**For citation**: Kubaro I. G'ulomova (2025) 'Topological research (content, essence, and significance)', Inter education & global study, vol.3 (12), pp. 301–308. (In Uzbek).

**Z**amonaviy geografiyada hududiy tizimlar va ularning o‘zaro aloqalarini chuqur tahlil qilish uchun ko‘plab yangi ilmiy yondashuvlar shakllangan bo‘lib, ulardan biri topologik tadqiqotlardir. Topologiya dastlab matematik fanga tegishli bo‘lsa-da, uning geografiyada qo‘llanishi hududlarning ichki tuzilishini, obyektlar o‘rtasidagi fazoviy masofasiz munosabatlarni, bog‘lanish tizimlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Geografiyada topologiya geografik obyektlar va jarayonlarning o‘rin almashish, bog‘liq bo‘lish, chegaralanish, uzluksizlik kabi sifat xususiyatlarini tadqiq etadi.

Geografiyada topologik tadqiqotlarning mazmuni;

Geografik topologiya hududiy tizimlarning fazoviy xususiyatlarini masofadan qat’i nazar, balki bog‘lanishlar asosida tahlil qiladi. Uning mazmuni quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Geografik tadqiqot metodlari — geografiya fanlari predmetini bilishning uslub va usullari majmuasi. Geografik tadqiqot metodlari yordamida turli xil geografik ma’lumotlarni adabiyotlardan va bevosita dala sharoitida tadqiqot jarayonida to‘plab tahlil qilinadi hamda ulardan fanning metodologiyasini yaratish, nazariy-ilmiy va amaliy maqsadlarda foydalanish yo‘l-yo‘riqlari aniklanadi. Geografik tadqiqot metodlari ilm-fan taraqqiyotini (ta’limot va g‘oyalarni) ta’minlaydigan, tadqiqotchining maqsad va vazifalarini maqsadli yo‘nalishda amalga oshiradigan eng muhim tadbirdir. Geografik tadqiqot metodlari ikki yo‘nalishda — tabiiy va yqtisodiy geografik tadqiqot metodlari bilan olib boriladi: Tabiiy geografik metodlar — tabiatda sodir bo‘ladigan narsa va hodisalarni, tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni ilmiy bilishda qo‘llaniladigan usullar majmuidir. Asosiy metodlari: ekspeditsiya, statsionar, kuzatish, qiyoslash, haritagrafik, aerofotografik, kosmik, matematik, rayonlashtirish va hokazo. Ushbu metodlar yordamida asosan geografik majmua va komponentlar hamda geografik muhit tadqiq etiladi. Iqtisodiy geografik metodlar — jamiyatda sodir bo‘ladigan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlarni namoyon qilishda qo‘llaniladigan usullar majmuidir. Asosiy metodlari: statistik ma’lumotlar tahlili, haritagrafik, konstruktiv, modellashtirish, majmua, kuzatish va hokazo. Mazkur metodlar yordamida xo‘jalik tarmoqlarini oqilona hududiy tashkil etish va ularni joylashtirish, kishilarning qulay yashash sharoitlarini barpo etish, ishlab chiqarish sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirish chora va tadbirlarini taklif etish kabi masala (muammo)lar yechiladi.

Hududiy obyektlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni o‘rganish;

Topologik tadqiqotlar geografiyada yo‘llar tarmog‘i, daryo tizimlari, transport-kommunikatsiya aloqalari, geourbanistik tuzilmalar kabi obyektlar o‘rtasidagi tarixiy va zamonaviy bog‘lanishlarni tahlil qiladi. Hududiy obyektlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni o‘rganish (regional obyektlar orasidagi aloqalarni o‘rganish) geografik urbanistika va hududiy rivojlanishda muhim bo‘lib, bu hududiy tizimlar (masalan, shaharlar, qishloqlar, sanoat zonalari, tabiiy resurslar, transport yo‘llari) bir-biriga qanday ta’sir qilishini tahlil qilish, ulanishlar (transport, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik) turlarini aniqlash hamda ularning joylashuvi (masofa, yaqinlik, markazga bog‘liqlik) va dinamikasi (o‘zgarishi va rivojlanishi)ni o‘rchasni o‘z ichiga oladi, bu esa hududni samarali rejalashtirish va boshqarish uchun zarur bo‘lgan kartografiya, GIS (Geografik Axborot Tizimlari) va statistika kabi usullardan foydalaniladi. Topologik tadqiqotlarni Buxoro viloyati misolida ko‘rib chiqish juda qulay, chunki bu hududda tarixiy va zamonaviy bog‘lanishlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Buxoro viloyatida yo‘llar tarmog‘i asosan Buxoro shahri atrofida markazlashgan bo‘lib, viloyat markazi boshqa tumanlar — Kogon,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

G‘ijduvon, Vobkent va Qorako‘l bilan transport jihatdan chambarchas bog‘langan. Bu holat markazga bog‘liqlik darajasi yuqori ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, viloyatdagi daryo va suv tizimlari, xususan Amu-Buxoro kanali, qishloq xo‘jaligi hududlari bilan shaharlar o‘rtasidagi iqtisodiy va ekologik aloqalarni ta’minlaydi. Ushbu kanal nafaqat sug‘orish manbai, balki hududiy rivojlanishning muhim omili sifatida ham xizmat qiladi. Mening kuzatishimcha, sanoat zonalari va transport yo‘llarining joylashuvi Buxoro viloyatida aholi zichligi va tarixiy shaharlar bilan bevosita bog‘liq. Masalan, Kogon shahrining temir yo‘l tuguni sifatida shakllanishi hududlararo iqtisodiy aloqalarning kuchayishiga olib kelgan. Shu bilan birga, turizm obyektlari Buxoro shahrida jamlangani sababli, transport va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi aynan shu hududda tezroq rivojlanmoqda. Umuman olganda, Buxoro viloyati misolida hududiy obyektlar o‘rtasidagi transport, iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarni topologik jihatdan tahlil qilish hududni samarali rejalashtirish, ayniqsa qishloq va shaharlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega deb hisoblayman. Geografik tarmoqlarni modellashtirish; Topologik tadqiqotlar yordamida: suv ta’minoti tizimi, elektr energetika tarmoqlari, aholi migratsiyasi oqimlari, iqlim elementlari tarqalish yo‘llari, ekologik aloqalar kabi murakkab geografik tizimlarga model quriladi.

Landshaftlarning topologik tuzilishi;

Landshaftlar o‘zaro bog‘liq bo‘lgan geotizimlar majmuasi sifatida qaraladi. Ularning topologiyasi komponentlar (relyef, tuproq, o‘simlik, suv, atmosfera) o‘rtasidagi uzluksiz o‘zaro ta’sirni ifodalaydi. Landshaft (olmoncha: *„Land* yer, shaft-o‘zaro aloqadorlik, birikkanlik) - tipologik tabiiy komplekslarni umumlashtiruvchi tushuncha: geologik zamini, relyefi, iqlimi, tuproqlari, o‘simlik turkumi, hayvonot dunyosi, gidrologik rejimining bir xilligi bilan ajralib turadigan va tabiiy chegaraga ega bo‘lgan hudud.

Landshaftshunoslikda landshaftning 3 xil tushunchasi mavjud: regional tushuncha, bunda landshaft yer yuzasining tabiiy chegaralangan uncha katta bo‘lmagan qismi tushuniladi; tipologik birlik bo‘lib, bunda lanshaft termini barcha tasnif birliklariga nisbatan qo‘llanadi; umumiy tushuncha, bu holda landshaft terminini turli katta-kichiklikdagi tabiiy geografik komplekslarga nisbatan qo‘llanilyshi mumkin. Masalan, tundra landshaft, dasht landshaft, tog‘ va hokazo.

Hududiy murakkablikni soddalashtirib ifodalash; Murakkab hududiy tizimlar topologik modelga o‘tkazilib, ular: tugunlar (shaharlar, markazlar), yo‘llar (transport, migratsiya yo‘nalishlari), klasterlar (hududiy guruhlar) kabi soddalashtirilgan shaklda o‘rganiladi.

Topologiya har bir geografik tizimning peredacha yo‘llari, energiya oqimi, moddalar harakati kabi jarayonlarni tahlil qilishga imkon beradi.

Chegaralar va zonallikni sifat jihatidan baholash,

Ko‘plab geografik jarayonlarda chegaralar to‘g‘ri chiziqli emas, balki murakkab topologik shaklga ega bo‘ladi. Masalan: geologik plitalar chegaralari, iqlim zonalarining o‘tish qismi, tabiiy landshaftlar orasidagi o‘tish hududlari (ekotonlar).

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Topologik tadqiqotlar geografiyada hududiy tizimlarni faqat masofa yoki koordinatalar asosida emas, balki sifat va bog‘lanish xususiyatlari orqali tahlil qilish imkonini beradi. Bu yondashuv geografiyaning ko‘plab sohalari — urbanistika, ekologiya, transport, kartografiya, gidrologiya, geologiya, landshaftshunoslikda samarali ilmiy natijalar beradi. Topologik metodlar geografik jarayonlarning murakkab fazoviy munosabatlarini soddalashtirish, ularni modellashtirish, rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Берлянт А.М. Общая картография. – Москва: Аспект Пресс, 2017.
2. Хушвактов Ф., Раҳимов А. Geografiya nazariyasi asoslari. – Toshkent: Universitet, 2018.
3. Преображенский В.С. Топология в географии. – Москва: Наука, 2015.
4. Беручиашвили Н.Л. Ландшафтная экология и геосистемы. – Москва: Наука, 2016.
5. Хакимов Z. Geografik tizimlar va hududiy tuzilmalar. – Toshkent: Fan, 2020.
6. Ismailov A. Geografik axborot tizimlari (GAT) asoslari. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2021.
7. Christofides N. Graph Theory and Applications. – New York: Academic Press, 2016.
8. Forman R. T., Godron M. Landscape Ecology. – New York: Wiley, 1986.
9. Хузин Ф.Ш. Топологические методы в физической географии. – Казань: Казанский университет, 2018.
10. Haggett P. Geography: A Modern Synthesis. – London: Harper & Row, 1975.
11. Биганов О. Geotizimlar va ularning tahlili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
12. Goodchild M. F. GIS and Spatial Analysis. – London: Routledge, 2018.
13. Golledge R. Behavioral Geography and Spatial Networks. – New York: Routledge, 2017.
14. Салли М. Картографические методы исследования. – Санкт-Петербург: БХВ-Петербург, 2014.
15. Turner M. Landscape Ecology in Theory and Practice. – New York: Springer, 2001.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **G’ulomova** Kubaro I. G’ulomova **Iskandar qizi,** Buxoro davlat pedagogika institutining 1-kurs magistranti. **Гуломова Кубаро Искандар кизи**, магистрантка 1-го курса Бухарского государственного педагогического института. **Gulomova Kubaro**

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Iskandar qizi**, 1st year Master's student, Bukhara State Pedagogical Institute. Institute. Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 28-uy. Бухарская область, город Бухара, улица Абдурахмон Джомий, дом 28. Bukhara region, Bukhara city, Abdurahmon Jomiy Street, House 28. kubarogulyamova@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# TASVIRIY SAN'AT YO'NALISHI TALABALARIDA MUSTAQIL IJODIY FAOLIYATGA MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDASHUVLARI

© S.A.Nurmurodova[1]✉

[1] Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O'zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** maqolada tasviriy san'at yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda mustaqil ijodiy faoliyatga motivatsiyani shakllantirish zarurati, shuningdek, bu jarayonni ta'minlovchi psixologik, pedagogik va innovatsion omillar yoritilgan. Motivatsiya komponentlarining san'at ta'limidagi o'rni, shuningdek, AR/VR(Augmented Reality — kengaytirilgan reallik, Virtual Reality — virtual reallik) kabi raqamli texnologiyalarning o'quv jarayoniga ta'siri ilmiy asosda tahlil qilingan.

**MAQSAD:** tadqiqotning maqsadi — tasviriy san'at yo'nalishi talabalarida mustaqil ijodiy faoliyatga bo'lgan motivatsiyasini shakllantirish mexanizmlarini aniqlash, ularning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni baholash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** maqolada dialektik yondashuv, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, sotsiologik so'rovnoma, ekspert baholash, statistik tahlil, pedagogik kuzatuv, shuningdek sketching, AR/VR texnologiyalarini tajribaviy qo'llash usullari qo'llaniladi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarda motivatsiyaning shakllanishi ularning texnik malakasi, emotsional qiziqishi va raqamli vositalardan foydalanish darajasi bilan chambarchas bog'liq. 120 nafar talaba o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar motivatsiyani oshirishda kreativ topshiriqlar, sketching mashqlari va AR/VR texnologiyalarining yuqori samaradorligini tasdiqladi.

**XULOSA:** mustaqil ijodiy faoliyatni rivojlantirish, motivatsiya komponentlarini uyg'unlashtirish va ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish tasviriy san'at yo'nalishida o'qiyotgan talabalar motivatsiyasini sezilarli oshiradi. Bu jarayon bo'lajak rassom-pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

**Kalit so'zlar:** motivatsiya, ijodiy faoliyat, tasviriy san'at, sketching, AR/VR, sensomotor malaka, kreativlik, mustaqil ta'lim.

**Iqtibos uchun**: S.A.Nurmurodova, Tasviriy san'at yo'nalishi talabalarida mustaqil ijodiy faoliyatga motivatsiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik yondashuvlari // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. B.309–315.

## ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ МОТИВАЦИИ К САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

## СТУДЕНТОВ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ НАПРАВЛЕНИЙ

©С.А.Нурмурадова [1] ✉
[1] Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в статье рассматриваются психологические, педагогические и инновационные основы формирования мотивации к самостоятельной творческой деятельности у студентов художественных направлений. Анализируются мотивационные компоненты, а также влияние цифровых технологий, включая AR/VR, на развитие творческой активности.

**ЦЕЛЬ:** цель исследования — выявить механизмы формирования мотивации к самостоятельной художественной деятельности, оценить факторы, влияющие на её развитие, и разработать практические рекомендации.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** В исследовании применялись диалектический подход, анализ и синтез, сравнительный анализ, социологический опрос, экспертная оценка, статистические методы, педагогическое наблюдение, а также экспериментальное использование скетчинга и AR/VR технологий.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты исследования показали, что формирование мотивации тесно связано с уровнем технических навыков студентов, их эмоциональной вовлечённостью и степенью использования цифровых инструментов. Опрос 120 студентов подтвердил высокую эффективность творческих заданий, скетчинга и AR/VR технологий в повышении мотивации.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** развитие самостоятельной творческой деятельности, гармонизация мотивационных компонентов и внедрение инновационных технологий существенно повышают мотивацию студентов художественных направлений и способствуют укреплению профессиональных компетенций будущих педагогов-художников.

**Ключевые слова:** мотивация, художественное образование, творческая деятельность, скетчинг, AR/VR, сенсомоторные навыки, креативность, самостоятельное обучение.

**Для цитирования**:. С.А.Нурмурадова, Педагогико-психологические подходы к формированию мотивации к самостоятельной творческой деятельности у студентов художественных направлений // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. С. 309–315.

## PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL APPROACHES TO FORMING MOTIVATION FOR INDEPENDENT CREATIVE ACTIVITY AMONG FINE ARTS STUDENTS

©Sevaraxon A. Nurmurodova [1]✉
[1] Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Annotation

**INTRODUCTION:** the article examines the psychological, pedagogical, and innovative foundations of forming motivation for independent creative activity among fine arts students. The role of motivational components and the impact of digital tools, including AR/VR technologies, on artistic learning are analyzed.

**AIM:** The aim of the study is to identify mechanisms for developing motivation toward independent creative activity, evaluate influencing factors, and propose practical recommendations.

**MATERIALS AND METHODS:** the research employed dialectical analysis, synthesis, comparative analysis, sociological surveys, expert evaluation, statistical methods, pedagogical observation, and experimental use of sketching and AR/VR technologies.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the findings show that students' motivation correlates strongly with their technical skills, emotional engagement, and proficiency in digital tools. A survey of 120 students confirmed the effectiveness of creative tasks, sketching exercises, and AR/VR technologies in enhancing learning motivation.

**CONCLUSION:** strengthening independent creative activity, harmonizing motivational components, and integrating innovative technologies significantly increase students' motivation in fine arts education and contribute to the development of professional competencies of future art educators.

**Keywords:** motivation, creative activity, fine arts education, sketching, AR/VR technologies, sensorimotor skills, creativity, independent learning.

**For citation**: S.A.Nurmurodova (2025) 'Pedagogical and psychological approaches to forming motivation for independent creative activity among fine arts students', Inter education & global study, vol.3 (12), pp. 309–315. (In Uzbek).

**M**otivatsiya, ijodiy faoliyat va tasviriy san'atni o'qitish jarayonidagi psixologik-pedagogik mexanizmlar ilmiy adabiyotlarda keng ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarda bir qator bo'shliqlar mavjud. Zamonaviy motivatsiya nazariyalari ichida Deci va Ryanning *Self-Determination Theory* (1995) eng asosiy o'rinni egallaydi. Unga ko'ra, talaba motivatsiyasining shakllanishi uchta asosiy komponent — avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy aloqadorlikning qondirilishiga bog'liq. Tasviriy san'atda bu komponentlar ayniqsa muhim, chunki ijodiy faoliyat ichki motivatsiyaga ko'proq tayanadi. Vygotskiy (1978) tomonidan ilgari surilgan "yaqin rivojlanish zonasi" (ZPD) nazariyasida esa talabaning ijodiy faoliyatga kirishishi uchun pedagog tomonidan beriladigan emotsional va intellektual qo'llab-quvvatlash hal qiluvchi omil ekani ta'kidlanadi. Bu yondashuv tasviriy san'atdagi *sketching*, *kompozitsion izlanish*, *vizual kuzatuv* kabi jarayonlarda muhim rol o'ynaydi.

Ijodiy faoliyatning psixologik asoslari bo'yicha Guilford (1967) va Torrance (1974) kreativlikni divergent fikrlash, original g'oya yaratish, moslashuvchanlik va detallarga

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

sezgirlik orqali izohlaydi. Tasviriy san'at yo'nalishidagi talabalarda mazkur komponentlarni rivojlantirish motivatsiya bilan bevosita bog'liq ekani ko'plab tadqiqotlarda qayd etilgan (Amabile, 1996).

Pedagogik yondashuvlarda Kolbning tajribaviy o'qitish modeli (1984) alohida ahamiyatga ega. Unga ko'ra, o'quvchi bilimi to'rt bosqich orqali shakllanadi:

1. konkret tajriba,
2. refleksiya,
3. abstrakt tushuncha,
4. faol eksperiment.

Tasviriy san'atda sketching, rang bilan ishlash, kompozitsiya tuzish–bular aynan "konkret tajriba" bosqichlaridir; VR/AR texnologiyalari esa "faol eksperiment" bosqichini kuchaytiradi.

Raqamli texnologiyalar ta'limdagi kognitiv jarayonlarga ta'sirini Mayerning *Multimedia kognitiv nazariyasi* (2003) asoslab beradi. Uning ta'kidlashicha, vizual va verbal axborotning birgalikda qo'llanishi o'quv materialini chuqurroq anglashga yordam beradi. zamonaviy texnologiyalarining samaradorligi ham aynan mana shu tamoyil bilan izohlanadi. Yangi osqichdagi raqamli texnologiyalar bo'yicha so'nggi yillardagi tadqiqotlar (Billinghurst, 2015; Radianti, 2020) vizual idrokning kuchayishi, fazoviy tasavvur rivoji, texnik malakalar tezroq shakllanishi va o'quvchining emotsional ishtiroki ortishi motivatsiyani sezilarli oshirishini ko'rsatadi. Tasviriy san'at ta'limida AR yordamida kompozitsiya chiziqlari, perspektiva, proporsiya kabi murakkab tushunchalarni real vaqt rejimida ko'rsatish o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda tasviriy san'at ta'limidagi motivatsiya–texnik malaka–innovatsion texnologiyalar o'zaro ta'siri yetarlicha tizimli tadqiq qilinmagan. Ko'plab tadqiqotlar motivatsiyaning umumiy psixologik jihatlariga e'tibor qaratgan bo'lib, ijodiy faoliyatning o'ziga xos san'at didaktik mexanizmlari ko'pincha e'tibordan chetda qolgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning tasviriy san'at motivatsiyasiga ta'siri, ayniqsa kompozitsiya, rangshunoslik va vizual kuzatuv jarayonlaridagi roli yetarlicha chuqur o'rganilmagan.

Tasviriy san'at darslarida ijodiy faoliyatdagi motivatsiyani oshirishning pedagogik mexanizmlari sifatida quyidagilar asos qilib olindi:

1. Didaktik mexanizmlar: modul asosidagi o'quv dasturlari; ijodiy topshiriqlar ketma-ketligining murakkablashib borishi; talabaning o'z natijasini baholashi (self-assessment).

2. Metodik mexanizmlar: sketchingni asosiy amaliy metod sifatida qo'llash;
rang bilan ishlash bo'yicha mini-mashqlar tizimi; kompozitsion yechimlar ustida tezkor eskizlar ishlash.

3. Psixologik mexanizmlar: muvaffaqiyatni kichik bosqichlarga bo'lish; ijodiy jarayonda emotsional qo'llab-quvvatlash; ijobiy muhit yaratish, talabaning shaxsiy qadrini oshirish.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

4. Innovatsion yondashuvlar: raqamli grafik dasturlar (Procreate, SketchBook) AR/VR texnologiyalar bilan ko‘rish burchaklarini o‘rganish, onlayn galereyalar orqali vizual dunyoqarashni kengaytirish

Zamonaviy raqamli ta’lim sharoitida tasviriy san’at yo‘nalishida AR (Augmented Reality — kengaytirilgan reallik) va VR (Virtual Reality — virtual reallik) texnologiyalaridan foydalanish talabalarning ijodiy motivatsiyasini oshirishning eng samarali innovatsion vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu texnologiyalar o‘quv jarayonini vizual, interaktiv va tajribaviy jihatdan boyitadi, talabaning fazoviy tasavvuri, badiiy tafakkuri va mustaqil ijodiy faoliyatini yangi bosqichga ko‘taradi. AR texnologiyalari real muhitga qo‘shimcha virtual elementlar qo‘shish orqali o‘quvchiga ko‘rsatmani yanada tushunarli ko‘rinishda taqdim etadi. Bu usul ayniqsa quyidagi yo‘nalishlarda samarali: Talaba kamera orqali real predmetlar kompozitsiyasini ko‘radi, raqamli texnologiya esa uning ustiga to‘g‘ri konstruksiya chiziqlarini, og‘irlik markazlari, “oltin kesim” bo‘ylab bo‘linmalar, yorug‘lik-soya yo‘nalishlarini ko‘rsatib beradi. Bu kompozitsiya qonuniyatlarini tushunishga kuchli yordam beradi. Talaba telefon yoki planshetni turli burchaklardan yo‘naltirganida AR gorizont chizig‘ini, yo‘nalish chiziqlarini, proporsiya qiyoslarini real vaqt rejimida ko‘rsatadi. Buning natijasida perspektiva xatolari keskin kamayadi. Talaba o‘z rasmiga virtual tarzda ranglar qo‘shib ko‘radi. Bu esa o‘z navbatida rang tanlashdagi ikkilanishni kamaytiradi, rang kombinatsiyalarini tez topishga yordam beradi. VR texnologiyalari talabaning to‘liq virtual muhitga kirishi orqali badiiy idrokning yangi bosqichini shakllantiradi. Talaba virtual ko‘zoynak orqali: Luvr muzeyiga, Metropoliten muzeyiga, O‘zbekiston Davlat San’at muzeyiga virtual sayr qilishi mumkin. Bu jarayon talabada san’atga qiziqish, badiiy zavq, estetik ehtiyoj kuchayadi — bu esa motivatsiyaning eng kuchli psixologik omilidir. Virtual muhiti 3D shakllar bilan ishlash imkonini yaratadi. Bu jarayonda haykaltaroshlik asoslari, konstruktiv shakllar, “nur–soya” munosabatlari bilan interaktiv tajriba orttiriladi. Talaba VR orqali tog‘ manzarasi, qadimiy shahar ko‘rinishi, suv bo‘yidagi kompozitsiya tasvirlanadigan muhitga “kiradi”. Ushbu usul talabaga tasviriy materialni to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatish, yorug‘likning tabiiy o‘zgarishlarini his qilish hamda kompozitsiyani joyida tuzish imkonini beradi.

Tadqiqotlar (shu jumladan 2024-yilda Buxoro davlat Pedagogika institutida o‘tkazilgan kuzatishlar) shuni ko‘rsatadiki:

- 74% talaba VR orqali muzeylarga sayr qilishdan so‘ng tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishi oshgan.
- 67% talaba AR yordamida kompozitsiya chizishni osonroq anglaganini bildirgan.
- 59% talaba AR-da rang tanlash funksiyasi motivatsiyani sezilarli oshirganini aytgan.
- 82% talaba bunday texnologiyalar mustaqil ta’limga bo‘lgan ishtiyoqni kuchaytirganini ta’kidladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Bu raqamlar AR/VR motivatsiyani oshiruvchi kuchli faktor ekanini tasdiqlaydi. O‘tkazilgan tadqiqotlar, tahliliy materiallar va statistik natijalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1.Mustaqil ijodiy faoliyat tasviriy san’at yo‘nalishidagi talabalar motivatsiyasining asosiy manbai hisoblanadi.

2.Motivatsiya kognitiv, emotsional, irodaviy va sensomotor komponentlarning uyg‘unlashuvi orqali shakllanadi.

3.Sketching, erkin kompozitsiya mashqlari, raqamli grafika vositalari motivatsiyani kuchaytiradigan eng samarali vositalardir.

4.Talabalarning texnik malakasi yetarli bo‘lmaganda motivatsiya pasayadi — demak, texnik tayyorgarlik va motivatsiya bir-biriga bog‘liq.

O‘quv dasturlari zamonaviy metodik yechimlar bilan boyitilishi, mustaqil ta’lim texnologiyalari esa tizimli ravishda joriy qilinishi lozim.

Xulosa qilib aytganda AR/VR texnologiyalari tasviriy san’at ta’limida vizual idrokni chuqurlashtiradi, fazoviy tasavvurni kengaytiradi, ijodiy jarayonni interaktiv qiladi, eng muhimi — talabada kuchli ichki motivatsiya uyg‘otadi. Ushbu texnologiyalardan oqilona foydalanish mustaqil ijodiy faoliyatni faollashtiradi, bo‘lajak rassom-pedagogning kasbiy kompetensiyasini sezilarli oshiradi. Estetik tarbiya talabaning tasviriy faoliyatga bo‘lgan motivatsiyasini bevosita shakllantiradi. Chunki estetik ehtiyoj kuchaysa, ijodiy qiziqish va kreativ g‘oya yaratish jarayoni ham faollashadi. Bu jarayon go‘zallikni idrok qilish, estetik hislarni shakllantirish, san’at asariga nisbatan emotsional–qadriyatli munosabat, badiiy faoliyatda o‘z ifodasini topish bosqichlarda kechadi. Shu sababli tasviriy san’at o‘qituvchisi estetika bilan bog‘liq mashqlarni (rang uyg‘unligi, kompozitsiya ritmi, shakllar dinamikasi) muntazam qo‘llashi lozim.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Deci, E. L. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior / E. L. Deci, R. M. Ryan. — New York : Plenum Press, 1995. — 372 p.

2.Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes / L. S. Vygotsky. — Cambridge, MA : Harvard University Press, 1978. — 159 p.

3.Guilford, J. P. The Nature of Human Intelligence / J. P. Guilford. — New York : McGraw-Hill, 1967. — 538 p.

4.Torrance, E. P. Torrance Tests of Creative Thinking: Technical-Norms Manual / E. P. Torrance. — Lexington, MA : Ginn & Co., 1974. — 212 p.

5.Zaytsev A. S. Rangshunoslik va rangtasvir ilmi. – Moskva: Iskusstvo, 1986. – 158 b., il.

6.Abdullayev S. F., Gadoyev I. N. Rangtasvir: O‘quv qo‘llanma. – Navoiy: 2022. – 123 b.

7.Dustova D. S., Abdullayev S. F. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi estetik tayyorligida pedagogik va badiiy-ijodiy komponentlarning o‘zaro bog‘liqligi // PEDAGOGS jurnali. – 2022.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

8.Abdullayev S. F., Umarova S. M. Skech–chizmalari tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlashda innovatsion yo‘nalish sifatida // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar: xalqaro ilmiy-metodik jurnal. – 2023. – №10. – B. 85–88..

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Nurmurodova Sevaraxon Alijon qizi**, Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti, [**Нурмурадова Севарахон Алижон кизи** базовый докторант Бухарского государственного педагогического института], [**Nurmurodova Sevaraxon Alijon qizi** basic doctoral student of the Bukhara State Pedagogical Institute], manzil: O‘zbekiston, Buxoro viloyati Amir Temur ko‘chasi 36uy, [адрес: Узбекистан, Бухарская область, город Бухара, улица А. Темура 36 дом], [Address: Uzbekistan, Bukhara region, Bukhara city, A. Temur streethouse 36], E-mail: sevaranurmurodova725@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# KIMYO DARSLARIDA SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA AVTOMATLASHTIRILGAN TOPSHIRIQLAR YARATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

© M. I. Soyibova [1]✉

[1]Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O'zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** ushbu maqolada kimyo fanida sun'iy intellekt (SI) yordamida avtomatlashtirilgan topshiriqlar yaratish metodikasi tahlil qilingan. Metodikaning pedagogik, texnologik va amaliy asoslari o'rganilib, global va regional ahamiyati, ilmiy yangiligi va aniq muammolari yoritilgan. Tadqiqot natijalari SI yordamida dars jarayonini optimallashtirish va o'quvchilarning individual bilim darajasini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

**MAQSAD**: maqolaning maqsadi – kimyo darslarini sun'iy intellekt yordamida yanada samarali, interaktiv va individualizatsiyalashgan qilish, shuningdek, pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish va o'quvchilarning STEM ko'nikmalarini rivojlantirishdir.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda kimyo darslarida sun'iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan topshiriqlar yaratish metodikasi nazariy tahlil**,** eksperimental sinov va analitik tadqiqot usullari orqali o'rganildi.

**MATERIALLAR:** O'zbekiston maktablarining kimyo darsliklari, ilmiy maqolalar, AI platformalari (ChatGPT, Bing Chat, Bard), kompyuter va laboratoriya simulyatorlari.

**METODLAR:** pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, AI yordamida topshiriqlar yaratish, ularni sinov darslarda tatbiq etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholash va natijalarni grafik va jadval orqali tahlil qilish.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** kimyo darslarida sun'iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan topshiriqlar yaratish metodikasi nafaqat pedagogik samaradorlikni oshiradi, balki o'quvchilarning STEM ko'nikmalarini rivojlantirish va global ta'lim standartlariga moslashishda strategik ahamiyatga ega takliflar ishlab chiqilgan.

**XULOSA:** xulosa o'rnida shuni aytish joizki**,** kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalari yanada takomillashib, ilmiy izlanishlar uchun kengroq imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli, kimyo fanini o'rganishni istagan har bir o'quvchi ushbu vositalardan to'liq va samarali foydalanishi lozim. Sun'iy intellekt yordamida kimyo fanining nazariy va amaliy jihatlarini birgalikda o'rganish, yangi kashfiyotlar sari keng imkoniyat eshiklarini ochadi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, kimyo ta'limi, AI platformalari , avtomatlashtirilgan topshiriqlar, metodika, interaktiv , individualizatsiya, STEM, global ta'lim, standart,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

strategik ahamiyat, kompyuter va laboratoriya simulyatorlari, eksperimental sinov, analitik tadqiqot.

**Iqtibos uchun**: Soyibova M. I., Kimyo darslarida sun'iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan topshiriqlar yaratish metodikasini takomillashtirish // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. B.316–325.

# УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ СОЗДАНИЯ АВТОМАТИЗИРОВАННЫХ ЗАДАНИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА УРОКАХ ХИМИИ

© М. И. Сойибова [1] ✉
[1] Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

**ВВЕДЕНИЕ:** в данной статье анализируется методология создания автоматизированных заданий по химии с использованием искусственного интеллекта (ИИ). Изучаются педагогические, технологические и практические основы методологии, освещаются ее глобальное и региональное значение, научная новизна и специфические проблемы. Результаты исследования показывают возможности оптимизации учебного процесса и повышения индивидуального уровня знаний учащихся с использованием ИИ.

**ЦЕЛЬ:** цель статьи – сделать уроки химии более эффективными, интерактивными и индивидуализированными с использованием искусственного интеллекта, а также модернизировать педагогический процесс и развивать у учащихся навыки в области STEM (наука, технология, инженерия и математика).

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в исследовании изучалась методология создания автоматизированных заданий с использованием искусственного интеллекта на уроках химии посредством теоретического анализа, экспериментального тестирования и аналитических методов исследования.

**МАТЕРИАЛЫ:** учебники химии из узбекских школ, научные статьи, платформы ИИ (ChatGPT, Bing Chat, Bard), компьютерные и лабораторные симуляторы.

**МЕТОДЫ:** анализ педагогической литературы, создание заданий с использованием ИИ, их реализация на контрольных уроках, оценка уровня знаний учащихся и анализ результатов с помощью графиков и таблиц.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** методология создания автоматизированных заданий с использованием искусственного интеллекта на уроках химии не только повышает педагогическую эффективность, но и предоставляет стратегически важные предложения по развитию STEM-навыков учащихся и адаптации к мировым образовательным стандартам.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** в заключение стоит отметить, что в будущем технологии искусственного интеллекта будут и дальше совершенствоваться и создавать более широкие возможности для научных исследований. Поэтому каждый студент,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

желающий изучать химию, должен в полной мере и эффективно использовать эти инструменты. Совместное изучение теоретических и практических аспектов химии с помощью искусственного интеллекта открывает широкие двери для новых открытий.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, химическое образование, платформы ИИ, автоматизированные задачи, методология, интерактивность, индивидуализация, STEM, глобальное образование, стандарт, стратегическое значение, компьютерные и лабораторные симуляторы, экспериментальное тестирование, аналитические исследования.

**Для цитирования**:. Сойибова М. И., Усовершенствование методологии создания автоматизированных заданий с использованием искусственного интеллекта на уроках химии / / Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. С. 316–325.

## IMPROVING THE METHODOLOGY FOR CREATING AUTOMATED TASKS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN CHEMISTRY LESSONS

©Maftuna I. Soyibova[1]✉
[1] Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: this article analyzes the methodology for creating automated tasks using artificial intelligence (AI) in chemistry. The pedagogical, technological and practical foundations of the methodology are studied, and its global and regional significance, scientific novelty and specific problems are highlighted. The results of the study show the possibilities of optimizing the teaching process and increasing the individual knowledge level of students using AI.

**PURPOSE:** the purpose of the article is to make chemistry lessons more effective, interactive and individualized using artificial intelligence, as well as to modernize the pedagogical process and develop students' STEM skills.

**MATERIALS AND METHODS:** the research studied the methodology for creating automated tasks using artificial intelligence in chemistry lessons through theoretical analysis, experimental testing and analytical research methods.

**MATERIALS:** chemistry textbooks from Uzbek schools, scientific articles, AI platforms (ChatGPT, Bing Chat, Bard), computer and laboratory simulators.

**METHODS:** analysis of pedagogical literature, creation of tasks using AI, their implementation in test lessons, assessment of students' knowledge level and analysis of results through graphs and tables.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the methodology of creating automated tasks using artificial intelligence in chemistry lessons not only increases pedagogical efficiency, but also strategically important proposals have been developed for developing students' STEM skills and adapting to global education standards.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**CONCLUSION:** in conclusion, it is worth noting that in the future, artificial intelligence technologies will be further improved and will create wider opportunities for scientific research. Therefore, every student who wants to study chemistry should make full and effective use of these tools. The joint study of theoretical and practical aspects of chemistry with the help of artificial intelligence opens wide doors to new discoveries.

**Keywords:** artificial intelligence, chemistry education, AI platforms, automated tasks, methodology, interactive, individualization, STEM, global education, standard, strategic importance, computer and laboratory simulators, experimental testing, analytical research.

**For citation**: Maftuna I. Soyibova (2025) Improving the methodology for creating automated tasks using artificial intelligence in chemistry lessons, Inter education & global study, vol.3 (12), pp. 316–325. (In Uzbek).

**K**imyo ta’limi butun dunyo bo‘ylab ilmiy va texnologik taraqqiyotning muhim poydevorlaridan biridir. So‘nggi yillarda ilm-fan va sanoat sohalarida murakkab kimyoviy jarayonlar, molekulyar modellash va yangi materiallar yaratish kabi vazifalar kengayib bormoqda. Shu kontekstda, o‘quvchilarning ilmiy tushunchalarni tez va samarali o‘zlashtirishi global ta’lim standartlari va innovatsion iqtisodiyotlar talablariga javob berishi uchun muhimdir. Sun’iy intellekt (SI) yordamida avtomatlashtirilgan topshiriqlar yaratish metodikasini takomillashtirish quyidagi global ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston ta’lim tizimi so‘nggi yillarda innovatsion texnologiyalarni joriy etish va sifatli ta’limni ta’minlash bo‘yicha faol rivojlanmoqda. Ayniqsa, STEM fanlariga, jumladan kimyoga bo‘lgan e’tibor ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, kimyo darslarida sun’iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan topshiriqlar yaratish metodikasini takomillashtirish O‘zbekiston kontekstida quyidagi jihatlarda ahamiyatlidir:

1.Ta’lim sifatini oshirish - Sun’iy intellekt yordamida yaratilgan avtomatlashtirilgan topshiriqlar o‘quvchilarning bilim darajasini individual baholash va moslashtirish imkonini beradi. Bu O‘zbekiston maktablarida kimyo darslarining samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarni murakkab nazariy tushunchalarni tezroq o‘zlashtirishga undaydi[1] .

2.Pedagogik jarayonlarni modernizatsiya qilish **-** O‘zbekiston maktablarida an’anaviy ta’lim metodlari bilan bir qatorda, AI asosidagi metodikalar o‘qituvchilarga darslarni interaktiv, vizual va amaliy tarzda tashkil etishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, repetitiv va vaqt talab qiluvchi topshiriqlar avtomatlashtiriladi, bu esa o‘qituvchi resurslarini samarali ishlatishga yordam beradi.

3.STEM va ilmiy tadqiqotga qiziqishni oshirish - AI yordamida murakkab molekulyar modellash, kimyoviy reaksiyalar va eksperimental hisob-kitoblarni o‘rganish

[1]Xojayev B. **Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti.** – Toshkent: Sano-standart nashriyoti, 2017.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

imkoniyati yoshlar orasida kimyoga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Bu esa O‘zbekistonda ilmiy va texnologik salohiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

4.Raqamli va masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish - O‘zbekistonning chekka hududlaridagi maktablarda sifatli kimyo ta’limiga kirishni kengaytirish uchun SI asosidagi avtomatlashtirilgan topshiriqlar samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu tariqa, regional ta’limdagi tengsizlik kamayadi va o‘quvchilarga global standartlarda bilim olish imkoniyati yaratiladi[2]

5.Innovatsion kadrlar tayyorlash **-** AI yordamida topshiriqlarni o‘rganish jarayoni o‘quvchilarda tahliliy fikrlash, muammo yechish va eksperimental ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Bu esa kelajakda O‘zbekistonda ilmiy tadqiqotlar, sanoat innovatsiyalari va texnologik loyihalarni amalga oshirishda malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Kimyo darslarida sun’iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan topshiriqlar yaratish metodikasi yangi, innovatsion yo‘nalish bo‘lib, hozirgi kunda ham bir qator muammolar va yetarlicha o‘rganilmagan jihatlar mavjud.

| N | Muammo nomi | Muammoning mazmuni |
|---|---|---|
| 1 | Pedagogik metodologiyaning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi | AI asosida topshiriqlar yaratish ko‘proq texnologik va dasturiy yondashuvda o‘rganilgan bo‘lib, pedagogik metodika, o‘quvchi ehtiyojlariga moslashuv, interaktivlik va ta’lim natijalarini baholash mexanizmlari yetarli darajada ilmiy asoslanmagan. |
| 2 | O‘quvchilarning individual xususiyatlariga moslashtirishning cheklanganligi | Avtomatlashtirilgan topshiriqlarda murakkablik darajasi, o‘quvchining avvalgi bilimlari va kognitiv xususiyatlarini chuqur tahlil qiluvchi adaptiv metodlar yetarli emas, bu esa individual yondashuvni to‘liq ta’minlamaydi. |
| 3 | Nazariy va amaliy materiallarni integratsiyalashning yetarli emasligi | AI tizimlari asosan test va mashqlar generatori sifatida ishlatiladi, kimyoviy eksperimentlar, molekulyar modellash va real laboratoriya ko‘nikmalarini integratsiyalash metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. |
| 4 | Mahalliy kontekst va resurslarga moslashuv yetishmasligi | O‘zbekiston va MDH mamlakatlarida texnik infratuzilma, internet tezligi va kompyuter resurslarining cheklanganligi global AI platformalarini to‘liq joriy etishni |

[2] Qurbanova Sh. N. Texnologiya o‘qitish metodikasi fanidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish. – Buxoro, 2022.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

| | | |
|---|---|---|
| | | qiyinlashtiradi, regional moslashtirish masalalari yetarlicha o‘rganilmagan. |
| 5 | Baholash va feedback tizimining optimallashtirilmaganligi | AI yordamida baholash ko‘pincha ball tizimi bilan cheklanadi, bilim bo‘shliqlarini aniqlash, individual tavsiyalar berish va qayta moslashtirilgan topshiriqlar yaratish algoritmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. |
| 6 | Etika va akademik halollik masalalari | AI tizimlarida noto‘g‘ri javoblar (hallucination), plagiarizm va o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatiga salbiy ta’sir qilish xavfi mavjud bo‘lib, bu masalalar bo‘yicha metodik va ilmiy tavsiyalar yetarli emas. |

**Ta’limni individualizatsiyala h va moslashtiris**

- Global miqyosda har bir o‘quvchining bilim darajasi va o‘rganish tezligi turlicha. SI yordamida o‘quvchilarga individual darajada moslashtirilgan topshiriqlar taqdim etilishi, ularning tushuncha va ko‘nikmalarini tez va sifatli rivojlantirishga imkon beradi. Xorijiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, adaptiv AI tizimlari o‘quv samaradorligini 20–30% ga oshiradi

**Global ta’lim sifatini oshirish**

- Avtomatlashtirilgan topshiriqlar yordamida o‘quvchilarning natijalari tezkor baholanadi va o‘qituvchilar darhol individual feedback bera oladi. Bu dunyo miqyosida ta’lim standartlarini uyg‘unlashtirish va sifatni oshirishga yordam beradi.

**Innovatsion va STEM yo‘nalishlarini o‘llab-quvvatlas**

- SI asosidagi metodika kimyo fanining murakkab konseptlarini osonroq o‘rganishga yordam beradi, shu bilan birga STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yo‘nalishida iqtidorli mutaxassislar tayyorlashni global darajada rag‘batlantiradi.

**Ochiq va masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish**

- AI tizimlari global darajada masofaviy va onlayn ta’limda ham keng qo‘llanilmoqda. Bu, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda sifatli kimyo ta’limiga kirishni kengaytiradi va ta’limdagi tengsizlikni kamaytiradi

**Innovatsion ilmiy tadqiqotlarga tayyorgarlik**

- SI yordamida avtomatlashtirilgan topshiriqlar ilmiy tahlil, tajriba va molekulyar modellash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu global miqyosda ilmiy kadrlar tayyorlashda muhim vositadir, chunki yuqori darajadagi ilmiy salohiyatga ega mutaxassislar butun dunyo sanoat va ilm-fan rivojiga hissa qo‘shadi.

© i

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Kimyo darslarida sun'iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan topshiriqlar yaratish metodikasini takomillashtirish bir qator ilmiy yangiliklarni o'zida mujassam etadi.


1. Adaptiv va individualizatsiyalashgan yondashuvning joriy qilinishi An'anaviy darslarda topshiriqlar ko'pincha barcha o'quvchilar uchun umumiy bo'ladi. Sun'iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan metodika o'quvchilarning bilim darajasi, kognitiv qobiliyatlari va oldingi natijalariga moslashtirilgan topshiriqlar yaratish imkonini beradi. Bu yondashuv pedagogik nazariyada ilgari yetarlicha ilmiy asoslangan emas edi[3] .
2. AI algoritmlari orqali avtomatlashtirilgan murakkab topshiriqlar yaratish Mazkur metodika yordamida AI tizimlari molekulyar tuzilish, kimyoviy reaksiyalar va hisoblash masalalarini o'z ichiga olgan murakkab topshiriqlarni avtomatik generatsiya qiladi. Shu bilan birga, topshiriqlar murakkablik darajasiga ko'ra o'quvchi xususiyatlariga moslashtiriladi. Bu esa ilmiy jihatdan yangi yondashuv sifatida baholanishi mumkin[4]
3. Nazariy va amaliy bilimlarni integratsiyalash An'anaviy metodikalarda ko'pincha nazariy bilimlar va laboratoriya mashg'ulotlari alohida o'rganiladi. Takomillashtirilgan metodika AI yordamida nazariy kontseptlarni amaliy tajribalar bilan uyg'unlashtirishni ta'minlaydi. Shu orqali o'quvchilarning eksperimental ko'nikmalari va tahliliy fikrlash qobiliyati rivojlantiriladi[5]
4. Regional va global kontekstga moslashuvchan metodika Metodika O'zbekiston maktablarining texnik va resurs imkoniyatlariga moslashtirilishi bilan birga, global AI platformalariga integratsiya qilish imkonini beradi. Bu ilmiy yangilik regional ta'lim tizimlarini modernizatsiya qilish va xalqaro ta'lim standartlariga moslashtirish imkonini yaratadi.
5. Avtomatik baholash va individual feedback tizimi Takomillashtirilgan metodika o'quvchilarning natijalarini real vaqt rejimida baholash va individual feedback berish imkonini beradi. Shu bilan birga, AI tizimi o'quvchining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, moslashtirilgan yangi topshiriqlar yaratadi. Bu pedagogik nazariyada ilgari yetarlicha tadqiq qilinmagan nuqta hisoblanadi.
6. Etika va akademik halollikni ta'minlash yondashuvi

1. [3] Russell & Norvig, 2021.
2. [4] Santos, 2023.
3. [5] Qurbanova, 2022.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Metodika AI yordamida yaratilgan topshiriqlarda noto‘g‘ri ma’lumot (hallucination) xavfini kamaytirish, talabaning mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlash va akademik halollikni saqlash uchun nazariy asoslangan mexanizmlar taklif qiladi. Bu ilmiy novatorlik sifatida ahamiyatlidir.

**Topshiriqlar turlari va baholash.**



ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mavjud AI asosidagi topshiriqlar asosan texnologik imkoniyatlarga tayangan bo‘lib, pedagogik metodologiya, o‘quvchilarning individual kognitiv xususiyatlari, nazariy va amaliy bilimlar integratsiyasi hamda baholash va teskari aloqa (feedback) tizimlari yetarli darajada ilmiy asoslanmagan. Ayniqsa, kimyo faniga xos bo‘lgan tajriba, laboratoriya ishlari va molekulyar jarayonlarni modellashtirish imkoniyatlarini avtomatlashtirilgan topshiriqlar bilan uyg‘unlashtirishda metodik bo‘shliqlar mavjudligi aniqlandi. O‘zbekiston va MDH mamlakatlari sharoitida texnik infratuzilma va resurslar cheklanganligini hisobga olgan holda, AI texnologiyalarini lokal ta’lim muhitiga moslashtirish alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tadqiqot davomida AI tizimlaridan foydalanishda akademik halollik, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va tanqidiy tafakkurini saqlab qolish masalalariga e’tibor qaratish zarurligi asoslab berildi. Bu esa avtomatlashtirilgan topshiriqlarni nafaqat nazorat vositasi, balki rivojlantiruvchi va yo‘naltiruvchi pedagogik instrument sifatida qarashni taqozo etadi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, mazkur tadqiqotda kimyo darslarida sun’iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan topshiriqlar yaratish metodikasini takomillashtirish masalasining dolzarbligini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdi. Tadqiqot jarayonida hozirgi kunda AI texnologiyalari ta’lim jarayoniga faol joriy etilayotgan bo‘lsada, ularni kimyo fanining didaktik xususiyatlariga mos holda metodik jihatdan mukammal qo‘llash masalasi yetarlicha o‘rganilmagan. Umuman olganda, mazkur tadqiqot kimyo darslarida sun’iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan topshiriqlar yaratish metodikasini takomillashtirish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirish hamda zamonaviy raqamli pedagogika talablariga mos innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**.** Ta’lim tizimini raqamlashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami. – Toshkent, 2021.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq**.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
4. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008
5. Xojayev B**.** Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti**.** – Toshkent: Sano-standart nashriyoti, 2017.
6. Anderson J. R. Cognitive Psychology and Its Implications. – New York: Worth Publishers, 2015.
7. Mayer R. E. Multimedia Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020.
8. Zhang D., Nunamaker J. Powering E-Learning in the New Millennium. // Information Systems Frontiers, 2018. – Vol. 20. – P. 1–12.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

9. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2005.
10. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Soyibova Maftuna Iskandar qizi** Buxoro davlat pedagogika instituti I -bosqich Magistri , [**Сойибова Мафтуна Искандар Кизи**, Студент магистратуры Бухарского государственного педагогического института], [**Soyibova Maftuna Iskandar qizi** Master's student of Bukhara State Pedagogical Institute, manzil: O'zbekiston, Buxoro v., Romitan t. Sho'robod M.F.Y. 28- uy, [адрес: Узбекистан, Бухарская область, Ромитанский округ, Шуробод М.С.Г. 28-дом,] [Address: Uzbekistan, Bukhara region, Romitan district, Shu'rabad neighborhood citizens' meeting];] E-mail: maftunasoyibovaO@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

© Z. O‘. To‘rayeva [1]✉

[1] Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning nazariy, pedagogik va metodik asoslari yoritilgan. Maktab sharoitida sog‘lom muhit yaratish, o‘quvchilarni gigiyenik va jismoniy faollikka yo‘naltirish, o‘quv jarayonida sog‘liqni saqlash kompetensiyalarini integratsiya qilishning samarali usullari tahlil qilingan. Interfaol metodlar, amaliy mashg‘ulotlar va ota-onalar bilan hamkorlikning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sog‘lom turmush tarzini barqaror shakllantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**MAQSAD:** ushbu tadqiqotning maqsadi — boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayonining nazariy, pedagogik va metodik asoslarini o‘rganish hamda maktab sharoitida sog‘lom muhit yaratishning samarali yo‘llarini aniqlashdan iborat. Shuningdek, o‘quvchilarning gigiyenik madaniyati, jismoniy faolligi va sog‘liqni saqlash kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ta’limiy texnologiyalarni tahlil qilish va ularni o‘quv jarayoniga integratsiya etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish ko‘zda tutiladi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** boshlang‘ich sinf o‘quvchilari 1–4-sinflar,maktab o‘quv dasturi va sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha qo‘shimcha o‘quv-metodik manbalar,o‘quvchilar sog‘lig‘i va jismoniy faolligini kuzatish jurnallari,o‘qituvchilar va ota-onalarning fikr-mulohazalari. Pedagogik, psixologik va gigiyenik adabiyotlarni o‘rganish, sog‘lom turmush tarzi konsepsiyalarini solishtirish. O‘quvchilar kundalik faoliyati, jismoniy mashqlar, tanaffuslardagi harakatlanish faolligi, gigiyenik ko‘nikmalarni kuzatish. ınterfaol metodlar, sog‘liqni saqlashga yo‘naltirilgan o‘yinlar, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini takomillashtirish bo‘yicha amaliy sinovlar o‘tkazish.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tashkiliy-gigiyenik sharoitlarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi, o‘quvchilarning sog‘lig‘i va o‘qishga bo‘lgan qiziqishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Sog‘lom turmush tarziga oid o‘yinlar, jismoniy mashqlar, kichik guruhli ishlash, rolli o‘yinlar o‘quvchilarning faolligini oshirib, sog‘lom odatlarni tezroq o‘zlashtirishiga yordam berdi. Qo‘l yuvish, to‘g‘ri ovqatlanish, kundalik tartibga rioya qilish kabi oddiy gigiyenik odatlarni muntazam eslatib turish va amaliy mashg‘ulotlar orqali mustahkamlash yuqori samarani ko‘rsatdi. Darslarda sog‘liqni saqlashga oid qisqa ma’lumotlar, jismoniy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

daqiqalar, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha topshiriqlar berish o‘quvchilarning qiziqishini oshirdi.

**Kalit so‘zlar**: sog‘lom turmush tarzi, gigiyena, boshlang‘ich ta’lim, interfaol metodlar, sog‘lom muhit, jismoniy faollik.

**Iqtibos uchun**: To’rayeva Z. O’. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning nazariy asoslari // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. B. 326–332.

## МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

© З. Ў. Тўраева [1]✉
[1] Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в статье рассматриваются теоретические, педагогические и методические основы формирования здорового образа жизни у учащихся начальных классов. Проанализированы эффективные способы создания здоровой образовательной среды, развития гигиенических навыков, повышения физической активности и интеграции компетенций по сохранению здоровья в учебный процесс. Обоснована значимость интерактивных методов, практических занятий и сотрудничества с родителями. Полученные результаты могут быть использованы для разработки методических рекомендаций по устойчивому формированию здорового образа жизни у младших школьников.

**ЦЕЛЬ:** данного исследования — изучить теоретические, педагогические и методические основы формирования здорового образа жизни у учащихся начальных классов, определить эффективные способы создания здоровой образовательной среды в школе. Особое внимание уделяется развитию у младших школьников гигиенической культуры, физической активности и компетенций по сохранению здоровья, а также разработке методических рекомендаций по интеграции данных знаний в учебный процесс.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** ученики начальных классов 1–4 классы,школьные учебные программы и дополнительные методические пособия по здоровому образу жизни, журналы наблюдений за физической активностью и состоянием здоровья учащихся, мнения учителей и родителей. Наблюдение за ежедневной деятельностью учащихся, их гигиеническими навыками и уровнем физической активности, беседа и анкетирование учителей, учащихся и родителей,экспериментально-методический подход с применением интерактивных методов, здоровьесберегающих игр и практических упражнений.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** благоприятные санитарно-гигиенические условия способствуют повышению работоспособности и интереса к учебе. Игры, физкультминутки и групповые задания способствуют активному

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

усвоению навыков здорового образа жизни. Регулярное закрепление навыков личной гигиены увеличивает осознанность и самостоятельность детей. Совместная работа школы и родителей обеспечивает устойчивое формирование здоровых привычек у детей. Включение элементов здорового образа жизни в содержание уроков повышает мотивацию учащихся. устойчивые навыки здорового образа жизни формируются при комплексном взаимодействии школы, семьи и всей образовательной среды.

**Ключевые слова**: здоровый образ жизни, гигиена, начальное образование, интерактивные методы, физическая активность, здоровая среда.

**Для цитирования**: З. Ў. Тўраева, Методические основы формирования здорового образа жизни у учащихся начальных классов // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. С. 326–332.

## METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR SHAPING A HEALTHY LIFESTYLE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

© Zarina O‘. To‘rayeva [1]✉
[1] Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** this article examines the theoretical, pedagogical, and methodological foundations for developing a healthy lifestyle among primary school students. It analyzes effective ways to create a healthy educational environment, enhance students’ hygiene skills and physical activity, and integrate health-preserving competencies into the learning process. The importance of interactive methods, practical activities, and collaboration with parents is substantiated. The conclusions of the study may serve as a basis for developing methodological recommendations aimed at fostering a sustainable healthy lifestyle in primary school pupils.

**PURPOSE:** the aim of this study is to examine the theoretical, pedagogical, and methodological foundations for developing a healthy lifestyle among primary school students, and to identify effective ways to create a health-promoting environment in schools. The study focuses on fostering hygienic culture, physical activity, and health-preserving competencies in young learners, as well as developing methodological recommendations for integrating these components into the educational process.

**MATERIALS AND METHODS:** primary school students grades 1–4,school curricula and supplementary teaching materials on healthy lifestyle education,observation logs on students’ physical activity and health conditions,opinions and feedback from teachers and parents,theoretical analysis of pedagogical, psychological, and hygienic literature,observation of students’ daily activities, hygiene habits, and physical activity levels,interviews and questionnaires involving teachers, students, and parents,experimental and methodological approach using interactive

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

methods, health-promoting games, and practical exercises;,statistical analysis of the collected data.

**DISCUSSION AND RESULTS:** creating a health-supportive school environment Proper sanitary and organizational conditions positively affect students' well-being and learning motivation. Effectiveness of interactive and game-based methods Physical activity breaks, educational games, and group tasks enhance students' engagement and adoption of healthy habits.Development of hygiene skills continuous reinforcement of hygiene practices increases children's awareness and self-management.Collaboration with parents joint activities between school and home contribute to the stable formation of healthy behaviors. Integration of health-preserving competencies into the curriculum incorporating health-related content into lessons boosts students' interest and participation. A sustainable healthy lifestyle is formed most effectively through the combined efforts of the school, the family, and the broader educational environment.

**Keywords**: healthy lifestyle, hygiene, primary education, interactive methods, physical activity, healthy environment.

**For citation**: To'rayeva Z. O'. (2025) 'Methodological foundations for shaping a healthy lifestyle in primary school students' , Inter education & global study, vol.3 (12), pp. 326–332. (In Uzbek).

**B**ugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning sog'lig'ini mustahkamlash va sog'lom turmush tarziga oid tasavvurlarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh jihatdan jismoniy va psixologik rivojlanishning eng faol bosqichida bo'lib, aynan shu davrda sog'lom odatlar shakllanishi keyingi hayot faoliyati uchun poydevor vazifasini o'taydi. Maktabda sog'lom turmush tarzini shakllantirish jarayoni faqat jismoniy tarbiya bilan chegaralanmay, balki barcha o'quv fanlari, sinfdan tashqari mashg'ulotlar, oilaviy muhit va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog'liq.Shu bois boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha metodik yondashuvlarni ilmiy asoslash, amaliyotda qo'llash mexanizmlarini aniqlash va samaradorligini oshirish muhim ilmiy-pedagogik vazifa sanaladi.Sog'lom turmush tarzi o'quvchilarning jismoniy, psixologik va ijtimoiy salomatligini ta'minlaydigan ilmiy asoslangan faoliyatlar majmuidir. Boshlang'ich sinflar uchun STT quyidagi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi.To'g'ri ovqatlanish madaniyati,gigiyena qoidalariga rioya qilish,jismoniy harakatga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish,ruhiy-emotsional barqarorlikni ta'minlash,sog'lom uyqu va dam olish tartibiga amal qilish.Mazkur komponentlar o'quvchilarning yosh psixofiziologik xususiyatlariga mos tarzda berilishi zarur.7–10 yoshdagi bolalar uchun ko'rgazmalilik, o'yin faoliyati, amaliy mashg'ulotlar va taqlid orqali o'rganish eng samarali metodlar hisoblanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Jismoniy tarbiyada harakat faoliyatining kundalik hayot uchun ahamiyatini anglash. Samaradorlikni oshiruvchi interfaol metodlar:“Aqliy hujum”: to‘g‘ri va noto‘g‘ri odatlarni ajratish.“Rol o‘ynash o‘yinlari”: shifokor, sportchi, oshpaz rollarida sog‘lom odatlarni namoyish etish.“Munozara”: sog‘lom turmush tarzining afzalliklari haqida fikr almashish. Amaliy faoliyat STTni singdirishning eng samarali vositasidir:ertalabki jismoniy mashqlarni birgalikda bajarish,toza havodagi o‘yinlar,shaxsiy gigiyena buyumlari bilan ishlash, sog‘lom ovqat tayyorlash bo‘yicha mini-mahorat darslari.Ota-onalar bilan hamkorligida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda oilaning roli beqiyos. Shuning uchun: ota-onalar uchun STT bo‘yicha tavsiyalar berish,“Sog‘lom oila – sog‘lom bola” mavzusidagi seminar-treninglar,oilaviy sport tadbirlarini tashkil etish muhimdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayoni ularning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Sog‘lom turmush tarzining pedagogik mazmuni o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, psixofiziologik rivojlanish darajasi va psixologik ehtiyojlariga mos ravishda shakllantirilishi lozim. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sog‘lom odatlarni 7–10 yosh oralig‘ida shakllantirish ularning keyingi hayotida doimiy ravishda amal qilinadigan axloqiy va jismoniy odatlarning barqaror bo‘lishini ta’minlaydi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy faollik, shaxsiy gigiyena, to‘g‘ri ovqatlanish, ruhiy barqarorlik va kundalik hayot tartibiga rioya qilish kabi omillar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun o‘quvchilarning yosh psixologik xususiyatlari inobatga olinadi.

Mazkur yoshdagi bolalar tasvirli, ko‘rgazmali va o‘yin orqali o‘rganishga moyil bo‘lganlari uchun sog‘lom turmush tarziga oid bilimlar sodda, qiziqarli va amaliy misollar orqali berilishi kerak.Psixofiziologik rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlar qisqa, dinamik va faol shaklda olib borilishi maqsadga muvofiq. Asab tizimi hali to‘liq shakllanib ulgurmaganligi sababli uzoq davom etadigan nazariy mashg‘ulotlar bolani charchatadi, diqqatini susaytiradi. Shu sababli sog‘lom turmush tarziga oid mavzular o‘yin usullari, ko‘rgazmali vositalar va interfaol uslublar bilan boyitilgan holda o‘tiladi. Rangli plakatlar, videoroliklar, gigiyenik amallar bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar bolalarning qiziqishini oshiradi va eslab qolishni osonlashtiradi.

O‘yin orqali o‘qitish boshlang‘ich ta’lim jarayonining eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Sog‘lom ovqatlanish, tozalik, sport, gigiyena kabi mavzular o‘yin shaklida berilganda o‘quvchilarda mavzuga bo‘lgan qiziqish ortadi, ular faol harakat qiladi va mazmunni tezroq o‘zlashtiradi. Masalan, “Sog‘lom va nosog‘lom mahsulotlar” mavzusida tasniflash o‘yini, “Toza qo‘l – sog‘liq garovi” gigiyena estafetasi yoki sportchi obraziga kirib rol o‘ynash metodlari bolalarda sog‘lom odatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda psixologik omillar ham juda muhim. O‘quvchilarda o‘ziga ishonch, sog‘ligiga mas’uliyat bilan qarash, emotsional barqarorlik va stressga bardoshlik kabi sifatlarni rivojlantirish o‘qituvchining doimiy e’tiborida bo‘lishi kerak. Rag‘batlantirish, ijobiy fikrlash, muvaffaqiyatga erishish hissini uyg‘otish kabi metodlar sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan ichki motivatsiyani kuchaytiradi.Gigiyenik

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida avvalo ilmiy asoslangan sodda ma’lumotlar beriladi, so‘ngra amaliy ko‘rsatmalar orqali o‘quvchi mustaqil ravishda bu ko‘nikmani bajarishni o‘rganadi. Qo‘l yuvish texnikasini ko‘rsatish, tishlarni to‘g‘ri parvarishlash, shaxsiy gigiyena buyumlaridan foydalanish bo‘yicha mashqlar muntazam amalga oshirilishi zarur. Gigiyenik ko‘nikmalar odatga aylanishi uchun o‘qituvchi va ota-onaning nazorati va talablari bir xil bo‘lishi katta ahamiyatga ega. Zamonaviy ta’limda bolalarda kamharakatlik muammosi kuchayib borayotganligi bois, jismoniy faollikni oshirish bo‘yicha metodik yondashuvlar muhim sanaladi. Har 15–20 daqiqada jismoniy daqiqalar o‘tkazish, tanaffuslarda harakatli o‘yinlar tashkil etish, sport asbob-uskunalaridan faol foydalanish o‘quvchilarning sog‘lig‘ini mustahkamlashga yordam beradi. Ilmiy tadqiqotlar maktabdagi qisqa jismoniy mashqlar bolalarning diqqatini 20–25 foizga oshirishi mumkinligini ko‘rsatgan. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda oila bilan maktab hamkorligining o‘rni beqiyosdir. Bola birinchi navbatda oilada ko‘rgan odatni qabul qiladi, shuning uchun ota-onalarni sog‘lom ovqatlanish, gigiyena va sport bo‘yicha ma’lumotlantirish, ularni tarbiyaviy tadbirlarga jalb qilish ijobiy natija beradi. Oilaviy sport bayramlari, sog‘lom ovqatlanish bo‘yicha seminarlar, ota-onalar ishtirokidagi sog‘lom turmush tarzi haftaliklari bolada bu borada barqaror ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Sog‘lom turmush tarziga oid bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni tizimli bo‘lishi uchun maxsus pedagogik model asosida olib borilishi lozim. Bunday model odatda bir necha asosiy bosqichlardan iborat bo‘ladi: mavjud ko‘nikmalarni aniqlash, o‘quvchini qiziqtirish, nazariy bilim berish, amaliy mashqlar o‘tkazish, odatlarni kundalik hayotga tatbiq etish va monitoring orqali natijalarni baholash. Shu tarzda tashkil etilgan jarayon izchil, ilmiy asoslangan va samarali bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bugungi ta’lim jarayonining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Sog‘lom turmush tarziga oid bilim va ko‘nikmalar bolalarning keyingi hayot faoliyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Aynan shu yosh davrida shakllangan gigiyenik odatlar, jismoniy faollik ko‘nikmalari, to‘g‘ri ovqatlanishga bo‘lgan munosabat va ruhiy barqarorlik bola shaxsining har tomonlama yetuk rivojlanishiga yordam beradi. Ta’lim jarayonida sog‘lom turmush tarzini singdirish nafaqat jismoniy tarbiya darslari, balki barcha o‘quv fanlari, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar hamda oilaviy muhit bilan uzviy bog‘liq holda olib borilishi zarur.Metodik yondashuvlarning ilmiy asoslanganligi, o‘yin va amaliy mashg‘ulotlarning ustuvorligi, psixologik yondashuvlarning qo‘llanilishi hamda ota-onalar bilan to‘g‘ri tashkil qilingan hamkorlik sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. O‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda interfaol metodlardan foydalanish, harakatli o‘yinlar, gigiyenik amallarni amalda bajarish, sog‘lom ovqatlanish va jismoniy faollik bo‘yicha mutanosib dasturlar ishlab chiqish muhim omil hisoblanadi. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish tizimli jarayon bo‘lib, uning samarasi o‘qituvchi, o‘quvchi va ota-onalarning uzviy hamkorligiga tayanadi. Maktab va oila birgalikda harakat qilgan taqdirda o‘quvchilarda sog‘lom hayot falsafasi, o‘z sog‘ligiga mas’uliyat bilan qarash, to‘g‘ri kundalik tartibga amal qilish va zararli odatlardan xoli

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

bo‘lish kabi sifatlar barqaror shakllanadi. Natijada sog‘lom, faol, ma’naviy yetuk, ijtimoiy mas’uliyatli yosh avlod voyaga yetadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdullayeva D. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – *Toshkent*: Fan, 2019.
2. Hasanov A. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2018.
3. Qodirov U., To‘xtayeva M. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – *Toshkent, 2021.*
4. Yo‘ldosheva N., Mamatqulova M. Umumiy gigiyena va sanitariya asoslari. – Toshkent: Ilm ziyo, 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi. – Toshkent, 2020.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar sog‘lig‘ini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari.
7. Goziev E. O‘quvchi shaxsning psixologik rivojlanishi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
8. Sharipov Sh. Jismoniy tarbiya va sport psixologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **To‘rayeva Zarinabonu O‘ktam qizi**, Buxoro davlat pedagogika instituti 1-bosqich Magistranti, Тураева Заринабону Уктамовна, магистрант 1-го курса Бухарского государственного педагогического института, Turayeva Zarinabonu O‘ktam qizi, 1st-year Master's student at the Bukhara State Pedagogical Institute. Manzil: O‘zbekiston, Buxoro viloyati,Buxoro shahar, A.Jomiy 19/2. Узбекистан, Бухарская область, город Бухара, А. Джами 19/2. Uzbekistan, Bukhara Region, Bukhara City, A. Jami 19/2. E-mail: zariuktamovna2000@gmail.com

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

Original paper

# FILOLOGIYA TALABALARI ORASIDA REFLEKSIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH ORQALI SAMARALI PEDAGOGIK QARORLAR QABUL QILISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

© D.R . Jo'rayeva[1]✉

[1]Namangan davlat universiteti, Namangan, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** zamonaviy pedagogik amaliyotda filologiya talabalari uchun didaktik-metodik tayyorgarlik bilan bir qatorda pedagogik qaror qabul qilish kompetensiyasi ham dolzarb hisoblanadi. Pedagogik qaror qabul qilish jarayoni murakkab kognitiv faoliyat bo‘lib, refleksiv fikrlash uni ongli tahlil, prognoz va tanlov mexanizmlari orqali qo‘llab-quvvatlaydi. Dewey va Schön konsepsiyalariga tayangan holda refleksiya bilim va amaliyotni uyg‘unlashtiruvchi vosita sifatida ko‘rsatiladi.

**MAQSAD:** tadqiqotning maqsadi — filologiya talabalari orasida refleksiv fikrlashni rivojlantirish orqali pedagogik qarorlar qabul qilish kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini aniqlashdir. Shuningdek, refleksiv yondashuvlarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha samarali metodik yechimlarni asoslash ko‘zda tutiladi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda sifatli va kvantitativ metodlar integratsiyasi qo‘llanildi: intervyu va fokus-guruhlar orqali pedagogik vaziyatlar hamda qaror qabul qilish mexanizmlari tahlil qilindi. Eksperimental yondashuv sifatida “refleksiv jurnal” va “pedagogik vaziyatlarda simulyatsiya” metodlari joriy etilib, so‘rovnoma va testlar orqali refleksiv fikrlash hamda qaror qabul qilish kompetensiyasi dinamikasi baholandi. Metakognitiv va o‘z-o‘zini baholash elementlari talabalarning refleksiv faoliyatini tizimlashtirishga xizmat qildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** natijalar refleksiv fikrlashni tizimli rivojlantirish filologiya talabalari tomonidan murakkab pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, alternativ yechimlarni baholash va optimal strategiyani tanlash ko‘nikmalarini sezilarli kuchaytirganini ko‘rsatdi. Muhokamada Farrellning bosqichma-bosqich refleksiya modeli hamda Schönning “reflection-in-action” va “reflection-on-action” yondashuvlari qiyoslanib, ularni uyg‘unlashtirish talabalarda real vaqt va retrospektiv tahlil asosida ongli qaror qabul qilishni kuchaytirishi asoslandi.

**XULOSA:** refleksiv fikrlashni o‘quv-amaliyotga integratsiya qilish filologiya talabalari pedagogik tayyorgarligida samarali qaror qabul qilish kompetensiyasini shakllantirishning muhim sharti ekani tasdiqlandi. Metodlar kombinatsiyasi (refleksiv jurnal, simulyatsiya, intervyu, test va so‘rovnoma) talabalarda metakognitiv ong, o‘z-o‘zini baholash va pedagogik identitetning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Amaliy jihatdan mazkur

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

yondashuv filologiya fakultetlarida refleksiv metodlarni tizimli joriy etish uchun metodik asos bo‘la oladi.

**Kalit so‘zlar:** refleksiv fikrlash, pedagogik qaror qabul qilish, kompetensiya, filologiya talabalari, refleksiv jurnal, simulyatsiya, metakognitiv ko‘nikmalar, professional rivojlanish.

**Iqtibos uchun**: Jo'rayeva D. R. Filologiya talabalari orasida refleksiv fikrlashni rivojlantirish orqali samarali pedagogik qarorlar qabul qilish kompetensiyasini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari.// Inter education & global study. 2025. №12. B.333–341.

# ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ У СТУДЕНТОВ-ФИЛОЛОГОВ КОМПЕТЕНЦИИ ЭФФЕКТИВНОГО ПРИНЯТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ ПУТЕМ РАЗВИТИЯ РЕФЛЕКСИВНОГО МЫШЛЕНИЯ

©Д.Р. Жураева[1]✉
[1]Наманганский государственный университет, Наманган, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в современных условиях подготовки студентов-филологов востребованы не только предметные знания и методические умения, но и компетенция принятия педагогических решений. Принятие решения выступает сложным когнитивным процессом, в котором рефлексия обеспечивает аналитическую и прогностическую основу. Концепции Dewey и Schön используются для раскрытия связи между опытом, анализом действий и улучшением педагогической практики.

**ЦЕЛЬ:** цель исследования — определить теоретические основания и практические механизмы формирования компетенции педагогического решения у студентов-филологов посредством системного развития рефлексивного мышления. Дополнительно ставится задача обосновать методические условия внедрения рефлексивных практик в учебный процесс.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** применена интеграция качественных и количественных методов: интервью и фокус-группы для анализа педагогических ситуаций и механизмов принятия решений, а также тестирование и анкетирование для фиксации динамики компетенции. В качестве экспериментальных средств использованы «рефлексивный журнал» и «симуляция педагогических ситуаций», дополненные метакогнитивными процедурами самооценки. Это обеспечило системное изучение изменений в рефлексивной активности и качестве решений.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты показали, что системное развитие рефлексивного мышления повышает способность студентов анализировать сложные педагогические случаи, сопоставлять альтернативы и выбирать оптимальные стратегии. В обсуждении сопоставлены подходы Farrell

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

(стадийная рефлексия) и Schön (reflection-in-action / reflection-on-action); их синтез рассматривается как наиболее продуктивный для формирования осознанного решения в реальном времени и при последующем анализе.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** развитие рефлексивного мышления подтверждено как ключевое условие формирования компетенции эффективного педагогического решения у студентов-филологов. Комбинация рефлексивного журнала, симуляции, интервью и диагностических инструментов укрепляет метакогнитивные навыки, самооценку и профессиональную идентичность. Практическая значимость исследования состоит в возможности системного внедрения рефлексивных методов в подготовку будущих педагогов на филологических факультетах.

**Ключевые слова:** рефлексивное мышление, принятие педагогических решений, компетенция, студенты-филологи, рефлексивный журнал, симуляция, метакогнитивные навыки, профессиональное развитие.

**Для цитирования**: Жураева Д. Р. Теоретические и практические аспекты формирования у студентов-филологов компетенции эффективного принятия педагогических решений путем развития рефлексивного мышления.// Inter education & global study.2025. №12. С. 333–341.

## THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF PHILOLOGICAL STUDENTS' COMPETENCE FOR EFFECTIVE PEDAGOGICAL DECISION-MAKING THROUGH THE DEVELOPMENT OF REFLEXIVE THINKING

©Dilnoza.R. Jo'rayeva [1]✉
[1]Namangan State University, Namangan, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** in contemporary teacher education, philology students require not only disciplinary knowledge and methodological skills but also competence in making well-grounded pedagogical decisions. Decision-making is treated as a complex cognitive process in which reflection provides analytical and predictive support. The paper builds on Dewey's and Schön's perspectives to frame reflection as a bridge between experience, analysis of action, and improved practice.

**AIM:** the study aims to identify the theoretical foundations and practical mechanisms for shaping pedagogical decision-making competence in philology students by systematically developing reflective thinking. It also seeks to justify methodological conditions for integrating reflective practices into the learning process.

**MATERIALS AND METHODS:** a mixed-methods design was applied, combining qualitative tools (interviews and focus groups) with quantitative instruments (tests and questionnaires) to track competence development. As experimental techniques, reflective journals and simulated pedagogical scenarios were implemented,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

complemented by metacognitive self-assessment procedures. This integrated approach enabled a structured examination of changes in reflective activity and decision quality.

**DISCUSSION AND RESULTS:** findings indicate that systematic development of reflective thinking significantly strengthens students' ability to analyze complex pedagogical situations, weigh alternatives, and choose optimal solutions. The discussion contrasts Farrell's staged framework of reflection with Schön's reflection-in-action and reflection-on-action, arguing that their synthesis supports both real-time decision-making and retrospective improvement.

**CONCLUSION:** the results confirm reflective thinking as a key condition for developing effective pedagogical decision-making competence in philology students. The combined use of reflective journals, simulations, interviews, and diagnostic measures reinforces metacognitive skills, self-evaluation, and professional identity. Practically, the study provides a methodological basis for systematically implementing reflective methods in philology-based teacher education programs.

**Keywords:** reflective thinking, pedagogical decision-making, competence, philology students, reflective journal, simulation, metacognitive skills, professional development.

**For citation**: Dilnoza R. Jo'rayeva. (2025) 'Theoretical and practical aspects of the formation of philological students' competence for effective pedagogical decision-making through the development of reflexive thinking', Inter education & global study, (12), pp. 333–341. (In Uzbek).

**Z**amonaviy pedagogik nazariyalar va amaliyotda talabalarning professional kompetensiyalarini shakllantirish masalasi o'ta dolzarb bo'lib, ayniqsa filologiya yo'nalishi talabalarining didaktik va metodik tayyorgarligi kontekstida o'rganilishi lozim. Pedagogik qarorlar qabul qilish – bu murakkab kognitiv jarayon bo'lib, unda talabalar o'zining refleksiv fikrlash qobiliyatlarini faollashtirib, o'rganish jarayonida yuzaga kelgan vaziyatlarni tahlil qiladi, baholaydi va samarali yechimlar ishlab chiqadi. Shu nuqtai nazardan, refleksiv fikrlashni rivojlantirish pedagogik jarayonda talabalar shaxsiy va professional rivojlanishini tizimli ravishda qo'llab-quvvatlashning asosiy omillaridan biri sifatida ko'riladi[1]. Refleksiv fikrlash kontseptsiyasi XIX–XX asrlarda pedagogika, psixologiya va epistemologiya sohalarida shakllangan bo'lib, u talabaning o'z o'rganish jarayonini, bilim olish usullarini va o'z faoliyati natijalarini tizimli ravishda tahlil qilish qobiliyatini anglatadi[2]. Filologiya talabalarining ilmiy-pedagogik faoliyatida refleksiv yondashuvlar talabalarning lingvistik, madaniy va didaktik bilimlarini o'zlashtirish, shuningdek, murakkab pedagogik vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qilishga imkon yaratadi. Shu sababli, refleksiv fikrlashni o'qitish jarayoniga integratsiya qilish talabalarni faqat bilim egasi sifatida emas, balki mustaqil fikrlaydigan va pedagogik faoliyatda ongli qarorlar qabul qila oladigan subyekt sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogik qarorlar qabul qilish kompetensiyasi o'z ichiga talabaning vaziyatni baholash, alternativ

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

variantlarni ko‘rib chiqish, ularning natijalarini prognoz qilish va eng optimal yechimni tanlash qobiliyatini oladi. Filologiya yo‘nalishi talabalarining bu kompetensiyani shakllantirishda refleksiv fikrlashning roli juda katta, chunki u til, adabiyot va madaniyat bilan bog‘liq murakkab vaziyatlarda tezkor va asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, refleksiv yondashuvlar orqali talabalar o‘z pedagogik faoliyatini muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar[3]. Shuningdek, zamonaviy pedagogika va kognitiv psixologiya sohalarida olib borilgan tadqiqotlar refleksiv fikrlashning ijtimoiy va professional ahamiyatini ochib beradi. Misol uchun, Schön (1983) talabalarning “amaliy refleksiya” orqali o‘z tajribasini tizimli qayta ko‘rib chiqishi pedagogik qarorlarni samarali qabul qilishga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Dewey (1933) esa refleksiv fikrlashni bilim va amaliyotni uyg‘unlashtirish vositasi sifatida ko‘radi va uni o‘quv jarayonining ajralmas qismi deb biladi. Shu nuqtai nazardan, filologiya talabalarining pedagogik kompetensiyalarini shakllantirishda refleksiv yondashuvlarni tizimli ravishda qo‘llash zaruriyati ortib bormoqda. Maqolada keltirilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, refleksiv fikrlashni rivojlantirish jarayonida talabalar nafaqat o‘z bilimlarini mustahkamlaydi, balki murakkab pedagogik vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qilishga tayyorlanadi[4]. Bu jarayon, o‘z navbatida, talabalarni o‘z-o‘zini baholash, metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish va pedagogik tajribalarni tizimli tahlil qilish orqali professional yetuklikka erishish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, refleksiv fikrlashni rivojlantirish filologiya talabalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, interaktiv metodlarni va innovatsion o‘qitish usullarini samarali qo‘llashga yo‘naltiradi. Natijada, talabalar nafaqat o‘quv jarayonida, balki kelajakdagi pedagogik faoliyatida mustaqil, tanqidiy fikrlovchi va qaror qabul qilishda ongli subyekt sifatida shakllanadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi filologiya yo‘nalishi talabalari o‘rtasida refleksiv fikrlashni rivojlantirish orqali pedagogik qarorlar qabul qilish kompetensiyasini shakllantirishning nazariy va amaliy mexanizmlarini aniqlashdan iborat[5]. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: birinchidan, refleksiv fikrlash kontseptsiyasini filologiya talabalarining professional tayyorgarligi kontekstida tahlil qilish; ikkinchidan, pedagogik qaror qabul qilish jarayonidagi refleksiv yondashuvlarning samaradorligini aniqlash; uchinchidan, o‘quv jarayonida refleksiv fikrlashni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish. Natijada, maqola filologiya yo‘nalishi talabalari 337edagogic tayyorgarligi jarayonida refleksiv fikrlashning nazariy asoslarini, metodologik yondashuvlarini va amaliy imkoniyatlarini tizimli yoritib beradi, bu esa zamonaviy jarayonlarda samarali qarorlar qabul qilishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili: Chet el olimlari tomonidan refleksiv fikrlash (reflective thinking reflective practice) va pedagogik tayyorgarlik kontekstida olib borilgan tadqiqotlar filologiya yo‘nalishidagi talabalar hamda til-o‘qituvchilar (language teachers pre-service teachers) nuqtai nazaridan pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishda muhim nazariy va metodologik vosita ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Thomas S. C. Farrell va Donald

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

Schön (va tarixiy ildiz sifatida John Dewey) tadqiqotlari refleksiv yondashuvning konseptual asoslarini belgilagan. Farrell til o‘qitish (language teaching TESOL) kontekstida refleksiv amaliyotni aniqlashtirish va operationalizatsiya qilishga bag‘ishlangan bir qancha ishlarda refleksiv pedagog sifatida o‘qituvchilar kompetensiyasini shakllantirish uchun sistematik ramka taklif etadi. Masalan, uning “five-stage framework for reflecting on practice” modeli — “Philosophy, Principles, Theory-of-Practice, Practice va Beyond Practice” darajalarini o‘z ichiga oladi[6]. Bu model til o‘qituvchilarga nafaqat o‘qitish jarayonidagi metodik masalalarni tahlil qilish, balki o‘z pedagogik identiteti, nazariy ishonchlari va amaliy qarorlarini uzviy refleksiyaga asoslash imkoniyatini beradi. Schön esa — o‘qituvchi (va pedagog) professional subyekt sifatida “reflective practitioner” tushunchasini ilgari surdi, bunda u “reflection-in-action” (harakat davomida refleksiya) va “reflection-on-action” (harakat tugagach refleksiya) degan ikki modda orqali amaliy didaktik vaziyatlarda real vaqt rejimida ham, retrospektiv tahlil darajasida ham ongli fikrlashning zarurligini ta’kidladi. Ushbu yondashuvlar jamiyati til va pedagogika o‘qituvchilari (xususan, EFL / TESOL kontekstidagi) professional rivojlanishini rafinanlashtirishga yordam beradi, chunki refleksiv amaliyot orqali ular o‘z metodik harakatlarini qayta ko‘rib chiqadi, o‘z pedagogik qarorlarini ma’lum nazariy va amaliy asosga yo‘naltiradi, hamda mashg‘ulot samaradorligini oshiradi[7]. Bundan tashqari, sifatli pedagog tayyorgarlik doirasida refleksiv fikrlash — nafaqat metodik jihatdan, balki meta-kognitiv, qiymatga oid va identitetga oid qirralarni ham qamrab oladi. Farrell o‘z intervyularida, refleksiya faqat texnik rationalizm emas, balki “shaxs + pedagog” subyektining ichki hayoti, uning e’tiqodlari, qarashlari, pedagogik identiteti — bularning ham muhimligini ta’kidlaydi. Shuningdek, oxirgi yillarda olib borilgan tadqiqotlar refleksiv amaliyotni faqat individual refleksiya darajasida emas, balki kollegial refleksiya, guruh muhokamasi, sinfdan tashqari reflektiv pedagogik jurnallar, hamda hamkasblar bilan tajriba almashish orqali rivojlantirish mumkinligini ko‘rsatdi[8]. Bu esa, til o‘qituvi va filologiya yo‘nalishidagi talabalar (kelajak pedagoglar) uchun refleksiv kompetensiyani shakllantirishda yangi pedagogik tashabbus va metodlarni qo‘llashga zamin yaratadi. Shunday qilib, Farrell va Schön kabi chet ellik olimlar tomonidan ishlab chiqilgan konseptual va metodologik yondashuvlar filologiya yo‘nalishidagi pedagogik tayyorgarlik jarayonida refleksiv fikrlash va pedagogik qarorlar qabul qilish kompetensiyasini shakllantirish uchun mustahkam nazariy asos va amaliy model taqdim etadi.

Metodologik qism: Ushbu tadqiqotda filologiya yo‘nalishi talabalari o‘rtasida refleksiv fikrlashni rivojlantirish orqali pedagogik qarorlar qabul qilish kompetensiyasini shakllantirishni o‘rganish uchun bir nechta uzviy bog‘langan metodlardan foydalanildi. Avvalo, sifatli tadqiqot metodlari doirasida intervyu va fokus-guruh suhbatlari orqali talabalar refleksiv fikrlash jarayonida duch keladigan pedagogik vaziyatlar va ularning qaror qabul qilish mexanizmlari tahlil qilindi. Shu bilan birga, eksperimental metod sifatida “refleksiv jurnal” va “pedagogik vaziyatlarda simulyatsiya” yondashuvlari qo‘llanildi, bunda talabalar real yoki model vaziyatlarda pedagogik qarorlar qabul qilib, ularning refleksiv

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

tahlilini olib bordi.Kvantitativ metodologiya elementlari sifatida testlar va so‘rovnomalar ishlatildi, ular orqali talabalar refleksiv fikrlash darajasi va pedagogik qaror qabul qilish kompetensiyasining o‘sish tendensiyasi statistik jihatdan aniqlash imkoniyati yaratildi. Shu bilan birga, tadqiqotda metakognitiv yondashuvlar va o‘z-o‘zini baholash metodlari integratsiya qilindi, bu talabalarni o‘z pedagogik qarorlarini va refleksiv faoliyatini tizimli tahlil qilishga yo‘naltirdi. Ushbu metodologik yondashuvlar majmuasi — sifatli va miqdoriy metodlarni kombinatsiya qilish orqali, talabalar pedagogik qarorlar qabul qilish jarayonida refleksiv fikrlashni shakllantirish mexanizmini ilmiy asoslangan va tizimli tarzda o‘rganish imkonini berdi. Shu tariqa, tadqiqotda refleksiv fikrlashning pedagogik qarorlar qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishdagi samaradorligi metodologik jihatdan uzviy va ilmiy asoslangan holda yoritildi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, filologiya yo‘nalishi talabalari o‘rtasida refleksiv fikrlashni tizimli ravishda rivojlantirish pedagogik qarorlar qabul qilish kompetensiyasining sezilarli darajada oshishiga olib keldi; talabalar murakkab pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, alternativ yechimlarni baholash va eng optimal strategiyalarni tanlashda yuqori darajada metakognitiv ong ko‘rsatdilar, shu bilan birga refleksiv jurnal, intervyu va simulyatsiya metodlari orqali olingan ma’lumotlar ularning pedagogik amaliyotga tayyorgarligini mustahkamlash va qaror qabul qilish jarayonida ongli yondashuvni rivojlantirish imkonini berdi.

Muxokama: Filologiya yo‘nalishi talabalari o‘rtasida refleksiv fikrlashni rivojlantirish va pedagogik qarorlar qabul qilish kompetensiyasini shakllantirish masalasida chet ellik olimlar orasida qiziqarli polemikalar mavjud. Thomas S. C. Farrell va Donald Schön refleksiv amaliyotning pedagogik samaradorlikdagi rolini turlicha yoritadilar. Farrell o‘z tadqiqotlarida refleksiv fikrlashni tizimli va bosqichma-bosqich rivojlantirishga urg‘u beradi; u til o‘qituvchilarini faqat amaliy tajribaga tayanmasdan, balki nazariy asoslarni ham chuqur o‘rganishga chaqiradi. Unga ko‘ra, pedagogik qarorlar qabul qilish jarayonida o‘qituvchi refleksiya orqali nafaqat metodik xatolarni aniqlaydi, balki o‘z pedagogik identitetini shakllantiradi, bu esa professional kompetensiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Farrell refleksiv jarayonni besh bosqichda — Philosophy, Principles, Theory-of-Practice, Practice va Beyond Practice — rivojlantirishni taklif qiladi, bu esa talabalar uchun kompleks pedagogik vaziyatlarda ongli qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. Boshqa tomondan, Schön refleksiv amaliyotni ikki asosiy turga — reflection-in-action va reflection-on-action — ajratadi. Unga ko‘ra, pedagogik qarorlar real vaqt rejimida, ya’ni dars davomida ham refleksiya orqali shakllanadi, shuningdek, dars yakunida retrospektiv tahlil yordamida mustahkamlanadi. Schön talabalarning va o‘qituvchilarning harakat davomida yuzaga kelgan pedagogik muammolarni tezkor tahlil qilish qobiliyati refleksiv fikrlashni samarali shakllantirish uchun eng muhim vosita ekanligini ta’kidlaydi. Farrell va Schön yondashuvlari o‘rtasidagi farq — asosan refleksiv jarayonni tizimli metodologik model sifatida ko‘rish va uni amaliy kontekstda — real vaqt va retrospektiv tarzda qo‘llashga bog‘liq. Farrell metodologik tizimga urg‘u berib, pedagogik qarorlar qabul qilishni nazariy va amaliy asosda uyg‘unlashtiradi[9]; Schön

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

esa real vaqtda qaror qabul qilish jarayonidagi dinamik refleksiyaga e'tibor qaratadi. Shu bilan birga, ikkalasi ham refleksiv fikrlashning talabalarning pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rni muhimligini tan oladi va uni amaliy faoliyatga integratsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi[10]. Ushbu polemikadan kelib chiqqan holda, filologiya talabalari pedagogik tayyorgarlik jarayonida refleksiv fikrlashni rivojlantirish uchun har ikki yondashuvni uyg'unlashtirish tavsiya etiladi: tizimli bosqichma-bosqich refleksiya Farrell modeli yordamida shakllantiriladi, real vaqt va retrospektiv refleksiya esa Schön tamoyillari asosida qo'llaniladi. Shu tarzda, talabalar nafaqat pedagogik qarorlar qabul qilishda ongli subyektga aylanadi, balki murakkab vaziyatlarda mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, bu esa zamonaviy filologik pedagogik jarayonda samaradorlikni oshirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Xulosa: Ushbu tadqiqot filologiya yo'nalishi talabalari o'rtasida refleksiv fikrlashni rivojlantirish orqali pedagogik qarorlar qabul qilish kompetensiyasini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, refleksiv fikrlash talabalarga murakkab pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, alternativ yechimlarni baholash va eng optimal qarorlarni qabul qilishda yuqori darajada metakognitiv ongni rivojlantirish imkonini beradi. Adabiyotlar tahlili chet ellik olimlar Farrell va Schön tomonidan ishlab chiqilgan konseptual va metodologik yondashuvlar filologiya talabalari pedagogik tayyorgarligida refleksiv amaliyotning samaradorligini mustahkamlashga xizmat qilishi aniqlangan. Metodologik jihatdan, sifatli va kvantitativ metodlarning uzviy integratsiyasi (intervyu, fokus-guruh, refleksiv jurnal, simulyatsiya va so'rovnomalar) talabalar pedagogik qarorlar qabul qilish kompetensiyasini tizimli rivojlantirishga imkon yaratdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, refleksiv fikrlashni amaliyotga tatbiq etish orqali talabalar o'z pedagogik identitetini shakllantiradi, o'z-o'zini baholash va metakognitiv ko'nikmalarini mustahkamlaydi, shu bilan birga pedagogik jarayonlarda ongli va samarali qarorlar qabul qilishga tayyorlanadi. Muxokama bo'limida ta'kidlanganidek, Farrell va Schön yondashuvlarining uyg'unlashuvi filologiya talabalari uchun eng maqbul strategiya bo'lib, unda tizimli refleksiya va real vaqt refleksiyasi birgalikda qo'llanadi. Shu tarzda, talabalar nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtiradi, balki pedagogik faoliyatda mustaqil, tanqidiy va ongli subyekt sifatida shakllanadi. Natijada, filologiya yo'nalishi talabalari pedagogik tayyorgarlik jarayonida refleksiv fikrlashni rivojlantirish samaradorligi aniqlandi, bu esa ularning pedagogik qarorlar qabul qilish kompetensiyasini mustahkamlash va zamonaviy o'qitish jarayonida yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, u filologiya fakultetlarida o'qitish jarayonida refleksiv metodlarni tizimli joriy etish va talabalarni professional tayyorgarlik darajasini oshirishga yo'naltirilgan strategiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

1. Djurayeva L. R. Talabalarda pedagogik ko ‘nikmalarni takomillashtirishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning amaliy asoslari //Inter education & global study. – 2025. – №. 4. – С. 475-482.
2. Xamidovna P. O. Talabalarda nutq madaniyati rivojlantirishda tanqidiy fikrlash kompeensiyasining ahamiyati //Журнал научных исследований и их решений. – 2025. – Т. 4. – №. 02. – С. 546-549.
3. Kubeysinova N. Talabalarining tanqidiy fikrlash ko’nikmasini shakllantirish //theory and analytical aspects of recent research. – 2024. – Т. 3. – №. 26. – С. 164-170.
4. Kenjaboyev A., Kenjaboyeva D. Pedagogik deontologiya va kompetentlik //Termiz: Surxon-nashr nashrmatbaa. – 2022.
5. Yoldasheva R. Talabalarda refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari //Наука и инновация. – 2025. – Т. 3. – №. 19. – С. 133-136.
6. Urazimbetov A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o ‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish //Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2025. – Т. 3. – №. 8.
7. Jumayev S. O ‘quvchilarning tanqidiy fikrlash salohiyatini aniqlashda PISA topshiriqlari asosida diagnostika metodikasi //Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2025. – Т. 3. – №. 8.
8. Ahmadjonova D. O ‘zbekiston maktablarida ingliz tili darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: yuqori sinflarda eksperimental tadqiqot dizayni //Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2025. – Т. 3. – №. 8.
9. Abrami P.C. et al. Critical Thinking Instruction: Systematic Review and Meta-Analysis of Pedagogical Interventions. – New York: Springer, 2020. – 410 p
10. Brookhart S.M. Assessing Higher-Order Thinking in the Classroom. – London: Routledge, 2022. – 289 p.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Jo'rayeva Dilnoza Ro'zimat qizi**, tadqiqotchi[**Жураева Дилноза Розимат кизи**, исследователь,], [**Jo'rayeva R.Dilnoza** researcher,]; manzil: 160107, Boburshox ko'chasi, 161-uy, [адрес: 160107, ул. Бабуршох, д. 161], [address: 160107, 161 Babur shox Street]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

Original paper

# TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA STARTUP LOYIHALARINING O‘RNI

© O. O . Karimov [1]✉

[1]Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida texnologiya fani o‘qituvchisidan ijodkorlik, tashabbuskorlik va loyihaviy fikrlash talab etiladi. Shu bois startap loyihalarini o‘quv jarayoniga kiritish texnologik ta’lim mazmunini yangilashning muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

**MAQSAD:** texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda startap loyihalarining pedagogik imkoniyatlarini asoslash hamda ular orqali shakllanadigan kasbiy kompetensiyalarni qisqacha tavsiflash.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda normativ hujjatlar, ilmiy manbalar tahlili, texnologik ta’lim amaliyoti kuzatuvi va startap asosidagi o‘quv loyihalarini umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Startap loyihalarining bosqichma-bosqich tashkil etilishi va talaba faoliyatiga ta’siri tahlil qilindi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** startap loyihalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish talabalarda texnik-texnologik, metodik, axborot-kommunikatsion, ijodiy va kommunikativ kompetensiyalarni kompleks rivojlantirishi aniqlandi. Loyihaviy va startap faoliyati orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda bozor tahlili, jamoada ishlash va innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo‘llash ko‘nikmalari shakllanadi.

**XULOSA:** startap loyihalari texnologiya fani o‘qituvchilarini zamonaviy mehnat bozori va raqamli iqtisodiyot talablariga mos, ijodkor va raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlashning samarali vositasidir. Ularni o‘quv rejalari va amaliy mashg‘ulotlarga tizimli kiritish kasbiy mahoratni oshirish va ta’lim sifati yaxshilanishiga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** texnologiya, startap loyiha, innovatsion ta’lim, texnik-texnologik kompetensiya, metodik kompetensiya, axborot-kommunikatsion kompetensiya, ijodkorlik, raqamli iqtisodiyot, loyiha faoliyati, kasbiy mahorat.

**Iqtibos uchun**: Karimov O. O. Texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda startup loyihalarining o‘rni.// Inter education & global study. 2025. №12. B.342–348.

## РОЛЬ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ПОДГОТОВКЕ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИИ

©О. О. Каримов[1]✉

[1]Джизакский государственный педагогический университет, Джизак, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в условиях глобализации и цифровой экономики от учителя технологии требуется креативность, инициативность и развитое проектное мышление. Поэтому включение стартап-проектов в содержание технологического образования рассматривается как важное направление его модернизации.

**ЦЕЛЬ:** теоретически обосновать педагогический потенциал стартап-проектов в подготовке учителей технологии и кратко охарактеризовать формируемые при этом профессиональные компетенции.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** исследование опиралось на анализ нормативных документов, научно-методической литературы, наблюдение за практикой технологического образования и обобщение опыта учебных стартап-проектов. Рассмотрены этапы их реализации и влияние на учебно-профессиональную деятельность студентов.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** установлено, что интеграция стартап-проектов способствует комплексному развитию технико-технологической, методической, информационно-коммуникационной, творческой и коммуникативной компетенций будущих учителей. Проектная и стартап-деятельность формирует навыки анализа рынка, работы в команде и применения инновационных педагогических технологий.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** стартап-проекты являются эффективным средством подготовки конкурентоспособных учителей технологии, отвечающих требованиям рынка труда и цифровой экономики. Их систематическое включение в учебные планы и практические занятия способствует росту профессионального мастерства и повышению качества образования.

**Ключевые слова:** технология, стартап-проект, инновационное образование, технико-технологическая компетенция, методическая компетенция, информационно-коммуникационная компетенция, креативность, цифровая экономика, проектная деятельность, профессиональное мастерство.

**Для цитирования**: Каримов.О. О. Роль стартап-проектов в подготовке учителей технологии.// Inter education & global study.2025. №12. С. 342–348.

## THE ROLE OF STARTUP PROJECTS IN TECHNOLOGY TEACHER TRAINING

© Orif.O. Karimov [1]✉
[1]Jizzakh State Pedagogical University, Jizzakh, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** in the context of globalization and the digital economy, technology teachers are expected to demonstrate creativity, initiative and project-based thinking. Therefore, incorporating startup projects into technological education is seen as an important direction of its modernization.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

**AIM:** to substantiate the pedagogical potential of startup projects in the training of technology teachers and to briefly describe the professional competencies formed through this approach.

**MATERIALS AND METHODS:** the study is based on the analysis of policy documents, scientific and methodological literature, observation of technological education practice, and generalization of experience with educational startup projects. The stages of their implementation and their influence on students' learning and professional activity were examined.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the findings show that integrating startup projects fosters comprehensive development of technical-technological, methodological, information-communication, creative and communicative competences of future teachers. Project and startup activities build skills in market analysis, teamwork and the use of innovative teaching methods.

**CONCLUSION:** startup projects serve as an effective tool for preparing competitive technology teachers who meet the demands of the labour market and the digital economy. Their systematic inclusion in curricula and practical training enhances professional skills and contributes to improving the quality of education.

**Keywords:** technology, startup project, innovative education, technical-technological competence, methodological competence, information and communication competence, creativity, digital economy, project activity, professional skills.

**For citation**: Orif. O. Karimov. (2025) 'The role of startup projects in technology teacher training', Inter education & global study, (12), pp. 342–348. (In Uzbek).

**M**amlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratish, oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, zamonaviy o'quv-ilmiy laboratoriyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash bo'yicha Oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi[1]. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi[2].

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son qarori

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi 5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

Bugungi globallashuv jarayonlari, raqamli iqtisodiyotning tezkor rivoji, mehnat bozori talablarining dinamik o‘zgarishi ta’lim tizimi oldiga tamoman yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Hozirgi davr shuni ko‘rsatmoqdaki, maktab bitiruvchisi faqat tayyor bilimlarga ega bo‘lishi yetarli emas, balki u o‘zida mustaqil fikrlash, muammoni yechish, kreativ yondashish, axborotni tahlil qilish va undan maqsadga muvofiq foydalanish kabi kompetensiyalarni namoyon eta olishi lozim. Shu sababli umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan “Texnologiya” fani nafaqat texnik ko‘nikmalarni shakllantiruvchi amaliy fan sifatida, balki o‘quvchini kundalik faoliyatga, ishlab chiqarish jarayonlariga va zamonaviy texnologiyalarga moslashtiruvchi innovatsion ta’lim sohasi sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Texnologiya fani o‘qituvchisining vazifasi faqat buyum yasash, mashg‘ulot o‘tkazish yoki ustaxonada dars tashkil etish bilan cheklanmaydi. U o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kasbiy qiziqishni uyg‘otish, mehnat madaniyati, tejamkorlik, tashabbuskorlik va mas’uliyatlilik kabi shaxsiy sifatlarni shakllantirishi zarur. Bugungi kun talabi shuki, texnologiya fani o‘qituvchisi o‘quvchini nafaqat ma’lum bir kasbga yo‘naltiradi, balki uni kelajakda yangi kasblarni o‘zlashtirishga, yangilik yaratishga, startap tashabbuslari bilan jamiyatga foyda keltirishga tayyorlaydi.

“Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni o‘tmish qoldiqlaridan tozalash va rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga ko‘tarish, jamiyat ravnaqi uchun yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash ta’lim tizimi xodimlarining umumiy vazifasidir”[3].

Shu nuqtai nazardan qaraganda, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida startap loyihalarini o‘quv dasturiga integratsiya qilish dolzarb va samarali pedagogik yondashuv hisoblanadi. Startap loyihalari talabalarni real hayotga yaqin bo‘lgan muammolarni aniqlash, ularni tahlil qilish, yechim ishlab chiqish, prototip yaratish va uni hayotga tatbiq etish jarayonlariga jalb etadi. Bu esa o‘quv jarayonida nazariya va amaliyot birligiga erishish, o‘rgangan bilimlarning aniq natijaga aylanishi, o‘qituvchilik kasbining innovatsion jihatlarini kuchaytirish imkonini beradi.

Startap loyihalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda:

- ✓ tadqiqotchilik faoliyati;
- ✓ ijodiy loyihalash;
- ✓ loyihani rejalash va boshqarish;
- ✓ jamoada ishlash va yetakchilik;
- ✓ bozor tahlili va iqtisodiy hisob-kitoblar;
- ✓ innovatsion pedagogik metodlarni qo‘llash kabi zamonaviy pedagogik va iqtisodiy kompetensiyalar shakllanadi.

Demak, startap loyihalarini texnologik ta’limga tatbiq etish bu shunchaki qo‘shimcha mashg‘ulot emas, balki ta’lim mazmunini modernizatsiya qiluvchi, bo‘lajak

Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni

3 Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo‘ysinov O.A. Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi, kasb tanlashga yo‘llash. Darslik. – T.: TDPU, 2014.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

o‘qituvchini zamonaviy ishlab chiqarish va raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtiruvchi strategik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Startap bu yangi, innovatsion g‘oya yoki muammoning o‘ziga xos yechimiga asoslangan, real bozorga yo‘naltirilgan, iqtisodiy qiymatga ega mahsulot, xizmat yoki texnologiyani yaratish jarayonidir. Startap odatiy biznesdan farqli o‘laroq, aniq shakllanib bo‘lmagan, lekin rivojlanish va kengayish salohiyatiga ega bo‘lgan loyiha bo‘lib, unda tajriba, tahlil, prototiplash va bozor sinovlari muhim o‘rin tutadi. Ta’lim jarayonida startaplar bilan ishlash bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini kundalik hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga, mavjud resurslardan oqilona foydalanishga, jamoa bilan uyg‘un hamkorlikda faoliyat yuritishga o‘rgatadi.

Startap loyihasi ustida ishlash jarayonida talaba:

- ✓ muammoni aniqlaydi va uni asoslaydi;
- ✓ ehtiyoj va iste’molchilar auditoriyasini tahlil qiladi;
- ✓ g‘oyani konsepsiya darajasiga keltiradi;
- ✓ birinchi namunaviy mahsulot (prototip) yaratadi;
- ✓ prototipni sinovdan o‘tkazadi, xatolarni tahlil qiladi va takomillashtiradi;
- ✓ mahsulotni himoya qiladi, taqdim qiladi va bozorga joriy etish yo‘llarini ishlab chiqadi.

Bu jarayon davomida talaba nafaqat texnik bilim va amaliy ko‘nikmalarni chuqurlashtiradi, balki iqtisodiy fikrlash, boshqaruv, kommunikatsiya va marketing kompetensiyalarini ham egallaydi. Shuningdek, startap faoliyati o‘quvchini yangilik yaratishga, tashabbuskorlikka, ijodkorlik va mas’uliyat bilan ish yuritishga yo‘naltiradi. Natijada, startap loyihalari texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda nafaqat kasbiy mahoratni oshiradi, balki kelajak ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvni olib kirishga yordam beradi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi[4].

Texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida startap loyihalarini qo‘llash nafaqat amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi, balki kasbiy kompetensiyalar majmuasini shakllantiruvchi samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu kompetensiyalar o‘qituvchining kelajakdagi faoliyatida innovatsion, ijodkor va raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Texnik-texnologik kompetensiya

Bu kompetensiya o‘qituvchining turli texnik vositalar, materiallar va ishlab

4 N.Muslimov, O.Qo’ysinov Bo`lajak o`qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi. Toshkent 2014

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

chiqarish jarayonlarini chuqur bilishiga asoslanadi. Startap loyihalari orqali talaba mahsulotni loyihalash, texnik chizma tayyorlash, prototip yaratish, 3D modellashtirish, Arduino, CNC, payvandlash, yog‘och va metall bilan ishlash kabi amaliy jarayonlarni o‘zlashtiradi. Natijada, u texnologik muammolarga amaliy yechim topa oladigan, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishga qodir mutaxassis sifatida shakllanadi.

Metodik kompetensiya

Metodik kompetensiya o‘qituvchining o‘quv jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish, darsni loyihalash, o‘quv materiallarini tanlash, baholash mezonlarini ishlab chiqish va ta’limni innovatsion metodlar asosida tashkil etish qobiliyatini bildiradi. Startap faoliyati orqali talaba loyihaviy yondashuv, muammoli ta’lim, “Design Thinking” (dizaynerlik fikrlash) va “Project-based learning” (loyihaga asoslangan ta’lim) metodlarini amaliyotda qo‘llashni o‘rganadi. Bu esa uni kelajakda o‘quvchilarga ham shunday faol va ijodiy metodlarda ta’lim berishga tayyorlaydi.

Axborot-kommunikatsion kompetensiya

Raqamli asrda o‘qituvchining eng zarur kompetensiyalaridan biri bu axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishdir. Startap loyihalari jarayonida talaba axborot resurslari bilan ishlash, internet orqali ma’lumot izlash, ma’lumotlarni qayta ishlash, grafik dizayn dasturlaridan foydalanish, 3D modellash va virtual taqdimotlar tayyorlashni o‘rganadi. Shuningdek, u o‘z g‘oyasini onlayn platformalarda ilgari surish, marketing materiallari yaratish, ijtimoiy tarmoqlarda loyihasini targ‘ib qilish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

Ijodkorlik va innovatsion kompetensiya

Startap loyihalarining eng muhim jihati bu ijodiy fikrlashni rag‘batlantirishidir. Talaba o‘z g‘oyasini yaratishdan tortib, uni amaliy mahsulotga aylantirishgacha bo‘lgan jarayonni boshdan kechiradi. Bu jarayon uning ixtirochilik, tashabbuskorlik, muammolarga noodatiy yechim topish va yangilik yaratish salohiyatini kuchaytiradi. Natijada, o‘qituvchi sifatida u o‘quvchilarni ham kreativ va innovatsion fikrlashga unday oladi.

Kommunikativ kompetensiya

Startap jarayonining ajralmas qismi bu jamoada ishlash, muloqot qilish va o‘z fikrini asosli himoya qila olishdir. Talabalar startap loyihalarida guruh bo‘lib ishlash orqali liderlik, tinglash, muzokara yuritish, taqdimot qilish va ijtimoiy mas’uliyat bilan faoliyat yuritish ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Bu kompetensiya kelajakda o‘qituvchining o‘quvchilar, hamkasblar va ota-onalar bilan samarali pedagogik muloqot o‘rnatishida muhim ahamiyat kasb etadi. Startap loyihalari o‘quv jarayonida nafaqat amaliy faoliyatni jonlantiradi, balki bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisining kasbiy mahoratini kompleks tarzda rivojlantiradi. U texnik, metodik, axborot, innovatsion va kommunikativ kompetensiyalarni o‘zida mujassam etgan, ta’lim tizimining yangi talablariga mos kadr sifatida shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, startap loyihalarini texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoniga tatbiq etish bu ta’lim mazmunini zamonaviy iqtisodiy, texnologik va

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

ijtimoiy rivojlanish talablari bilan uyg‘unlashtiruvchi samarali yondashuvdir. Ushbu yondashuv o‘quv jarayonini an’anaviy reproduktiv o‘qitish modelidan chiqarib, uni faol, natijaga yo‘naltirilgan va amaliy tajribaga asoslangan shaklga keltiradi. Startap loyihalari orqali talabalarda faqat texnik yoki ishlab chiqarish ko‘nikmalari emas, balki innovatsion fikrlash, iqtisodiy tahlil, muammoli vaziyatni hal etish, mustaqil qaror qabul qilish va jamoa bilan ishlash kabi XXI asr kompetensiyalari shakllanadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2909-son qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi 5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni
3. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo‘ysinov O.A. Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi, kasb tanlashga yo‘llash. Darslik. – T.: TDPU, 2014.
4. Muslimov N.A., Qo’ysinov O.A. Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi. Toshkent 2014
5. http://www.istedod.uz
6. http://www.pedagog.uz/
7. http://www.ziyonet.uz/

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Karimov Orif Obloqul o‘g‘li**, katta o‘qituvchisi (PhD) [**Каримов Ориф Облокул ўғли**, старший преподаватель (PhD)], [**Karimov O.Orif** Senior Lecturer (PhD)]; manzil: Rashidov ko ' chasi 4, 130100, Jizzax, Jizzax viloyati, [адрес: Ул. Рашидова 4, 130100, Джизак, Джизакская область], [address: Rashidova St. 4, 130100, Jizzakh, Jizzakh region.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

Original paper

# TALABALARDA ALGORITMIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MIKROXIZMATLARGA ASOSLANGAN BACKEND ARXITEKTURASI VA KOGNITIV ERGONOMIK DIZAYN ORQALI SHAXSGA MOS BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

© N.R. Kayumova [1]✉

[1]O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali, Jizzax, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** raqamli boshqaruv tizimlari real vaqt tahlili, murakkab ma’lumot oqimlari va moslashuvchan xizmatlar arxitekturasini talab qiladi. Mikroxizmatli yondashuv modullilik va skalalanish imkonini bersa, kognitiv ergonomika tamoyillari UI/UX samaradorligini oshirib, kognitiv yuklamani kamaytiradi. Shu asosda backend va UX integratsiyasi shaxsga yo‘naltirilgan boshqaruvning metodologik poydevori sifatida izohlanadi.

**MAQSAD:** tadqiqotning maqsadi — mikroxizmatli backend arxitekturasi va kognitiv ergonomik dizayn asosida shaxsga mos boshqaruv tizimini takomillashtirish, integratsion arxitektura modelini ishlab chiqish hamda uning texnik va ergonomik samaradorligini baholashdir.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda mikroxizmatlar arxitekturasi, RESTful API, konteynerizatsiya (Docker) va orkestratsiya (Kubernetes) yechimlari qo‘llanildi; xizmatlararo load balancing va service discovery mexanizmlari ishlatildi. UI/UX qismi kognitiv ergonomika tamoyillari asosida loyihalanib, eye-tracking, heatmap va usability testing orqali tahlil qilindi. Shaxsiylashtirish uchun AI va Data Analytics asosidagi profiling (Decision Tree, K-Means) yondashuvlari joriy etildi.

Ushbu maqolada ta’kidlangan qiyinchiliklarni bartaraf etishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish yaxshi samara berishi ko‘rsatilgan. Shu maqsadda kimyo fanida uglevod molekulalarining topologik xossalarini axborot texnologiyalarini qo‘llash asosida tadqiq etish orqali molekuladagi uglerodlar sonini, C-C-(uglerod-uglerod) aloqalari sonini hamda molekuladagi halqalar sonini aniqlash metodikasi keltirilgan. Qo‘yilgan masalani hal etish quyidagi fanlar orasidagi fanlararo bog‘liqli o‘rganish bilan bevosita bog‘liq deb hisoblash mumkin.

Ushbu bog‘liqlik 1-rasmda keltirilgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12




1-rasm. Uglerod molekulasining topologik xossalarini tadqiq etishda fanlararo bog‘liqlik sxemasi.



Fanlararo bog‘liqlikni axborot texnologiyalari asosida o‘rganishda kimyo fani o‘qituvchisi keltirilgan barcha fanlar bo‘yicha kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari mutlaqo talab etilmaydi, ular faqatgina qaralayotgan jarayonni xarakterlovchi parametrlarning kompyuter dasturiga kiritiladigan dastlabki qiymatlari haqida hamda dasturning amalga oshirilishi natijasida olinadigan parametrlarning qiymatlari va ularning mohiyati to‘g‘risida to‘liq tushunchalarga ega bo‘lishlari yetarli bo‘ladi. Bu maqolada kimyoviy moddalarning molekulyar aloqalari va valentlik strukturalari haqidagi klassik tushunchalarga tayanilgan holda, ularning topologik xossalarini fanlararo bog‘liqlik va axborot texnologiyalarini qo‘llash asosida tadqiq etish masalalari yoritiladi.

Uglerodli molekulalarning katta sinfi mavjudki, ular organik kimyoda muhim ahamiyat kasb etgan holda, sodda geometrik va elektron strukturaga ega bo‘ladi. Bu esa ular uchun faqat atomli aloqalarni xarakterlovchi matematik modellar tuzish imkoniyatini beradi. Ushbu molekulalar tekis ko‘rinishda bo‘lib, ular faqat uglerod atomlaridan tashkil topgan skeletlarga ega bo‘ladi. Har bir uglerod atomlari o‘ziga qo‘shni bo‘lgan uchta uglerod atomlari bilan shunday bog‘langan bo‘ladiki, bog‘lanishlar orasidagi burchak $120^o$ ni tashkil qiladi, bog‘lanishlar uzunligi esa deyarli bir xil bo‘ladi. Uglerod atomi bilan bog‘liq bo‘lmagan qo‘shni pozitsiyalarni vodorod atomlari egallagan bo‘ladi. Har bir vodorod atomiga qo‘shni bo‘lgan faqat bittagina uglerod atomi mavjud bo‘ladi. Skeletda joylashgan barcha atomlar aynan bir xil, shu sababli, molekulalarning ko‘pgina xossalari skeletning topologik xossalari bilan aniqlanadi. Skeletlarni esa tekis graflar orqali ifodalash mumkin bo‘lib, grafning uchlari uglerod atomlarini, uning tomonlari esa C−C−(uglerod-uglerod) aloqalarni ifodalaydi (bunda C−N aloqalar inobatga olinmaydi)[2-3].

Ayrim molekulalarning graflarini keltiramiz[2-3]:


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

Benzol Pirelen Xrizen

Ushbu molekulyar graflar molekulalarning ma'lum bir xususiyatlarini aniqlash va tadqiq etish imkoniyatlarini beradi. Lekin, ular kompyuterda sonli hisoblashlar o'tkazish uchun umuman yaroqli emas, shu sababli boshqa matematik modellar zarur bo'ladi. Ulardan biri molekulani topologik matritsa T orqali ifodalashdan iborat bo'lib, bunda graf sonlar orqali tavsiflanadi. T topologik matritsaning $t_{ij}$ elementi quyidagi xossalarga ega bo'ladi:

$$t_{ij} = \begin{cases} 1, & \text{agar } i \text{ va } j \text{ atomlar bog'langan bo'lsa} \\ 0, & \text{aks holda} \end{cases}$$

Shunday qilib, benzol molekulasining sodda oltiburchakdan iborat bo'lgan matritsasi, ushbu topologik matritsa orqali tavsiflanadi:



$$T = \begin{bmatrix} t_{11} & t_{12} & t_{13} & t_{14} & t_{15} & t_{16} \\ t_{21} & t_{22} & t_{23} & t_{24} & t_{25} & t_{26} \\ t_{31} & t_{32} & t_{33} & t_{34} & t_{35} & t_{36} \\ t_{41} & t_{42} & t_{43} & t_{44} & t_{45} & t_{46} \\ t_{51} & t_{52} & t_{53} & t_{54} & t_{55} & t_{56} \\ t_{61} & t_{62} & t_{63} & t_{64} & t_{65} & t_{66} \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 1 \\ 1 & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 & 1 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 1 & 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 1 & 0 & 1 \\ 1 & 0 & 0 & 0 & 1 & 0 \end{bmatrix}$$

Endi T matritsa graf haqidagi to'liq ma'lumotni o'zida saqlaydi, grafning ixtiyoriy xossasiga T matritsaning biror-bir xossasini mos qo'yish mumkin.

Topologik matritsa T ni blokli ko'rinishda yozish mumkin, bunda juft raqamli atomlar izidan toq raqamli atomlar joylashtiriladi:

$$T = \begin{bmatrix} 0 & B \\ B^T & 0 \end{bmatrix},$$

bu yerda, B - aralash matritsa, $B^T$ - matritsa esa B matritsani transponerlash orqali hosil qilinadi. B matritsa, topologik matritsa T ning barcha nolmas elementlarini o'zida saqlaydi va barcha muhim ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Benzol uchun aralash matritsa quyidagi ko'rinishga keltiriladi:

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

$$B = \begin{matrix} \\ 1 \\ 3 \\ 5 \end{matrix} \begin{matrix} \begin{matrix} 2 & 4 & 6 \end{matrix} \\ \begin{bmatrix} 1 & 0 & 1 \\ 1 & 1 & 0 \\ 0 & 1 & 1 \end{bmatrix} \end{matrix}, \quad B^T = \begin{bmatrix} 1 & 1 & 0 \\ 0 & 1 & 1 \\ 1 & 0 & 1 \end{bmatrix}$$

Molekulaning ayrim elementar xossalari B matritsa orqali yetarlicha sodda holda olinishi mumkin. Uglerodning barcha atomlari soni n matritsa B ning satr va ustunlari yig‘indisiga teng. Xuddi shu tariqa, $C-C-$(uglerod-uglerod) aloqalar soni N esa $B^T$ matritsa barcha diagonal elementlari yig‘indisiga teng bo‘ladi.

N ni ushbu ko‘rinishda ifodalash qulay:

$$N = T_r\left(B^T B\right) = T_r\left[\begin{pmatrix} 1 & 1 & 0 \\ 0 & 1 & 1 \\ 1 & 0 & 1 \end{pmatrix}\begin{pmatrix} 1 & 0 & 1 \\ 1 & 1 & 0 \\ 0 & 1 & 1 \end{pmatrix}\right] = T_r\begin{pmatrix} 2 & 1 & 1 \\ 1 & 2 & 1 \\ 1 & 1 & 2 \end{pmatrix} = \left(\sum_{i=1}^{3} t_{ii}\right) = (2+2+2) = 6.$$

Bu yerda $T_r$ belgilash T matritsaning izini, ya’ni, uning diagonal elementlari yig‘indisini bildiradi.

Grafning yana bitta muhim xususiyati shuki, grafdagi halqalar soni r dan iborat. Ammo, r miqdor n va N lar bilan quyidagi munosabat orqali bog‘langan:


r = N - n + 1,

bundan halqalar soni r ni yaqqol aniqlash mumkin. Molekuladagi atomlarni nomerlashda turli tartibda almashtirish shartlarini bajarish mumkin, bu o‘z navbatida B matritsaning ayrim xossalarini o‘zgartiradi. Ammo, ta’kidlash lozimki, miqdorlar r, N va n larning qiymatlari molekulalar atomlarining qanday tartibda nomerlanishiga bog‘liq emas, ya’ni, ushbu miqdorlar turli almashtirishlarga nisbatan invariantlik xossasiga ega bo‘ladi.

Axborot texnologiyalarining o’quv jarayoniga tatbiqi masalari [4-5]da yoritilgan.

Fanlararo bog’liqlikning o’quv jarayoni samaradorligini oshirishdagi o’rni masalalari [6-8] maqolalarda qaralgan.

Yuqorida aytilgan fikrlarni Pirelen molekulasiga nisbatan qarab chiqamiz[9-12]:




Molekula atomlarini ixtiyoriy nomerlash mumkin. Biz pirelen molekulasini istalgan tartibda nomerlab, Pirelen uchun topologik matritsa T ni yozamiz. Bunda biror atom boshqa bir atom bilan bog’langan bo’lsa, ularga mos matritsa elementi 1 ga, aks holda 0 ga teng bo’ladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

Eslatma. Pirelen molekulasi to‘rtta aromatik halqadan iborat bo‘lsa-da, halqalarning o‘zaro qo‘shilishi natijasida ichki qismda joylashgan to‘rtta uglerod atomi tashqi konturga kirmaydi. Shu sababli tashqi konturdagi 16 ta atomga qo‘shimcha ravishda yana 4 ta ichki uglerod atomi mavjud bo‘lib, umumiy uglerod atomlari soni 20 tani tashkil etadi ($C_{20}H_{12}$).

Molekula atomlarining o’zaro bog’liqligini ifodalovchi T topologik matritsani quyidagi ko’rinishda hosil qilamiz:

$$T = \begin{pmatrix}
0&1&0&0&0&0&0&0&0&0&0&1&0&0&0&0&0&0&0&0\\
1&0&1&0&0&0&0&0&0&0&0&0&1&0&0&0&0&0&0&0\\
0&1&0&1&0&0&0&0&0&0&0&0&1&0&0&0&0&0&0&0\\
0&0&1&0&1&0&0&0&0&0&0&0&0&1&0&0&0&0&0&0\\
0&0&0&1&0&1&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0\\
0&0&0&0&1&0&1&0&0&0&0&0&0&0&1&0&0&0&0&0\\
0&0&0&0&0&1&0&1&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0\\
0&0&0&0&0&0&1&0&1&0&0&0&0&0&0&1&0&0&0&0\\
0&0&0&0&0&0&0&1&0&1&0&0&0&0&0&0&1&0&0&0\\
0&0&0&0&0&0&0&0&1&0&1&0&0&0&0&0&0&0&0&0\\
0&0&0&0&0&0&0&0&0&1&0&1&0&0&0&0&0&0&0&0\\
1&0&0&0&0&0&0&0&0&0&1&0&0&0&0&0&0&0&0&0\\
0&1&1&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&1&0&0&0&0&0&0\\
0&0&0&1&0&0&0&0&0&0&0&0&1&0&1&0&0&0&0&0\\
0&0&0&0&0&1&0&0&0&0&0&0&0&1&0&1&0&0&0&0\\
0&0&0&0&0&0&0&1&0&0&0&0&0&0&1&0&1&0&0&0\\
0&0&0&0&0&0&0&0&1&0&0&0&0&0&0&1&0&0&0&0\\
0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0\\
0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0\\
0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0&0
\end{pmatrix}$$

Pirelen molekulasi uchun topologik matritsa T ga mos qo’yilgan B aralash matritsani tuzamiz. Buning uchun yuqoridagi matritsa T ning juft ustunlar va toq satrlarni tanlab olamiz. Agarda ularga mos Pirelen molekulasi atomlari o‘zaro bog‘langan bo‘lsa, B matritsaning mos elementi 1 ga, aks holda 0 ga teng bo‘ladi, ya’ni:

$$B = \begin{pmatrix}
1&0&0&0&0&1&0&0&0&0\\
1&1&0&0&0&0&0&0&0&0\\
0&1&1&0&0&0&0&0&0&0\\
0&0&1&1&0&0&0&0&0&0\\
0&0&0&1&1&0&0&0&0&0\\
0&0&0&0&1&1&0&0&0&0\\
0&0&0&0&0&1&1&0&0&0\\
0&0&0&0&0&0&1&1&0&0\\
0&0&0&0&0&0&0&1&1&0\\
0&0&0&0&0&0&0&0&1&1
\end{pmatrix}$$

bu yerda topologik matritsa T ning 2, 4, 6, 8, 10, 12, 14, 16, 18, 20 - ustunlari hamda 1, 3, 5, 7, 9, 11, 13, 15, 17, 19 - satr elementlari qaralgan. Shunday qilib, Pirelendagi uglerod atomlari soni aralash matritsa B ning satr va ustunlarining yig‘indisiga teng, ya’ni n=10+10=20.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

Pirelen molekulasidagi C−C−(uglerod-uglerod) aloqalari sonini hisoblaymiz. Buning uchun dastlab, aralash matritsa B ning transponerini aniqlaymiz va quyida ushbu matritsa $B^T$ ni keltiramiz:

$$B^T = \begin{pmatrix} 1 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 1 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 1 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 1 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 1 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \end{pmatrix}$$

Shundan so'ng, C-C-(uglerod-uglerod) aloqalari sonini $N = T_r\left(B^T B\right) = T$ formula asosida aniqlaymiz:

$$B^T B = \begin{pmatrix} 2 & 1 & 0 & 0 & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 1 & 2 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 2 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 1 & 2 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 1 & 2 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 1 & 0 & 0 & 0 & 1 & 3 & 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 2 & 1 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 2 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 2 & 1 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 1 \end{pmatrix}$$

Demak, Pirelen molekulasidagi C−C− aloqalar soni 24 ta ekanligi aniqlandi. Endi Pirelen molekulasidagi halqalar soni r ni topamiz:

r=N-n+1=24-20+1=5

Graf nazariyasida aniqlanadigan sikllar soni vizual benzol halqalari sonidan farq qilishi mumkin. Pirelen molekulasi uchun hisoblangan r=5 qiymat molekuladagi mustaqil sikllar bazasiga mos keladi, holbuki struktur jihatdan u 4 ta benzol halqadan tashkil topgan.

| Yondashuv | Natija |
|---|---|
| Kimyoviy (benzol halqalar) | 4 |
| Topologik (mustaqil sikllar) | 5 |

Kimyoviy modda molekulasi uchun undagi uglerodlar, C−C− aloqalar va halqalar


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

sonini aniqlash algoritmini keltiramiz:

1) kimyoviy element molekulasi tanlanadi;
2) topologik matritsa T shakllantiriladi;
3) B aralash matritsa shakllantiriladi;
4) Transponirlangan $B^T$ matritsa hosil qilinadi;
5) B matritsaning satr va ustunlari soni qo‘shilib, molekuladagi uglerodlar soni n aniqlanadi;
6) ($B^T$*B) matritsaning izi $T_r(B^TB)$ hisoblanadi va uning diagonal elementlari qo‘shilib, tegishli kimyoviy element tarkibidagi , C−C− aloqalar soni N topiladi;
7) r=N-n+1 formula asosida molekuladagi halqalar soni hisoblanadi.

So‘ngra, ana shu algoritm asosida kompyuter dasturi tuziladi va molekulaning tegishli xossalarini aks ettirgan miqdorlarning sonli qiymatlari aniqlanadi.

O‘quvchilarga o‘zining faniga oid masalalarni fanlararo bog‘liqlikni inobatga olgan holda olib borish ularning bilim darajalarining mukammallashuviga va o‘z sohalarida informatsion texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarining shakllanishga yordam beradi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. SH.Mirzyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805-son “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.08.2020 y., 07/20/4805/1174-son; 01.05.2021 y., 06/21/6217/0409-son).
2. Самарский А.А., Михайлов А.П. Математическое моделирование.-М.:Наука, 1997.-316 с.
3. Эндрюс Дж., Мак-Лоун Р. Математическое моделирование.- М.: Мир, 1979.- 280 с.
4. M.M.Aripov va b. Informatika, informatsion texnologiyalar Darslik T.: TDYUI 2005. 278-b.
5. S.S. Qosimov. Axborot texnologiyalari: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. T.: “Aloqachi”, 2006.-360b.
6. Зверев И.Д., Максимова В.Н., Межпредметные связи в современной школе.- М: Педагогика,-1981, 160 с.
7. Абуталиев Ф.Б., Нармурадов Ч.Б. Математическое моделирование проблемы гидродинамической устойчивости.-Ташкент, 2011.- Т.: Фан ва технология.- 2011.- 188 с.
8. Normurodov Ch.B., Mengliyev I.A. Численное моделирование дифференциальной модели сахарного диабета. Philadelphia, USA. 2020.05 page 166-171. (Global Impact Factor-0.564; Scientific Indexing Services-0.912; International Society for Research Activity-1.344. №5).

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

9. Normurodov Ch.B., Mengliyev I.A. Tabiiy fanlarda fanlararo bog‘liqni o‘rganishda matematik modellashtirishni qo‘llash. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2020 yil 5-son. 540-545 bet.
10. Mengliyev I.A. Matematik modellashtirish va informatsion texnologiyalar asosida fanlararo bog‘liqni o‘qitish metodikasi. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2020 yil 12-son. 290-296 bet.
11. Mengliyev I.A. Talabalarga axborot texnologiyalarini qo’llash asosida fanlararo bog’liqlikni o’rgatish samaradorligini oshirish // Ilm sachashmalari – Urganch, 2021 № 11, b. 93-99 betlar. (13.00.00; № 31)
12. Mengliyev I.A. Uglerod molekulalarining topologik xossalarini fanlararo bog’liqlik va axborot texnologiyalarini qo’llash asosida tadqiq etish metodikasi // Pedagogik mahorat – Buxoro, 2021, №6, b. 192-196 (13.00.00; № 23)

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Mengliyev Islom Abdumuratovich**, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) [**Менглиев Ислом Абдумуратович**, Доктор философии (PhD)по педагогическим наукам], [**Mengliyev Islom Abdumuratovich** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences]; manzil: Termiz shahri, “Barkamol avlod” ko'chasi 43-uy, [адрес: Город Термез, улица Баркамол авод, дом 43], [address: 43 Barkamol avod Street, Termez city]

✉**Abduvaitova Barno Shodi qizi**, magistr [**Абдуваитова Барно Шоди кизи**, магистр], [**Abduvaitova Sh.Barno** master’s student]; manzil: Termiz shahri, “Barkamol avlod” ko'chasi 43-uy, [адрес: Город Термез, улица Баркамол авод, дом 43], [address: 43 Barkamol avod Street, Termez city]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025 №12

Original paper

# NUTQIDA NUQSON BO‘LGAN BOLALARNING BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANISH DARAJALARI

© M.S. Mustafayeva[1]✉

[1]Samarqand Kimyo Xalqaro Universiteti, Samarqand,O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** nutq buzilishlari nutqning tarkibiy va funksional mexanizmlaridagi organik yoki funksional nuqsonlar natijasida yuzaga keladigan murakkab neyropsixologik holat bo‘lib, bolalarda nutqning normal rivojlanishi buzilishi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Nutq ongning yuqori psixik funksiyasi sifatida tafakkur, xotira, diqqat, idrok va tasavvur bilan bevosita bog‘langanligi sababli, nutq patologiyasi bolalarning bilish jarayonlarida ham kompleks o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Shu bois kognitiv komponentlarni chuqur diagnostika qilish korreksion ishni individual rejalashtirishning metodologik sharti hisoblanadi.

**MAQSAD:** tadqiqotning maqsadi — nutqida nuqson bo‘lgan bolalarda bilish jarayonlari (idrok, diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur) rivojlanish darajalari va ularning nutq mexanizmlaridagi yetishmovchiliklar bilan bog‘liqligini ilmiy asosda yoritishdir. Shuningdek, fonematik idrok, og‘zaki xotira, tafakkur operatsiyalari va sensor-motor rivojlanishdagi cheklovlarni diagnostika qilish hamda korreksion-logopedik ta’sirni kompleks tashkil etishning amaliy yo‘nalishlarini asoslash ko‘zda tutiladi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** ishda nutq buzilishlarining etiologik omillari va markaziy/periferik mexanizmlar bilan bog‘liqligini izohlovchi nazariy tahlil hamda bilish jarayonlarining xususiyatlarini tavsiflovchi ilmiy manbalarni umumlashtirish yondashuvlari qo‘llanildi. Kognitiv baholash doirasida fonematik idrok, diqqat barqarorligi, og‘zaki xotira, analiz-sintez, taqqoslash, umumlashtirish va sabab–oqibat bog‘lanishlarini aniqlash kabi ko‘rsatkichlarni diagnostika qilish zarurligi metodik jihatdan asoslandi. Korreksion strategiyani tanlashda logopedik, psixologik va pedagogik yondashuvlarning uzviy birligini ta’minlash tamoyili yetakchi mezon sifatida belgilandi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tahlil natijalari nutq buzilishli bolalarda fonematik idrokning sustligi, diqqatning barqaror emasligi, og‘zaki xotiraning cheklanganligi va tafakkur operatsiyalarining inertligi o‘quv hamda ijtimoiy faoliyatda qo‘shimcha qiyinchiliklarni kuchaytirishini ko‘rsatadi. Tasavvur jarayonining beqarorligi va ijodiy komponentning pastligi o‘yin faoliyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etiladi. Umumiy va mayda motorika rivojlanishidagi nuqsonlar artikulyatsion hamda kinestetik jarayonlarni sekinlashtirib, nutq va bilish rivojlanishidagi muammolarni murakkablashtiruvchi omil sifatida talqin qilinadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025 №12

**XULOSA:** nutq buzilishlari bolalarda nafaqat muloqot imkoniyatlarini, balki idrok, diqqat, xotira, tafakkur va tasavvur kabi bilish jarayonlarining shakllanishini ham sezilarli cheklashi tasdiqlandi. Shu munosabat bilan erta tashxis, kognitiv komponentlarni chuqur diagnostika qilish va individual korreksion-logopedik strategiyani ishlab chiqish ilmiy-amaliy jihatdan ustuvor hisoblanadi. Kompleks va tizimli yondashuv nutq kamchiliklarini bartaraf etish yoki yumshatish hamda bolaning ta'limga tayyorgarligi va moslashuvini qo'llab-quvvatlashning muhim sharti sifatida asoslandi.

**Kalit so'zlar:** nutq buzilishlari, bilish jarayonlari, fonematik idrok, diqqat, og'zaki xotira, tafakkur, tasavvur, motorika, korreksion-logopedik ta'sir.

**Iqtibos uchun**: Mustafayeva M.S. Nutqida nuqson bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini rivojlanish darajalari.// Inter education & global study. 2025. №8. B.375–382.

## УРОВНИ РАЗВИТИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ

©М.С. Мустафаева[1]✉
[1]Самаркандский Международный Химический Университет, Самарканд, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** речевые нарушения представляют собой сложную нейропсихологическую проблему, возникающую вследствие органических или функциональных сбоев в речевых механизмах и проявляющуюся у детей как нарушение нормального речевого развития. Поскольку речь относится к высшим психическим функциям, она тесно связана с восприятием, вниманием, памятью, мышлением и воображением, поэтому речевая патология закономерно сопровождается изменениями в познавательной сфере. В этих условиях диагностика когнитивных компонентов становится методологической основой индивидуализации коррекционной помощи.

**ЦЕЛЬ:** цель исследования — раскрыть уровни и специфические проявления развития познавательных процессов у детей с речевыми нарушениями и показать их обусловленность дефицитами речевых механизмов. Дополнительно ставится задача обосновать необходимость комплексной диагностики фонематического восприятия, вербальной памяти, внимания, мыслительных операций и сенсомоторного развития для выбора эффективной коррекционной стратегии.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** использованы теоретический анализ причин речевых нарушений и их нейрофизиологических механизмов, а также обобщение научных данных о специфике когнитивного развития при речевой патологии. В качестве методических ориентиров выделены диагностические показатели: сформированность фонематического восприятия, устойчивость и объём внимания, состояние вербальной памяти, операции анализа/синтеза и причинно-

ISSN 2992-9024 (online)
2025 №12

следственное мышление. Коррекционно-логопедическая работа рассматривается в логике интеграции логопедических, психологических и педагогических подходов.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** показано, что у детей с речевыми нарушениями часто наблюдаются слабость фонематического восприятия, неустойчивость внимания, ограниченность вербальной памяти и замедленность мыслительных операций, что усложняет обучение и социальное взаимодействие. Отмечаются особенности воображения (неустойчивость образов, снижение творческого компонента), влияющие на развитие игровой деятельности. Нарушения общей и мелкой моторики интерпретируются как фактор, замедляющий артикуляционные и кинестетические процессы и усиливающий трудности речевого и когнитивного развития.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** речевые нарушения оказывают системное влияние на познавательную сферу ребёнка, ограничивая развитие восприятия, внимания, памяти, мышления и воображения. Ранняя диагностика и глубокая оценка когнитивных компонентов позволяют построить индивидуальные коррекционные программы и обеспечить комплексность помощи. Системный коррекционно-логопедический подход рассматривается как ключевое условие смягчения речевых дефицитов и повышения готовности к обучению и адаптации.

**Ключевые слова:** речевые нарушения, познавательные процессы, фонематическое восприятие, внимание, вербальная память, мышление, воображение, моторика, логопедическая коррекция.

**Для цитирования**: Мустафаева. М.С. Уровни развития познавательной активности детей с нарушениями речи.// Inter education & global study.2025. №12. С. 375–382.

## LEVELS OF COGNITIVE ACTIVITY DEVELOPMENT IN CHILDREN WITH SPEECH DISORDERS

© Maftuna.S. Mustafayeva[1]✉
[1]Samarkand International Chemical University, Samarkand, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** speech disorders constitute a complex neuropsychological condition resulting from organic or functional impairments in speech mechanisms and are manifested in children as disrupted normal speech development. Because speech is a higher mental function closely connected with cognition, speech pathology typically co-occurs with changes in perception, attention, memory, thinking, and imagination. Therefore, assessment of cognitive components becomes a methodological prerequisite for individualized and effective correctional support.

**AIM:** the study aims to describe developmental levels and key characteristics of cognitive processes in children with speech disorders and to explain their association with deficits in speech mechanisms. It also seeks to justify the need for comprehensive

ISSN 2992-9024 (online)
2025 №12

assessment of phonemic perception, attention, verbal memory, thinking operations, and sensorimotor development to inform targeted corrective strategies.

**MATERIALS AND METHODS:** the research relies on theoretical analysis of etiological factors and neurophysiological mechanisms of speech disorders and synthesis of scholarly findings on cognition under speech pathology. Methodological priorities include diagnostic indicators such as phonemic perception, attention stability and capacity, verbal memory performance, analysis–synthesis operations, and cause–effect reasoning. Corrective speech therapy is conceptualized as an integrated approach combining speech-therapy, psychological, and pedagogical interventions.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the analysis indicates that children with speech disorders often show underdeveloped phonemic perception, unstable attention, limited verbal memory, and slowed thinking operations, which create additional barriers in learning and social participation. Imagination is characterized by less stable mental images and reduced creative productivity, negatively affecting play activity. Deficits in gross and fine motor skills are interpreted as factors that slow articulatory and kinesthetic processes and intensify the overall profile of speech and cognitive difficulties.

**CONCLUSION:** speech disorders exert a systemic impact on children's cognitive functioning by constraining the development of perception, attention, memory, thinking, and imagination. Early and comprehensive diagnostics enable individualized correction programs and support a coherent, multidisciplinary assistance model. A structured corrective speech-therapy approach is therefore affirmed as a key condition for mitigating speech deficits and strengthening educational readiness and adaptation.

**Keywords:** speech disorders, cognitive processes, phonemic perception, attention, verbal memory, thinking, imagination, motor skills, speech therapy correction.

**For citation**: Maftuna.S. Mustafayeva. (2025) 'Levels of cognitive activity development in children with speech disorders', Inter education & global study, (12), pp. 375–382. (In Uzbek).

**N**utq buzilishlari — bu nutqning tarkibiy va funksional mexanizmlaridagi organik yoki funksional buzilishlar natijasida nutq faoliyatining shakllanishi, rivojlanishi yoki amalda qo'llanilishining izdan chiqishi bilan tavsiflanadigan murakkab neyropsixologik jarayondir. Kattalarda bunday buzilishlar odatda avval shakllangan nutqning parchalanishi (afaziya, dizartriya va boshqalar), bolalarda esa nutqning normal rivojlanishining buzilishi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ular turli etiologik omillar — tug'ma, irsiy, somatik, nevrologik, psixogen, shuningdek, ijtimoiy-muhit omillari ta'siri natijasida yuzaga kelishi mumkin. Nutq faoliyati murakkab neyrofiziologik tizimlar integratsiyasiga tayanganligi sababli, nutq buzilishlari markaziy va periferik nutq mexanizmlarining funksional yetishmovchiligi bilan bog'liq bo'ladi. Periferik eshitish analizatorining nuqsonlari, markaziy nerv tizimining lokal shikastlanishlari, nutq apparati innervatsiyasi buzilishi, artikulyatsion apparatning anatomik nuqsonlari (lab, til, tanglay

ISSN 2992-9024 (online)
2025 №12

patologiyalari) nutq rivojlanishida sezilarli cheklanishlarga olib keladi.

Bolalik yoshida kuzatiladigan nutq buzilishlari shartli ravishda fiziologik (miyaning etarli darajada pishib yetilmasligi bilan bog‘liq) va patologik (kasallik yoki tashqi omillar natijasi) turlarga ajratiladi. Patologik buzilishlar lokalizatsiyasiga ko‘ra markaziy va periferik, mexanizmlariga ko‘ra organik va funksional ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Bola miyasining yuqori plastiklik darajasi tufayli ko‘plab nutq buzilishlari to‘g‘ri tashkil etilgan korreksion-logopedik ta’sir orqali bartaraf etilishi yoki sezilarli darajada yumshatilishi mumkin.

Nutq — bu ongning yuqori psixik funksiyasi bo‘lib, u tafakkur, xotira, diqqat, idrok, tasavvur kabi kognitiv jarayonlar bilan uzviy bog‘liq. Shu sababli nutq patologiyasi mavjud bo‘lgan bolalarda bilish faoliyati deyarli har doim murakkab o‘zgarishlar bilan kechadi.

1. Idrok va sezgi jarayonlarining xususiyatlari

Nutq buzilishi bo‘lgan bolalarda:

fonematik idrokning shakllanishi sust bo‘ladi;

tovushlarni farqlash, taqlid qilish, ularning differensial belgilarini ajratish jarayoni sekinlashadi;

vizual idrokning kambag‘alligi va tasvirlarni umumlashtirishning zaifligi kuzatiladi;

predmet-xususiyat-so‘z o‘rtasidagi bog‘lanishlar sust shakllangan bo‘ladi.

Bu jarayonlar nutqning semantik va fonetik jihatdan to‘laqonli shakllanishiga to‘sqinlik qiladi.

2. Diqqatning rivojlanishidagi buzilishlar

Ilmiy tadqiqotlar (O.V. Presnova, 2001; R.I. Lalayeva, 2000) nutq patologiyasiga ega bolalarda quyidagi diqqat xususiyatlarini aniqlagan:

- diqqatning barqaror emasligi, tez charchash;
- diqqat hajmining cheklanganligi (axborotni qisqa segmentlarda qabul qiladi);
- diqqatning selektivligi sustligi — asosiy belgiga emas, ikkinchi darajali belgiga e’tibor qaratish;
- e’tiborning tez chalg‘ishi va jarayonning umumlashganligi.

Ushbu xususiyatlar o‘quv jarayonida sezilarli qiyinchiliklarga olib keladi.

3. Xotira jarayonlarining rivojlanishi

Nutq buzilishli bolalarda xotiraning buzilishi asosan og‘zaki (verbal) xotira doirasida kuzatiladi. Ularda:

- so‘zlar, jumlalar, ko‘rsatmalarni eslab qolish qiyin;
- eslab qolish samarasi tushgan;
- eslab qolingan materialni qayta tiklashda ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yiladi.

Biroq mantiqiy (ma'no) xotira ko‘pincha nisbatan yaxshi saqlanadi, bu logopedik ta’sirda muhim o‘rin egallaydi.

4. Tafakkur jarayonlarining rivojlanishidagi cheklanishlar

Tafakkur faoliyati nutq bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli, nutq buzilishlari quyidagi kognitiv jarayonlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi:

- analiz va sintezning sust rivojlanishi;

ISSN 2992-9024 (online)
2025 №12

- taqqoslash, umumlashtirish, mavhumlashtirish darajasining pastligi;
- fikrlarning notugal, fragmentar shakllanishi;
- fikrlash jarayonining inertligi, moslashuvchanlikning yetarli emasligi;
- fikrlash tezligining sekinligi.

R.I. Lalayeva tadqiqotlariga ko‘ra, aynan tafakkur operatsiyalarining sustligi nutq rivojlanishidagi asosiy cheklovlardan biri hisoblanadi.

5. Tasavvur jarayonlarining xususiyatlari

Nutq buzilishli bolalarda tasavvur quyidagicha kechadi:

- obrazlar barqaror emas, tez o‘zgaradi;
- ijodiy tasavvur darajasi past;
- tasavvur jarayoni tez charchaydi;
- fantaziya elementlari bo‘lsada, ular nutqiy ifoda imkoniyatlari bilan cheklanadi.

Tasavvur jarayonining cheklanishi o‘yin faoliyatining rivojlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Sensor va motor rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlari

Nutq buzilishlari ko‘pincha umumiy motorika va mayda motorikaning buzilishi bilan kechadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki:

- bolalarda balans, koordinatsiya, chaqqonlik past bo‘ladi;
- umumiy motor rivojlanish sekinlashgan;
- qo‘l barmoqlari motorikasining yetarli emasligi nutqiy harakatlarni boshqarishni qiyinlashtiradi;
- harakatni so‘zli ko‘rsatma bo‘yicha bajarish juda mushkul.

Bu esa nutqning kinestetik va artikulyatsion komponentlarining shakllanishini sustlashtiradi.

Nutq buzilishida bilish faoliyatini o‘rganishning ilmiy-amaliy ahamiyati

Nutq va bilish rivojlanishidagi o‘zaro bog‘liqlikni hisobga olib, kognitiv funksiyalarni chuqur diagnostika qilish logopedik ishning eng muhim bosqichidir. Bu quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- nutq simptomlari va bilish buzilishlari o‘rtasidagi mexanik bog‘lanishni aniqlash;
- korreksion mashg‘ulotlar mazmuni va metodikasini individual tarzda tanlash;
- logopedik, psixologik va pedagogik yondashuvlarning uzviy birligini ta’minlash;
- ta’sirning kompleks va tizimli strategiyasini ishlab chiqish.

Bilish faoliyatidagi buzilishlarning to‘g‘ri baholanishi nutq rivojlanishidagi kamchiliklarning o‘z vaqtida va samarali korreksiyasiga olib keladi.

Xulosa

Nutq buzilishlari — bolaning nutqiy faoliyati bilan birga uning bilish jarayonlari, sensor-motor rivojlanishi va umumiy psixik holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan murakkab neyropsixologik muammo hisoblanadi. Nutqning shakllanishi ko‘plab neyrofiziologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro uyg‘un faoliyatiga tayanadi. Shu bois nutq mexanizmlaridagi organik yoki funksional nuqsonlar idrok, diqqat, xotira, tafakkur va tasavvur kabi asosiy kognitiv jarayonlarning rivojlanishida sezilarli cheklovlar

ISSN 2992-9024 (online)
2025 №12

keltirib chiqaradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nutq buzilishi bo‘lgan bolalarda fonematik idrokning sustligi, diqqatning barqaror emasligi, og‘zaki xotiraning cheklanganligi, tafakkur operatsiyalarining past darajada shakllanishi hamda tasavvurning yetarli rivojlanmagani o‘quv va ijtimoiy faoliyatda qo‘shimcha qiyinchiliklarga olib keladi. Bundan tashqari, umumiy va mayda motorika rivojlanishidagi nuqsonlar artikulyatsion va kinestetik jarayonlarning shakllanishini sekinlashtirib, nutq rivojlanishini yanada murakkablashtiradi. Shu munosabat bilan nutq buzilishlarini o‘rganishda bilish faoliyatining har bir komponentini chuqur diagnostika qilish katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. To‘g‘ri aniqlangan kognitiv cheklovlar logopedik ishning samarali rejasini tuzish, individual korreksion strategiyalarni tanlash hamda psixologik-pedagogik yordamni kompleks tarzda tashkil etishga imkon beradi. Umuman olganda, nutq va bilish rivojlanishining uzviy bog‘liqligini e’tiborga olgan holda, erta tashxis va tizimli korreksion yondashuv nutq buzilishlarining bartaraf etilishi yoki sezilarli darajada yumshatilishiga erishishning eng muhim sharti sanaladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Дошкольная логопсихология: учебное пособие/ Под редакцией проф. В.И. Селиверстова. Авторы: к.п.н., доц. Денисова О.А.; к.п.н., доц. Захарова Т.В., к.пс.н., доц. Бучилова И.А., к.пс.н., доц. Самофал Р.А., Поникарова В.Н., Леханова О.Л., Котляр Л.Я.- М., 2003. - 153 с. [Электронный ресурс]. URL: https://www.studmed.ru/seliverstov-vi-doshkolnaya-logopsihologiya_ff3ebfdce6e.html (дата обращения 14.08.2021)
2. Калягин В.А. Логопсихология: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений/ В.А.Калягин, Т.С. Овчинникова.- М.: Академия, 2006.- 320с. [Электронный ресурс]. URL: http://pedlib.ru/Books/1/0417/1_0417-123.shtml%20-%20book_page_top (дата обращения 13.08.2021)
3. Логопсихология/Авт.-сост. С.В. Лауткина. – Витебск: Изд-во УО «ВГУ им. П.М. Машерова», 2007. – 150 с.
4. Особенности развития детей с тяжёлыми нарушениями речи. [Электронный ресурс]. URL: http://cns-neiro.ru/articles/osobennosti-razvitiya-detey-tyazhelymi-narusheniyami-rechi/ (дата обращения 14.08.2021)
5. Особенности развития познавательной сферы ребёнка с речевой патологией. [Электронный ресурс]. URL: https://students-library.com/library/read/98228-osobennosti-razvitia-poznavatelnoj-sfery-rebenka-s-recevoj-patologiej (дата обращения 13.08.2021)
6. Ayupova M.Y. Logopediya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2019, – 560 b.
7. Shomaxmudova R. Sh. Mo‘minova L. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. — Toshkent: O‘qituvchi, 1994.

ISSN 2992-9024 (online)
2025 №12

8. Shomahmudova R. To‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish va nutq o‘stirish. – Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2013. – 130 b.
9. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: “Barkamol fayz media”, 2018. – 432 b.
10. Raxmanova V.S. Defektologiya asoslari. Toshkent: Niso Poligraf, 2017. – 168 b.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Mustafayeva Maftuna Sobirjon qizi**,talaba[**Мустафаева Мафтуна Собиржон кизи**,студент], [**Mustafayeva S.Maftuna** student]; manzil: Samarqand shahri, H.Abdullayev ko'chasi, 63-uy, [адрес: Г. Самарканд, г.Ул. Абдуллаева, д. 63], [address: Samarkand, ul. Abdullayeva, 63.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

Original paper

# NUTQI TO‘LIQ RIVOJLANMAGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TAFAKKURINING SHAKLLANLLANGANLIK DARAJASINI O‘RGANISH

© F.Sh. Norqorayeva[1]✉
[1]Samarqand Kimyo Xalqaro Universiteti, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** maktabgacha yosh davri nutq va tafakkur jarayonlari shakllanishida hal qiluvchi bosqich bo‘lib, NTR bolalarda muloqot cheklanishi bilan bir qatorda diqqat, xotira, idrok va tafakkur kabi kognitiv funksiyalar ham susayishi qayd etiladi. NTR R.E. Levina tomonidan psixologo-pedagogik belgilar asosida umumlashtirilgan tushuncha sifatida talqin qilinadi, keyinchalik darajalari (jumladan IV daraja) ajratilgani keltiriladi. Nutqiy cheklovlar so‘z-mantiqiy tafakkur shakllanishini ayniqsa sekinlashtirishi ilmiy manbalar bilan izohlanadi.

**MAQSAD:** tadqiqotning maqsadi — NTR bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkurning shakllanganlik darajasini nutq tizimidagi kamchiliklar bilan bog‘liq holda tahlil qilish hamda tafakkur operatsiyalarini baholash va rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik-logopedik yondashuvning metodik asoslarini yoritishdir. Shuningdek, erta diagnostika va individual korreksion dasturlarning intellektual rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashdagi o‘rni asoslanadi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** mavzuga oid ilmiy adabiyotlar (Levina, Filicheva, Mastyukova, Fotekova va boshqalar) tahlili hamda NTR bolalarning kognitiv xususiyatlarini ta’riflovchi nazariy yondashuvlar umumlashtirildi. Tafakkurni o‘rganishda predmetlarni tasniflash, ortiqcha elementni aniqlash, sabab–oqibat bog‘lanishlarini topish, mantiqiy juftliklar va ketma-ketliklarni davom ettirish, vizual modellashtirish kabi diagnostik metodlar tavsiflanadi. Natijalarni interpretatsiya qilishda tafakkur operatsiyalari shakllanganlik darajalariga doir ko‘rsatkichlar (umumlashtirish 40–60%, sabab–oqibatni o‘rnatish ~50%) keltiriladi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tahlil NTR bolalarda lug‘at boyligining kamligi, grammatik strukturalarni o‘zlashtirishdagi kechikish va fonematik idrok yetishmovchiligi analiz–sintez, taqqoslash, umumlashtirish hamda sabab–oqibat aloqalarini o‘rnatish jarayonlarining notekis va sust rivojlanishiga olib kelishini ko‘rsatadi. Ko‘rgazmali-amaliy tafakkur nisbatan saqlangan bo‘lsa-da, ko‘rgazmali-obrazli va ayniqsa so‘z-mantiqiy tafakkur ko‘proq zarar ko‘rishi qayd etiladi. Diqqat beqarorligi, og‘zaki xotiraning cheklanganligi va aqliy jarayonlarning inertligi kognitiv qiyinchiliklarni yanada kuchaytiruvchi ikkilamchi omillar sifatida talqin qilinadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

**XULOSA:** NTR bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq tizimidagi leksik, grammatik va fonetik-fonematik yetishmovchiliklar nafaqat muloqotni, balki tafakkur operatsiyalarining shakllanishini ham sezilarli darajada cheklashi xulosalanadi. Tafakkur holatini erta aniqlash, chuqur psixologik-diagnostik baholash va individual korreksion-logopedik dasturlar asosida nutq bilan birga kognitiv jarayonlarni ham rivojlantirish zarurligi asoslanadi. Tizimli mashg‘ulotlar va rivojlantiruvchi pedagogik ta’sir bolaning keyingi ta’limdagi muvaffaqiyati va ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlovchi omil sifatida ko‘rsatiladi.

**Kalit so‘zlar:** nutqi to‘liq rivojlanmaganlik, maktabgacha yosh, kognitiv jarayonlar, tafakkur operatsiyalari, fonetik-fonematik rivojlanish, lug‘at boyligi, logopedik korreksiya, mantiqiy fikrlash, erta diagnostika.

**Iqtibos uchun**: Norqorayeva F.Sh. Nutqi to‘liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalarni tafakkurining shakllanllanganlik darajasini o‘rganish.// Inter education & global study. 2025. №12. B.383–390.

## ИЗУЧЕНИЕ УРОВНЯ СФОРМИРОВАННОСТИ МЫШЛЕНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА, У КОТОРЫХ РЕЧЬ РАЗВИТА НЕ В ПОЛНОЙ МЕРЕ

©Ф.Ш. Норкораева[1]✉
[1]Самаркандский Международный Химический Университет, Самарканд, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** дошкольный возраст является ключевым этапом становления речи и мышления, однако при ОНР ограничения коммуникации сопровождаются снижением внимания, вербальной памяти и инертностью мыслительных процессов. В статье ОНР трактуется как психолого-педагогическая категория, объединяющая детей с различными медицинскими диагнозами при сходных речевых проявлениях, с указанием уровневой дифференциации (включая IV уровень). Актуализируется положение о том, что наиболее выраженно страдает словесно-логическое мышление при относительной сохранности наглядно-действенного.

**ЦЕЛЬ:** цель исследования — проанализировать сформированность мышления у дошкольников с ОНР во взаимосвязи с дефицитами лексико-грамматического и фонетико-фонематического компонентов речи и обосновать методические ориентиры комплексной коррекционно-педагогической поддержки. Дополнительно ставится задача показать значимость ранней диагностики и индивидуальных коррекционных программ для интеллектуального развития.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** проведен анализ и обобщение научных источников по проблеме ОНР и когнитивного развития, включая позиции Р.Е. Левиной, Т.Б. Филичевой, Е.М. Мастюковой и Т.А. Фотековой. Описаны психолого-

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

диагностические методы: классификация предметов, выделение лишнего, установление причинно-следственных связей, логические пары и последовательности, визуальное моделирование. В интерпретации результатов приводятся ориентировочные показатели сформированности операций (обобщение 40–60%, установление причинно-следственных связей около 50%).

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** показано, что дефициты словаря, грамматического строя и фонематики приводят к затруднениям выделения существенных признаков, ошибкам сравнения и нарушению выбора критериев обобщения. Отмечается, что при ОНР наглядно-образное и словесно-логическое мышление формируются замедленно, а неустойчивость внимания и ограниченность вербальной памяти усиливают когнитивные трудности. Результаты обсуждения подтверждают, что логопедическая коррекция должна включать упражнения на развитие анализа, синтеза, обобщения, логических рассуждений и визуально-логического мышления.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** сделан вывод, что недостаточная сформированность лексического, грамматического и фонетико-фонематического компонентов речи при ОНР существенно ограничивает развитие мыслительных операций и познавательной активности дошкольника. Ранняя диагностика, индивидуальные коррекционные программы и системная развивающая работа рассматриваются как ключевые условия поддержки речевого и интеллектуального развития. Комплексный подход повышает предпосылки успешного обучения и социальной адаптации ребенка.

**Ключевые слова:** общее недоразвитие речи, дошкольный возраст, когнитивные процессы, мыслительные операции, фонетико-фонематическое развитие, словарный запас, логопедическая коррекция, логическое мышление, ранняя диагностика.

**Для цитирования**: Норкораева. Ф.Ш. Изучение уровня сформированности мышления детей дошкольного возраста, у которых речь развита не в полной мере// Inter education & global study.2025. №12. С. 383–390.

## THE STUDY OF THE LEVEL OF FORMATION OF THINKING IN PRESCHOOL CHILDREN WHOSE SPEECH IS NOT FULLY DEVELOPED

© Farzona.Sh. Norqorayeva[1]✉
[1]Samarkand International Chemical University, Samarkand, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** preschool age is a critical period for the development of speech and cognition, yet in GSU communicative limitations are accompanied by attention instability, restricted verbal memory, and cognitive inertia. The paper frames GSU as a psycho-pedagogical category uniting children with different medical diagnoses but similar

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

speech manifestations, including level-based differentiation. It highlights that verbal-logical thinking is especially vulnerable, even when practical visual thinking may remain relatively preserved.

**AIM:** the study aims to analyze the level of thinking development in preschoolers with GSU in relation to deficits in lexical-grammatical and phonetic-phonemic speech components and to justify methodological guidelines for comprehensive correctional and pedagogical support. It also seeks to clarify the role of early diagnosis and individualized correction programs in sustaining intellectual development.

**MATERIALS AND METHODS:** the research is grounded in a review and synthesis of scholarly sources on GSU and cognitive development, including the perspectives of R.E. Levina, T.B. Filicheva, E.M. Mastyukova, and T.A. Fotekova. The paper describes diagnostic methods such as object classification, identifying an odd item, establishing cause–effect relations, completing logical pairs and sequences, and visual modeling. Interpretive benchmarks are provided for the formation of operations (generalization 40–60%, cause–effect reasoning around 50%).

**DISCUSSION AND RESULTS:** the analysis shows that limited vocabulary, delayed grammar acquisition, and insufficient phonemic processing lead to difficulties in identifying essential features, frequent errors in comparison, and inappropriate generalization criteria. It is argued that visual-figurative and especially verbal-logical thinking develops more slowly in children with GSU, while attention and memory constraints further intensify cognitive challenges. The discussion supports integrating structured exercises for analysis, synthesis, generalization, logical reasoning, and visual-logical tasks into speech-therapy practice.

**CONCLUSION:** the study concludes that underdeveloped lexical, grammatical, and phonetic-phonemic speech components in GSU not only constrain communication but also significantly limit the development of thinking operations and broader cognitive activity. Early diagnosis, individualized correction programs, and systematic developmental interventions are identified as key conditions for supporting both speech and intellectual growth. A comprehensive approach is linked to improved readiness for schooling and social adaptation.

**Keywords:** general speech underdevelopment, preschool age, cognitive processes, thinking operations, phonetic-phonemic development, vocabulary, speech therapy correction, logical thinking, early diagnosis.

**For citation**: Farzona.Sh. Norqorayeva . (2025) ‘The study of the level of formation of thinking in preschool children whose speech is not fully developed’, Inter education & global study, (12), pp. 383–390. (In Uzbek).

**N**utqi normal rivojlangan maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiy ko‘nikmalarni tabiiy ravishda egallaydilar, ular kattalar va tengdoshlar bilan erkin muloqot qiladilar, fonetik imkoniyatlari izchil takomillashadi, lug‘at boyligi kundan kunga kengayadi hamda

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

fonematik jarayonlar shakllanadi. Bunday bolalarda nutqning kommunikativ funksiyasi to‘laqonli namoyon bo‘ladi. Biroq ushbu jarayon barcha bolalarda ham bir xilda kechmaydi. Nutqi yetarli darajada rivojlanmagan, leksik-grammatik tizimida kamchiliklari bo‘lgan, fonetik-fonematik tarkibi buzilgan, hatto butunlay nutqi yo‘q bolalar guruhi mutaxassislar tomonidan nutqning umumiy rivojlanmaganligi deb yuritiladi. Ushbu atama R.E. Levina tomonidan kiritilgan bo‘lib, u turli tibbiy tashxislarga ega, ammo nutqiy namoyonlari o‘xshash bo‘lgan bolalarni psixologo-pedagogik belgilar asosida birlashtirish imkonini berdi [1].

Nutqi to‘liq rivojlanmaganlik uch darajadan iborat bo‘lib, keyinchalik T.B. Filicheva tomonidan 4-daraja (eng yengil turi) ajratilgan. IV daraja odatda, nutqiy ko‘nikmalari tashqi tomondan me’yoriyga yaqin ko‘ringan, biroq leksik-grammatik va fonematik jarayonlari yetarlicha shakllanmagan bolalar guruhini ifodalaydi [2].

Nutqi to‘liq rivojlanmaganlik nutq sistemasining barcha tarkibiy qismlarining – fonetiko-fonematik, leksik va grammatik komponentlarning yetilmaganligi bilan tavsiflanadi. Muhimi, bu holat eshitish nuqsoni yoki aqliy rivojlanishning organik buzilishlari bilan bog‘liq emas.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, NTR bo‘lgan bolalarda quyidagi umumiy qonuniyatlar kuzatiladi:

- gapira boshlashning kechikishi;
- ko‘plab tovush guruhlarining noto‘g‘ri talaffuzi;
- nutqni tushunishning pasayganligi;
- faol lug‘atning passiv lug‘atdan ancha kamligi;
- so‘z o‘zgartirish va so‘z yasalish jarayonlarining buzilishi;
- grammatik shakllarni qo‘llashda qiyinchilik;
- kengaytirilgan gap tuza olmaslik;
- kommunikativ funksiyaning sustligi [3].

Birlamchi nutq buzilishlari ikkilamchi psixik jarayonlarning – xotira, e’tibor, tafakkur va boshqaruv funksiyalarining rivojlanishida ham cheklovlar keltirib chiqaradi.

T.B. Filichevaning ta’kidlashicha, NTR bo‘lgan bolalarda ko‘rgazmali-amaliy tafakkur odatda me’yoriga yaqin, biroq ko‘rgazmali-obrazli va ayniqsa so‘z-mantiqiy tafakkur shakllanishi sekinlashadi [4]. E.M. Mastyukova esa ushbu bolalarda ichki nutqning yetishmasligi asosiy nuqsonlardan biri ekanini ta’kidlaydi, bunda verbal intellekt neverbal intellektga nisbatan past bo‘ladi [5]. T.A. Fotekovaning tadqiqotlari NTR bo‘lgan bolalarda muammoli vaziyatni hal etish strategiyasini tanlash, ko‘rsatmalarni eslab qolish hamda e’tibor barqarorligida sustlik mavjudligini ko‘rsatadi [6].

Maktabgacha yosh davri bolalarning psixik rivojlanishida, ayniqsa, nutq va tafakkur jarayonlarining shakllanishida eng muhim bosqich hisoblanadi. Nutqning to‘liq rivojlanmasligi (NTR) bolaning muloqot faoliyatini cheklabgina qolmay, uning bilish jarayonlari, jumladan, tafakkur, idrok, diqqat, xotira va tasavvur kabi asosiy kognitiv funksiyalarining shakllanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, NTR bo‘lgan bolalarda nutq tizimidagi fonetik, semantik va grammatik

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

kamchiliklar aqliy faoliyatning murakkab shakllarini egallash jarayonini sekinlashtiradi. Tafakkur jarayoni borliqni umumlashtirilgan va vositali aks ettirishni ta’minlovchi murakkab bilish tizimi bo‘lib, uning to‘laqonli shakllanishi analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish va mavhumlashtirish kabi aqliy operatsiyalar rivojiga bog‘liq. Nutqi yetarli darajada shakllanmagan maktabgacha yoshdagi bolalarda aynan shu operatsiyalarning sustligi ko‘proq kuzatiladi. Bu bolalar predmet yoki hodisaning asosiy belgilarini ajratishda qiyinlanadi, taqqoslash jarayonida o‘xshashlik va farqlarni aniqlashda ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yadi, umumlashtirish mezonlarini to‘g‘ri tanlay olmaydi. Natijada mantiqiy kategoriyalarni shakllantirish, sabab–oqibat bog‘lanishlarini o‘rnatish, mantiqiy fikr yuritish kabi jarayonlar uzilib qolgan yoki sekin kechadi.

Tafakkur rivojining sustligi ko‘pincha nutq tizimida mavjud bo‘lgan lug‘aviy zaxiraning kamligi, grammatik strukturani egallashdagi kechikish, fonematik idrokning yetarli emasligi hamda nutqiy tushunchalarning to‘liq shakllanmaganligi bilan bevosita bog‘liqdir. Shuningdek, NTR bo‘lgan bolalarda diqqat barqarorligining pastligi, og‘zaki xotiraning cheklanganligi va aqliy jarayonlarning inertligi (ya’ni fikr almashishning sekinligi) tafakkur rivojlanishida qo‘shimcha cheklovlar yaratadi. Bu bolalar yangi vazifadan boshqasiga o‘tishda qiynaladi, fikr tezligi past bo‘ladi hamda murakkab mantiqiy vazifalarni bajarishda tez charchaydi. Vizual-mantiqiy fikrlash jarayonlari ham sust rivojlangan bo‘lib, geometrik shakllar bilan ishlash, ketma-ketliklarni davom ettirish, modellashtirish kabi vazifalarni bajarishda katta yordamga ehtiyoj seziladi. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda tafakkur jarayonlarining shakllanganlik darajasini o‘rganish maxsus psixologik-diagnostik metodlar orqali amalga oshiriladi. Predmetlarni tasniflash, ortiqcha elementni aniqlash, sabab–oqibat bog‘lanishlarini topish, predmetlar o‘rtasidagi mantiqiy aloqalarni belgilash, vizual modellashtirish, mantiqiy juftliklar va ketma-ketliklarni davom ettirish kabi metodlar bolaning tafakkur rivojidagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlash imkonini beradi. Olingan natijalar NTR bo‘lgan bolalarda umumlashtirish operatsiyalari 40–60% darajada shakllanganini, sabab–oqibatni o‘rnatish bo‘yicha yutuqlar esa 50% atrofida ekanini ko‘rsatadi. Bu esa nutqiy cheklovlarning bilish jarayonlariga qanchalik jiddiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Tafakkur va nutq jarayonlarining uzviy bog‘liqligi sababli, nutqiy rivojlanishdagi kechikish ko‘pincha bilish jarayonlaridagi yetishmovchilik bilan kechadi. Shu bois logopedik ish jarayonida faqat nutqiy tizimni to‘g‘rilash emas, balki tafakkur operatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuv muhim o‘rin tutadi. Mantiqiy fikrlash, umumlashtirish, analiz va sintez qobiliyatlarini rivojlantirish, bilish jarayonlarini faollashtiruvchi o‘yin va mashqlarni qo‘llash, vizual modellashtirish mashg‘ulotlarini tashkil etish NTR bo‘lgan bolalarning tafakkur rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, nutqi to‘liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkuri ko‘p hollarda yetarli darajada shakllanmagan bo‘lib, bu mantiqiy fikrlash operatsiyalarining sustligi, umumlashtirish mezonlarini tanlashdagi qiyinchiliklar, sabab–oqibat bog‘lanishlarini aniqlashdagi uzilishlar hamda vizual-mantiqiy faoliyatning pastligi orqali namoyon bo‘ladi. Tafakkur jarayonining holatini chuqur diagnostika qilish,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

korreksion-logopedik ishda individual dastur tuzish va bilish faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tizimli yondashuv bunday bolalarning rivojlanishini samarali qo‘llab-quvvatlashga imkon beradi. Erta aniqlangan kognitiv cheklovlar va to‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik-logopedik ta’sir nutq va tafakkur rivojlanishining harmonik shakllanishini ta’minlaydi.

Xulosa. Nutqi to‘liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq sistemasining leksik, grammatik va fonetik-fonematik komponentlari yetarli darajada shakllanmagani nafaqat muloqot jarayonini, balki bilish faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini ham cheklaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nutqiy kamchiliklar mantiqiy fikrlash operatsiyalari — analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, sabab–oqibat bog‘lanishlarini o‘rnatish jarayonlarining sekin va notekis rivojlanishiga olib keladi. Bunday bolalarda lug‘at boyligining kamligi, grammatik strukturalarni qo‘llashdagi qiyinchiliklar, fonematik jarayonlarning yetarlicha shakllanmaganligi tafakkur jarayonlarini ham susaytiradi, bunda so‘z-mantiqiy fikrlash eng ko‘p zarar ko‘radi. NTR bolalarda ko‘rgazmali-amaliy tafakkur nisbatan saqlangan bo‘lsa-da, ko‘rgazmali-obrazli va ayniqsa so‘z-mantiqiy tafakkur shakllanishi sezilarli darajada kechikadi. Diqqatning beqarorligi, og‘zaki xotiraning cheklanganligi, aqliy jarayonlarning inertligi, muammoli vaziyatni hal etishdagi qiyinchiliklar ushbu jarayonni yanada murakkablashtiradi. Bu esa NTR bolalarni rivojlantirishda faqat nutqiy tizimni emas, balki tafakkur va boshqa kognitiv jarayonlarni ham kompleks tarzda rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. O‘tkazilgan tahlillar nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda tafakkurning shakllanish darajasini erta aniqlash va maxsus diagnostika yordamida baholash logopedik-pedagogik ishning samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Analiz va sintez, umumlashtirish, mantiqiy mulohaza yuritish, vizual-mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashqlar va modellashtirish metodlari bu borada eng samarali usullar hisoblanadi. To‘g‘ri tashkil etilgan individual korreksion-logopedik dastur, tizimli mashg‘ulotlar va rivojlantiruvchi pedagogik ta’sir NTR bolalarning nutqiy hamda intellektual rivojlanishini sezilarli darajada qo‘llab-quvvatlaydi. Umuman olganda, nutqi to‘liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur jarayonlarini chuqur o‘rganish, kognitiv cheklovlarni aniq aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan kompleks yondashuv erta yoshdan boshlab samarali rivojlantirish choralarini belgilashga imkon beradi. Bu esa bolaning keyingi ta’lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishi, ijtimoiy moslashuvi va umumiy rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Левина, Р. Е. Нарушение речи и письма у детей: избранные труды / Р. Е. Левина. // ред.-сост. Г. В. Чиркина, П. Б. Шошин. – М.: АРКТИ, 2005. – 221с.
2. Волковская, Т.Н., Юсупова, Г. Х. Психологическая помощь дошкольникам с общим недоразвитием речи [Текст] / Т. Н. Волковская, Г. Х. Юсупова. – М.: Книголюб, 2004. – 104 с. (Специальная психология)

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

3. Жукова, Н.С., Мастюкова, Е.М., Филичева, Т. Б. Преодоление общего недоразвития речи у дошкольников. [Текст] / Н. С. Жукова, Е. М. Мастюкова, Т. Б. Филичева. – М.: Просвещение, 1990. – 238 с.
4. Мастюкова, Е. М. О состоянии интеллекта у детей с общим недоразвитием речи [Текст] / Е. М. Мастюкова, Л. А. Белогруд, В. С. Бурова // Дефектология, 2014. № 1. – С. 41-47.
5. Фотекова Т. А. Сочетание нарушений познавательной и речевой сфер в структуре дефекта у детей с общим недоразвитием речи // Дефектология, 1994. № 2.
6. Нестерова, Т. В. Коррекционно-педагогическая работа по формированию наглядно-образного мышления у дошкольников с общим недоразвитием речи [Текст]: автореферат дис. кандидата педагогических наук: 13.00.03 / Нестерова Татьяна Викторовна; Ин-т коррекц. педагогики Рос. акад. Образования. – М., 2005. – 22 с. [Электронный ресурс] URL: https://www.elibrary.ru/item.asp?id=15832745 (дата обращения 29.01.2021).
7. Практикум по возрастной психологии: Учеб. пособие / Под ред. Л. А. Головей, Е. Ф. Рыбалко. – 2-е изд. – СПб.: Речь, 2006. – 688 с.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Norqorayeva Farzona Shaxriddin qizi**, talaba [**Норкораева Фарзона Шахриддин кизи**,студент], [**Norqorayeva Sh.Farzona** student]; manzil: Samarqand shahri, H.Abdullayev ko'chasi, 63-uy, [адрес: Г. Самарканд, г.Ул. Абдуллаева, д. 63], [address: Samarkand, ul. Abdullayeva, 63.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

Original paper

# ZAMONAVIY PEDAGOGIK TA’LIMDA TADQIQIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING INNOVATSION ASOSLARI

© Sh.O . Rustamova [1]✉

[1]Namangan davlat universiteti, Namangan,O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** XXI asr ta’limi sharoitida talabalarda tadqiqiy kompetensiyalarni rivojlantirish ularni mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida tayyorlashning asosiy omiliga aylanmoqda. Zamonaviy pedagogik ta’lim an’anaviy bilim berishdan tadqiqotga yo‘naltirilgan kompetensiyaviy modelga o‘tishni talab qiladi.

**MAQSAD:** zamonaviy pedagogik ta’limda tadqiqiy kompetensiyalarni rivojlantirish strategiyalarining innovatsion asoslarini nazariy jihatdan asoslash va ularning amaliy tatbiqi imkoniyatlarini ko‘rsatish.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda ilmiy adabiyotlar tahlili, kompetensiyaviy va tadqiqiy pedagogika konsepsiyalarini taqqoslash, shuningdek pre-test va post-test, kuzatuv, so‘rovnoma va intervyu usullariga tayangan integrativ yondashuv qo‘llanildi. Loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim va raqamli ta’lim texnologiyalari tajriba faoliyatida sinovdan o‘tkazildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** integrativ metodologiya talabalarning analitik fikrlash, empirik dalil to‘plash va eksperimental faoliyatga tayyorgarligini sezilarli oshirganini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalarida o‘zini baholash va real tadqiqiy ko‘nikmalar o‘rtasidagi tafovut kamaygani, raqamli va ijodiy kompetensiyalar esa tadqiqiy faoliyat samaradorligini oshirishi aniqlangan. Baholash va rivojlantirishni birlashtirgan model tadqiqiy kompetensiyalarni tizimli shakllantirishga xizmat qilishi isbotlandi.

**XULOSA:** tadqiqiy kompetensiyalarni rivojlantirish strategiyalari faqat metodik texnologiyalar emas, balki pedagogik madaniyat, didaktik dizayn va innovatsion yondashuvlar bilan uzviy bog‘liq. Kompetensiyaviy yondashuvni raqamli va tadqiqiy pedagogika bilan integratsiyalash talabalarning ilmiy va ijodiy salohiyatini oshiradi hamda ularni zamonaviy ilmiy va professional muhitga samarali tayyorlaydi.

**Kalit so‘zlar:** tadqiqiy kompetensiya, innovatsion ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, tadqiqiy pedagogika, kognitiv va metakognitiv rivojlanish, raqamli ta’lim texnologiyalari.

**Iqtibos uchun**: Rustamova Sh.O. Zamonaviy pedagogik ta’limda tadqiqiy kompetensiyalarni rivojlantirish strategiyalarining innovatsion asoslari.// Inter education & global study. 2025. №12. B.391–399.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

# ИННОВАЦИОННЫЕ ОСНОВЫ СТРАТЕГИЙ РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ В СОВРЕМЕННОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

©Ш.О. Рустамова[1]✉
[1]Наманганский государственный университет, Наманган, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в условиях образования XXI века развитие исследовательских компетенций становится ключевым фактором подготовки самостоятельной, критически и творчески мыслящей личности. Современное педагогическое образование требует перехода от традиционной трансляции знаний к исследовательски ориентированной компетентностной модели.

**ЦЕЛЬ:** теоретически обосновать инновационные основы стратегий развития исследовательских компетенций в современном педагогическом образовании и показать возможности их практического применения.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в исследовании использованы анализ научной литературы, сопоставление концепций компетентностного подхода и исследовательской педагогики, а также интегративный подход на основе пре- и пост-тестов, наблюдения, анкетирования и интервью. В опытной работе применялись проектное обучение, проблемное обучение и цифровые образовательные технологии.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** интегративная методология показала заметный рост у студентов аналитического мышления, готовности к эмпирической и экспериментальной деятельности. Установлено снижение разрыва между субъективной самооценкой и реальными исследовательскими умениями, а также положительное влияние цифровых и творческих компетенций на результативность исследовательской деятельности. Модель, совмещающая оценивание и развитие, способствует системному формированию исследовательских компетенций.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** стратегии развития исследовательских компетенций связаны не только с методическими технологиями, но и с педагогической культурой, дидактическим дизайном и инновационными подходами. Интеграция компетентностного подхода с цифровыми и исследовательскими технологиями усиливает научный и творческий потенциал студентов и обеспечивает их готовность к современной научной и профессиональной среде.

**Ключевые слова:** исследовательская компетенция, инновационное образование, компетентностный подход, исследовательская педагогика, когнитивное и метакогнитивное развитие, цифровые образовательные технологии.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

**Для цитирования**: Рустамова.Ш.О. Инновационные основы стратегий развития исследовательских компетенций в современном педагогическом образовании.// Inter education & global study.2025. №12. С. 391–399.

# INNOVATIVE FOUNDATIONS OF STRATEGIES FOR DEVELOPING RESEARCH COMPETENCIES IN MODERN PEDAGOGICAL EDUCATION

© Shoxista.O. Rustamova [1]✉
[1]Namangan State University, Namangan, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** in 21st-century education, developing research competencies is a key condition for preparing autonomous, critical and creative thinkers. Modern pedagogical education requires a shift from traditional knowledge transmission to a research-oriented, competency-based model.

**AIM:** to theoretically substantiate the innovative foundations of strategies for developing research competencies in modern pedagogical education and to demonstrate their practical implementation potential.

**MATERIALS AND METHODS:** the study employed analysis of scholarly literature, comparison of competency-based and research pedagogy concepts, and an integrative design using pre- and post-tests, observation, questionnaires and interviews. Project-based learning, problem-based learning and digital educational technologies were applied in the experimental work.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the integrative methodology led to a noticeable increase in students' analytical thinking and readiness for empirical and experimental activity. Findings showed a reduced gap between perceived and actual research competence and confirmed that digital and creative competencies enhance the effectiveness of research activity. A model combining assessment and development proved effective for the systematic formation of research competencies.

**CONCLUSION:** strategies for developing research competencies depend not only on methodological tools but also on pedagogical culture, didactic design and innovative approaches. Integrating the competency-based approach with digital and research technologies strengthens students' scientific and creative potential and prepares them more effectively for the contemporary academic and professional environment.

**Keywords:** research competency, innovative education, competency-based approach, research pedagogy, cognitive and metacognitive development, digital educational technologies.

**For citation**: Shoxista.O. Rustamova. (2025) 'Innovative foundations of strategies for developing research competencies in modern pedagogical education', Inter education & global study, (12), pp. 391–399. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

**Z**amonaviy pedagogik ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri – talabalarda tadqiqiy kompetensiyalarni shakllantirish orqali ularni mustaqil, analitik va ijodiy fikrlay oladigan shaxs sifatida tayyorlashdir. XXI asr ta’limi, global innovatsion iqtisodiyot va bilimlar jamiyati kontekstida, an’anaviy didaktik yondashuvlardan kengroq va integrativ strategiyalarni talab qiladi. Shu munosabat bilan, tadqiqiy pedagogika paradigmasi, kompetensiyaviy yondashuv va innovatsion metodologiyalar o‘zaro uyg‘unlashib, talabalarning kognitiv va metakognitiv rivojlanish jarayonlarini tizimli asosda qo‘llab-quvvatlash vazifasini bajaradi[1]. Pedagogik amaliyotda tadqiqiy kompetensiyalarni rivojlantirish, avvalo, talabaning ilmiy faoliyatga kirishish qobiliyatini shakllantirishni anglatadi. Bu esa nazariy bilimlarni amaliy eksperimentlar, empirik kuzatuvlar va nazariy modellashtirish orqali sinashni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, zamonaviy ta’lim strategiyalari kognitiv va metakognitiv komponentlarni uyg‘unlashtirish orqali talabalarni mustaqil fikrlash, muammolarni kompleks hal etish va ilmiy argumentlarni mantiqiy tarzda izohlashga yo‘naltiradi. Ilmiy manbalar ko‘rsatadiki, tadqiqiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni faqatgina metodik texnologiyalarni qo‘llash bilan cheklanmaydi; u pedagogik madaniyat, didaktik dizayn va innovatsion strategiyalar bilan uzviy bog‘liqdir. Masalan, kompetensiyaviy yondashuv doirasida talabalarning analitik, eksperimental va refleksiv qobiliyatlari o‘quv jarayonining har bir bosqichida integrativ tarzda rivojlantiriladi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy pedagogik ta’lim o‘quv jarayonini faqat bilimlarni etkazish jarayoni sifatida emas, balki ilmiy tadqiqotga yo‘naltirilgan kompetensiyaviy rivojlanish modeli sifatida qayta talqin etadi[2]. Tadqiqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning strategik jihatlari, avvalo, ta’lim jarayonini interaktiv va innovatsion usullar bilan boyitish, shuningdek, talabalarni eksperimental va ilmiy faoliyatga jalb etish orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, global ta’lim standartlari va yangi pedagogik texnologiyalarni hisobga olgan holda, talabalarning individual o‘sishi, kognitiv mustaqilligi va ijodiy potensialini maksimal darajada rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi[3]. Zamonaviy pedagogik ta’lim tizimida tadqiqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy determinantlari quyidagilardan iborat: birinchidan, ta’lim muassasasining strategik rivojlanish modeli va kompetensiyaviy yondashuvni qo‘llash mexanizmi; ikkinchidan, ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish; uchinchidan, talabaning individual kognitiv va metakognitiv xususiyatlarini hisobga olgan pedagogik sharoitlarni yaratish; to‘rtinchidan, talabalarni ilmiy tadqiqotga jalb qiluvchi didaktik va metodologik vositalarni kompleks tarzda integratsiyalash. Shu nuqtai nazardan, tadqiqiy pedagogika konsepsiyasi zamonaviy ta’lim paradigmasining markaziy elementi sifatida ko‘riladi[4]. U nafaqat ilmiy faoliyatga kirishish qobiliyatini rivojlantiradi, balki talabalarda tanqidiy fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritish, eksperiment va kuzatuv orqali bilimlarni mustahkamlash kabi yuqori darajadagi intellektual qobiliyatlarni shakllantiradi. Kirish bo‘limida ta’kidlab o‘tish lozimki, zamonaviy pedagogik ta’limda tadqiqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar multidisiplinar, integrativ va innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Shu maqsadda o‘quv jarayoni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

rejalashtirilganda talabaning individual rivojlanishi va ilmiy faoliyatga tayyorligi asosiy mezon sifatida olinadi. Bunda didaktik dizayn, interaktiv metodlar va kompetensiyaviy baholash tizimi uzviy uyg‘unlashadi.

Adbiyotlar tahlili: Zamonaviy pedagogik ta’limda tadqiqiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasini o‘rganishda, birinchi navbatda Sloveniyadagi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan amaliy eksperiment va baholashga qaratilgan model muhim ilmiy poydevor vazifasini bajaradi. Matjašič va Vogrinc tomonidan o‘tkazilgan va “Supporting the Development of the Perceived and Actual Research Competence of Pre-Service Teachers” nomli maqolada, magistratura bosqichidagi pre-service o‘qituvchilar orasida tadqiqiy kompetensiyaning ikki o‘lchovi — o‘zini baholash (perceived) va obyektiv bilim hamda ko‘nikmalar (actual) — pre-test va post-test dizaynida sinovdan o‘tkaziladi[5]. Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, semester davomida o‘qituvchilarning o‘z oylarida baholagan tadqiqiy bilimlari va ko‘nikmalari sezilarli darajada oshadi; ayni paytda, ularning tadqiqiy kompetensiyaga nisbatan o‘z-o‘zini baholash darajasi ham yaxshilanadi. Qiziqarli jihati shundaki, tuproqda real bilim darajasi oshgan sari, o‘zini baholashdagi baho bilan obyektiv natijalar orasidagi tafovut asta-sekin kamayadi, ya’ni tajriba davomida talabalar o‘zlarining tadqiqot qobiliyatlarini aniqroq anglab yetishlari haqida guvohlik beradi. Ushbu yondashuv metodologik jihatdan ahamiyatlidir, chunki u pedagogik ta’lim jarayonida nafaqat ishtirokchilarning sub’yektiv baholari, balki ularning real ilmiy kompetensiyasini ham o‘lchaydi va shunday integrativ modelni taklif qiladi, bu esa tadqiqiy pedagogika strategiyalarini rejalashtirishda samarali asos yaratadi. Ikkinchi muhim ilmiy manba — Guillén-Gámez, Ruiz-Palmero va Gómez-García tomonidan yozilgan “Digital competences in research: creativity and entrepreneurship as essential predictors for teacher training” maqolasi bo‘lib, unda tavsiflangan yondashuv zamonaviy ta’limda tadqiqiy kompetensiya va raqamli ko‘nikmalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni chuqur o‘rganadi. Mualliflar 1740 nafar oliy ta’lim pedagoglarini tahlil qilgan holda, ularning ijodiyligi va tadbirkorlik ruhining tadqiqiy faoliyatda raqamli kompetensiya darajasiga bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatadilar[5]. Maxsus ravishda, natijalar shuni bildiradiki, ijodiy va tadbirkor qadriyatlar yuqori bo‘lgan pedagoglar, yangi texnologiyalar — xususan, XR texnologiyalari, blockchain, robotics va boshqa innovatsion vositalardan foydalanganda, tadqiqiy ish yuritishda raqamli qobiliyatlarini ancha samarali foydalanadilar. Shu bilan birga, maqola raqamli vositalarning o‘ziga xosligi va pedagoglarning transvers ko‘nikmalari (ijodiy va tadbirkorlik) o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlikni ilmiy ravishda tahlil qiladi, va ta’lim muassasalari uchun raqamli tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik chora-tadbirlar bo‘yicha tavsiyalar beradi[6]. Bu ikki olimning ishlari bir-birini komplementar tarzda to‘ldiradi: Matjašič va Vogrinc tadqiqiy kompetensiyaning ichki (sub’yektiv) va tashqi (obyektiv) komponentlarini chuqur o‘lchagani holda, pedagogik ta’limda baholash va o‘zlashtirish jarayonlariga metodologik asos beradi; Guillén-Gámez va hamkasblari esa raqamli transformatsiya kontekstida tadqiqiy kompetensiyaning yangi paradigmasini — ijodiy va tadbirkor

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

yondashuvlar bilan kombinatsiyalangan raqamli ko‘nikmalar modelini — taklif etadi. Birgalikda, bu ikki yondashuv zamonaviy pedagogik ta’limda tadqiqiy kompetensiyalarni shakllantirish strategiyalarini nafaqat baholash va o‘lchash balki rivojlantirish va transformatsiyalash jihatidan boy nazariy va amaliy zaminni yaratadi.

Metotologik qism: Ushbu maqolada tadqiqiy pedagogika jarayonida tadqiqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodologiya sifatida kompleks integrativ yondashuv ishlatildi, bunda talabalarning kognitiv va metakognitiv rivojlanishini baholash uchun pre-test va post-test dizayni, empirik ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish uchun observatsiya, so‘rovnomalar va intervyular, shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish uchun loyiha asosida o‘qitish va problemali metodlar qo‘llanildi, bu orqali talabalarning nazariy bilimlarni amaliy eksperimentlar va real vaziyatlarda qo‘llash qobiliyati, shuningdek, o‘zini baholash va refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirish samarali tarzda amalga oshirildi, metodologik jarayonni uzviy bog‘langan, integratsiyalashgan va ilmiy asoslangan yondashuv orqali tashkil etish imkoniyati yaratildi.

Natijalar: Tadqiqiy pedagogika jarayonida qo‘llangan integrativ metodologik yondashuv natijasida talabalar orasida tadqiqiy kompetensiyalarning sezilarli darajada rivojlanishi kuzatildi, bunda pre-test va post-test natijalari talabalarning kognitiv va metakognitiv qobiliyatlarida, shuningdek, eksperimental va empirik faoliyatga bo‘lgan tayyorgarliklarida aniq o‘sishni ko‘rsatdi, intervyu va so‘rovnomalar orqali olingan ma’lumotlar talabalarning o‘zini baholash darajasidagi oshish bilan birga ularning real ilmiy ko‘nikmalarining mustahkamlanishini tasdiqladi, loyiha va problemali metodlar qo‘llanilganda esa talabalar o‘z ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini amaliy tadqiqotlarda muvaffaqiyatli qo‘llashga qodir ekanligi aniqlanib, raqamli va innovatsion pedagogik vositalarning integratsiyasi ularning tadqiqiy faoliyatini sezilarli darajada samaraliroq qilgani ilmiy tarzda isbotlandi, natijada talabalarning tadqiqiy kompetensiyalari zamonaviy pedagogik ta’limning ilg‘or strategiyalariga muvofiq ravishda kompleks va uzviy rivojlandi.

Muxokama: Zamonaviy pedagogik ta’limda tadqiqiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi ilmiy jamoatchilikda turlicha talqin qilinadi. Matjašič va Vogrinc tadqiqotlarida talabalarning tadqiqiy kompetensiyalarini o‘lchashda sub’yektiv (o‘zini baholash) va obyektiv (real ko‘nikmalar) komponentlar o‘rtasidagi uyg‘unlikka katta urg‘u beriladi[7]. Ularning fikricha, kompetensiyaning asosiy mezoni talabaning o‘zini baholash darajasi bilan real ilmiy ko‘nikmalarini moslashtirishdir. Shu nuqtai nazardan, ular pedagogik jarayonni baholash va o‘quv dizaynini shu uyg‘unlikka qaratish zarurligini ta’kidlaydi. Guillén-Gámez va hamkasblari esa raqamli transformatsiya sharoitida tadqiqiy kompetensiyani faqat sub’yektiv baholash orqali emas, balki ijodiy va tadbirkorlik komponentlari bilan mustahkamlash lozimligini ta’kidlaydi[8]. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, talabalarning raqamli kompetensiyalari va ijodiy yondashuvi tadqiqiy faoliyatda innovatsion yechimlar yaratish qobiliyatini belgilaydi, shuningdek, pedagogik jarayonda raqamli vositalar samaradorligini oshiradi. Mazkur ikki yondashuv o‘rtasida ilmiy bahs-

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

munozara mavjud: Matjašič va Vogrinc tadqiqiy kompetensiyalarni o‘lchash va baholashga urg‘u berib, pedagogik jarayonni nazariy asosga tayanch qilsa, Guillén-Gámez va hamkasblari raqamli va ijodiy komponentlarni rivojlantirishga urg‘u berib, pedagogik strategiyalarda texnologik va innovatsion vositalarni integratsiyalashni taklif qiladi[9]. Ushbu bahs-munozarada ikkala yondashuv ham o‘zining ilmiy asosiga ega bo‘lib, biri kompetensiyaning baholash aspektini, ikkinchisi esa kompetensiyaning rivojlantirish va transformatsiyalash aspektini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, ular birlashgan holda zamonaviy pedagogik ta’limda tadqiqiy kompetensiyalarni shakllantirishning integrativ modelini yaratish imkonini beradi. Ilmiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, talabalarning tadqiqiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida baholash va rivojlantirish uzviy bog‘liq bo‘lishi zarur. Baholash orqali o‘quv jarayoni monitoring qilinadi, rivojlantirish esa talabalarni mustaqil ilmiy izlanishga yo‘naltiradi. Shu jihatdan, Matjašič va Vogrincning yondashuvi baholash mexanizmini mukammallashtirsa, Guillén-Gámez va hamkasblari raqamli va ijodiy ko‘nikmalar orqali kompetensiyaning amaliy samaradorligini oshirishni ta’minlaydi[10]. Bu ikki paradigmaning sintezi pedagogik jarayonda talabalarning nafaqat sub’yektiv va obyektiv kompetensiyalarini uyg‘unlashtiradi, balki innovatsion va raqamli o‘quv muhitida ularning ilmiy va ijodiy faoliyatini samarali rivojlantiradi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy pedagogik ta’limda tadqiqiy kompetensiyalarni shakllantirish strategiyalari baholash va rivojlantirish yondashuvlarini birlashtirish, shuningdek, ijodiy va raqamli komponentlarni integratsiyalash orqali amalga oshirilishi muhimligi ilmiy asoslangan tarzda isbotlanadi.

Xulosa: Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik ta’limda talabalarning tadqiqiy kompetensiyalarini rivojlantirish strategiyalari ilmiy va amaliy nuqtai nazardan keng qamrovda tahlil qilindi. Tadqiqiy pedagogika paradigmasi doirasida o‘quv jarayonining kognitiv, metakognitiv va refleksiv komponentlari integrativ tarzda o‘rganilib, talabalarning nazariy bilimlarni amaliy eksperimentlar va empirik kuzatuvlar orqali mustahkamlash imkoniyatlari ko‘rsatildi. Metodologik jihatdan maqolada pre-test va post-test dizayni, observatsiya, intervyu va so‘rovnomalar orqali talabalarning tadqiqiy kompetensiyalari o‘lchandi, loyiha va problemali metodlar yordamida ularning ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlari rivojlantirildi. Adabiyotlar tahlili natijalari Matjašič va Vogrincning sub’yektiv va obyektiv kompetensiyalarni uyg‘unlashtirish modelini, shuningdek Guillén-Gámez va hamkasblarining raqamli, ijodiy va tadbirkorlik komponentlarini integratsiyalash yondashuvini o‘zaro to‘ldiruvchi tarzda qo‘llash zarurligini ko‘rsatdi. Bu ikki paradigma sintezi pedagogik jarayonda talabalarning nafaqat bilim va ko‘nikmalarini baholash, balki ularni amaliy faoliyatga yo‘naltirish hamda innovatsion va raqamli vositalar orqali rivojlantirish imkoniyatini beradi. Tadqiqot natijalari shuni isbotlaydiki, tadqiqiy kompetensiyalarni rivojlantirish faqat metodik texnologiyalarni qo‘llash bilan cheklanmaydi; u pedagogik madaniyat, didaktik dizayn va innovatsion strategiyalar bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi lozim. Talabalarning individual rivojlanishini hisobga olgan holda amalga oshiriladigan integrativ strategiyalar ularni mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashga o‘rgatadi hamda zamonaviy ilmiy va professional muhitga muvaffaqiyatli tayyorlaydi. Shu

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

bilan birga, kompetensiyaviy yondashuv va innovatsion pedagogik texnologiyalarni uyg‘unlashtirish orqali pedagogik ta’lim sifati sezilarli darajada oshadi, talabalarning ilmiy va tadqiqiy faoliyatga tayyorligi mustahkamlanadi. Umuman olganda, maqola zamonaviy pedagogik ta’limda tadqiqiy kompetensiyalarni shakllantirishning strategik ahamiyatini, metodologik asoslarini va innovatsion imkoniyatlarini ilmiy asosda ochib berdi hamda o‘quv jarayonini rejalashtirishda baholash va rivojlantirish yondashuvlarini birlashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqiy pedagogika strategiyalari talabalarning nafaqat bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki ularni ijodiy, analitik va tadqiqiy faoliyatga samarali yo‘naltirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Haytbaeva S. Talabalarda tadqiqotchilik ko ‘nikmalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o ‘rni //Nordic_Press. – 2024. – T. 3. – №. 0003.
2. Shohbozbek E. et al. Bo’lajak pedagoglarning tadqiqotchilik madaniyatini shakllantirishning konsepsual asoslari //Global Science Review. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 328-338.
3. Kenjaboyev A., Kenjaboyeva D. Pedagogik deontologiya va kompetentlik //Termiz: Surxon-nashr nashrmatbaa. – 2022.
4. Ruzieva Z., Norboeva S. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida loyihaviy tadqiqtochilik ko ‘nikmalarini rivojlantirish //problems and solutions of scientific and innovative research. – 2025. – T. 2. – №. 5. – C. 197-204.
5. Shohbozbek, E. (2025). Pedagogika psixologiya bolalarning kommunikativ kompatensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari. Global Science Review, 4(5), 430-439.
6. Xoliqov I. Pedagogik mahorat Ilmiy-nazariy harbiy ta‟ lim yo „nalishi talabalarida pedagogik kompetensiyani takomillashtirishga zamonaviy yondashuvlar: harbiy ta‟ lim yo „nalishi talabalarida pedagogik kompetensiyani takomillashtirishga zamonaviy yondashuvlar //Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.
7. Abdurazakova Z. Ta’lim transformatsiyasi jarayonida talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2025. – T. 2. – №. 4.2. – C. 277-279.
8. Lola, Z., & Shohbozbek, E. (2025). Zamonaviy pedagogik texnologiyalari orqali uzluksiz ta'limni rivojlantirish. Global Science Review, 4(3), 328-335.
9. Matkarimov J., Xakimova O., Imomaliyeva R. Ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga sun’iy intellekt imkoniyatlarini integratsiya qilish //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2025. – T. 2. – №. 4. – C. 232-235.
10. Shohbozbek, E. (2025). Pedagogik metotologiya uzluksiz ta’lim tizimida maktabgacha ta’limning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri. Global Science Review, 4(5), 774-782.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Rustamova Shoxista Omonjonovna**, tadqiqotchi[**Рустамова Шохиста Омонжоновна**, исследователь,], [**Rustamova Shoxista Omonjonovna** researcher,]; manzil: 160107, Bobursho‘x ko'chasi, 161-uy, [адрес: 160107, улица Бабуршох, 161], [address: 160107, Bobursho‘kh Street, 161]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

Original paper

# BO‘LAJAK LOGOPEDLARDA MOTIVASION — QADRIYATLI YO‘NALGANLIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

© S.Y . Shamsiyeva [1]✉

[1]O’zbekiston Milliy pedagogika univeriteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** statistik va ilmiy manbalar nutq buzilishlarini erta aniqlash, psixokorreksion yondashuvlarni takomillashtirish hamda psixogen holatlarning oldini olish masalalari global va milliy miqyosda ustuvor yo‘nalish ekanini ko‘rsatadi. Oila–maktab hamkorligi, rag‘batlantirish, emotsional qo‘llab-quvvatlash va kommunikativ muhit logopedik yordam samaradorligini belgilovchi omillar sifatida talqin qilinadi. Shu kontekstda bo‘lajak logopedlarni motivasion–qadriyatli yo‘nalganlik asosida tayyorlash zamonaviy maxsus ta’limning metodologik talabi sifatida izohlanadi.

**MAQSAD:** tadqiqotning maqsadi — bo‘lajak logopedlarda motivasion–qadriyatli yo‘nalganlikni rivojlantirish yo‘llarini ilmiy asoslash, kasbiy tayyorgarlikning psixologik, pedagogik va amaliy komponentlari birligini ko‘rsatish hamda innovatsion ta’lim texnologiyalari va faoliyatga asoslangan yondashuvning rolini aniqlashdir.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili, pedagog va psixologlar qarashlarini umumlashtirish hamda korreksion-ta’lim amaliyotiga doir qiyosiy tahlil yondashuvlari qo‘llanildi. Nazariya–amaliyot birligi, faoliyatga asoslangan ta’lim, AKTdan foydalanish va individual tuzatish dasturlariga tayangan metodik yo‘nalishlar konseptual asos sifatida belgilandi. Kasbiy tayyorgarlik mezonlari logopedning psixologik-emotsional, kommunikativ va amaliy ko‘nikmalarini kompleks baholash tamoyili bilan izohlandi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** muhokama natijalariga ko‘ra, motivasion–qadriyatli yo‘nalganlik bo‘lajak logopedning kasbiy identifikatsiyasi va barqaror kasbiy motivatsiyasini kuchaytirib, korreksion jarayonni samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Faoliyatga asoslangan ta’lim, amaliyotning uzluksizligi, oilaviy hamkorlik va raqamli texnologiyalarni joriy etish logopedik yordam sifatini oshirish omillari sifatida asoslandi. Shuningdek, zamonaviy logopedning kompetensiyalari psixologik, pedagogik, amaliy va kommunikativ tayyorgarlik integratsiyasi orqali shakllanishi ta’kidlandi.

**XULOSA:** bo‘lajak logopedlarda motivasion–qadriyatli yo‘nalganlikni rivojlantirish maxsus ta’limda kompetensiyaviy va insonparvarlik yondashuvlarini amalga oshirishning muhim sharti ekanligi tasdiqlandi. Innovatsion texnologiyalar, individual tuzatish dasturlari va interdisiplinar hamkorlikka tayangan tayyorgarlik modeli korreksion ish samaradorligini

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

oshirishga xizmat qiladi. Natijada zamonaviy logopedni tayyorlashda nazariy va amaliy tayyorgarlik birligini ta’minlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi.

**Kalit so‘zlar:** logoped, motivasion–qadriyatli yo‘nalganlik, nutq buzilishlari, kasbiy kompetensiya, psixokorreksiya, individual tuzatish dasturi, pedagogik texnologiyalar, maxsus ta’lim.

**Iqtibos uchun**: Shamsiyeva S.Y. Bo‘lajak logopedlarda motivasion — qadriyatli yo‘nalganlik xususiyatlarini rivojlantirish yo‘llari.// Inter education & global study. 2025. №12. B.400–407.

## ПУТИ РАЗВИТИЯ МОТИВАЦИОННО — ЦЕННОСТНЫХ ОРИЕНТАЦИОННЫХ ЧЕРТ У БУДУЩИХ ЛОГОПЕДОВ

© С.Ю. Шамсиева[1]✉
[1]Узбекский национальный педагогический университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** современные исследования показывают необходимость раннего выявления речевых нарушений, совершенствования логопедической помощи и профилактики психогенных состояний у детей. Важнейшими факторами эффективности коррекции выступают семейно-педагогическое взаимодействие, коммуникативная среда и эмоциональная поддержка ребёнка. В этой связи формирование мотивационно-ценностной направленности будущего логопеда рассматривается как методологическое условие устойчивой профессиональной готовности.

**ЦЕЛЬ:** цель исследования — научно обосновать пути развития мотивационно-ценностных ориентаций будущих логопедов, выявить роль деятельностного подхода и образовательных технологий, а также раскрыть единство психологической, педагогической и практической подготовки в организации коррекционного процесса.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в работе использованы анализ научной литературы по логопедии и специальному образованию, обобщение позиций педагогов и психологов и сравнительный анализ практики коррекционно-педагогической деятельности. Методологическая основа включает деятельностно-ориентированное обучение, применение ИКТ, принцип единства теории и практики и акцент на индивидуальные коррекционные программы. Профессиональная готовность логопеда трактуется как интеграция психологической, педагогической, коммуникативной и практической составляющих.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты обсуждения указывают, что мотивационно-ценностная направленность усиливает профессиональную идентичность будущего логопеда и повышает устойчивость к сложным педагогическим ситуациям. Установлено, что практико-ориентированное обучение,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

непрерывность практики, взаимодействие с семьёй и внедрение цифровых решений повышают эффективность коррекционной работы. Отмечается, что современная модель подготовки должна обеспечивать междисциплинарное сотрудничество и гуманистический характер профессиональной деятельности.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** развитие мотивационно-ценностной направленности будущих логопедов подтверждено как ключевое условие формирования профессиональной компетентности в системе специального образования. Инновационные технологии, индивидуализация коррекции и интеграция теоретической и практической подготовки повышают результативность логопедической помощи. Приоритетным направлением подготовки определяется формирование специалиста, способного к постоянному профессиональному развитию и работе в инклюзивной среде.

**Ключевые слова:** логопед, мотивационно-ценностная ориентация, речевые нарушения, профессиональная компетентность, психокоррекция, индивидуальная коррекционная программа, педагогические технологии, специальное образование.

**Для цитирования**: Шамсиева.С.Ю. Пути развития мотивационно — ценностных ориентационных черт у будущих логопедов.// Inter education & global study.2025. №12. С. 400–407.

## WAYS OF DEVELOPING MOTIVATIONAL AND VALUE ORIENTATIONAL TRAITS IN FUTURE SPEECH THERAPISTS

© Sevara.Y. Shamsiyeva [1]✉
[1]Uzbek National Pedagogical University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** contemporary research highlights early detection of speech disorders, improvement of speech therapy support, and prevention of psychogenic conditions in children as pressing priorities. The effectiveness of correction is closely linked to the communicative environment, emotional support, and coordinated family–school collaboration. Within this framework, motivational and value orientation is interpreted as a methodological prerequisite for sustainable professional readiness of future specialists.

**AIM:** the study aims to substantiate evidence-informed ways of developing motivational and value orientation in future speech therapists, clarify the role of activity-based learning and educational technologies, and demonstrate the unity of psychological, pedagogical, and practical preparation in organizing correctional work.

**MATERIALS AND METHODS:** the research is based on an analysis of scholarly literature in speech therapy and special education, synthesis of educators' and psychologists' perspectives, and comparative interpretation of correctional practice. The methodological framework integrates the theory–practice nexus, activity-based approaches, effective use of ICT, and the design of individualized correction programs.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

Professional readiness is conceptualized as an integrated system of psychological, pedagogical, communicative, and practical competencies.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the discussion indicates that motivational and value orientation strengthens professional identity and supports constructive decision-making in complex instructional contexts. The findings support the effectiveness of practice-oriented training, continuity of practical placements, family partnership, and digital tools as factors enhancing correctional outcomes. The article also stresses the interdisciplinary nature of speech therapy and the need for a humanistic, inclusive professional stance.

**CONCLUSION:** developing motivational and value orientation is confirmed as a key condition for building future speech therapists' professional competence in special education. Innovative technologies, individualized correction, and integrated theoretical and practical preparation contribute to higher effectiveness of speech therapy support. Consequently, training models should prioritize continuous professional development and readiness to work within inclusive educational environments.

**Keywords:** speech therapist, motivational-value orientation, speech disorders, professional competence, psychocorrection, individualized correction program, pedagogical technologies, special education

**For citation**: Sevara.Y. Shamsiyeva. (2025) 'Ways of developing motivational and value orientational traits in future speech therapists', Inter education & global study, (12), pp. 400–407. (In Uzbek).

**J**ahon miqyosida ham statistik ma'lumotlarga ko'ra, nutq nuqsonlarining soni ko'payib bormoqda, shuning uchun bolalar va o'smirlarda nutq kamchiliklarini oldini olish dolzab muammo bo'lib qolgan. O'zbekistonda nutq kamchilligiga ega bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishga katta e'tibor qaratilmoqda. Nutq kamchiligini erta aniqlash, korreksion ta'lim-tarbiyani tashkil qilish va ta'limning uslublari masalasini hal qilish bo'yicha ma'lum miqdorda yutuqlarga erishilgan.

Shakllanayotgan bolada ovoz reaksiyalari, tovushlar va so'zlar talaffuziga ehtiyoj sezilmaydi. Nutq kamchiligiga ega bolalarni tarbiyalash jarayonida ota-onalar va pedagoglar doimo rag'batlantirish, o'zaro hurmat, tartibni saqlash oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro ta'sir nutq kamchiligiga ega bolalalrni psixogen holatlar profilaktikasida jiddiy ro'l o'ynaydi. Rivojlanishida kamchiligi bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan psixokorreksion ish tizimini rivojlantirish ahamiyatlidir.

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, nutq nuqsonlari sonining ortib borishi va ularni erta aniqlash masalasi xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda ustuvor yo'nalish sifatida ko'riladi. R.E.Levina, T.B.Filicheva, G.G.Volkova kabi olimlar tadqiqotlarida nutq buzilishlarining kelib chiqish omillari, ularning erta diagnostikasi hamda oilaviy va pedagogik muhitning ahamiyati keng yoritilgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

Adabiyotlarda logopedik yordamni tizimli tashkil etish, psixokorreksion yondashuvlarni qo‘llash, bolalardagi psixogen holatlarni oldini olish bo‘yicha samarali metodlar taklif etiladi. Zamonaviy logopediya bo‘yicha ilmiy manbalarda logopedlarni tayyorlashda faoliyatga asoslangan ta’lim, amaliy mashg‘ulotlarning ustuvorligi, AKTdan foydalanish, shuningdek, nazariya va amaliyot birligining zarurligi ta’kidlanadi.

Shuningdek, adabiyotlarda zamonaviy logopedning kasbiy kompetensiyalari psixologik, pedagogik, amaliy va kommunikativ tayyorgarlikning yuqori darajada shakllangan bo‘lishi korreksion jarayon samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida ko‘riladi. Maxsus ta’lim tizimi bo‘yicha tadqiqotlar esa logopedik amaliyotning uzluksizligi va individual yondashuvga asoslangan tuzatish dasturlarining muhimligini ko‘rsatadi.

Logopedlarni tayyorlash jarayonini optimallashtirishning asosiy sharti - o'qitishning texnologik modelini loyihalash, o'qitishda faoliyatga asoslangan yondashuvni qo'llash, bu esa o'z navbatida talabaning nazariy olgan bilimlari amaliy bilimlar mutanosibligini anglatib, amaliyotda qo’llay olishi muhimligini dolzarblashtiradi. Kasbiy fanlarni o'rganish doirasida mustaqil ishlash natijaviyligi yuqoridir. Ularni faoliyatga asoslangan ta'lim texnologiyasini o'zlashtirishi o'qituvchi va talabaning yaqin o'zaro ta'siri sharoitida eng samarali usul bo’lib, bu ta'limning logopediya fanini mazmunini o'zlashtirish bilan birgalikda logoped shaxsi rivojlanishi shaxsiy sifatlari takomillashishini ta’minlaydi. Logopedlarni tayyorlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'rganish fanning chuqur o’zlashtirishlariga zamin bo’ladi. Ta’lim texnologiyalarini fanda qo’llash va amaliyotda unumli foydalanish uchun o’qituvchi tomonidan berilgan motivatsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini rivojlantirish hamda samarali qo’llash muhimdir. Pedagogik adabiyotlarda, shuningdek me’yoriy hujjatlarda logopedning kasbiy faoliyatida rivojlantirish texnologiyalaridan foydalanishning o‘rni beqiyosdir.

Logopedlarni tayyorlashning zamonaviy uslublari va ta’lim texnologiyalarining samaradorligi ularning o'quv jarayonini amaliy jarayonlardagi bilim va ko’nikmalardan foydalanishiga bog'liq bo'lib, bu talabaning kasbiy mahoratini ta’minlaydi. Pedagog logopedlar uchun kasbiy tayyorgarlikning texnologik modeli o'quv jarayonining sifat xususiyatlarini ijobiy tomonga o'zgartirish imkonini beradi. Hozirgi kunda bo’lajak logopedlarni o’qitishda o'quv faoliyatining turli ob’ektlarda maxsus muassasalarda olib borilishi , amaliyotni tashkil qilish ulkan natijalarni beradi. Rivojlanishda nutqiy nuqsonlarni bir-biridan farqlash, korreksion yondoshish turlari va shakllari bo'yicha malaka darajasini aniqlashga, balki ushbu darajani oshirish imkoniyatini isbotlashga va shu bilan kelajakdagi kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun potentsial shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi.

Ta'limdagi o'zgarishlar logopedlarning kasbiy tayyorgarligini o'zgartirishni talab qiladi. Bilimli o’z kasbini sevuchi doimiy izlanishda bo’lgan zamonaviy mutaxassis kerak. Ta’limdagi mana shu kontseptsiya jamiyatning tubdan yangi ijtimoiy-qiymati va axloqiy-psixologik yo'nalishlarini, ilm-fan rivojlanishining zamonaviy tendentsiyalarini logopedlarni tayyorlash eng avvalo, yuqori professionallik, aql-zakovat, ijtimoiy etuklik va ijodkorlikni uzviy ravishda o'zida mujassam etgan shaxsni tayyorlash dolzarb bo’libgina

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

qolmasdan bo'lajak logopedlarni motivasion — qadriyatli yo'nalganlikni rivojlantirish texnologiyalarini qo'llash orqali shaxs xususiyatlari va undagi kamchiliklar bartaraf etiladi. Bo'lajak zamonaviy logopedning ijtimoiy ahamiyatga ega xususiyatlari va kasbiy , shaxsiy fazilatlari tizimining etukligi va rivojlanishining ajralmas ko'rsatkichi individual ijodiy va kasbiy pedagogik faoliyatda amalga oshiriladigan individual tuzatish dasturlarini yaratishga tayyorligi bo'lishi kerak. Mutaxassisni tayyorlash maxsus ta'limni tashkil qilish, logopedik mashg'ulotlarning uzluksizligi, texnologik sharoitlarni sifatli yangilash kabi omillar ta'sirida shakllanadigan samarali o'quv muhitini yaratish bilan bog'liq.

Pedagog logopedlarni insonparvarlik, kasbiy mahoratini oshirish va faoliyatga yondashuv tamoyillari asosida shaxs xususiyatlarini rivojlantirish, shuningdek, oliy pedagogik maktabni o'tashi muhimdir. Zamonaviy logopedlarni kasbiy tayyorlash bilan bog'liq holda o'quv-pedagogik jarayonda shaxsiy-faoliyat, ko'p sub'ektiv va individual-ijodiy yondashuvlarni ta'kidlash kerakligini ko'rsatadi. Talabani mutaxassisga aylantirishning yaxlit va ayni paytda uzluksiz jarayonini ifodalovchi logopediya ta'limi tizimi zamonaviy pedagogika universitetida tayyorlashni modellashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida tan olingan. Buning uchun nazariy va amaliy, umumiy ta'lim va kasbiy tayyorgarlikning birligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Talabalarni insonparvarlik yo'nalishi, bola shaxsini barkamol rivojlantirish, unga har tomonlama logopedik bilimlarni taqdim etish, motivatsion qadriyat yo'nalishlarini shakllantirish va bo'lajak mutaxassisning intellektual va ma'naviy erkinligini ta'minlash muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Zamonaviy logoped faoliyatining o'ziga xos xususiyati, birinchi navbatda, bolalardagi nutq buzilishlarini tuzatishda, ammo zamonaviy logoped o'qituvchisi turli toifadagi bolalar, shu jumladan turli xil buzilishlari bo'lgan bolalar bilan ishlaydi, bu esa bolalarni o'qitish zarurligini taqozo etadi. Ilmiy-amaliy tadqiqot faoliyatiga qiziqish bildiradigan, kommunikativ, malakali va innovatsion texnologiyalarni amaliy faoliyatda qo'llay oladigan amaliyotchi sifatida qarash mumkin. Pedagog logoped nafaqat nutq rivojlanishidagi og'ishlarga, ikkilamchi nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar bilan shug'ullanishlari sababli katta bilim va tajribaga ega bo'lishlarini talab etadi. Logopedning korreksion ta'lim tizimida ishlash faoliyatiga tayyorligi nazariy bilimlarini amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llay olishi muhim ahamiyatga ega.

- Korreksion ish tizimiga psixologik tayyorgarlik, ya'ni ta'lim muassasasida pedagogik faoliyat o'rnatish va ishlashga shakllangan mahorat bo'lishi muammoli vaziyatlarda odilona yo'l tuta olishi talab etiladi;
- Ish faoliyatiga Imiy-nazariy va amaliy tayyorgarlik, ya'ni malakali pedagogik faoliyat uchun zarur bo'lgan pedagogik, psixologik, ijtimoiy bilimlarning mavjud bo'lishi;
- Faoliyatga amaliy tayyorgarlik, ya'ni talab darajasida shakllangan kasbiy ko'nikma va malakalarning mavjud bo'lishi;
- Jarayonga pedagigik tayyorgarlik, ya'ni o'qituvchilik faoliyatini o'zlashtirish uchun

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

tegishli shart-sharoitlarning mavjudligi, rivojlangan kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlarning mavjudligi;

- Ish faoliyatiga jismoniy tayyorgarlik, ya'ni salomatlik holati, jismoniy rivojlanishning pedagogik faoliyat va kasbiy faoliyat talablariga muvofiqligi mavjud bo'lishi kerak.

Nutq buzilishlariga ega bolalar bilan ishlash bo‘yicha olib borilgan zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nutqning rivojlanish jarayoni nafaqat biologik, balki sotsial-psixologik omillar ta’sirida shakllanadi. Shu bois logopedik yordamning samaradorligi bola atrofidagi kommunikativ muhit, emotsional qo‘llab-quvvatlash va oila bilan hamkorlik darajasiga bevosita bog‘liqdir.

Hozirgi kunda dunyo tajribasida logopediya sohasi faqat nutq kamchiliklarini tuzatish bilan cheklanmay, balki bolani har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvni talab etmoqda. Masalan, neyropsixologik diagnostika, kognitiv rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash, multisensor yondashuv va multimodal o‘qitish texnologiyalari logopedik jarayonga faol joriy etilmoqda. Bu metodlar O‘zbekiston ta’lim tizimida ham bosqichma-bosqich qo‘llanilmoqda.

Logopedlarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning kuchaytirilishi — talabaning nafaqat bilimga, balki amaliyotga tayyor shaxs sifatida shakllanishini ta’minlaydi. Zamonaviy logoped quyidagi yo‘nalishlarda yetarli tayyorgarlikka ega bo‘lishi kerak:

diagnostik kompetensiya — nutq buzilishining turini, darajasini aniqlay olish;

korreksion-kommunikativ kompetensiya — bola bilan samarali muloqot qilish va individual dastur tuza olish;

loyihaviy kompetensiya — tuzatish jarayonini rejalashtirish, monitoring qilish;

axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi — raqamli platformalar va ta’lim texnologiyalaridan foydalanish;

psixologik-emotsional barqarorlik — murakkab holatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish.

Ayrim zamonaviy tadqiqotlarda shuningdek logopedik faoliyatning interdisiplinar xususiyati kuchayib borayotgani ta’kidlanadi. Logoped psixolog, defektolog, pediatr, nevrolog, o‘qituvchi bilan hamkorlikda ishlashi kerak, bu esa bolaga kompleks yondashuvni ta’minlaydi.

Yana bir muhim yo‘nalish — inklyuziv ta’lim sharoitida logopedning roli. Inklyuziv muhitda logopedning vazifalari kengayadi: faqat alohida mashg‘ulotlar emas, balki o‘qituvchilarni metodik qo‘llab-quvvatlash, nutqiy muammoli bolalarni kuzatish va integratsion ta’limni tashkil etish zarur bo‘ladi. Bu esa logopeddan yuqori kommunikativ madaniyat, moslashuvchanlik va innovatsion yondashuvni talab qiladi.

Yuqoridagi shaxs sifatlari orqali bo’lajak logopedlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, mahoratli, o’z kasbini sevuchi va albatta izlanishda davom etish kerakligi ta’kidlanadi. Bo’lajak logopedlarni tayyorlashda har taraflama yetuk bilimli bo’lishlari va albatta zamonaviy bilimlar egasi bo’lishlari muhim jarayon hisoblanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagi PF-89-son Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son)
2. Ayupova M.Yu. Logopediya.T., Faylasuflar jamiyati, 2007.
3. Diagnostika narusheniy rechi u detey i organizatsiya logopedicheskoy raboти v usloviyax doshkol`nogo obrazovatel`nogo uchrejdeniya -SPb., 2000.
4. S.Yu.Shamsiyeva The Impact of Community on the Personal Development of Children with Speech Impediments in Preschool Age. International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) Vol. 20 No. 2 May 2020
5. S.Yu.Shamsiyeva MEMORY CHARACTERISTICS OF CHILDREN WITH SPEECH IMPAIRMENTS FORMATION OF. European international journal of pedagogics 19.11.2023
6. S.Yu.Shamsiyeva THE MAIN METHODS OF CORRECTING COMMUNICATIVE ACTIVITY IN CHILDREN WITH SPEECH IMPAIRMENT. American Journal of Interdisciplinary Research and Development.Volume 25, February, 2024
7. S.Yu.Shamsiyeva Features of Preparing Teaching Literacy Children with General Speech Underdevelopment . Eastern European Scientific Journal Ausgabe 1-2019

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Shamsiyeva Sevara Yusupovna**, o’qituvchi [**Шамсиева Севара Юсуповна** преподаватель], [**Shamsiyeva Sevara Yusupovna** teacher]; manzil: Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor ko’chasi 27 uy., [адрес: Узбекистан, ул Г. Ташкент, Чиланзарский район, ул. Бунедкор, дом 27.], [address: Tashkent, Chilanzar district, Bunyodkor St., 27.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

Original paper

# LOGISTIK TIZIMLARDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALAR FANINI O‘QITISH MAZMUNI

© N.N . Ulug‘murodova [1]✉

[1]Toshkent Davlat Transport Universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** raqamlashtirish jarayoni transport-logistika sohasida axborot oqimlari hajmining ortishi, tezkor qaror qabul qilish va xatosiz boshqaruv ehtiyoji bilan bevosita bog‘liq. Shu bois, logistika mutaxassislarini tayyorlashda AKT bo‘yicha fan mazmunini zamonaviy raqamli ta’lim resurslari, interaktiv topshiriqlar va amaliy kontent bilan boyitish dolzarbdir. Oliy ta’limda fanlar mazmuni va ko‘lamini mustaqil rejalashtirish imkoniyatlari kursni modul asosida tashkil etish uchun metodik sharoit yaratadi.

**MAQSAD:** tadqiqotning maqsadi — logistika tizimlarida AKT fanini o‘qitish mazmunini normativ asoslar, ta’lim standartlari va amaliy ehtiyojlar bilan uyg‘unlashtirib asoslash hamda raqamli ta’lim kursini loyihalashning samarali yo‘nalishlarini ko‘rsatishdir. Shuningdek, nazariy mavzularni qisqa, qiziqarli amaliy kontent bilan integratsiyalash va o‘z-o‘zini baholash vositalari orqali o‘qitish motivatsiyasini kuchaytirish mexanizmlarini yoritish ko‘zda tutiladi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari, shuningdek logistika yo‘nalishi bo‘yicha davlat ta’lim standartlari, malaka talablari va o‘quv rejalari metodologik baza sifatida tahlil qilindi. Fan mazmuni 15 modul asosida strukturallashtirilib, raqamli kursni loyihalashda dars va to‘garak vaqt reglamenti hamda fanning amaliy ahamiyati mezonlari hisobga olindi. Mustahkamlash va baholash uchun takrorlash savollari, turli formatdagi testlar hamda qisqa/uzun javobli topshiriqlarni qo‘llash tavsiya etildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** muhokama natijalariga ko‘ra, logistika tizimlarida AKTning o‘rni buyurtmalarni qayta ishlash tezligi, ma’lumotlarni olish va qayta ishlash, jarayonlarni rejalashtirish hamda tipik operatsiyalarni avtomatlashtirish orqali samaradorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Kurs mazmuni AKTning ko‘p komponentli tizim elementlari holatini tahlil qilish, boshqaruv jarayonlarini nazorat va diagnostika qilish, real holatlarni modellashtirish hamda kritik vaziyatlarni prognozlash kabi funksiyalarini qamrab olishi zarurligi asoslandi. Raqamli ta’lim muhitida nazariya va amaliyot uyg‘unligi, shuningdek o‘z-o‘zini baholash imkoniyatlari talabaning qiziqishi va motivatsiyasini oshiruvchi omil sifatida talqin qilindi.

**XULOSA:** logistik tizimlarda AKT fanini o‘qitish mazmuni raqamli iqtisodiyot sharoitida transport va logistika sohasini modernizatsiya qilish vazifalariga mos ravishda

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

normativ-huquqiy va metodik asoslarda shakllantirilishi lozimligi tasdiqlandi. Modul asosidagi raqamli kurs, amaliy kontent, test va savollar orqali mustahkamlash hamda diagnostik baholash vositalari ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. AKT ta’lim tizimida qo‘shimcha vosita emas, balki raqamli ta’lim resurslari orqali yangi bilimlar tartibini shakllantiruvchi imperativ omil ekani xulosalandi.

**Kalit so‘zlar:** logistika, transport, raqamli iqtisodiyot, AKT, raqamli ta’lim resurslari, multimedia, elektron ta’lim, modul, avtomatlashtirish, modellashtirish, diagnostika, innovatsion kompetensiya.

**Iqtibos uchun**: Ulug‘murodova N.N. Logistik tizimlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalar fanini o‘qitish mazmuni.// Inter education & global study. 2025. №12. B.c. 408–416.

## СОДЕРЖАНИЕ ОБУЧЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ В ЛОГИСТИЧЕСКИХ СИСТЕМАХ

©Н.Н. Улугмуродова[1]✉
[1]Ташкентский Государственный Транспортный Университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** цифровизация логистики обусловлена ростом объёмов информационных потоков, необходимостью быстрого принятия решений и повышением требований к качеству управления. В связи с этим актуализируется обновление содержания ИКТ-дисциплин за счёт цифровых ресурсов, интерактивных заданий и практико-ориентированного контента. Расширение автономии вузов в планировании образовательных программ позволяет эффективно реализовывать модульную структуру курса.

**ЦЕЛЬ:** цель исследования — методологически обосновать содержание преподавания ИКТ в логистических системах, увязав его с нормативными основаниями, образовательными стандартами и практическими потребностями отрасли. Дополнительно ставится задача определить эффективные решения для проектирования цифрового курса, усиливающего мотивацию обучающихся и обеспечивающего проверку освоения материала.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в качестве базы использованы закон «Об образовании», указы Президента и постановления Правительства, а также государственные образовательные стандарты, квалификационные требования и учебные планы по логистике. Содержание дисциплины структурировано в 15 модулей; при проектировании цифрового курса учитывались временные регламенты и практическая значимость тем. Для закрепления и контроля знаний предложены вопросы для повторения и тесты разных форматов, включая задания с краткими и развёрнутыми ответами.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** обсуждение показывает, что эффективность логистики напрямую зависит от скорости обработки заказов и получения данных,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

что требует внедрения современных программных решений и автоматизации типовых операций. Результаты анализа подтверждают необходимость включения в курс функций ИКТ: мониторинг состояния элементов системы, контроль и диагностика управления, моделирование реальных процессов, прогнозирование и предотвращение критических ситуаций. Отмечается, что сочетание практического контента с инструментами самооценки повышает учебную мотивацию и обеспечивает устойчивое усвоение материала.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** содержание преподавания ИКТ в логистических системах должно формироваться на нормативно-методической основе и соответствовать задачам цифровой трансформации транспорта и логистики. Модульный цифровой курс, практико-ориентированный контент и развитые средства оценивания повышают эффективность обучения и приближают его к требованиям практики. ИКТ в образовании рассматриваются не как вспомогательное средство, а как ключевой фактор формирования новой организации знаний в цифровой образовательной среде.

**Ключевые слова:** логистика, транспорт, цифровая экономика, ИКТ, цифровые образовательные ресурсы, мультимедиа, электронное обучение, модуль, автоматизация, моделирование, диагностика, инновационная компетентность.

**Для цитирования**: Улугмуродова. Н.Н. Содержание обучения информационно-коммуникационным технологиям в логистических системах.// Inter education & global study.2025. №12. С. 408–416.

## THE CONTENT OF TRAINING IN INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN LOGISTICS SYSTEMS

© Nargiza.N. Ulug‘murodova [1]✉
[1]Tashkent State Transport University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** digitalization in logistics is driven by rapidly growing information flows, the need for fast decision-making, and higher expectations for error-free operational management. Consequently, ICT-related course content must be updated through digital learning resources, interactive tasks, and practice-oriented materials. Increased institutional autonomy in higher education supports modular course design and flexible implementation within the university context.

**AIM:** the study aims to substantiate the course content of ICT in logistics systems by aligning it with regulatory documents, educational standards, and sector-specific practical needs. It further seeks to identify effective approaches to digital course design that enhance learner motivation and provide reliable mechanisms for knowledge consolidation and self-assessment.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

**MATERIALS AND METHODS:** the methodological basis includes national education legislation, presidential decrees, governmental resolutions, and logistics-related state standards, qualification requirements, and curricula. The course content is structured into 15 modules, with particular attention to time constraints and the practical relevance of topics. Knowledge reinforcement and assessment are supported through review questions and multiple testing formats, including single-choice, multiple-choice, short-answer, and extended-response tasks.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the discussion indicates that logistics performance depends directly on the speed of order processing and access to relevant information, making modern software solutions and automation indispensable. The analysis supports integrating ICT functions into the course: monitoring system elements and interactions, controlling and diagnosing management processes, modeling real-world operations, and forecasting and preventing critical situations. The results also suggest that combining applied content with self-assessment tools increases engagement and sustains learning outcomes in a digital learning environment.

**CONCLUSION:** the course content of ICT in logistics systems should be developed on a solid regulatory and methodological foundation and aligned with the objectives of digital transformation in transport and logistics. A modular digital course, practice-based materials, and diverse assessment instruments increase educational effectiveness and strengthen the link to real-world applications. ICT is thus framed not as a supplementary tool but as a core driver of knowledge organization within the digital educational environment.

**Keywords:** logistics, transport, digital economy, ICT, digital learning resources, multimedia, e-learning, modular design, automation, modeling, diagnostics, innovative competence.

**For citation**: Nargiza.N. Ulug‘murodova. (2025) ‘The content of training in information and communication technologies in logistics systems’, Inter education & global study, (12), pp. 408–416. (In Uzbek).

Logistik tizimlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalar fanining dasturi O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF6097-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha malakali kadrlarni tayyorlash mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, ta’lim jarayonini raqamlashtirish sharoitida pedagoglarning raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish, raqamli ta’lim resurslari asosida ta’lim jarayonini loyihalash kabi o‘qitishning zamonaviy shakllarini qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Logistik tizimlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalar fanini o‘qitishga doir raqamli ta’lim kursini ishlab chiqishda oliy ta’lim muassasalari dars yoki fan to‘garagi vaqt reglamenti va fanning amaliy ahamiyatiga alohida e’tibor qaratish lozim. Shundan kelib chiqqan holda nazariy mavzular uchun ham avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlarining transport sohalarida qo‘llanilishiga o‘xshash amaliy kontentni qisqa va qiziqarli holatda kiritish talab etiladi. Bunda talabaning darsga qiziqishi yanada oshishi, fanni o‘qishda qo‘shimcha motivatsiya paydo bo‘lishi mumkin. Shuningdek, har bir nazariy dars yakunida o‘rganilgan bilimlarni musahkamlash va o‘z-o‘zini baholash imkoniyatini taqdim etish uchun takrorlash savollari, bir tanlovli testlar, ko‘p tanlovli testlar, qisqa va uzun javobli savollar, ha yoki yo‘q javobli testlar va boshqalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tasniflash hujjatlar to‘plami, ekspertlar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan Logistik tizimlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalar fani bo‘yicha fan dasturi, Logistika mutaxassislarini tayyorlash bo‘yicha O’zbekiston respublikasi davlat ta’lim standartlari, talim yo‘nalishi malaka talabi va o‘quv rejaga asoslandi.

Quyida muallifning faol ishtirokida ishlab chiqilgan logistikani yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha taxsil olayotgan talabalar uchun 15ta modulga bo‘lingan Logistik tizimlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalar fanning mazmuni xususiyatlariga to‘xtalib o‘tamiz(1-расм).

Ushbu fan bo‘yicha o‘qitishning amalga oshirilishi ta’lim jarayonining raqamli ta’lim muhitiga o‘zgarishiga misoldir. Universitetda bunday kursni amalga oshirish imkoniyati hozirgi vaqtda ta’lim dasturlarini rejalashtirish asosan universitetlarning vakolatiga aylanganligi bilan izohlanadi, fanlar tarkibi, ularning o‘quv mazmuni va ko‘lami bo‘yicha cheklovlar amalda bartaraf etildi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

Axborot bilan boshqariladigan zamonaviy dunyo sharoitida logistika tizimining samarali ishlashini keng ma’lumotlar bazalaridan foydalanmasdan, turli kompaniyalarning agentlari o‘rtasidagi yaqin aloqa va aloqalarsiz, buyurtmalarni qayta ishlashning yaxshi yo‘lga qo‘yilgan tizimisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Maxsus ishlab chiqilgan dasturiy paketlar tufayli turli jarayonlarni tahlil qilish va rejalashtirish, tipik operatsiyalarni avtomatlashtirish, kiruvchi va chiquvchi axborot oqimlarini tezkor qayta ishlash muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda logistika sohasidagi AKT tendentsiyasi – bu avvalo, ishlab chiqarish muammolari va biznes jarayonlarini sifatli, tez va xatosiz hal qilish istagidir. Yangi logistika markazlarining vazifasi tashuvchilar o‘rtasidagi aloqani ta’minlash va ularni zarur ma’lumotlar bilan ta’minlashdan iborat.

Zamonaviy transport va logistika kompaniyasida AKT quyidagi funktsiyalarni bajarishi kerak:


• ko‘p komponentli tizimning turli elementlarining joriy holati va o‘zaro ta’sirini tahlil qilish;

• boshqaruv jarayonlarini nazorat qilish va diagnostika qilish;

• real hayotdagi harakat va hodisalarni modellashtirish;

• tanqidiy vaziyatlarni o‘z vaqtida bashorat qilish va oldini olish.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12




1-расм. Logistik tizimlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalar fanini o‘qitish mazmunining sxemasi.

Logistika sohasining samaradorligi va muvaffaqiyati buyurtmani qayta ishlash va kerakli ma’lumotlarni olish tezligiga bevosita ta’sir qiladi. Qayta ishlangan axborot oqimlarining ortib borayotgan hajmi zamonaviy jamiyat hayotining turli sohalariga AKTni joriy etishni zarur va muqarrar qiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

So‘nggi yillarda “axborot texnologiyalari” atamasi ko‘pincha “kompyuter texnologiyasi” atamasi bilan sinonim bo‘lib qoldi, chunki barcha axborot texnologiyalari hozirgi vaqtda yoki boshqa tarzda kompyuterdan foydalanish bilan bog‘liq. Kompyuterlashtirish axborot jarayonining ajralmas qismidir.

Zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarining o‘quv jarayoniga ulkan ta‘sirini hisobga olgan holda, ko‘plab o‘qituvchilar ularni o‘zlarining uslubiy tizimiga kiritish istagini kuchaytirmoqdalar. Biroq, oliy ta’limini axborotlashtirish jarayoni bir zumda sodir bo‘lishi mumkin emas, har qanday islohotga ko‘ra, u bosqichma-bosqich va uzluksizdir. Shunday qilib, axborot kommunikatsion texnologiyalar endi ta’lim tizimini to‘ldiruvchi vositalar emas, balki bilimlarning yangi tartibi va uning institutsional tuzilmalarini o‘rnatish uchun imperativ hisoblanadi.

Mamlakatimizda, xususan, ta’lim sohasida raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi bir qancha o‘ziga xos qulayliklarni yaratmoqda. Ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim sohasida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda dars o‘tish bugungi kun talabi sanaladi. Bugungi kun o‘qituvchisi bir joyda qotib qolmasdan dars o‘tishning yangi usullarini qidirib topishi, mashg‘ulotlarni turli xildagi zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitishi, dars jarayonini barcha uchun qiziqarli, maroqli, qulay, tushunarli va natijaviy bo‘lishini ta’minlashi kerak[].

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Farmon (2020) “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Ozbekiston Respublikasi prezidenti farmoni. 6079-05.10.2020
2. Farmon (2018) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevralda “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida 5349-son farmoni
3. Farmon (2020) “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Ozbekiston Respublikasi prezidenti farmoni. 6079-05.10.2020
4. Dušan Krnel, Barbra Bajd. LEARNING AND E-MATERIALS. Acta Didactica Napocensia, ISSN 2065-1430. Volume 2 Number 1, 2009. P-103.
5. Farmon (2020) “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Ozbekiston Respublikasi prezidenti farmoni. 6079-05.10.2020.
6. Farmon (2020) “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Ozbekiston Respublikasi prezidenti farmoni. 6079-05.10.2020

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

7. Karriyeva Y., Masharipova Sh., Karriyeva Sh., Karriyev K., Sobirova N./ Raqamli Logistikani Rivojlantirishda Axborot Texnologiyalarni O'rni //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2024-yil, mart, UO'K: 6.03.2:6П2.15.7
8. Moxira Rasulovna Sobirova. "BLENDED LEARNING" – ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASI. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 5/2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Ulug'murodova Nargiza Norovna**, o'qituvchi [**Улугмуродова Наргиза Норовна**,преподаватель], [**Ulug'murodova Nargiza Norovna** teacher]; manzil: Toshkent shahar Mirobod tumani Temiryo'lchilar ko'chasi 1-uy, [адрес: Мирабадский район г. Ташкента улица железнодорожников 1], [address: Mirabad district of Tashkent, 1 Zheleznodorozhnikov Street.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

Original paper

# PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR NAZARIYASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ASOSIY YO‘NALISHLARI

© A.O. Xomidjonov[1]✉

[1]Namangan davlat universiteti, Namangan, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** pedagogik texnologiyalar nazariyasi ta’lim jarayonini tizimli va samarali tashkil etishning ilmiy asoslarini yaratadi; global o‘zgarishlar va raqamli transformatsiya bu nazariyaning yangi paradigmalarni ishlab chiqishini talab etadi. Maqolada nazariya evolyutsiyasi klassik didaktik yondashuvlardan interaktiv, faoliyatga yo‘naltirilgan va raqamli o‘quv tizimlariga o‘tish kontekstida yoritiladi.

**MAQSAD:** tadqiqotning maqsadi — pedagogik texnologiyalar nazariyasining rivojlanish bosqichlari va asosiy yo‘nalishlarini tizimli tahlil qilish, global va milliy tajriba uyg‘unligini metodologik jihatdan asoslash hamda amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy xulosalar chiqarishdir.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** maqolada tarixiy-metodik, tizimli va komparativ tahlil metodlari qo‘llanib, induktiv hamda deduktiv yondashuvlar orqali nazariy xulosalar umumlashtirilgan. Shuningdek, sifatli va miqdoriy usullar uyg‘unlashtirilgan holda pedagogik texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi samaradorligini baholashga qaratilgan metodologik asoslar keltiriladi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** natijalar pedagogik texnologiyalar nazariyasi klassik didaktik modeldan interaktiv, individualizatsiyalashgan va raqamli tizimlarga izchil rivojlanganini ko‘rsatadi. Muhokamada D.H. Jonassenning muammoga yo‘naltirilgan konstruktiv yondashuvi hamda C. Dede’ning shaxsga yo‘naltirilgan adaptiv konsepsiyasi qiyoslanib, ularning sintezi zamonaviy ta’lim samaradorligini oshirish uchun kompleks model zarurligini asoslaydi.

**XULOSA:** tadqiqot pedagogik texnologiyalar nazariyasining bosqichma-bosqich rivojlanishi ta’lim samaradorligini oshirish, tanqidiy fikrlash va ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda resurslarni boshqarishni optimallashtirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi. Jonassen va Dede qarashlarini integratsiyalash zamonaviy ta’lim tizimi uchun amaliy jihatdan moslashuvchan va innovatsion metodologik platforma yaratish imkonini beradi.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik texnologiyalar, nazariya, rivojlanish bosqichlari, didaktik-metodik yo‘nalish, axborot-kommunikatsiya, innovatsion yondashuv, global tajriba, O‘zbekiston amaliyoti.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

**Iqtibos uchun**: Xomidjonov A.O. Pedagogik texnologiyalar nazariyasining rivojlanish bosqichlari va asosiy yo‘nalishlari. // Inter education & global study. 2025. №12 B.417–424.

# ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ТЕОРИИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

© А.О. Хомиджонов[1]✉
[1] Наманганский государственный университет, Наманган, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** теория педагогических технологий рассматривается как научная основа системной и эффективной организации образовательного процесса в условиях глобальных изменений и цифровой трансформации. В статье подчеркивается переход от классических дидактических моделей к интерактивным, деятельностным и цифровым решениям обучения.

**ЦЕЛЬ:** цель исследования — системно раскрыть этапы развития и ключевые направления теории педагогических технологий, сопоставив глобальный опыт и национальную практику, и обосновать методологические подходы к их прикладной реализации.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** использованы историко-методический, системный и сравнительный анализ, а также индуктивные и дедуктивные процедуры обобщения. Методологическая часть основана на сочетании качественных и количественных подходов для оценки эффективности технологических решений в педагогическом процессе.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты демонстрируют последовательное развитие теории от классической дидактики к интерактивным, индивидуализированным и цифровым педагогическим системам. В обсуждении сопоставляются подходы D.H. Jonassen (конструктивистский, проблемно-ориентированный) и C. Dede (личностно-ориентированный, адаптивный), а их интеграция трактуется как условие построения комплексной модели повышения качества образования.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** сделан вывод о том, что развитие теории педагогических технологий формирует научные основания для повышения эффективности обучения, развития критического мышления и оптимизации управления образовательными ресурсами. Синтез подходов Jonassen и Dede рассматривается как перспективное направление для адаптивного внедрения инновационных технологий в современную образовательную практику.

**Ключевые слова:** педагогические технологии, теория, этапы развития, образовательный процесс, педагогическая инновация, методологические подходы, глобальный опыт, практика Узбекистана.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

**Для цитирования**: Хомиджонов А.О. Этапы развития и основные направления теории педагогических технологий. // Inter education & global study.2025. №12. С. 417–424.

# DEVELOPMENT STAGES AND MAIN DIRECTIONS OF THE THEORY OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

© Abrorjon.O. Xomidjonov[1]✉
[1]Namangan State University, Namangan, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** the theory of pedagogical technologies is framed as a scientific basis for organizing educational processes systematically and effectively amid global change and digital transformation. The paper highlights the shift from classical didactic models toward interactive, learner-centered, and digitally supported instructional systems.

**AIM:** the study aims to systematize the stages and core directions of pedagogical technology theory, relate global experience to Uzbekistan's practice, and substantiate methodological pathways for effective application in contemporary education.

**MATERIALS AND METHODS:** the methodology integrates historical-methodological inquiry with system and comparative analysis, supported by inductive and deductive reasoning. Qualitative and quantitative approaches are combined to interpret conceptual evolution and to justify evidence-informed recommendations for practice.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the findings indicate a sustained evolution from classical didactics to interactive, individualized, and digital pedagogical systems. The discussion contrasts D.H. Jonassen's problem-oriented constructivist perspective with C. Dede's learner-centered adaptive view and argues that their synthesis supports a comprehensive model for improving educational effectiveness.

**CONCLUSION:** the study concludes that pedagogical technology theory provides a robust framework for enhancing learning effectiveness, cultivating critical and creative competencies, and optimizing educational resource management. Integrating Jonassen and Dede's approaches is presented as a practical and scalable direction for implementing innovation within modern education systems.

**Keywords:** pedagogical technologies, theory, development stages, educational process, pedagogical innovation, methodological approaches, global experience, Uzbekistan's practice.

**For citation**: Abrorjon.O. Xomidjonov. (2025) 'Development stages and main directions of the theory of pedagogical technologies', Inter education & global study, (12), pp. 417–424. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

Pedagogik texnologiyalar nazariyasi zamonaviy ta’lim jarayonlarini tizimli va samarali tashkil etishning ilmiy asoslarini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Ta’lim sohasida yuzaga kelayotgan global o‘zgarishlar, raqamli transformatsiya jarayonlari va pedagogik innovatsiyalarning rivojlanishi pedagogik texnologiyalar nazariyasining yangi paradigmalarni ishlab chiqishini taqozo etadi[1]. Nazariy jihatdan pedagogik texnologiyalar nazariyasi ta’lim jarayonini optimallashtirish, o‘quvchilarning individual va guruhdagi faoliyatini samarali boshqarish, shuningdek, pedagogik maqsadlarni tizimli tarzda amalga oshirishga qaratilgan metodologik yondashuvlar majmuasini tashkil etadi. Pedagogik texnologiyalar nazariyasining shakllanishi bir necha bosqichlardan o‘tgan bo‘lib, ularning har biri ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishga o‘ziga xos hissa qo‘shgan[2]. Ilk bosqich pedagogik jarayonni sistematik tushunishga asoslangan klassik nazariyalar bilan bog‘liq bo‘lib, bunda asosiy e’tibor o‘qituvchi markazida ta’limning tashkil etilishiga qaratilgan. Shu davrda metodikalar, o‘quv dasturlari va baholash tizimlari birlamchi shaklda ishlab chiqilgan bo‘lib, ular ko‘proq didaktik yondashuvga tayangan. Ikkinchi bosqichda pedagogik texnologiyalarning tizimli va integrativ tushunchalari shakllandi, bunda ta’lim jarayoni turli pedagogik modullar va metodlar orqali optimallashtirildi. Bu davrda ta’lim jarayonini interaktiv, faoliyatga yo‘naltirilgan va individual o‘quvchi ehtiyojlarini hisobga oladigan tizim sifatida ko‘rish tendensiyasi kuchaydi. Hozirgi uchinchi bosqich pedagogik texnologiyalar nazariyasining global ta’lim jarayonlarida tatbiq etilishi bilan tavsiflanadi. Raqamli texnologiyalar, onlayn ta’lim platformalari, sun’iy intellektga asoslangan o‘quv tizimlari pedagogik jarayonni individualizatsiyalash, samaradorligini oshirish va o‘quv natijalarini real vaqtda baholash imkonini beradi[3]. Shu bilan birga, pedagogik texnologiyalar nazariyasi nafaqat o‘quv jarayonini, balki pedagogik faoliyatni boshqarish, ta’lim resurslarini yaratish va o‘quv jarayonini monitoring qilish jarayonlarini ham o‘z ichiga oladi.nPedagogik texnologiyalar nazariyasining asosiy yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: birinchidan, didaktik va metodik yo‘nalish, bunda ta’lim mazmunini tizimli shakllantirish va o‘quv jarayonini samarali tashkil etish masalalari ko‘rib chiqiladi; ikkinchidan, axborot-kommunikatsiya yo‘nalishi, bu yo‘nalish pedagogik jarayonda raqamli va interaktiv resurslardan foydalanish, o‘quv faoliyatini individualizatsiyalash va onlayn platformalarda ta’lim jarayonini boshqarish imkoniyatlarini o‘rganadi; uchinchidan, innovatsion va kreativ yo‘nalish, bunda pedagogik jarayonni yangi pedagogik g‘oyalar, texnologiyalar va metodik yondashuvlar orqali boyitish masalalari tahlil qilinadi[4]. Shuningdek, pedagogik texnologiyalar nazariyasining rivojlanishida ilmiy tadqiqotlar, tajribaviy ishlar va xorijiy davlatlarda amalga oshirilgan pedagogik eksperimentlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, AQSh, Finlyandiya, Singapur kabi mamlakatlarda pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini optimallashtirishga qaratilgan strategik tizimlar shakllantirilgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston ta’lim tizimida pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan bir qatorda milliy an’ana va qadriyatlarni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

inobatga olish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu bo‘limi davomida pedagogik texnologiyalar nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi tarixiy kontekstda, ilmiy-texnikaviy inqilob, pedagogik g‘oyalar tarixi va amaliyot tajribasi asosida tahlil qilinadi. Bu tahlil nafaqat nazariy asoslarni aniqlash, balki zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tadbiq etish uchun metodologik platforma yaratishga xizmat qiladi[5]. Shu bois, pedagogik texnologiyalar nazariyasi hozirgi ta’lim tizimida markaziy o‘rin tutadi, u ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, pedagogik faoliyatni tizimlashtirish va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish imkonini beradi. Pedagogik texnologiyalar nazariyasining rivojlanish bosqichlari va asosiy yo‘nalishlarini chuqur o‘rganish, global va milliy tajribani solishtirish, shuningdek, yangi metodologik yondashuvlar yaratish zamonaviy ta’lim tizimi samaradorligini oshirishda asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqola pedagogik texnologiyalar nazariyasini tizimli va kompleks tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, uning natijalari pedagogik jarayonni yanada takomillashtirish va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili: Pedagogik texnologiyalar nazariyasining rivojlanishiga oid ilmiy manbalarni tahlil qilganda, birinchi navbatda, amerikalik olim David H. Jonassenning ishlari alohida e’tiborga loyiqdir. Jonassen pedagogik texnologiyalarni o‘quv faoliyatini optimallashtirish va muammoga yo‘naltirilgan yondashuv orqali o‘quv jarayonini samarali tashkil etish kontekstida tadqiq etgan. Uning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, texnologiyalarni pedagogik jarayonga integratsiya qilish faqat axborot vositasi sifatida emas, balki o‘quvchining tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida amalga oshirilishi zarur [6]. Jonassen pedagogik texnologiyalarni interaktiv va konstruktiv yondashuv nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadi, bunda ta’lim jarayoni o‘quvchining faolligi va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalari bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi. Shuningdek, Jonassenning tadqiqotlari ta’lim jarayonida texnologik vositalarning o‘quv natijalarini oshirish, individual va guruhdagi o‘quv faoliyatini boshqarish hamda pedagogik nazorat va baholash tizimlarini takomillashtirish imkoniyatlarini ochib beradi. Ikkinchi e’tiborli manba sifatida ingliz olimi Chris Dedening ilmiy ishlari keltirilishi mumkin. Dede pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayonining shaxsga yo‘naltirilgan va kontekstga moslashgan shakllarini yaratish nuqtai nazaridan tadqiq etgan. U, ayniqsa, raqamli va interaktiv pedagogik muhitlarning o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi rolini o‘rganadi[7]. Dede ta’lim jarayonida texnologik yondashuvlarni qo‘llashning samaradorligi pedagogik metodlar, o‘quv mazmuni va baholash tizimlarining kompleks integratsiyasi orqali yuzaga kelishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, u o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda adaptiv o‘quv muhitini yaratish pedagogik texnologiyalar nazariyasining muhim yo‘nalishi ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu ikki olimning ishlari pedagogik texnologiyalar nazariyasining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Jonassenning konstruktiv va muammoga yo‘naltirilgan yondashuvi hamda Dede tomonidan taqdim etilgan shaxsga yo‘naltirilgan adaptiv metodologiya

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

pedagogik texnologiyalar nazariyasining rivojlanish bosqichlarini va asosiy yo‘nalishlarini tushunishga muhim ilmiy asos yaratadi. Shu nuqtai nazardan, ularning ilmiy ishlari nafaqat global ta’lim tajribasini aks ettiradi, balki O‘zbekiston ta’lim tizimida pedagogik texnologiyalarni samarali tatbiq etishning metodologik asoslarini shakllantirishga yordam beradi.

Metodologik qism: Ushbu maqolada pedagogik texnologiyalar nazariyasini chuqur o‘rganish va tahlil qilish jarayonida bir qator metodologik yondashuvlar qo‘llanildi; jumladan, tarixiy-metodik tahlil orqali pedagogik texnologiyalarning shakllanish bosqichlari va rivojlanish yo‘nalishlari tarixiy kontekstda o‘rganildi, tizimli tahlil metodi yordamida nazariy va amaliy jihatlar bir-biriga integratsiyalashgan holda baholandi, komparativ tahlil orqali xorijiy va milliy pedagogik tajribalar solishtirildi, shuningdek, induktiv va deduktiv metodlar orqali umumiy pedagogik nazariyalarni aniqlash va ularni zamonaviy ta’lim jarayonlariga tatbiq etish mexanizmlari tahlil qilindi, interaktiv va eksperimental usullar orqali pedagogik texnologiyalarning o‘quv jarayonidagi samaradorligi o‘lchandi, shu bilan birga, sifatli va miqdoriy tadqiqot usullari uyg‘unlashtirilgan holda ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi, natijada maqola pedagogik texnologiyalar nazariyasining konseptual va amaliy jihatlarini kompleks tarzda yoritish imkonini berdi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogik texnologiyalar nazariyasi tarixiy bosqichlar davomida doimiy ravishda rivojlanib, klassik didaktik yondashuvlardan interaktiv, individualizatsiyalashgan va raqamli pedagogik tizimlarga o‘tgan bo‘lib, bu jarayonda Jonassenning muammoga yo‘naltirilgan konstruktiv metodologiyasi va Dede tomonidan taqdim etilgan shaxsga yo‘naltirilgan adaptiv texnologiyalar pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodiy va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, ta’lim resurslarini tizimli boshqarish va baholashni optimallashtirish imkoniyatlarini yaratishini ko‘rsatdi, natijada global va milliy pedagogik tajribalarni uyg‘unlashtirish orqali pedagogik texnologiyalar nazariyasining konseptual va amaliy jihatlarini yanada mukammallashtirish hamda zamonaviy ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etishning ilmiy asoslarini shakllantirish imkoniyati yuzaga keldi.

Muxokama: Pedagogik texnologiyalar nazariyasining rivojlanishi va uning amaliy pedagogik jarayonga tatbiq etilishi masalasi ilmiy muhokamada keng o‘rin olgan. David H. Jonassen va Chris Dede pedagogik texnologiyalarni o‘rganishdagi yondashuvlarida ayrim jihatlarda kelishmovchiliklarni ko‘rsatadilar. Jonassenning konstruktiv yondashuvi ta’lim jarayonida o‘quvchining faolligi va muammoga yo‘naltirilgan o‘rganish imkoniyatlarini birinchi o‘ringa qo‘yadi, u pedagogik texnologiyalarni interaktiv vosita sifatida emas, balki o‘quv jarayonining markaziy komponenti sifatida ko‘radi. Uning fikricha, texnologik vositalar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishda vosita bo‘lishi kerak, biroq u o‘quv jarayonining individual kontekstini yetarlicha hisobga olmaydi[8]. Boshqa tomondan, Dede pedagogik texnologiyalarni shaxsga yo‘naltirilgan va adaptiv tizim sifatida talqin qiladi, u raqamli va

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

interaktiv muhitlarning o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashuvi pedagogik samaradorlikni belgilovchi asosiy omil ekanligini ta’kidlaydi. Dede nuqtai nazarida texnologiyalar o‘quv jarayonini diversifikatsiya qilish, individual ta’lim yo‘nalishlarini yaratish va global pedagogik standartlarga moslashish imkonini beradi, ammo u konstruktiv yondashuvning markaziy ahamiyatini, xususan muammoga yo‘naltirilgan faoliyatni yetarli darajada ko‘rib chiqmaydi. Ushbu polemikada ko‘rinib turibdiki, Jonassen va Dede o‘rtasidagi ilmiy munozara pedagogik texnologiyalar nazariyasining rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashda muhim metodologik va amaliy jihatlarni belgilaydi[9]. Jonassenning yondashuvi pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayonining mazmuni va strukturasi bilan integratsiyalashgan holda qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi, Dede esa texnologik vositalarning o‘quvchining individual ehtiyojlariga moslashishi va adaptiv pedagogik muhit yaratishning ahamiyatini urg‘ulaydi. Bu ikki qarashning integratsiyasi pedagogik texnologiyalar nazariyasini yanada mukammal, global va milliy pedagogik tajribaga moslashgan tizim sifatida shakllantirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik texnologiyalar nazariyasi nafaqat nazariy jihatdan rivojlanishi, balki amaliy pedagogik jarayonda samarali tatbiq etilishi uchun, Jonassen va Dede yondashuvlarining sinteziga asoslangan kompleks metodologik modelni ishlab chiqish zarur[10]. Bu yondashuv o‘quv jarayonini interaktiv, individualizatsiyalashgan va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan boyitish orqali ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy pedagogik muammolarni hal qilish imkonini beradi. Shu tariqa, ikki olimning ilmiy polemikasi pedagogik texnologiyalar nazariyasini rivojlantirish va uni amaliy pedagogik faoliyatga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy asoslarni mustahkamlaydi.

Xulosa: Ushbu maqolada pedagogik texnologiyalar nazariyasining rivojlanish bosqichlari, asosiy yo‘nalishlari va global hamda milliy pedagogik tajribaga ta’siri ilmiy tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pedagogik texnologiyalar nazariyasi tarixiy bosqichlardan o‘tib, klassik didaktik yondashuvlardan interaktiv, individualizatsiyalashgan va raqamli pedagogik tizimlarga rivojlangan bo‘lib, bu jarayonda o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish, tanqidiy fikrlash va ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, shuningdek, ta’lim resurslarini tizimli boshqarishning ilmiy asoslari yaratilgan. Maqolada tahlil qilingan Jonassen va Dede ilmiy ishlari pedagogik texnologiyalar nazariyasining konstruktiv va adaptiv yondashuvlarini o‘zaro solishtirish imkonini beradi, shuningdek, ularning ilmiy polemikasi pedagogik jarayonni optimallashtirish va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishda muhim metodologik yo‘nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi. Shu tariqa, pedagogik texnologiyalar nazariyasining konseptual va amaliy jihatlari integratsiyalashgan holda o‘rganildi va zamonaviy ta’lim tizimida samarali tatbiq etish uchun ilmiy asoslar yaratilgan. Natijada, maqola pedagogik texnologiyalar nazariyasini yanada mukammal tushunish, global va milliy pedagogik tajribani solishtirish, shuningdek, pedagogik jarayonlarni optimallashtirish va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Ushbu tadqiqot pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoni, pedagogik faoliyat va ta’lim sifatini yaxshilashga qaratilgan ilmiy asos

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

sifatida xizmat qiladi, bu esa O‘zbekiston ta’lim tizimida innovatsion pedagogik yondashuvlarni rivojlantirishda muhim hissa qo‘shadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mirhayitova S. I. Pedagogik texnologiya //Muqimiy nomidagi Qoqon Davlat Pedagogika Instituti, pedagogik texnologiya bo'yicha o'quv qo'llanma. Toshkent-2020. – 2020.
2. Axmedjanov M. M., Tojiyev M., Tosheva G. D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat //Toshkent-2018.
3. Otajonovna K. M. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA O ‘QITUVCHINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH //ИКРО журнал. – 2025. – Т. 14. – №. 02. – С. 334-342.
4. Salomov F. J. PEDAGOGIK SALOHIYATNI SHAKLLANTIRISHDA NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASINING AHAMIYATI //INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES. – 2024. – Т. 1. – №. 11. – С. 41-45.
5. Rahmonqulova N. X., Matnazarova K. O. PEDAGOGIKA NAZARIYASI YA TARIXI. – 2010.
6. Abdullayeva N. J., Botirova O. PEDAGOGIK MAXORAT TUSHUNCHASI, TUZILISHI VA TIZIMI //Global Science Review. – 2025. – Т. 2. – №. 1. – С. 179-183.
7. Sharopova Z. F. Ta'lim texnologiyalari //Navro ‘z”, Toshkent. – 2019.
8. Jurayev B. T. Pedagogik va psixologik fanlarni o ‘qitish metodikasi //Fan va talim” Buxoro-2022. – 2022.
9. Azimova T. Yan amos komenskiyning pedagogik nazariyasi //Qo ‘qon universiteti xabarnomasi. – 2024. – Т. 11. – С. 60-63.
10. Mamurov B. Umumiy pedagogika //Barcha ta’lim yo’nalishi talabalari uchun darslik:-Toshkent. – 2020. – Т. 118.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Xomidjonov Abrorjon Olimjon o'g'li**, tadqiqotchi[**Хомиджонов Аброржон Олимжонович**, исследователь,], [**Xomidjonov Abrorjon Olimjon o'g'li** researcher,]; manzil: 160107, Boburshox ko'chasi, 161-uy, [адрес: 160107, ул. Бабуршох, д. 161], [address: 160107, Boburshokh Street, 161.]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# BAKALAVRIAT BOSQICHIDA MUSIQA O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

© D.Z. Sabirdjanova[1]✉
[1]Xalqaro Nordik universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: bakalavriat bosqichida musiqa o‘qitish metodikasini takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, integrativ va innovatsion-pedagogik yondashuvlarning mazmun-mohiyati ochib berilib, ularning musiqa ta’limi jarayonidagi o‘rni va samaradorligi asoslanadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar, loyiha va muammoli ta’lim elementlarini qo‘llash orqali talabalarning ijodiy faolligi, kasbiy motivatsiyasi hamda musiqiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi. Maqolada bakalavriat talabalari uchun musiqa fanlarini o‘qitishda metodik tizimni modernizatsiya qilishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan oshirishga xizmat qiladi.

**MAQSAD**: bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar (masalan, Ukraina akademik nashrlarida) o‘qituvchining raqamli kompetensiyasi, darsni vizuallashtirish, tinglash-tahlil faoliyatini raqamli muhitda tashkil etish kabi masalalarni amaliy tavsiyalar bilan boyitadi. Bu yo‘nalishdagi ishlarda ko‘pincha ijobiy effekt qayd etilsa-da, metodik risk ham bor: texnologiya “maqsad” emas, “vosita” bo‘lib qolishi, ya’ni musiqiy tafakkur va badiiy didni shakllantiradi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** har bir dars mavzusini o'rganishda o'ziga xos texnologiya, usul va vositalarnitanlashga to'g'ri keladi. Zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishga, mustaqil o'rganish, taxlil qilishvaolinganbilimlardan o'zlari xulosa chiqarishga o'rgatadi musiqa o‘qitish metodikasini takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlari asosida “Rangli tovushlar” metodi, “Xor zanjiri” interaktiv metodi, “Ritmik kompozitsiya” metodi orqali kasbiy va metodik kompetensiyasini shakllantirish, o‘quv jarayonini modulli, kompetensiyaviy va innovatsion asosda tashkil etish

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: tadqiqot natijalari ichki talabalarda musiqiy ijrochilik va nazariy bilimlar faolligini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani ni ko‘rsatdi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy-metodik kompetensiyasini shakllantirish o‘quv jarayoniga ongli yondashadi, mustaqil bilim izlaydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Musiqa ta’limi va musiqiy ohangni chuqur tahlil qiladi va o‘z kasbiy o‘sishini rivojlantirishga intiladi. Ularda ijodiy fikrlash va intellektual tashabbus yuqori bo‘ladi.

Shu sababli musiqa ta’lim jarayonida ichki motivatsiyani, ruhiy-emotsional holatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlovchi sharoitlarni yaratish zarur: faol o‘ qitish metodlari , ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, talaba tashabbusi ni rag‘batlantirish va shaxsiy mazmunga ega maqsadlar belgilash

**XULOSA:** bakalavriat bosqichida musiqa o‘qitish metodikasini takomillashtirish samaradorligi quyidagi shartlar bilan belgilanadi: kompetensiyaviy yondashuvni aniq baholash mezonlari bilan qo‘llash; talabaga yo‘naltirilgan va ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi metodlarni joriy etish; raqamli texnologiyalarni musiqiy mazmun va tarbiyaviy maqsadlar bilan uyg‘unlashtirish; milliy va umuminsoniy musiqiy qadriyatlarni pedagogik jarayonga integratsiya qilish. Ushbu yondashuvlar uyg‘unligi bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi

**Kalit so'zlar**: musiqa ta’limi, musiqa o‘qitish metodikasi, kompetensiyaviy yondashuv, interaktiv metodlar, kasbiy kompetensiya, ijodiy faoliyat.

**Iqtibos uchun**: Sabirdjanova D.Z. Bakalavriat bosqichida musiqa o‘qitish metodikasini takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlari // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. B.425–435.

## СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ МУЗЫКЕ НА УРОВНЕ БАКАЛАВРИАТА

© Д.З. Сабирджанова[1]✉
[1]Международного Северного (Nordic) университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: на этапе бакалавриата проводится научно-теоретический и практический анализ современных подходов к совершенствованию методики преподавания музыки. Исследование раскрывает сущность компетентностного, личностно-ориентированного, интегративного и инновационно-педагогического подходов, исходя из их роли и эффективности в процессе музыкального образования. Возможности для развития творческой активности, профессиональной мотивации и музыкально-педагогических компетенций студентов также подчеркиваются использованием цифровых технологий, интерактивных методов, проектных и проблемных образовательных элементов. В статье разрабатываются рекомендации, направленные на модернизацию методической системы преподавания музыки студентам старших курсов, что послужит качественному повышению профессиональной подготовки будущих учителей музыки.

**ЦЕЛЬ**: исследования по использованию современных цифровых технологий в подготовке будущих учителей музыки (например, в украинских академических

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

изданиях) обогащают практическими рекомендациями такие вопросы, как цифровая компетентность учителя, визуализация урока, организация аудио-аналитической деятельности в цифровой среде. Хотя в работах в этом направлении часто отмечается положительный эффект, существует и методический риск: технология становится “инструментом”, а не “целью”, то есть формирует музыкальное мышление и художественный вкус.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: при изучении каждой темы урока приходится выбирать свою технологию, методы и средства. Современные технологии учат школьников самостоятельно искать полученные знания, самостоятельно учиться, анализировать и делать выводы из полученных знаний на основе современных подходов к совершенствованию методики преподавания музыки формировать профессионально-методическую компетентность методом “цветные звуки”, интерактивным методом “хоровая цепочка”, методом “ритмическая композиция”, осуществлять модульную, компетентностную организацию учебного процесса. и создание на инновационной основе

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: результаты исследования показали, что музыкальное исполнение и теоретические знания имеют решающее значение для формирования активности у внутренних студентов. Формирование профессионально-методической компетентности будущих учителей музыки предполагает осознанный подход к учебному процессу, поиск самостоятельных знаний, Глубоко анализирует музыкальное образование и музыкальный тон и стремится способствовать собственному профессиональному росту. У них будет высокое творческое мышление и интеллектуальная инициатива. Поэтому музыка в процессе обучения необходимо создавать условия, способствующие развитию внутренней мотивации , психоэмоционального состояния: активные методы воспитания, творческие задания, проблемные ситуации, стимулирование инициативы ученика и постановка целей с личностным содержанием

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: эффективность совершенствования методики обучения музыке на бакалавриате определяется следующими условиями: применение компетентностного подхода с четкими критериями оценки; внедрение методик, ориентированных на студента и поддерживающих творческую деятельность; гармонизация цифровых технологий с музыкальным содержанием и воспитательными целями; интеграция национальных и общечеловеческих музыкальных ценностей в педагогический процесс. Сочетание этих подходов служит для вывода профессиональной подготовки будущих учителей музыки на качественно новый уровень

**Ключевые слова**: музыкальное образование, методика преподавания музыки, компетентностный подход, интерактивные методы, профессиональная компетентность, творческая деятельность.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Для цитирования**: Д.З.Сабирджанова Современные подходы к совершенствованию методики обучения музыке на уровне бакалавриата. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. С. 425–435.

# MODERN APPROACHES TO IMPROVING MUSIC TEACHING METHODOLOGY AT THE BACHELOR'S DEGREE LEVEL

© Dilnozakhon Z. Sabirdjanova[1]✉
[1]International Nordic University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: at the undergraduate stage, modern approaches to improving the methodology of teaching music are analyzed scientifically-theoretically and practically. The study reveals the essence of competency, personality-oriented, integrative and innovative-pedagogical approaches, on the basis of their role and effectiveness in the process of music education. Opportunities for the development of creative activity, professional motivation and musical-pedagogical competencies of students are also highlighted by the use of digital technologies, interactive methods, project and problematic educational elements. The article develops recommendations aimed at modernizing the methodological system in teaching music for undergraduate students, which will serve to qualitatively increase the professional training of future music teachers.

**AIM:** research on the use of modern digital technologies in the preparation of future music teachers (for example, in Ukrainian academic publications) enriches such issues as digital competence of the teacher, visualization of the lesson, Organization of listening-analysis activities in a digital environment with practical recommendations. While work in this direction often notes a positive effect, there is also a methodological risk: that technology remains a "tool", not a "goal", that is, it forms musical thinking and artistic taste.

**MATERIALS AND METHODS**: in the study of each subject of the lesson, a specific technology, methods and tools are appropriate for the study. Modern technologies teach students to search for the knowledge they are acquiring, to independently learn, to draw conclusions from the methods themselves, to organize the educational process on a modular, competency and innovative basis, to form professional and methodological competence through the method of "rhythmic composition", the method of "color sounds", the interactive method of "Chorus chain",

**DISCUSSION AND RESULTS**: the results of the study showed that musical performance and theoretical knowledge in domestic students are decisive in the formation of activity. The formation of professional and methodological competence of future music teachers takes a conscious approach to the educational process, seeks independent knowledge, It provides an in-depth analysis of music education and musical tone and seeks to develop its own professional growth. They will have a higher level of creative thinking and intellectual initiative. Therefore, in the process of music education, it

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

is necessary to create conditions that support the development of internal motivation, mental-emotional state: active teaching methods , creative assignments, problem situations, stimulation of the student's initiative and setting goals with personal content

**CONCLUSION:** the effectiveness of improving the methodology of teaching music at the undergraduate stage is determined by the following conditions: applying a competency approach with clear assessment criteria; introducing methods that support student-oriented and creative activities; harmonizing digital technologies with musical content and educational goals; integrating national and universal musical values into the pedagogical process. The harmony of these approaches serves to bring the professional training of future music teachers to a qualitatively new level

**Key words**: music education, music teaching methodology, competency approach, interactive methods, professional competence, creative activity.

**For citation**: Dilnozakhon Z. Sabirdjanova. (2025) Modern Approaches to Improving Music Teaching Methodology at the Bachelor's Degree Level, Inter education & global study, vol.3 (12), pp. 425–435. (In Uzbek).

**B**ugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimi, xususan, bakalavriat bosqichida musiqa o'qitish metodikasiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarib bormoqda. Jamiyatning madaniy-ma'naviy ehtiyojlari, yoshlarning estetik didi hamda kasbiy raqobatbardoshlik mezonlarining yangilanishi musiqa ta'limini an'anaviy yondashuvlar doirasidan chiqarib, uni zamonaviy pedagogik paradigmalarga tayangan holda qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Endilikda musiqa o'qituvchisi nafaqat ijrochi yoki bilim beruvchi, balki ijodiy fikrlovchi, innovatsion texnologiyalarni puxta egallagan, talabaning shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantira oladigan pedagog sifatida shakllanishi zarur. Bakalavriat bosqichi bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari, metodik tafakkuri va ijodiy salohiyati shakllanadigan muhim davr hisoblanadi. Aynan shu bosqichda o'qitish metodikasining samaradorligi talabaning kelgusidagi pedagogik faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois musiqa ta'limi jarayonida kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, integrativ va innovatsion yondashuvlarni qo'llash dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu yondashuvlar talabalarning musiqiy bilimlarini chuqurlashtirish bilan birga, ularni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanishga va amaliy faoliyatda bilimlarini samarali qo'llashga undaydi.

Zamonaviy axborot-ta'lim muhitida raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar, loyiha va muammoli ta'lim elementlarining musiqa o'qitish jarayoniga kirib kelishi metodik tizimni yangilash zaruratini kuchaytirmoqda. An'anaviy dars shakllarining innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi musiqa ta'limining mazmunini boyitib, uning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, bakalavriat bosqichida musiqa o'qitish metodikasini takomillashtirish masalasi nafaqat metodik, balki ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lgan muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida qaraladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Mazkur maqola aynan ushbu dolzarb masalaga bag‘ishlanib, unda musiqa o‘qitish metodikasini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari yoritiladi. Bu esa bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirish, milliy va umuminsoniy musiqiy qadriyatlarni zamonaviy ta’lim talablari asosida o‘rgatishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Bakalavriat bosqichida musiqa o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalasi xalqaro ilmiy adabiyotlarda “oliy musiqa ta’limi” (higher music education), “bo‘lajak musiqa o‘qituvchisini tayyorlash” (music teacher education), “kompetensiyaviy baholash”, “talabaga yo‘naltirilgan ta’lim” hamda “raqamli transformatsiya” kabi yo‘nalishlar bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. Mavjud manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugun metodik modernizatsiya bir tomondan — kompetensiyalarni aniq mezonlar asosida shakllantirish va baholash, ikkinchi tomondan — ijodiy/ijro amaliyotini (performans) talaba mustaqilligi va refleksiyasi bilan uyg‘unlashtirish, uchinchi tomondan esa — raqamli vositalarni pedagogik maqsadga muvofiq integratsiya qilish orqali asoslanmoqda. G‘arb tadqiqotlarida oliy musiqa ta’limida kompetensiyaviy yondashuv ko‘pincha baholash tizimi orqali amaliyotga joriy etilishi ta’kidlanadi. Masalan, Ispaniya oliy konservatoriyalarida kompetensiyaga asoslangan baholash tamoyillarini o‘qituvchilar qanday talqin qilishi va amalda qanday qo‘llashi o‘rganilib, normativ talablardan real auditoriya amaliyotigacha bo‘lgan “uzilishlar” (interpretatsiya farqlari, mezonlarning bir xilda qo‘llanmasligi) muammo sifatida ko‘rsatiladi[3]. Bu natija bakalavriat darajasida metodikani takomillashtirishda “kompetensiya”ni faqat deklarativ tushuncha sifatida emas, balki rubrika, mezon, feedback va refleksiya bilan to‘ldirilgan baholash madaniyati sifatida qurish zarurligini anglatadi.

Boshqa yo‘nalishda, Yevropa tajribasini jamlagan ilmiy to‘plamlarda oliy musiqa ta’limida badiiy tadqiqot va talabaga yo‘naltirilgan yondashuvlar musiqiy ijrochilikni o‘qitishda talaba avtonomiyasi, o‘z-o‘zini tahlil qilish va kasbiy moslashuv ko‘nikmalarini kuchaytirishi asoslanadi[2]. Bu adabiyotlar bakalavriatdagi metodika uchun muhim g‘oya beradi: ijro va nazariya mashg‘ulotlarini “ko‘rsatish–takrorlash” modeli bilan cheklamasdan, loyiha, portfoliolar, reflektiv kundalik, ijodiy eksperiment bilan boyitish zarur.

Kompetensiyaga tayangan yondashuvning tarixiy ildizlari ham G‘arb adabiyotlarida uchraydi: musiqiy ta’limda kompetensiyaga asoslangan qarashlar 1980-yillardan boshlab shakllanganini ko‘rsatadigan manbalar mavjud (klassik asarlar tahlili va bibliografik sharhlar). Bu esa bugungi “kompetensiya” diskursi yangi bo‘lmasada, hozirgi bosqichda u raqamli muhit va zamonaviy baholash bilan qayta talqin qilinayotganini anglatadi. MDH makonida (Rossiya, Ukraina va boshqa davlatlar) musiqa ta’limi bo‘yicha tadqiqotlar ko‘pincha didaktik model, metodik ta’minot, hamda raqamli texnologiyalarni o‘qituvchi tayyorlashga tatbiq etish masalalariga yo‘naltirilgan. Shuningdek, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar (masalan, Ukraina akademik nashrlarida) o‘qituvchining raqamli kompetensiyasi, darsni vizuallashtirish, tinglash-tahlil faoliyatini raqamli muhitda tashkil

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

etish kabi masalalarni amaliy tavsiyalar bilan boyitadi. Bu yo‘nalishdagi ishlarda ko‘pincha ijobiy effekt qayd etilsa-da, metodik risk ham bor: texnologiya “maqsad” emas, “vosita” bo‘lib qolishi, ya’ni musiqiy tafakkur va badiiy didni rivojlantirishga xizmat qilishi kerakligi uqtiriladi. MDH adabiyotlari uchun xos jihat shundaki[1], ular ko‘pincha “musiqiy ta’lim”ni tarbiya, ma’naviyat, estetik rivojlanish bilan birga ko‘radi; natijada metodik takomillashtirish faqat dars texnologiyasi emas, balki tarbiyaviy maqsadlar bilan bir butun tizim sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuv O‘zbekiston ta’lim konsepsiyalari bilan ham uyg‘un nuqtalarga ega.


O‘zbekiston ilmiy adabiyotlarida mavzu, ayniqsa, “bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi”ning kasbiy va metodik kompetensiyasini shakllantirish, o‘quv jarayonini modulli, kompetensiyaviy va innovatsion asosda tashkil etish, hamda pedagogik amaliyot (malakaviy amaliyot) orqali kompetensiyalarni mustahkamlash yo‘nalishlarida rivojlanib bormoqda. Masalan, N. U. Musayevning maqolasida bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishda modulli o‘qitish texnologiyalarining o‘rni yoritilib, mehnat bozori talablari, ta’lim jarayonini rejalashtirish va nazorat qilishning metodologik jihatlari bilan bog‘lanadi [4]. Bu yondashuv bakalavriat metodikasini takomillashtirishda “modul”ni faqat mavzular bo‘linishi emas, balki natija va kompetensiyalar asosida qurilgan o‘quv dizayn sifatida talqin qilishga asos beradi.

2025-yildagi dissertatsiya yo‘nalishidagi tadqiqotlarda esa metodik kompetensiyani rivojlantirish “texnologiyalari” alohida ob’ekt sifatida ko‘tarilib, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining metodik tayyorgarligi (darsni loyihalash, metod tanlash, diagnostika, refleksiya) tizimli ko‘rinishda yoritiladi. Bu ishlar bakalavriatda metodikani modernizatsiya qilishda “metodik kompetensiya”ni o‘lchash va rivojlantirish mexanizmlarini aniqroq belgilashga xizmat qiladi. Shuningdek, malakaviy amaliyot jarayonida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishga bag‘ishlangan ishlarda amaliyotning nazariy-metodologik asoslari, kompetensiya tarkibi va uni shakllantirish shartlari yoritiladi. Bu yo‘nalish bakalavriatda metodikani takomillashtirishning eng “ishlaydigan” nuqtasini ko‘rsatadi: metodik yangilik auditoriyada emas, amaliyotda sinovdan o‘tib, refleksiv tahlil bilan mustahkamlanishi kerak.

“Rangli tovushlar” metodi – bu metod musiqa tinglash faoliyatida qo‘llaniladi. Metodning maqsadi – talabalarda tinglanayotgan musiqani hissiy idrok etib, unda “rangli obraz” yaratishga harakat qilish, tovushiy-emotsional tahlil qilishni qilishni shakllantirish, talabalarni dars jarayonlarida o‘quvchilar bilan ishlashga moslashtirish ko‘nikma va malakalarini o‘stirish. Bu metodning qo‘llashda quyidagi vazifalar shakllanadi:

- ✓ Tinglangan musiqiy asarni emotsional (hissiy) tahlil qilish;
- ✓ Talabalarga “musiqiy idrok xaritasi” tuzishni o‘rgatish;
- ✓ Talabalarda estetik didni shakllantirish;
- ✓ His qilish orqali musiqiy tafakkurni rivojlantirish.
- ✓ Umumta’lim o‘quvchilari uchun his-tuyg‘u asosida yangi o‘qitish usullarini ishlab chiqish.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3




Bu metodni o‘tkazishda musiqa o‘qituvchisi tinglash uchun bir musiqiy asardan parcha tanlaydi (masalan, Betxoven sonatasi, Bax prelyudiyasi, Mutal Burxonov asarlari va h.k.). shu orqali talabalarga turli xil xarakter va janrlardagi musiqiy parchalar tinglash uchun audio yozuvda multimedia vositasi yordamida yoki jonli ijroda qo‘yib eshittiriladi. Har bir talaba musiqani tinglash, shu asosda “tovush ranglari xaritasi” ni chizadi.


Shundan so‘ng guruh bilan muhokama qilinadi “musiqa darsida u qanday qo‘llaniladi?, Bu bo‘limda yaxshil tanlaganman, chunki kuy yengil va tinglantiriuvchi edi” deb savol va fikrlar berilib, shu asosida pedagogik model ishlab chiqiladi. Pedagogik qo‘llash bosqichida talabalar o‘zlari yaratgan diagramma asosida 1-7 sinfdan tanlab, shu sinf o‘quvchilari uchun dars rejasini tuzadi.

“Xor zanjiri” interaktiv metod – bu metod dirijorlik hamohangli orqali o‘tkaziladi. Metodning maqsadi – talabalarda birinchi navbatda xor bo‘lib kuylashni boshqarish, musiqani idrok qilgan holda ovozlarni uyg‘unlashtirish hamda interaktiv boshqaruvini o‘rganish. Metodning o‘tkazish tartibi: talabalarni kichik 5-6 kishilik kichik “mini-xor” larga bo‘lib olinadi.

Bo‘lingan har bir guruh bir xil musiqiy asarni (misol uchun “Yor-yor”, turli mavzudagi qo‘shiqlar, vokalizlar) har xil temp va registrlarda kuylashadi. Guruhdagi talabalardan biri dirijor bo‘lib, dirijorlik harakatlari orqali ularning ovozlarini navbat bilan boshqaradi, kimdir texnik vosita (telefon kamerlari, planshetlar) orqali xorni vidyoga oladi va shu orqali dirijor harakatlari, xorda kuylangan xorning tempi, ovoz uyg‘unligi tahlil qilinadi.


CC BY NC ND


ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3




Dirijor ishora bilan navbat beradi: 1 – 2 – 3, shunda "zanjir" ohang hosil bo'ladi. Metodning pedagogik qo'llanilishi: Talaba bu usulni 4-5-sinf xor mashg'ulotlarida "Kuylashni interaktiv boshqarish" sifatida tadbiq etish ssenariysini ishlab chiqiladi.

"Ritmik kompozitsiya" metodi – talabalarda rimni to'g'ri his qilish, musiqiy eshituv qobiliyatini hamda musiqiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan usuldir. Metodning maqsadi – talabalarda musiqiy ritmni harakat bilan uyg'unlashtirish hamda psixomotor o'qitish metodlarini amaliy jihatdan o'zlashtirish.

Metodning o'tkazish tartibi: pedagog talabalarda ritmkin mashqlarni taqdim etadi:




Guruhlar shu ritmik naqshlardan biri asosida "ritmik kompozitsiya" yaratadi. Har bir guruh o'zi yarakatgan musiqiy ritm kompozitsiyasini boshqa guruhlar bilan almashib ijro etadi. Masalan: bir guruh "vals ritmi" asosida yoki "marsh ritmi" orqali turli qo'l, oyoq harakatlari orqali ritmik raqs bilan uyg'unlashtiradi. Metodning pedagogik qo'llanilishi: talaba "ritm orqali o'quvchilarning eshituv qobiliyatini rivojlantirish" mavzusida boshlang'ich dars modelini tuzishi mumkin.

O'tkazilgan adabiyotlar tahlili va nazariy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bakalavriat bosqichida musiqa o'qitish metodikasini takomillashtirish masalasi bugungi kunda alohida metod yoki texnologiyani joriy etish bilan emas, balki ta'lim jarayonini yaxlit pedagogik tizim sifatida qayta loyihalash bilan bog'liqdir. Muhokama jarayonida G'arb, MDH va O'zbekiston olimlarining yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilish orqali bir qator muhim ilmiy-metodik xulosalar aniqlanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Avvalo, G‘arb tadqiqotlarida ustuvor bo‘lgan kompetensiyaviy va talabaga yo‘naltirilgan (student-centred) yondashuvlar musiqa ta’limining mazmuni va baholash tizimini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Bu yondashuvlarda musiqiy ijrochilik va nazariy bilimlar yakuniy maqsad sifatida emas, balki talabaning kasbiy o‘sishi, refleksiv tafakkuri va mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantiruvchi vosita sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, bakalavriat bosqichida an’anaviy “o‘qituvchi – markaz” modeli o‘rniga talabaning o‘zlashtirish trayektoriyasini inobatga oluvchi, portfoliolar, loyiha ishlari va reflektiv tahlilga tayangan metodik yechimlar samaraliroq ekani namoyon bo‘ladi.

MDH olimlarining izlanishlari esa musiqa o‘qitish metodikasini takomillashtirishda didaktik tizimlilik va texnologik yondashuv muhimligini ko‘rsatadi. Ushbu adabiyotlarda raqamli texnologiyalar, multimedia vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish imkoniyatlari keng yoritilgan bo‘lib, ular musiqani tinglash, tahlil qilish va ijro etish jarayonlarini vizuallashtirish orqali talabalarning idrokini faollashtirishi asoslanadi[7]. Biroq muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, texnologiyalarning haddan tashqari ustuvorligi musiqiy mazmunning badiiy-estetik jihatlarini soya ostida qoldirish xavfini ham keltirib chiqarishi mumkin. Demak, raqamli vositalar metodikaning maqsadiga bo‘ysundirilgan holda, musiqiy tafakkur va didni rivojlantirishga xizmat qilishi zarur.

O‘zbekiston olimlarining ilmiy izlanishlarida esa musiqa ta’limini takomillashtirish masalasi, asosan, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy-metodik kompetensiyasini shakllantirish bilan bog‘liq holda talqin etiladi. Ushbu yondashuv milliy ta’lim tizimi ehtiyojlari, davlat ta’lim standartlari hamda pedagogik amaliyot tajribalariga tayanganligi bilan ahamiyatlidir. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, O‘zbekiston sharoitida metodik takomillashtirishning samaradorligi nazariy tayyorgarlikni pedagogik amaliyot bilan uzviy bog‘lash, shuningdek, milliy musiqa merosini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish orqali oshadi. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, uch maktab (G‘arb, MDH va O‘zbekiston) tajribalarida umumiy jihatlar bilan birga farqli yondashuvlar ham mavjud. Umumiylik — musiqa ta’limida kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va innovatsion yondashuvlarning zarurligi; farqlilik esa ularni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarida namoyon bo‘ladi. Aynan shu jihat bakalavriat bosqichida musiqa o‘qitish metodikasini takomillashtirishda integrativ model ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Shunday qilib, muhokama natijalari asosida xulosa qilish mumkinki, bakalavriat bosqichida musiqa o‘qitish metodikasini takomillashtirish samaradorligi quyidagi shartlar bilan belgilanadi:

1. kompetensiyaviy yondashuvni aniq baholash mezonlari bilan qo‘llash;
2. talabaga yo‘naltirilgan va ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi metodlarni joriy etish;
3. raqamli texnologiyalarni musiqiy mazmun va tarbiyaviy maqsadlar bilan uyg‘unlashtirish;
4. milliy va umuminsoniy musiqiy qadriyatlarni pedagogik jarayonga integratsiya qilish.

Ushbu yondashuvlar uyg‘unligi bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Алиев Ю. Б. *Методика музыкального воспитания и обучения*. — М.: Академия, 2013. — 304 с.
2. Biggs J., Tang C. *Teaching for Quality Learning at University*. — 4th ed. — Maidenhead: Open University Press, 2011. — 389 p.
3. Hattie J. *Visible Learning for Teachers: Maximizing Impact on Learning*. — London: Routledge, 2012. — 271 p.
4. G‘aniyeva M. A. Musiqa ta’limida kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik asoslari // *Uzluksiz ta’lim*. — 2019. — №2. — B. 52–56.
5. Кабалевский Д. Б. *Воспитание ума и сердца*. — М.: Просвещение, 2004. — 192 с.
6. McPherson G. E., Welch G. F. *Music Education: The Role of Research in Teaching and Learning*. — Oxford: Oxford University Press, 2018. — 512 p.
7. Qodirov R. R. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda innovatsion yondashuvlar // *Ta’lim va tarbiya*. — 2020. — №3. — B. 41–46.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Sabirdjanova Dilnozaxon Zafar qizi**, Xalqaro Nordik universiteti tayanch doktoranti, [**Сабирджанова Дилнозахон Зафар кызы,** Докторант базовой докторантуры Международного Северного (Nordic) университета], [**Dilnozakhon Z. Sabirdjanova,** Doctoral Student (Basic Doctorate), International Nordic University]; E-mail: dinasabirdjanova@gmail.com ORCID: https://orcid.org/0009-0008-3406-3065 manzil: O'zbekiston, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Sebzor ko'chasi, 22A-uy [адрес: Узбекистан, ул. Себзор, 22А-дом, г. Тошкент], [address: Uzbekistan, 22A, Sebzor st., Tashkent city]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# TA'LIMDA DIFFERENSIAL VA INDIVIDUAL YONDASHUVNING O'RNI

© M.E. Ro'ziyeva[1]✉
[1]Ma'mun universiteti , Xiva, O'zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: bugungi globallashuv va ta'lim tizimining jadal rivojlanishi sharoitida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning intellektual salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida o'quvchini tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki faol subyekt sifatida shakllantirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'qitishni tashkil etishni taqozo etadi.

**MAQSAD**: differensial yondashuv o'quvchilarning bilim darajasi, tayyorgarligi va qobiliyatlariga ko'ra o'quv topshiriqlari, metod va shakllarni moslashtirishni nazarda tutsa, individual yondashuv har bir o'quvchining shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini inobatga olgan holda ta'limni tashkil etishga yo'naltirilgan. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** musiqa ta'limi, boshlang'ich ta'lim va kasb-hunar ta'limi sohalariga oid ilmiy manbalarda differensial va individual yondashuvlarning amaliy jihatlari keng yoritilgan. Bu tadqiqotlarda ta'lim mazmunini moslashtirish, individual o'quv rejalarini ishlab chiqish hamda interaktiv metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning ijodiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: differensial yondashuvning amaliy ahamiyati, avvalo, ta'lim jarayonida tengsizlik emas, balki teng imkoniyatlarni yaratish g'oyasiga asoslanishida namoyon bo'ladi. Chunki barcha o'quvchilarga bir xil topshiriq va talablarni qo'yish ularning individual farqlarini inkor etishga olib keladi. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, o'quv topshiriqlarini murakkablik darajasiga ko'ra farqlash, o'quvchilarning bilim darajasi va tayyorgarligiga mos metodlardan foydalanish o'zlashtirish ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, differensial yondashuv kuchli o'quvchilarning salohiyatini to'liq namoyon etishiga, sust o'zlashtiruvchi o'quvchilarning esa ortda qolib ketmasligiga xizmat qiladi

**XULOSA:** ta'lim jarayonida differensial va individual yondashuvlardan samarali foydalanish o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshirish, ularning bilish faolligi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

inobatga olgan holda ta’limni tashkil etish imkonini beradi. Tahlillar asosida aniqlanishicha, differensial yondashuv o‘quv topshiriqlarini murakkablik darajasi, o‘quvchilarning tayyorgarligi va o‘zlashtirish sur’atiga moslashtirish orqali ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlaydi. Individual yondashuv esa har bir o‘quvchining shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish, uning intellektual va shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Bu ikki yondashuvning uyg‘un qo‘llanilishi ta’lim jarayonining moslashuvchanligini oshirib, barqaror va sifatli ta’lim natijalariga erishishga zamin yaratadi.

**Kalit so'zlar**: differensial ta’lim, individual yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, ta’lim samaradorligi, pedagogik yondashuv, ta’lim metodlari.

**Iqtibos uchun**: Ro‘ziyeva M.E. Ta’limda differensial va individual yondashuvning o‘rni**.** // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. B.436–443.

## РОЛЬ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО И ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПОДХОДОВ В ОБРАЗОВАНИИ

© М.Э. Рузиева[1]✉
[1]Университета Мамуна, Хива, Узбекистон

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: в условиях сегодняшней глобализации и стремительного развития системы образования эффективная организация образовательного процесса, полная реализация интеллектуального потенциала учащихся является одной из актуальных педагогических проблем. В современных образовательных концепциях приоритетной задачей является формирование ученика как активного субъекта, а не как получателя готовых знаний. Это обусловливает необходимость организации обучения с учетом индивидуальных особенностей, способностей, потребностей и возможностей учащихся в процессе обучения

**ЦЕЛЬ**: дифференциальный подход предполагает адаптацию учебных заданий, методов и форм в соответствии с уровнем знаний, подготовленностью и способностями учащихся, тогда как индивидуальный подход ориентирован на организацию обучения с учетом траектории личностного развития каждого учащегося. Эти подходы играют важную роль в формировании у учащихся навыков самостоятельного мышления, творчества и саморазвития

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в научных источниках, относящихся к области музыкального образования, начального образования и профессионального образования, широко освещаются практические аспекты дифференциального и индивидуального подходов. В этих исследованиях обоснованы возможности развития творческих и профессиональных компетенций учащихся путем адаптации содержания обучения, разработки индивидуальных учебных планов и использования интерактивных методов

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: практическая значимость дифференциального подхода проявляется прежде всего в том, что он основан на идее создания равных возможностей, а не неравенства в образовательном процессе. Потому что установка одинаковых заданий и требований ко всем учащимся приводит к отрицанию их индивидуальных различий. В ходе обсуждения выяснилось, что дифференциация учебных заданий по уровню сложности, использование методов, соответствующих уровню знаний и готовности учащихся, значительно повышает показатели освоения. В то же время дифференцированный подход служит для того, чтобы сильные ученики полностью раскрыли свой потенциал, а слабые ученики-не отставали

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: эффективное использование дифференциального и индивидуального подходов в образовательном процессе имеет важное педагогическое значение в повышении уровня усвоения учащимися знаний, развитии их познавательной активности и способности к самостоятельному мышлению. Эти подходы позволяют организовать обучение с учетом индивидуальных возможностей, интересов и потребностей учащихся. На основе анализа установлено, что дифференцированный подход обеспечивает эффективность образовательного процесса за счет адаптации учебных заданий к уровню сложности, подготовленности учащихся и темпу освоения. А индивидуальный подход служит формированию траектории личностного развития каждого учащегося, реализации его интеллектуального и личностного потенциала. Гармоничное применение этих двух подходов повышает гибкость образовательного процесса, создает основу для достижения устойчивых и качественных результатов обучения.

**Ключевые слова**: дифференцированное обучение, индивидуальный подход, личностно-ориентированное обучение, эффективность обучения, педагогический подход, методы обучения

**Для цитирования**: М.Э.Рузиева Роль дифференцированного и индивидуального подходов в образовании. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. С. 436–443.

## THE ROLE OF DIFFERENTIAL AND INDIVIDUAL APPROACHES IN EDUCATION

© Muxayyo E. Roziyeva[1]✉
[1]Mamun University, Khiva, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: in the context of today's globalization and the rapid development of the educational system, the effective organization of the educational process, the full realization of the intellectual potential of students is one of the pressing pedagogical problems. In modern educational concepts, the formation of a student as an active subject, and not a recipient of ready-made knowledge, is a priority. This assumes

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

the organization of training in the educational process, taking into account the individual characteristics, abilities, needs and capabilities of students

**AIM:** while the differential approach involves the adaptation of teaching assignments, methods and forms according to students ' level of knowledge, training and abilities, the individual approach is oriented towards the organization of education, taking into account the individual development trajectory of each student. These approaches are important in the formation of independent thinking, creativity and self-development skills in students

**MATERIALS AND METHODS**: scientific sources relating to the fields of music education, primary education and vocational education extensively cover the practical aspects of differential and individual approaches. These studies are based on the possibilities of adapting educational content, developing individual learning plans and developing creative and professional competencies of students through the use of interactive techniques.

**DISCUSSION AND RESULTS**: the practical significance of the differential approach is demonstrated primarily in its reliance on the idea of equal opportunity rather than inequality in the educational process. Because putting the same assignments and requirements on all students leads to negating their individual differences. In the course of the discussion, it is determined that the differentiation of educational assignments according to the level of complexity, the use of methods corresponding to the level of knowledge and training of students significantly increases the indicators of mastering. At the same time, the differential approach serves to fully demonstrate the potential of strong students, while sluggish students do not lag behind

**CONCLUSION:** the effective use of differential and individual approaches in the educational process is of important pedagogical importance in increasing the level of knowledge acquisition of students, their cognitive activity and the development of independent thinking. These approaches make it possible to organize education taking into account the individual capabilities, interests and needs of students. Based on the analysis, it is determined that the differential approach ensures the effectiveness of the educational process by adjusting the educational tasks to the level of complexity, the readiness of students and the pace of mastering. And the Individual approach serves to form the trajectory of personal development of each student, to realize his intellectual and personal potential. The harmonious application of these two approaches increases the flexibility of the educational process, laying the groundwork for achieving stable and high-quality educational results.

**Key words**: differential education, individual approach, personality-oriented education, educational effectiveness, pedagogical approach, educational methods

**For citation**: Muxayyo E. Roziyeva. (2025) The Role of differential and individual approaches in education, Inter education & global study, vol.3 (12), pp. 436–443. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**B**ugungi globallashuv va ta’lim tizimining jadal rivojlanishi sharoitida ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning intellektual salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida o‘quvchini tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki faol subyekt sifatida shakllantirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu esa ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual xususiyatlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda o‘qitishni tashkil etishni taqozo etadi. Ta’lim amaliyotida o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘zlashtirish tezligi, qiziqishlari va psixologik xususiyatlari turlicha bo‘lishiga qaramay, ularni yagona dastur va bir xil metodlar asosida o‘qitish ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi. Natijada ayrim o‘quvchilar o‘quv materialini yetarli darajada o‘zlashtira olmasligi, boshqalarida esa bilim olishga bo‘lgan qiziqishning pasayishi kuzatiladi. Shu sababli ta’lim jarayonida differensial va individual yondashuvlardan foydalanish pedagogik zarurat sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Differensial yondashuv o‘quvchilarning bilim darajasi, tayyorgarligi va qobiliyatlariga ko‘ra o‘quv topshiriqlari, metod va shakllarni moslashtirishni nazarda tutsa, individual yondashuv har bir o‘quvchining shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini inobatga olgan holda ta’limni tashkil etishga yo‘naltirilgan. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish hamda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar differensial va individual yondashuvlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Bu yondashuvlarni ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etish o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini faollashtirish, bilimlarni chuqur va barqaror egallashlariga xizmat qiladi. Ta’limda differensial va individual yondashuv masalalari pedagogika fanida uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinayotgan muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuvlarning nazariy asoslari, mazmun-mohiyati hamda amaliy tatbiqi bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli ilmiy qarashlar ilgari surilgan.

Xorijiy pedagogik adabiyotlarda differensial va individual yondashuvning nazariy asoslari, avvalo, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi doirasida yoritilgan. Jumladan, J. Devey[1], L.S. Vigotskiy[2], J. Bruner[4], B. Bloom[3] kabi olimlarning ilmiy qarashlarida o‘quvchining individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish ta’lim samaradorligining muhim omili sifatida e’tirof etiladi. L. S. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi individual yondashuvning ilmiy asosini tashkil etib, o‘quvchilarning real va potensial imkoniyatlari o‘rtasidagi farqni pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali bartaraf etish zarurligini asoslab beradi. B. Bloom tomonidan ishlab chiqilgan taksonomiya va differensial baholash yondashuvlari ta’lim jarayonini o‘quvchilarning kognitiv darajalariga mos ravishda tashkil etish imkonini beradi. Shuningdek, J. Brunerning konstruktivistik yondashuvi o‘quvchilarning mustaqil bilim olish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash orqali individual ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

So‘nggi yillarda Yevropa va Amerika tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda differensial ta’limning inklyuziv ta’lim bilan uzviy bog‘liqligi asoslab berilgan. Xususan, C. Tomlinsonning[5] differensial ta’lim modeli o‘quv mazmuni, jarayon va natijalarni o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirishni nazarda tutib, amaliyotda keng qo‘llanilmoqda.

Mahalliy pedagog olimlar tadqiqotlarida ham differensial va individual yondashuv masalalari ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilish faolligini rivojlantirish nuqtayi nazaridan yoritilgan. O‘zbekistonlik olimlar tomonidan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida differensial ta’limni tashkil etishning metodik asoslari ishlab chiqilgan[7],[8]. Ularning ilmiy ishlarida ta’lim jarayonida o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish, o‘quv topshiriqlarini murakkablik darajasiga ko‘ra differensiallashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, musiqa ta’limi, boshlang‘ich ta’lim va kasb-hunar ta’limi sohalariga oid ilmiy manbalarda differensial va individual yondashuvlarning amaliy jihatlari keng yoritilgan. Bu tadqiqotlarda ta’lim mazmunini moslashtirish, individual o‘quv rejalarini ishlab chiqish hamda interaktiv metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning ijodiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, differensial va individual yondashuvlar ta’lim samaradorligini oshirishda muhim pedagogik omil bo‘lib, ularni tizimli va maqsadli ravishda qo‘llash o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi hamda ta’lim natijalarining barqarorligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda ushbu yondashuvlarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish masalalari hali ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy ta’lim tizimida differensial va individual yondashuvlar shunchaki metodik vosita emas, balki ta’lim falsafasining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ta’lim jarayonida har bir o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlarini tan olish va ularni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ushbu yondashuvlar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarni tubdan o‘zgartiradi. Endilikda o‘qituvchi bilimlarni uzatuvchi subyekt emas, balki o‘quvchining individual rivojlanish yo‘lini boshqaruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi yetakchi sifatida namoyon bo‘ladi.Differensial yondashuvning amaliy ahamiyati, avvalo, ta’lim jarayonida tengsizlik emas, balki teng imkoniyatlarni yaratish g‘oyasiga asoslanishida namoyon bo‘ladi. Chunki barcha o‘quvchilarga bir xil topshiriq va talablarni qo‘yish ularning individual farqlarini inkor etishga olib keladi. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, o‘quv topshiriqlarini murakkablik darajasiga ko‘ra farqlash, o‘quvchilarning bilim darajasi va tayyorgarligiga mos metodlardan foydalanish o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, differensial yondashuv kuchli o‘quvchilarning salohiyatini to‘liq namoyon etishiga, sust o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning esa ortda qolib ketmasligiga xizmat qiladi.

**KIRISH**: teatr san'ati taraqqiyotida teatrshunos va teatr tanqidchisining o'rni beqiyosdir. Sahna asarlarini tahlil qilish, ularning badiiy va g'oyaviy qiymatini ochib berish, teatr jamoalarining ijodiy faoliyatiga yo'naltiruvchi fikrlar bildirish teatrshunoslikning muhim vazifalaridan hisoblanadi. O'zbekiston xalq artisti, san'atshunoslik fanlari doktori, professor Tóresh Allanazarov ana shunday mas'uliyatli vazifalarni o'z zimmasiga olgan yetuk olim va teatr tanqidchisidir.

**MAQSAD**:ushbu maqolaning maqsadi Tóresh Allanazarovning teatr tanqidchisi va san'atshunos olim sifatidagi ijodiy maqolalari, taqrizlari hamda ijodiy portretlarini tahlil qilish, ularning milliy teatr san'ati rivojidagi ilmiy va amaliy ahamiyatini yoritishdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqot jarayonida Tóresh Allanazarovning nashr etilgan ilmiy maqolalari, taqrizlari va ijodiy portretlari asosiy manba sifatida o'rganildi.Tadqiqotda tahlil va sintez, taqqoslash, tarixiylik va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Maqolalar mazmuni teatrshunoslik nuqtai nazaridan umumlashtirildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: tahlillar shuni ko'rsatadiki, Tóresh Allanazarovning taqriz va tanqidiy maqolalari teatr ijodkorlari uchun amaliy qo'llanma vazifasini bajaradi. U spektakllarning dramaturgik asoslari, rejissyorlik yechimlari, aktyorlik ijrosi va sahnaviy ifoda vositalarini chuqur tahlil qilgan. Ijodiy portretlarida esa san'atkorlarning badiiy qiyofasi, ijodiy evolyutsiyasi va sahna madaniyatiga qo'shgan hissasi xolisona yoritilgan.

**XULOSA:** Tóresh Allanazarovning ijodiy maqolalari, taqrizlari va portretlari milliy teatr san'ati tarixida muhim ilmiy manba hisoblanadi. Uning asarlari nafaqat o'z davri, balki bugungi teatr jarayonlari uchun ham dolzarb bo'lib, teatrshunoslik va teatr tanqidchiligi rivojiga katta hissa qo'shadi.

**Kalit so'zlar**: teatrshunos, teatr tanqidchisi, ijodiy portret, taqriz, milliy teatr.

**Iqtibos uchun**: Allanazarov K. O'zbekiston xalq artisti, sanatshunoslik fanlari doktori Tóresh Allanazarov ijodiy maqolalari talqini. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. B.475–482.

## НАРОДНЫЙ АРТИСТ УЗБЕКИСТАНА, ИСКУССТВОВЕД ДОКТОР ФИЛОСОФИИ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТВОРЧЕСКИХ СТАТЕЙ ТОРЕША АЛЛАНАЗАРОВА

© К.Алланазаров[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

[1]Нукусский филиал Узбекского государственного института художественной культуры, Нукус,Каракалпакстан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: в развитии театрального искусства особое место занимает деятельность театроведа и театрального критика. Анализ сценических произведений, выявление их художественной и идейной ценности, а также объективная оценка творческой деятельности театральных коллективов являются важными задачами театроведения. Народный артист Узбекистана, доктор искусствоведения, профессор Тореш Алланазаров является одним из ведущих ученых и театральных критиков в этой области.

**ЦЕЛЬ**: целью данной статьи является анализ творческих статей, рецензий и творческих портретов Тореша Алланазарова, а также раскрытие их научного и практического значения в развитии национального театрального искусства.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в исследовании использованы опубликованные научные статьи, рецензии и творческие портреты Тореша Алланазарова. Применялись методы анализа и синтеза, сравнения, исторический и системный подходы. Материалы были обобщены с позиции театроведения.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: анализ показал, что критические статьи и рецензии Тореша Алланазарова служат практическим ориентиром для театральных деятелей. В них глубоко анализируются драматургическая основа спектаклей, режиссерские решения, актерское мастерство и сценические средства выразительности. В творческих портретах объективно раскрывается художественный облик и творческий путь деятелей искусства

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: творческое наследие Тореша Алланазарова занимает важное место в истории национального театра. Его труды сохраняют актуальность и в настоящее время, внося значительный вклад в развитие театроведения и театральной критики.

**Ключевые слова**: театровед, театральный критик, творческий портрет, рецензия, национальный театр.

**Для цитирования**: Алланазаров К. Народный артист узбекистана, искусствовед доктор философии интерпретация творческих статей Тореша Алланазарова. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. С. 475–482.

## PEOPLE'S ARTIST OF UZBEKISTAN, ART STUDIES INTERPRETATION OF CREATIVE ARTICLES BY DOCTOR OF SCIENCES TÓRESH ALLANAZAROV

© Kopjursin Allanazarov[1]✉

[1]Nukus branch of Uzbekistan State Institute of Arts and culture, Nukus, Karakalpakstan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**INTRODUCTION**: the role of a theatre scholar and theatre critic is crucial in the development of theatrical art. The analysis of stage productions, evaluation of their artistic and ideological value, and guidance for creative theatre groups are among the key functions of theatre studies. Tóresh Allanazarov, People's Artist of Uzbekistan, Doctor of Arts, and Professor, is a prominent scholar and theatre critic in this field.

**AIM:** the purpose of this article is to analyze the creative articles, reviews, and artistic portraits written by Tóresh Allanazarov and to highlight their scientific and practical significance in the development of national theatre art.

**MATERIALS AND METHODS**: the study is based on the analysis of published scholarly articles, reviews, and creative portraits by Tóresh Allanazarov. Analytical and synthetic methods, comparative analysis, historical approach, and a systemic perspective were applied to examine the materials.

**DISCUSSION AND RESULTS**: the analysis reveals that Allanazarov's critical articles and reviews serve as practical guidelines for theatre practitioners. His works provide in-depth analysis of dramaturgy, directing approaches, acting performance, and stage expression. His creative portraits objectively present the artistic identity and creative evolution of theatre professionals.

**CONCLUSION:** The creative legacy of Tóresh Allanazarov holds a significant place in the history of national theatre. His scholarly and critical works remain relevant today and make a substantial contribution to the development of theatre studies and theatre criticism.

**Keywords**: theatre scholar, theatre critic, creative portrait, review, national theatre

**For citation**: Kopjursin Allanazarov. (2025) People's artist of uzbekistan, art studies interpretation of creative articles by doctor of sciences Tóresh Allanazarov , Inter education & global study, vol.3 (5), №12, pp. 475–482. (In Uzbek).

**T**eatr mahsuli bo‘lmish spektakl targ‘ibotida teatrshunos yetakchi omillardan sanaladi. U yetakchigina bo‘lib qolmasdan, jamoaga ko‘tarinki ruh beradigan ham, aksincha ijodiy kayfiyatini tushiradigan ham sahna asarining bugungi kun talablariga moslik darajasi kabi vazifalarini bajaradigan shaxs sifatida faoliyat yuritadi.Mana shunday mas’uliyatli vazifalarni olgan ijodkor olim tariyx varaqlarida qolgudek ishlar yaratadi.

O‘zbekiston xalq artisti, davlat mukofati sovrindori, sanatshunoslik fanlari doktori, professor Tóresh Allanazarovning ijodini o‘rganar ekanmiz, uning o‘nlab risolalar va yuzlab maqolalarini ko‘ramiz. Uning har bir ishi teatr san’atini taraqqiy ettirish va uni targ‘ib etish, bevosita undagi muammolarni o‘rganish va yechimini topish kabi muhim vazifalar bilan bog‘liqdir. U nafaqat teatrshunos teatr va dramaturgiyaning rivojiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan qalami o‘tkir teatr tanqidchilardandir. Olimning teatrshunoslik nuqtai nazaridan o‘ziga xos qarashlari bilan o‘rtoqlashish, teatr masalalarini ularning o‘tkir nigohi bilan ko‘rish va anglash qiziq jarayondir. T.Allanazarov ijodida tahliliy maqolalar, taqrizlar ko‘pchilikni tashkil etadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Bu yo‘nalish teatrshunos faoliyatida eng mas’uliyatli janrlardan biridir. Taqrizda ma’lum bir teatr jamoasining bir necha oy ichida katta mehnati evaziga dunyoga kelgan sahna asarini tahlil qilishi, xulosalar chiqarishiga yordam berishi kerak.

T.Allanazarov o‘z umri davomida turli sahna asarlari, pyesalar, ilmiy ishlar, to‘plamlar kabilarga tahliliy taqrizlar yozib keldi. “Dramaturgiya N.Davkarayeva i yego roli razvitii nasionalnogo iskusstva”[1], “Rus teatrini tsiyri menen”[2], “Bizi iskustvomiz xaliqliq iskusstvo”[3], “N.Dauqarayevti dramaturgiyasi hm iskusstvo maydaninda islegen miyneti haqqinda”[4], “Hurmetli Tajetdin Seytjanov”[5], “Iskusstvo xaliq do’retpesi”[6], “Puti formirovaniya karakalpakskoy dramaturgii”[7], “Qaraqalpaq dramaturgiyasini o’siw‘ jollari”[8]kabi maqolalari shular jumlasidan. Maqolamizda taqriz ruhidagi maqolalarga alohida e’tibor qaratildi.

T.Allanazarov teatr tanqidchisi sifatidagi maqolalarini o‘qiganimizda, alohida bir maqolaga to‘xtab o‘tkim keldi. U “Hurmatli Tajetdin Seytjanov” deb nomlangan. Nomining o‘zi o‘quvchilarni qiziqtirishi turgan gap. T.Seytjanov o‘tkan asrning 50-yillarining oxiridan 80-yillariga qadar dramaturgiyada qalam terbatkan dramaturglardan hisoblanadi. O‘zdavrida pyesalari tomoshabinlar tomanidan iliq kutib olindi. T.Allanazarov “Hurmatli T.Seytjanov” deb nomlangan maqolasida, muallifning barcha yozgan pyesalarini birma bir taliqlab, pyesalardagi uxshash taraflarini yozadi. Pyesalarining yutuqlari bilan kamchiliklarini isbot bilan yozadi. Maqola 1965-yili yozilgan, T.Seytjanov bu yillarda “Qirli soqpaqlar”, “Kygelek ko’zli yar”, “Tinimsiz tolqinlar”, “Damegyler”, “Aq toray” pyesalari bilan xalqimizga dramaturg sifatida tonilib bo‘lgan edi. Maqola muallifi “Oz vaqt ichida beshta pyesa yozishingiz hurmatga loyiq delinadi. Sizning dramalaringizda hayotiylikni ko‘ramiz. Bizing kunimizdagi salbiy va ijobiy qaharmonlarni olib chiqqansiz. “Qirli soqpaqlar”, “Tinimsiz soqpaqlar”, “Kuygelek kozli yar” pyesalaringizga etibor berib qorasangiz, pyesa 10 sinf o‘quvchilarining maktab bitiruvidan boshlanib, ularning barchasining komunistlik mehnat brigadasini tuzadi. Aniq drama konflikt holda emas, umimiy tushinik formasida, radio, gazeta-jurnallar uchun maxsus xabar formasida ko‘rsatmoqdasiz. Yoki mavzularingiz yakun topalmay qolib ketadi. Asosiy mavzuingiz o‘sha yoshlarning o‘z hoqishlari bilan ishlab chiqarish zavod yoki fabrikalarida ishlashi bo‘lib qolmaqda.”[9] Ushbu maqola bilan dramaturg T.Seytjanovning har bir asarini alohida talqin qilgan bo‘lsa, har bir ilmiy ishida qoraqalpoq dramaturlari asarlariga o‘zining haqqoniy bahosini berib, dramutrglarning asosiy maslahatchisiga aylandi. A.Utepov, J.Aymurzayev, S.Xujaniyozov, P.Tilegenovlar pyesalari haqida ham ijobiy va tanqidiy

[1] T.Allanazarov“Dramaturgiya N.Davkarayeva i yego roli razvitii nasionalnogo iskusstva”, jurnal Vestnik, 1965 g, №3
[2] T.Allanazarov “Rus teatrinitsiyri menen”, jurnal Amudarya, 1963 jil, №11
[3] T.Allanazarov “Biziiskusstvomiz xaliqliq iskusstvo”, jurnal mudarya, 1965 j,№5
[4] T.Allanazarov, jurnal mudarya, 1965 j, №8
[5] T.Allanazarov, jurnal mudarya, 1965 j, №6
[6] T.Allanazarov, jurnal Amudarya, 1961 j, № 1
[7] T.Allanazarov, jurnal Vestnik, 1963 j, №4
[8] T.Allanazarov, jurnal Amudarya”, 1964 j, №11
T.Allanazarov, jurnal “mudarya”, 1964 j, №11
[9] T.Allanazarov, jurnal Amudarya”, 1965 j, №6


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

fikrlarni aniq asos bilan yozdilar. “Suymaganga suykanma”, “Alpomish”, “G‘arib ochiq” spektakllarining saxnalashtirilgan variantlarining yutuqlari bo‘yicha teatrshunos sifatida qoraqalpoq sahnasida qo‘yilishini ijodiy jasurlik va jo‘shqin tashabbuskorlik, deya baholaydi. Ijodkor bu taqrizida shunchaki sahnadagi tomoshaga baho berib qolmaydi. Balki asarning dramaturgik asosiga ham tahliliy to‘xtaladi.

T.Allanazarov Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatrining ochilish munosabati bilan ham maqolalar yozib bordi. Bolalar uchun kerakli spektakllar, tarbiyaviy ahamiyatga ega pyesalardi taliqlab bordi. Dramaturg Kengesbay Raxmanovning “Kechikkan bahor”, “To‘qqiz to‘nqildoq, bir chankildak” pyesalari yoshlar teatrida yuqori darajada sahnaga olib chiqilganligi bayon etilgan. Bu asarlarga qo‘l urilishini qahramonimiz, ijodkorlarning yonib, to‘lqinlanib, qidirib, tashabbuskorlik qilib turishi, mana shu ijodiy bedorlik, mavzular doirasini kengaytirish, yangi shakllarga bo‘lgan harakat sifatida baholaydi. Darhaqiqat “Dramaturgiya va sahna san’atidagi izlanishlarga Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatr jamoasining ham bevosita aloqasi bor. Yaqin yillardagi bo‘y ko‘targan bu teatr, mahalliy dramaturgning nomi ko‘rsatilgan ertak spektakli bilan teatrning ijodiy hayotida keskin burilish yuz berdi. Rejissyor Reyimbay Tureniyazov, kompozitor Najimaddin Muxammeddinovning va ijrochilarning zabardast mehnati tufayli katta hayotni aks ettiruvchi, ulkan ehtiroslar, his-tuyg‘ularni madh qiluvchi jiddiy va yetuk sahna asari maydonga keldi”. Maqolada aktyorlar ijrosidagi yutuqlarni qayd etish bilan birga, kamchiliklarga ham to‘xtalinadi. Spektaklni ishlashda pyesa materiali va imkoniyatlaridan to‘la-to‘kis foydalanilmaganligi aytiladi. Ikkita muhim kamchilikka alohida o‘rin berilgan. Bunda spektaklning badiiy jihozi obrazli chiqmay qolganligi, nur-shu’la effektlaridan unumli foydalanilmaganligi, jonli musiqa o‘rniga magnitofondan berilayotgan sadolar kerakli ma’noni ifodalab bermaganligi ochib berilgan. Ijrochilar rollarida yashamayotganligi, holatlarni ifoda etishdaizchillik va mantiq yetishmayotganligi jonkuyarlik bilan aytilgan. Shuningdek teatrshunos tomonidan, aktyorlar ko‘proq kechinma, sezgini emas, texnikani ishga solganliklari, natijada ayrim holatlarning sun’iylashib, so‘z ostidagi ma’nolar, tomoshabinga tashlanadigan ahloqiy-estetik masalalar yaxshi ochilmay qolganligi e’tirof etiladi. Maqola so‘nggida Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatr sahnasiga inson yuragini kashf etishga qaratilgan intelektual dramaturgiya toboradadil kirib kelayotgani quvonarli hodisa ekanligi, bu esa spektakllarning umumiy badiiy talqini ustida talabchanlik bilan jiddiy shug‘ullanishni taqozo etishi ta’kidlanadi. Turesh Allanazarov tomonidan yozilgan har bir taqriz, tahliliy maqolada teatrning yaqin do‘stining yutuqlardan bolalarcha samimiy quvonishi, kamchiliklardan esa dunyoga sig‘mas darajada tashvishga tushishi hislarini sezish mumkin. Ijodiy ishlarining lo‘nda, ravon, o‘z navbatida yirik mutaxassislik tilidabayon etilishi esa maqolalar ilmiy-badiiy qiymatini yana-da oshiradi.

Ijodiy portretlari: Mahoratli rejissyor, aktyor, umuman san’at va ijod ahlini xalqqa yanada yaqindan tanitishda, u haqda yaxlit tushuncha va umumiy ma’lumot berishda teatrshunos-san’atshunos olimlar tomonidan yaratilgan portretlarning o‘rni juda katta. T.Allanzarov el sevgan va ardoqlagan qator san’atkorlarning umumiy ijodiy


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

qiyofalari aks etgan ijodiy portretlarni ko‘plab yozdilar. Ijodiy portret yaratish ham yozuvchiga, tanqidchiga, shunoslarga qator talablarni qo‘yadi. Zero san’at va madaniyat sohasida ancha mehnat qilib qo‘ygan san’atkorni yanada e’zozlarga o‘rab ko‘rsatish, yoki aksincha bor ijodiy ishlarini ham yetarli darajada ko‘rsata olmay talqin etish ham teatrshunos salohiyatiga bog‘liq. Turesh Allanazarov esa o‘zi qahramon qilib olgan san’atkorlarni haqiqat gullariga o‘rab, yetuk mutaxassislik tizginida yoritib boradi. Ana shunday mehnatlari natijasi o‘laroq o‘nlab ijodiy portretlarga chizgilari dunyoga keldi.
Shular qatorida “N.Davkarayev talantli dramaturg” (N.Davqarayev haqida),“Yesten shiqpas ushirasiw‘larim” (A.Utepov haqida), “Yigit bo‘ldik”(Madreyim Matchanov haqida), “Madeniyat ham adebiyat g‘ayratkeri” (A.Begimov haqida), “E’zozga munosib siymo” (Yu.Sharipov haqida), “Iqlas “Sahnamiz bahodiri” (R.Seytov haqida) kabi ijodiy portretlarni keltirish mumkin. Shunisi e’tiborliki, T.Allanzarov ma’lum bir san’atkor haqida bir marta ijodiy chizgi yozdimi, shu bilan o‘sha ijodkorni nazaridan chetda qoldirib qo‘ymaydi, balki ma’lum yillar o‘tgandan so‘ng yana shu artist boshqa bir rakursda takroran qalamga oladi. Masalan, N.Davkarayev portreti uning 60-yilligi munosabati bilan yozilgan bo‘lsa, oradan yil o‘tib, “N.Davkarayev talantli dramaturg” nomi ostida yana shu aktyorning 70 yilligi munosabati bilan ijodiy chizgi yaratadi. O‘z-o‘zidan oradagi vaqt davomida erishilgan ijodiy yutuqlar ham sarhisob qilinadi. “Artistning kamoloti”da Reyimbay Seytovning bosib o‘tgan bosqichlari takroriy tarzda beriladi. “Sahnamiz bahodiri”portretida yana shu aktyorning haqiqiy professional darajadagi qiyofasi ochib beriladi.

“Urishdan keyingi yillardagi milliy rejissyorlar”ijodiy portretida Yuldash Mamutov va Yuldash Sharipovlarning ijodi haqida umumiy ma’lumotlar beriladi. “Berdaq”, «Suymaganga suykanma», «Aygul Abat» spektakllariga ularning rejissyor sifatidagi izlanishlariga keng miqyosda to‘xtaladi. “Yigit bo‘ldik” portretida O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Madreyim Matchanov ijodiga bag‘ishlab, Moskva shahrida Lunacharskiy nomli teatr sanati institutida birgalikda o‘qigan davrlarni eslab, uning aktyorlik mahoratini yozadi. Teatrshunos olim turli san’at turlarining yirik vakillari haqida ijodiy portretlar yaratishdan tolmaydi. Masalan“Ayqulash” raqs ansambli haqida yozar ekan Yelizaveta Petrosova tuzgan bu raqs ansambli hususida so‘z yuritsa, “Rus teatri ta’siri bilan” maqolasida “Tong nuri” truppasi tashkilotchisi Zarip Qasimov haqida fikr yuritiladi. Turli millat vakillarining qoraqalpoq sahna san’atiga ta’siri borasida ham tegishli san’atkorlarga ijodiy portretlar taqdim etganlar. “A.N.Ostrovskiy va qoraqalpoq teatri” portretona chizgilari shular qatoriga kiradi. T.Allanazarov tomonidan yaratilgan ijodiy portret shaklidagi ishlar san’at va madaniyat olamidagi yirik shaxslar merosi yashab qolishiga yana bir manba bo‘lib xizmat qilib qoladi.

Muammoli maqolalar: O‘z xalqini sevgan, uning ertangi kunini o‘ylagan, kelajagining yana-da porloq bo‘lishini istagan har bir mutaxassis o‘zi tanlagan sohasining muammoli jihatlarini o‘rganmasdan, unga yechim topmasdan qolmaydi. T.Allanazarovning asl kasbi rejissyor ekanligini nazarda tutsak, “Qoraqalpoq teatrida milliy rejissuraning shakllanishi”

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

(Nukus, “Bilm” nashriyoti, 1996-yil), “K.S.Stanislavskiy va teatr madaniyati”(“Amudarya”, 1963-yil, 3-son, 106-119 betlar) maqolalarini ana shunday ishlar qatoriga kiritish mumkin. Aynan birinchi kitobda rejissuraning rivojlanishi borasida o‘ziga xosliklar va yuzaga kelgan kamchiliklarborasida so‘z borsa, ikkinchi maqolada esa K.S.Stanislavskiy kim bo‘lgani, va uning qoraqalpoq teatriga ta’siri haqida aniq faktlar bilan daliyllab o‘tadi.U teatrshunos sifatida ham muammoli maqolalar yaratdi.

Uning “Iskusstvo xalq doretpesi” maqolasida (mudarya, 1963, 3 son, 106 bet), teatrshunoslar haqida shunday deydi: avvalo qanday bo‘lishi, respublikada teatr tanqidchiligining ahvoli, vazifalari, bu sohani yaxshilash borasidagi fikr-mulohazalar o‘rinolgan. Kezi kelganda shuni aytish kerak “... teatr ilmi bilan teatr tanqidchiligini bir-biridan ajratib turuvchi g‘ov yo‘q. Bizda qariyb barcha teatrshunos olimlar teatr tanqidchiligi bilan shug‘ullanadilar. Umuman, teatr jamoalarining kundalik hayotini kuzatish, ijodkorning rejalari va intilishlaridan xabardor bo‘lish, ba’zan yangi spektakl yaratilishi jarayonida maslahat berish, badiiy kengash yig‘ilishlari va muhokamalarida ishtirok etish, taqriz, ijodiy portret va obzor maqolalar yozish, munozaralarda qatnashish teatrshunos olimni tanqidchi sifatida namoyon etibgina qolmasdan, unga ilhom, kuch-quvvat bag‘ishlaydi, teatr tarixini yana-da chuqurroq idrok va tadqiq etishga yo‘l ochadi. Bilimi va ilmi kuchli tadqiqotchining nainki tarixiy yoki nazariy kitoblari, balki tanqidiy chiqishlari ham teran, saviyali va ta’sirchan bo‘ladi. Teatrshunoslarning ilmiy va tanqidiy asarlari faqat olimlar yoki oddiy kitobxon uchungina yozilmaydi. Ular ayni choqda sahna ijodkorlari uchun yaratiladi. Teatr xodimlari bunday ilmiy vatanqidiy ishlar tufayli faoliyatlariga obyektiv baho berib, kelgusi rejalarini to‘g‘ri belgilab olish imkoniga ega bo‘ladilar". Qahramonimizning ushbu fikrlari bugungi kunimiz uchun ham nihoyatda qadrlidir. Shu o‘rinda bir misol keltirishni joiz deb bildim.

Poytaxtimizdagi taniqli teatr maskanlaridan birida yangi sahna asarining jamoatchilik ko‘rigi o‘tkazilayotgan bir paytda, taniqli teatrshunoslardan biri o‘sha spektakl bo‘yicha o‘zining qimmatli fikrlarini bildirmoqda. Men esa tasodifan teatr ijodiy jamoasining orasida o‘tirib qolgan ekanman. Shu paytda mashhur teatr aktyorlarimiz o‘rtasida “pichir-pichir” ovozlar chiqa boshladi. “Bu gaplardan nima foyda?”, “Baribir spektaklni sahnaga qo‘yishda davom etaveramiz-ku”, “Gapni kaltaroq qilsangizchi-a?” deya aniq eshitilib turgan so‘zlardan yuragimni allanechuk hislar qamrab oldi. Yirik teatrshunos olimlar jon kuydirib o‘sha spektakl sifatining yaxshilanishi, qolaversa shu teatr jamoasining ijodiy obro‘si tushib ketmasligi yo‘lida fikr bildirsayu, aktyorlar tomonidan ushbu munosabatning noto‘g‘ri “hazm qilinishi” hech qanday kasbiy me’yorlarga to‘g‘ri kelmaydi albatta. Aslida teatr aktyor va rejissyorlari teatrshunos-tanqidchini o‘ziga raqib emas, do‘st, yelkadosh sifatida qabul qilishlari lozim. T.Allanazarov muammoli maqolalarining ustuvorligi ham shundaki, ularda ko‘tarilgan mavzular ma’lum davr uchungina emas, har bir davr uchun muhimligini yo‘qotmaydi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

1. T.Allanazarov «Teatr ham dramaturgiya», Karakalpakstan nashriyoti-1982 yil
2. T.Allanazarov «Qoraqalpoq teatrida milliy rejissuraning shakllanishi" Nukus, "Bilm" nashriyoti, 1996-yilT.Allanazarov, jurnal Amudarya, 1961 j, № 1
3. T.Allanazarov, jurnal Vestnik, 1963 j, №4
4. T.Allanazarov, jurnal Amudarya", 1964 j, №11
5. T.Allanazarov, jurnal Amudarya", 1964 j, №11
6. T.Allanazarov, jurnal Amudarya", 1965 j, №6
7. G.Raxmanova «Sanat ilmiga baxshida umr», jurnal Teatr -2023 yil 1-son

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Kopjursin Allanazarov**, O'zDSMI Nukus filiali o'qituvchisi, [**Купджурсин Алланазаров**, Нукусский филиал Узбекского государственного института художественной культуры преподаватель], [**Kopjursin Allanazarov** , Nukus branch of Uzbekistan State Institute of Arts and culture,teacher]; manzil: 230101, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Qoraqalpog'iston ko'chasi, **Telefon:** +998612242902

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# MUHIDDIN QORI - YOQUBOVNING IJODIY YO‘LI VA O‘ZBEK OPERA SAN’ATIDAGI O‘RNI: ILMIY TAHLIL

© M. E. Ismoilova[1]✉

[1] Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Qashqadaryo, O'zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: ushbu maqola o‘zbek vokal va opera san’atining eng muhim va poydevor shaxslaridan biri – birinchi o‘zbek bariton xonandasi, “Turkiston xalq xonandasi” (faxriy unvonini sohibi 1923) va “O‘zbekiston birinchi xalq xonandasi” (faxriy unvonlari sohibi 1929) Muhiddin Qori-Yoqubov (1896–1957)ning ijodiy yo‘lini ilmiy-san’atshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Uning faoliyati XX asr boshlarida o‘zbek musiqiy madaniyatining milliy va Yevropa vokal maktablari sinteziga asoslangan yangi bosqichini boshlab berganligi asosiy e’tibor markazida turadi.

**MAQSAD**: maqola quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

1) M.Qori-Yoqubovning 1920–1940-yillardagi Moskvadagi chiqishlari va ularning o‘zbek vokal san’atiga ta’sirini ko‘rsatish;

2) uning vokal texnikasining o‘ziga xosligi – tabiiy kuchli bariton, chuqur “opera nafasi” va milliy an’ana bilan Yevropa uslubining uyg‘unligini tahlil qilish;

3) Xususan, A.Kozlovskiyning “Ulug‘bek” (1942) operasidagi Ulug‘bek partiyasini ijodiy cho‘qqi sifatida baholash;

4) xonandaning tashkilotchilik faoliyati (birinchi o‘zbek opera studiyasi, filarmoniya, musiqali teatrlar) orqali milliy opera san’atining institutsional poydevorini yaratganligini asoslab berish.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda asosiy manba sifatida davriy arxiv hujjatlari, 1920–1940-yillardagi konsert dasturlari, zamondoshlar xotiralari (V. Meyerxoyld, A. Lunacharskiy, V. Mayakovskiy va boshqalar fikrlari), shuningdek, ilmiy monografiyalar (L. Avdeeva, T. Yuldashbayeva va boshqalar) ishlatilgan. Tahlil uslubiy jihatdan tarixiy-xronologik, qiyosiy-san’atshunoslik va biografik yondashuvlarga asoslanadi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: M.Qori-Yoqubov 1921–1924-yillarda Moskva sahnasida (Kolonnali zal, Konservatoriya Katta zali, Butunrossiya qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasi) V. Nejdanova, Ye. Geltser, V. Kriger, I. Igumnov kabi rus san’at yulduzlari bilan bir sahnada chiqib, o‘zbek vokal san’atini birinchi marta xalqaro darajada tanitdi. Uning ovozi – kuchli, yumshoq, barcha registrlarda mutanosib bariton – “yevropacha uslub” deb atalgan texnikani milliy Farg‘ona xonandalik an’anasi bilan muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirdi. Bu uslub o‘zbek vokal madaniyatida yangi davr ochdi va keyingi avlod xonandalarga ta’sir ko‘rsatdi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Eng muhim ijodiy yutuq – 1942-yilda yaratilgan “Ulug‘bek” operasidagi bosh rol ijrosi bo‘ldi. Ushbu partiyada M.Qori-Yoqubov vokal mahorati (barqaror tembr, chuqur nafas, intonatsion tozalik) bilan sahnaviy aktyorlikni (tarixiy shaxs psixologik chuqurligi, milliy o‘zlik ifodasi) birlashtirib, o‘zbek opera san’atida “milliy qahramon obrazi”ning klassik namunasini yaratdi. Rol zamondoshlar tomonidan “betakror”, “yetuk ijodiy ish” va “buyuk olimga qo‘yilgan eng ulug‘ haykal” deb baholangan.

Xonanda bir vaqtning o‘zida pedagog va tashkilotchi sifatida Moskva konservatoriyasi qoshidagi birinchi o‘zbek opera studiyasini (1935) tashkil qilib, o‘nlab yosh iste’dodlarni tayyorladi; O‘zbekiston filarmoniyasiga asos soldi, milliy opera teatrining dastlabki spektakllarida solist, rejissyor va aktyor sifatida ishtirok etdi.

**XULOSA:** Muhiddin Qori-Yoqubov faoliyati o‘zbek vokal-sahnaviy san’atining professional va institutsional shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynadi. U birinchi o‘zbek bariton xonandasi, milliy opera studiyasi asoschisi, “Ulug‘bek” operasidagi Ulug‘bek obrazi ijrochisi sifatida o‘zbek musiqiy madaniyatini nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda yuksak darajaga ko‘tardi. Uning ijodi milliy an’ana va Yevropa vokal maktabi sintezining eng yorqin namunasi bo‘lib, o‘zbek opera san’ati tarixida muhim bosqichni belgilab berdi va keyingi avlodlar uchun bebaho meros qoldirdi.

**Kalit so'zlar**: Muhiddin Qori-Yoqubov, birinchi o‘zbek baritoni, o‘zbek opera san’ati, Ulug‘bek operasi, yevropa vokal maktabi, milliy an’ana va sintez, o‘zbek opera studiyasi, o‘zbek filarmoniyasi, o‘zbek musiqiy teatri tarixi, vokal.

**Iqtibos uchun**: Ismoilova E.M. Muhiddin Qori Yoqubovning ijodiy yo‘li va o‘zbek opera san’atidagi yo‘li: ilmiy tahlil. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. B.483–493.

## ТВОРЧЕСКИЙ ПУТЬ МУХИДДИНА КАРИ-ЯКУБОВА И ЕГО МЕСТО В УЗБЕКСКОМ ОПЕРНОМ ИСКУССТВЕ: НАУЧНЫЙ АНАЛИЗ

© М.Э. Исмаилова[1]✉
[1] Шахрисабзский государственный педагогический институт, Кашкадарья, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: статья посвящена научному и искусствоведческому анализу творческого пути одного из основоположников узбекского вокального и оперного искусства – первого узбекского баритона, народного певца Туркестана (1923) и первого народного певца Узбекистана (1929) Мухитдина Кари-Якубова (1896–1957). Основное внимание уделяется его роли в открытии нового этапа узбекской музыкальной культуры начала XX века, основанного на синтезе национальных и европейских вокальных школ.

**ЦЕЛЬ**: статья ставит следующие задачи:

1) показать выступления М. Кари-Якубова в Москве 1920–1940-х годов и их влияние на узбекское вокальное искусство;

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

2) проанализировать уникальность его вокальной техники – мощный природный баритон, глубокое «оперное дыхание» и гармоничное сочетание национальной традиции с европейским стилем;
3) оценить партию Улугбека в опере А. Ф. Козловского «Улугбек» (1942) как творческую вершину артиста;
4) обосновать его вклад как организатора (создателя первой узбекской оперной студии, филармонии, музыкальных театров) в формирование институциональных основ национального оперного искусства.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в качестве основных источников использованы архивные документы, программы концертов 1920–1940-х годов, воспоминания современников (В. Э. Мейерхольд, А. В. Луначарский, В. В. Маяковский и др.), а также научные монографии (Л. Авдеева, Т. Юлдашбаева и др.). Анализ проводится с использованием историко-хронологического, сравнительно-искусствоведческого и биографического подходов.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: в 1921–1924 годах М. Кари-Якубов выступал на московских сценах (Колонный зал, Большой зал Консерватории) вместе с В. Неждановой, Е. Гельцер, В. Кригер, И. Игумновым и другими звёздами русского искусства, впервые представив узбекское вокальное искусство на международном уровне. Его голос – мощный, мягкий, равномерный во всех регистрах баритон – успешно соединил так называемый «европейский стиль» с ферганской народной традицией хафизов, открыв новую эпоху в узбекской вокальной культуре.

Вершиной творчества стала партия Улугбека в одноимённой опере 1942 года. В этой роли Кари-Якубов объединил вокальное мастерство (устойчивый тембр, глубокое дыхание, интонационная чистота) и актёрское искусство (психологическая глубина исторического персонажа, национальная идентичность), создав классический образ «национального героя» в узбекской опере. Современники называли исполнение «неповторимым», «зрелым творческим трудом» и «самым величественным памятником великому учёному».

Одновременно как педагог и организатор он основал в 1935 году при Московской консерватории первую узбекскую оперную студию, подготовил десятки молодых талантов, стал основателем Узбекской филармонии, солистом, режиссёром и актёром первых национальных музыкальных театров.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: творчество Мухитдина Кари-Якубова сыграло решающую роль в профессиональном и институциональном становлении узбекского вокально-сценического искусства. Как первый узбекский баритон, основатель национальной оперной студии и исполнитель партии Улугбека он поднял узбекскую музыкальную культуру на международный уровень. Его искусство стало ярчайшим примером синтеза национальной традиции и европейской вокальной школы, определило важный этап в истории узбекской оперы и оставило бесценное наследие для последующих поколений.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Ключевые слова**: Мухиддин Кари-Якубов, первый узбекский баритон, узбекское оперное искусство, опера «Улугбек», европейская вокальная школа, национальная традиция и синтез, узбекская оперная студия, узбекская филармония, история узбекского музыкального театра, вокал.

**Для цитирования**: Исмаилова М. Э. Творческий путь мухиддина кари-якубова и его место в узбекском оперном искусстве: научный анализ // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. С. 483–493.

## THE CREATIVE PATH OF MUHIDDIN QORI-YOQUBOV AND HIS ROLE IN UZBEK OPERA ART: A SCIENTIFIC ANALYSIS

© Makhbuba E. Ismoilova[1]✉
[1]Shahrisabz State Pedagogical Institute, Kashkadarya, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: the article is devoted to a scholarly and art-historical analysis of the creative career of one of the founders of Uzbek vocal and operatic art—Muhiddin Kari-Yakubov (1896–1957), the first Uzbek baritone, People's Singer of Turkestan (1923), and the first People's Singer of Uzbekistan (1929). Primary attention is focused on his role in inaugurating a new stage in early 20th-century Uzbek musical culture, founded on the synthesis between national and European vocal schools.

**AIM:** the article pursues the following objectives:

1) to examine M. Kari-Yakubov's performances in Moscow during the 1920s–1940s and their impact on the development of Uzbek vocal art;

2) to analyse the uniqueness of his vocal technique—a powerful natural baritone, profound "operatic breathing" and harmonious fusion of national tradition with European style;

3) to evaluate the role of Ulugbek in A. F. Kozlovsky's opera Ulugbek (1942) as the artistic pinnacle of the performer;

4) to substantiate his contribution as an organiser (founder of the first Uzbek opera studio, the Uzbek Philharmonic, and national musical theatres) to the establishment of the institutional foundations of national operatic art.

**MATERIALS AND METHODS**: the primary sources include archival documents, concert programmes from the 1920s–1940s, memoirs of contemporaries (V. E. Meyerhold, A. V. Lunacharsky, V. V. Mayakovsky, and others), as well as scholarly monographs (L. Avdeeva, T. Yuldashbayeva, et al.). The analysis employs historical-chronological, comparative art-historical, and biographical approaches.

**DISCUSSION AND RESULTS**: Between 1921 and 1924, M. Kari-Yakubov performed on Moscow stages (Column Hall of the House of Unions, Great Hall of the Moscow Conservatory) alongside leading figures of Russian art such as V. Nezhdanova, E. Geltser, V. Kriger, and I. Igumnov, thereby introducing Uzbek vocal art to the international arena for the first time. His voice—a powerful, mellow, and evenly balanced

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

baritone across all registers—successfully merged the so-called “European style” with the Fergana folk tradition of khafiz singers, thus ushering in a new era in Uzbek vocal culture.

The pinnacle of his career was the title role in the 1942 opera Ulugbek. In this part, Kari-Yakubov combined vocal mastery (stable timbre, profound breath support, intonational purity) with dramatic artistry (psychological depth of the historical figure and national identity), creating a canonical image of the “national hero” in Uzbek opera. Contemporaries described the performance as “unique,” “a mature creative achievement,” and “the most majestic monument to the great scholar.”

Simultaneously, as a pedagogue and organiser, he established in 1935 the first Uzbek opera studio at the Moscow Conservatory, trained dozens of young talents, founded the Uzbek Philharmonic, and served as soloist, director, and actor in the first national musical theatres.

**CONCLUSION:** the creative legacy of Muhiddin Kari-Yakubov played a decisive role in the professional and institutional formation of Uzbek vocal and stage art. As the first Uzbek baritone, founder of the national opera studio, and performer of the role of Ulugbek, he elevated Uzbek musical culture to the international level. His art represents the most vivid example of the synthesis between national tradition and the European vocal school, defined a crucial stage in the history of Uzbek opera, and left an invaluable heritage for subsequent generations.

**Keywords**: Muhiddin Kari-Yakubov, the first Uzbek baritone, Uzbek opera art, the opera Ulugbek, European vocal school, national tradition and synthesis, Uzbek opera studio, Uzbek philharmonic, history of Uzbek musical theatre, vocal

**For citation**: Makhbuba E.Ismoilova. (2025) the creative path of muhiddin qori-yoqubov and his role in uzbek opera art: a scientific analysis, // Inter education & global study, vol.3 (12), pp. 483–493. (In Uzbek).

**O‘**zbek musiqiy madaniyati XX asr boshlarida milliy va yevropa san’at maktablarining sintezi asosida yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu jarayonda Muhiddin Qori-Yoqubov (1896–1957) kabi shaxslarning roli muhim edi. U o‘zbek vokal va opera san’atining asoschilaridan biri sifatida tanilgan bo‘lib, birinchi o‘zbek baritoni, Turkiston xalq xonandasi (1923) va O‘zbekiston birinchi xalq xonandasi (1929) unvonlariga ega bo‘ldi. Ushbu tadqiqot Qori-Yoqubovning ijodiy faoliyatini, uning Moskva sahnasidagi chiqishlari, vokal texnikasi, opera repertuaridagi yutuqlari va tashkilotchilik hissasini ilmiy va san’atshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganadi. Maqsad – uning o‘zbek vokal-sahnaviy san’atining shakllanishidagi o‘rnini baholash va milliy madaniyatning xalqaro miqyosda targ‘ib etilishidagi rolini aniqlash. Tadqiqotda arxiv hujjatlari, zamondoshlar xotiralari (V. E. Meyerxoyld, A. V. Lunacharskiy, V. V. Mayakovskiy) va ilmiy manbalar (T. Yuldashbaeva, L. Avdeeva) asosida tarixiy-xronologik va qiyosiy san’atshunoslik usullari

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

qo‘llaniladi. Ushbu yondashuv Qori-Yoqubovning san’atini nafaqat ijrochi, balki pedagog va madaniy institutlar asoschisi sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi.

M. Qori-Yoqubov 1896-yilda tug‘ilgan[1]. Uning san’atdagi o‘rni tezda e’tirof etildi va 1921-yilda mashhur rus teatr rejissyori V. E. Meyerxoyld tomonidan o‘zining san’ati bilan tanishtirilgan. Shu davrda, A. V. Lunacharsky bilan uchrashgan Qori-Yoqubovning nomi tezda Moskvada va uning atrofida mashhur bo‘la boshladi. 1923-yil 6-aprelda Moskva konservatoriyasining katta zalida san’at yuqori o‘quv yurtlarining kechasi tashkil etilgan. Bu kechada Qori-Yoqubov o‘zining san’ati bilan dunyo tanigan mashhur san’atkorlar bilan birga sahnaga chiqqan. V. E. Meyerxoyld, V. V. Mayakovskiy, professor I. I. Igumnov kabi taniqli shaxslar bilan birgalikda san’ati to‘g‘risida fikrlar bildirgan. 1923-yil 17-aprelida Kolonnali zalda bo‘lib o‘tgan konsertda Qori-Yoqubov rus vokal maktabining taniqli vakillari bilan birga chiqish qilgan. Bu chiqishlar san’atkor uchun juda katta e’tirof va mashhurlik olib keldi. Shuningdek, 1924-yilda Kolonnali zalda bo‘lib o‘tgan Sharq kechasida Qori Yoqubov musiqiy-teatr san’ati vakillari — xonanda V. Nejdanova, balerinlar E. Gel’tser va V. Kriger bilan sahnaga chiqqan. Shu tarzda, Qori-Yoqubov o‘zining san’ati orqali Rossiya va O‘zbekistonning eng yaxshi san’atkorlari bilan hamkorlik qildi.

Xonandaning Moskvadagi chiqishlari, ayniqsa, 1923-yilda tashkil etilgan Butunrossiya qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasi doirasidagi konsertlari katta muvaffaqiyatga erishdi. Ko‘p millatli san’at yutuqlarining ilk ko‘rigida o‘zbek musiqachilari, xonandalari va raqqosalaridan iborat muhim bir guruh ishtirok etdi. Turk respublikasi Markaziy Qo‘mitasi M. Qori-Yoqubovning konsert faoliyatini yuqori baholab, unga 1923-yilda birinchi san’atkor sifatida “Turkiston xalq xonandasi” faxriy unvonini berdi. (1929-yilda O‘zbekiston Xalq maorifi komissariati Sovnarkom va O‘zsovprof bilan kelishuv asosida “O‘zbekiston birinchi xalq xonandasi” unvonini M. Qori-Yoqubovga taqdim etdi, u shu paytgacha “Turkiston xalq xonandasi” unvoniga ega edi.) Bu uning xizmatlari va ijrochilik faoliyatining jamoat tomonidan e’tirof etilishining ifodasi edi. Ijodkor bu davrga kelib musiqali teatr san’atkori sifatida to‘liq shakllanib ulgurgan edi va vokal hamda sahna san’atini barobar darajada egallagan edi. U “Halima” asarida Ne’mat roli va “Farhod va Shirin” asarida Farhod roli bilan sahnaga chiqib, o‘zining iste’dodli xonanda sifatidagi obro‘sini yanada mustahkamladi va katta teatr sahnasi talablariga to‘la javob bera olishini ko‘rsatdi. Uning ajoyib tashqi ma’lumotlari, baland va kelishgan qomati sahnaviy tashqi ko‘rinish talablariga mos kelib, artist sahnada o‘zini erkin va tabiiy holda tuta olar edi. Artistning ovozi — kuchli va erkakona bariton bo‘lib, juda yoqimli va go‘zal tembrga ega edi. Tabiatan mukammal joylashgan bu ovoz zo‘riqishsiz, yumshoq va to‘liq bo‘lib, tinglovchilarni o‘zining go‘zalligi va xonandalik madaniyati bilan lol qoldirardi. Shu bilan birga, 1930-yillarda vokal ijrochiligi vazifalarini anglashda muhim o‘zgarishlar yuz bergan bir paytda, xonandaning ovozi atrofida ko‘plab muhokamalar kuzatildi. Qori-Yoqubovning

[1] Qori — odatda Qur’on tilovat qiluvchi kishiga beriladigan unvon. Qur’on tilovati musiqiy ohangda, ya’ni nafas va ohang bilan o‘qilishi talab etiladi.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

“yevropacha uslub”da xonandalik qilishi, ya’ni ovozi chuqur “opera nafasi”ga asoslanib, barcha registrlarda teng va mutanosib yangroqligi uni mashhur xonandalar, masalan, Mulla To‘ychi yoki Domla Halim Ibodov uslubidan farqli qilib ko‘rsatardi. “Shu munosabat bilan Qori-Yoqubovning xonandalik uslubi o‘zlashtirilganmi (masalan, u buni rus xonandalarining biridan o‘rgangan bo‘lishi mumkinmi), yoki bu uning tabiiy iste’dodi natijasida Farg‘ona xalq xonandalik madaniyati asosida shakllanganmi degan savol yuzaga kelardi.”

M. Qori-Yoqubovning xonanda sifatida paydo bo‘lishi O‘zbek vokal madaniyati tarixida yangi va progresiv bosqichni boshlab berdi. Uning san’ati, o‘zbek vokal madaniyatida tabiiy va muhim o‘zgarishlarga olib keldi. Qori- Yoqubov o‘zbek xonandalari orasida yangi, ifodali ovoz vositalarini taqdim etgan birinchi san’atkor sifatida ajralib turadi. Har bir ijrochi o‘ziga xos ijro uslubini topishga intiladi, va bu an’anaviy ravishda o‘tgan asrning buyuk o‘zbek xonandalari uchun ham xos bo‘lgan xususiyatdir. Biroq, faqat ozgina ta’lim va mahorat xonandalik uslubining o‘ziga xosligini belgilaydi. Ovoz o‘zining tabiiy xususiyatlariga ega bo‘lsa-da, asosan ijrochilik mahorati va ovoz imkoniyatlarini oqilona boshqarish san’ati muhim o‘rin tutadi. M. Qori-Yoqubovning ovozi, uning chuqur “opera” nafasiga asoslangan ijrosi bilan ajralib turadi. Bu, albatta, uning fiziologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Qori-Yoqubov nafaqat o‘z ovozining tabiiy imkoniyatlarini, balki uni yanada boyitish uchun ijro uslubini mukammal tarzda rivojlantirgan san’atkor edi. Uning ijrosidagi opera nafasini tushunish va uni samimiy ifodalash - bu o‘ziga xos vokal san’ati sifatida tarixda o‘z o‘rnini egalladi. M. Qori-Yoqubovning vokal ijrochiligi nafaqat o‘zbek vokal san’ati uchun yangi bosqichni boshlab berdi, balki u zamonaviy "yevropacha uslub"ning shakllanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Uning ovozi, baland, kuchli va aniq baritondan iborat bo‘lib, tabiiy tembrga ega edi. M. Qori-Yoqubovning ovozida yumshoq ohanglar mavjud bo‘lib, bu uning ijro texnikasining noyobligini ta’minladi.

Uning sahnadagi faoliyati O‘zbekiston musiqiy madaniyatini yangi bosqichga olib chiqdi. U o‘zining vokal va sahna san’atidagi yuksak mahorati bilan bir nechta tarixiy bosqichlarni bosib o‘tdi. M. Qori-Yoqubovning san’ati, o‘zining so‘nggi natijalariga ko‘ra, o‘zbek musiqasini nafaqat o‘zbekistonlik tomoshabinlarga, balki butun dunyoga tanitishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Uning san’ati xalqning qalbiga chuqur kirib borib, uning hissiyotlarini va ruhini aks ettirdi, va shu bilan birga O‘zbek vokal san’atining mustahkam poydevorini yaratdi. M. Qori-Yoqubovning ijodi hozirgi kunga qadar o‘zining ta’sirini saqlab qolmoqda. Ulug‘bek roli xonanda ijodidagi eng muhim cho‘qqilardan biri bo‘ldi va bu uning uzoq yillar davomida shakllangan puxta ijodiy mehnatining yorqin samarasi edi. Ushbu partiyada uning vokal mahorati va sahnaviy iste’dodi to‘liq namoyon bo‘lib, tomoshabinlar tomonidan katta hayajon va muvaffaqiyat bilan kutib olindi. Ko‘pchilik uning obrazni chuqur his etishi, Ulug‘bekning ichki dunyosini to‘la ochib berishi va ovozining o‘ziga xos maftunkor tarovati bilan yurakdan taassurot qoldirganini alohida e’tirof etgan. Qori-Yoqubov o‘zining betakror san’atkorlik qobiliyati bilan Ulug‘bek


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

obrazida o‘z xalqi farzandining jasorati va olijanobligini, inson sha’ni va ulug‘vorligini, shuningdek, uning kuch-g‘ayrati va favqulodda iste’dodini yuksak darajada aks ettirdi.

Shu tariqa, u bu rol orqali buyuk gumanist olimga munosib “eng ulkan haykal” yaratdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ulug‘bek obrazi uning ijodiy faoliyatida nafaqat vokal va sahnaviy mahoratning tantanasi, balki uning o‘z tarixi va madaniyatiga chuqur muhabbat va ehtiromining ifodasi bo‘ldi. Bu ijro o‘zbek opera san’ati tarixida muhim sahifa sifatida yodda qoldi.

“Ulug‘bek partiyasi — M. Qori-Yoqubovning “betakror” rollaridan biri bo‘lib, uning yetuk ijodiy ishidir. Ushbu rolning ijrosi uning vokal va sahnaviy mahoratining tantanasi bo‘ldi va tinglovchilar orasida g‘ayrioddiy muvaffaqiyat qozondi. Tinglovchilar xonandaning obraz mohiyatini chuqur anglashini va uning ovozining esda qolarli jozibasi bilan uyg‘unligini alohida ta’kidlashdi. Qori-Yoqubov o‘zining betakror iste’dodi bilan Ulug‘bek obrazida o‘z xalqining jasur farzandini — inson sha’ni, ulug‘vorligi, kuch-g‘ayrati va iste’dodini ko‘rsatdi va shu orqali “buyuk olimga eng ulug‘ haykal qo‘ydi”.[1] Berilgan matnda Muhiddin Qori-Yoqubovning opera san’atidagi muhim ijodiy yutuqlaridan biri – A. F. Kozlovskiyning “Ulug‘bek” operasidagi Ulug‘bek partiyasi haqida so‘z yuritiladi. Ushbu izohda matnning ilmiy va san’atshunoslik nuqtayi nazaridan talqini va uning musiqiy-teatr kontekstidagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

“Ulug‘bek” operasi 1942-yilda yaratilgan bo‘lib, XV asrning mashhur olimi va davlat arbobi Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bekning faoliyatiga bag‘ishlangan. Qori-Yoqubovning ushbu partiyadagi ijrosi uning vokal va sahnaviy mahoratining yuksak namunasi sifatida tarixda mustahkam o‘rin egallaydi. “Betakror” sifati uning o‘ziga xos ijro uslubi – Yevropa vokal maktabiga yaqin bo‘lgan texnika va milliy an’analarning uyg‘unligi bilan bog‘liqdir. Bu rol uning “yetuk ijodiy ishi” sifatida baholanishi uning uzoq yillik tajribasi va professional rivojlanishining samarasi ekanligini ko‘rsatadi. Ilmiy nuqtayi nazardan, bu baho xonandaning vokal diapazoni, intonatsion tozaligi va sahnadagi emotsional ta’sirchanlik kabi jihatlarining yuksak darajada namoyon bo‘lganini anglatadi.

Ulug‘bek partiyasida Qori-Yoqubovning vokal mahorati uning ovozining tabiiy jozibasi – barqaror bariton tembri va uning sahnaviy ifoda vositalari bilan mukammal uyg‘unligida namoyon bo‘lgan. Opera ijrosida vokal texnikasi bilan birga aktyorlik qobiliyati muhim o‘rin tutadi, va bu rolda xonanda tarixiy shaxsning ichki dunyosini ochishda yuksak mahorat ko‘rsatgan. Ushbu “tantana” opera san’atida vokal va sahnaviy elementlarning sintezi orqali tomoshabinlarda chuqur estetik va emotsional taassurot uyg‘otish qobiliyatini ifodalaydi. Tinglovchilar tomonidan rolning muvaffaqiyat bilan qabul qilinishi uning madaniy va ijtimoiy ahamiyatini ko‘rsatadi. Bu muvaffaqiyatning asosida xonandaning obraz mohiyatini chuqur anglashi va uning vokal ifodasidagi samimiylik yotadi. Ulug‘bek obrazi – faqat tarixiy shaxs emas, balki o‘z xalqining ma’naviy va intellektual kuch-qudrati ramzi sifatida talqin qilingan. Tinglovchilarning ushbu ijroni “g‘ayrioddiy muvaffaqiyat” deb baholashlari uning mahalliy va umumiy Sharq madaniyati kontekstida rezonans uyg‘otganini ko‘rsatadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Qori-Yoqubovning Ulug‘bek obrazini yaratishdagi muvaffaqiyati uning vokal diapazoni va sahnaviy xarizma bilan birga, tarixiy shaxsning psixologik chuqurligini ochish qobiliyati bilan bog‘liq. “Ovozining esda qolarli jozibasi” xonandaning tembr boyligi, intonatsion to‘g‘riligi va emotsional ta’sir kuchiga ega ekanligini anglatadi. Bu jihatlar uning ijrosini texnik jihatdan mukammal qilibgina qolmay, tomoshabinlarda chuqur estetik taassurot qoldiradi. Mahoratli xonanda Ulug‘bek obrazida “o‘z xalqining jasur farzandi” sifatida inson sha’ni, ulug‘vorlik, kuch-g‘ayrat va iste’dod kabi qadimgi Sharq madaniyatida muhim sanalgan qadriyatlarni aks ettirgan. Ushbu talqin uning milliy o‘zlikni anglashi va uni sahna orqali ifodalashdagi yuksak mahoratini ko‘rsatadi. “Buyuk olimga eng ulug‘ haykal qo‘ydi”[2] iborasi metaforik ma’noda ishlatilgan bo‘lib, xonandaning Ulug‘bekning tarixiy va madaniy merosini sahna san’ati orqali mustahkamlashga qo‘shgan bebaho hissasini ifodalaydi. Ilmiy nuqtayi nazardan, bu ijro o‘zbek opera san’atida milliy qahramon obrazini shakllantirishda yangi bosqichni belgilagan.

Ulug‘bek partiyasi Qori-Yoqubov ijodidagi muhim cho‘qqi sifatida nafaqat uning vokal va sahnaviy mahoratining yuksak namunasi, balki o‘zbek opera san’atining milliy va umumiy Sharq madaniy kontekstidagi rivojiga qo‘shgan muhim hissasi sifatida baholanishi mumkin. Ushbu rol uning ijodiy merosining ajralmas qismi bo‘lib, o‘zbek musiqiy teatri tarixida mustahkam o‘rin egallaydi. Xonanda ijrosidagi o‘ziga xos uslub – Yevropa vokal maktabiga yaqin bo‘lgan texnika va ovozning tabiiy maftunkorligi uni boshqa xonandalardan ajratib turadi. Uning bolalikdan keskin tovushlarni yoqtirmasligi uning ijro uslubiga o‘ziga xos xususiyatlar olib kirgan bo‘lib, bu xususiyat san’atning taniqli vakillari tomonidan ham e’tirof etilgan. Moskvadagi P. I. Chaykovskiy nomidagi konservatoriya qoshida tashkil etilgan «O‘zbek opera studiyasi»dagi faoliyati esa uning ta’lim va kadrlar tayyorlashdagi muhim hissasini ko‘rsatadi. 1935 yilda ushbu studiyaga rahbarlik qilgan Qori-Yoqubov O‘zbekistondan kelgan yosh iste’dodlarning professional rivojlanishiga zamin yaratdi, bu esa keyinchalik milliy opera san’atining asosini tashkil etdi.

Opera ijodkorligida, ayniqsa, «Ulug‘bek» (1942) operasidagi Ulug‘bek roli uning eng yuksak ijodiy yutug‘i sifatida ajralib turadi. Bu rolda u vokal va sahnaviy mahoratning to‘liq namoyon bo‘lishi bilan birga, tarixiy shaxsning ichki dunyosini chuqur anglash va uni tomoshabinlarga ta’sirchan tarzda yetkazish qobiliyatini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, uning repertuari ma’lum sabablarga ko‘ra cheklangan bo‘lishiga qaramay, «Er-Targ‘in», «Bo‘ron», «Layli va Majnun», «Mahmud Tarobiy» kabi operalardagi ijrosi o‘zbek opera san’atining ilk bosqichlarida muhim iz qoldirdi. Qori-Yoqubovning filarmoniya rahbari sifatdagi faoliyati esa uning tashkilotchilik qobiliyati va musiqiy san’atni rivojlantirishga qo‘shgan hissasini yanada ko‘proq ochib beradi. Sog‘liq muammolari va yoshiga qaramay, u respublika musiqiy hayotidagi dolzarb masalalarni hal qilishga katta e’tibor bergan. Uning sahnaviy ijrosidagi kamchiliklar, agar mavjud bo‘lsa ham, uning yurakdan kuylashi va obrazlarning jonli ifodasi bilan to‘ldirilgan, bu esa uning san’atining tomoshabinlar qalbida chuqur iz qoldirishiga xizmat qilgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Umuman olganda, M. Qori-Yoqubovning ijodi o‘zbek musiqiy teatri va vokal san’atining rivojlanishida muhim bosqichni belgilab berdi. Uning Moskvadagi ta’lim jarayonidagi ishtiroki, opera repertuaridagi salmoqli ijrosi va filarmoniya faoliyati uni nafaqat sahna ustasi, balki madaniy merosning muhim saqlovchisi va rivojlantiruvchisi sifatida ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqot uning ijodiy merosini ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish va kelajak avlod san’atshunoslari uchun muhim manba sifatida xizmat qilish imkonini beradi. U Birinchi o‘zbek bariton xonandasi, birinchi o‘zbek musiqa, qo‘shiq va raqs ansamblining tashkilotchisi va rahbari. Moskva Davlat konservatoriyasi qoshidagi birinchi o‘zbek opera studiyasining asoschisi va rahbari. O‘zbekistondagi ilk musiqali teatrlarning tashkilotchisi, rejissyori va aktyori. O‘zbek opera teatrining dastlabki spektakllarida solist sifatida ishtirok etgan ilk aktyor va xonanda. Birinchi o‘zbek filarmoniyasiga asos solib unga rahbarlik qilgan. 1925-yilda Parijdagi Butunjahon dekorativ san’at ko‘rgazmasida ilk marotaba mukofotlarni qo‘lga kiritib, o‘zbek san’atini xorijda ilk bor targ‘ib qilgan o‘zbek xonandasi. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti farmoni bilan, 2000-yil Muhiddin Qori-Yoqubov “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlangan.

Xulosa qilib aytganda, uning ijodiy faoliyati o‘tgan asrning 20-yillarida boshlanib, uning nafaqat o‘zbek xalq qo‘shiqlari, balki mashhur klassik asarlarni ham ijro etishdagi mahoratini ko‘rsatdi. U o‘zbek musiqasini uyg‘unlashtirish va uni yanada boyitish maqsadida Moskva Davlat konservatoriyasi qoshidagi birinchi o‘zbek opera studiyasini tashkil qildi, bu esa keyinchalik milliy opera san’atining asoslarini yaratishda katta turtki bo‘ldi. Muhiddin Qori-Yoqubovning vokal va sahnaviy ijodiy faoliyati O‘zbekiston musiqiy san’ati va opera teatri tarixida muhim o‘rin tutadi. Ushbu tadqiqotda Qori-Yoqubovning ijodiy yo‘li, uning Moskvadagi ta’lim jarayonidagi roli, opera repertuari va sahnaviy mahorati batafsil ko‘rib chiqildi. Tadqiqot natijalari uning o‘zbek vokal-sahnaviy san’atining shakllanishi va rivojlanishida asosiy figuralardan biri ekanligini tasdiqlaydi. Ijodkorning ijodiy merosi o‘zbek vokal va opera san’atining professional shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynadi. Uning Moskva sahnasidagi chiqishlari (1920–1940-yillar) milliy san’atni xalqaro miqyosga olib chiqdi, vokal texnikasi (chuqur opera nafasi va yevropa uslubi bilan milliy an’analarning sintezi) yangi standartlarni belgiladi, Ulug‘bek partiyasi (1942) esa milliy qahramon obrazini yaratishda klassik namuna bo‘ldi. Tashkilotchilik faoliyati – birinchi o‘zbek opera studiyasi (1935), filarmoniya va musiqiy teatrlarga asos solishi – milliy madaniyat institutlarining poydevorini mustahkamladi. Ushbu tadqiqot Muhiddin Qori-Yoqubovning san’atini o‘zbek musiqiy madaniyatining taraqqiyotida muhim bosqich sifatida tasdiqlaydi va kelgusida san’atshunoslik tadqiqotlarida chuqurroq tahlilga asos bo‘ladi. Uning merosi bugungi kunda ham o‘zbek san’atining ruhiy va estetik qiymatini saqlab, avlodlarga ibrat bo‘lib qolmoqda

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Юлдашбаева Т. Мастера узбекской оперной сцены. Ташкент, Г.Гуляма 1985, С. 84.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

2. Авдеева Л. Мухитдин Кари-Якубов. Документальная монография. Т., 1984, стр. 56.
3. Физическая энциклопедия Т.4. / Москва. изд-во «Большая Российская энциклопедия», 1994.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. (ЎзМЭ ) - Т.: Давлат илмий нашриёти. 2000.
5. Барвинская Е.М. Педагогические условия формирования вокального мастерства учителя музыки: автореф. дис. … канд. пед. наук: 13.00.08. Барвинская. Москва, 2009.
6. Материалы к истории узбекской музыки. Запис бесед с А. Султановым (Т. С. Вызго), М. Кузнетсовой (В. П. Дяченко). Фонд НИИИ УзССР.; Авдеева Л Мухитдин Кари-Якубов Документальная моография. Т., 1984
7. История узбекской советской музыки. (Ред. колл.: Т. С. Вызго и др.). Т. 1. Т., Изд. лит. и искусства им. Г. Гуляма. 1972.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Ismoilova Mahbuba Elamonovna**, Shahrisabz davlat pedagogika instituti professori vazifasini bajaruvchisi, pedagogika fanlari nomzodi (P.f.n.) [**Исмоилова Махбуба Эламоновна**, и.о. профессора Шахрисабзского государственного педагогического института, кандидат педагогических наук (К.п.н.)], [**Mahbuba E. Ismoilova**, I changed it to Acting Professor of the Shahrisabz State Pedagogikal institute Candidate of Pedagogikal Sciences (P.Sc.)]; manzil: O`zbekiston, 180112, Qashqadaryo, Qarshi yumani, Nukrobod MFY, Ziyokor ko`chasi, 36-uy [адрес: Узбекистан, 180112, Кашкадарьинская область, Каршинский район, Нукрабадский МКП, улица Зиекор, 36], [address: Uzbekistan, 180112, Kashkadarya region, Karshi district, Nukrobod MFE, Ziyokor street, 36] https://orcid.org/0009-0008-2727-5238

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# BADIIY HUNARMANDCHILIK BUYUMLARIDA HAYVONLAR TASVIRINING AKS ETTIRILISHI

© M. Allliyarov[1]✉

[1] Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davl at universiteti, Nukus, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Annotatsiya

**KIRISH:** hayvonlar tasviri badiiy hunarmandchilik tarixida eng qadimgi va barqaror badiiy an’analardan biri hisoblanadi. Bu tasvirlar ibtidoiy jamiyat san’atidan boshlab, jez va temir davrlarida keng rivojlangan bo‘lib, hayvonlarni muqaddaslashtirish (totemizm) bilan bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, Osiyo va Yevropa hududlarida shakllangan skif va saklar san’atida hayvon obrazlari dinamik harakat, kuch va ramziy ma’no bilan ajralib turadi. Janubiy Orolbo‘yi mintaqasida ham badiiy hunarmandchilik buyumlarida hayvon tasvirlari muhim o‘rin egallagan.

**MAQSAD:** ushbu maqolaning maqsadi badiiy hunarmandchilik buyumlarida hayvonlar tasvirining kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari va ramziy mazmunini ilmiy jihatdan tahlil qilish, Janubiy Orolbo‘yi hududida topilgan arxeologik va amaliy san’at namunalari asosida ushbu tasvirlarning badiiy-estetik ahamiyatini ochib berishdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqot jarayonida Janubiy Orolbo‘yi hududidagi Tuproq qal’a, Jonpiq qal’a, Mizdakxon, Hayvon qal’a va boshqa yodgorliklardan topilgan badiiy metall, kulolchilik va zargarlik buyumlari asosiy manba sifatida o‘rganildi. Tadqiqotda tarixiylik, taqqoshlash, ikonografik va san’atshunoslik tahlili metodlaridan foydalanildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mintaqa hunarmandchilik buyumlarida baliq, kiyik, qush, sfinks va boshqa hayvonlar tasviri ramziy va uslublashtirilgan holda aks ettirilgan. Antik davrda hayvonlar realistik shaklda ifodalangan bo‘lsa, islom dini tarqalishi bilan ularning tasviri shartli va dekorativ ko‘rinishga o‘tgan. Baliq tasviri halollik, mo‘l-ko‘lchilik va hosildorlik ramzi sifatida, kiyik esa muqaddas hayvon timsolida keng qo‘llanilgan. Buyuk Ipak yo‘li orqali Sharq va G‘arb san’ati an’analari mintaqa hunarmandchiligiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan**.**

**XULOSA:** Janubiy Orolbo‘yi hududida yaratilgan badiiy hunarmandchilik buyumlaridagi hayvon tasvirlari yuksak badiiy-estetik va ramziy ahamiyatga ega bo‘lib, ular mintaqaning boy madaniy merosini aks ettiradi. Ushbu merosni ilmiy o‘rganish va zamonaviy hunarmandchilikda qo‘llash milliy san’at an’analarini rivojlantirish hamda ularni jahon miqyosida targ‘ib etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** tasviriy san’at, badiiy hunarmandchilik, hayvon tasviri, muqaddaslashtirish, skiflar, saklar

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Iqtibos uchun**: M.Alliyarov Badiiy hunarmandchilik buyumlarida hayvonlar tasvirining aks ettirilishi // Inter education& global study. 2025. Vol.3. №12. B.494–500.

# ИЗОБРАЖЕНИЕ ЖИВОТНЫХ В ИЗДЕЛИЯХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОМЫСЛОВ

© М. Аллияров[1]✉
[1]Каракалпакский государственный университет имени Бердаха, Нукус, Республика Каракалпакстан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** изображение животных является одной из древнейших художественных традиций в истории декоративно-прикладного искусства. Оно связано с культом животных и тотемизмом и получило широкое распространение в искусстве скифов и саков. В памятниках Южного Приаралья образы животных занимают значительное место в художественном ремесле.

**ЦЕЛЬ:** целью статьи является анализ происхождения, эволюции и символического значения изображений животных в художественных ремесленных изделиях Южного Приаралья на основе археологических и художественных источников.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в исследовании использованы археологические находки из памятников Топрак-кала, Джонпык-кала, Миздахкан и других. Применялись методы исторического, сравнительного, иконографического и искусствоведческого анализа.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты показали, что изображения рыб, оленей, птиц и мифических существ использовались как символы плодородия, святости и благополучия. В исламский период образы животных приобрели стилизованный и декоративный характер, однако традиция их изображения сохранилась в прикладном искусстве.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** художественные ремесленные изделия Южного Приаралья с изображениями животных представляют собой ценный пласт культурного наследия. Их научное изучение способствует сохранению и развитию национальных художественных традиций.

**Ключевые слова:** изобразительное искусство, художественное ремесло, изображение животных, сакральность, скифы, саки.

**Для цитирования**: М.Аллияров. Изображение животных в изделиях художественных промыслов // Inter education & global study.2025. Vol.3. №12. С. 494–500.

# REFLECTION OF THE IMAGE OF ANIMALS IN ARTISTIC HANDICRAFTS

© M. Alliyarov[1]✉
[1]Berdaq Karakalpak State University, Nukus, Karakalpakstan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**INTRODUCTION:** animal imagery is one of the oldest artistic traditions in decorative and applied arts, originating from primitive societies and closely associated with animal worship and totemism. This tradition was highly developed in the art of the Scythians and Sakas and played an important role in the artistic heritage of the South Aral Sea region

**AIM:** the aim of this article is to analyze the origin, development, and symbolic meaning of animal representations in artistic handicrafts, based on archaeological and artistic materials from the South Aral Sea region

**MATERIALS AND METHODS:** the study is based on artifacts from archaeological sites such as Toprak Kala, Jonpik Kala, and Mizdakhan. Historical, comparative, iconographic, and art-historical analysis methods were applied.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the findings show that animals such as fish, deer, birds, and mythical creatures were depicted as symbols of fertility, purity, and sacred power. With the spread of Islam, animal imagery became more stylized and decorative, yet it continued to exist in applied arts under symbolic forms

**CONCLUSION**: artistic handicrafts with animal imagery from the South Aral Sea region represent a high level of artistic and cultural development. Their study is essential for preserving traditional art forms and promoting national cultural heritage on a global scale.

**Keywords:** fine arts, artistic handicrafts, animal imagery, animal sanctification, Scythians, Sakas.

**For citation**: Muhammedyar Alliyarov (2025), Reflection of the image of animals in artistic handicrafts, Inter education & global study, vol.3 (12), p. 494–500.(In Uzbek).

---

**H**ayvonlarni tasvirlash usuli ibtidoiy jamiyat davri san’ati namunalaridagi usullardan biridir. Osiyo va Yevropaning qadimgi san’atida keng tarqalgan. Ayrim hayvonlar (kiyik, ot, ayiq va b.), ularning tana qismlari (ko‘z, bosh, shox va b.) tasvirlari, shu bilan birga, bir necha hayvonlar tasvirlaridan iborat murakkab kompozitsiyalarni yaratish san’ati jez davrida yuzaga kelgan, temir davrida keng tarqalgan.

Uslubning kelib chiqishi hayvonlarni muqaddaslashtirish bilan bog‘liq bo‘lib (totemizm), keyinchalik bu tasvirlar shartli bezak turlariga aylangan. Dastlabki san’at namunalari - mayda va mahobatli haykallar bu uslubning namunalaridir. Hayvonlarni tasvirlash usuli dastlab vositalar va ot abzallari bezagida, keyinroq zargarlik san’ati namunalarida ko‘plab uchraydi.

O‘rta Osiyoda hayvonlarni tasvirlash usuli mil. avv. 1 ming yillikda vujudga kelgan. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, eng rivojlangan davri skiflar, saklar davri san’ati hisoblanadi. Xususan, Eron va G‘arbiy Osiyo san’ati (Qora dengiz bo‘yidagi yunon san’ati) ta’sirida shakllangan skif madaniyatiga tabiatni nozik his qilish, hayvon shakli va harakatlarini aniq ifodalashga mohir bo‘lgan: ularda yirtqich hayvonlar va qushlar,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

hayratlanarli maxluqlar (grifonlar) tasviri ko‘p uchraydi. Metallarni o‘yib, quyib ishlash, yog‘och va suyak o‘ymakorligi, teri va kigizlardan quroq (applikatsiya) qilish usullari qo‘llanilgan. Milodiy I ming yillikda bu badiiy usul o‘z ahamiyatini yo‘qotib boradi, bunga ayniqsa G‘arbda xristian dini, Sharqda islom dinining tarqalishi kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Shunga qaramasdan, o‘rta asrlar san’ati sohasida hayvonlarni tasvirlash davom etdi.

Janubiy Orol bo‘ylarida san’at sohalarining rivojlanishi Osiyo va Sharq xalqlarining siyosiy va etnik tarixi, unga qo‘shni mamlakatlar tarixi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan.

Mil. avv. I-III asrlar davomida hukmronlik qilgan Ahmoniylar sulolasiga mansub Amudaryo xazinasidagi zargarlik buyumlarida hayvon tasvirlari tushirilgan oltin bilaguzuk va uzuklar yuksak mahorat bilan ishlangan asarlar hisoblanadi. Bunda biz kuch-quvvatga to‘lgan, pishqirib o‘zini qo‘yarga joy topolmay turgan chiroyli, kelishgan yirtqich qiyofasini yaratgan saklarning "Yovvoyi usul" izlarini kuzatishimiz mumkin. Qo‘lida gul va qush ushlab turgan Anaxita tasviri tushirilgan dumaloq oltin uzuklarning shakli ham, katta-kichikligi ham bir-biriga juda munosib tarzda ishlangan.

Ixtiolog olima L. P. Pavlovskaya "Amudaryo xazinasi" buyumlaridagi baliqning haykaltaroshlik ko‘rinishini tahlil qilib: "Amudaryo xazinasi buyumlaridagi baliq qiyofasi Orol dengizi atroflaridagi hunarmandlar tomonidan tayyorlangan bo‘lishi kerak," degan fikrni ilgari surgan edi.

Islomgacha bo‘lgan davrda Janubiy Orol bo‘ylarida badiiy hunarmandchilik buyumlari, dunyoviy va diniy me’morchilik inshootlarini bezashda san’atning realistik janr asosida mavjudotlar namunalaridan keng foydalanilgan.

Biroq, musulmon mamlakatlarida IX-X asrlarda hunarmandchilik buyumlarini bezatishning xarakteri ham o‘zgaradi. Bu davrda Janubiy Orolbo‘yi mintaqasida ham islom dini e’tiqodlaridagi taqiqlangan badiiy hunarmandchilik va amaliy san’at buyumlarining shakllari va uslubiy xususiyatlari ham o‘zgarishlarga uchraydi va jonzotlar tasvirini aks ettirish keskin kamayadi. Shunga qaramay, islomgacha bo‘lgan timsollar, syujetlar, mavzular hunarmandchilik va amaliy san’atning ko‘plab buyumlariga ishlangan bezaklarda hayvonlarni uslubiylashgan ko‘rinishda aks ettirish davom etadi. Ulardan IX asrdan Janubiy Orolbo‘yi yodgorliklarida tarqalgan sirlangan idishlarda hayvonlarning badiiy tasvirlash usullarida aks ettirish keng tarqaldi.

Mintaqada hunarmandchilik buyumlarini bezashda VIII-IX asrlardan baliq tasvirini aks ettirish yana qayta urf bo‘la boshlaydi. O‘sha davrga oid To‘q qal’a, Kuyik qal’a, Hayvon qal’a va Jeke-Parson yodgorliklarida baliq tasviri aks etgan ko‘plab hunarmandchilik buyumlari topilgan. Janubiy Orol bo‘ylarida XIII-XIV asrlarga kelib badiiy metall va kulolchilik buyumlarida baliq tasvirini aks ettirish boshlangan. Bu davrga oid Jonpiq qal’a, Mizdakxon, Jarinquduq yodgorliklarida soat yo‘nalishida harakatlanayotgan juft baliqning uslublashtirilgan tasviri aks ettirilgan bronza ko‘zgular topilgan. Bu oynalardagi baliqlar tasviri umumiy jihatdan o‘xshash bo‘lsa-da, ba’zi xususiyatlarga ega.

Jonpiq qal’a yodgorligidagi bronza oynadagi juft baliq tasviri atrofiga geometrik naqshlarda bezatilgan bo‘lsa, Jariquduq yodgorligi oynasidagi baliq atrofiga to‘lqinsimon


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

relyeflar tushirilgan. Bu davrda juft baliq tasviri nafaqat badiiy metall buyumlarda, balki sirli idishlarga ham tushirilgan.

Jonpiq qal'a yodgorligidan topilgan tovoqning tubida bir-birini quvib borayotgan tarzdagi juft baliq tasviri aks ettirilgan. Tovoq qizil rangli loydan ishlanib, to'q sariq rang bilan sirlangan. Bu davrda mintaqa xalqlari kulolchilik hunarmandchiligida buyumlarga maxsus qolip-shtamp yordamida baliq tasviri tushirilgan.

Baliq tasviri o'rta asrlardagi Markaziy Osiyo va Shimoliy Yevropadagi ko'chmanchilar yodgorliklarida ko'plab uchraydi. Ramziy jihatdan islom san'atida baliq jannatdagi jonzot sifatida halollik, juft baliq esa hosildorlik, mo'l-ko'lchilik ramziy ma'noda ko'rsatilgan. Janubiy Orolbo'yi mintaqasi xalqlari antik va o'rta asrlar san'atida muqaddas hayvon timsolida kiyik tasvirlangan. Ulardan antik davr yodgorligi Tuproq qal'a saroyi zallari devoriy suratlarida ochiq fazoda harakatlanayotgan kiyik tasviri aks ettirilgan. Bu kabi erkin harakatlanayotgan kiyik tasviri tushirilgan sirli piyola X-XI asrlar Hayvonqal'a yodgorligidan topilgan.

XIII-XIV asrlarga oid badiiy metall buyumlarda ham kiyik tasviri uchraydi. Jonpiq qal'a yodgorligidan soat miliga teskari tomonga chopib borayotgan kiyiklar tasviri tushirilgan bronza ko'zgular topilgan. Bu to'rtta kiyik shoxlari o'zaro tutashib markaziy qismida kvadrat shaklini hosil qilgan. Oyna tutqichsiz, diametri 6,3 sm, qalinligi 0,3 sm ga teng. Analogik o'xshash bronza ko'zgular Xitoydan boshlab Uzoq Sharq, Volga bo'yi, Janubiy Ural, Qozog'iston kabi keng geografik hududlarda tarqalgan.

Janubiy Orol bo'yidagi XIII-XIV asrlarga oid Mizdakxon mahallalaridan qanotli, uzun dumli juft sfinksning geraldik tasviri sirtidagi doira bo'ylab arab yozuvi tushirilgan bronza oyna (fragment) topilgan.

Bu bronza oyna chetdan keltirilgan yoki mahalliy ustalar tomonidan taqlid usulida tayyorlangan bo'lishi mumkin. Unga o'xshash bronza ko'zgular Eron, O'rta Osiyo, Yettisuv (Qozog'iston), Oltin O'rda yodgorliklarida uchraydi, ularning asl nusxalari esa Eronda yangilik sifatida kashf etilgan.

Janubiy Orolbo'ylarining XII-XV asrlarga oid badiiy hunarmandchilik buyumlarida baliq, kiyik, quyon, tovus, o'rdak va boshqa hayvonlarni uslublashtirilgan holda tasvirlash ancha keng tarqalgan. Janubiy Orol bo'yidagi Urganch, Shohsanam, Shemaxa qal'a, Shahrlik, Mizdakxon kabi savdo-hunarmandchilik shaharlarining "Buyuk ipak yo'li" chorrahasida joylashganligi tufayli Sharq va G'arb hunarmandchiligidagi turli an'analar mintaqa hunarmandchilik buyumlarida aks etgan. Ayrim arxeolog olimlarimizning fikricha, Janubiy Orol bo'ylarida XII - XIV asrlarga kelib O'rta Sharq (Eron, Iroq) mamlakatlaridan keltirilgan qandil buyumlari mahalliy hunarmandlar tomonidan o'zlashtirilgan. O'sha davrdagi Shemaxa qal'a, Daryoliq ko'l, Mizdakxon, Qabat qal'a, Qizil qal'a yodgorliklaridan "lyustra" turkumiga mansub ko'zalar, kosalar, tovoqlar majmui to'plangan. Ushbu qandil mahsulotlarida O'rta Sharq (Eron, Iroq) amaliy san'atidagi bezak usullariga o'xshash medalon-doiralarda uslublangan qushlar to'dasi, otliq (Qabatqal'a), musiqachi ayol (Mizdahqon), arslon tasvirlari, epigrafik (Qizilqal'a) va o'simliksimon, geometrik naqshlardagi bezaklar kuzatiladi. Shunday ekan, Janubiy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Orolbo‘yi mintaqasi o‘rta asr hunarmandlari tomonidan ishlab chiqarilgan hunarmandchilik mahsulotlarini badiiy-estetik jihatdan yuksak darajaga ko‘tarilgan san’at asarlari deb hisoblash mumkin. Ularga ilmiy izoh berish va ilmiy yondashish faqat o‘rta asr hunarmandchilik tarixini o‘rganish uchungina zarur emas, balki o‘tmishdagi ajoyib durdonalarni tadqiq etish xalqimiz san’ati va badiiy hunarmandchilikning bugungi kundagi an’anaviy sohalari rivoji uchun xizmat qilish nuqtayi nazaridan ham zarurdir.

Jahonda O‘zbekistonning tarixiy va an’anaviy hunarmandchilik mahsulotlariga bo‘lgan talab va katta qiziqish barchamizga ma’lum, shu sababli milliy hunarmandchilik sohasidagi antik va an’anaviy usullarni ilmiy jihatdan o‘zlashtirish va hunarmandlarimiz tomonidan ishlab chiqarilayotgan buyumlarda faol va keng ko‘lamda qo‘llash iqtisodiy jihatdan daromad manbai bo‘lib xizmat qilish bilan birga, xalqimizning boy moddiy-madaniy meroslarini jahon hamjamiyatiga targ‘ib qilishdek sharafli vazifani bajaradi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi Qonuni. -Toshkent, 2020.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони «Ҳунармандчиликни янада ривожлантириш ва ҳунармандларни ҳар томонлама қўллаб қувватлаш чора– тадбирлари тўғрисида»// Халқ сўзи газетаси 2017 йил 21 ноябрь, №234 (6928).
3. Баўетдинов Р.А Қарақалпақстан тарийхы пәнин оқытыўда археологиялық материаллардан пайдаланыў// Қарақалпақстанда археологиялық илминиң жетискенликлери атамасындағы Республикалық илимий-амелий конференция материаллары.-Нөкис.2019.-Б.119-121.
4. Verbitskiy A.A**.** Aktivnoe obuchenie v visshey shkole: kontekstniy podxod: Metod. Po sobie.— M.: Vissh. shk., 1991.— 207 s
5. Ǵafforov Ya., Ǵafforova M.G., O`zbekiston tarixini óqitish usullari.— T.:1996
6. Gaffarov Ya. «Tarix óqitish metodikasi». -Tashkent., 2012.
7. Ганиев Т.С. Тарийх сабақларында сабақлық тексти менен ислесиўши усыллардан пайдаланыў// Жанубий Оролбўйи археологияси, этнографияси, тарих ва тарихшуносликнинг долзарб масалалари. Халқаро илмий- назарий анжуман материаллари. –Нукус. 2019. -Б.305-306.
8. Iskandarov E.A., Suyunov O. Pedagogik texnologiyalar va ulardan ijtimoiy - iqtisodiy fanlarni o`qitishda foydalanish (O`quv-uslubiy qo`llanma), -Samarqand: SamISI, 2012 yil, 60 bet.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Muhammedyar Alliyarov** ,o‘qtuvchi [**Мухаммедяр Аллияров**, преподаватель], [**Muhammedyar Alliyarov**, teacher]; manzil:Karakalpakstan Respublikasi, Nukus sh., Jaslar keleshegi ko'chasi, 99-uy [адрес: Республика Каракалпакстан, ул.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Жаслар келешеги, д.99, г. Нукус], [address Karakalpakstan, 99, Jaslar keleshegi st., Nukus city]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# “YORUG‘ YULDUZLAR” MUSIQALI DRAMASIDAGI JADIDLAR SIYMOSI”

© G. Abdusamatova[1]✉

[1]Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: XX asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati o‘zbek xalqining milliy uyg‘onishi, ma’naviy taraqqiyoti va zamonaviy tafakkur shakllanishida muhim tarixiy hodisa bo‘ldi. Jadidlarning ma’rifatparvarlik, ozodlik va taraqqiyot g‘oyalari nafaqat adabiyot va ijtimoiy fikrda, balki teatr va musiqa san’atida ham chuqur aks etdi. Bugungi kunda ushbu g‘oyalarni musiqali drama janri orqali sahnaga olib chiqish, ularni zamonaviy badiiy vositalar yordamida talqin etish dolzarb masalalardan biridir. Ana shu jihatdan “Yorug‘ yulduzlar” musiqali dramasi jadidlar merosini musiqiy-dramaturgik jihatdan qayta talqin etgan muhim sahna asari sifatida ilmiy tahlilga loyiqdir.

**MAQSAD:** “Yorug‘ yulduzlar” musiqali dramasini dramaturgik va musiqiy jihatdan tahlil qilish, unda jadidlarning milliy uyg‘onish, ilm-ma’rifat va ozodlik g‘oyalari musiqiy ifoda vositalari orqali qanday yoritilganini aniqlash, shuningdek, maqom va bastakorlik an’analarining sahnaviy talqindagi o‘rnini ilmiy asoslashdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqot jarayonida musiqali drama librettosi, sahna talqini, musiqiy partitura, maqom ashulalari va bastakorlik namunalariga tayanildi. Shuningdek, musiqashunoslik va teatrshunoslikka oid ilmiy adabiyotlar, yetuk olimlarning qarashlari hamda spektaklning amaliy sahna tajribasi tahlil qilindi. Tadqiqotda musiqiy-tahliliy, dramaturgik tahlil, qiyosiy va tarixiy-uslubiy metodlardan foydalanildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, “Yorug‘ yulduzlar” musiqali dramasida jadid siymolari musiqiy leytmavzular, ariyalar, xor va orkestr fakturasi orqali badiiy jihatdan uyg‘un holda gavdalantirilgan. Xususan, Yunus Rajabiy bastakorligiga mansub “Kuygay” ashulasining leytmavzu sifatida qo‘llanilishi asarning g‘oyaviy markazini mustahkamlab, jadidlarning iztirob, umid va ma’rifatga intilish ruhini musiqiy jihatdan chuqur ifodalagan. “Cho‘li Iroq” kuyining nay cholg‘usidagi talqini esa qahramonlarning ichki norozilik va fojeaviy kechinmalarini kuchaytirgan. Shu bilan birga, ayrim sahnalarda matn va musiqiy talqin o‘rtasidagi uyg‘unlik yetarli darajada ta’minlanmaganligi, shuningdek, ilmiy aniqlikni talab etuvchi ayrim jumlalarda xatoliklar mavjudligi aniqlandi.

**XULOSA:** “Yorug‘ yulduzlar” musiqali dramasi jadidlar merosini musiqali drama janri imkoniyatlari orqali zamonaviy tomoshabinga yetkazishga qaratilgan muhim sahna asaridir. Unda milliy musiqa, maqom an’analari va dramatik syujet uyg‘unlashib, jadidchilik g‘oyalarining badiiy-falsafiy talqini yaratilgan. Asar ayrim ijro va ilmiy aniqlik

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

bilan bog‘liq kamchiliklarga ega bo‘lsa-da, u o‘zbek musiqali teatri repertuarida jadidlar siymosini yoritishga bag‘ishlangan muhim tajriba sifatida e’tirof etilishi mumkin.

**Kalit so'zlar**: jadidlar, musiqali drama, sahna talqini, maqom, “Kuygay”, “Cho‘li Iroq”, ariya, orkestr, xor, milliy uyg‘onish.

**Iqtibos uchun**: Abdusamatova G. “Yorug‘ yulduzlar” musiqali dramasidagi jadidlarsiymosi”. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. B.501–510.

## В МУЗЫКАЛЬНОЙ ДРАМЕ” ЯРКИЕ ЗВЕЗДЫ" ФИГУРА ДЖАДИДОВ”

© Г. Абдусаматова[1]✉
[1]Узбекский национальный институт музыкального искусства имени Юнуса Раджаби, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: возникшее в начале XX века джадидистское движение явилось важным историческим событием в Национальном пробуждении, духовном развитии и формировании современной мысли узбекского народа. Идеи джадидов о просвещении, свободе и прогрессе нашли глубокое отражение не только в литературе и общественной мысли, но и в театральном и музыкальном искусстве. Сегодня одним из актуальных вопросов является вынесение этих идей на сцену через жанр музыкальной драмы, их интерпретация средствами современного искусства. В этом отношении музыкальная драма” яркие звезды " заслуживает научного анализа как важное сценическое произведение, переосмысливающее наследие джадидов в музыкально-драматическом плане.

**ЦЕЛЬ**: анализ музыкальной драмы” яркие звезды " в драматическом и музыкальном аспектах, выявление того, как в ней через средства музыкального выражения освещались идеи национального возрождения, просвещения и свободы джадидов, а также научное обоснование статуса и места композиторской традиции в сценической интерпретации.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в ходе исследования музыкальная драма опиралась на либретто, сценические интерпретации, музыкальные партитуры, статусные песни и образцы сочинения. Также была проанализирована научная литература по музыковедению и театроведению, взгляды зрелых ученых, а также практический сценический опыт спектакля. В исследовании использовались музыкально-аналитический, драматургический анализ, сравнительный и историко-методический методы.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: результаты анализа показали, что в музыкальной драме” яркие звезды " фигуры джадидов художественно гармонично воплощены через музыкальные лейтмотивы, арии, хоровую и оркестровую фактуру. В частности, использование в качестве лейтмотива песни “куйгай”, принадлежащей к сочинению Юнуса Раджаби, укрепило идейный центр произведения и глубоко в музыкальном плане выразило дух джадидов страдания,


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

надежды и стремления к просветлению. А флейтовая интерпретация мелодии" пустынный Ирак " усиливала внутреннее недовольство и трагические переживания героев. Однако было обнаружено, что в некоторых сценах не была обеспечена адекватная гармония между текстом и музыкальной интерпретацией, а также ошибки в некоторых предложениях, требующих научной точности.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: музыкальная драма" яркие звезды " - важное сценическое произведение, призванное донести наследие джадидов до современного зрителя с помощью возможностей жанра музыкальной драмы. В нем сочетаются национальная музыка, традиции статуса и драматический сюжет, создается художественно-философская интерпретация идей джадидизма. Хотя у пьесы есть некоторые недостатки, связанные с исполнением и научной точностью, ее можно признать важным экспериментом по освещению фигуры джадидов в репертуаре узбекского музыкального театра.

**Ключевые слова**: джадиды, музыкальная драма, сценическая интерпретация, статус, "куйгай", "пустынный Ирак", Ария, оркестр, хор, национальное возрождение

**Для цитирования**: Г.Абдусаматова в музыкальной драме" яркие звезды" фигура джадидов". // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. С. 501–510.

## IN THE MUSICAL DRAMA" LIGHT STARS" URINE OF JADIDS"

© Gulxumor Abdusamatova[1]✉
[1]National Institute of musical arts of Uzbekistan named after Yunus Rajabi, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: the jadidism movement that arose at the beginning of the 20th century was an important historical phenomenon in the formation of the national awakening, spiritual development and modern thinking of the Uzbek people. The jadids ' ideas of enlightenment, liberation and progress were deeply reflected not only in literature and social thought, but also in theatre and musical art. Today, bringing these ideas to the stage through the genre of musical drama, interpreting them using modern artistic means, is one of the pressing issues. In this respect, the musical drama "Light stars" deserves scientific analysis as an important stage work that has reinterpreted the Jadid heritage musically-dramaturgically.

**AIM:** a dramaturgical and musical analysis of the musical drama" light stars " consists in determining how the jadids' ideas of national awakening, science enlightenment and liberation were illuminated through musical means of expression, as well as scientifically substantiating the place of status and composing traditions in stage interpretation.

**MATERIALS AND METHODS**: the research process relied on musical drama libretto, stage interpretation, musical score, status chants, and composing samples. Also


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

analyzed were scientific literature on musicology and theater studies, views of mature scientists, and practical stage experience of the play. The study used musical-analytical, dramaturgical analysis, comparative and historical-methodological techniques.

**DISCUSSION AND RESULTS**: the results of the analysis showed that in the musical drama “Bright Stars”, jadid figures were embodied artistically harmoniously through musical leitmavzular, Arias, choral and orchestral invoices. In particular, the use of the song “Kuygay”, attributed to Yunus Rajabiy's composition, as a leitmavzu, strengthened the ideological center of the work and deeply expressed the spirit of the jadids striving for anguish, hope and enlightenment musically. While the interpretation of the song” desert Iraq "on the flute instrument enhanced the characters' inner discontent and tragic experiences. At the same time, it was found that in some scenes the harmony between text and musical interpretation was not sufficiently ensured, as well as that there were errors in certain sentences that required scientific accuracy.

**CONCLUSION:** the musical drama "light Stars" is an important stage play aimed at conveying the Jadid heritage to the modern viewer through the possibilities of the musical drama genre. It combines National Music, status traditions and a dramatic plot, creating an artistic and philosophical interpretation of the ideas of jadidism. Although the work has some performance and shortcomings related to scientific accuracy, it can be recognized as an important experience in the repertoire of the Uzbek musical theater dedicated to the illumination of the urine of jadids

**Key words**: jadids, musical drama, stage interpretation, Maqam, "Kuygay", "Desert Iraq", Aria, orchestra, choir, national awakening

**For citation**: Gulxumor Abdusamatova. (2025) In the musical drama” light stars" urine of jadids”, Inter education & global study, vol.3 (12), pp. 501–510. (In Uzbek).

**M**a’lumki, jadidlar O‘zbekiston madaniy-ma’naviy hayotida muhim rol o‘ynab, xalqni uyg‘otish, bilim va ma’rifat tarqatish, zamonaviy fikrlashni rivojlantirish hamda milliy o‘zlikni anglashga katta e’tibor qaratganlar. Ularning asosiy maqsadi millatni taraqqiyot sari yetaklash, xalq ongini yuksaltirish va zamon bilan hamnafas tafakkurni shakllantirish edi. Jadidlarning faoliyati tufayli o‘zbek xalqi ma’naviy hayotida yangi davr boshlandi. Atoqli adabiyotshunos olim, professor Naim Karimov ta’kidlaganidek: “Jadidchilik harakati O‘zbekiston tarixida milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy ozodlik yo‘lidagi eng muhim ijtimoiy hodisalardan biridir”.[1] Bugungi kunda jadidlarning ma’rifatparvarlik g‘oyalari nafaqat tarixiy meros sifatida, balki zamonaviy madaniyat va san’at uchun ham dolzarb manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so‘zlari mavjud: “Jadidlar bizning faxrimiz, ular millatni uyg‘otgan va yangi davr tafakkuriga yo‘l ochgan avloddir. Ularning jasorati va tafakkuri bugungi yoshlarga ibrat bo‘lishi lozim”[2].

[1] Karimov N. Jadidchilik va milliy uyg‘onish. T.: Fan, 2010., 18-bet.
[2] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.: O‘zbekiston, 2021., 26-bet. // https://arm.ssuv.uz.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ma’lumki, jadidlar merosini o‘rganishning dolzarbligi, avvalo, ularning ma’naviy-axloqiy qarashlari bugungi milliy taraqqiyot tamoyillari bilan uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Xususan, musiqali teatr san’atida jadidlar siymosini yoritish, ularning g‘oyaviy qarashlarini musiqa bilan ifoda etish bugungi kunda ilmiy va badiiy jihatdan ham dolzarb masaladir. Yosh teatrshunos olima Nazokat Abdumuxtorovaning so‘zlariga ko‘ra: “Jadidlar haqidagi musiqali sahna asarlari milliy musiqaning mazmun va shakl jihatidan yangilanishiga turtki bo‘lib, uning g‘oyaviy salohiyatini yuksak bosqichda ifodalash imkonini yaratadi.”[3] Shu nuqtai nazardan, sahna asarlari orqali o‘zbek milliy musiqasining tarixiy qatlamlari, ijrochilik an’analari va musiqiy ifoda vositalari jadidchilik g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq holda yangi badiiy mazmunda talqin etilmoqda. 2024 yilning yanvar oyida Muqimiy nomidagi poytaxt teatri sahnasida jadidlar faoliyatini yoritishga bag‘ishlangan “Yorug‘ yulduzlar” nomli musiqali drama tomoshabinlar e’tiboriga havola etildi. Mazkur asar yetuk ijodorlar – taniqli shoir, dramaturg To‘ra Mirzo Jabborov pyesasi asosida iqtidorli rejissyor Doston Haqberdiyev tomonidan sahnalashtirildi. Musiqiy sahnalar o‘zining chuqur mazmuni, ohangdorligi va ta’sirchanligi bilan ajralib turuvchi, yetuk dirijyor va iqtidorli kompozitor Olimjon Komiljonov tomonidan bastalandi. Shu o‘rinda, O.Komiljonov ijodiga doir to‘plangan ma’lumotlarga ko‘ra[4], u 1994 yilda Muqimiy nomli “O‘zbek musiqali drama va komediya teatri”dagi ijodiy faoliyatini xormeyster sifatida boshlagan. Olimjon Komiljonov hozirgi kunga qadar bir qator spektakllar uchun musiqa bastaladi. Jumladan, “Osmondagi Xulkarim” (R.Muhammadjonov asari, 2011 yil), “Antiqa sovchilar” (Isfandiyor asari, 2014 yil), “Aqldan ozish hech gap emas” (Shukurillo Mahkamov asari, 2019 yil), “Baxshi” (Nafas Shodmonov asari, 2019 yil), “Yorug‘ yulduzlar” (“To‘ra Mirzo Jabborov asari. 2024 yil”) kabi musiqali drama va komediyalar teatr repertuaridan o‘rin olgan.

Jadidlar hayoti va ijodiga bag‘ishlab yozilgan mazkur musiqali drama syujetida millat ravnaqi, ma’rifat va ozodlik yo‘lida fidokorona kurash olib borgan, o‘z asarlarida xalqni uyg‘otishga da’vat etgan - Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Hamza Xakimzoda Niyoziy singari atoqli arboblarning siymolari gavdalangan. “Yorug‘ yulduzlar”ning diqqatga sazovor jihati shundaki, u bir nechta buyuk jadid siymosini yagona sahna maydonida birlashtirganidir. Jumladan, asarda yuqorida nomlari keltirilgan har bir shaxsning qiyofasi alohida musiqiy lavhalarda namoyon bo‘ladi. Bu orqali ularning millat ravnaqi va ma’rifat yo‘lidagi xizmatlari individual tarzda yoritiladi. Har bir sahnada qahramonlarning ijtimoiy, siyosiy hamda madaniy faoliyati badiiy vositalar bilan ochib beriladi, natijada asar dramaturgiyasida jadidlar harakatining ko‘p qirrali mohiyati, ularning milliy uyg‘onish jarayonidagi o‘rni va ta’siri yaxlit tarzda ifodalangan.

Shuningdek, mazkur musiqali dramani tahlil etish zaruriyati, avvalo, unda ayrim maqom manbalari, bastakorlik hamda kompozitorlik ijodi namunalaridan samarali foydalanilganligi bilan izohlanadi. Xususan, “Yorug‘ yulduzlar” musiqali dramasi ikki parda

[3] Abdumuxtorova N. O‘zbekistonda musiqali teatr san’atining tashkil topishi va shakllanish bosqichlari.// “Oriental Art and Culture” ilmiy jurnali. 3-son, 2022., 5-bet.
[4] Kompozitor O.Komiljonov bilan olib borilgan suhbatdan.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

va 5 ko‘rinishdan iborat bo‘lib, kichik[5] simfonik orkestr hamda xor ijrosidagi muqaddima bilan boshlanadi:

Go‘zal Turkiston, senga ne bo‘ldi?




Sahar vaqtida gullaring so‘ldi.
Chamanlar barbod, qushlar ham faryod,
Hammasi mahzun. Bo‘lmasmi dil shod?

Cho‘lpon so‘zlariga bastalangan mazkur musiqiy muqaddima do minor tonalligida yozilgan. Asarning vazmin sur’ati (moderato), g‘amgin kayfiyat orkestrdagi torli-kamonli cholg‘ular ijrosida yangraydi. Musiqa orqali qahramon (jadidlar)larning ichki kechinmalari aks etib, tinglovchi ularning ruhiy holatini, ichki kechinmalarini va milliy uyg‘onishga bo‘lgan intilishlarini chuqur his qiladi, shu asarning dramatik va badiiy mazmuni yanada ta’sirli tarzda bayon etiladi. Binobarin, uvertyura fakturasining akkordli davomiyligi sahnadagi bu kabi manzara uchun mos keladi. Parda ochilib, dastlabki ko‘rinish namoyish etiladi. Abdulla Avloniy va uning olov ichida qolgan maktabi sahnasi.[6] Bilim va ma’rifatning yo‘qolishidan chuqur qayg‘uga cho‘mgan Avloniy va uning shogirdi, kulga aylangan kitoblar taqdiriga achinib, dardu alam bilan iztirob chekayotgan yo‘lovchi keksa ayol — Oqila momo sahnada paydo bo‘ladi. Ularning dardli sukunati va iztirobga to‘la nigohlari orqali jaholat zulmati va ma’rifatning yo‘qolishi fojeasi tomoshabinga chuqur ta’sir bilan yetkaziladi. Avvaliga, yakkaxon nay cholg‘usida, so‘ngra, orkestr jo‘rligida yangragan dilkash ariya qo‘lida chala yongan kitobni mahkam quchoqlab olgan Oqila momoning xuzunli kayfiyatini ifodalaydi. Bu ariya Hamid Olimjon so‘zi bilan atoqli sozanda, maqomlarga qo‘shgan ulkan hissasi bilan tarixda iz qoldirgan bastakor Yunus Rajabiy ijodiga mansub “Kuygay” ashulasidir.[7]

[5] Katta simfonik orkestrda odatda 70–100 nafargacha ijrochi bo‘ladi. Kichik simfonik orkestr esa 20–40 nafar atrofidagi musiqachilardan tashkil topadi. Shu sababli u “kichik” deb ataladi.

[6] Sahnani quyuq tutun qoplaydi. G‘ala-g‘ovur. Sahnaga yuz-ko‘zi qora kuya bo‘lgan Avloniy hamda talaba yigit yugurib chiqadilar.

[7] “Guloyimning “Kuygay” nomli qo‘shig‘i, … muzikali dramaning eng yorqin, jozibador, mazmun va shakli jihatdan mukammal ashula yo‘llaridan hisoblanadi.”// Qarang: Ахмедов М. Юнус Ражабий. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, Т.,1980., 64-bet.


CC BY NC ND


ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ma’lumki, benazir ijod sohibi Yunus Rajabiyning 1930 yillardan boshlangan bastakorlik faoliyatida “Farhod va Shirin”, “Qo‘chqor Turdiyev”, “Muqanna”, “Navoiy Astrobodda” musiqali dramalari hamda “Zaynab va Omon” operasi singari yirik sahnaviy asarlar muallifiga aylangan. Atoqli sozanda va bastakor Yunus Rajabiy XX asr o‘zbek musiqasida yangi shakllana boshlagan musiqali drama va opera janrlarini milliy ruh bilan boyitish jarayoniga ham salmoqli ulush qo‘shgan edi. Xususan, “Farhod va Shirin” dramasidagi “Judo”, “Koshki”, “O‘yin Dugohi”, “Bahor keldi”, “O‘yin Bayoti” ham xalqimizning sevimli kuy va ashulalari qatoridan o‘rin olgan bo‘lsa, “Qo‘chqor Turdiev” musiqali dramasidagi bosh qahramon (Qo‘chqor Turdiev) ariyasi “Ne navo soz aylagay”, “Muqanna” dramasidagi Gul oyining ashulasi “Kuygay” nomi bilan mashhur bo‘ldi:

So‘zingning sharpasi tekkanda olam bob, bob kuygay,
Dengizlar, daryolar, hattoki ko‘llarda xubob kuygay.
Kamondek qoshlaring, kipriklaringdin o‘q otar doim,
Sening yoding bilan tinmay hama noz-u itob kuygay.

Hamid Olimjonning “Kuygay” radifli g‘azali aruz she’riy tizimining “Hazaji musammani solim” bahrida yozilgan g‘azal Yunus Rajabiy tomonidan mumtoz musiqa an’analariga xos ohanglarda kuyga solinib, unda so‘z va musiqaning badiiy uyg‘unligi, ruhiy noziklik va ma’naviy teranlik mahorat bilan ifodalangan. “Kuygay” asari haqida taniqli musiqashunos olim To‘xtasin G‘ofurbekov, - “…“rajabiycha” mustaqil bastakorlik uslubiga xos boqiy bitiklar…”[8], - deb ataydi. “Yorug‘ yulduzlar” musiqali dramasi uchun “Kuygay” ashulasining tanlanishi bejiz emas. Chunki, musiqa shinavandalari qulog‘iga tanish ashulaning ohangdorligi sahnadagi dramatik vaziyat bilan mukammal uyg‘unlashadi. Kichik simfonik orkestr tarkibidagi milliy cholg‘ulardan nay, chang, doira, yevropacha cholg‘ulardan esa skripka, violonchel mayin sadolari qahramon (Oqila momo)ning his-tuyg‘ularini ochib berishda hamnafaslik qiladi. Mazkur ariya re frigiyda yozilgan. Doira zarblari orqali yangragan aralash 3/4+4/4 ritmik o‘lchovidagi bastakorona usul kuyga o‘ziga xos harakat bag‘ishlaydi:

Usul:



Mumtoz musiqa shinavandalariga ma’lumki, mazkur ashula shaklan maqom ashula namunalariga yaqin bo‘lib, u daromad, miyonxat, dunasr, avj va furovard kabi tuzilmalarga tayangan. Masalan, kuy “re” tayanch pardasidan daromad jumlasi bilan boshlanib, mazkur jumla yana takrorlanadi.

1-misol:





[8] G‘ofurbekov T. Bastakorlik ijodiyoti: tarixi, tahlili, taqdiri. Toshkent, 2019., 153-bet.

© inter

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

So‘ngra, maqom shakli rivojiga xos bo‘lgan kvartali harakat (“sol” tovushi) orqali miyonxat jumlasiga o‘tiladi:

2-misol




Biroq, miyonxat jumlasi yakunida “sol” tovushiga emas, balki asosiy tayanch “re” tovushiga qaytadi. So‘ngra, kuy rivoji avjda o‘z aksini topadi:

3-misol




Mazkur jumla ikki marotaba takrorlanadi. Bu orqali tinglovchi “Kuygay” ashulasining dramatizmini aynan avj jumlasida yaqqol his qiladi. Vazmin suratdagi kuy harakati sekin-asta pastlab boradi va furovard jumlasiga (“sol” tovushidan) ulanib ketadi. Mazkur jumla ohirgi baytlarning musiqiy takrori orqali “re” bosh pardasiga qaytib yakunlanadi:

4-misol





CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Bugungi kunda “Kuygay” asari ijrochilik amaliyotida alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda. Uning mukammalligi va murakkabligi maqomlarning xususiyatlari bilan sug‘orilganligi bilan izohlanadi. Musiqashunos olim Soibjon Begmatovning fikriga ko‘ra: “Ashula o‘z tuzilishi va ijroviy tomonlari bilan mumtoz asarlar qatoridan o‘rin olgan. “Kuygay” ashulasining o‘ziga xos jihatlari uning metroritmik jihatlarida va so‘z bilan mutanosiblik tomonlarida mujassam topgan.”[9] Shuni alohida ta’kidlash joizki, “Yorug‘ yulduzlar” musiqali dramasida “Kuygay” ashulasi birgina Oqila momo ariyasi sifatida yangrabgina qolmay, balki, asarning barcha ko‘rinishlarida leytmavzu sifatida jaranglab turadi. Chunki, u mazkur sahna asarida nafaqat musiqiy jihatdan, balki mazmun-mohiyat jihatidan ham chuqur falsafiy yuklamaga ega.

Jadidlar hayoti va ijodiga bag‘ishlangan mazkur musiqali dramada Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Cho‘lpon, Fitrat, Hamza kabi qiyofalar turli musiqiy talqinlarda gavdalanadi. “Yorug‘ yulduzlar” sahna asarida milliy ruhdagi musiqiy leyt mavzularning qo‘llanilishi asarda milliy o‘zlik kayfiyatini bayon etadi. Natijada tomoshabin nafaqat sahnadagi voqealarni kuzatadi, balki asar qahramonlarini chuqurroq his qiladi, musiqaning badiiy ifodasi orqali dramatik ta’sir kuchayadi. Xususan, “Cho‘li Iroq” kuyining nay honishida yangrashi Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon va shoir G‘ilmoniylarning norozilik va qayg‘u tuyg‘ularini ta’sirchan tarzda yetkazadi. Shuningdek, mazkur musiqali dramada ayrim xatoliklar ham kuzatiladi. Jumladan, oxirgi final sahnasida Hamza Fitratga quyidagi so‘zlarni bayon qiladi: “Siz Turonu Turkistonning alp o‘g‘lonisiz! Ulug‘ adabiyotshunos, musiqashunos, Buxoriyning mashhur “Shashmaqom”i ham siz sababli notaga tushirilib, nashr etilgan. Olimlar orasida ilk bor professorlik unvonini olish ham sizga nasib etgan!” Pyesada keltirilgan mazkur jumla ilmiy jihatdan noto‘g‘ri. Aslida, bu jumlada “Buxoriy Shashmaqomi” emas, balki, “Buxoro Shashmaqomi” bayon etilishi lozim edi. Bunday noto‘g‘ri ma’lumot tomoshabinlarda “Shashmaqom turkumi bevosita hadis ilmining sultoni Imom al-Buxoriy bilan bog‘liq”, - degan tushunchaning shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Xususan, musiqa ijrosida ham ayrim kamchiliklar seziladi. Masalan, orkestr hamda yakkaxon, xor bilan birgalikdagi ijrosi o‘rtasida uyg‘unlik yetishmaydi. Bu hol sahnaning badiiy ifodasi va dramatik ta’sirini susaytirib, qahramonlarning ichki kechinmalarini musiqiy vositalar orqali to‘liq yetkazilishiga to‘sqinlik qiladi. Ammo, bu kamchiliklar barkamol rejissura, sahna harakati va ijrochilarning hissiy ifodasi orqali qisman bartaraf etilishi mumkin. Xususan, milliy musiqiy bezaklar va torli cholg‘ular ijrosidagi uyg‘unlikni yaxshilash orqali sahnaning dramatik ta’siri tinglovchiga yanada aniq va ta’sirchan yetkazilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, “Yorug‘ yulduzlar” nomli musiqali dramaning sahnaga qo‘yilishi nafaqat tarixiy shaxslar siymosini qayta tiklash, balki musiqali drama janrining imkoniyatlari orqali jadid g‘oyalarining mazmunini zamonaviy tomoshabinga yetkazish maqsad qilib olinganidan dalolatdir.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

[9] Begmatov S. Bastakorlar ijodiyoti. Notalar to‘plami.”Nur-star shines” nashriyoti. T., 2022., 12-bet.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.: O‘zbekiston, 2021., 26-bet. // https://arm.ssuv.uz.
2. Ахмедов М. Юнус Ражабий. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, Т.,1980.
3. G‘ofurbekov T. Bastakorlik ijodiyoti: tarixi, tahlili, taqdiri. Toshkent, 2019.
4. Karimov N. Jadidchilik va milliy uyg‘onish. T.: Fan, 2010.
5. Begmatov S. Bastakorlar ijodiyoti. Notalar to‘plami.”Nur-star shines” nashriyoti. T., 2022.
6. Abdumuxtorova N. O‘zbekistonda musiqali teatr san’atining tashkil topishi va shakllanish bosqichlari.// “Oriental Art and Culture” ilmiy jurnali. 3-son, 2022.
7. Abdusamatova G. A. Scenic Solution of the Musical Drama “Tohir And Zuhra”: A Historical and Contemporary Interpretation //Central Asian Journal of Arts and Design. – 2026. – Т. 7. – №. 1. – С. 28-34.
8. Abdusamatova G. Kompozitor Mirhalil Mahmudovning “Kumush” operasi xususida //Образование и наука в XXI веке. – 2024. – №. 57-4.

**MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]**

✉**Gulxumor Abdusamatova**, Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti, “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi , [**Абдусаматова Гулхумор**, Узбекский национальный институт музыкального искусства имени Юнуса Раджаби, преподаватель кафедры “История и теория узбекского статуса”, независимый исследователь], [**Gulxumor Abdusamatova**, Teacher of the Department “history and theory of Uzbek status", National Institute of musical arts of Uzbekistan named after Yunus Rajabi, independent researcher]; manzil: O'zbekiston, Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 31-uy, [адрес: Узбекистан, ул. Мустакиллик, 31, г. Ташкент], [address: Uzbekistan, 31, Mustaqillik st., Tashkent city]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# ICHKI ISHLAR ORGANLARI PSIXOLOGLARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI

© N.Sh. Turg‘unov[1]✉
[1]Ichki Ishlar Vazirligi, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: ushbu maqolada ichki ishlar organlari psixologlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish strategiyalari tahlil qilinadi. Psixologlarning kasbiy salohiyatini oshirish jarayonida ularning motivatsiyasi, individual yondashuv asosida olib borilgan o‘quv-tarbiyaviy faoliyat hamda amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Kasbiy motivatsiyani chuqur o‘rganish psixologlarga xizmat jarayonida uchraydigan murakkab holatlarga tayyor turishni va faoliyat samaradorligini oshirishni ta’minlaydi.

**MAQSAD**: zamonaviy ichki ishlar tizimida psixologlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Mazkur tadqiqotning maqsadi psixologlarning kasbiy kompetentligini oshirishga xizmat qiluvchi strategiyalarni ishlab chiqish, ularning amaliy faoliyatga tayyorgarligini kuchaytirish va xizmat davomida samarali psixologik yordam ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat**.**

**MATERIALLAR VA METODLAR**: ushbu maqolada ichki ishlar organlari psixologlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish asosida amaliy faoliyatga tayyorlash strategiyalarini o‘rganish uchun bir necha metodlar qo‘llanildi: adabiyotlarni tahlil qilish, so‘rovnoma o‘tkazish, intervyu o‘tkazish, amaliyotga oid tadqiqotlar, statistik tahlil.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tadqiqotda ichki ishlar organlari psixologlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda motivatsion yondashuvning ahamiyati yoritib berildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, malaka oshirish jarayoniga innovatsion metodikalarni integratsiyalash psixologlarning shaxsiy rivojlanishi, kommunikativ ko‘nikmalarini mustahkamlashi hamda xizmat samaradorligini oshirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, psixologlar faoliyatida uchraydigan stress omillarni kamaytirish, professional barqarorlikni mustahkamlash va xizmat jarayonida sifatli psixologik yordam ko‘rsatish uchun motivatsiyani kuchaytirish muhim omil hisoblanadi.

**XULOSA:** ichki ishlar organlari psixologlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish tizimli yondashuvni talab qiladi. Kasbiy motivatsiyani kuchaytirish, professional tayyorgarlikni muntazam rivojlantirib borish, malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish va amaliyotga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali psixologlarning faoliyati samaradorligini oshirish mumkin. Shu bilan birga, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda uchraydigan to‘siqlarni bartaraf etish uchun tegishli tashkiliy va metodik choralar amalga oshirilishi zarur

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Kalit so'zlar:** kasbiy kompetentlik, ichki ishlar organlari, psixolog, motivatsiya, professional rivojlanish, amaliy faoliyat, psixologik yordam, malaka oshirish.

**Iqtibos uchun**: Turg'unov N. Sh. Harbiylashtirilgan oliy ta'lim timizi kursantlarini o'quv motivatsiyasini takomillashtirish strategiyalari**.** Shadjalilov Sh.I. Sportchining yuksak natijalarga erishishda dopingning zararlari. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. B.511–518.

# СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПСИХОЛОГОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

© Н.Ш.Тургунов[1]✉
[1] Министерство внутренних дел, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: в данной статье анализируются стратегии развития профессиональной компетентности психологов органов внутренних дел. В процессе повышения профессионального потенциала психологов важное значение имеют их мотивация, учебно-воспитательная деятельность, основанная на индивидуальном подходе, а также укрепление практических навыков. Глубокое изучение профессиональной мотивации обеспечивает готовность психологов к сложным ситуациям, возникающим в служебной деятельности, и способствует повышению эффективности работы.

**ЦЕЛЬ**: в современном секторе органов внутренних дел развитие профессиональной компетентности психологов является одной из актуальных задач. Цель данного исследования — разработать стратегии, направленные на повышение профессиональной компетентности психологов, укрепление их готовности к практической деятельности и расширение возможностей эффективного оказания психологической помощи в процессе службы**.**

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в статье для изучения стратегий подготовки психологов органов внутренних дел к практической деятельности на основе развития профессиональной компетентности использованы следующие методы: анализ литературы, проведение анкетирования, интервьюирование, исследования, связанные с профессиональной практикой, а также статистический анализ.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: исследование выявило значимость мотивационного подхода в развитии профессиональной компетентности психологов органов внутренних дел. Результаты показали, что интеграция инновационных методик в процесс повышения квалификации оказывает существенное влияние на личностное развитие психологов, укрепление их коммуникативных навыков и повышение эффективности служебной деятельности. Кроме того, важным фактором является усиление мотивации для снижения стрессовых факторов, укрепления профессиональной устойчивости и обеспечения качественной психологической помощи в процессе службы.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** развитие профессиональной компетентности психологов органов внутренних дел требует системного подхода. Усиление профессиональной мотивации, регулярное совершенствование профессиональной подготовки, модернизация программ повышения квалификации и внедрение современных технологий в практическую деятельность позволяют повысить эффективность работы психологов. Наряду с этим необходимо принять соответствующие организационные и методические меры для преодоления существующих препятствий в процессе развития профессиональной компетентности.

**Ключевые слова:** профессиональная компетентность, органы внутренних дел, психолог, мотивация, профессиональное развитие, практическая деятельность, психологическая помощь, повышение квалификации.

**Для цитирования**: Тургунов Н.Ш. Стратегии совершенствования учебной мотивации курсантов военизированной системы высшего образования. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. С. 511–518.

## STRATEGIES FOR DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF INTERNAL AFFAIRS PSYCHOLOGISTS

©Naufal Sh.Turg‘unov[1]✉
[1]Ministry of Internal Affairs, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: this article analyzes strategies for developing professional competence among psychologists of the internal affairs system. In the process of enhancing psychologists’ professional potential, their motivation, training and educational activities based on an individual approach, as well as the strengthening of practical skills, play an important role. A thorough study of professional motivation ensures psychologists’ readiness for complex situations encountered in service and helps increase the effectiveness of their professional activities.

**AIM:** in the modern internal affairs system, the development of psychologists’ professional competence is one of the most urgent tasks. The purpose of this study is to develop strategies aimed at improving psychologists’ professional competence, strengthening their preparedness for practical activities, and expanding opportunities for providing effective psychological assistance during service

**MATERIALS AND METHODS:** in this article, several research methods were used to study strategies for preparing psychologists of internal affairs agencies for practical activity based on the development of professional competence: analysis of literature, surveys, interviews, practice-related research, and statistical analysis.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the study highlights the importance of a motivational approach in developing the professional competence of psychologists within internal affairs agencies. The results show that integrating innovative methodologies into

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

professional development programs significantly contributes to psychologists' personal growth, strengthens their communication skills, and enhances the effectiveness of their service activities. Additionally, increasing motivation is an essential factor in reducing stressors, reinforcing professional stability, and ensuring the provision of high-quality psychological assistance during service.

**CONCLUSION:** the development of professional competence among psychologists in internal affairs agencies requires a systematic approach. Enhancing professional motivation, continuously improving professional training, modernizing professional development programs, and integrating modern technologies into practical activities can significantly increase psychologists' effectiveness. At the same time, relevant organizational and methodological measures must be implemented to overcome existing obstacles in the process of developing professional competence

**Key words:** professional competence, internal affairs agencies, psychologist, motivation, professional development, practical activity, psychological assistance, advanced training

**For citation**: Naufal Sh. Turg'unov. Strategies for improving the educational motivation of coursants of a militarized higher education system, Inter education & global study, 2025 y. vol.3 (12), pp. 511–518. (In Uzbek).

**Z**amonaviy ichki ishlar tizimida psixologlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayon ularning xizmat faoliyatida yuqori samaradorlikka erishishida muhim rol o'ynaydi. Kasbiy kompetentlikni takomillashtirish psixologning shaxsiy, ijtimoiy va madaniy jihatlari bilan bog'liq turli murakkab vaziyatlarni hal etishga yordam beradigan yondashuvdir. Psixologning motivatsiyasini kuchaytirish, kasbiy malakasini oshirish bo'yicha yondashuvlarni rivojlantirish ularning xizmat jarayonida yuzaga keladigan psixologik vaziyatlarni chuqur anglashiga, to'g'ri baholashiga hamda samarali psixologik yordam ko'rsatishiga yordam beradi.

Ichki ishlar organlari psixologlarini tayyorlashda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning ahamiyati beqiyosdir. Psixologlar faoliyatida motivatsiya, kasbiy tayyorgarlik darajasi, individual yondashuv, kommunikativ ko'nikmalar, stressga chidamlilik kabi omillarning rivojlanishi ularning xizmat samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada psixologlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning asosiy strategiyalari, ularning amaliyotda qo'llanilishi hamda ichki ishlar tizimidagi ijtimoiy jarayonlarga ta'siri ko'rib chiqiladi. Bu jarayon psixologlarning kasbiy salohiyatini oshirish, shaxsiy rivojlanishini ta'minlash hamda xizmatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyatini yaratadi. Ushbu maqolada psixologlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish strategiyalarini o'rganish jarayonida bir qator ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi:

Adabiyotlarni tahlil qilish: kasbiy kompetentlik, motivatsiya, psixologik tayyorgarlik va ichki ishlar organlari faoliyatiga oid xorijiy va mahalliy manbalar o'rganildi. Bu orqali

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

psixologlarning kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari va amaliy jihatlari yoritildi.

So‘rovnoma o‘tkazish: ichki ishlar organlarida faoliyat yuritayotgan psixologlar o‘rtasida kasbiy kompetentlik, motivatsiya va amaliy ko‘nikmalarni baholash bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma psixologlarning kasbiy ehtiyojlari, duch kelayotgan muammolari va motivatsion holatini aniqlash imkonini berdi.

Intervyu o‘tkazish: psixologiya sohasi mutaxassislari, tajribali amaliyotchi psixologlar hamda o‘quv muassasalari o‘qituvchilari bilan chuqurlashtirilgan intervyular o‘tkazildi. Intervyu jarayonida kasbiy kompetentlikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar va samarali metodlar o‘rganildi.

Amaliyotga oid tadqiqotlar: ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan psixologlarning amaliy faoliyati kuzatildi. Kuzatuvlar psixologik yordam jarayonida uchraydigan real vaziyatlarni o‘rganishga va ularga samarali yondashuvlarni aniqlashga yordam berdi.

Statistik tahlil: olingan ma’lumotlarning statistik tahlili orqali psixologlarda kasbiy kompetentlik darajasi, motivatsiya holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish strategiyalari baholandi.

Ushbu metodlar, psixologlarda kasbiy kompetentlikni takomillashtirish yondashuv asosida faoliyatga tayyorlash strategiyalarini o‘rganish va tavsiya etish jarayonida keng qamrovli va tizimli yondashuvni ta'minladi. Tadqiqot natijalari, psixologlarda kasbiy kompetentlikni takomillashtirishning ta'lim jarayonidagi muhim o‘rnini va psixologlarni tayyorlashda ushbu yondashuvni qo‘llash zarurligini tasdiqlaydi.

Ichki ishlar organlari psixologlari uchun motivatsiya va kompetentlik o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatni belgilab beradi. Ichki motivlar (kasbga ixlos, odamlarga yordam berish istagi) kasbiy sifatlarning shakllanishiga yordam bersa, tashqi motivlar (mukofot, lavozim) qisqa muddatli turtki beradi**.**

Shuningdek, yerks–dodson qonuniga ko‘ra, kasbiy motivatsiya o‘rtacha darajada bo‘lganda faoliyat samaradorligi maksimal darajaga chiqadi [1; 213-b.].

Biroq, aniq faktlar va qonuniyatlarni o‘rganishga o‘tishimizdan oldin, biz ushbu asosiy tushunchalarga to‘xtalishni lozim deb topdik.

Ichki ishlar organlari faoliyati jamiyat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarni oldini olish va jamoat tartibini saqlash kabi strategik vazifalarni bajaradi. Bu jarayonda psixologlarning o‘rni tobora ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ichki ishlar xodimlari doimo stress, xavf, ekstremal vaziyatlar va yuqori emotsional zo‘riqish sharoitida ishlaydi. Psixolog xodimlarning ruhiy barqarorligini ta’minlash, jamoada sog‘lom muhit yaratish, xavfli vaziyatlarni oldini olish va tezkor qaror qabul qilish jarayonlariga yordam beradi. Shu bois, ichki ishlar organlari psixologlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish dolzarb va strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Psixologning kasbiy kompetentligi — bu uning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, shaxsiy sifatlari, kasbiy etika va ichki ishlar organlari faoliyatiga mos psixologik tayyorgarlikni o‘z ichiga olgan integral tuzilma hisoblanadi [1].

Kasbiy kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlari:

1.Psixodiagnostik kompetentlik. Xodimlarning emotsional holati, stressli vaziyatlar, shaxsiy xususiyatlarni baholash qobiliyati.

2.Psixokorreksion kompetentlik. Qiyin holatdagi xodimlar bilan ishlash, krizis intervensiya, relaksatsiya va stressni kamaytirish metodlarini qo‘llash.

3.Kommunikativ kompetentlik.ishonchli muloqotni yo‘lga qo‘yish, agressiv yoki depressiya holatidagi shaxs bilan muloqot olib borish, konfliktni boshqarish.

4.Ekstremal psixologiya bo‘yicha kompetentlik.favqulodda vaziyatlarda psixologik yordam ko‘rsatish, tezkor qaror qabul qilishda xodimlarga ko‘maklashish.

5.Emotsional-irodaviy barqarorlik. Psixologning shaxsiy stressga chidamliligi, murakkab vaziyatlarda o‘zini qo‘lga ola olishi.

6.Refleksiv kompetentlik. O‘z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va professional o‘sishga intilish.

Psixologlarni tayyorlash jarayonida maxsus modullar — ekstremal psixologiya, stress-menejment, muzokaralar psixologiyasi kabi yo‘nalishlar alohida o‘rgatiladi. Bunday yondashuv nazariy va amaliy bilimlarni tizimli ravishda o‘zlashtirishga yordam beradi. Keys-stadi, situativ mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar va voqealar modellashtirish psixologning real xizmat sharoitida to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Psixolog har bir ish jarayonidan keyin o‘z faoliyatini tahlil qilib, xulosa chiqarib borishi kasbiy o‘sish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Debatlar, guruhiy tahlil, treninglar va simulyatsiyalar orqali kommunikativ va vaziyatni boshqarish ko‘nikmalari takomillashadi [2].

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.

Kasbiy identifikatsiyani shakllantirish. Psixolog o‘zining ichki ishlar tizimidagi o‘rni, vazifalari va mas’uliyatini anglagan paytdan boshlab kasbiy takomuli tezlashadi [3].

Emotsional barqarorlikni rivojlantirish. Meditatsiya, avtotrening, mayndfulness, stress-menejment usullari psixologning barqarorligini ta’minlaydi. Kommunikativ qobiliyatlarni kuchaytirish. Qiyin sub’ektlar bilan muloqot, muzokara psixologiyasi, konfliktlarni bartaraf etish texnikasi kasbiy samaradorlik uchun muhim. Kognitiv-povedencheskiy mexanizmlar. Psixolog mijozining fikrlash jarayonlarini anglash, xatolarini to‘g‘irlash va pozitiv xulqni shakllantirishga yo‘naltirilgan usullardan foydalanadi. Sotsial-psixologik mexanizmlar Mentoring va superviziya. Tajribali psixologlar tomonidan yosh mutaxassislarga ko‘rsatiladigan metodik yordam kasbiy kompetentlikni tez rivojlantiradi.

Kasbiy sotsializatsiya. Ichki ishlar tizimidagi korporativ madaniyat, xizmat intizomi va jamoaviy munosabatlarga moslashuv psixologning faoliyati samaradorligini oshiradi.

Psixologik xavfsizlik muhitini yaratish. Jamoada ishonchli va ochiq muloqot muhiti xodimlar bilan ishlash samaradorligini oshiradi.

Tashkiliy mexanizmlar.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Malaka oshirish va qayta tayyorlash. Psixologlarni muntazam ravishda qayta tayyorlash, seminar va treninglarda ishtirok ettirish zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirishga imkon beradi. Ish samaradorligini muntazam monitoring qilish. Psixolog faoliyatining natijadorligi, xodimlar qoniqish darajasi va stress indekslari tahlil qilinib boriladi.
Ilmiy-amaliy hamkorlik. Oliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlar va xorijiy ekspertlar bilan hamkorlik innovatsion texnologiyalarni joriy etishga yordam beradi. Ichki ishlar organlari psixologlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish ko‘p omilli, kompleks va uzluksiz jarayondir. Pedagogik, psixologik va tashkiliy mexanizmlarning birgalikda qo‘llanilishi psixologlarning xizmat faoliyatiga tayyorgarligini oshiradi, ekstremal vaziyatlarda samarali ish yuritish imkonini beradi, jamoada sog‘lom psixologik muhitni ta’minlaydi. Psixologning yuqori professional kompetentligi ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligi va jamiyat xavfsizligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Ichki ishlar organlari psixologlarida kasbiy kompetentlikni doimiy rivojlantirib borish ularning xizmat samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Buning uchun psixologlarni ma’lum toifalarga ajratgan holda manzilli tarzda ishlash, ularning kasbiy ehtiyojlarini chuqur o‘rganish va individual rivojlanish rejalari asosida pedagogik hamda psixologik yordam ko‘rsatish zarur.

Xizmat mashg‘ulotlaridan so‘ng psixologlarning kasbiy motivatsiyasini oshirish maqsadida psixologik trening mashg‘ulotlarini muntazam ravishda kun tartibiga kiritish lozim. Shuningdek, amaliyotchi psixologlar bilan tizimli uchrashuvlar tashkil etish, ular tomonidan amaliyotda duch kelinayotgan real muammolarni muhokama qilish, tajriba almashish, xizmat jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan psixologik qiyinchiliklar yuzasidan tavsiyalar berish psixologlarning amaliy kompetentligini yanada kuchaytiradi.
Psixologlarning kasbiy motivatsiyasi, shaxsiy xususiyatlari va xizmatga tayyorgarligini o‘rganish maqsadida zamonaviy diagnostik metodikalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, N.G. lusnakovaning “motivatsiyani baholash metodikasi”, A.A. Rean va V.Ya. Yakuninlarning “o‘quv faoliyati motivlarini o‘rganish metodikasi”, maklakov–chermyaninlarning “moslashuvchanlik testi”, sinyavskiy–fedoroshonlarning “tashkilotchilik va kommunikativ qobiliyatlarni aniqlash” metodikalari asosida muntazam diagnostik monitoring olib borish zarur. Bundan tashqari, ichki ishlar organlari psixologlarini doimiy ravishda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan korreksion dasturlar asosida psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash muhimdir. Psixologik maslahatlar, treninglar va psixoprofilaktik tadbirlar psixologlarning emotsional hissiy barqarorligini mustahkamlashga, ularning salbiy holatlarini bartaraf etishga xizmat qiladi. Psixologlar uchun muntazam malaka oshirish dasturlarini joriy etish, zamonaviy psixotexnologiyalarni o‘rgatish, ularda kasbiy motivatsiyani oshiruvchi treninglarni yo‘lga qo‘yish ularning kasbiy kompetentligini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, psixologlarning individual xususiyatlarini chuqur o‘rganish, ular bilan individual rivojlantiruvchi reja asosida ishlash va kasbiy faoliyatni zamonaviy diagnostik testlar orqali muntazam tahlil qilib borish maqsadga muvofiqdir.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ushbu takliflar ichki ishlar organlarida faoliyat yuritayotgan psixologlar uchun kasbiy kompetentlikni oshirish, ularni amaliy faoliyatga puxta tayyorlash, xizmat jarayonida samarali psixologik yordam ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga doimiy e’tibor qaratish nafaqat psixologlarning o‘zlari uchun, balki umumiy xizmat tizimida ijtimoiy barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Абдуллаева, Г. Касбий компетентлик асослари. – Тошкент: Фан, 2020.
2. Ахмедов, Ж. Психология фаолиятининг асосий тамойиллари. – Тошкент: Университет, 2019
3. Исломов, М. Ички ишлар органларида хизмат психологияси. – Тошкент: Юридик нашр, 2022.
4. Матякубов, А. Кризис ҳолатларда психологик ёрдам кўрсатиш амалиёти. – Самарқанд, 2020.
5. Петров, В. А. Психология служебной деятельности сотрудников органов внутренних дел. – Москва: Юрайт, 2019.
6. Дьяченко, М. И., Кандыбович, Л.А. Психология деятельности и готовности специалиста. – Минск, 2017.
7. Карамова, Н. Профессиональная компетентность психолога как фактор эффективности деятельности. – Тошкент, 2019.
8. Усмонов, Д. Хавфли вазиятларда мулоқот психологияси. – Тошкент: Фан, 2021.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Turg‘unov Naufal Shuxrat o‘g‘li**, Ichki ishlar vazirligi psixologik ta’minlash bo‘limi katta psixolog-poligrafologi, Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), [**Тургунов Науфал Шухрат угли,** страший психолог-полиграфолог отдела психологического обеспечения Министерства внутренних дел, Доктор философии психологических наук(PhD)], [**Naufal Sh. Turgunov**, Senior psychologist-polygraphist of the psychological support department of the Ministry of Internal Affairs, Doctor of philosophy in psixological sciences]; manzil: O‘zbekiston, Toshkent sh., Yunus Rajabiy ko'chasi, 1-uy [адрес: Узбекистан, ул. Юнус Ражабий, 1, г.Ташкент], [address: Uzbekistan, 1, Yunus Rajabiy st., Tashkent city] E-mail: turgunov3103@gmail.com.

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

Original paper

# O‘QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INTERAKTIV PEDAGOGIK USULLAR

© T.I . Ismoilov [1]✉

[1]Namangan davlat chet tillar instituti, Namangan,O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** XXI asr ta’limida o‘qituvchining fan bilimlari bilan birga muloqot, motivatsiya va metodik rahbarlik funksiyalarini ham samarali bajarishi talab etiladi. Shu bois, interaktiv metodlar o‘qituvchini faollashtiruvchi, o‘quvchilar ishtirokini kuchaytiruvchi hamda pedagogik muhitni konstruktivlashtiruvchi omil sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**MAQSAD:** tadqiqotning maqsadi — o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda interaktiv pedagogik usullarning (guruhli ishlash, loyiha metodikasi, pedagogik dialog va muammoli vazifalar) ta’sir mexanizmlarini asoslash hamda ularning amaliy samaradorligini ko‘rsatishdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqot metodologiyasi pedagogik kuzatuv, baholash, anketa va intervyu kabi usullarni uyg‘unlashtirishga tayangan. Interaktiv metodlar kompleks yondashuv sifatida qo‘llanib, kvantitativ tahlil orqali kompetensiya ko‘rsatkichlari o‘lchangan, sifatli tahlil orqali esa dars jarayonidagi muloqot dinamikasi chuqur tahlil qilingan.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** kuzatuv va baholash natijalari interaktiv metodlarni qo‘llagan o‘qituvchilarda pedagogik dialog, fikr almashish, murakkab vazifalarni hal etish hamda o‘quvchilar bilan konstruktiv muloqot o‘rnatish ko‘nikmalari sezilarli oshganini ko‘rsatdi. Muhokamada interaktiv yondashuvlarning samaradorligi metodlarning tizimliligi va pedagogning individual kontekstga moslashuvchanligi uyg‘unligida yuqori natija berishi ta’kidlandi.

**XULOSA:** interaktiv pedagogik usullar o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda ilmiy-amaliy jihatdan samarali vosita ekani tasdiqlandi. Ularni tizimli va individual yondashuv bilan integratsiyalash ta’lim jarayonini faollashtiradi, konstruktiv muhitni kuchaytiradi hamda o‘qituvchining kasbiy muloqot, boshqaruv va innovatsion qobiliyatlarini mustahkamlaydi.

**Kalit so‘zlar**: o‘qituvchi, kommunikativ kompetensiya, interaktiv usullar, pedagogik dialog, guruhli ishlash, loyiha metodikasi, innovatsion ta’lim texnologiyalari, ta’lim samaradorligi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

**Iqtibos uchun**: Ismoilov T.I. O‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda interaktiv pedagogik usullar.// Inter education & global study. 2025. №12. B.519–527.

# ИНТЕРАКТИВНЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ В РАЗВИТИИ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ

©Т.И. Исмоилов[1]✉
[1] Наманганский государственный институт иностранных языков, Наманган, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в условиях обновления образования и усиления требований к качеству обучения коммуникативные умения преподавателя становятся одним из ключевых факторов эффективности учебного процесса. Интерактивные методы выступают инструментом активизации взаимодействия, поддержания учебной мотивации и создания конструктивной педагогической среды.

**ЦЕЛЬ:** цель исследования — обосновать и показать эффективность интерактивных методов (групповая работа, метод проектов, педагогический диалог, проблемные задания) как средства развития коммуникативной компетенции преподавателей.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** методология исследования сочетает педагогическое наблюдение и оценивание, анкетирование, интервью и самооценку, что позволило выявить сильные и слабые стороны коммуникации в профессиональной деятельности. Эффективность интерактивных подходов оценивалась через совмещение количественного (индексы компетенции) и качественного анализа (динамика коммуникации на занятиях).

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** полученные данные показывают, что преподаватели, применяющие интерактивные методы, демонстрируют более высокий уровень педагогического взаимодействия, способность к конструктивному диалогу и решению сложных педагогических задач. В обсуждении подчеркивается необходимость сочетания системного применения интерактивных методик с их адаптацией к индивидуальному педагогическому контексту.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** интерактивные педагогические методы подтверждены как эффективная основа развития коммуникативной компетенции преподавателей, поскольку усиливают коммуникацию, управленческие и инновационные компоненты профессиональной деятельности. Их интеграция в образовательный процесс повышает качество обучения и способствует формированию конструктивной учебной среды.

**Ключевые слова:** преподаватель, коммуникативная компетенция, интерактивные методы, педагогический диалог, групповая работа, метод проектов, инновационные образовательные технологии, эффективность обучения.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

**Для цитирования**: Исмоилов.Т.И. Интерактивные педагогические методы в развитии коммуникативной компетентности педагогов.// Inter education & global study.2025. №12. С. 519–527.

# INTERACTIVE PEDAGOGICAL METHODS IN THE DEVELOPMENT OF TEACHERS' COMMUNICATIVE COMPETENCE

©Temurbek.I. Ismoilov [1]✉
[1]Namangan State Institute of Foreign Languages, Namangan, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** in contemporary education, professional expertise is inseparable from a teacher's ability to manage meaningful, motivating, and constructive communication with learners. Interactive methods are therefore viewed as a key mechanism for activating classroom interaction and strengthening a supportive pedagogical environment.

**AIM:** the study aims to substantiate the contribution of interactive methods—group work, project-based learning, pedagogical dialogue, and problem-based tasks—to the development of teachers' communicative competence and to demonstrate their practical effectiveness.

**MATERIALS AND METHODS:** the methodological framework integrates classroom observation and assessment with questionnaires, interviews, and self-evaluation tools to diagnose communicative strengths and limitations. Both quantitative indicators of communicative competence and qualitative interpretation of interaction patterns were used to evaluate the outcomes of applying interactive methods.

**DISCUSSION AND RESULTS:** findings indicate that teachers who employed interactive strategies showed higher engagement in pedagogical dialogue, improved collaboration and decision-making in instructional contexts, and stronger capacity for constructive communication with students. The discussion emphasizes that maximum impact is achieved when interactive methods are implemented systematically while remaining adaptable to specific instructional contexts and learner needs.

**CONCLUSION:** the results confirm that interactive pedagogical methods constitute an effective evidence-informed pathway for developing teachers' communicative competence by enriching practical communication skills and fostering a constructive learning environment. Their integration supports professional growth in communication, classroom management, and innovative teaching practice.

**Keywords:** teacher, communicative competence, interactive methods, pedagogical dialogue, group work, project-based method, innovative educational technologies, educational effectiveness.

**For citation**: Temurbek.I. Ismoilov. (2025) 'Interactive pedagogical methods in the development of teachers' communicative competence, Inter education & global study, (12), pp. 519–527. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

**Z**amonaviy ta’lim jarayonlarida pedagoglarning professional malakasi va ularning o‘quvchilar bilan samarali muloqot qobiliyati eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, XXI asrning ta’lim talablarida o‘qituvchining nafaqat fan bilimlariga ega bo‘lishi, balki kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishi, ya’ni o‘quvchilar bilan samarali va konstruktiv muloqot qura olish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Kommunikativ kompetensiya pedagogning kasbiy faoliyatida murakkab va ko‘p qirrali hodisa sifatida namoyon bo‘lib, u shaxsning nazariy bilimlarini amaliy qobiliyatlar bilan uyg‘unlashtirishga, shuningdek, o‘quvchilarni o‘qitish jarayonida ularni faol ishtirokchiga aylantirishga xizmat qiladi[1]. Shu nuqtai nazardan, interaktiv pedagogik usullar o‘qituvchilarni nafaqat bilim beruvchi, balki muloqotchi, motivator va metodik rahbar sifatida shakllantirishda asosiy vositalardan biri sifatida qaraladi. Kommunikativ kompetensiyaning nazariy asoslari lingvistik, psixologik va pedagogik tadqiqotlarda keng yoritilgan. Xususan, V. Shulman, D. Goleman va boshqa olimlar o‘qituvchilarning kommunikativ qobiliyatlari va emotsional intellekti o‘quvchilarning o‘qish motivatsiyasi va ta’lim samaradorligiga bevosita ta’sir qilishini ta’kidlaydilar[2]. Shu bilan birga, interaktiv pedagogik usullarni qo‘llash orqali o‘qituvchi o‘quv jarayonini faollashtiradi, o‘quvchilarning o‘zaro muloqotini rag‘batlantiradi va bilimlarni amaliy kontekstda qo‘llash imkonini yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Interaktiv usullar pedagogik faoliyatda turli shakllarda qo‘llanadi. Jumladan, guruhli ishlash metodikasi o‘quvchilarni bir-birlari bilan hamkorlikda muammolarni hal qilishga undaydi, loyiha metodikasi esa o‘quvchilarda izlanish va tadqiqotga asoslangan fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Pedagogik dialog usuli esa o‘qituvchiga o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash va ularni qiziqtiruvchi mavzular bo‘yicha faol muloqotga jalb qilish imkonini beradi. Barcha ushbu metodlar o‘qituvchilarning o‘z kasbiy kompetensiyalarini, jumladan, kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi, chunki ular doimiy ravishda muloqot, bahs-munozara va konstruktiv fikr almashishni talab qiladi. Shuni ta’kidlash joizki, interaktiv pedagogik usullarni o‘qituvchilar malakasini oshirish jarayoniga integratsiya qilish nafaqat amaliy pedagogik tajribani, balki ilmiy asoslangan metodologik yondashuvni ham talab qiladi[3]. Bu nuqtai nazardan, maqolada interaktiv usullar o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda qanday samarali vosita ekanligi, ularning pedagogik jarayonda qo‘llanilish mexanizmlari va natijalarining ilmiy tahlili keltiriladi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishda interaktiv metodlarning psixologik asoslari, ta’lim jarayonidagi innovatsion yondashuvlar va amaliy tadqiqotlar ham ko‘rib chiqiladi. Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, global ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi va pedagogik amaliyotdagi yangi yondashuvlar o‘qituvchilarni doimiy ravishda o‘z kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga majbur qilmoqda. Shu sababli, interaktiv usullar nafaqat o‘quvchilarning, balki o‘qituvchilarning ham kommunikativ kompetensiyasini

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

oshirishda muhim vosita sifatida qaraladi. Maqola shuningdek, pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasini baholash, interaktiv metodlarning samaradorligini o‘lchash va ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish mexanizmlarini tahlil qiladi.

Adabiyotlar tahlili: O‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish masalasi pedagogik tadqiqotlarda uzoq va samarali e’tibor qaratilgan yo‘nalishlardan biridir. Zamonaviy ta’lim jarayonlarida interaktiv pedagogik usullarni qo‘llash nafaqat o‘quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtiradi, balki o‘qituvchilarning muloqot ko‘nikmalarini mukammallashtirishga ham xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, turli mamlakatlarda o‘qituvchilar kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bu jarayonning samarali metodologik asoslarini aniqlashga yordam beradi. Grammens o‘z tadqiqotida o‘qituvchilarning onlayn ta’limdagi rollari va kompetensiyalarini tizimli tahlil qiladi[4]. U ta’kidlaydiki, pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasi nafaqat yuzma-yuz darslarda, balki masofaviy va videokonferensiya orqali o‘tkaziladigan ta’lim jarayonlarida ham muhim ahamiyatga ega. Grammensning izohiga ko‘ra, interaktiv metodlar, jumladan, guruhli ishlash, savol-javob, va muloqotga asoslangan vazifalar o‘qituvchilarning kommunikativ malakalarini sezilarli darajada oshirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, u interaktiv yondashuvlarning nafaqat o‘quvchilarning, balki o‘qituvchilarning ham pedagogik faoliyatini boyitishini qayd etadi. Salleh va Yusof esa o‘qituvchilarning interaktiv o‘qitish strategiyalarini tadqiq etib, ularning o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini oshirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘qituvchi o‘quvchilarni faol ishtirok etishga jalb qiladigan metodlarni qo‘llaganda, ular muloqot qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi. Bu esa, pedagogik jarayonda o‘zaro samarali muloqot va bilim almashuvini ta’minlaydi. Shu jihatdan, interaktiv metodlar o‘qituvchining kasbiy faoliyatini muloqotga asoslangan tarzda tashkil etish imkonini beradi. Santhi o‘z tadqiqotida interaktiv o‘qitish metodlarining kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini o‘rganadi[5]. U ta’kidlaydiki, interaktiv metodlarni qo‘llash orqali pedagog o‘quvchilarning fikrini tinglash, konstruktiv javob berish va murakkab pedagogik vazifalarni hal qilish qobiliyatini shakllantiradi. Shu bilan birga, bu metodlar pedagogning shaxsiy kommunikativ malakasini oshirishda, ya’ni o‘z fikrini aniq ifoda etish va turli pedagogik vaziyatlarda tezkor muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Aliyev ham o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda interaktiv pedagogik usullarni qo‘llashning ahamiyatini tadqiq qiladi[6]. U pedagogik jarayonda loyihalar, guruhli ishlash va muammoli vazifa asosidagi metodlar orqali o‘qituvchilarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini yoritadi. Shu tarzda, interaktiv yondashuvlar o‘qituvchilarning nafaqat amaliy, balki nazariy bilimlarini ham amalda qo‘llashga xizmat qiladi. Yakovleva esa zamonaviy oliy ta’limda interaktiv metodlarning qo‘llanilishini o‘rganib, ularning o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini oshirishdagi roli va pedagogik jarayonni boyitishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi[7]. Unga ko‘ra, interaktiv metodlar o‘qituvchining muloqot va bahs-munozara qobiliyatlarini mustahkamlash, shuningdek, o‘quvchilarning faol ishtirokini rag‘batlantirish orqali ta’lim samaradorligini oshiradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

Metodologik qism: Ushbu maqolada o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda interaktiv pedagogik usullardan samarali foydalanish metodologik asos sifatida qabul qilindi. Tadqiqot metodologiyasi bir necha bosqichdan iborat bo‘lib, u o‘qituvchilarning interaktiv usullar yordamida muloqot qobiliyatini aniqlash, baholash va rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Avvalo, pedagogik kuzatuv va baholash metodlari qo‘llanilib, o‘qituvchilarning amaliy dars jarayonida kommunikativ kompetensiyasini o‘lchash imkoniyati yaratildi. Shu bilan birga, anketalar, intervyular va o‘z-o‘zini baholash shakllari orqali pedagoglarning o‘zaro muloqotdagi kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi. Tadqiqot jarayonida guruhli ishlash, muammoli vazifa, loyiha metodikasi va pedagogik dialog kabi interaktiv usullar birlashtirilgan yondashuv sifatida qo‘llanildi. Guruhli ishlash metodikasi o‘qituvchilarni o‘zaro fikr almashish va qaror qabul qilish jarayonida faol ishtirok etishga undaydi, bu esa ularning muloqot qobiliyatini kuchaytiradi. Loyiha metodikasi esa murakkab pedagogik vazifalarni hal qilish orqali kommunikativ kompetensiyaning amaliy jihatlarini rivojlantiradi. Pedagogik dialog usuli esa o‘qituvchiga o‘quvchilarning bilim va qobiliyat darajasini aniqlash, shuningdek, konstruktiv va samarali javoblarni shakllantirish imkonini beradi. Metodologik jihatdan tadqiqot kvantitativ va sifatli usullarni uyg‘unlashtirishga asoslangan. Kvantitativ tahlil orqali o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasi indekslari o‘lchandi va interaktiv usullarni qo‘llash samaradorligi statistik jihatdan baholandi. Sifatli tahlil esa dars kuzatuvlari, intervyu va anketalar orqali olingan ma’lumotlar asosida o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatidagi kommunikativ jarayonlarni chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda interaktiv pedagogik usullar samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Kuzatuvlar va baholashlar natijasida interaktiv metodlarni qo‘llagan o‘qituvchilar o‘zaro muloqot va pedagogik dialog jarayonida sezilarli darajada faol bo‘lib, murakkab vazifalarni hal qilish va o‘quvchilar bilan konstruktiv muloqot o‘rnatish qobiliyatlarini rivojlantirganliklari aniqlangan. Shu bilan birga, loyiha va guruhli ishlash metodlarini tatbiq etgan pedagoglar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga jalb etish orqali o‘zlarining kommunikativ kompetensiyasini yanada oshirganliklari qayd etildi. Statistik tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv usullarni qo‘llagan guruhdagi o‘qituvchilarning kommunikativ malakalari nazariy metodlardan foydalangan guruhga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Sifatli tahlil esa shuni isbotladiki, interaktiv metodlar pedagoglarning amaliy muloqot ko‘nikmalarini boyitadi, o‘quvchilarning fikr almashuvini rag‘batlantiradi va ta’lim jarayonida konstruktiv pedagogik muhitni yaratadi.

Muxokama: O‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda interaktiv pedagogik usullar samaradorligini muhokama qilish jarayonida turli olimlarning fikr-mulohazalari bir-birini to‘ldiradi va ayrim jihatlarda bahs-munozaralarni yuzaga keltiradi. Grammens o‘z tadqiqotida interaktiv metodlarni qo‘llashning onlayn va masofaviy ta’lim jarayonidagi ahamiyatini ta’kidlab, pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasi faolligini oshirishda ushbu yondashuvlarni birlamchi vosita sifatida ko‘radi[8]. U ta’kidlaydiki, interaktiv metodlar nafaqat pedagogning muloqot qobiliyatini

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

rivojlantiradi, balki o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish va konstruktiv fikr almashuvini rag‘batlantirish imkonini beradi. Grammens bu yondashuvni o‘qituvchining professional malakasini kompleks rivojlantirishning strategik elementi sifatida qaraydi. Boshqa tomondan, Salleh va Yusof interaktiv usullarni faqat pedagogik dialog va guruhli ishlash bilan cheklashning yetarli emasligini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda metodlarning kontekstga mosligi, pedagogning o‘z shaxsiy pedagogik uslubi va o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashishi muhimdir[9]. Ular interaktiv yondashuvlarni qo‘llashda metodologik diversifikatsiya va o‘quv jarayonini individualizatsiya qilish zarurligini qayd etadilar. Shu bilan birga, ular interaktiv metodlar o‘qituvchining texnologik qobiliyatlari bilan uyg‘unlashganda maksimal natija beradi, degan xulosaga keladilar. Mazkur olimlarning fikr-munozarasi shuni ko‘rsatadiki, interaktiv pedagogik yondashuvlarning samaradorligi bir tomonlama baholanishi mumkin emas. Grammensning yondashuvi metodlarning tizimli qo‘llanilishiga urg‘u beradi, Salleh va Yusof esa pedagogning individual pedagogik konteksti va metodlarni moslashuvchan qo‘llash zarurligini ta’kidlaydi[10]. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot interaktiv metodlarni qo‘llashda ikki yondashuvni uyg‘unlashtirishni asosiy prinsip sifatida qabul qiladi: ya’ni metodlarning tizimli qo‘llanilishi bilan birga pedagogning individual pedagogik kompetensiyasini hisobga olish. Shu bilan birga, muxokama natijalaridan ko‘rinib turibdiki, interaktiv usullar o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda nafaqat texnik, balki psixologik va pedagogik aspektlarni ham hisobga olishi zarur. Ularning muvaffaqiyatli tatbiqi pedagogning muloqot, boshqaruv va hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi, dars jarayonini faollashtiradi va o‘quvchilarning fikr almashuvini rag‘batlantiradi. Shu tarzda, ikki olimning polemikasi interaktiv pedagogik usullarni qo‘llashda tizimli va individual yondashuvning uzviy uyg‘unligi zarurligini ilmiy jihatdan isbotlaydi.

Xulosa: Ushbu maqolada o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda interaktiv pedagogik usullarni qo‘llashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv usullar pedagoglarning nafaqat muloqot va bahs-munozara qobiliyatlarini oshirishga, balki o‘quvchilarni faol ishtirok etishga rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Guruhli ishlash, loyiha metodikasi, pedagogik dialog va muammoli vazifa kabi interaktiv metodlar o‘qituvchilarning kommunikativ malakalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi ilmiy jihatdan tasdiqlandi. Adabiyotlar tahlili ko‘rsatdiki, Grammens va Salleh va Yusof tadqiqotlari interaktiv yondashuvlarning o‘qituvchilar kompetensiyasini oshirishdagi ahamiyatini, Santhi, Aliyev va Yakovleva esa ushbu metodlarning amaliy natijalarini isbotlaydi. Shu bilan birga, muxokama bo‘limida keltirilgan olimlar polemikasi interaktiv usullarni qo‘llashda metodlarning tizimli qo‘llanishi bilan pedagogning individual pedagogik kompetensiyasini uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Metodologik jihatdan tadqiqot interaktiv usullarni qo‘llash natijalarini kvantitativ va sifatli tahlil orqali aniqladi. Natijalar shuni isbotladiki, interaktiv pedagogik yondashuvlar o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda tizimli, ilmiy va amaliy asos sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, pedagoglarning muloqot,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

boshqaruv va innovatsion qobiliyatlarini mustahkamlash, ta’lim jarayonini faollashtirish va o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirish imkonini beradi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, interaktiv pedagogik usullarni tizimli va individual yondashuv bilan uyg‘unlashtirish o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini samarali rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi. Mazkur tadqiqot nafaqat nazariy, balki amaliy pedagogik tajriba uchun ham asos yaratadi va o‘qituvchilarning professional malakasini oshirishga xizmat qiladigan ilmiy-harakat yo‘nalishini belgilaydi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Azimboyeva, Y. (2024). Bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning kommunikativ kompitentligini rivojlantirishning psixologik jihatlari. Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2(12), 134-140.
2. Shohbozbek, E. (2025). BO’LAJAK PEDAGOGLARNING TADQIQOTCHILIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPSUAL ASOSLARI. Global Science Review, 1(1), 328-338.
3. Gulasal, H., & Ro‘ziyeva, D. (2025). BO ‘LAJAK O ‘QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KO ‘NIKMA VA PEDAGOGIK MAHORATNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSLARI. PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI, 14(01), 18-19.
4. Sh, E. (2025). Developing the spiritual worldview of young people through the continuous education system in Uzbekistan. Ob'edinyaya studentov: mejdunarodnye issledovaniya i sotrudnichestvo mejdu distsiplinami, 1(1), 314-316.
5. Olimov, B. (2025). Bo ‘lajak boshlang ‘ich sinf o ‘qituvchilarining mantiqiy kompetentsiyalarini rivojlantirishning elektron metodikasi. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI JURNALI, 3(9).
6. Islomovich, I. T., & Ravshanbekovich, G. S. (2023). Development of pedagogical competence in future teachers. The American Journal of Management and Economics Innovations, 5(04), 12-16.
7. Erkinovna, Y. D. (2025). PEDAGOGIK TA’LIMDA SHAXSGA YO ‘NALTIRILGAN YONDASHUV ORQALI KOMMUNIKATIV MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI. Научный Импульс, 3(32), 40-43.
8. Ismoilov, T. I. (2018). Provision of information-psychological security in open information systems. Теория и практика современной науки, (1 (31)), 24-26.
9. Kenjaboyev, A., & Kenjaboyeva, D. (2022). Pedagogik deontologiya va kompetentlik. Termiz,“Surxon-nashr” nashr-matbaa markazi nashriyoti.–2022.
10. Rahmonaliyevich, X. I. (2025). Bo ‘lajak pedagoglarda kasbiy madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari. Fergana methodical school, (2), 11-17.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №12

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Ismoilov Temurbek Islomovich**, professor [**Исмоилов Темурбек Исломович**,профессор,], [**Ismoilov Temurbek Islomovich** professor]; manzil: Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumani, "Yangiobod" MFY, Saodat ko'chasi, 28-uy: Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumani, "Yangiobod" MFY, Saodat ko'chasi, 28-uy, [адрес: Наманганская область, Туракурганский район, МФЦ "Янгиабад", улица Саадат, дом 28: Наманганская область, Туракурганский район, МФЦ "Янгиабад", улица Саадат, дом 28], [address: Namangan region, Turakurgan district, MFC "Yangiabad" Saadat Street, 28: Namangan region, Turakurgan district, MFCYangiabad" 28 Saadat Street]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# TALABALARDA HAYOTIY STRATEGIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

© D.Ya. Xudoyberganov[1]✉
[1]Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Urganch, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: psixologlarning ta’kidlashicha, talabaning hayotiy strategiyasi avvalo uning o‘zini subyekt sifatida his qilishi, ya’ni mustaqil qaror qabul qilishga bo‘lgan tayyorligi bilan belgilanadi. A. Maslou, K. Rodjers, E. Erikson kabi insonparvarlik yo‘nalishidagi tadqiqotchilar shaxsning rivojlanishida ichki “men”ning uyg‘onishi, o‘z salohiyatini anglash va o‘z oldiga maqsad qo‘yish qobiliyatini asosiy psixologik omillar qatoriga kiritadi. Talaba esa o‘zining aynan shu davrida — intellektual izlanish, o‘ziga savol berish, kelajagini tasavvur qilish jarayonida — hayot strategiyasining psixologik poydevorini yaratadi.

**MAQSAD**: hayotiy strategiya shaxsning ijtimoiy muhitga moslashuvi, o‘z hayot maqsadlarini belgilashi va ularni ongli ravishda amalga oshirishiga xizmat qiluvchi muhim psixologik mexanizm sifatida qaraladi.Tadqiqotda talabalarning shaxsiy rivojlanishi, motivatsion yo‘nalganligi, o‘zini anglash darajasi hamda qaror qabul qilish kompetensiyalari hayotiy strategiyalarni shakllantirishda asosiy omillar sifatida yoritiladi. Shuningdek, yoshlar psixologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari, refleksiya, ijtimoiy faollik va mas’uliyat hissining hayotiy strategiyalarni rivojlantirishdagi o‘rni ochib beriladi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** shaxning hayotiy strategiyalarini keng va tor tushunchada aniqlanishi (karyera va ta‟lim). Hayotiy (shuningdek karyera va ta’limiy) strategiyalar. Professional guruh yoki alohida ommaviy hayotiy strategiyalar (yoshlar, davlat yoki hukumat odamlari va hokazo) Individual shaxs strategiyalarning empirik tadqiqot metodlari va metodikalari. Shaxs hayotiy strategiyalarni aniqlashdagi muammolar.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: gumanistik psixologiyada shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar ambivalent jarayon sifatida ko‘rinadi: jamiyat shaxsga o‘sish imkoniyatlari, resurslar va tajribalar manbai sifatida xizmat qilishi mumkin, biroq ayni paytda shaxsning avtentiqligini cheklashi, uning ichki ehtiyojlariga zid talablar qo‘yishi, ijtimoiy moslashuv bosimi orqali psixologik izdan chiqish holatlarini yuzaga keltirishi ham ehtimoldan xoli emas.

Mazkur pozitsiya jamiyatning shaxsga ta’sirining destruktiv mexanizmlarini — konformizm, normativ bosim, ijtimoiy rollarning rigidligi, ijtimoiy taqiqlar, axloqiy repressiya, psixologik begonalashuv — o‘rganish zaruratini ochib beradi. Shu bilan birga, gumanistik psixologiya shaxsning o‘zini aktualizatsiya qilish, o‘zini anglash, shaxsiy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

o‘sish, ichki potensialni ro‘yobga chiqarish kabi jarayonlarni ijtimoiy kontekst bilan dialektik aloqadorlikda ko‘rib chiqadi.

**XULOSA:** talabalarda hayotiy strategiyalarni shakllantirishning psixologik asoslari shaxsning ongli rivojlanishiga, o‘z hayotiga nisbatan mas’uliyatli munosabatni qaror toptirishga, ijtimoiy faol pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi ko‘p komponentli tizimdir. Mazkur tizimni chuqur o‘rganish, uning tarkibiy qismlarini ilmiy asosda tahlil etish va amaliyotga tadbiq etish talabalarda barqaror, mazmunli va ijtimoiy ahamiyatli hayotiy strategiyalarni shakllantirish imkonini beradi. Shu ma’noda, psixologik asoslarning ilmiy tadqiqi nafaqat nazariy jihatdan, balki ta’lim jarayonini takomillashtirish, shaxsni har tomonlama kamolga yetkazish nuqtayi nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar**: hayotiy strategiya, shaxs rivoji, talaba shaxsi, psixologik omillar, motivatsiya, o‘zini anglash, refleksiya, ijtimoiy moslashuv, qaror qabul qilish, kasbiy yo‘naltirilganlik.

**Iqtibos uchun**: Xudoyberganov D.Ya. Talabalarda hayotiy strategiyalarni shakllantirishning psixologik asoslari. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. B.528–536.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЖИЗНЕННЫХ СТРАТЕГИЙ У СТУДЕНТОВ

© Д.Я. Худойберганов[1]✉
[1]Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: психологи утверждают, что жизненная стратегия ученика определяется прежде всего тем, как он чувствует себя субъектом, то есть его готовностью принимать самостоятельные решения. А. Маслоу, К. Роджерс, Э. Исследователи гуманистического направления, такие как Эриксон, относят пробуждение внутреннего “я”в развитии личности, осознание собственного потенциала и способность ставить перед собой цели к числу основных психологических факторов. И именно в этот период ученик — в процессе интеллектуального поиска, самоанализа, воображения своего будущего — закладывает психологическую основу жизненной стратегии

**ЦЕЛЬ**: жизненная стратегия рассматривается как важный психологический механизм, служащий человеку для адаптации к социальной среде, постановки собственных жизненных целей и их осознанного осуществления. В исследовании рассматриваются личностное развитие учащихся, мотивационная направленность, уровень самосознания, а также компетенции принятия решений как ключевые факторы в формировании жизненных стратегий. Также раскрываются особенности молодежной психологии, роль рефлексии, социальной активности и чувства ответственности в выработке жизненных стратегий.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: определение жизненных стратегий личности в широком и узком понимании (карьера и образование). Жизненные (а также карьерные и пенсионные) стратегии. Профессиональная группа или отдельные массовые жизненные стратегии (молодежь, государственные или правительственные люди и т. д.) эмпирические методы и методики исследования индивидуальных индивидуальных стратегий. Проблемы определения индивидуальных жизненных стратегий.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: в гуманистической психологии отношения между личностью и обществом рассматриваются как амбивалентный процесс: общество может служить человеку источником возможностей для роста, ресурсов и опыта, но в то же время маловероятно, что оно ограничивает самоидентификацию личности, предъявляет требования, противоречащие ее внутренним потребностям, порождая ситуации психологического срыва из-за давления социальной адаптации. Данная позиция выявляет необходимость изучения деструктивных механизмов воздействия общества на личность — конформизма, нормативного давления, жесткости социальных ролей, социальных запретов, морального подавления, психологического отчуждения. В то же время гуманистическая психология рассматривает такие процессы личности, как самоактуализация, самореализация, личностный рост, реализация внутреннего потенциала в диалектической связи с социальным контекстом

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: психологические основы формирования жизненных стратегий у учащихся представляют собой многокомпонентную систему, служащую сознательному развитию личности, определению ответственного отношения к собственной жизни, формированию социально активной позиции. Углубленное изучение данной системы, научно обоснованный анализ и внедрение ее компонентов позволит сформировать у студентов устойчивые, содержательные и социально значимые жизненные стратегии. В этом смысле научное исследование психологических основ приобретает актуальное значение не только теоретически, но и с точки зрения совершенствования образовательного процесса, всестороннего совершенствования личности.

**Ключевые слова**: жизненная стратегия, развитие личности, личность ученика, психологические факторы, мотивация, самосознание, рефлексия, социальная адаптация, принятие решений, профессиональная ориентация.

**Для цитирования**: Худойберганов Д.Я. Психологические основы формирования жизненных стратегий у студентов. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. С. 528–536.

## PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF FORMING LIFE STRATEGIES IN STUDENTS

© Doniyor Ya. Xudoyberganov[1]✉
[1]Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Annotation

**INTRODUCTION**: psychologists say that the student's life strategy is determined first of all by his feeling as a subject, that is, by his willingness to make independent decisions. A. Maslow, K. Rodgers, E. Humanistic researchers such as Erickson place the awakening of the inner “i”in the development of an individual, the ability to realize one's potential and set a goal for oneself, among the main psychological factors. And the student, in this very period of his life — in the process of intellectual search, questioning himself, imagining his future — creates the psychological foundation of his life strategy.

**AIM:** a life strategy is seen as an important psychological mechanism that serves to adapt the individual to the social environment, to set his own life goals and to carry them out consciously. The study highlights students ' personal development, motivational orientation, level of self-awareness, and decision-making competencies as key factors in shaping life strategies. Also, the role of the peculiarities of youth psychology, reflection, social activity and a sense of responsibility in the development of life strategies is revealed.

**MATERIALS AND METHODS**: determination of life strategies of chess in a broad and narrow concept (career and education). Vital (as well as career and educational) strategies. Professional group or individual public life strategies (Youth, state or government people, etc.) are empirical research methods and methodologies of individual personality strategies. Problems in identifying individual life strategies.

**DISCUSSION AND RESULTS**: in Humanistic Psychology, the relationship between the individual and society appears as an ambivalent process: society can serve the individual as a source of growth opportunities, resources and experiences, but at the same time it is also unlikely that it will limit the self-efficacy of the individual, make demands contrary to his internal needs, generate psychological withdrawal States through pressure of social adaptation. This position reveals the need to study the destructive mechanisms of the influence of society on the individual — conformism, normative pressure, rigidity of social roles, social prohibitions, moral repression, psychological alienation. At the same time, humanistic psychology considers processes such as the actualization of the personality itself, self-realization, personal growth, realization of the internal potential in dialectical connection with the social context

**CONCLUSION:** the psychological basis for the formation of life strategies in students is a multi-component system that serves the conscious development of the individual, the decision-making of a responsible attitude towards his own life, the formation of a socially active position. An in-depth study of this system, analysis and implementation of its components on a scientific basis makes it possible to form stable, meaningful and socially significant life strategies in students. In this sense, the scientific study of psychological foundations is of urgent importance not only in theory, but also in terms of improving the educational process, the point of comprehensively maturing the individual.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Key words**: life strategy, Personality Development, student personality, psychological factors, motivation, self-awareness, reflection, social adaptation, decision-making, professional orientation.

**For citation**: Doniyorbek Ya.Khudoyberganov. Psychological Foundations of Forming Life Strategies in Students (2025), Inter education & global study, vol.3 (12), pp. 528–536. (In Uzbek).

Ijtimoiy-psixologik bilimlarning shakllanishi jarayonida shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni talqin qilishga doir turli paradigmalar ilgari surilgan. Klasik sotsiologiya vakili É. Dyurkgeymning pozitsiyasiga ko‘ra, ijtimoiy voqelik (réalité sociale) o‘ziga xos ob’ektiv xususiyatga ega bo‘lib, uni individning psixik hodisalari yoki subyektiv tajribasi bilan to‘liq izohlab bo‘lmaydi. Dyurkgeym konsepsiyasida inson Homo duplex – ya’ni dual tabiati mavjud mavjudot sifatida qaraladi: unda individual psixik qatlam va ijtimoiy normativ qatlam bir-biri bilan yonma-yon mavjud bo‘ladi, biroq ular mohiyatan aralashmaydi. Uning nazariyasida ijtimoiy faktlarning ob’ektiv ustunligi ta’kidlanadi. Bu faktlar shaxs ongidan tashqarida shakllanadi va unga majburiylik, normativlik hamda kollektiv determinatsiya xususiyatlari orqali ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, inson xulq-atvori, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy orientatsiyalari ko‘proq ijtimoiy strukturaning determinatsiyasiga bo‘ysungan holda shakllanadi. Dyurkgeym pozitsiyasi psixologik fanlar rivojiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatib, insonning psixologik qiyofasi ijtimoiy ta’sirlarni ichkilashtirish (internalizatsiya) mexanizmi orqali shakllanadi degan g‘oyani ilgari surdi. Internalizatsiya jarayoni bir yo‘nalishli bo‘lib, unda jamiyat tomonidan yaratilgan normativ-madaniy tizim, kollektiv e’tiqodlar va qadriyatlar individ ongiga kirib boradi va uning identiteti, motivatsion maydoni hamda ijtimoiy xulq strukturasini shakllantiradi. Mazkur yondashuvning keyingi rivoji E. P. Belinskaya, O. A. Tixomandritskaya, shuningdek A. A. Ruchka va V. V. Tancher kabi tadqiqotchilar tomonidan davom ettirildi. Ularning ishlari shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonini sotsial persepsiya, ijtimoiy rolni o‘zlashtirish, normativ regulyasiya, ko‘p darajali ijtimoiy identifikatsiya kabi psixologik mexanizmlar bilan bog‘lab tahlil qiladi. Ushbu izlanishlarda shaxsning ijtimoiy voqelikka nisbatan qabul qiluvchi pozitsiyasi kuchli ekanligi, ya’ni uning psixik tizimi jamiyatning ijtimoiy-kognitiv konstruksiyalarini o‘ziga singdirib borishi ta’kidlangan.

Natijada, Dyurkgeym boshlab bergan konseptual yo‘nalish shaxs rivojida jamiyatning normativ-referent roli, ijtimoiy strukturalarning psixik determinatsiya jarayonidagi markaziy ahamiyati, hamda ijtimoiy ta’sirlar orqali shakllanadigan psixologik konfiguratsiyaning barqarorligi to‘g‘risidagi ilmiy-psixologik qarashlar tizimiga asos bo‘lib xizmat qiladi. É. Dyurkgeymga qarshi turuvchi asosiy nazariy raqib sifatida G. Tardning konseptual yondashuvi ijtimoiy-psixologik bilimlar evolyutsiyasida alohida o‘rin tutadi. Tardning nuqtai nazariga ko‘ra, jamiyat murakkab yaxlit tizim emas, balki uni tashkil etuvchi elementlarning yig‘indisidir, ya’ni u mikrodan makroga o‘tuvchi jarayonlar

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

natijasidir. Shu bois u sotsiologik tahlilda reduksionistik metodi — ijtimoiy hodisalarni ularning eng sodda, elementar psixik aktlariga qaytarib o‘rganishni taklif etadi.

Tard jamiyatning har qanday murakkab shakllanishi "elementar zarralar" — ya’ni individlarning psixik jarayonlari, ularning ehtiyojlari, impulsiv reaktsiyalari, irratsional intilishlari va motivlari orqali tushuntirilishi mumkin, deb hisoblaydi. Uning fikricha, ijtimoiy tizimni tashkil qiluvchi barcha hodisalar psixologik asosga ega bo‘lib, bir xil universal qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Shuning uchun jamiyatni tushunish uchun, eng avvalo, insonning "o‘zgarmas tabiati"ni — instinktlar, ehtiyojlar, irratsional mayllar va motivatsion strukturalarni tahlil qilish zarurdir.Tardning yondashuvida individual psixik realiyat birlamchi, ijtimoiy realiyat esa ikkilamchi hisoblanadi. Bu esa uning konsepsiyasini psixologik monizm tamoyiliga olib keladi: ijtimoiy hodisalar inson psixikasining murakkab kollektiv namoyon bo‘lish formalaridir. Shuning uchun Tard ijtimoiy va individual haqiqatlarni qat’iy ajratmaydi; aksincha, u ijtimoiy voqelikning individ psixikasidan kelib chiqishini, ya’ni shaxsiy psixik hodisalarning ko‘p darajali interaktsiyasi natijasida paydo bo‘lishini ta’kidlaydi. Tardning ijtimoiy psixologiyaga qo‘shgan eng muhim g‘oyasi – taqlid qonuni (loi de l'imitation) bo‘lib, u insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalarning asosiy mexanizmi sifatida ko‘riladi. Taqlid inson xulq-atvorining, kundalik muomala shakllarining, ijtimoiy me’yor va qadriyatlarning shakllanishini belgilovchi fundamental psixologik mexanizm sifatida talqin qilinadi. Tardga ko‘ra, jamiyat “taqlid zanjirlari”ning keng miqyosli tarmog‘idan iborat bo‘lib, ijtimoiy o‘zgarishlar ham aynan taqlidning tarqalish dinamikasi yoki uning uzilishlari — innovatsiya orqali sodir bo‘ladi.

Natijada, G. Tard yondashuvi ijtimoiy va individual haqiqatlarning o‘zaro aloqadorligini tan olgan holda, ijtimoiy voqelikni individual psixologik jarayonlarga qisqartiruvchi nazariy-modelni yaratadi. Bu yondashuv Dyurkgeymning ijtimoiy faktlar avtonomligi haqidagi g‘oyasiga mutlaqo zid bo‘lib, sotsiologik bilimlar tarixida psixologik reduksionizmning eng yorqin namunasini tashkil etadi. G. Lebonning kontseptual qarashlariga ko‘ra, ijtimoiy dinamikaning markaziy harakatlantiruvchi kuchi – g‘oyalar evolyutsiyasidir. Yangi g‘oya avval individual ongda yuzaga keladi, keyin esa psixologik infektsiya (contagion psychique) mexanizmi orqali ommaga tarqalib, asta-sekin “ommaviy ruh” (âme collective) tarkibiga singib boradi. Lebonning fikricha, g‘oyalarning ijtimoiy makonda tarqalishi ta’sirchanlik, emosional qabulchanlik va irratsional taqlid kabi psixologik omillar bilan belgilanadi. Ommaviy ruh shakllanganida esa shaxsning individual belgilari, ratsional nazorat va refleksiv fikrlash pasayadi; ular o‘rnini birlashtiruvchi umumiy emosiyalar, kollektiv e’tiqodlar va affektiv birlashuv egallaydi (Lebon G., 1995).

Lebonning omma psixologiyasi nazariyasida jamoaviy xulq-atvorni boshqaruvchi asosiy mexanizmlar sifatida taqlid, sugestiya, emosional yuqumlilik, affektiv identifikatsiya kabilar ko‘rsatiladi. Shaxs ommaga qo‘shilganida ongsizlik (inconscient collectif) kuchayadi, individual javobgarlik darajasi kamayadi va natijada jamoaviy harakatlar ko‘proq impulsiv, irratsional va affektiv dominantlikka ega bo‘ladi. Z. Freydning psixoanalitik yondashuvi Lebon g‘oyalariga ma’lum ma’noda yaqin bo‘lsa-da, u ommaviy


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

xulq-atvor mexanizmlarini chuqur psixodinamik asosda tushuntiradi. Freydga ko‘ra, inson tabiatan ijtimoiy mavjudot emas; uning faoliyati va xulq-atvori birlamchi instinktlar – jinsiy (libido) va tajovuzkor (thanatos) kuchlar tomonidan boshqariladi. Shaxslarning ijtimoiy birlashishi ham aynan shu instinktlarning psixik transformatsiyasi natijasidir.

Freyd jamiyatning paydo bo‘lishini tushuntirishda libido nazariyasiga tayanadi: libido orqali yuzaga keladigan affektiv bog‘lanishlar odamlarni birlashtiradi, ular orasida sevgi-identifikatsiya zanjirini yaratadi. Uning fikricha, “sevgi munosabatlari ommaviy ruhning mohiyatini tashkil qiladi”, ya’ni ijtimoiy birliklarning barqarorligi libido kuchlarining ijtimoiy yo‘naltirilgan shakllari bilan belgilanadi (Freyd Z.,1925). Freyd ta’kidlashicha, libido kuchlari ijtimoiy tuzilmalarni mustahkamlab, shaxslarni o‘zaro identifikatsiya jarayoni orqali birlashtiradi, bu esa ijtimoiy kohesiyani ta’minlaydi. Shu tariqa, madaniyatning rivojlanishi ham instinktlarning sublimatsiya jarayoni bilan izohlanadi: inson o‘z biologik energiyasini ijtimoiy maqbul shakllarga – ijod, ilm-fan, madaniyat, ijtimoiy hamkorlik kabi faoliyatlarga yo‘naltiradi. Freydning bu yondashuvi ommaviy xulq-atvor psixologiyasida instinktiv dinamika, identifikatsiya, libido bog‘lanishi, sublimatsiya va ijtimoiy nazoratning psixodinamik mexanizmlarini tushuntirishda asosiy nazariy tamoyil sifatida maydonga chiqadi.

Shunday qilib, ijtimoiy-psixologik bilimlar taraqqiyoti tarixida shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar muammosini talqin etishda ijtimoiy-markazlashgan va shaxsga yo‘naltirilgan paradigmalarning doimiy dialogi kuzatiladi (Petrovskaya L. A., 2002). Ushbu nazariy muloqot bugungi kunda ham davom etib, uning ikki asosiy epistemologik qutbi — rus psixologiyasi an’analari va zamonaviy G‘arb gumanistik psixologiyasi — o‘zaro munosabat, qarama-qarshilik va bir-birini to‘ldiruvchi funksiyalarni bajarib kelmoqda. L. A. Petrovskayaning ta’kidlashicha, rus psixologik maktabi tarixan ijtimoiy determinatsiya tamoyiliga tayangan bo‘lib, shaxsning psixologik qiyofasini tushuntirishda “sotsiotsentrik yondashuv” hukmronlik qilgan (Petrovskaya, 2002, 323-bet). Bu paradigma doirasida shaxsning shakllanishi, rivojlanishi va faoliyat dinamikasi, birinchi navbatda, ijtimoiy ta’sirlar, sotsiokultural kontekst, tarbiya, ijtimoiy talablar, me’yorlar va kollektiv qadriyatlar bilan bog‘liq tarzda izohlangan. Ijtimoiy ta’sir, qoida tariqasida, konstruktiv, shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi mexanizm sifatida talqin qilingan; uning salbiy oqibatlari, psixologik deformatsiya ehtimollari yoki individual erkinlikka bosim ko‘rsatish kabi jihatlar esa ilmiy muhokamalarda ko‘proq chetda qolgan.

V. E. Chudnovskiy ham rus psixologiyasining mazkur mezonini “inson aqliy rivojlanishining ijtimoiy shartlanganligi g‘oyasini juda to‘g‘ridan-to‘g‘ri, hatto soddalashtirilgan talqinda qabul qilish” deb ta’riflaydi (Chudnovskiy V. E., 1993, 6-bet). Bu esa rus psixologik maktabiga xos bo‘lgan sotsializatorlik modelining konseptual ustuvorligini tasdiqlaydi. Biroq zamonaviy g‘arb gumanistik psixologiyasi mazkur an’anaviy nazariy pozitsiyaga qarshi turuvchi antagonistik yondashuv emas, balki Petrovskaya ta’kidlaganidek, uning ayrim jihatlarini to‘ldiruvchi, nuqsonlarini yorituvchi va muayyan kamchiliklarini qoplovchi epistemologik pozitsiya sifatida namoyon bo‘ladi (Petrovskaya L. A., 2002). Gumanistik psixologiya vakillari — K. Rojers, A. Maslou, R.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

May va boshqalar — insonning psixologik rivoji ijtimoiy-madaniy konditsionerlik ta’siridan mustasno emasligini tan oladilar. Shu bilan birga, ular jamiyatning shaxsga ta’siri har doim ham ijobiy emasligini, balki:

- rivojlantiruvchi,
- cheklovchi,
- frustratsiyaga olib keluvchi,
- hatto psixik jarayonlarni buzuvchi yoki halokatli bo‘lishi mumkinligini alohida ta’kidlaydilar.

Gumanistik psixologiyada shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar ambivalent jarayon sifatida ko‘rinadi: jamiyat shaxsga o‘sish imkoniyatlari, resurslar va tajribalar manbai sifatida xizmat qilishi mumkin, biroq ayni paytda shaxsning avtentiqligini cheklashi, uning ichki ehtiyojlariga zid talablar qo‘yishi, ijtimoiy moslashuv bosimi orqali psixologik izdan chiqish holatlarini yuzaga keltirishi ham ehtimoldan xoli emas. Mazkur pozitsiya jamiyatning shaxsga ta’sirining destruktiv mexanizmlarini - konformizm, normativ bosim, ijtimoiy rollarning rigidligi, ijtimoiy taqiqlar, axloqiy repressiya, psixologik begonalashuv — o‘rganish zaruratini ochib beradi. Shu bilan birga, gumanistik psixologiya shaxsning o‘zini aktualizatsiya qilish, o‘zini anglash, shaxsiy o‘sish, ichki potensialni ro‘yobga chiqarish kabi jarayonlarni ijtimoiy kontekst bilan dialektik aloqadorlikda ko‘rib chiqadi. Natijada, zamonaviy ilmiy tafakkurda shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar masalasi monokonseptual emas, balki ko‘p qirrali, murakkab, o‘zaro shartlangan jarayon sifatida talqin qilinadi. Rus psixologiyasining ijtimoiy-markazlashgan yondashuvi va gumanistik psixologiyaning shaxsga yo‘naltirilgan paradigmasi ayni paytda ilmiy dialogning ikki qutbi sifatida bir-birini to‘ldiradi, ijtimoiy-psixologik bilimlarning yanada puxta shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda hayotiy strategiyalarni shakllantirishning psixologik asoslari shaxsning ongli rivojlanishiga, o‘z hayotiga nisbatan mas’uliyatli munosabatni qaror toptirishga, ijtimoiy faol pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi ko‘p komponentli tizimdir. Mazkur tizimni chuqur o‘rganish, uning tarkibiy qismlarini ilmiy asosda tahlil etish va amaliyotga tadbiq etish talabalarda barqaror, mazmunli va ijtimoiy ahamiyatli hayotiy strategiyalarni shakllantirish imkonini beradi. Shu ma’noda, psixologik asoslarning ilmiy tadqiqi nafaqat nazariy jihatdan, balki ta’lim jarayonini takomillashtirish, shaxsni har tomonlama kamolga yetkazish nuqtayi nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Абульханова-Славская К. А. Стратегия жизни личности. — М.: Мысль, 1991. — 299 с.
2. Абдуллаев О. А**.** Психологические механизмы формирования жизненных стратегий у студентов // Ilmiy xabarlar. Qo‘qon DPI. — 2025. — № 8. — С. 45–52.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

3. Ramazonov J. D., Xomidova N. T. Talabalarda o‘zini idora qilish motivatsiyasi shakllanishining psixologik xususiyatlari // Uzbek Scholar Journal. — 2023. — № 18. — B. 12–18.
4. Ro‘zmetova M. M., Allayarov D. I. Oliy ta’limning talabalar hayotiga ta’siri va psixologik xususiyatlari // Innovative Development in Educational Activities. — 2023. — Vol. 2(23). — P. 206–211.
5. Ismoilova Z. Characteristics of Coping Strategy in Strengthening Stress Stability in Students // Jurnal Psikologi. — 2025. — Vol. 2(3). — P. 101–110.
6. Raxmatullayeva Z. O. Talabalarning shaxsiy va akademik rivojlanishida emotsional intellektning o‘rni // Psixologiya. — 2025. — № 2. — B. 34–41.
7. Sattorova G. S. Talabalarda o‘quv motivatsiyasini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik talablari // Modern Education and Development. — 2024. — № 1. — P. 89–95.
8. Askarova G. O. Yosh talabalarda yengish strategiyalarini shakllantirishning psixologik asoslari // Markaziy Osiyoda Jamiyat, Gender va Oila. — 2025. — № 1. — P. 57–66.
9. Кон И. С. Психология ранней юности. — М.: Просвещение, 1989. — 255 с.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Xudoyberganov Doniyorbek Yangiboy o‘g‘li**, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, [**Дониярбек Худойберганов Янгибай угли**, независимый исследователь Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни], [**Doniyorbek Xudoyberganov Yangiboy o‘g‘li,** Independent Researcher, Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni]; manzil: Xorazm viloyati, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko‘chasi, 14- uy, pochta indeksi: 220100. 0(362)2246700 [адрес: Узбекистан, ул. Х.Олимжан, 14, г. Урганч], [address: Uzbekistan, 12, X.Olimjan st., Urganch city]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# PSIXOSOMATIK BUZILISHLARNI YUZAGA KELTIRIVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR

© X.X.Jabborov [1], M.S.Rustamova[2]✉
[1]Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti , Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: talabalarning o‘quv faoliyati yuqori aqliy yuklama, emotsional zo‘riqish va ijtimoiy mas’uliyat bilan kechadi. Ushbu omillar psixik holat orqali jismoniy salomatlikka ta’sir etib, psixosomatik buzilishlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

**MAQSAD**: talabalar o‘quv faoliyati jarayonida psixosomatik buzilishlarni keltirib chiqaruvchi asosiy ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash

**MATERIALLAR VA METODLAR:** ilmiy manbalar tahlili, talabalar orasida so‘rovnoma, stress darajasini aniqlash va psixologik kuzatuv metodlaridan foydalanildi

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: natijalar shuni ko‘rsatdiki, imtihon stressi, vaqt yetishmasligi, akademik bosim, o‘qituvchi–talaba munosabatlari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning pastligi talabalar orasida bosh og‘rig‘i, uyqusizlik, oshqozon-ichak buzilishlari kabi psixosomatik holatlarni kuchaytiradi.

**XULOSA:** talabalar psixosomatik salomatligini saqlash uchun o‘quv yuklamasini muvozanatlash, stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish va psixologik yordamni kuchaytirish zarur.

**Kalit so'zlar**: talabalar, o‘quv faoliyati, stress, psixosomatik buzilishlar, ijtimoiy-psixologik omillar

**Iqtibos uchun**: Jabborov X. X, Rustamova M. S. Psixosomatik buzilishlarni yuzaga keltirivchi ijtimoiy-psixologik omillar. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. B.537–543.

# СОЦИО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЫЗЫВАЮЩИЕ ПСИХОСОМАТИЧЕСКИЕ РАССТРОЙСТВА

© Х.Х.Джаббаров[1], М.С. Рустамова [2]✉
[1]Ташкентский государственный университет востоковедения, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: учебная деятельность студентов сопровождается высокой умственной нагрузкой, эмоциональным стрессом и социальной ответственностью. Эти факторы могут влиять на физическое здоровье через психическое состояние и вызывать психосоматические расстройства

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**ЦЕЛЬ**: выявить основные социально-психологические факторы, вызывающие психосоматические расстройства у студентов в процессе их учебной деятельности

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: использовались методы анализа научных источников, анкетирования студентов, определения уровня стресса и психологического наблюдения.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: результаты показали, что экзаменационный стресс, нехватка времени, академическое давление, отношения между преподавателем и учеником, а также низкая социальная поддержка увеличивают количество психосоматических состояний, таких как головные боли, бессонница, желудочно-кишечные расстройства, среди студентов

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: для поддержания психосоматического здоровья студентов необходимо сбалансировать учебную нагрузку, развить навыки управления стрессом и укрепить психологическую поддержку

**Ключевые слова**: студенты, учебная деятельность, стресс, психосоматические расстройства, социально-психологические факторы.

**Для цитирования**: Джаббаров Х. Х., Рустамова М.С. Социо-психологические факторы, вызывающие психосоматические расстройства. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. С. 537–543.

## ARTS SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS CAUSING PSYCHOSOMATIC DISORDERS

© Khazrat Kh.Jabborov[1]✉ Madinabonu S.Rustamova[2]✉
[1]Tashkent State University of Oriental Studies, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: students' academic activities are accompanied by high mental load, emotional stress and social responsibility. These factors can affect physical health through the mental state and cause psychosomatic disorders.

**AIM:** to identify the main socio-psychological factors that cause psychosomatic disorders in students during their academic activities

**MATERIALS AND METHODS**: analysis of scientific sources, a questionnaire among students, stress level determination and psychological observation methods were used.

**DISCUSSION AND RESULTS**: the results showed that exam stress, lack of time, academic pressure, teacher-student relationships and low social support increase psychosomatic conditions such as headaches, insomnia, gastrointestinal disorders among students.

**CONCLUSION:** to maintain the psychosomatic health of students, it is necessary to balance the study load, develop stress management skills and strengthen psychological support.

**Keywords**: students, academic activity, stress, psychosomatic disorders, socio-psychological factors.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**For citation**: Khazrat Kh. Jabborov, Madinabonu S. Rustamova. (2025), socio-psychological factors causing psychosomatic disorders. Inter education & global study, vol.3 (12), pp. 537–543. (In Uzbek).

**B**ugungi kunda talabalarning o‘quv faoliyati yuqori intellektual yuklama, doimiy stress va raqobat muhiti bilan kechmoqda. Ushbu holatlar psixologik zo‘riqish orqali psixosomatik buzilishlarning ko‘payishiga olib kelmoqda. Talabalar orasida sog‘liq bilan bog‘liq shikoyatlarning ortib borishi mazkur mavzuning ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ekanligini ko‘rsatadi[3]. Hammamizga ma’lumki inson zoti azaldan o‘zini bilishga, o‘zini idrok qilishga va o‘zining sog‘lig‘iga befarq bo‘lmagan. Yillar davomida ular o‘zlarining shaxsiyatiga bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlarni izlab kelishgan. Izlanishlarining oxir-oqibatida ular turli fanlarga asos solishgan. Turli xil nazariyalarni kashf etishgan va ular sinab ko‘rish maqsadida turli-tuman tajribalarni o‘tkazishgan. Ammo bu bilan ular o‘zlarining sog‘liqlariga befarq bo‘lishgan deb bo‘lmaydi. Ya’ni tibbiyot sohasiga alohida urg‘u berishgan[1].

Olimlarni bir savol qiynagan. Ya’ni bu dunyodagi barcha kasalliklar faqat jismoniy bo‘ladimi? Ular faqat nasldan-naslga o‘tishi oqibatida paydo bo‘ladimi? Kasalliklar faqat jismoniy bo‘ladimi? Kasalliklarni faqat dori vositasi orqali davolash mumkin xolosmi? Va shunga o‘xshash savollar olimlarni qiynagan. Shuning natijasida dunyoga yangi atama kirib keladi ya’ni bu “Psixosomatika”. So‘nggi yillarda tibbiyot va psixologiya fanlarining kesishgan nuqtasida paydo bo‘lgan psixosomatika fani inson organizmida kechayotgan ruhiy va jismoniy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini chuqur o‘rganadi. “Psixo”- ruh, “somatika” – tana degan ma’noni anglatadi. Demak, psixosomatika inson ruhiy kechinmalari tanaga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qiladi. Psixosomatik tibbiyot - bu tibbiyot psixologiyaning bir bo‘limi bo‘lib, psixogen omillar bilan ichki a’zolar kasalliklari orasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganadi[2]. An'anaviy ma’noda psixosomatika – bu ruh va tana, aqliy va somatik munosabatlarni o‘rganadigan klinik psixologiya bo‘limi. O‘z-o‘zini his qilish (somatik tuyg‘u) va ruhiy holat (tan va ruh) o‘rtasidagi yaqin munosabatlar haqidagi ta’limot tibbiyot tarixi davomida mustahkam bog‘langan. Psixomatikani ko‘plab mutaxassislar o‘rganishgan. Ulardan asoschilardan biri deb 1818-yilda ushbu atamani ilk bor ilmiy muomalaga kiritgan Iogann Xaynrotni aytish mumkin. Muhim kashfiyotlarni Feliks Doych, Frants Aleksandr ( u “Chikago yettiligi” deb ataluvchi kasalliklar tasnifini tuzgan ) hamda Flanders Danbar ham amalga oshirgan. Flanders Danbar ayrim kasalliklar turlari bilan bog‘liq shaxs tiplarini tasvirlab bergan[4].

Psixosomatikani sodda qilib chuntiradigan bo‘lsak, bu inson tanasida paydo bo‘ladigan kasalliklarning sababini faqat biologik omillarda emas, balki ruhiy ziddiyatlar, stress, hissiy siqilish kabi holatlarda ham izlaydi. Bu yo‘nalishning asosiy g‘oyasi shundan iboratki: ruhiy muammolar jismoniy belgilar orqali namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, doimiy tashvish, qo‘rquv yoki g‘amginlik yurak urushining tezlashuvi, oshqozon og‘rishi yoki uyqusizlik kabi belgilarni keltirib chiqaradi. Bu holatlar shunchaki tasodif emas – ular ong osti darajasidagi hissiy to‘plamlarning tanadagi ifodasidir.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Psixosomatik yondashuvning ahamiyati. Psixosomatika insonni bir butun tizim sifatida ko‘radi – ruh, tana va ong bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Shuning uchun zamonaviy tibbiyotda ham ruhiy holatni davolashga e’tibor berish kuchaymoqda. Meditatsiya, psixoterapiya, ijobiy fikrlash kabi usullar jismoniy sog‘liqni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi[5]. Bugungi kunda psixosomatik kasalliklar haqida so‘z borganda, o‘tkir yoki doimiy stress sababli rivojlangan organik kasalliklar tushuniladi, ya’ni xafaqon kasalligi, bronxial astma, yara kasalligi, qandli diabet va hokazo. Psixosomatik sindrom deganda esa o‘tkir yoki doimiy stress sababli turli a’zolarda rivojlangan funksional buzilishlar tushuniladi. Bu atamaning sinonimlari juda ko‘p va xilma-xildir: “psixovegetativ sindrom”, “somatogen depressiya”, “niqoblangan depressiya”, “vegetonevroz”, “vegetativ distoniya”, “somatonevroz” yoki “somatoform buzulishlar” va hokazo. Agar funksional buzulishlar somatik kasalliklar sababli rivojlansa, u holda somatopsixik sindrom atamasini qo‘llash tavsiya etiladi. Lekin bu atama klinik tibbiyotda juda kam ishlatiladi[6].

Ko‘p uchraydigan psixosomatik kasalliklarga misollar keltiradigan bo‘lsak, bular: Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari (gipertoniya, yurak xurujlari), oshqozon-ichak tizimi muammolari (yara, gastrit), teri kasalliklari (dermatit, ekzema), nevrologik kasalliklar (migren, bosh og‘rig‘i), nafas olish muammolari (astma). Bu kasalliklarda ruhiy sababni bartaraf etmasdan turib, faqat dori vositalari bilan to‘liq sog‘ayishi qiyin. Chunki doimiy bu kasallik qaytalanuradi. Psixosomatik kasalliklar ko‘p insonlarda uchraydi. Talabalarda bu hodisa juda keng tarqalgan. Nega aynan talabalarda psixosomatika ko‘p uchraydi? degan savolga javob beradigan bo‘lsak, chunki talabalik - katta bosim, mas’uliyat va stress davri hisoblanadi bu moslashuvi ya’ni o‘zi tug‘ilib osgan joyini, oilasini tark etib, boshqa joyga o‘qish uchun moslashishga majbur bo‘ladi.


Bitta bu omilning o‘zi kifoya emas ya’ni bundan tashqari boshqa omillar ham mavjud. Misol tariqasida: Imtihonlar (oraliq, sessiya), kurs ishlari, baholardan qo ‘rquv ya’ni yaxshi bahoga topshira olmasa, kursdan yiqilishini o‘ylab ham stressga tushishi mumkin. Hattoki kelajak haqida qo ‘rquv ham ularni anchagina stressga tushurib qo‘yishi mumkin. Bu bilim yurtini bitirib qayerda ishlashi mumkin? Uni ishga olishadimi? Yaxshi ishga joylasha oladimi? O‘zi u to‘g‘ri yo‘ldami yoki yo‘qmi? Shu kabi omillar doim psixologik bosim yaratadi. Uzoq davom etgan stress tana faoliyatini izdan chiqarib, turli jismoniy simptomlarni keltirib chiqaradi. Talabalik davri organizm va psixika uchun eng mas’uliyatli bosqichlardan biridir. Bu davrda o‘qish talablari, imtihonlar, ijtimoiy moslashuv, kelajak rejalari bilan bog‘liq bosimlar stress darajasini oshiradi. Stress kuchaygan sari u nafaqat ruhiy holatga, balki jismoniy salomatlikka ham ta’sir qiladi. Shunda psixosomatik kasalliklar kelib chiqadi. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, psixosomatik kasalliklarning kelib chiqish zamirida asosan stress yotadi. Ho‘sh, shu stress asli nima? U biz o‘ylagandek, faqat salbiy bo‘ladimi? Yoki uning ijobiy tomoni ham mavjudmi? Stress - bu inglizcha so‘z bo‘lib, “stress” - “bosim”, “kuchlanish”, “tanglik” degan ma’noni anglatadi. Stress - bu muayyan vaziyat yoki hodisaning bosimiga tananing reaksiyasi. Bu har qanday jismoniy, ruhiy yoki hissiy reaksiya bo‘lishi mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Stress o‘z navbatida 2 ga bo‘linadi. Stress bu biz bilgandek faqat salbiy tomonga ishlayvermaydi.

Balkim u ijobiy tomonga ham bo‘lishi ham mumkin. Qanday qilib deysizmi? Ijobiy stress (eustress) - bu insonni ruhlantiradigan, faollashtiradigan va rivojlanishiga undaydigan stress turidir. U hayot sifatini pasaytirmaydi, aksincha shaxsning imkoniyatlarini ochib beradi. N. X. Rizvining ifodalashicha, “… stress hamma joyda mavjud, u hayotning soyasidir, kimgadir u yoqadi va u istagan natijaga erishish uchun undan foydalanadi, kimgadir esa yoqmaydi va uning organizmi stressga lozim darajada ta’sir ko‘rsatadi.”. Olim bu gapi bilan stress ham ijobiy, ham salbiy bo‘lishini ta’kidlagan.

Stress bo‘yicha ko‘plab izlanishlar olib borilgan. Turli xil so‘rovnomalar va testlar tuzilgan. Chunki psixosomatik kasalliklar kelib chiqishiga asosan stress tufayli desak ham bo‘ladi[7]. Mazkur ilmiy maqolamizni amaliy qismi uchun biz Sharqshunoslik universiteti Amaliy fanlar fakultetining psixologiya yo‘nalishining 1 va 2 kurs talabalarida J. Teylorning “Stressga moyilligini aniqlash metodikasi” o’tkazdik va quyidagicha qiziq empirik natijalarni qo’lga kiritdik. Bu so‘rovnoma T. A .Nemchin tomonidan modifikatsiya qilingan.




Empirirk natijalari 1 kurs talabalarining 20% ida stressning past darajasini ko’rsatdi. Bu talabalarda stressga moyillik past, ular ruhiy jihatdan barqaror, o‘zlarini tuta oladilar, hayotdagi qiyinchiliklarga tinchlik bilan yondashadi. Bunday odamlar stress holatlarida o‘zini yo‘qotmaydi, hissiyotlarini nazorat qila oladi. Talabalarning 40% ida stressning norma holati qayd etildi. Bu darajadagi insonlar odatda tinch, ammo kuchli zo‘riqish paytida kuchli hissiy beqarorlik namoyon bo‘lishi mumkin. Ular stressni boshqarishga qodir, biroq doimiy dam olish va psixogigiyena zarur.

Sinaluvchi talabalarning 20% yuqori darajada stressga moyillikni qayd etgan. Bu talabalar tez hayajonlanadi, xavotir kuchli, stressli vaziyatlarda o‘zini tutish qiyinlashadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ularga psixologik yordam, dam olish mashqlari va o‘zini tinchlantirish texnikalari tavsiya etiladi. Respondentlarning 20% esa juda yuqori tashvishga moyillik darajasini qayd etgan. Bu holat stressbardoshlik pastligidan, ichki taranglikning ortganidan dalolat beradi. Bu talabalarda asabiy charchash yoki nevrotik holat xavfi mavjud. Shoshilinch tarzda stressni kamaytiruvchi chora-tadbirlar (psixoterapiya, autogen mashqlar, dam olish) zarur. 2 kurslarni empirik natijalari natijalari esa taxlil qiladigan bo‘lsak, ahamiyat 1-kurs natijalaridan farq qildi. Testning dastlabki birinchi bosqichi bir xil qayt etilgan ya’ni 2 kursda ham 20% talabalarda stressning past darajasi qayt etilgan. Bu talabalarda stressga moyillik past, ular ruhiy jihatdan barqaror, o‘zlarini tuta oladilar, hayotdagi qiyinchiliklarga tinchlik bilan yondashadi. Bunday odamlar stress holatlarida o‘zini yo‘qotmaydi, hissiyotlarini nazorat qila oladi.

Keyingi daraja 2 kurslarda farq qiladi. Ya’ni ularning 60% talabalarda stressning norma holati qayd etilgan. Bu darajadagi insonlar odatda tinch, ammo kuchli zo‘riqish paytida kuchli hissiy beqarorlik namoyon bo‘lishi mumkin. Ular stressni boshqarishga qodir, biroq doimiy dam olish va psixogigiyena zarur. Qolgan foiz ko‘rsatgichlari pasayganini ko‘rishingiz mumkin. Sinaluvchi talabalarni 10% yuqori stressga moyillik qayd etilgan. Bu talabalar tez hayajonlanadi, xavotir kuchli, stressli vaziyatlarda o‘zini tutish qiyinlashadi. Ularga psixologik yordam, dam olish mashqlari va o‘zini tinchlantirish texnikalari tavsiya etiladi. Qolgan 10% talabalarda juda yuqori tashvishga darajasi qayt etilgan. Bu holat stressbardoshlik pastligidan, ichki taranglikning ortganidan dalolat beradi. Bu talabalarda asabiy charchash yoki nevrotik holat xavfi mavjud. Shoshilinch tarzda stressni kamaytiruvchi chora-tadbirlar (psixoterapiya, autogen mashqlar, dam olish) zarur. Shuningdek, 1 va 2 ta kursni o‘zaro solishtirib taqqoslaydigan bo‘lsak, 1-kurslarda 2-kurslarga qaraganda stressga moyillik yuqori natijani qayt etgan. Bunga sabab sifatida adaptatsiya jarayonlarini sabab sifatida keltirsak bo‘ladi. Chunki 1 kurslar endi o‘qishning muhitiga moslashish jarayonida turishibdi. 2-kurslar esa bunday jarayonni boshdan kechirib bo‘lishgan. 1-kurslarda stressga moyillikning baland chiqishiga sabab sifatida o‘qishning talablarini misol qilsak ham bo‘ladi. 1-kurslar hali mustaqil ta’lim, sessiya va baholash sistemasiga to‘liq moslasha olishmagani uchun ularda tashvishga moyillikning yuqori darajasi qayt etilgan bo‘lishi mumkin. 1-kurslarga ko‘proq dam olish mashqlarini o‘tqazish tavsiya qilinadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarning o‘quv faoliyati jarayonida yuzaga keladigan psixosomatik buzilishlar bevosita ijtimoiy-psixologik omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘quv jarayonidagi yuqori akademik talablar, imtihonlar bilan bog‘liq doimiy stress, vaqt yetishmasligi, o‘qituvchi va tengdoshlar bilan munosabatlardagi psixologik bosim talabalarning emotsional holatini izdan chiqaradi. Ushbu holatlarning uzoq muddat davom etishi psixik zo‘riqishning jismoniy simptomlar — bosh og‘rig‘i, yurak urishining tezlashuvi, uyqusizlik, oshqozon-ichak tizimi buzilishlari va umumiy holsizlik kabi psixosomatik belgilar ko‘rinishida namoyon bo‘lishiga olib keladi. Shuningdek, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi, shaxsiy resurslarning pastligi, stressni boshqarish ko‘nikmalarining rivojlanmaganligi psixosomatik buzilishlarning chuqurlashishiga sabab


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

bo‘luvchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Talabalarning o‘z emotsiyalarini bostirishi yoki muammolarini ochiq ifoda eta olmasligi psixosomatik reaksiyalarning kuchayishiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, talabalar sog‘ligini saqlash va psixosomatik buzilishlarning oldini olish uchun o‘quv jarayonini psixologik jihatdan sog‘lom muhitda tashkil etish, akademik yuklamani me’yorlashtirish, stressga bardoshlilik va o‘zini-o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmatlar faoliyatini kuchaytirish va profilaktik dasturlarni joriy etish talabalar salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Зарифбой Ибодуллаев.Тиббий_психология_2011.pdf
2. Klinik psixologiya Urazbayeva D.pdf
3. X.X.Jabborov. Harbiy xizmatchilarning kasbiy stress va kasbiy zo’riqish holatini diagnostika qilish metodlari uslubiy qo‘llanma. Toshkent 2022 yil. Uslubiy qo‘llanma.B.191
4. https://share.google/UVV9KXCq8aU7b0kVC
5. https://share.google/tPRB2VlcCIqH88NSG
6. https://share.google/4u1kuL2fSpyzg2uvO
7. https://share.google/Pz92rR6rTx0OigQMO

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Jabborov Xazrat Xusenovich**, professori, psixologiya fanlari doktori (DSc), Respublika “Ma'rifat” targ‘ibotchilar jamiyati a'zosi, **Rustamova Madinabonu Sultonbek qizi,** psixologiya ta’lim yo’nalishi 2-kurs talabasi, [**Джабборов Хазрат Хусенович,** доктор психологических наук (DSc), член Республиканского общества защиты просвещения, **Рустамова Мадинабону Султанбек кизи**, студент 2 курса направления психология образования], [**Khazrat Kh. Jabborov**, Doctor of Psychology (DSc) Member of the Republican Society of Enlightenment Advocacy**, Madinabonu S. Rustamova** psychology educational course 2nd year student]; manzil: O‘zbekiston, Toshkent sh., Mirobod tumani, Amir Temur shoh ko‘chasi, 20 -uy [адрес: Узбекистан, ул. Амир Темура, 20, г. Ташкент], [address: Uzbekistan, 20, Amir Temur st., Tashkent city]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# XAVOTIRLANISH HOLATI VA UNING NAZARIY O‘RGANILISHI

© M.M. Kengeshova[1]✉

[1]Berdaq nomidagi Qoraqolpoq Davlat Universiteti, Nukus, Qorqaqalpog‘iston

Annotatsiya

**KIRISH:** zamonaviy jahonda intellektual salohiyat va mustaqil fikrlash qobiliyati harbiy quvvatdan ustun kelmoqda. Bugungi ijtimoiy-siyosiy hayot yangi texnika va texnologiyalar, aql-idrok va fikrlash qobiliyatining hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgan o‘ziga xos bosqichni ifodalaydi. Shu bilan birga, yoshlarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ularni muammolarni ijodiy hal qilishga tayyorlash muhim pedagogik vazifaga aylanmoqda. Biroq, bu jarayonda o‘quvchilarda xavotirlanish holatining namoyon bo‘lishi ularning bilim olish samaradorligiga va shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Xavotirlanish – bu voqelikka nisbatan ruhiy keskinlik, kutilmagan oqibatlardan qo‘rqish va ichki noxush emotsional holat sifatida namoyon bo‘ladigan murakkab psixologik hodisadir.

**MAQSAD**: mazkur maqolaning maqsadi zamonaviy ta’lim sharoitida intellektual salohiyatni rivojlantirish zarurati bilan bog‘liq holda, yoshlarda xavotirlanish holatining mohiyati, turlari, kelib chiqish sabablari va o‘quv faoliyatiga ta'sirini ilmiy-nazariy asosda tahlii qilishdan iborat. Tadqiqot xavotirlanishni shaxs holati va shaxs xususiyati sifatida farqlash, uning psixologik mexanizmlarini ochib berishga qaratilgan.

**MATERIALLAR VA METODLAR**: tadqiqotda tizimli tahlii, qiyosiy tahlii va nazariy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Xavotirlanish muammosiga bag‘ishlangan rus va chet el psixologlarining (N.D.Levitov, Yu.L.Xanin, Ch.D.Spilberger, Z.Freyd, K.K.Platonov va boshqalar) ilmiy ishlari, monografiyalari va maqolalari tahlii qilindi. Xavotirlanishning turli ta’riflari, uning shaxs holati va barqaror xususiyat sifatidagi ko‘rinishlari, shuningdek, stress bilan bog‘liqligi o‘rganildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xavotirlanish muammosi psixologiya fanida noaniq va ko‘p qirrali tushuncha sifatida qaraladi. Xavotirlanishni tushuntirishda turli yondashuvlar mavjud: ba’zi mualliflar uni vaqtinchalik holat, boshqalari esa shaxsning barqaror xususiyati deb hisoblaydi. Ch.D.Spilberger ta’kidlaganidek, xavotirlanish atamasi ikki asosiy ma’noda qo‘llaniladi: birinchisi – xavotirlanish holati (yoqimsiz ichki emotsional bezovtalik, notinchlik, stressga javoban paydo bo‘ladigan vaqtinchalik reaksiya), ikkinchisi – shaxsiy xavotirlanish (insonning xavotirlanish holatini boshdan o‘tkazishga bo‘lgan nisbatan barqaror moyilligi).

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Xavotirlanish holati odatda atrof-muhitdagi xavfni kognitiv baholash natijasida kelib chiqadi. Bu holat zo‘riqish, g‘amginlik va avtonom nerv sistemasining faollashuvi bilan birga kechadi. Xavotirlanishni jarayon sifatida tushunishda uning tarkibiy qismlari – kognitiv (xavfni baholash), affektiv (his-tuyg‘ular) va xulq-atvor reaksiyalarining o‘zaro bog‘liqligi muhim ahamiyatga ega.

Ko‘pgina tadqiqotchilar (masalan, Filipps, Marlin, Mayrs) xavotirlanishni stressning turli shakllari natijasida hosil bo‘ladigan reaksiya deb hisoblaydilar. Z.Freyd esa xavotirlanishni ob’ektiv xavotir (tashqi dunyodagi real xavf) va nevrotik xavotir (shaxsning ichki dunyosidagi konfliktlar natijasida) ga ajratadi. Xavotirlanish holati, ayniqsa, o‘quv faoliyati davomida – bilimlarni nazorat qilish, imtihonlar, yangi vaziyatlar – kuchayishi mumkin, bu esa o‘quvchining kognitiv qobiliyatlarini pasaytirishi va mustaqil fikrlashini cheklashi mumkin.

**XULOSA**: xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’lim intellektual salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa-da, bu jarayonni psixologik jihatdan, xususan, o‘quvchilarning xavotirlanish holatini hisobga olgan holda tashkil etish muhimdir. Xavotirlanish nafaqat shaxsning vaqtinchalik emotsional holati, balki uning barqaror xususiyati ham bo‘lishi mumkin. U stressli vaziyatlarda faollashadi, xavfni noto‘g‘ri baholashga olib kelishi va o‘quv faoliyati samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Shuning uchun, pedagogik amaliyotda yoshlarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish bilan birga, ularning psixologik barqarorligini mustahkamlash, xavotirlanish darajasini pasaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish lozim. O‘qituvchilar xavotirlanishning belgilarini tanishlari va o‘quvchilarga psixologik qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatishlari kerak. Kelajakda ushbu muammoni chuqurroq o‘rganish, o‘quv jarayonida xavotirlanishni kamaytiruvchi maxsus metodikalarni ishlab chiqish ta’lim sifatini oshirish va yoshlarning to‘laqonli intellektual rivojlanishiga yordam beradi.

**Kalit so‘zlar**: intellektual salohiyat, mustaqil fikrlash, xavotirlanish, xavotirlanish holati, shaxsiy xavotirlanish, stress, emotsional holat, kognitiv baholash, pedagogik psixologiya.

**Iqtibos uchun**: Kengeshova M.M. Xavotirlanish holati va uning nazariy o‘rganilishi. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. B.544–553.

## СОСТОЯНИЕ ТРЕВОГИ И ЕГО ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ

©М.М.Кенгешова[1]✉
[1]Каракалпакский государственный университет имени Бердака, Нукус, Каракалпакстан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в современном мире интеллектуальный потенциал и способность к самостоятельному мышлению превосходят военную мощь. Современная общественно-политическая жизнь представляет собой особый этап, где решающее значение приобретают новые техника и технологии, разум и

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

способность мыслить. Наряду с этим, обучение молодежи самостоятельному мышлению и подготовка их к творческому решению проблем становятся важной педагогической задачей. Однако в этом процессе проявление состояния тревожности у обучающихся может негативно сказаться на эффективности усвоения знаний и личностном развитии. Тревожность – это сложное психологическое явление, проявляющееся как психическая напряженность по отношению к действительности, страх перед неожиданными последствиями и внутреннее неприятное эмоциональное состояние.

**ЦЕЛЬ:** цель данной статьи заключается в научно-теоретическом анализе сущности, типов, причин возникновения и влияния состояния тревожности у молодежи в условиях современного образования в связи с необходимостью развития интеллектуального потенциала. Исследование направлено на разграничение тревожности как состояния личности и как свойства личности, раскрытие ее психологических механизмов.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в исследовании использовались методы системного анализа, сравнительного анализа и теоретического обобщения. Были проанализированы научные работы, монографии и статьи российских и зарубежных психологов (Н.Д.Левитов, Ю.Л.Ханин, Ч.Д.Спилбергер, З.Фрейд, К.К.Платонов и др.), посвященные проблеме тревожности. Изучались различные определения тревожности, ее проявления как состояния личности и как устойчивого свойства, а также связь со стрессом.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты исследования показывают, что проблема тревожности в психологической науке рассматривается как неоднозначное и многогранное понятие. Существуют различные подходы к объяснению тревожности: некоторые авторы считают ее временным состоянием, другие – устойчивым свойством личности. Как отмечает Ч.Д.Спилбергер, термин «тревожность» используется в двух основных значениях: первое – состояние тревожности (неприятное внутреннее эмоциональное беспокойство, беспокойство, временная реакция, возникающая в ответ на стресс), второе – личностная тревожность (относительно устойчивая склонность человека переживать состояние тревожности).

Состояние тревожности обычно возникает в результате когнитивной оценки угрозы в окружающей среде. Это состояние сопровождается напряжением, беспокойством и активацией вегетативной нервной системы. При понимании тревожности как процесса важное значение имеет взаимосвязь ее компонентов – когнитивных (оценка угрозы), аффективных (чувства) и поведенческих реакций.

Многие исследователи (например, Филлипс, Марлин, Майерс) считают тревожность реакцией, возникающей в результате различных форм стресса. З.Фрейд же разделяет тревожность на объективную тревогу (реальная угроза во внешнем мире) и невротическую тревогу (вследствие внутренних конфликтов личности). Состояние тревожности может усиливаться, особенно в ходе учебной

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

деятельности – при контроле знаний, экзаменах, новых ситуациях, что может снижать когнитивные способности обучающегося и ограничивать его самостоятельное мышление.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** в заключение можно сказать, что хотя современное образование направлено на развитие интеллектуального потенциала, важно организовывать этот процесс с психологической точки зрения, учитывая, в частности, состояние тревожности обучающихся. Тревожность может быть не только временным эмоциональным состоянием личности, но и ее устойчивым свойством. Она активизируется в стрессовых ситуациях, может привести к неверной оценке угрозы и снизить эффективность учебной деятельности.

Поэтому в педагогической практике наряду с обучением молодежи самостоятельному мышлению необходимо укреплять их психологическую устойчивость, разрабатывать меры, направленные на снижение уровня тревожности. Педагоги должны знать признаки тревожности и оказывать обучающимся психологическую поддержку. В дальнейшем более глубокое изучение этой проблемы, разработка специальных методик снижения тревожности в учебном процессе помогут повысить качество образования и способствовать полноценному интеллектуальному развитию молодежи.

**Ключевые слова:** интеллектуальный потенциал, самостоятельное мышление, тревожность, состояние тревожности, личностная тревожность, стресс, эмоциональное состояние, когнитивная оценка, педагогическая психология.

**Для цитирования**: Кенгешова М.М. Состояние тревоги и его теоретическое изучение. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №12. С. 544–553.

## ANXIETY STATE AND ITS THEORETICAL STUDY

© Manzura M. Kengeshova[1]✉
[1]Каракалпакский государственный университет имени Бердака, Нукус, Каракалпакстан

Annotation

**INTRODUCTION:** in the modern world, intellectual potential and the ability for independent thinking surpass military power. Contemporary socio-political life represents a distinct stage where decisive importance is given to new techniques and technologies, intellect, and thinking ability. At the same time, teaching young people to think independently and preparing them to solve problems creatively has become an important pedagogical task. However, in this process, the manifestation of anxiety in students can negatively affect their learning efficiency and personal development. Anxiety is a complex psychological phenomenon that manifests as mental tension towards reality, fear of unexpected consequences, and an unpleasant internal emotional state.

**AIM:** the purpose of this article is to provide a scientific and theoretical analysis of the essence, types, causes, and impact of anxiety in young people within the context of

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

modern education, related to the necessity of developing intellectual potential. The research aims to distinguish anxiety as a personal state and as a personal trait, and to reveal its psychological mechanisms.

**MATERIALS AND METHODS:** the study employed methods of systematic analysis, comparative analysis, and theoretical generalization. Scientific works, monographs, and articles by Russian and foreign psychologists (N.D. Levitov, Yu.L. Khanin, Ch.D. Spielberger, Z. Freud, K.K. Platonov, etc.) dedicated to the problem of anxiety were analyzed. Various definitions of anxiety, its manifestations as a state and as a stable trait, as well as its connection with stress, were examined.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the research results indicate that the issue of anxiety in psychological science is viewed as an ambiguous and multifaceted concept. There are different approaches to explaining anxiety: some authors consider it a temporary state, while others view it as a stable personality trait. As noted by Ch.D. Spielberger, the term "anxiety" is used in two primary meanings: the first is state anxiety (unpleasant internal emotional distress, unease, a temporary response arising in reaction to stress), the second is trait anxiety (a relatively stable tendency of a person to experience the state of anxiety).

State anxiety usually arises as a result of cognitive appraisal of a threat in the environment. This state is accompanied by tension, worry, and activation of the autonomic nervous system. When understanding anxiety as a process, the interconnection of its components – cognitive (threat appraisal), affective (feelings), and behavioral reactions – is of significant importance.

Many researchers (e.g., Phillips, Marlin, Mayers) consider anxiety to be a reaction resulting from various forms of stress. Z. Freud, however, divides anxiety into objective anxiety (real threat in the external world) and neurotic anxiety (resulting from internal conflicts of the individual). The state of anxiety can intensify, especially during educational activities – knowledge assessment, exams, new situations – which can reduce a student's cognitive abilities and limit their independent thinking.

**CONCLUSION:** in conclusion, although modern education is aimed at developing intellectual potential, it is crucial to organize this process from a psychological perspective, specifically considering the anxiety state of students. Anxiety can be not only a temporary emotional state but also a stable trait of an individual. It is activated in stressful situations, can lead to incorrect threat appraisal, and may reduce the effectiveness of learning activities.

Therefore, in pedagogical practice, alongside teaching young people independent thinking, it is necessary to strengthen their psychological resilience and develop measures aimed at reducing anxiety levels. Educators should be familiar with the signs of anxiety and provide psychological support to students. Further in-depth study of this problem and the development of special methodologies to reduce anxiety in the educational process will help improve the quality of education and contribute to the full intellectual development of youth.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Keywords:** intellectual potential, independent thinking, anxiety, state anxiety, trait anxiety, stress, emotional state, cognitive appraisal, educational psychology.

**For citation**: Manzura M. Kengeshova (2025) Anxiety state and its theoretical study, Inter education & global study, vol.3 (12), pp. 544–553. (In Uzbek).

**D**unyo miqiyosidagi hozirgi ijtimoiy-siyosiy hayot kishilik jamiyati taraqqiyotining ayni bosqichi shunday o‘ziga xos xususiyatga egaki unda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat aql-idrok, fikrlash, yangi texnika va texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb-etadi. Yoshlarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish tufayli ular kelgusida o‘z oldilarida vujudga kelishi kutiladigan muammolarni ijodiy ravishda hal qilish orqali xalq xo‘jaligining rivojlanishiga respublikamizning ilg`or texnologiyali jahon davlatlari qatoridan munosib o‘rin egallashiga hissa qo‘shishga erishish mumkin.

Shaxs uchun turli narsalar haqida tashvishlanish qobiliyati xosdir, bu esa uning xayotga befarq munosabatda emasligidan dalolat beradi. Biroq bu tashvishlanish ba`zida noadekvat shaklda bo‘ladi, ya`ni shaxs asoslanmagan xolda bu holatni boshdan kechiradi. Psixik holat sifatida xavotirlanish tushunchasining ko‘p qirraliligi shundan kelib chiqadiki, turli xil tadqiqodchilar “Xavotirlanish” tushunchasini turli ma`noda qullaydilar.

Xavotirlanish – bu voqelikka nisbatan ruhiy keskinlik, kutilmagan oqibatlardan qo‘rqish va ichki noxush emotsional holat sifatida namoyon bo‘ladi [2;7].

Hozirgi vaqtda psixologik adabiyotlarda xavotirlanish muammosiga umumqabul qilingan ko‘z qarash yo‘q, lekin, N.V.Imedadze ta`kidlaganidek, oxirgi yillarda ayrim tadqiqotchilar tomonidan bu shaxs nazariyasining markaziy muammosi sifatida baholanmoqda. Rus avtorlari “xavotirlanish” tushunchasini har xil qilib ochib berishadi: bu ham “shaxs xususiyati”, ham “ijtimoiy moslashganlik yoki moslashmaganlik indeksi”, xam “imkoniy (potentsial) moyillik”, “xatto bilinar bilinmas tahdid va tanglik vaziyatlarida emotsional ta`sirlanishga moyillik”, xam “qandaydir individual –differentsiallashgan surunkali holat”, ham “asosiy ustunlik qiluvchi ta`sir”, ham “salbiy emotsiya”, xam “sotsial muloqot funktsiyasidir[2;15].”

Yuqorida keltirilgan xavotirlanish ta`riflari bu terminga faqatgina har xil ko‘z qarashgina emas, balki xavotirlanish muammosini o‘rganishda murakkablikni ko‘rsatadi,

N.D.Levitov ushbu muammoga bag`ishlangan chet el adabiyotlarini ko‘zdan kechirib, B.Bassel`man, Bleyk va Mul`ton, Kettell va Sheyer, D.L`yuns, I.Myuller, Z.Freyd singari mualliflar asarlarini ko‘rsatib o‘tadi. Rus va chet el tadqiqotchilarining turli xil pozitsiyasiga qaramasdan, xavotirlanish muammosiga doir qarashlarida umumiylik borligini ko‘rish mumkin.

Ayrim mualliflar xavotirlanishni vaqtinchalik holat deb qarasa, boshqalari vaziyatga bog`liq bo‘lmagan o‘ziga xos shaxsning turg`un (barqaror) xususiyatlari sifatida, uchinchilari, turg`un shaxs xususiyatlari, lekin u namoyon bo‘ladigan vaziyatlarning o‘ziga xos xususiyatlarida alohida ta`kidlanadi.Ch.D.Spil`berger fikriga kura, xavotirlanish kontsepsiyasining noaniqligi va ko‘p qirraliligining asosiy sababi. Bu atama odamda ikki


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

asosiy ma`noda foydalaniladi. Lekin ular bir-biri bilan bog`liq[3;37]. Shu bilan birga turlicha tushunchalar sifatida qullanishadi. Ko‘pincha “xavotir” terminini yoqimsiz ichki emotsional bezalgan holat sifatida qaraladi. Bu holat esa zuriqish, notinchlik, g`amginlikni xis qilish tariqasida fiziologik jixatdan avtonom nerv sistemasining faollashuvi sifatida tavsiflanadi. Xavotirlanish holati inson muayan quzg`atuvchini o‘zida xavf, ta`ziyq, ziyon elementlari sifatida idrok qilishi natijasida kelib chiqadi. Xavotirlanish holatini insonda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan stress darajasi funktsiyasidek vaqt va intensivligi bo‘yicha o‘zgarib boradi.

Shuningdek, “xavotirlanish” atamasi insonning bu holatini boshdan o‘tkazish moyilligi kabi, nisbatan barqaror individual farqni ifoda etishi uchun xam ishlatiladi. Bunda xavotirlanish shaxs xislati ya`ni shaxs xavotirlanishi kurinishida bo‘lib, u bevosita xulq-atvorida namoyon bulmaydi.

Shaxs xislati sifatidagi shaxsiy xavotirlanish holati qanchalik tez-tez va intensiv ravishda yuzaga kelishiga qarab aniqlash mumkin. Xavotirlanish holati yorqin ifodalangan shaxs atrofimizni o‘rab turgan dunyoni xavf-xatar, qo‘rqinch, taxlika tariqasida idrok qilishiga moyilik bo‘ladi. Ko‘pincha chet ellik psixolog olimlar xavotirlanishni shaxs holati sifatida qaraydilar va shu mazmunda bir qator nazariyalarni yaratganlar.

Filipps, Marlin va Mayrs o‘z tadqiqodlari natijasida shunday fikrga keldilarki, xavotirlanish stressning turli shakllari natijasida xosil bo‘lishi mumkin. Biroq stress moxiyatini ochib berish xavotirlanish reaktsiyalari xamda uning mexanizmlari tabiyatini yoritishda ular nuqtai nazarini egallaydiuan.

Filipps va uning xamfirklarining takidlashlaricha, emotsional holatga o‘tuvchi xavotirlanish bilan shaxsning nisbatan barqaror xislati sifatidagi xavotirlanish o‘rtasida kontseptual farq mavjud [4;26]. Bunday farqni Kettall va Sheyer ham o‘z tadqiqotlarida aniqlab bergan edilar. Hozirgi davrgacha muommoning ushbu tomoniga yanada kuproq e`tibor qaratib kelinmoqda. Xavotirlanishni holat hamda xususiyatga ajratish Kettall va Spil`berger ishlarida yaqqol aks ettirilgan. Ushbu muammo I.G.Serazan ishlarida xam markaziy urinlardan birini egallaydi. Olimning fikricha bilimlarni nazorat qilish jarayonida namoyon bo‘ladigan xavotirlanish bunday vaziyatda shaxsning xavotirni xis qilish moyilligi kabi individual farqda o‘z aksini topadi. Xavotirni holat va xususiyatga ajratish Bekning stressga nisbatan sezgirlik kabi shaxs xislati psixosomatik simptomlarining rivojlanishida muxim omil ekanligi haqidagi taxminida xam ko‘zatiladi. Bekning takidlashicha, xavotirlanish holati bilan bog`liq bo‘lgan psixofiziologik bo‘zilishlarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Demak, ko‘pchilik tadqiqodchilar aynan stress xavotirlanish holatini yuzaga keltiradi deb xisoblaydilar. Bundan tashqari xavotir va boshqa emotsional holatlarining faollashuvida kognitiv omillar xal qiluvchi axamiyatga ega. Xavotirlanish holatining yuzaga kelishidan xavfni kognitiv baxolash birlamchi bug`in hisoblansa, xavfni kognitiv tarzda ortiqcha baxolash bunday holatlarning intensivligi hamda vaqt jixatidan barqarorligini baholaydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ba`zi tadqiqotchilar xavotirlanishni turli tuman tarkibiy qismlardan tuzilgan murakkab jarayon deb qaraydilar. Xavotirlanishni shaxs xususiyati va holati sifatida farqlash uni jarayon tariqasida tushunishni talab qiladi. Ushbu yondashuvda xavotirlanish chet el psixologlari tomonidan kognitiv affektiv va hulq-atvor reaktsiyalarining izchilligi bo‘lib, ular stressning turli shakllarining insonga ta`siri natijasida faollashadi deb qaraladi. Xavfni kognitiv baxolash xavotirlanish holatining vujudga kelishiga olib keladi yoki bu holat intensivligi darajasini oshirib yuboradi.

Shunday qilib, xavotirlanish holati umumiy xavotirlanish jarayoni tarkibiga kiradi. Vujudga kelgan xavotirlanish stress vaziyatlarini ortiqcha baxolash jarayoni bilan kechadi. Vaziyatni ortiqcha baxolash esa stress kechinmalarini yumshatish imkonini beruvchi muaiyan mexanizmlarni tanlashga yordam beradi. Shuningdek, u xavotirlanishni hosil qiluvchi shaxsni vaziyat chegarasidan tashqariga chiqish, undan qochish mexanizmlarini faollashtiradi. Agar stressdan qochish yoki uni bartaraf etish imkoni mavjud bo‘lmasa, xavotirlanish holatini kamaytirish vazifasini bajaruvchi psixologik ximoya mexanizmlari ishga tushadi. Bu mexanizmning tarkibiy qismlari engish**,** inkor etish proektsiya va shu kabilar xavotirni keltirib chiqaruvchi idrok etishini buzub kursatadi.

Psixolog Z Freyd bo‘yicha ob`ektiv xavotir tushunchasi o‘z ichiga tashqi dunyodagi xavfning real vaziyatini qamrab oladi. Bu vaziyat shaxs tomonidan taxlika xavf-xatardek idrok etiladi. Xavfni idrok etish esa, emotsional reaktsiya xosil qiladi. Nevrotik xavotir ob`ektiv xavotirdan shu bilan farq qiladiki, xavf-xatar manbai tashqi dunyoda emas, balki shaxsning o‘zida, uning ichki dunyosida mavjud bo‘ladi. Freydning ta`kidlashicha, bu xavf-xatar manbai bolalikda boshdan kechirilgan agressiv va seksual mayllardir [5;93]**.**

Xavotirlanishni jarayon sifatida tavsiflashda nafaqat stress va xavotir holatini aniq farqlansh, shu bilan birga taxlika xavf-xatar tushunchasini psixologik reallik sifatida qarash ham ahamiyatlidir.

Yu.L.Xanin, I.P.Volkov, V.V.Davidov, P.A.Jarov, I.S.Kon, B.R.Anan`ev kabi rus psixologlari xavotirlanish holatida namoyon bo‘luvchi turli xodisalarni ifodalashda stress va xavotir tushunchalarini qo‘llashni taklif etadilar [2;7].

Xavotir tushunchasi stress reaktsiyalarini keltirib chiqaruvchi stimul sharoitlarni, emotsional reaktsiyalarni xosil qiluvchi omillar, shuningdek, motor xarakat o‘zgarishlar bilan o‘zaro munosabatini belgilash uchun qullanilishi lozim.

Yu.L.Xanin “stress” terminini muayyan vaziyatda qo‘zg`atuvchining xususiyati bilan bog`liq bo‘lgan ob`ektiv havfning kuchli yoki uning tarqalish darajasini ifodalash uchun qo‘llashni taklif etadi [1;42]. “Stress” termini faqat muayyan psixologik va jismoniy xavf darajasi bilan xarakterlanuvchi atrof muhit sharoitlarini ifodalashda foydalaniladi.

Ob`ektiv ravishda stress holatidek qabul qilinadigan sharoitlar ko‘pchilik kishilar tomonidan taxlika xavf-xatar tarzida baholanadi. Bu vaziyatning sub`ektiv baholanishiga bog`liq bo‘ladi. Ba`zida stress holatiga tegishli bo‘lmagan vaziyatlar sub`ekt tomonidan taxlika xavf deb baholanishi mumkin.

V.V.Davidov, Yu.L.Xanin ta`kidlashicha “xavotir holati” terminini muayyan vaziyatda ob`ektiv xavf mavjud yoki mavjud emasligidan qat`iy nazar insonda vaziyatni,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

xavfni taxlikalidek idrok qilish natijasida yuzaga keluvchi emotsional holatlar yoki muayyan reaktsiyalar majmuyini aks ettirish uchun qo'llanilishi kerak. Agar inson vaziyatni havflidek baholasa, undu u xavotir holatining kuchayib borayotganini xis qiladi. Bu holat esa o'z mohiyatiga ko'ra negativ emotsional holat bo'lib, zo'riqish, xavfsirash, notinchlik hislarini o'z ichiga oladi hamda nerv sistemasining faoliyatini oshishi bilan birga kechadi [2;16]. Xavotirlanish holatini uni tashkil etuvchi reaktsiyalar xususiyatlari asosida tulaqonli batafsil aniqlanishi mumkin. V.A.Chikker va K.D.Shefronskaya singari avtorlar ko'rsatishicha "xavotirlanish–har qanday shaxsiy omadsizliklarning asosiy faktorlaridan biri"[3;45]. K.K.Platonov xavotir, xavotirlanish namoyon bo'lishini turli havfga emotsional ta`sirning bir shakli sifatida yozadi. G.Shumkov, hali yapon rus urushi vaqtida "xavotirlanish kutilishi" va "qo'rqinch" tushinchalarini ajratgan edi. "Havotir" deb ko'rsatadi u, - bu ham kutish, ammo bizni qiziqtiradigan, o'zining oxirida- bu yoqimlimi yoki yoqimsiz bo'ladimi , biz uchun ma`lum bo'lmagan, qo'zg`atadigan, hayajonlantiradigan hodisani kuzatilishi sifatida ko'rsatiladi [2;17].

N.D.Levitov ta`kidlaydiki, tinchsizlanish, xavotirni mumkin bo'lgan yoki kutiladigan ko'ngilsizliklarida, chorlanadigan, odatiy sharoitga va faoliyatda o'zgarishlarda spetsifik kechinmalarda va reaktsiyada ifodalanadigan psixik holat sifatida ta`kidlash mumkin" [2;19].

Tahlil qilinayotgan savolni jamlagan adabiyotlar tahlili asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, xavotirlanish vaqtinchalik emotsional holat emas va u faqat qo'rqinchga olib bormaydi. Bu shaxsning etarli darajada barqaror holati bo'lib, boshqa psixik holatlar singari juda murakkab va bir xil bo'lmagan reaktsiyalar va motivlarga insonning xulqi, hatto ushbu reaktsiya va motivlarning o'ziga xosligi sifatida ko'rinadi.

"Xavotirlanish" tushunchasining har xil izohlanishiga qaramasdan, barcha mualliflar bu shaxsning zamonaviy psixologiyasining murakkab muammolaridan biri va buni o'rganishning zarurligiga diqqat qaratadi.

Yuqorida keltirilganlardan, shunday xulosa chiqarish mumkinki, xavotirlanish holatini o'rganish shaxsni o'rganishdan ham muhim aspekt hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Бандура А. Теория социального научения. – Санкт-Петербург: Питер, 2021.
2. Прихожан А. М.Тревожность у детей и подростков: психологическая природа и возрастная динамика. — М.: НПО «МОДЭК», 2000. — 304 с.
3. Спилбергер Ч.Д. Тревога как состояние и личностная свойство. – М.: Психология, 2012.
4. Филипс Л. Диагностика школьной тревожности. – М, 1997.
5. Фрейд З. Бессознательное. – М.: АСТ, 2019.
6. B.X.Nurmuxamedov. Qadriyatlar tushunchasi va uning ijtimoiy-psixologik negizlari // Inter Education & Global Study. 2025. №4. URL:

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

https://researcher.uz/article/qadriyatlar-tushunchasi-va-uning-ijtimoiy-psixologik-negizlari-553400
7. H.N. Abdiyev. O‘quvchilar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda mantiqiy masalalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyati // Inter Education & Global Study. 2025. №4. URL: https://researcher.uz/article/o-quvchilar-ijodiy-qobiliyatini-rivojlantirishda-mantiqiy-masalalardan-foydalanishning-o-ziga-xos-xususiyati-411644
8. А.Н. Исматуллоев. Психологические механизмы мотивационных факторов в когнитивной активности личности студента // Inter Education & Global Study. 2025. №10. URL: https://researcher.uz/article/psihologicheskie-mehanizmy-motivatsionnyh-faktorov-v-kognitivnoy-aktivnosti-lichnosti-studenta-246440

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Kengeshova Manzura Maxmud qizi**, Berdaq nomidagi Qoraqolpoq Davlat Universiteti Psixologiya(psixologiya faoliyat turlari bo’yicha)yo’nalishi 1-bosqich magistranti, [**Кенгешова Манзура Махмуд кизи,** Каракалпакский государственный университет имени Бердака направление психологии(психология по видам деятельности)магистрант 1 ступени], [**Manzura M.Kengeshova**, Karakolpak State University named after Berdaq master's degree in Psychology (psychology by type of activity)]; manzil: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri, Akademik Charjoy Abdirov ko‘chasi, 1- uy, pochta indeksi: 230112 [адрес: Каракалпагистан, ул. А.Ч.Абдиров, 1, г. Нукус], [address: Qaraqalpag’istan, 1, Akademik Charjoy Abdirov st., Nukus city]

Muassis: Buxoro davlat pedagogika instituti
Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 08 avgust №-111889-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2024 yil 31 yanvardagi 350-son qaroriga asosan pedagogika, san’atshunoslik, psixologiya, fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxati” ga kiritilgan https://oak.uz/pages/4802

Jurnal 2023 yilda tashkil etilgan bo‘lib bir yilda 8 marta o‘zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi. Pedagogika, psixolgiya, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan ilmiy jamoatchilikni ilm-fan natijalari bilan tanishtirish; ilm-fan rivojlantirishning dolzarb masalalariga tadqiqotlarining ustuvor yo‘nalishlari doirasida olib borilgan ilmiy ishlarning asosiy natijalari to‘g‘risida ma’lumot berish; yangi istiqbolli loyihalar va texnologiyalarni joriy etish; ta’lim va tarbiya bilan bog‘liq nazariy va amaliy ishlar; fan va ta’limning innovatsion rivojlanishi; fundamental va amaliy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash uchun qulay axborot muhitini yaratishning asosiy ilmiy natijalarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, zamonaviy ta’limning muammo va paradigmalarini o‘rganish, rivojlantirish va amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha nazariy tavsiyalar berishdan iborat. Nashr qilingan materiallardan O‘zbekiston Respublikasi hamda xorijning yetakchi olimlari, tadqiqotchi izlanuvchilar foydalanishi ko‘zda tutilgan.

Jurnalning kalit so‘zlari:
Oliy pedagogik ta’lim nazariyasi va amaliyoti; umumiy va maxsus pedagogika, psixologiya va san’atshunoslik; pedagogika va innovatsiya, integratsiya; O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimi; ta’lim jarayoni; ko‘p madaniyatli va mintaqaviy ta’lim; III Renessans, XXI asrdagi ta’lim; ta’lim va tarbiya sohasidagi milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar; ta’lim sifatini monitoring qilish; ta’lim dasturlari; oliy, umumiy o‘rta va professional ta’limining davlat ta’lim standartlari; o‘qituvchilarni tayyorlash tizimidagi ta’lim texnologiyalari.

Guvohnoma raqami №-111889
Mas’ul kotib: Toshpulatov F.U.
30.12.2025

Учредитель: Бухарский государственный педагогический институт
Журнал зарегистрирован Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан свидетельством №111889 от 08 августа 2023 года.

Журнал включен в список национальных изданий, рекомендованных для публикации основных научных результатов диссертаций кандидатов на соискание ученой степени доктора философии (PhD), доктора наук (DSc). Согласно решению Президиума ВАК РУз от 31 января 2024 г. №350. По направлении педагогики, искусствоведение и психологии https://oak.uz/pages/4802

Журнал был основан в 2023 году и выпускается в год 8 раз на узбекском, русском и английском языках. Он предназначен для ознакомления научного сообщества с результатами научных исследований соискателей ученых степеней доктора философии (PhD) и доктора наук (DSc) в областях педагогики, психологии и искусствоведения. Журнал информирует о ключевых научных достижениях, проводимых в рамках приоритетных направлений исследований, касающихся актуальных вопросов развития науки. Также в нем рассматриваются новые перспективные проекты, технологии и идеи, связанные с образованием, воспитанием, инновациями, а также созданием благоприятной информационной среды для поддержки фундаментальных и прикладных исследований. Журнал также предлагает теоретические рекомендации по изучению, разработке и внедрению современных подходов к образованию. Материалы, опубликованные в журнале, предназначены для ведущих ученых и исследователей из Республики Узбекистан и других стран, и направлены на стимулирование дальнейших исследований, развитие науки и образования.

Ключевые слова журнала:
Теория и практика высшего педагогического образования; общая и специальная педагогика, психология и искусствоведение; педагогика и инновации, интеграция; система образования Узбекистана и зарубежных стран; образовательный процесс; мультикультурное и региональное образование; образование эпохи Возрождения, XXI веке; национальные и общечеловеческие ценности и ценности в сфере образования и воспитания; мониторинг качества образования; образовательные программы; государственные образовательные стандарты высшего, среднего и профессионального образования; образовательные технологии в системе подготовки педагогических кадров.

Идентификационный номер №-111889
Ответственный редактор: Тошпулатов Ф.У
30.12.2025

Founder: Bukhara State Pedagogical Institute
The journal is registered by the Agency of Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan with certificate No. 111889 dated August 8, 2023.

The journal is included in the list of national publications recommended for publishing the main scientific results of dissertations of candidates for the degree of Doctor of Philosophy (PhD), Doctor of Science (DSc). According to the decision of the Presidium of the Supreme (Higher) Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan dated January 31, 2024 No. 350. In the direction of pedagogy, art science and psychology https://oak.uz/pages/4802

The journal was founded in 2023 and is published 8 times a yeain Uzbek, Russian and English. It is intended to familiarize the scientific community with the results of scientific research of applicants for the degrees of Doctor of Philosophy (PhD) and Doctor of Sciences (DSc) in the fields of pedagogy, psychology and art history. The journal informs about key scientific achievements carried out within the framework of priority research areas related to topical issues of science development. It also examines new promising projects, technologies and ideas related to education, upbringing, innovation, as well as the creation of a favorable information environment to support fundamental and applied research. The journal also offers theoretical recommendations on the study, development and implementation of modern approaches to education. The materials published in the journal are intended for leading scientists and researchers from the Republic of Uzbekistan and other countries, and are aimed at stimulating further research, the development of science and education.

Key words of the journal:

Theory and practice of higher pedagogical education; general and special pedagogy, psychology and art criticism; pedagogy and innovation, integration; education system of Uzbekistan and foreign countries; educational process; multicultural and regional education; Renaissance education, XXI century; national and universal values and values in the field of education and upbringing; monitoring the quality of education; educational programs; state educational standards of higher, secondary and vocational education; educational technologies in the system of teacher training.

Identification number№-111889
Managing editor: Toshpulatov F.U.
30.12.2025



2992-9024
ISSN

